



ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№5

ТА’LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



**№5/2024
MAY**

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lif MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov
Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro
davlat pedagogika instituti rektori

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti rektori

Mas'ul kotib: Akramova
Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov
Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021
yil30 sentyabrdagi 306/6-son
Qarori bilan **PEDAGOGIKA**,

PSIXOLOGIYA,
FILOLOGIYA, TARIX
FANLARI bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktori
(DSc) ilmiy darajasiga
talabgorlarning dissertatsiya
ishlari yuzasidan asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:
10.06.2024 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida
chop etildi. Buxoro shahar
<https://interscience.uz/> saytida
joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305
raqami bilan O'zbekiston
Ommaviy axborot vositalari davlat
ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va
2 oyda 1 marta chop etildi.
2021 yil noyabr oyidan boshlab
har oyda 1 marta o'zbek, rus va
ingлиз tillarida chop etiladi

«Ta'lif va innovation
tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-
metodik jurnalidan ko'chirib
bosish tahririyatning roziligi bilan
amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning
to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir

| 07.00.00 – TARIX FANLARI | |
|--|-----|
| Azimova F.S. Dashti qipchoqdagi siyosiy-etnik jarayonlarning zarafshon vohasi toponimikasida aks etishining o'rganilishi. | 3 |
| Berdiyev A. A. Minglar sulolası davrida Qo'qon xonligining qo'shni davlatlar bilan tashqi diplomatik aloqlari | 8 |
| Ikromjonov A. M. Faxruddin o'zjandiying hayoti va ilmiy faoliyati | 18 |
| Kenjayev N. J. Kattaqo'rg'on shahri tashkil topishi tarixi. | 23 |
| Mamanov M. D. Buxoro amirligi davrida samarqand bekliginingning iqtisodiy hayoti. | 27 |
| Murodov H. S. Sovetlar davrida turizmning rivojlanishi va muammolari (O'zbekiston misolida) | 31 |
| Qo'yiliyev R. M. Qarshi shahridagi qo'rg'oncha jome' masjidi: o'rganilish va ta'mirlanish tarixi | 42 |
| 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI | |
| Abdullaeva G. G. Are self-confident students successful in language learning? | 47 |
| Abdurahmonova A. A. Tinish belgilarining mantiqiy xususiyatlarini tadqiq qilish | 51 |
| Ahmadalieva M. Sh. Lirik kechinma tabiatida "men" tushunchasi talqini | 54 |
| Alimova K. 2000-yillar amerika kampus romanlarining tasnifi | 57 |
| Baisov A. Hikoyada mavzu va g'oya birligi modifikatsiyasi | 61 |
| Baymuradova L. K. 10.00.00 – Filologiya fanlari tilshunoslikda nutqiy faoliyat va nutqiy strategiyaning pragmatik ifodasi tahlili | 65 |
| Bobomurotova S. R. Ogahiyuning "ta'viz ul-oshiqin" devonida diniy leksika | 71 |
| Ergashev A. H. Rus va o'zbek esselarida qo'llaniladigan stilistik vositalarning tasnifi | 76 |
| Haydarov A. A. Ingliz va o'zbek tillarida taqlidiy so'zlarning uslubiy o'ziga xosligi | 80 |
| Ibragimov X. Badiiy nutq va til munosabati | 84 |
| Ikramova M. Dramatik matnda tarixiy koloritni ifodalovchi onomastik birliklarning lingvopoetik tahlili | 88 |
| Latipova S. Sh. Badiiy adabiyotshunoslikdagi detektiv janr tushunchasi va ularda uchraydig'an "qotil obrazi" ("Choqintirgan ota" asari misolida) | 91 |
| Mamajonov M. Y. Muloqotda o'zaro muvofiqlikning psixolingvistik tahlili | 97 |
| Mirsagatova U. Z. Rus tilida quvonchga oid sinonim so'zlarning tasniflanishi | 101 |
| Mukaddas Israil. Sho'golap davrida gazeta-publisistik uslubi: sotsiolingvistik yondashuv | 104 |
| Мякота Б. В. Индивидуальная стратегия освоения сравнения в онтогенезе | 109 |
| Pirnazarova D. Kognitiv tilshunoslikda geshtalt tushunchasi va uning she'riy matnlarda voqelanishi | 114 |
| Rasulova A. M. To'siqsizlik holi va uning ifodalanishi | 117 |
| Ro'zmetova M. Biznes ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt | 120 |
| Saidova R. B. Abdulla oripov ijodida she'r va shoirlik masalasi talqniga doir | 126 |
| Saydamatova D. X. Korpus tushunchasi va korpus lingvistikasi haqida signallar spektrlarini labwiev dasturida modellashtirish | 130 |
| Toshtemirova A. S. The usage of paralinguistic means in the english and uzbek languages | 134 |
| Umurov I. E. Parafrazalar lingvistikaning tekshirish obyekti sifatida | 139 |

| | |
|---|-----|
| Xakimbayeva O. K. Ingliz va o'zbek paremiyalarida genderning tutgan o'rni va ahamiyati | 143 |
| Xamidova N. Y. Fransuz tilidagi quvonchga oid so'zlarining lingvistik tahlili | 147 |
| Yuldasheva M. A. Badiiy matnda intertekstuallik hodisasi va intertekstual elementlar | 150 |
| Yuldasheva M. Z. "Bald on record" strategiyasining xushmuomalalik tamoyilini ifodalanishdagi ahamiyati (tohir malik asarlari tahlili asosida) | 155 |
| Шаропова Н. Б. Творчество Худайберды Тухтабаева в аспекте перевода на русский язык | 160 |
| Boboyarova D. F. O'zbek va ingliz tillarida qo'l harakati fe'lllarining semantikasi | 164 |
| Muminova N. S. Paremiyalarda "haqiqat" tushunchasining konseptual tadqiqiga doir | 167 |
| Nasrullaeva G. S. Badiiy matnlarda metaforalarning ifodalanish darajalari | 171 |
| Nurmatova S. E. Lingvosematik modellarning pragma kognitiv tadqiqi va ularni nazariy asoslari | 174 |
| Ro'zieva N. O'zbek va ingliz nasriy matnlarlarda metaforalarning ifodalanishi | 179 |
| Shukurova Z. B. O'zbek va rus tillarida metafora hosil qiluvchi lisoniy birliklarning kognitiv-pragmatik tahliliga doir | 183 |
| Norova N., Mustafoyeva N "Lison ut-tayr" va "Qush yo'li" dostonidagi qushlar timsolining qiyosi | 188 |
| 19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI | |
| Aktamov Sh. R. Sharq mutafakkirlarining liderlik xususidagi qarashlari | 193 |
| Aminova G. N. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini tadqiq qilishning empirik asoslari | 198 |
| Atadjanov M. Y. O'zbeklar milliy psixologik qiyofasining shakllanishida islom omili | 202 |
| Baybayeva M. X., Sultonova L. A. Maktab direktorlarining boshqaruvi faoliyatini baholashda konseptual yondashuvlar | 205 |
| Botirova N. B. Xristianlik dinida sabr fenomenining diniy-psixologik jihatlari | 210 |
| Dushanova S. M. Psixologiyada er-xotin munosabatlarini o'rganish muammolari | 215 |
| Fayzullayev M. M. O'smirlarning psixologik savodxonlik strategiyalarini o'rganish | 219 |
| Islamova U. M. Human psyche in jane austen's novel "emma" | 225 |
| Исламова З. Р. Научные основы педагого-психологической компетентности педагогов дошкольного образования | 230 |
| Исмайлова Р. Н. Влияние насилия над мужчиной в семье на психологическое благополучие ребенка | 234 |
| Jovliyeva N. U. Defitsitar motivlar namoyon bo'lishining psixologik mazmun-mohiyati va asoslari | 237 |
| Jurayeva D. A. Psixolingvistikaning paydo bo'lishidan oldingi psixolingvistik g'oyalar | 240 |
| Комилова М. Методическое и дидактическое обеспечение при обучении детей с ограниченными возможностями здоровья | 245 |
| Mamataliyeva M. Ta'lim transformatsiyasi sharoitida talabalarning kreativligini rivojlantirish. | 251 |
| Mannabova E. B. Hayotiy bardoshlilikni shakllantirishning o'tmishtagi manbalarda talqin etilishi | 254 |
| Muminova M. M. Xorijiy tilni o'qitishda kommunikativ metodning o'rni | 258 |
| Nurmatova S. E. Lingvosematik modellarning pragma kognitiv tadqiqi va ularni nazariy asoslari | 262 |
| Насибуллов К. И. Возможность постсекулярного поворота в современной психологии: взгляд исследователя психологии ислама | 267 |
| Пронин Р. О. Особенности развития восприятия в профессиональном контексте | 272 |
| Ramazonov Z. O. Kursantlarda irodaviy sifatlarni shakllanishiga shaxs individual psixologik xususiyatlarining ta'siri | 275 |
| Рузметова Х. А. Теоретические аспекты эвалюации как инновационного оценивания и повышения качества образования. | 279 |
| Sayfulloeva A. G. O'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasining ijtimoiy- psixologik xususiyatlari | 282 |

| | |
|--|-----|
| Tillayeva N. I. Talabalarni oliy o'quv yurtidagi o'quv faoliyatiga moslashish muammolari. | 287 |
| Tojieva N. T., Elov Z. S. Sud psixologik ekspertizasining tarixi va bugungi jarayon. | 290 |
| Umarova I. B. Yosh oilalarda yetakchilikni ayol tomonidan boshqarishda muammoli vaziyatlarning kelib chiqishi | 293 |
| Usmanova S. A. O'smirlik davrida o'zini-o'zi anglashning psixologik xususiyatlari | 296 |
| Vaxobov A. A. Zamonaviy o'qituvchi qiyofasida deontologik kompetensiyani rivojlantirish | 301 |
| Yuldasheva M. B., Karimjonova M.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy-emotsional salomatligi | 305 |
| Davronova D. S. Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishdagi roli | 317 |



TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Republikasi Fanlar akademiyasi akademigi.

Shamsutdinov Rustambek Temirovich, Andijon davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori

Majidov Inom Urushevich, texnika fanlari doktori, professor. O'zbekiston milliy universiteti

Olimov Qahramon Tanzilovich, pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Musurmonova Oyniso, pedagogika fanlari doktori, professor

Safarov Rohat G'aybulloyevna, pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Republikasi Fanlar akademiyasi akademigi.

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

XORIJ OLIMLARI

Artamonova Yekaterina Iosifovna, pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti

Yemelyanova Irina Yevgeneyevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika universiteti. Rossiya

Kuzmenko Galina Anatolevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti

Safaraliyev Bozor Safaraliyevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi

Kulishov Vladimir Vasilevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

Lazarenko Irina Rudolfovna, pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya

Filippova Oksana Gennadevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika universiteti. Rossiya

Xristo Kyuchukov, pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti. Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya

Kumskov Mixail Ivanovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, akademik, psixologiya fanlari doktori, professor. Ukraine Milliy pedagogika fanlari akademiyasining akademigi

Padalka Oleg Semenovich, pedagogika fanlari doktori, professor. M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina

Hazretali Tursun, tarix fanlari doktori, professor, Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori

Mamedova Irada, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i

Timur Xo'jao'g'li, tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)

Nurettin Hatunoğlu Doç. Dr., Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)

Mullodjanov Sayfulllo Kuchakovich, tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti

Gushko Sergey Vladimirovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

O'ZBEKISTON OLIMLARI

TARIX FANLARI

Inoyatov Sulaymon Inoyatovich, tarix fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti

Azamat Zairo, tarix fanlari doktori, akademik, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori

Rajabov Qahramon Kenjayevich, tarix fanlari doktori, professor; O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi

Rashidov Oybek Rasulovich, tarix fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI

Madjidova Ra'no Urishevna, filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharipova Laylo Frunzeyevna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

Nigmatova Lolaxon Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

Yusupova Hilola O'ktamovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

Akramova Surayo Renatovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doytori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

PEDAGOGIKA FANLARI

Tolipov O'tkir Qarshiyevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti

Dilova Nargiza Gayullaevna, pedagogika fanlari doktori DSc, professor. Buxoro davlat universiteti

Tilanova Matlab Muxammadovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

Sohibov Akram Rustamovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti

Umarov Baxshullo Jo'rarevich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

Hasanova Gulnoz Qosimovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

Inoyatov Abdullo Shodiyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti

Davronov Nurzod Ismoilovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov Baxriddin Mingbayevich, psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti

Bafayev Muxiddin Muxammadovich, psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

IQTISODIYOT FANLARI

Kurolov Kobuljon Kulmanovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori

Mamanazarov Abduxakim Bozorovich, pedagogika fanlari doktori DSc. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali

FALSAFA FANLARI

Namozov Bobir Bahriyevich, falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

BIOLOGIYA FANLARI

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor. Buxoro davlat pedagogika instituti

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

Джусаев Рисбай Хайдарович, доктор педагогических наук, академик АНРУз

Шамсутдинов Рустамбек Темирович, профессор Андижанского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук

Мажидов Ином Урушевич, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека

Олимов Каҳрамон Танзилович, доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена

Таджихоҳдаев Зокирхужса Абдусатторовиҷ, доктор технический наук, профессор

Мусурмонова Ойниса, доктор педагогический наук, профессор

Сафарова Роҳат Гайбуллоевна, доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи

Ибрагимов Ҳолбай Ибрагимович, доктор педагогических наук, академик АНРУз

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ

ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

Артамонова Екатерина Иосифовна, доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук

Емельянова Ирина Евгеньевна, доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия

Кузьменко Галина Анатольевна, доктор педагогических наук, профессор. Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья

Сафаралиев Бозор Сафаралиевич, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии

Кулишов Владимир Васильевич, доктор педагогических наук, профессор. Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина

Лазаренко Ирина Рудольфовна, доктор педагогических наук, профессор. Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия

Филиппова Оксана Геннадьевна, доктор педагогических наук, профессор. Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия

Христо Кючуков, доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии.

Редактор Международного журнала психолингвистики и социолингвистики, Германия

Күмсков Михаил Иванович, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова

Максименко Сергей Дмитриевич, академик, доктор психологических наук, профессор. Академик Национальной академии педагогических наук Украины

Падалка Олег Семенович, доктор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина

Хазретали Турсын, доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави

Мамедова Ирада, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана

Тимур Ҳужаугли, лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)

Nurettin Hatunoğlu, Assos. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)

Муллоэсапов Сайфулло Кучаковиҷ, доктор исторических наук, профессор. Национальный университет Таджикистана

Гущко Сергей Владимирович, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина

УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

История

Иноятов Сулаймон Иноятович, доктор исторических наук, профессор. Бухарский государственный университет

Азamat Зиё, доктор исторических наук, академик, директор Института истории Академии наук Узбекистана

Раджабов Каҳрамон Қенжасевич, доктор исторических наук, профессор, главный научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана

Ойбек Расулович Рашидов, доктор исторических наук. Бухарский государственный университет

Филология

Маджидова Рано Уришевна, доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков

Шарипова Лайло Фрунзеевна, доктор филологических наук. Бухарский государственный университет

Нигматова Лолаҳан Ҳамидовна, доктор филологических наук. Бухарский государственный университет

Юсупова Хилола Уқитмовна, кандидат филологических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт

Акрамова Сурај Ренатовна, доктор философских наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт

Педагогика

Толипов Уткир Каршиевич, доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.

Олимов Ширинбай Шарофович, доктор педагогических наук, профессор. Бухарский государственный университет

Тилашова Матлаб Мұхаммадовна, кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт

Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор. Бухарский государственный университет

Сохібов Акрам Рустамович, кандидат педагогических наук, доцент. Каршинский государственный университет

Умаров Баҳшулло Ҷусураевиҷ, кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт

Хасанова Гулноз Қасимовна, кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт

Иноятов Абдулло Шодиевиҷ, доктор философских наук (PhD) по педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет

Дағронов Нуздод Исломович, PhD по педагогическим наукам, доцент. Бухарский государственный педагогический институт

Психология

Умаров Баҳрийдин Мингбаевиҷ, доктор психологических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет

Бафаев Мухиддин Мұхамадовиҷ, PhD по психологическим наукам. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Экономика

Куролов Кобулжон Қулманович, доктор экономических наук, профессор. Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова

Маманазаров Абдуҳаким Бозоровиҷ, доктор педагогических наук (DSc), доцент. Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова

Философия

Намозов Бобир Багриевич, доктор философских наук. Бухарский государственный университет

Биология

Артикова Ҳафиза Тоймуродовна, доктор биологических наук, профессор. Бухарский государственный педагогический институт



EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL

Risboy Haydarovich Djuraev, doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Rustambek Temirovich Shamsutdinov, professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences

Inom Urushevich Majidov, doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.

Kahramon Tanzilovich Olimov, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after Al Gertsen

Zokirkhoja Abdusattorovich Tadjikhodjaev, doctor of Technical Sciences, Professor

Oyniso Musurmonova, doctor of pedagogical sciences, professor

Rohat Gaybulloevna Safarova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.

Kholboy Ibragimovich Ibragimov, doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

MEMBERS OF EDITPRIAL COUNCIL

Ekaterina Iosifovna Artamonova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences

Irina Evgeneevna Emelyanova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia

Galina Anatolevna Kuzmenko, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health

Bozor Safaralievich Safaraliev, doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy

Vladimir Vasilevich Kulishov, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine

Irina Rudolfovna Lazarenko, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia

Oksana Gennadevna Filippova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia

Christo Kyuchukov, doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany

Mikhail Ivanovich Kumskov, doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University

Sergey Dmitriyevich Maksimenko, academician, doctor of psychological sciences, professor. Academician of the National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine

Oleg Semenovich Padalka, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine

Tursun Hazretili, doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi

Khuzhaugli Timur, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)

Hatunoğlu Nurettin, Assoc. Dr., Zonguldak Bülent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)

Mullojanov Sayfullo Kuchakovich, doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan

Gushko Sergey Vladimirovich, doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN

History

Inoyatov Sulaimon Inoyatovich, doctor of Historical Sciences, Professor. Bukhara State University

Azamat Zyo, doctor of Historical Sciences, Academician, director of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rajabov Kakhramon Kenjayevich, doctor of Historical Sciences, Professor; main researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rashidov Oybek Rasulovich, doctor of Historical Sciences. Bukhara State University

Philology

Majidova Rano Urushevna, doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages

Sharipova Laylo Frunzeyevna, professor, Doctor of Philology. Bukhara State University

Nigmatova Lolaxon Xamidovna, doctor of Philology. Bukhara State University

Yusupova Khilola Oktamovna, candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute

Akramova Surayo Renatovna, doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

Pedagogy

Tolipov Utkir Karshiyevich, doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Olimov Shirinboy Sharofovich, doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University

Tilavova Matlab Muhammadovna, candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

Dilova Nargiza Gaybullayevna, doctor of pedagogical sciences (DSc), Professor. Bukhara State University

Sohibov Akram Rustamovich, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University

Umarov Bakhshtullo Djurayevich, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

Khasanova Gulnoz Kasimovna, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Bukhara State Pedagogical Institute

Inoyatov Abdullo Shodievich, doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University

Davronov Nurzod Ismoilovich, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

Psychology

Umarov Bakhriddin Mingbayevich, doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University

Bafaev Muhiddin Mukhammadovich, PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Economy

Kurolov Kobuljon Kulmanovich, doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

Mamanazarov Abdughakim Bozorovich, doctor of pedagogical sciences (DSc), associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov

Philosophy

Namozov Bobir Baxriyevich, doctor of Philosophy. Bukhara State University

Biology

Artikova Khafiza Tuymurodovna, doctor of Biological Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

07.00.00 – TARIX FANLARI

DASHTI QIPCHOQDAGI SIYOSIY-ETNIK JARAYONLARNING ZARAFSHON VOHASI TOPONIMIKASIDA AKS ETISHINING O'RGANILISHI

Azimova Farangis Shokirovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Dashti Qipchoq aholisi va sulola a'zolarining o'lkamizga kelib o'rashishi, hukmronlikka asos solinish jarayonlari, sulola a'zolari tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy sohadagi amallar hamda Qipchoqlarning Zarafshon hududi toponomikasiga bugungi kundagi ta'siri bayon etib beriladi.

Kalit so'zlar: Urug', etnik jarayon, etnonim, qabila birikmalari, toponimlar, siyosiy-etnik jarayon.

ИЗУЧЕНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ПОЛИТИКО-ЭТНИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ДАШТИ КИПЧОКЕ В ТОПОНИМИКЕ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА

Азимова Фарангис Шокировна,

Шароф Рашидова Самаркандский государственный университет докторант (PhD)

Аннотация. В данной статье описывается расселение дашти кипчаков и членов династии в нашей стране, процессы установления правления, действия в социальной сфере, осуществляемые членами династии, а также влияние кипчаков на топонимику Зарафшанского региона сегодня.

Ключевые слова: Семя, этнический процесс, этноним, племенные объединения, топонимы, политico-этнический процесс.

THE STUDY OF THE REFLECTION OF THE POLITICAL-ETHNIC PROCESSES IN DASHTI KIPCHOK IN THE TOPOONYMICS OF ZARAFSHAN OASIS

Azimova Farangis Shokirovna,

Sharof Rashidov Samarkand State University doctoral candidate (PhD)

Annotation. In this article, the settlement of Dashti Kipchaks and members of the dynasty in our country, the processes of establishing the rule, actions in the social sphere carried out by the members of the dynasty, and the influence of the Kipchaks on the toponymy of the Zarafshan region today.

Key words: Race, ethnic process, ethnonym, tribal combinations, toponyms, political-ethnic process.

Kirish. O'zbek davlatchiligi tarixida Dashti qipchoqliklar va u yerdan o'lkamizga kirib kelgan urug'lar sezilarli ta'sirga ega hisoblanadi. Shayboniyxon boshchiligidagi qipchoq qavmlari temuriylar sultanatiga xotima beradi. Bu avvalroq O'zbek ulusi davlati asoschisi Abulxayrxon davridan boshlangan siyosiy faoliyatning natijasi edi. Xususan Xondamirning "Habib us-siyar" asarida shunday keltiriladi: "1460-yilda Abulxayron Abu Saidning raqibi temuriyzoda Muhammad Jo'kiyga (1449-1464) Turkiston, Sayram, Toshkent, Axsikat, Shoxruxiyani egallab olishida harbiy yordam beradi. Shunga o'xshash yordam qo'llini u Xorazm uchun Abu Said bilan kurashga kirishgan Sulton Husaynga (1469-1506) ham cho'zadi.[1]

Muhammad Shayboniyxon temuriylar istilosiga alohida e'tibor qaratgan. Fazlulloh ibn Ro'zbehxon "Mehmonnomayi Buxoro" asarida Shayboniyxonning shu asnodagi fikrini keltirib o'tadi: "Agar Temurbek avlodlaridan ba'zi mulklarni tortib olgan bo'lsak ham, mulkparastlik va kichik mulklarga qanoat qilmasligimizdan emas, balki taqdir hukmiga ko'ra shunday bo'ldi. Zero, qazo merosiy mulknini yana bizning qo'limizga va ixtiyorimizga qaytishini taqozo qiladi".[2] Umuman olganda aynan shayboniyylar va ular bilan qipchoqlar oqimining kirib kelishi yangi davlatchilikni vujudga keltiribgina qolmay, o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasiga ham ta'sir etdi.

Shayboniyylar zamoni davlat boshqaruvi haqida so'z ketganda temuriylar va ayniqsa chingiziylar bosqinidan avvalgi zamonalardagi kabi davlat idoralariaro taqsimotida mavjud bo'lgan aniq ko'rinishlar to'g'risida so'z yuritish qiyinroq. Buning bosh sababi, bir tomondan ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi turmush tarzi an'analari mustahkam Jo'chi ulusidagi Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning shayboniyylar

faoliyatida saqlanib qolganligidadir. Aniqroq aytganda, shayboniylarning Dashti qipchoqdan Movarounnahrga kirib kelishlari bilan mazkur birinchi makonda mavjud ayrim an'analarning ham Turkiston markaziga tarqalishi uchun sharoit tug'ilgandi.[3]

Ro'zbehxon shayboniylar davri Sirdaryo daryosi imkoniyatlari haqida so'z yuritar ekan, bu daryoning kechuv joylaridan, irmoqlaridan ko'plab katta anhorlar qazilgani va ular suvi bilan atrofdagi ekinzorlar sug'orilganini alohida ta'kidlaydi. Zarafshon vohasida Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor kabi suv ayrig'ichlari, Nurota hududida qurilgan tom ham aynan sulola xizmati evaziga amalga oshirilgan. Fazlulloh ibn Rozbekxonga homiylik qilgan Muhammad Shayboniyxon 1502-yilda Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayrilish yerida ko'prik-suv ayrig'ichini bino qildirgan. Bu bilan qipchoq hukmdorlar aholinng ijtimoiy hayotiga befarq bo'lmagani ko'rindi. Umuman olganda, Muhammad Shayboniyxon hukmronlik qilgan yillari va hatto uning o'limidan so'ng mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik yillarda ham sun'iy sug'orish ishlaring ahamiyati yo'qolmagan. Buni biz XVI asrning 20-yillarda tuzilgan vaqfnomalardan birida keltirilgan ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, birgina Kesh viloyatida Qashqadaryo irmoqlari bo'l mish Surxob, Rudakdan atrof qishloqlarga qazilgan o'ndan ortiq kanallar ishlab turgani ma'lum.[4] Lekin sun'iy sug'orish ishlari gurkirab rivojlangan payt bu XVI asr Abdullaxon II davriga to'g'ri keladi. Fikrimiz isboti sifatida 1582-yili Zarafshon daryosida qurilgan Karmana ko'prigi (Puli Karmana)- suv ayrig'ichi, 1583-yili Nurota tog'larida qurilgan Oqchob suv ombori, Zarafshon daryosi suvini tegishli hududlarga taqsimlashda katta ahamiyat kasb etgan Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor ko'prik-suv ayrig'ichlari, Zarafshon daryosining Jizzax vohasigacha tortilgan va Sangzor daryosi bilan tutashuvchi Tuyatortar kanali, Murg'ob daryosi vohasidagi Hovuzixon suv ombori, 1556-1557-yillari qurilgan va Samanjuq dashtini obodonlashtirishda katta ahmiyat kasb etgan Xo'ja Kaab kanali, 1556-1560-yillarda bunyod etilgan Afshona kanali, 1558-1559-yillari Amudaryodan Chorjo'ygacha tortilgan, Murg'ob daryosidan Marv atrofiga kanallar chiqazilgan. Vaholangki sulolaning bu borada o'tkazgan tadbirlari rang-barangdir.

Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga kirib kelgan xalqlar shuningdek Samarqand viloyati hududi toponimikasida ham o'z izini qoldirgan. Jumladan hozirgi kunda ham viloyatning Bulung'ur, Jomboy, Payariq tumanlaridagi joy nomlarida "Qorakesak" toponimi mavjud. Ushbu tumanlarda aynan shu nomdagi qishloqlar bor. Ma'lum bo'lishicha qipchoqlarning qoraqipchoq urug'i tarkibida qorakesak tarmog'i bo'lgan. Qozoqlarda esa qorakesak O'rta Ordanining asosiy qabilalaridan biri.[5] Shu bilan birga qozoqlarning arg'in va olchin qabilalari tarkibida ham qorakesak degan urug' bo'lgan. Umuman, kesak bir qancha turkiy xalqlarda keng tarqalgan etnonim. Vaholangki yana bir Pastdarg'om tumanidagi Qovan, Gumbaz, Batal qishloqlari misolida olsak, Aslida bular ham qoraqipchoq urug'inining tarmoqlari nomlaridan olingandir. Qipchoq urug'idan shakllangan toponimlar qatoriga Qiyra urug'ini-keltirib o'tsak ham joiz bo'ladi. Sababi Zarafshon vohasida Bo'z qiyra yoki Yuqoriqiyra va Qo'riqqiyra yoki Pastqiyya nomli toponimlar mavjuddir. Qiyra ham aslida qorovuz-qipchoq urug'inining bir tarmogqi hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu qishloqlar nomlari ham urug' nomidan keyinchalik joy nomiga aylangan. [6] Qipchoq qabilalarining tarkibida yana bir Qarmish nomli etnonim ham mavjud bo'lgan. Samarqand viloyati Tayloq tumanida ham aynan shu nomli qishloqni uchratish mumkin.[7] Yana bir tabirni Elaton nomli toponim bilan bog'lash mumkin. Bugungi kunda Samarqand viloyati Jomboy tumanida aynan shu nomli qishloq bo'lib, bu nom qipchoqlarning elatan degan urug' nomidan kelib chiqqan. Zarafshon qipchoqlari urug'I nomi Payariq tumanidagi Cholmo'yin qishlog'ida ham o'z aksini topadi. Manbalarga ko'ra Cholmo'yin Zarafshon qipchoqlari to'g'uzuruv yoki to'g'izboy urug'inining bir bo'limi hisoblanadi. [8] "Chol" termini qadimiy turkiy tilde bo'z rang, kul rangni bildirgan. Mo'yin, aynan bo'yin, avlod, bo'lim ma'nosida qo'llanilgan. Qipchoqlar tarkibida qoramoyin, ko'kmo'yin urug'lari bo'lgan. Shu Orinda Zarafshon vohasi hududida To'qqizariq, To'g'izboy kabi toponimlar ham uchraydi. Ma'lum bo'lishicha to'quz yoki to'g'izboy qipchoq qabilasi urug'laridan hisoblanadi. Tog'aytma etnonimi ham ayni shu asnoda kelib chiqqan. Tog'ay kishi ismi. Tama (toma) 92 bovli o'zbek urug'lari ro'yxatida uchraydi. S. Qorayev tama aslida mo'g'ul qabilasi bo'lib, Dashti Qipchoq o'zbeklari tarkibiga kirgan va XV-XVI asrlarda Movarounnahrga (asosan Zarafshon vodiysiga) va Xorazmga kelb o'rnashgan, deydi. [9] Qipchoqlar qabilasidan yana bir urug'ning nomi joy nomiga aylanish farazi keltiriladi. Ushbu hudud Totkent deb atalgan. Gap shundaki Totkentning kelib chiqishida bir necha farazlar bo'lib, ular orasida K. Shaniyazovning keltirgan mantig'I ham alohida o'ringa ega. Jumladan, Hofiz Tanish Buxoriyining "Abdullanoma" asarini nashrga tayyorlaganlar quyidagilarni yozishadi "Sayyid Jaloliddin Kosoni (1542-1549-yillar o'rtasida vafot etgan) manoqibida aytishilishicha, Totkand Samarqanddan Buxoroga

boradigan yo'l ustida joylashgan mavze. Buxorodan Zominga boradigan yo'l ustidagi beshinchisi mavzedir... uning aniq o'rnini belgilab bo'lmadi”, deb ko'rsatiladi.[10]

Professor B. O'rinooyev bu nomni tot-tosh va kent-qishloq so'zlaridan tashkil topgan deb ko'rsatadi. M. Koshg'ariy asarida “tot” so'zi ikki ma'noda, ya'ni fors tilida so'zlashuvchilar va islomni qabul qilmagan uyg'urlarni bildiruvchi so'z sifatida ko'rsatilgan.[11] Tot so'zi hozirgi kunda fors tilida so'zlashuvchi unchalik yirik bo'limgan xalq nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bizningcha, mazkur nomning tosh so'ziga aloqasi yo'q. Ehtimol, o'tmishda bu yerda yashagan aholi nomi toponimining yuzaga kelishiga ta'sir qilgan. Ehtimol, o'tmishda bu yerda yashagan aholi nomi toponimining yuzaga ta'sir qilgan. Harholda, viloyatimizda uchrovchi O'zbekkent, Mo'g'ulkent, Tojikqishloq, Arabqishloq shaklida shaklidagi toponimlarning ko'plab uchrashi turli xalqlar nomi geografik nomlarning yasalishida faol ishtirok etishidan darak beradi.

K. Shaniyazovning dala tadqiqotlari materiallarida Farg'ona vodiysida yashagan qipchoq qabilasining qiziloyoq urug'I qayd qilinib, mazkur urug' tarkibidagi qo'ng'irboy, toti yoki tot, jetkan, xurmachi, ko'chichi, biylo tarmoqlari haqida ma'lumotlar yozib olingan. Demak, Totkent “totlar qishlog'iqq ma'nosida bo'lib, etnotoponimdir. 1926-yilgi aholi ro'yxatida Samarqand viloyati Metan rayonidagi Qo'shrabot hududiga tegishli Toti qishlog'i qayd etilgan.

Xususan bundan tashqari O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'atida qipchoqlar asosida shakllangan etnonimlar va toponimlar haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Arnaqapchig'ayni misol keltirib o'tish mumkin. Ushbu hudud 1926-yilgi aholi punktlarida ro'yxatda qays qilingan. Arna-xorazmiy tilida katta kanal, daryodan qazib chiqazilgan va katta hajmda suv oqizilgan anhor. Xorazm shevalarida arna-ulkan kanal, anhor. Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarining qipchoq lajhali aholisi nutqida arna so'zi mavjud, xususan, tog'li hududlarda bu atama saqlangan. Tovush shakli-arna, orna ko'rinishadir. Ma'nosiy-yog'in va tabiiy suvlardan o'yib ketgan jarsimon o'yiqlik. Arna-soy, dara tubi. Xalq dostonlarida otning arnadan irg'ib sakrab o'tishi ko'p tasvirlangan. Qashqadaryoning tog'li hududlarida yoki Kosondan jarsimon suv havzasi ma'nosida qo'llaniladi.[12]

Shuningdek Samarqand viloyati Poyariq tumanida Ayuchi nomli qishloq joylashgan. Ayuchi – dash –ti qipchoq urug'i bo'lib, o'zbek va qirg'izlar tarkibiga kirgan. Zarafshon qipchoqlarining nomlaridan biri ham ayuvchi – ayuchi deb nomlanadi.[13] Shuningdek, Jizzax viloyatida Bag'anali qishlog'i ham mavjuddir. Ushbu toponim ham qipchoqlar tarkibidagi urug' nomiga borib taqaladi. Bag'anali etnonimi qoraqalpoq qabilasining qipchoq, qozoq qabilasining argin va nayman, o'zbek qabilasining yuz tarkibi –da qayd etilgan. Yana bir qiziqarli ma'lumot shundaki Samarqand viloyatining Urgut tumanida Javgut yoki Javgut algali nomli qishloq bor. Professor B.O'rinooyev Javtuk qishlog'i etimologiyasi haqida to'xtalar ekan, “jav, jabi” o'zbek millati tarkibiga kirgan qadimiy urug'. “Tug” so'zining “nog'ora, xon huzurida chalinadigan baraban, bayroq, dam olib o'z tug'ini tikkan joy, to'g'on” kabi ma'nolari bor. Javtug – jobi urug'i vakillarining o'z tug'ini tikkan joy demak”, – deb qayd qiladi.

Rus olimi A.D.Grebenkin o'zi yiqqan dala materiallariga asoslanib, “algal” ming qabilasining tarmoqlaridan biri ekanligini ko'rsatib o'tgan edi. Muallif ming qabilasi uch katta uruqqa –To'g'ali, Bog'lon va uvoqtamg'aliga bo'linishi –ni ko'rsatib, uvoqtamg'alilarning yana algal, chavutjayli, o'ramas, to'qnamoz, kiyikxo'ja va yarat tarmoqlari borligini qayd qiladi.[14]

Mazkur urug' tarmoqlarining keyinchalik etnotoponimlarga aylanganligini kuzatamiz. Urgut tumanidagi O'ramas (Paxtachi tumanida ham shu nom=dagi qishloq bor), Algal (shuningdek, Javtuk Algal ham) shu yo'l bilan hosil bo'lgan.

Tilshunos K.Marqayev Janubiy O'zbekiston etnonimlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida Chiroqchi tumanida yashovchi qipchoqlarning Qirqoyoq urug'idagi bir tarmoq chavtik, chavtak deb atalishini qayd qiladi. Chovtik (“chav, jov, jovli”) – (shumovka) cho'mich ma'nosida bo'lib, urug' tamg'asi chovli (cho'mich) shaklida bo'lgan, deb ko'rsatadi. Chovli nom=li qishloq Ishtixon tumanida ham bor. Bu chovli etnotoponimi areali keng ekanligini ko'rsatadi.

Bizningcha, Javtuk Algal qishlog'i nomi etnotoponim bo'lib, Algal urug'ining Javtuk tarmog'i yashaydigan joy demakdir. Qishloqning g'arbiy tomonida Cho'michli nomli qishloq ham bor. O'zbek qabilalaridan qipchoq, qo'ng'iroq, nayman va boshqalar tarkibida “cho'mich, cho'michli” so'zi bilan bog'liq etnonimlar ko'p.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki Kereyit nomli o'zbek urug'i asli kelib chiqishi mo'g'ullarga

mansub urug' hisoblanadi. Keyinchalik o'lkamizga kelib o'mashadi. Bu nom bilan ataluvchi joy nomlariga duch kelamiz. Aynan Qipchoqlar kirib kelishi bilan kereyitlar tarmoqlashib borgan. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi qish-loq. Kerayitlar o'zbek xalqining shakllanishida ishtirot etgan yirik etnik guruhlardan biridir. Kerayit, kerey, kareit, kirey deb yuritiluvchi etnonim qozoq, qirg'iz, oltoy, tuva, boshqird, no'g'ay, buryat, mo'g'ul xalqlari tarkibida uchraydi.

Kerey etnonimi o'zbek va qoraqalpoqlar tarkibida kuzatiladi. Qoraqalpoqlarning qo'ng'iro arisi(tarmog'i)da ashamayli urug'i bor. Ashamayli, ocha-maylilar o'zbek-qo'ng'irotlari tarkibida ham mavjud. O'zbek-laqylarning Esanxo'ja urug'ida Oqsari tarmog'i bo'lib, bu qozoq-kereylarning urug'lari-dan biridir. Bu holat harbiy yurishlarda kereylarning bir qismi Movaroun-nahrga ko'chib kelib, bu yerdagи aholi bilan aralashib ketganligini ko'rsatadi.

Kerey qabilasi ikki asosiy urug' – Ashamayli va Abaqqa bo'linadi. Asha-maylilar XIII asrda G'arbiy Oltoydan Irtishning quyi oqimi bo'ylab va undan g'arb tomon siljigan, Abaqlar esa o'z yerlarida – Janubi-G'arbiy Oltoy, Qora Irtish, Kenderli daryosi vodiysi va Saur tog'larining janubi-sharqi yonbag'irlarida yashab qolgan. Ashamayli etnonimi "Tuya egari shaklidagi (X) tamg'a (ashamay)" nomi bilan bog'liq. Ashamaylilarning asosiy urug'lari Oqsari va Ko'rsari hisoblanadi. Kereylar o'rta asrlarda (X–XI), mo'g'ullarga qadar o'z davlatiga ega bo'lganlar va buyuk Xitoy devoridan boshlab Onon, Qurilen daryolari, Dolon tog'lari, Dalaynor ko'li, Arg'un daryosi sohillari bo'ylab katta hududda yashaganlar.

Mo'g'ullarning jabri tufayli (XII asr) kerayit qabilasi o'z ona yurtidan ko'chishga majbur bo'lgan. Bir qismi Oltoyda qolgan. Kereylarning ma'lum qismi XIV asrda Dashti Qipchoq o'zbek qabilalariga qo'shilgan, keyinchalik ular bilan birgalikda Sharqqa qarab yurish qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Hozirgi O'zbekiston hududiga ular XV–XVI asrlarda kelib o'rashganlar. Kerey etnonimi va bu nom bilan ataluvchi qabilaning kelib chiqishi haqida fikr yuritgan. N.Aristov, X.Xovorslar ularni turkiy tilli etnik guruhga mansub deb ko'rsatsalar, V.V.Bartold kereylar mo'g'ullardan bo'lgan, deb hisoblaydi. Rashididdin "kerey" so'zining etimologiyasi haqida to'xtalib, qadimgi davrda bir podshoning yetti (sakkizta) o'g'li bo'lganligi va ularning ham-malari qora bo'lganligi uchun kereyitlar deb atashganligini yozadi. Uning aytishiga ko'ra, "kerayit" so'zining ma'nosi "qora odam". Ushbu so'zning "qora quy" degan talqini ham bor. Venger olimi Y.Nemet o'zining "Kereyit, kerey, giroy" nomli maqolasida kerey atamasi vengercha "ker" hamda turkiycha "ker" (yuqori, yuksaluvchi) so'zlaridan olinganligini yozadi. Vengerlar ichida "ker" deb nomlanuvchi toifa ham bor. A.Abdurahmonov ham ker so'zi qadimgi turkiy tillarda "tog", "qir", "tog" tizmasi", "tog" boshi" kabi ma'nolarda qo'llanganligiga bir necha tarixiy lisoniy dalillar keltiradi. Biroq ko'pchilik olimlar mo'g'ullarning kirey (kireyit, kereyit) qabila-si nomi "qarg'a" ma'nosidagi kerey so'zidandir, deb izohlaganlar. Kereyit qabilasining mo'g'ulcha nomi xereyed. Demak, kerayit etnonimi mo'g'ulcha "qarg'a" totem nomidan kelib chiqqan bo'lib, kerey – "qarg'a", -t affaksi esa ko'plik ma'nosini bildiruvchi "lar" qo'shimchasidir (Otajonova, 1987). Hozir-gi paytda o'zini kerayit deb hisoblovchi etnik guruh o'zbeklar orasida uchra-maydi. Ular mang'it, saroy, kenagas va boshqa qabilalar tarkibiga qo'shib, qorishib ketganlar. Kerayit O'zbekiston Respublikasi hududida ko'p tarqalgan so'z. Barcha tumanlarda, asosan, qishloq nomi sifatida uchraydi. Qashqadaryo viloyatining Qarshi, Koson, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Qamashi, Kasbi tumanlarida Kerayit qishlog'i bor. Viloyat hududida Kerayit degan mahalla, guzarlar ham bor. Yakkabog' tumanida bir tepaning nomi – Kerayittepa. Sho'rolar tuzumi davrida Kitob va Shahrisabz tumanlarida Kerayit qishloqlari nomi tuman, viloyat ma'muriyati tomonidan rasmiy tarzda o'zgartirilgan: Kerayit – Kel-dihayot (Kitob tumanı). Kerayit – Kelhayit (Shahrisabz). Bu nomlar yirik qishloqlar nomi bo'lganligi sababli Keldihayot, Kelhayit tarzida "O'zbek sovet ensiklopediyasi"ga kiritilgan.[15] Bugungi kunda ko'plab viloyatlarda Oytamg'ali nomli topominiga duch kelamiz. Vaholangki qipchoq urug'lariga borib taqaluvchi ushbu joy nomi Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanı, Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanı, Samarqand viloyati Narpay, Poyariq tumanlari, Jizzax viloyati Forish tumanı hududlaridagi qishloq nomi. Mazkur qishloqlar-da sarixitoy urug'iga mansub aholi yashashiga ko'ra, oytamg'alilar xitoy qabi-lasi tarkibida ham bo'lsa kerak. Oytamg'alilar do'rmon, qipchoq, qurama, qo'ng'irot kabi o'zbek qabilalari tarkibiga kirgan urug'. Urug'tamg'asi yangi oy (taqa) shaklida bo'lgani uchun oytamg'ali deb atalgan. Oytamg'ali nomi bilan atalgan qish-loqlar Narpay, Poyariq tumanlarida ham uchraydi. Jizzaxning Zomin tumanida Parchaqipchoq nomli qishloq mavjuddir. Ushbu topominning qipchoq urug'I va lahjasiga ko'p aloqadorligi uchraydi. Topominning birinchi qismi parcha-forsiy bo'lgani bilan bu urug' birlashmalarga nisbatan qo'llanilgan. Jumaladan, u kichkina qismni yoki urug'-qabila ittifoqlari yoki kat-ta o'tmis qabilalarining qoldiqlarini

ifodalashi mumkin. Agarda shunday bo'lsa, parchaqipchoq qipchoq bo'limgan urug' va qabilalar hamda qator qipchoq qismalarini birlashtiradi. Bu xususida parchaqipchoq birlashmasiga kiradigan urug' nomlari va ularning tarkibi guvohlik beradi.[16]

Samarqand viloyati Pastdarg'om, Urgut tumanlaridagi qishloqlar orasida Qing'ir nomlisiga duch kelamiz. Mazkur nom O'zbekiston toponimiyasida Qang'ir, Qing'ir, Qo'ng'ir singari shakllarda uchraydi.

L.S.Tolstovaning fikriga ko'ra, mazkur nom pecheneglar qabilasi qang'arlari bilan bog'liq bo'lib, ularning Markaziy Osiyoga tarqalishi Orolbo'y'i va Volgabo'y'i qang'arlарining Dashti Qipchoq o'zbeklari tarkibida mazkur hududga kirib kelishlari bilan bog'liq[17].

Zarafshon toponimlari orasida Qipchoq Chorrabot nomli hudud ham bizga ma'lum. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi qish-loqning nomi. Qishloq nomi 2006-yilga qadar Quyi Chorrabot deb atalgan. 2006-yil 27-dekabrda Qipchoq Chorrabot deb o'zgartirilgan.

Toponim qipchoq, chor va rabot so'zlaridan iborat. Uning birinchi komponenti – qipchoq so'zi xalq nomi, etnonim. Toponimning ikkinchi komponenti – chor so'zi esa forscha-tojikcha bo'lib, "To'rt" degan ma'noni bildiradi. Joy nomining uchinchi komponenti – rabot so'zi "qo'rg'on", "qo'ra", "hovli joy" degan ma'nolarni anglatadi.

Xulosa. Bularidan tashqari qipchoqlar va qipchoq lahjasi Movarounnahr hamda Turkiston o'lkasiga siyosiy, ijtimoiy hamda etnik jihatdan juda katta ta'sir qilgan. Aynan qipchoqlar tili o'zbek tili fonetikasiga, uning tarkibidagi urug'lar nomlari esa toponimlarga omuxtalashib ketgan. Bu holat nafaqat Zarafshon hududida balki Xorazm hamda Farg'ona vodiysida ham ko'zga tashlanadi. Qipchoqlarning ham madaniy ham etnik jihatdan transformatsiyasi ko'p jabhalarda ko'zga tashlanib boradi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Xondamir. Habib us-Siyar. 3-jild, 3-qism. 213-bet
2. Fazlulloh ibn Ro'zbehxon. Mehmonnomayi Buxoro. 72-bet.
3. Azamat ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. 243-bet.
4. Mukimova. R. G. K istorii agrarnix otnosheniy v Uzbekistane XVI v. Vakfname. Tashkent, 1966, st. 288
5. C.A.Амонжулов, Вопросы диалектологии и истории казахского языка, Алма-Ата, 1959, 16-bet
6. Samarqand toponimlari. 101-bet
7. S. Qorayev Toponimika. 1978. 168 bet
8. Шаниязов, 1974. Ст. 123-125
9. S. Qorayev. 1978. 119-bet
10. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. 1999. 399-bet.
11. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'otit turk. 1965. 427-bet.
12. O'zbekistonning joy nomlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti. 2022-yil. 31-bet
13. К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974. С. 123
14. Гребенкин А.Д. Мелкие народности Зерафшанского округа. – СРТ. Вып. II, 72. Ст. 42
15. Ўзбек совет энциклопедияси. 5-жилд. – Т.: – В. 425, 428.
16. К. Шаниязов. К этнической истории узбекского народа. – Т., 1974
17. Толстова Л.С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии и её исторической ономастике // Ономастика Средней Азии. – М.: Наука, 1978. Ст. 15

MINGLAR SULOLASI DAVRIDA QO‘QON XONLIGINING QO‘SHNI DAVLATLAR BILAN TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARI

Islom huquqi tarixida ushbu faqih ko‘proq “Qozixon”, “Faxruddin” va “Faxrul-milla” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Tabaqot kitoblarida uning rasmiy qozilik vazifasini bajarganligi haqida aniq ma’lumot berilmaydi. Biroq, qozilik rasmiy mansab bo‘lgani va u faqat qozilik vazifasini bajarganlarga berilishini e’tiborga olinsa, Qozixon Qoraxoniyalar davrida qozilik mansabida faoliyat ko‘rsatgan, degan xulosa qilish mumkin. Sharqshunos olim A.Mo‘minov [7] Qoraxoniyalar Qozixonni Buxoroda qozilik vazifasiga tayinlanganlari haqida fikr bildiradi. Allomaga berilgan “Qozixon” laqabining “hukm chiqaruvchi ma’nosī”dagi arabcha يضّ اقّى و سُلْطَنْ خَوْقَونْ” ma’nolarini anglatuvchi turkiy “xon” so‘zlaridan tashkil topgan va “Xon Qozisi”, deb tarjima qilinishi fikrimizga dalildir.

Qozixonning talabalaridan bo‘lgan Abul-Mahamid Mahmud Al-Hasiriyning [8] ustozini: “U kishi bizning sayyidimiz, Qozi, Imom, Ustoz, “Faxrul-milla” (Millat faxri), “Ruknul-islom” (Islom rukni), “Miftish-sharq” (Sharqning muftiysi), “Biqiyyatus-salaf” (Salafi solihlarning oxirgisi)” bo‘lgan deya ta’riflagani [9] fikrimizni tasdiqlaydi.

Ahmad ibn Sulaymon ibn Kamol Bosho (vaf. 940/1533 y.) o‘zining “Tabaqot al-mujtahidin” nomli asarida faqihlarning yetti tabaqasini va har bir tabaqa faqihlarining xususiyatlarini bayon qilib, Faxruddin O‘zjandiyni (vaf. 592/1195 y.) Abu Bakr Ahmad ibn Amr Al-Xassof (vaf. 261/874 y.), Abu Ja’far Ahmad ibn Muhammad At-Tahoviy (229/843-321/933 yy.), Abul-Hasan Ubaydulloh ibn Husayn Al-Karxiy (260/873-340/951 yy.), Shamsul-a’imma Abdulaziz ibn Ahmad Al-Halvoniy (vaf. 449/1057 y.), Shamsul-a’imma Muhammad ibn Ahmad As-Saraxsiy (vaf. 483/1090 y.) va Faxrul-Islom Pazdaviy (vaf. 482/1089 y.) va boshqalar qatorida uchinchi tabaqa vakili o‘laroq zikr qiladi[10].

Mazkur tabaqa يف نِيَدَهْ جَمْلَةً قَبْطَ “Masalada mujtahid bo‘lgan faqihlar” tabaqasi deb atalib, Ibn Kamol Boshoning aytishicha, unga mansub faqihlar hanafiy mazhabini asoschisi Abu Hanifadan rivoyat kelmagan masalalar bo‘yicha ijтиҳод qila olish darajasidagi mujtahid faqihlardir. Ushbu tabaqa faqihlari mazhab asoschisiga usul [Usul – Abu Hanifa tomonidan ishlab chiqilgan va uning Qur’on va hadisdan shar’iy hukmlarni ishlab chiqishda qo‘llagan usul, metod va qoidalari] qoidalari va furu’[Furu’ – ishlab chiqilgan masalalar, fatvolar.] masalalarida qarshi fikr ayta olmaydilar. Lekin ular Abu Ḫanifa o‘rnatgan qoidalari asosida, undan rivoyat kelmagan masalalar bo‘yicha dalillardan hukmlarni ishlab chiqadilar[11].

Quduriyning [12] (362/972-428/1036 yy) “Muxtasar” asarining matnnini tanqidiy o‘rgangan, tas’hih [Mantnni tas’hih qilish: matnni tanqidiy o‘rganish va unga nisbat berilgan jumlalarning sahib yoki sahib emasligini tekshirish.] va tahrir qilgan Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘o (802/1399-876/1474 yy.) Qozixonning “Muxtasar” matni bo‘yicha kiritgan tuzatishlari va tahrirlarini eng ishonchli va eng sahib deb aytgan [13]. Shuningdek, Ibn Qutlubug‘o “Qozixonning tuzatishlari boshqalarning tuzatishlaridan muqaddam qo‘yiladi, chunki u “faqih an-nafs” (nafs fiqhining olimi)dir” degan [14]. Shuningdek, Hoji Xalifa Faxruddin O‘zjandiying fatvo va qarashlari hukm va fatvo chiqarish maqomida bo‘lganlar uchun tavsiya etilishini aytib o‘tgan [15].

XIX asrning yetuk tadqiqotchi olimlaridan bo‘lgan Shihobuddin Marjoniy (1233/1817-1306/1888 yy.) Ibn Kamol Poshoning mujtahidlar darajalari xususidagi tartibini tanqid ostiga olib, har bir tabaqa borasida to‘xtalib o‘tgan. Marjoniy “mazhab ichida mujtahidlar” [Ibn Kamol Poshoga ko‘ra, ikkinchi tabaqa “mazhab ichida mujtahidlar” tabaqasi deb ataladi. Ushbu tabaqa faqihlari ustoz o‘rnatgan usul qoidalari asosida dalillardan hukmlarni chiqara olishadi. Ular ustozga ayrim furu’ hukmlarida qarshi chiqalishsada, unga usul qoidalari taqlid qilishadi][16] tabaqasi deb atalgan ikkinchi tabaqa faqihlari: Abu

Yusuf, Imom Muhammmad va Zufarlarni mutlaq darajadagi mujtahidlar ekanini ta'kidlaydi [Marjoniy Ibn Kamol Poshoning Abu Yusuf, Muhammad va Zufarlarni ikkinchi tabaqada, ya'ni "mazhabda mujtahidlar" tabaqasida zikr etganini xato deb, ularni mutlaq darajadagi mujtahidlar deya ta'kidlaydi va bir qator dalillar bilan buni isbotlaydi.][17]. "Masalada mujtahidlar"[Ibn Kamol Poshoga ko'ra, uchinchi tabaqa "masalada mujtahidlar" tabaqasi deb ataladi. Unga mansub faqihlar hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifadan rivoyat kelmagan masalalar bo'yicha ijтиҳод qila olish darajasidagi mujtahid faqihlарdir. Ushbu tabaqa faqihlari mazhab asoschisiga usul qoidalari va furu' masalalarida qarshi fikr ayta olmaydilar. Lekin ular Abu Xanifa o'rnatgan qoidalalar asosida, undan rivoyat kelmagan masalalar bo'yicha dalillardan hukmlarni ishlab chiqadilar.] [18] tabaqasi deb nomlangan uchinchi tabaqa vakillari: Al-Xassof, At-Tahoviy va Al-Karxiylar juda ko'p masalalarda Abu Hanifaning qarashlariga qo'shilmaganliklari va ularning usul qoidalari va furu' masalalari o'zlarining qarashlariga ega ekanliklarini aytib o'tadi [Shu bilan Marjoniy ularni "masalada mujtahid" emas, balki, "mazhab ichida mujtahidlar" darjasida ekanliklarini aytmoqchi bo'ladi.][19]. Biroq, Marjoniy Qozixonni ular darajasiga qo'shmaydi.

Marjoniy "as'hob at-taxrij" [Ibn Kamol Poshoga ko'ra, to'rtinchchi tabaqa "as'hobut-taxrij" tabaqasi deb ataladi. Unga mansub faqihlar ijтиҳod qilishga umuman qodir emaslar. Lekin usul qoidalarini bilganlari tufayli mazhab sohibi yoki uning biror mujtahid shogirdlaridan rivoyat qilingan ikki ko'rinishga ega mujmal so'zlar va ikki ishni anglatadigan mubham hukmlarga aniqlik va tafsilot kiritishga qodirdirlar.] [20] tabaqasi deb nomlangan to'rtinchchi tabaqa vakillari ichida keltirilgan Abu Bakr Ar-Roziy haqida gapirib, uning muqallid emas, mujtahid darjasida ekanini, shuningdek, uning uchinchi tabaqa vakillaridan ustun turishini dalillar bilan isbotlaydi [Shu bilan Marjoniy Abu Bakr Ar-Roziyni "mazhab ichida mujtahidlar" darjasida ekanligini aytmoqchi bo'ladi.][21]. Shuningdek, Marjoniy "as'hob at-tarjih" [Ibn Kamol Poshoga ko'ra, beshinchchi tabaqa "as'hobut-tarjih" tabaqasi deb ataladi. Unga mansub faqihlar muqallidlar bo'lib, ularning ishi ba'zi rivoyatlarni boshqalaridan ustun qo'yish] [22] tabaqasi deb nomlangan beshinchchi tabaqa faqihlari: Quduriy va Burhonuddin Marg'inoniyni Qozixonidan darajada ustun turishlarini ta'kidlagan [Marjoniy: "Ibn Kamol Posho Quduriy va Burhonuddin Marg'inoniyni "as'hob at-tarjih" tabasidan deb aytgan, Qozixonni esa mujtahidlar tabasidan ekanini aytgan, Holbuki, Quduriy Burhonuddindan avval yashagan va undan ilmda ustun bo'lgan. Shunday ekan, Qozixonidan ustun bo'lmasin", deb yozadi. Shuningdek, Marjoniy Burhonuddin Marg'inoniyning Qozixonidan darajada ustun turishini aytib shunday deb yozadi: "Hidoya" sohibi o'z davrining benazir faqihlарidan bo'lgan. Uning davridagi Faxruddin Qozixon va Imom Zaynuddin Al-Attobiy kabi olimlar uning fazli va peshqadamligini e'tirof etganlar".][23].

Imom Laknaviy "Al-Jome' as-Sag'ir" asarining sharhiga yozgan muqaddimasida Ibn Kamol Poshoning faqihlar darajalari bo'yicha so'zlarini keltirib, unga raddiya sifatida Marjoniyning so'zlarini zikr etgan [24]. Marjoniyning tanqidiy qarashlari Qozixonning ilmiy darajasini quyiga tushirishga emas, balki qolgan faqihlarning ham darajalarini yuqori ekanini ko'rsatishga qaratilgan bo'lgan.

Muhammad Abu Zahro ham Ibn Kamol Posho tasnifining ayrim nuqtalariga e'tiroz bildirgan. Abu Zahroning xulosalariga ko'ra, Qozixon mazhab asoschisi bo'lgan "Abu Hanifa va uning shogirdlaridan rivoyat kelmagan masalalarni dalillardan ishlab chiqadigan as'hob at-taxrij" tabaqasiga mansub ekan ma'lum bo'ladi [Abu Zahra ikkinchi tabaqa haqida gapirib, Abu Yusuf va Muhammadni mutlaq darajadagi mujtahidlar darjasida bo'lishganini, lekin Abu Hanifaning mazhabini yoyishga xizmat qilishganini ta'kidlaydi. Uchinchi va to'rtinchchi tabaqa haqida yozib, ular o'rtasida deyarli faqr yo'qligini va ularni bitta tabaqa deb hisoblash to'g'ri ekanini aytadi. "As'hobut-tarjih" deb nomlangan beshinchchi tabaqa bilan to'rtinchchi tabaqa o'rtasidagi farq ham aniq emasligini ta'kidlaydi. Tabaqalar bir-biridan farqli bo'lishi uchun oxirgi uch tabaqadan birini tushirib qoldiri, ularni ikkita tabaqaga: birinchisi: "as'hob at-taxrij" va "as'hob at-tarjih" tabaqalariga bo'lish maqsadga muvofiq ekanini aytadi.][25].

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, Qozixonni Abu Bakr Al-Xassof, Abu Ja'far At-Tahoviy, Abul-Hasan Al-Karxiy, Shamsul-a'imma Al-Halvoniy va Shamsul-a'imma As-Saraxsiylar qatorida zikr qilingani uning yuksak ilmiy daraja egasi bo'lganini ko'rsatadi. Taqdijotlar natijalariga ko'ra, Faxruddin O'zjandiy Abu Hanifa va uning shogirdlaridan rivoyat kelmagan masalalarni dalillardan ishlab chiqadigan "as'hob at-taxrij" tabaqasidan bo'lganini aytish mumkin. Bu esa, o'z o'mida alloma ijodini o'rganish tadqiqotchilar uchun qanchalar ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Faxruddin O'zjandiyning katta bobosi Abdul-Aziz ibn Abdur-Razzoq ibn Abu Nasr ibn Ja'far ibn Sulaymon al-Marg'inoni 477/1084 yili 68 yoshda Marg'inonda vafot etgan [26]. U XI asrda Movarounnahrda fiqh sohasida faoliyat olib borgan yetuk faqihlарidan hisoblanadi.

Sam’oniy va Qurashiy larning keltirgan ma’lumotlariga ko‘ra, Abdul-Aziz ibn Abdur-Razzoq mudarrislik va muftiylik salohiyatiga ega bo‘lgan olti o‘g‘ilni tarbiyalagan. Ularning hammalari uydan birga chiqqanlarida odamlar: “Mana bir uydan olti muftiy chiqib kelishayapti!” - deyishardi[27].

Faxruddin O‘zjandiyning bobosi Shamsul-a’imma Mahmud ibn Abdul-Aziz al-O‘zgandiy yetuk faqihlardan bo‘lib, u o‘zining o‘g‘li Mansur, jiyani Hasan ibn Ali va Faxruddin O‘zjandiylarga fiqh ilmidan dars bergan.

Faxruddin O‘zjandiyning otasi Mansur ibn Mahmud ibn Abdul-Aziz ham faqih bo‘lganligini “Fatovoi Qozixon” asarining oxirgi sahifasida kelgan quyidagi so‘zlardan bilish mumkin. Unda shunday deyilgan: “روصنم نیدلاردب لجألا مامإلا يضاقلا نب نسحلا نساحملأا يبأ خيشلأا ىواتف رخأ اذه”. Tarjimasi: “Bu buyuk imom Badruddin Mansurning o‘g‘li Shayx Abul-Mahasin Hasan fatvolarining oxirisidir” [28]. Faxruddin O‘zjandiyning bobosidan ilm olib, uning tarbiyasida bo‘lganidan otasining erta vafot etgan deb, xulosa qilish mumkin.

Faxruddin O‘zjandiyning amakilari va ularning o‘g‘illari faqih bo‘lganliklari haqida ma’lumotlar mavjud [29]. Abdulhay Lakanaviy Faxruddin O‘zjandiyning ustozlaridan va otasining amakivachchasi bo‘lgan Zahiruddin Hasan ibn Ali ibn Abdul-Aziz haqida ma’lumot berib: “Zahiruddin Hasan al-Marg‘inoniyning (vaf. 600/1203 y.) otasi Ali ibn Abdul-Aziz (vaf. 560/1164 y.) va bobosi Abdul-Aziz ibn Abdur-Razzoq (vaf. 477/1084 y.), amakisining nevarasi Hasan ibn Mansur (vaf. 592/1195) va singlisining o‘g‘li “Xulosat al-Fatovo” asarining muallifi Tohir ibn Ahmad (vaf. 542/1147) haqida quyida ma’lumotlar keltiriladi...” [30] degan va ularning barchalarini faqih bo‘lganliklarini zikr qilgan.

Tabaqot kitoblarida Faxruddin O‘zjandiyning katta bobolari va amakilarining ismlariga “Marg‘inoniy” nisbasi qo‘sib keltiriladi. Biroq uning bobosi Mahmud ibn Abdul-Azizning ismi “O‘zjandiy” nisbasi bilan keltirilgan [31]. O‘zjand o‘sha davrda shahri siyosiy ahamiyatga ega bo‘lsada, Movarunnahr diyorining chet hududida joylashgan bo‘lgan, aksincha Marg‘inon ilm markazlariga nisbatan yaqin va bir qancha yetuk faqihlarning yetishib chiqqani bilan mashhur bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Faxruddin O‘zjandiyning bobosi Mahmud ibn Abdul-Aziz o‘zining ustoz Shamsul-a’imma Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl as-Saraxsiy (vaf. 483/1090 y.) bilan O‘zgandda bo‘lgani ma’lum [Shamsul-a’imma As-Saraxsiy Buxoro faqihlarining peshvolaridan bo‘lgan. U amirga nasihat qilgani sababli O‘zjandga surgun qilinib, o‘sha yerda 466/1073-480/1087 yillar davomida (o‘n besh yil) zindonda qolgan. Saraxsiy zindonda ekanida biror kitobga qaramasdan shogirdlari vositasida bilan Muhammad ibn ash-Shayboniyning “Zohir ar-Rivoya” imsli to‘plamiga o‘n besh jiddan iborat sharh yozgan.] [32]. Ustozining orqasidan O‘zjandga ilm izlab kelgan Mahmud ibn Abdul-Aziz o‘sha yerda uylanib, joylashgan va “O‘zjandiy” nisbasini olgan. Demak, uning farzandlari va nabiralari ham O‘zjandda tavallud topishgan. Shunlardan xulosa qilib, Faxruddin Qozixonning bobolari va amakilariga “Marg‘inoniy” nisbasi qo‘silsada, uning otasi va o‘ziga “O‘zjandiy” nisbasi qo‘silgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абу Мухаммад Абдул-Қодир ибн Абул-Вафо Мұхаммад ибн Мұхаммад ал-Қураший ал-Мисрий. Ал-Жавоҳир ал-музий‘а фи табақот ал-ҳанафийя. 5 жилдли / Абдулфаттох Мұхаммад ал-Хұлв таҳрири остида. – Қохира: Ҳижр, 1993. – Ж.2. – Б. 93
2. Кавакжи. Б. 126
3. Исломид Порошо ал-Бағдодий. Ҳадийятул-орифин. 2 жилдли. – Байрут: Дор ихъо ат-турас ал-арабий, 1951. – Ж.1. – Б. 9 (Бундан кейин: Ҳадийятул-орифин.); Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 24; Кавакжи. – Б. 224
4. Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111; Аз-Зириклий. Ал-А‘лом. – Ж.2. – Б. 224; Каҳхола. Мўжам. – Ж.1. – Б. 594; Тошкӯпризода. – Ж.2. – Б.252.
5. Ат-Тамимий. Ат-Табақот ас-санийя. – Ж.2. – Б.116; Ал-Қураший. – Ж.2. – Б. 93.
6. Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.2. – Б. 93; Ат-Тамимий. Ат-Табақот ас-санийя. – Ж.2. – Б. 116; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111; Аз-Зириклий. Ал-А‘лом. – Ж.2. – Б. 224; Каҳхола. Мўжам. – Ж.1. – Б. 594; Тошкӯбризода. Мифтоҳ ас-саода. – Ж.2. – Б. 252
7. Муминов А.К. Роль и место ханафитских ‘улама’ в жизни городов Центрального Мавараннахра (II-VII/VIII-XIII в): Дис. ... докт. ист. наук. – Т.: ТИУ, 2003. – Б. 220 (Бундан кейин: Муминов.)
8. Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 336.
9. Тамимий, – Ж:3. –Б. 115

10. Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. // Абу ‘Абдурахмон ибн ‘Ақил таҳрири остида. – Миср: Матба‘ат ал-Жабловий, 1977. – Б. 14. (Бундан кейин: Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин.); Ибн Қутлубуғо. Ат-Тасхих ала Мухтасар ал-Қудурий. – Б. 23; Ибн ал-Имод. Шазарот аз-заҳаб. – Ж.6. – Б. 504; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111
11. Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 14.
12. Абул-Хусайн Ахмад ибн Мұхаммад ибн Ахмад ибн Жаъфар ибн Ҳамдон ал-Қудурий ал-Бағдодий (362/972-428/1036 йй). Қаранг: Brockelmann, GAL. – Ж.1. – Б. 174 (199)
13. Зайнуддин Қосим ибн Қутлубуғо. Ат-Таржих ва ат-Тасхих ала Мухтасар ал-Қудурий. 1 жилдли / Зиё Юнус таҳрири ва таҳқиқи остида. – Байрут: Дар ал-күтуб ал-ғилмийя, 2002. – Б. 134 (Бундан кейин: Ибн Қутлубуғо. Ат-Тасхих ала Мухтасар ал-Қудурий.)
14. Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 111.
15. Ҳожи Халифа. Каşф аз-зунун. – Ж.2. – Б. 144
16. Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 13. Шиҳобуддин Абу-Ҳасан Ҳорун ибн Баҳоуддин Ал-Маржоний Ал-Қозоний. Нозуратул-Ҳақ фи фарзияйт ал-Иша ва ин лам йағибиш-шafaқ. 1 жилдли. / Үрхан Идрис ва Абдул-Қодир Салжук таҳрири остида. –Истамбул: Дорул-хикма, 2012. –Б. 193-198 (Бундан кейин: Ал-Маржоний. Нозуратул-Ҳақ.)
17. Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 14.
18. Ал-Маржоний. Нозурат ал-Ҳақ. –Б. 202
- 19.Шиҳобуддин Ал-Маржоний. Нозурат ал-Ҳақ. – Б. 204-209
- 20.Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 14
- 21.Шиҳобуддин Ал-Маржоний. Нозурат ал-Ҳақ. – Б. 210-211.
22. Абул-Ҳасанот Абдул-Ҳай Ал-Лакнавий. Ан-Нофеъ Ал-Кабир шарҳ Ал-Жомеъ ас-Сағир. 1 жилдли. –Караби: Идарат ал-Куръани вал-улум вал-ғисламийя, 1990. – Б. 11-12. (Бундай кейин: Ал-Лакнавий. Ан-Нофеъ Ал-Кабир.)
- 23.Мұхаммад Абу Заҳра. Абу Ҳанифа, ҳаятуху, асруху ва арауҳу ва фиқхуҳу. 1 жилдли. – Қоҳира: Дорул-фикр ал-арабий, 1947. – Б. 501. (Бундай кейин: Абу Заҳра. Абу Ҳанифа.)
- 24.Ибн Камол Пошо. Табақот ал-мужтахидин. – Б. 14.
- 25.Ал-Маржоний. Нозурат ал-Ҳақ. –Б. 202
- 26.Самъоний. Ал-Ансоб. – Ж.11. –Б 249; Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.2. – Б. 434
- 27.Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.2. – Б. 434
28. Фатовои Қодихон. УзРФА ШИ № 11228. – Ж. 4. – Б. 503 (Бундан кейин: Фатово Қозихон).
29. Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.2. – Б. 434, 576, 74; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 165, 204, 108; Самъоний. Ал-Ансоб. – Ж.11. –Б 249; Ҳадийат ал-орифин. – Ж.1. – Б. 280 (144)
30. Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 108.
31. Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.3. – Б. 446; Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 342.
- 32.Лакнавий. Ал-Фаво’ид. – Б. 262; Ал-Қураший. Ал-Жавоҳир. – Ж.3. – Б. 78

KATTAQO'RG'ON SHAHRI TASHKIL TOPISHI TARIXI

*Kenjayev Nurolim Jumanazarovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu ma'qolada Kattaqo'rg'on uyezdi tashkil topishi tarixi, ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimi, tashkilot va kadrlarning shakllanishi, okrug boshqaruv tizimi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Damariq, Chimboy, Jom, Qilichobod, Kaligo'rg'on, Novqa, Juyshahr, Payshanba, volost, uchastka, Mitan, Tosin, Oqtepa, Yonboshi, Xo'jaariq, Mitariq.

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ ГОРОДА КАТТАКОРГОНА

*Кенджасаев Нуролим Джуманазарович,
докторант Самарканского государственного университета имени Шароф Рашидов*

Аннотация. В данной статье рассказывается об истории становления Каттаакурганского района, административно-территориальной системе управления, формировании организаций и кадров, системе управления районом.

Ключевые слова: Дамарик, Чимбой, Джом, Киличабад, Каликурган, Новка, Джуйшахр, Пайшанба, волость, участок, Митан, Тосин, Октепа, Ёнбоши, Ходжаарик, Митарик.

HISTORY OF THE ESTABLISHMENT OF THE CITY OF KATTAKORGON

*Kenjayev Nurolim Jumanazarovich,
doctoral candidate of Samarkand State University after named Sharof Rashidov*

Annotation. This article describes the history of the formation of the Kattakurgan region, the administrative-territorial management system, the formation of organizations and personnel, and the district management system.

Key words: Damarik, Chimboy, Jom, Kilicabad, Kalikurgan, Novka, Juyshahr, Paishanba, volost, site, Mitan, Tosin, Oktepa, Yonboshi, Khojaarik, Mitarik.

Kirish. Kattaqo'rg'on — O'zbekistonning qurg'oqchil Qarshi dashti shimolida, Zaravshon daryosi bo'yida joylashgan kichik shaharcha. Ma'muriy jihatdan Samarqand viloyatiga tegishli. Kattaqo'rg'on o'zbek tilidan "Buyuk qal'a" degan ma'noni anglatadi.

O'zbekiston me'yoriga ko'ra, Kattaqo'rg'onnинг yoshi Toshkent va Samarqandga nisbatan juda yosh, 300 yildan sal ko'proq. Tarixiy arxivlardan ma'lumki, Kattaqo'rg'on 17-asr oxirida yaqin atrofda joylashgan qadimiy Rabinjon va Kushoniya manzilgohi o'rniда barpo etilgan. Eron tilida so'zlashuvchi, olovga sig'inadigan aholi yashagan. 12-asrda fuqarolar nizolari natijasida qishloqlar vayron bo'ldi va ulardan deyarli hech narsa qolmadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Afsonaga ko'ra, 17-asrning oxirida ular bu joyda yangi shahar qurishga qaror qilishdi. Ta'sischilar badavlat o'zbek oilasidan bo'lgan aka-uka So'fi Allayor, Farhod Otaliq, Alla Nazarbay hisoblanadi. Ular Buxoro amirining amaldorlari bo'lib xizmat qilganlar. Bo'lajak shaharning qayerda bo'lishini belgilab, aka-ukalardan biri So'fi Ollohyor qurilish uchun fotiha so'rab shayx huzuriga boradi. Sayohat uzoq davom etdi va qolgan ikki aka-uka uning qaytishini kutmasdan qurilishga kirishdilar.

Tadqiqot metodologiyasi

So'fi Olloyor qaytib kelib, tepada allaqachon qurilgan qal'ani ko'rdi. Bundan xafa bo'lib, ukalari bilan janjallahib, G'uzorga jo'nab ketadi. Farhod Otaliq katta oilasi va xizmatkorlari bilan yangi qurilgan qishloqqa joylashib, beklik qiladi. Xavfsizlik maqsadida aholi punkti atrofida maydonda yopilgan baland panjara o'rnatildi. Har bir devorda asosiy nuqtalarga yo'naltirilgan darvozalar qurilgan.

1. Samarqand-Darvaza janubi Samarqand tomon.

2. Sharqda Aider-Chavon-darvoza.

3. Shimolda Bozordarvoza.

4. Buxoro-Darvaza g'arbda, Buxoro tomon.

Asta-sekin yaqin qarindoshlar va urug'ning boshqa vakillari atrofga joylasha boshladilar. Qishloq

o'sdi.

1868-yilda Buxoro amirligi tarkibida Kattaqo'rg'on Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi. Bu vaqtga kelib Kattaqo'rg'onda madrasa, ko'p masjid va bitta ibodatxona bor edi. Hunarmandlar pishiq g'isht ishlab chiqargan, paxtani qayta ishlagan, paxta chigit va kunjut yog'i yasagan. Mahalliy etik tikuvchi hunarmandlar ayniqsa mashhur edi. Ma'muriy islohot natijasida Kattaqo'rg'on Samarqand viloyatining tuman markaziga aylandi. O'zbek va rus bolalari uchun maktab qurishni boshladik. Sanoatlashtirish Sovet davrida boshlangan. Asosan oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalari qurildi. [1]

Manbalarda ayttilishicha, Samarqand bekligining markazi Samarqand uchun Buxoro qo'shinlari va rus askarlari o'rtaсидаги hal qiluvchi jang 1868 yil 1 mayda bo'lib o'tgan. Harbiy axborotlarda Samarqandning Cho'ponota tepaligidagi jangdan so'ng 2 mayda jangsiz egallanganligi aytildi. Samarqand viloyatining to'liq chor imperiyasi tarkibiga kiritilishini esa Zirabuloq jangi hal qilgan. Keyinchalik ruslar bu jangdagi g'alabaning 25 yilligini ham tantana bilan nishonlaganlar.

Tahlil va natijalar.

1868 yil 23 iyunda Buxoro amiri Turkiston general-gubernatori Fon Kaufman bilan sulkh tuzib, Rossiyaning vassaliga aylanadi. Bu sulhga ko'ra, Buxoro amirligi o'z mustaqilligini yo'qotibgina qolmasdan, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlardan ham ajraldi. Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan hududlarda ma'muriy-hududiy birlik, ya'ni markazi Samarqand bo'lган Zarafshon okrugi tuzildi. Uning boshlig'i etib Aleksandr Konstantinovich Abramov tayinlandi.

Turkiston general-gubernatorligi tomonidan 1868 yilda tashkil etilgan Zarafshon okrugi dastlab Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat bo'ldi. 1871 yilda ularga yangi ma'muriy-hududiy birlik - tog'li tumanlar qo'shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisida joylashgan mayda bekliklardan tuzildi.

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjalarning ishlab chiqilishida «harbiy vaziyat» omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ana shu omil Turkiston general-gubernatorining 1868 yil 29 iyunda tasdiqlangan «Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari»da ham o'z aksini topdi. Hujjatning asosiy majmui K.P.Kaufmanning bevosita rahbarligida ishlab chiqildi, unda ma'muriy tizim «harbiy-xalq boshqaruvi» deb ataldi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Zarafshon okrugida ma'muriy-hududiy boshqaruvi tizimi ikkiga: Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'lib boshqarildi. Lekin har ikkala bo'lim ham Zarafshon okrugi general-ubernatorligiga bo'ysundirildi. Kattaqo'rg'on bo'limi jami 22 ta uchastka, 286 ta qishloqdan iborat.

1886 yilgi «Turkiston o'lkasini boshqarish Nizomi»ga muvofiq, Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi o'zgartirildi. Bunda mavjud birlklarni unifikatsiyalash printsipiga izchil riosa qilina boshlandi. Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Uning tarkibiga Sirdaryo viloyatining Xo'jand va Jizzax uyezdlari o'tkazildi va keyinchalik Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand va Xo'jand uyezdlaridan tashkil topdi.[2]

1897 yilda M. Virskiy bergen ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand uyezdida 32 ta, Xo'jand uyezdida 11 ta, Kattaqo'rg'on uyezdida 31 ta, Jizzax uyezdida 17 ta volostlar mavjud edi. Viloyat bo'yicha 390 ta qishloq va 48 ta ovul jamoalari, aholi punktlari 2267 ta qishloq va 158 ta ovuldan iborat bo'lgan.

Shunday qilib, 1886 yilgi Nizomdan so'ng o'lka idorasi markaziy, viloyat, tuman (uyezd), jabha (uchastka), qishloq va shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi. Samarqand shahri viloyat boshqaruvi qarorgohi hisoblangan.

Siyosiy boshqaruvda olib borilgan o'zgarishlar mahalliy boshqaruvdagi tashkilot va kadrlarning shakllanishiga olib keldi. Jumladan, dastlab Zarafshon okrugida Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlari tashkil etilgan edi. Shu munosabat bilan chor ma'muriyati tomonidan okrug boshqaruvi tizimida yangi lavozimlar tashkil etildi. Xususan, Turkiston general-gubernatorining 1869 yil 24 oktyabrdagi tasdig'i bilan Zarafshon okrugi boshqaruvi asosan quyidagi lavozimlardan iborat bo'ldi: Zarafshon okrugi boshlig'i, Zarafshon okrugi Devonxonasi boshlig'i, Devonxona ish yurituvchisi. Bo'limlari bo'yicha: Samarqand bo'limi va Kattaqo'rg'on bo'limi boshlig'i, bo'lim yordamchilari (biri ruslardan, yana biri mahalliy aholi vakilidan) tarjimonlar va boshqa lavozimlar shular jumlasiga kirdi.

XIX asr o'rtalarida va XX asr boshlarida Kattaqo'rg'on uyezdi 2 uchastka, 14 volost, 100 qishloq jamoasi, 664 qishloqdan iborat bo'lgan. Birinchi uchastkaga Damariq, Chimboy, Jom, Qilichobod, Kaliqo'rg'on, Novqa, Juysahr, Payshanba volostlaridagi 50 qishloq jamoasi va 412 qishloq kirgan.

Ikkinci uchastkaga Mitan, Tosin, Oqtepa, Yonboshi, Xo'jaariq, Mitariq volostlaridagi 42 qishloq jamoasi va 252 qishloq kirgan. 1896 yili Zarafshon vohasidagi paxta tozolash zavodlaridan biri Kattaqo'rg'on uyezdida ishga tushgan. 1901 yili Kattaqo'rg'on uyezdi bo'yicha 110 ming aholi yashagan.

1896 yili Zarafshon vohasidagi paxta tozolash zavodlaridan biri Kattaqo'rg'on uyezdida ishga tushgan. 1901 yili Kattaqo'rg'on uyezdi bo'yicha 110 ming aholi yashagan. 1910 yilda Kattaqo'rg'onda bиринчи кутубхона очилган. 1900 yili Payshanba va Mitanda vrachlik-davolash punkti ochilgan. Bu davrda uyezd va shahar bo'yicha 3 ta vrach, 6 ta feldsher va akusherlar faoliyat ko'rsatgan. Kattaqo'rg'on suv omborining bиринчи navbatи 1940 yil 25 fevralda boshlanib, 1941 yilning iyul oyi ohirigacha davom etgan. Suv omborining ikkinchi navbatи 1951 yilda nihoyasiga yetkazilgan. Tuman markazi Payshanba shaharchasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qaroriga asosan 1989 yil 30 sentyabrdan Payshanba shaharcha maqomiga ega bo'ldi. Maydoni 2,74 kv.km ni tashkil etadi. Payshanba qishlog'i qadimda o'n bitta guzar (mahalla)dan tashkil topgan. Payshanbada 14 ta masjid va madrasa bo'lib, ulardan eng kattasi Odina masjidi bo'lgan. 1971 yilda Muhammad Amiri Xaqib degan kishi Payshanbada katta madrasa qurdirgan. 1902 yili Payshanbada rus-tuzem maktabi, 1919 yili bolalar uyi tashkil etilgan. 1921 yili bu binoda yangi tipdagi Farobi nomli boshlang'ich mактаб ташкил etilgan. 1930 yilda elektrostantsiya qurilgan. 1933 yilda Toshmamat Rahimov bиринчи traktorni Kattaqo'rg'on shahridan Payshanbag'a haydab kelgan. Ikkinci jahон urushining dastlabki kunlариданоq Payshanbadan 1400 dan ortiq kishi urushga ketgan. 1946 yili Payshanbag'a G'ulom Xidirov degan bиринчи oliy ma'lumotli o'qituvchi ishga kelgan. 97-o'rta maktabga direktor etib tayinlangan. 1929 yilda Payshanbada veterinariya markazi tashkil etilgan.

Bиринчи jahон urushi davom etayotgan 1916-yilda kattaqo'rg'onliklardan 1040 nafar erkak mehnat armiyasiga chaqirildi. Ular Minsk viloyatida ishlagan, keyinchalik ularning 250 nafari.[3] Moskva yaqinidagi Kolomna shahrida ishlagan. Bu musulmon aholining noroziligiga olib keldi. Rossiya hukmronligiga qarshi milliy harakat boshlandi. Ammo ko'p o'tmay 1917 yildagi inqilobiy voqealar ro'y berdi, buning natijasida "Bosmachilar" otryadlari yangi bolsheviklar hukumatiga qarshi chiqdilar. [4]

1916 yil 20 iyulda Kattaqo'rg'on shaxar axolisi mardikorlikka karshi chikib to's-to'polon ko'tardi. Bunday og'ir vaziyatdan qo'rqgan ellikboshilar va oqsoqollar mardikorlikka safar etiladigan kishilarning ro'yxatini tuzishdan bosh tortdilar. Shuning uchun ular (9 kishi) rus xarbiy ma'muriyati tomonidan xibsga olindi. Bu holat shaxar axolisining kaxr-g'azabini qo'zg'atib, ochiqdan-ochiq qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Ko'p sonli olamon eski shaxar ko'chasi bo'ylab rus shaxarchasi tomon yurdilar. Praporshik Steblyuk soldatlarni jangovar holatga keltirib qo'zg'olonchilarning yo'lini to'sdi. Biroq olamon bostirib kelaverdi. Taxminan, 30-40 masofa qolganda soldatlar ularga qarata o'qlarni yog'dirdilar. Shunga qaramay, boshqa tarafdan ham ikkinchi olamon to'dasi bosib kelaverdi. Ammo ko'zg'olonchilar dushmanning o'q yomg'irlariga bardosh berolmay qochdilar. Qo'zg'olonchilardan 5 kishi o'ldirildi va bir necha odamlar jarohatlandi. Urush yillarda (1941-1945) Kattaqo'rg'on ko'plab qochqinlarni, jumladan, Ashkenazi yahudiylarini ham qabul qildi. Bu yerga vaqtincha Krasnodar kimyo-teknologiya instituti va Xarkov qishloq xo'jaligi instituti ko'chirildi. Kattaqo'rg'onlik 60 dan ortiq yahudiy Ulug' Vatan urushi frontlarida halok bo'ldi. Ularning ismlari yahudiy qabristoniga o'rnatilgan marmar plitada abadiylashtirilgan.

Asrning mashhur qurilishi – Kattaqo'rg'on suv ombori qurilishi urushdan avval boshlangan, ammo ulgurmagan. 1946 yildan 1950 yilgacha to'g'on tayyor edi. O'zbekiston sobiq adliya vaziri Abram Abdurahmonov qurilish rahbari etib tayinlandi.

Zamonaviy tog'lar Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani markazi. O'zbekiston. Maydoni 43 km. Xaritadan Samarqandning shimoli-g'arbida (76 kilometr) joylashganligi ko'rsatilgan. Poytaxt Toshkent avtomobil yo'li bo'ylab 390 km. Aholisi 80 000 ga yaqin bo'lib, mintaqada 2-o'rinda turadi. Aholisi asosan o'zbeklar, oz foiz boshqa millat vakillari.

Bir nechta ko'priklı suv ombori kanali butun shahar bo'ylab oqadi: Siny, Ofitserskiy, MTS. Sohil bo'ylab butalar, daraxtlar, gullar ekilgan. Kanaldan shahar ehtiyojlari, tomorqa yerlarini sug'orish uchun foydalilanadi, issiq kunlarda salqinlik olib keladi. Iqlimi yozda juda issiq, qishda mo'tadil sovuq va qor, bahor va kuzda yomg'irli.

Temir yo'l va avtomobil transporti aloqalari. Samarqand, Buxoro va boshqa yaqin viloyatlarga avtobuslar qatnaydi. Poezdda siz istalgan temir yo'l stantsiyasiga to'g'ridan-to'g'ri yoki transfer orqali borishingiz mumkin. Eng yaqin xalqaro aeroport — Samarqand.

Xulosa.

O'rta Osiyoning barcha sobiq ittifoq respublikalarida bo'lgani kabi Kattaqo'rg'on shahrida ham jamiyat hayotini tashkil etuvchi ijtimoiy institut – mahalla saqlanib qolgan. Bir blokda yashovchilar jamoaga birlashadilar, mahalliy hokimiyat qo'mitasi va raisni saylaydilar. Ular tashkiliy masalalarni hal etish, jamoat tartibini saqlash, oilalarning yuzaga kelayotgan hayotiy muammolarini hal etish, to'y hasham va boshqa tadbirlarni o'tkazishda ko'maklashadilar. Har bir mahalla hududida nafaqat diniy, balki ma'naviy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan o'z masjidi mavjud. Aholi o'z ixtiyori bilan ko'chalarda tozalik va tartibni saqlash, hududni obodonlashtirish, bo'sh vaqtlanini tashkil etish bilan shug'ullanadi. Samarqand viloyatidagi eng yaxshi mahallalardan biri Kattaqo'rg'ondag'i "Qo'shxovuz" mahallasidir. Unga ayol Sabohat Ne'matova raislik qiladi. U har bir yashovchini biladi, oilalarning muammolari bilan tanish, ularni hal etishda yordam beradi. Ko'cha va hovlilarni namunali ta'mirlash bo'yicha o'tkazilayotgan shahar ko'rik-tanlovlardan mahallaning barcha aholisi ishtirok etib, sovrinli o'rirlarni qo'lga kiritmoqda.

Adabiyotlar ro'yhati

1. <https://uzbekistanfaq.ru/dostoprimechatelnosti-kattakurgana>
2. О'зР МА. F. Turkiston general-gubernatorligining idorasi, 1-ro'yxat, 1100-ish, 235-bet.
3. П.А. Ковалев. Узбекистонда 1916 йил кузголони «Правда востока», «Узбекистони Сурх» бирлашган нашриёти. Тошкент-1955.
4. З.Д.Кастельская ВОССТАНИЕ 1916 ГОДА В УЗБЕКИСТАНЕ. Государственное издательство УзССР. Тошкент-1937г.
5. <https://zarnews.uz/post/rossiya-imperiyasi-davrida-samarqand>

BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA SAMARQAND BEKLIGININGNING IQTISODIY HAYOTI

Mamanov Mehriddin Dusmurot o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi doktoranti

Annotatsiya. XIX asr birinchi yarmidagi Samarqand shahri iqtisodiyotini ta’riflar ekanmiz avvalo, bu erda iqtisodiy munosabatlarda eski o‘rta asrlarga oid iqtisodiy munosabatlar saqlanib qolganligini va ishlab chiqarish sohasida an’anaviy hunarmandchilik ishlab chiqarishi ustun bo‘lganligini ta’kidlashimiz zarur. Shahar iqtisodiy hayotida bir nechta sohalar o‘rin olgan edi, Mana shu sohalar tahlili asosida shahar iqtisodiy hayotini tavsiflash mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik, buyoqchlik, hunarmadchlik savdo-sotiqa, bozor, guzarlar.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ САМАРКАНДСКОЙ СТРАНЫ В ПЕРИОД БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Маманов Мехрилдина Дусмурота угли,
Исторический факультет Самарканского государственного университета имени Шарофа Рашидова, Докторант кафедры «История Узбекистана»

Annotation. Характеризуя экономику города Самарканда в первой половине XIX века, необходимо прежде всего подчеркнуть, что здесь сохранились экономические отношения старого Средневековья, а в сфере производства преобладало традиционное ремесленное производство. В экономической жизни города существовало несколько направлений. На основе анализа этих направлений можно будет описать экономическую жизнь города.

Ключевые слова: текстиль, крашение, торговля, рынок, ремесла.

ECONOMIC LIFE OF SAMARKAND COUNTRY DURING BUKHARA EMIRATE

Mamanov Mehriddin Dusmurot ugli,

Faculty of History of Samarkand State University named after Sharof Rashidov Doctoral student of the «History of Uzbekistan» department

Annotation. Characterizing the economy of the city of Samarkand in the first half of the 19th century, it is necessary first of all to emphasize that the economic relations of the old Middle Ages were preserved here, and traditional handicraft production predominated in the sphere of production. There were several directions in the economic life of the city. Based on the analysis of these directions, it will be possible to describe the economic life of the city.

Key words: textiles, dyeing, trade, market, crafts.

Kirish. Samarqand o‘zining asosiy qiyofasi ko‘ra rivojlangan o‘rta asr tipidagi shahar hisoblangan. Bunga qurilish ob’ektlari, aholi turmush tarzi, shaharning o‘zida ko‘plab yirik vaqf mulklarining mujassamligi bundan dalolat beradi. Shaharda nafaqat savdo qizg‘in taraqqiy etgan, balki ta’lim ham. Bunda madrasalar asosiy rol uynagan. Umumiy qilib aytildigan bo‘lsa. XIX asr birinchi yarmidan oldingi davrlarda o‘zaro urushlar va talonchiliklar natijasida vayron bo‘lgan shaharning o‘rganilayotgan davrda hukm so‘rgan nisbatan barqaror siyosiy vaziyat sharoitida iqtisodiy va siyosiy hamda madaniy mavqeい asta-sekinlik bilan tiklanib, yangicha ahamiyat kasb etib borganligidan dalolat beradi.

XIX asr birinchi yarmiga qadar Samarqand shahar atrofidagi aholi asosan dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, shahar aholisi asosiy qismi hunarmandchilik, savdo bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bu davrda shahar O‘rta Osiyoning yirik hunarmandchilik rivojlangan markazlaridan biri hisoblangan. Ko‘rinib turganidek tuquvchilik eng keng rivojlangan soha bo‘lgan. Darhaqiqat, samarqandlik hunarmandlar ipak, yarim ipak va paxta matolarning turli hillarini tayyorlashgan. Bulardan alacha, xosa (yupqa yarim ipak mato), qalami (paxta matoning turi), chit, kanaviz, bo‘z, beqasam, tivitli salsa, ipak va yarim ipak gilamlar, do‘ppilar, Ta‘kidlash joizki hunarmandchilikning to‘qimachilik yo‘nalishida mahsulot turining ko‘pligi va ushbu soha mahsulotlariga bo‘lgan talab barcha jamiyatlarda ham katta bo‘lgan. Ayniqsa,

paxta va shoyi homashyosi ko‘p etishtiriladigan O‘rta Osiyo, shu jumladan, Samarqandda ham ushbu hunar sohasi keng taraqqiy etishi tabiiy jarayon edi. Lekin, biz shu jihatiga ham e‘tibor qaratishimiz kerakki, Samarqandda etishtirilgan ba’zi to‘qimachilik mahsulotlari nafaqt mintaqada, balki boshqa davlatlarda ham katta talabga ega edi

Samarqandda katta mablag‘ga ega savdogarlar kam bo‘lgan. Samarqand savdogarlari doimo buxorolik savdogarlardan olti yoki bir yilga qarz olib turishgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

O.A.Suxarevaning guvohlik berishicha alacha asli samarqandlik hunarmandlarning mahsuloti bo‘lib, ularni to‘qish bilan asosan shaharning eng ko‘p sonli millati vakillari tojiklar shug‘ullanishgan[1]. Ayrim ma’lumotlarga ko‘r bu hunar sohiblari Buxorodan, boshqa ma’lumotlarga ko‘ra Xujanddan ko‘chirib keltirilgan ekan. Yana O.A.Suxarevaning ma’lumot berishicha Yomini va Zomini deb nomlanuvchi qo‘sni guzarlarda yashovchi o‘zbeklar va tojiklar qalami deb nomlanuvchi mahalliy ipdan to‘qilgan, odatda ko‘k va oq chiziqlarga ega bo‘lgan matoni to‘qish bilan shug‘ullanganlar. Ushbu guzarlar aholisining bir guruhi Yomdan ikkinchisi Zomindan ko‘chib kelganlar bo‘lgan.

Shunga uxshash holat Samarqandda ham ko‘zatilgan. Ba’zi hollarda mehnatning katta qismi ayollar va bolalar zimmasiga tushgan. Ular paxtani tozalashgan, matolarga ishlov berishgan, iplarni o‘rashgan va h.k. Zarafshon okrugida ipak ip asosan “tojik va eroni ayollar charh yordamida ishlab chiqarganlar, o‘zbek va qirg‘iz ayollar esa urchuq yordamida. Bir ayol bir yilda mazkur uskunalar yordamida 2 dan 4 pudgacha ipak yoki yungdan ip yigirishi mumkin edi”. Ko‘pchilik ayollar mazkur mahsulotlarni o‘z ehtiyoji hamda sotuvga chiqarish uchun ham ishlab chiqarganlar. Shunga qaramasdan ko‘pgina hunarmandlar va kasanachilarining oilalari molivayi jihatdan qiyin ahvolda bo‘lib, kam daromad hisobiga kun kechirganlar. Bunga barcha to‘quvchilarning do‘konlari yo‘qligi va o‘z mahsulotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozorda sotish imkoniyatiga ega bo‘limganligi sabab bo‘lgan. Ko‘pchilik to‘quvchi hunarmandlar o‘z mahsulotlarini olib-sotuvchilar yordamida sotishgan. Bunda ular mahsulotni 30 % arzon narhda pullashga majbur bo‘lishgan. Bu holat to‘quvchilarning o‘zlarida ishlab chiqarishdan oldin mablag‘ mavjud bo‘limgan holatlarda olib-sotuvchilardan pul olishga va olgan pulga mahsulotni arzon narhda berishga majbur bo‘lishgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tikuvchilik bilan asosan erkaklar shug‘ullanishgan. Samarqandda alohida tikuvchilik dastgohlarida bir nechta ustalar faoliyat yuritadigan qator ustaxonlar mavjud bo‘lib, ularda “... talabgir xalatlar, salsa va belqarslarga ishlatiladigan ... faqat maxsus harir va sifatli matolar tayyorlangan”.

Arxiv ma’lumotlarida keltirilishicha, “Samarqandda maxsus ipak yoki yungni tozolovchi ustaxonlar kam bo‘lgan. Chunki tozalangan ipak yoki yungga ehtiyoji bo‘lgan mahalliy aholi ularni sotib olib o‘zlar uylarida tozalaganlar. Bu hunar bilan maxsus shug‘ullanuvchilar tikuvchilar uchun buyurtma asosida ishlaganlar va kamdan-kam holatlarda tozalangan yung yoki shu kabilarni bozorga olib chiqqanlar”.

Tahlil va natijalar.

Samarqandda ipakga ishlov berishda pichoqli quldan yasaluvchi uskunadan foydalanilgan. Ko‘pchilik hunarmandlar ipakga ishlov beruvchi uskunani o‘zlar yasashgan. Ipakni o‘zidan samarqandlik hunarmandlar bir necha hil mahsulotlarni ishlab chiqarganlar. O‘z vaqtida Samarqand o‘lkadagi yirik savdo mahsulotlarni etishtiruvchi va uning bozorlarida amirlikning yirik ipak mahsulotlari savdosи amalgа oshirilgan. Ipak matolardan asosan kanaus, yarim ipak matolardan bekasam va adres tayyorlangan.

XIX asr birinchi yarmida Samarqandda matolar tayyorlash bilan bir qatorda matolarga buyoq berish sohasi ham yaxshi taraqqiy etgan. Buyoqchilik ishi bilan alohida ustalar shug‘ullanishgan. Samarqandda maxsus kuk rangli buyoqlar tayyorlangan. Yil davomida buyoq ishlab chiqarish shug‘ullanuvchi maxsus do‘konlar ham mavjud bo‘lgan. Umuman olganda buyoq tayyorlash bilan alohida usta va buyash bilan alohida ustalar shug‘ullanishgan. Buyoqchi ustaxonasida doimo buyoqlar to‘la chanlar bo‘lib, buyurtmachini oldida mato buyalgan va qurutilmagan holda egasiga qaytarib berilgan[3]. Buyoq sifati va mato xajmiga qarab mehnat haqi olingan. Buyoqning sifatiga qarab 2,5 funt (1 funt 570 grammga teng) matoni buyash 40 dan 60 tiyingacha baholangan.

Shaharda metallga ishlov berish hunarmandchilikning asosiy sohalari hisoblangan[4]. Urush vaqtlarida mazkur soha kishilari harbiy aslahar ishlab chiqarishga, boshqa vaqtarda turli metall buyumlar: pichoq, duradgorlik va ustachilik asboblarini va shu kabilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Samarqandlik ustalar mis, jez, chuyan, temir va turli qorishmalardan mahsulotlar tayyorlashgan.

Temirchilikning chuyanga ishlov berish sohasida o‘ziga xos maktab shakllangan bo‘lib. Ular o‘zlarining metallga ishlov berish texnikasiga ega edilar. Chuyandan asosan qozon, undan tashqari xo‘jalik uchun zarur bo‘lgan buyumlar va mehnat qurollarini tayyorlashgan.

Hunarlarning ayrim turlari muayyan ixtisoslashuvga erishgan. Temirchilar odatda bir necha hil mahsulotlarni ishlab chiarishga ixtisoslashgan: ba’zilari faqatgina ot va eshaklar uchun taqalar yasagan, boshqalari faqat tokarlik va chilangarlik asboblarini yasaganlar. Temir buyumlarning katta qismi Rossiyadan keltirilgan temirdan yasalgan.

Samarqandda boshqa hunarlar qatorida qog‘oz ishlab chiqarish ham rivojlangan. XV – XIX asrlarda samarqand qog‘oz ishlab chiqarishning yirik markazi hisoblangan. Qog‘oz tayyorlashda ishlatilgan nasha o‘simligidan tayyorlangan kanop iplar homashyo bo‘lib xizmat qilgan. Ular tarqatilgan, taroshlangan va kecha davomida ohakli suvgaga botirib qo‘ylgan.

Qog‘oz buyumlarini yasovchi ustaxonalarda qog‘oz homashyosini alohida va yozuv qog‘ozini alohida tayyorlashgan. Ba’zi hollarda esa mazkur mahsulotlarni alohida ustaxonalarda tayyorlab sotuvga chiqarishgan. Qog‘ozga yakuniy ishlovnii maxsus mutaxassis – “murakashlar” amalga oshirganlar. 1869-yilda Samarqandda qog‘oz ishlab chiqaruvchi ustaxonalar soni 16 ta bo‘lgan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshida Samarqandda qog‘oz sanoati inqirozni boshdan kechirgan. Bunga sabab, birinchidan Buxoro amirligidagi o‘zaro urushlar, ko‘chmanchi xalqlarning hujumlari natijasida yuz bergen talon-tarojlardan bezgan xalqning nisbatan tinch o‘lkalarga ko‘chib ketishi hamda qog‘ozsoz ustalarning katta qismi Qo‘qon xonligi hududiga borib makon topishi. Ikkinchidan, XIX asrda Rossiyadan katta miqdorda qog‘oz mahsulotlarning olib kelinishi mahalliy qog‘ozsozlarning inqiroziga ham ma’lum qadar hissa qo‘shtan. Tadqiqotchilarning fikricha O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan XIX asrga oid juda ko‘plab qo‘lyozmalar ichida birorta ham Samarqand qog‘oziga bitilganligi qayd qilinmagan[5]. Bu holat XIX asr boshida Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish to‘xtab qolganligidan dalolat beradi. Yana bir m’lumotda «XIX asr boshlarida Samarqand qog‘ozini tayyorlash nihoyasiga etgan edi. Shu sababli qog‘oz ustaxonlari o‘rnashgan joylar boshdan-oyoq un tegirmonlari va charxpalaklarga ko‘milib ketgan edi», keltiriladi. Bu davrda o‘zaro feodal kurashlar, tinimsiz talonchiliklar, savdo yo‘llarining havfsiz emasligi natijasida savdoning so‘sayishi, o‘zaro kurashlar davrida soliqlarning oshib ketishi natijasida Samarqandda birgina qog‘oz ishlab chiqarish emas, balki ko‘pgina ishlab chiqarish sohalarida inqiroz ko‘zatiladi.

O‘rtta Osiyo bo‘ylab 1866 yilda sayohat qilgan P.I.Pashino fikricha esa qog‘oz paxtadan tayyorlangan, A.Semyonov qog‘oz tayyorlashda eski latta va paxta tolalari, ipak va kanop chiqitlari ham qo‘llanilgan degan fikrni ilgari suradi. Ta’kidlash joizki har qanday mahsulot tayyorlanganda atrof-muhitda mavjud bo‘lgan xom ashyodan keng foydalanilgan[6].

Kerakli miqdordagi birinchi navli paxta olinib, bo‘yra ustida yaxshilab suv bilan chayilgan, so‘ng u objuvozda bir kecha-kunduz davomida tortilgan. Shundan so‘ng talqon holga kelgan paxta ikkinchi bor suvda chayib olingan va unga kerakli miqdorda ishqor hamda ohak solinib, yaxshilab aralashtirilgan va objuvozda ikkinchi bor qayta tortilgan. Kerakli miqdorda qayta tortilgan qog‘oz talqoniga 4 pud ishqor, 1 pud ohak aralashtirib bo‘yra ustida yoz kunlarida 3 kun, qish kunlarida 15 kun quyosh tig‘ida saqlangan. Ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan so‘ng qog‘oz talqoni uchinchi bor objuvozga solinib 8 kun tortilgan. Shundan so‘ng objuvozdag‘i talqon olinib surp matoga solingan va suvda chayib olingan. Qog‘oz talqonidagi suvni siqib chiqarish uchun og‘ir toshlarga bostirib qo‘yanlar. Suvni siqib chiqarilgan qog‘oz talqoni to‘rtinchi marotaba objuvozga solinib, 10 kun davomida tortilgan. Shu jarayonlardan keyingina qog‘oz qilish uchun kerakli xamirsimon xomashyo - qog‘oz bo‘tqasi maxsus xandakga solinib oyoq bilan 2 soat davomida tepkilangan, so‘ngra 2 soat tayoq bilan savalangan. Shundan so‘ng uni suyuq holga keltirish uchun suv solingan. Suyuq qog‘oz bo‘tqasini ot qilidan tayyorlangan mayin to‘r ustiga bir xil yupqalikda solib chiqilgan. Shu jarayonda qog‘ozning qalinligiga alohida e’tibor berilgan, chunki uning qanchalik qalin yoki yupqaligi ana shu erda belgilab olingan va bir kecha-kunduz davomida suvini siqib chiqarish maqsadida ustidan tosh bostirib qo‘yishgan. Katta, yupqa varaqsimon holga kelgan qog‘oz bo‘laklariga yupqa qilib, bug‘doy uni va qo‘y moyi qo‘sib tayyorlangan shirach surtilib, quritish uchun yoz kunlarida 3 soat, qish kunlarida bir kecha-kunduz davomida maxsus xona devorlariga yopishtirib qo‘yishgan yoki simdan qilingan dorga osib qo‘yishgan. Qurigan varaqlar devordan ajratib olinib, maxsus pichoq yordamida kerakli o‘lchamda kesib chiqilgan. So‘ngra shirach varaqning ikki tomoniga surtilgan. Qog‘oz tarkibi yanada zinch va yaltiroq bo‘lishi uchun tosh o‘qlov bilan unga ishlov berishgan. Zarur

bo‘lganda bu jarayon ikki-uch bor takrorlangan. Qog‘oz to‘liq qurishi uchun ipli dorlarga osib qo‘yilgan va shundan so‘ng iste’molga chiqarilgan Qog‘ozsozlar qog‘oz tayyorlash jarayonida uning qanday rangda bo‘lishiga ham alohida e’tibor qaratganlar. Varaqlarning qanday rangga bo‘yalishi ma’lum bir ma’noni anglatgan. Masalan, havorang-motam, ayriliq alomatini, och-qizil - baxt-saodat, shodlik, bayram xabarini bildirgan. Ko‘k rangli qog‘ozlardan asosan qayg‘uli xabarlarni bildirishda foydalanishgan. Qog‘ozbozlar ko‘p hollarda qog‘ozni och-qizil va yashil ranglarga bo‘yashgan, negaki bu ranglar oq qog‘ozga qaraganda kishiga qandaydir ruhiy tetiklik, orom bag‘ishlab, tez charchashning oldini olgan.

Umuman olganda, XIX asr birinchi yarmida samarqand shahri yirik savdo markazi bo‘lib, unda istiqomat qiluvchi turli millat vakillari qizg‘in savdo munosabatlarida faol ishtirok etgan. Aksariyat hollarda ishlab chiqarish jarayonlarida etnik o‘ziga xoslik o‘z aksini topgan. Ya’ni. Ayrim millat vakillari muayyan mahsulot turlarini etishtirish va ishlab chiqarishda etakchilik qilishgan.

Samarqand, Buxoro, Qo‘qon shaharlarida ajdodlarimiz tomonidan ipakdek silliq va yumshoq, uzoq yillarga chidamli, turli muhitlarga dosh bera oladigan, nam tortmaydigan qilib tayyorlangan turli-tuman qog‘ozlar ularning bu sohada yuqori malakaga ega bo‘lganidan dalolat beradi[7]. Yuqorida bayon qilingan qog‘oz tayyorlash usulidan ko‘rinib turibdiki, u qadar murakkab emas. Hozirgi fan-texnika taraqqiy etgan davrda bu jarayondagi ko‘pgina ishlarni texnika zimmasiga yuklash orqali qadim texnologiyalar asosida olingan qog‘oz bilan yo‘qolish arafasida turgan ko‘plab qo‘lyozma kitoblar, hujjatlarni saqlab qolish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 18.
2. Файзиев А.Ф. История Самарканда первой половины XIX века (учебное пособие). – Самарканд, 1992. – С. 19.
3. О некоторых технических производствах в Туркестанском крае. “Русский Туркестан”. Вып. 2. – С. 211.
4. Иванов П.П. К истории развития горного производства в Средней Азии. – М.-Л., 1932. – С. 64-65.
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб., 1855. – Б. 211.
6. Ҳабибуллаев Н. Ўрта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш. – Т.: Фан, 1992. – Б. 10.
7. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков Д.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973 г.

SOVETLAR DAVRIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

Murodov Halim Salimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi, PhD
<https://orcid.org/0000-0001-5564-8531>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sovet davrida ya`ni, o`tgan asrning 50-90-yillarigacha bo`lgan turizm rivojlanishida xususiy sektorning faoliyatiga chek qo`yilganligi, sohada davlat monopoliyasi o`rnatalganligi, butun tizimda raqobat muhitining yo`qligi, turistik industriyadagi jahondaro `yberayotgan yangiliklar va diversifikatsiya jarayonlaridan Ittifoq turizmining uzilib qolganligi, turistik xizmatlar sifatining pastligi, AQSH boshchiligidagi G`arb davlatlari bilan "Sovuq urush" davridagi raqobati, Sovet Ittifoqida turizmdan dunyoning rivojlangan davlatlarida bo`lgani kabi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yuksaltirishga emas, balki soxta sotsializm yutuqlarini targ`ib qilish quroli sifatida foydalanimishi kabi to`siqlar vajihatlar atroficha tahlil etilgan. Xulosa qismida esa O`zbekiston turizm sohasi yillar davomida olib borilgan noto`g`ri siyosat tufayli chuqur inqirozga yuz tutganligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. O`zbekistonda sovetlar davrida turizm sohasi yo`lga qo`yilishi va rivojlanishi masalalari, shuningdek ushbu davrda turizmning ijtimoiy – iqtisodiy tashkilot sifatida mustaqil faoliyat ko`rsatmaganligi, turizmdagi muammolar va kamchiliklar shu bilan birga sohadagi ijobjiy o`zgarishlar ham faktlar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, O`zbekistonda yangi joylashtirish vositalari va turizm infratuzilmasining barpo etilishi, asosan tarixiy turizmni rivojlanishiga e`tibor qaratilish, yangi turyo`nalish hamda turistik xizmatlar yo`lga qo`yilishiga ahamiyat qaratilmaganligi borasidagi aniq fakt va dalillar mushohada qilingan.

Kalit so`zlar: turizm, meros, gid, ekskursiya, viza, mehmonxona, Zarafshon, Varaxsha, pullik xizmat, sanatoriyl-kurort.

DEVELOPMENT AND PROBLEMS OF TOURISM IN THE SOVIET PERIOD (BASED ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN)

Muradov Halim Salimovich

Bukhara State Pedagogical Institute, Department of «Social Sciences», PhD

Abstract: In this article, in Soviet times, that is, between the 50s and 90s of the last century, the private sector was limited in the development of tourism, a state monopoly was established in this area, and there was no competitive environment in the entire system. , and peace in the tourism industry From innovation and diversification processes, disunity of tourism in the Union, low quality of tourism services, competition with Western countries led by the United States during the Cold War, tourism to the Soviet Union is not aimed at improving socio-economic life, as in the developed countries of the world, but the false obstacles and aspects such as its use as a tool to promote the achievements of socialism are analyzed in detail. In the final part, it is scientifically substantiated that the tourism industry of Uzbekistan is facing a deep crisis due to incorrect policies pursued over many years. Issues of the formation and development of the tourism industry in Uzbekistan during the Soviet period, as well as the lack of independent activity of tourism as a socio-economic organization during this period, problems and shortcomings in the field of tourism, as well as positive changes in the industry, are analyzed on the basis of facts. There were also clear facts and evidence regarding the creation of new accommodation facilities and tourism infrastructure in Uzbekistan, focusing mainly on the development of historical tourism and not paying attention to the creation of new routes and tourism services.

Key words: tourism, heritage, guide, excursion, visa, hotel, Zarafshan, Varakhsha, paid service, sanatorium.

РАЗВИТИЕ И ПРОБЛЕМЫ ТУРИЗМА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА)

Мурадов Халим Салимович

Бухарский государственный педагогический институт, Кафедра «Социальные науки», PhD.

Аннотация: В данной статье в советское время, т.е. между 50-ми и 90-ми годами прошлого века, частный сектор был ограничен в развитии туризма, в этой сфере установилась государственная монополия, во всей системе отсутствовала конкурентная среда. , и мир в туристической отрасли От инноваций и процессов диверсификации, разобщенности туризма Союза, низкого качества туристических услуг, конкуренции со странами Запада во главе с США во время «холодной войны», туризма в Советский Союз не нацелен на улучшение социально-экономической жизни, как в развитых странах мира, но подробно анализируются ложные препятствия и такие аспекты, как его использование в качестве инструмента продвижения достижений социализма. В заключительной части научно обосновано, что туристическая отрасль Узбекистана столкнулась с глубоким кризисом из-за неправильной политики, проводившейся на протяжении многих лет. Вопросы становления и развития туристической отрасли в Узбекистане в советский период, а также отсутствие самостоятельной деятельности туризма как социально-экономической организации в этот период, проблемы и недостатки в сфере туризма, а также положительные изменения в отрасли. , анализируются на основе фактов. Также наблюдались явные факты и доказательства относительно создания новых средств размещения и туристической инфраструктуры в Узбекистане, ориентируясь в основном на развитие исторического туризма и не уделяя внимания созданию новых маршрутов и туристических услуг.

Ключевые слова: туризм, наследие, гид, экскурсия, виза, гостиница, Зарафшан, Варахша, платная услуга, санаторий.

Kirish. Turizm sohasining rivojlanishi tarixi albatta turizm so`zining kelib chiqish, ma`nosi va qanday soha yoki harakat ekanligini bilishni taqazo etadi. Turizm (fransuzcha: our — sayr, sayohat), sayyoqlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri sfatida tavsif etiladi. 2019-yil 18-iyuldagи “Turizm to`g`risida” qonunning 3-moddasida turizm — jismoniy shaxsning vaqtincha bo`lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog`liq bo`lgan faoliyat bilan shug`ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo`nab ketishi (sayohat qilishi) deb ta`rif berilgan[1]. YUNVTO (JST)[2] ning turistik atamalar lug`atida turizm - bu ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisa bo`lib, u odamlarning shaxsiy yoki biznes / kasbiy maqsadlarda odatdagi muhitdan tashqaridagi mamlakatlarga yoki joylarga ko`chishi bilan bog`liq. Bu odamlar tashrif buyuruvchilar (turistlar yoki ekskursionistlar, rezidentlar yoki norezidentlar bo`lishi mumkin) deb ataladi va turizm ularning faoliyati bilan bog`liq bo`lib, ularning ba`zilari sayohat xarajatlarini o`z ichiga oladi[3]. Sayohat va turizm sohasining jadal rivojlanishi ta`sirida 2019-yilda dunyo bo`ylab yaratilgan barcha yangi ish o`rinlarining to`rtadan bir qismini, barcha ish o`rinlarining 10,6 foizini (334 million) va global YaIMning 10,4 foizini (9,2 trillion AQSh dollari) hamda ushbu yilda xalqaro tashrif buyuruvchilarning xarajatlari 1,7 trillion AQSh dollarini tashkil etdi (eksport umumiy hajmining 6,8 foizi, global xizmatlar eksportining 27,4 foizi)[4]. Turizm insoniyat paydo bo`lgan davrdan boshlab, u bilan birga hamqadam rivojlanayotgan dunyoqarash va tasavvurlarini o`zgarishi hamda kengayishiga ijobiy xizmat qilayotgan sohadir (harakatdir). Turizm sohasi dunyo davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda hal qiluvchi omilga aylanib borayotgan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biridir. Turizm rivojlanishi bilan butun dunyo davlatlari va xalqlarining siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy – ma`rifiy aloqalarining kuchayishi kuzatilib, bu esa jahonda siyosiy aloqalarning kengayib, tinchlik va xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O`zbekistonda turizm sohasining sovet davridagi holati va rivoji masalalari quyidagi olimlarning tadqiqotlarda kengroq yoritilgan. Bu kabi mahalliy tadqiqot ishlariga tarixchilardan B.Xalmuratov, G.Egamberdiyeva, M.Mansurov, O.Abdimo`minov va A.Mullayev, B.Boltayev, A.Isadjanov va I.Gulmuratov, S.Selimanova va S.Tursunovalarning izlanishlarini haamda iqtisodiyot sohasi mutaxassislaridan M. Aliyeva, A.Tulyaganova, A.Eshtoyev, Z.Sattarova, N.Ibragimov, M.Boltabayev, I.Tuxliyev, B.Safarov, S.Abduxamidovlarning ilmiy tadqiqotlarini kiritish mumkin. MDH davlatlarida olib borilgan tadqiqotlarga tarixchilardan M.Sokolova, I.Orlov va A.Popov, Y.Suprunenko, A.Martinov, Ye.Lelina va A.Terexanova, I.Barchukovlarning, iqtisodchilardan A.Aleksandrova,

Sushinskaya, L.Yefanova va V.Polyakova, V.Gordin va L.Xoreva, A.Baisakalava va V.Garkavenko, A.Pala kabilarning ishlarini hamda xorijiy tadqiqotchilardan G.Sazak, K.Kantarsi, M.Uysal, V.Magnini, V.Benzon, S.Horaklarning izlanishlari ham muhim o'rın tutadi. Ushbu izlanuvchilar olib borgan tadqiqot natijalarida sovet davridagi turizm va sayyohlik sohasi rivoji, uning tashkiliy jihatlari, sohaning mafkura xizmatchisi sifatida faoliyat ko'rsatganligi, milliy turizmning iqtisodiy ahamiyati kabi muhim jihatlariga e'tibor berilmaganligi, turizm infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlanirishning strategik yo'nalishlari belgilanmaganligi, turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish turlarini ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liq sohadagi muammolar va ularning yechimlari borasidagi fikr-mulohazalari keltirilgan.

Ushbu mualliflar O'zbekiston turizmi va uning asosiy sayyohlik o'choqlaridagi tarixiy markazlar va ulardagи muqaddas qadamjolar, moddiy madaniy meros obyektlari to'g'risida ham mushohadalar bildirib, mintaqa turizmidagi kamchilik va muammolarning sababi hamda yechimi bilan bog'liq ayrim masalalarga ham bir qadar jiddiy e'tibor qaratishgan.

Muhokama. XX asrda sobiq sovet mustamlakachiligi davrida esa Markaziy Osiyo jumladan, O'zbekiston turizmi jahon turizmi rivojidan orqada qoldi. Bu jarayonnning asosiy sababi birinchidan, O'zbekiston davlati 1925-yildan 1991-yilgacha sobiq SSSR davlati tarkibida bo'lib, bu davrda amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy siyosat avvalambor metropoliya manfaatlari xizmat qilishi zarurligi ustuvor bo'lib, ikkinchidan sobiq SSSR hududi ya'ni 15 ta davlat g'oyaviy jihatdan to'liq nazoratga olinishi, uchinchidan esa, mustaqil xalqaro aloqalarning yo'lga qo'yilmaganligida edi. Tadqiq qilinayotgan mavzuni to'liq tahlil qilish uchun sobiq SSSR dagi turizm sohasi rivojiga ham bir qadar e'tibor qaratamiz. Dastlab Sovet turizmi tashkiliy markazga ega bo'limganligi uchun sohaga turli organ va tashkilotlar jalgan. Bu tashkilotlarning barchasi turizmning mohiyati, vazifalari va maqsadlari haqida umumiy tushunchaga ega emas edi. Ba'zilar turizmni o'quv ekskursiyalari, boshqalari - jismoniy tarbiyaning ajralmas elementi sifatida, uchinchilari - dam olish paytida dam olish yurishlari, uchinchilari - o'za yurtlari bilan tanishish deb hisoblashgan. 1926-yilda Xalq ta'lim komissarligi qoshida Birlashgan ekskursiya byurosi tuzildi. Birlashgan ekskursiya byurosi 1928-yil oxirida tugatilib, "Sovet turisti" ("Sovtur") aktsiyadorlik jamiyatini tuzildi. Bu jamiyat turizm sohasidagi xususiy sayyohlik idoralari va byurolarini siqib chiqardi[5]. 1928-yilda sovet sayyohlarining birinchi konferentsiyasi bo'lib o'tdi va "Sovet sayyohi" qo'shma kompaniyasi, 1929-yilda esa xorijiy turizm bo'yicha monopoliya o'rnatgan "Inturist" o'z faoliyatini boshladi[6]. "Inturist" chet ellik sayohatchilar uchun Ittifoqni turistik maskanga aylantirish yo'lida qiyinchilik bilan bo'lsada samarali faoliyat yuritdi. Jumladan xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish malaka, ko'nikma hamda qoidalari shakllantirildi. Ichki turizm sohasida esa, 1930-yilda barcha ichki sayyohlik tashkilotlari bir tuzilmaga - Umumiy Ittifoq Proletar Turizm va Ekskursiyalar Ixtiyoriy Jamiyatiga (OPTE) birlashtirildi. 1936-yilda OPTE kasaba uyushmalari rahbarligida faoliyat yuritadigan Turistik Ekskursiyalar Byurosiga (BTE) aylantirildi. 1958-yilda "Sputnik" xalqaro yoshlari turizmi tashkiloti tuzilib, u xalqaro yoshlari harakati bilaan aloqalar o'rnatishi va ular bilan yosh turistlar almashinuvini tashkil etish vazifasi yuklatildi. Ittifoqda turizmning barcha turlari bo'yicha targ'bot – tashviqot ishlarini yuqori saviyada olib boorish, tarixiy, madaniy va hordiq chiqarish joylari bilan aholi va sayohatchilarni tanishtirish uchun 1966-yilda "Turist" jurnali chiqsa boshlagan[7].

1960-yillarda SSSRda turizmning beshta yo'nalishida faoliyat yuritgan bular: 1. Ichki turizm – kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan. 2. Inturizm – tashqi turizm. 3. Yoshlar turizmi. 4. Harbiy turizm. 5. Maktab turizmi kabilardan iborat bo'lib, sohadagi targ'ibot reklama faoliyatini xo'jalik ya'ni o'z-o'zini ta'minlash asosida 1971-yildan faoliyati yo'lga qo'yilgan "Turist" tashkiloti olib borgan[8]. Sobiq Ittifoqda 1970 – 1980-yillarga kelib, ichki va tashqi turizmda o'sish ko'rsatkichlari namoyon bo'lib, albatta bunda asosan xorijiy turistlarning tarixiy – madaniy yodgorliklarga qiziqishi kata ahamiyat kasb etdi. Bu davrda Ittifoqda ichki turizmni tashkil etishga mas'ul kasaba uyushmalari tomonidan 13000 ta turistik – ekskursiya yo'nalishi va tashqi turizm uchun esa Inturist tashkiloti 500 dan orrtiq turistik marshrutlarni taklif qilgan. Jumladan chet ellik sayyohlarga xizmat ko'rsatish uchun 1985-yilda 55 ming o'rinci 100 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglar xizmat ko'rsatgan. Chet ellik sayyohlarga SSSRning 150 ta shaharlaridan o'tgan 500 ga yaqin turli xil ekskursiyalar va sayohatlar taklif qilindi[9]. Turizm rivoji borasidagi yagona davlat siyosati yuritilmaganligi natijasi o'laroq 1922 – 1985-yillarda turistlarni ro'yxatga olish amalga oshirilmagan. Shuningdek 1985-yilgacha Ittifoq republikalari fuqarolarining sayohatlari borasida ham hech qanday statistika[10] yuritilmagan.

O'tgan asrning 50-90-yillarigacha bo'lgan sobiq Ittifoq turizmi rivojlanishidagi to'siqlarning

birinchisi turizm sohasida xususiy sektorning faoliyatiga chek qo'yilganli va sohada davlat monopoliyasi o'rnatilganligi hamda raqobat muhitining yo'qligi, ikkinchidan esa turistik industriyadagi jahonda ro'y berayotgan yangiliklar va diversifikasiya jarayonlaridan Ittifoq turizmining uzilib qolganligi, hamda turistik xizmatlar sifatining pastligi, uchinchidan AQSH boshchiligidagi G'arb davlatlari bilan "Sovuq urush" davridagi raqobati, to'rtinchidan esa Sovet Ittifoqida turizmdan dunyoning rivojlangan davlatlarida bo'lgani kabi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yuksaltirishga emas, balki soxta sotsializm yutuqlarini targ'ib qilish quroli sifatida foydalanishida edi. Bu borada turizmning iqtisodiy faktori ikkinchi darajaga surib qo'yilgan.

Ayni vaqtda Sovet Ittifoqining chekka o'lkasi bo'lgan O'zbekistonda esa mustaqillik arafasida turizm sohasining imkoniyatlari yuqori bo'lsada, ammo samarali foydalanilmadi. 1950 – 1990-yillargacha bo'lgan davrda sovet turizmidagi kamchiliklar Ittifoq respublikalarida jumladan O'zbekiston va uning turistik viloyatlarida esa yanada ko'proq darajada namoyon bo'lgan. Jumladan turistlarga shahar bo'ylab mustaqil harakat qilganda taksi haydovchilarning insofsizligi va yo'l kiraning yuqori narxlari, metro bekatlaridagi asosiy kamchiligi sifatida hojatxonaning mavjud emasligi(hozir ham yo'q), yengil nonushtaga sharoit yo'qligi, hammomlarning yetarli emasligi, issiq suv ta'minotidagi uzelishlar, mehmonxonalarda turistik menu yuqori yo'qligi, mehmonxonalarda mavhum sabablarga ko'ra sayyoohlarning pasportlari vaqtinchal olib qo'yilishi va sanitariya-gigiyena vositalarining yo'qligi, liftlarning tez – tez ishdan chiqishi, temir yo'l transportida servis xizmatining to'la shakllanmaganligi va sifati pastligi, "Inturist" tomonidan mehmonxonalarda xona va aviachiptalarni bron qilish majburiyatları tez-tez buzilishi, ekskursiya dasturlarida mahalliy aholining kundalik hayoti to'g'risida ma'lumotlar yo'qligi, haqiqiy kundalik hayotni yashirish orqali soxta bo'ittirilgan sovet hayotini namuna qilishda turizm mafkuralar kurashi vositasiga aylantirilishi kabi kamchilik va muammolar sovetlar turizmining doimiy yo'ldoshiga aylandi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo respublikalarida xorijlik sayyoohlarga sifatli xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish borasida katta qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shunday qilib, 1961-yilda Buxorodan kelgan "Inturist" kompaniyasi vakillari xorijliklarni issiq suv bilan ta'minlashning iloji yo'qligi, shaharda kanalizatsiya yo'qligi, oqova suvlarni olib tashlash uchun maxsus mashinalar yo'qligi haqida shikoyat qilganlar[11]. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak 1950 – 1960-yillarda O'zbekiston va uning tarixiy turistik shaharlarda turistik infratuzilma obyektlarini barpo etish Ittifoqning markaziy shaharlaridan ko'ra ancha orqada ekanligi hamda bu borada chora – tadbirlartizimli ravishda yo'lga qo'yilmaganligidan dalolat beradi. Bu esa sayyoohlarda O'zbekiston yoki Markaziy Osiyodagi turmahsulot va turistik maskanlarining jozibadorligini osdhirishga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Butunittoq Kasaba uyushmalari Markaziy Kengashi Prezidiumining 1962-yil 20 iyuldagagi "Turizmni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni va Turizm bo'yicha Markaziy Kengashning tashkil etilishi nafaqat turizmni rivojlantirishning tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirishni, balki uning hududiy tashkil etilishini ham rivojlantirish belgilab berdi. Shu yildan boshlab, ushbu farmonga ko'ra sport tashkilotlari boshqarib kelgan havaskor turizm to'liq kasaba uyushmalari ixtiyoriga o'tkazilib, shaharlarda havaskor turizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari belgilab berildi. Klublardagi ish ixtiyorilik asosida sayyoohlarning keng ijodiy tashabbusi va havaskorlik faoliyati asosida qurilgan. SSSR sport jamiyatlari va tashkilotlari ittifoqi markaziy kengashi Ittifoqning tegishli kengashlari huzuridagi turizm federatsiyaları va seksiyalarini tugatdi[12]. Havaskor turizm o'lkanı o'r ganish, yoshlarni jismoniy chiniqtirish orqali harbiy ishga ya'ni vatanparvarlikka tayyorlash, sog'lomlashtirish bo'yicha turistik sayohatlar, tog' turizmiga chiqish, piyoda yurish kabi tadbirlarini 1962-yil 13 sentyabrda tashkil etilgan O'zbekiston turizm soveti va 9 ta viloyatda faoliyat olib borgan turizm sovetlari amalga oshirdilar. 1962-yil Samarqandda respublika turistlarining birinchi slyoti – yig'ilishi bo'lib o'tib, shu yili Butunittoq turistlari slyotida O'zbekiston vakillari birinchi o'rinni egalladilar[13]. O'zbekistonda turizm sohasi kasaba uyushma tashkiloti boshqaruviga o'tib, uning bosh organi turizm va ekskursiyalar bo'yicha Kengashi edi.

O'zbekistonda havaskor turizm viloyat va shahar turistik klublari faoliyati asosida rivojlandi. Bu davrda O'zbekistonda Ittifoqda bo'lgani kabi turizm va ekskursiyalar sohasi kasaba uyushmalari boshqaruvida bo'lsada, lekin jamiyatdagi turli xil tashkilotlar o'z sohasi bo'yicha turizm, ekskursiyalar va dam olishni tashkil etishda qatnashgan. Bularga mazkur soha bilan bog'liq davlat va jamoat tashkilotlari, turli xil sohaviy boshqarmalar va birlashmalar kiradi. 1970 – 1980-yillarda O'zbekistonda yangi mehmonxonalar, turistik transport tashkilotlari, turistik kompleks va sog'lomlashtirish lagerlaari qurilib ishga tushirildi. Natijada O'zbekistondagi turistik bazalar va ularda dam oluvchilar soni ko'payib, bu esa turizm rivojidagi ijobiy tendensiyaning ko'zga tashlanishiga omil bo'ldi. Jumladan quyidagi turizm

statistikasi ma'lumoti (1- jadval[14]) ham buni tasdiqlaydi.

| Joylashtirish vositalari va ularning sig`imi | 1970 yil | 1975 yil | 1976 yil | 1977 yil | 1978 yil | 1979 yil | 1980 yil | 1984 yil |
|--|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|----------|-------------|----------|
| 1.Turistik bazalar soni | 8 | 22 | 20 | 22 | 23 | 27 | 30 | 36 |
| 2.O'rinalar soni(ming) | 1,4 | 3,6 | 3,6 | 3,7 | 4,6 | 5,7 | 6,1 | 8,2 |
| 3.Dam oluvchilar soni (ming kishi) | 74,5 | 198,4 | 237,3 | 326,7 | 395,7 | 475,6 | 510,0 | 621,0 |

1970 – 1980 yillarda turizmning 1.Piyoda yurish turizmi 2.Tog` turizmi 3.Suv turizmi 4.Avtoturizm 5.Mototurizm 6.Veloturizm 7.Chang`ida yurish turizmi bo'yicha ko'rsatkichlar ijobjiy bo'lib, umuman O'zbekistonda ushbu turizm bilan shug`ullanuvchilar jami soni 68 124 tani tashkil etib, shundan piyoda yurish turizmi bilan 56 812 kishi, tog` turizmi bilan esa 8 588 kishi, suv turizmi bilan 523 kishi, avtoturizm bilan 423 kishi, mototurizm bilan 421 kishi, veloturizm bilan 274 kishi, chang`ida yurish turizmi bilan 180 kishi shug`ullanib, yana bir g`or turizmi ro`yxatda bo`lsada, lekin bunda shug`ullanuvchilar va kadrlar hamda klublari haqida ma'lumot mavjud emas[15].

O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar mahalliy xalqning turmush tarzi, yashash sharoitlari, madaniyati, urf-odat va an'analari, asosiy xo'jalik va unda mahsulotni yetishtirish jarayonini bevosita kuzatish kabi qiziqishlarini, xohish istaklarini bajarishga sovet mafkuraviy nazorati ostida bo'lgan malakali gid-tarjimonlarni ham noqulay vaziyatga solib qo'ygan. 1972-yilda O'zbekiston SSR Inturist bo'limi tekshirilganda chet ellik sayyohlarning ekskursiya dasturlarida mahalliy aholi kundalik hayoti haqidagi ma'lumotlarning kamligi haqida bir qancha shikoyatlari qayd etilgan. Ushbu shikoyatlarning sababi tahlil qilinganda kamchilik dasturlarda emas, balki gidlar - ekskursiya gidlarining yetarli darajada malakasizligida ekanligi aniqlangan[16]. 1970 – 1980-yillar boshlarida mehmonxona va boshqa joylashtirish, sog`lomlashtirish vositalarini barpo etishda ijobjiy tendensiya kuzatilib, Toshkentdag'i Chorsu, O'zbekiston, Buxorodagi Zarafshon, Varaxsha, Buxoro mehmonxonalari, mashhur Moxi xossa sanatoriyasi yoki Jizzaxdagi Zomin sanatoriyasi kabilar shular jumlasidandir. Albatta turizm va sayyohlik sohasidagi bunyodkorlik qurilishlarini amalga oshirishda shu davrdagi O'zbekiston rahbari Sharof Rashidovning tashabbuskorligi va homiyligi katta rol o'ynadi. Sh. Rashidov O'zbekistonda turizm rivojlanishini yangi bosqichg ko'tarish uchun Ittifoqning mashhur arxitektorlari va mahalliy arxitektorlari bilan O'zbekistondagi turistik markazlar loyihasi assosida Samarqand da 620 o'rinali, Buxoroda 420 o'rinali milliy dizayndagi turistik markazlar loyihalari 1980 – 1983-yillarda ishlab chiqilib, amalga oshirish jarayonlariga yetganda afsuski Sh. Rashidovning vafot etdi. Kelajakda milliy turizm uchun xizmat qilishi mo'ljallangan ushbu loyihalar qurilish uchun qabul qilinsada, lekin amalga oshmadidi[17]. O'zbekistonda turizm industriyasini barpo etish borasida siljishlar bo'lsada, lekin soha va u bilan bog`liq bo`g'lnlarda kadrlar masalasida hali ham muammolar – kardlar yetishmovchiligi dolzarb bo'lib, buni 1975 yilda o'tkazilgan so'rovnomada qatnashgan 34,2 foiz turistlar transport va xizmat ko'rsatish sohasida malakali mutaxassislar va gid tarjimonlar yetishmasligini qayd etgani ham tasdiqlamoqda[18]. Turizm sohasidagi kadrlar masalasi sobiq Ittifoq davrida juda dolzarb muammolardan bo'lib, ayniqsa markazdan uzoqda joylashgan respublikalarda aynan O'zbekistonda ham bu masala yanada keskinroq edi. Jumladan buning birinchi sababi, O'zbekistonda turizm sohasi bo'yicha oliy va malakali kadrlar tayyorlaydigan maxsus oliy o'quv yurtlari faqat Toshkent va Samarqandda bo'lib, bu esa kadrlar taqchilligi muammosini bartaraf etishga imkon bermadi, ikkinchidan esa aynan sayyohlik sohasidagi kadrlar tayyorlashning zaruriy

talablaridan biri bo`lmish xalqaro hamkorlikning yo`lga qo`yilmaganligi natijasida jahon standart lariga javob beradigan malakali kadrlar yetishmovchiligi yana ko`p yillar saqlanib qolishiga sabab bo`ldi. Ittifoq hukumati 1980 yil dekabrda “Mamlakatda turistik – ekskursiya ishlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to`g`risida”gi qarorida[19] turizmni yanada takomillashtirish, kasaba uyushma, davlat organlari yoshlar va turistik tashkilotlar ning ish faoliyatini jadallashtirish, ommavioy turizmni yanada rivojlantirish, kadrlarni tayyorlash masalasi, turistik bazalar, bolalar turistik bazalarini yangi talablar asosida tashkil etish va chet el turizmi masalalarini tubdan yaxshilash choralarini belgilandi.

O`zbekistonning tarixiy shaharlari Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent va Farg`ona vodiysini o`z ichiga olgan sayyoqlik marshrutlarini tashkil etishning strategiyasi 1970-80-yillarda ishlab chiqilib, unda qadimiy shaharlardagi tarixiy va inqilobiyoq voqealarni aks ettiruvchi yodgorliklarni ekskursiya obyektlari sifatida namoyish etish zarurati belgilandi. Rejaga ko`ra, 20 kunlik “O`zbekiston bo`ylab ekskursiya”, 12 kunlik “O`zbekiston arxeologik yodgorliklari orqali” va 20 kunlik “O`zbekistonning qadimiy shaharlari” ekskursiyalari uchun yo`nalishlar loyihalari ishlab chiqildi. Har bir obyektni dasturga kiritish uchun maxsus pasport rasmiylashtirildi. Unda obyektning nomi, joylashgan joyi, tasviri, obyekt bilan bog`liq tarixiy manbalar va boshqa ma`lumotlar mavjud edi. Lekin bu davrda O`zbekistonda hali turistlarga ma`lum bo`llagan tarixiy yodgorliklar va milliy hunarmandchilik ananalarni, xalqimiz turmsh tarzi va u bilan ming yilliklardan buyon yashab kelayotgan urf odatlarimizni namoyish etadigan, tanishtirishga imkon beradigan turistik yo`nalishlar, turmahsulotlar qisqasi yangi turistik resurslar majmularini yaratish bo`yicha tizimli ishlar yo`lga qo`yilmagan. Jumladan sovetlar davrida O`zbekistonning mavjud turistik brendlar Buxoro, Samarqand, Xiva kabilarni jahonga keng miqyosda reklama va targ`ibot tashviqot qilish borasida hamkorlik aloqalari juda sust bo`lib, mavud aloqalar ham tor doirada Yevropaning sotsialistik davlatlari bilan qisman yo`lga qo`yilgan edi. Afsuski O`zbekiston va uning turistik salohiyati haqida ma`lumotlar juda kam e`lon qilingan edi. Sohada aynan ichki turizmda ham ahvol juda nochor edi. Nega Kavkazdagi sihatgohlarga yoki Qora dengiz bo`ylariga juda kam borishgan, yoki chet elga qilingan turistik marshrutlar va dam olishlarda O`zbekistonlik mahalliy millat vakillari juda kamchilikni tashkil etishgan kabi savollarga javob topish uchun Ittifoq respublikalarining milliy daromadlari va oylik ish haqlari statistikasiga murojaat qilamiz. 1981–1985-yillarda Ittifoq miqyosida ya`ni respublikalarda ijtimoiy mehnat unumdarligi oshishi hisobiga milliy daromadning ortishi (foizlarda) Ukrainada 100 %, Belorussiya 95 %, Estoniya 91 %, Gruziyada 76 %, Armaniston 65%, Qирғистон 39 % va O`zbekistonda esa 13 % oshgan[20]. Ikkinchidan O`zbekiston aholisining asosiy qismi qishloq xo`jaligida bandligini hisobga olsak, kolxoz ishchilarining o`rtacha ish haqlari bo`yicha 1988 yilda Estoniyada 304 rubl, Litva 223 rubl, Armaniston 185 rubl, Qozog`istonda 199 rubl, Turkmanistonda 179 rubl va O`zbekistonda esa 149 rublni tashkil etgan[21]. Bunday past milliy daromad va kam ish haqi haqi bilan O`zbekiston fuqarolari dam olish yoki o`z sog`ligini tiklash uchun turistik sayohatga yoki sanatoriylarga borishga albatta iqtisodiy imkoniyatlari yo`l bermas edi. Shuningdek chet elga sayohatga chiqish juda qimmat edi. Shunday bo`lsada sohadagi bir oz ijobiy siljishlar ko`zga tashlanib, joylashtirish vositalari hamda ulardagi o`rinlar soni ko`payishiga imkon yaratildi. O`zbekistonda 1980 yilda turistik mehmonxona, bazalar, kemping va pansionatlar soni 31 ta, 1988-yilda esa 32 taga yetib, ulardagi o`rinlar soni mos ravishda 5,8 mingdan 8,5 mingtaga ko`payib, dam oluvchilar soni esa mos ravishda 559 mingdan bir million o`n besh ming kishiga turistik xizmatlar ko`rsatildi[22]. Sobiq Ittifoq davridagi ushbu statistikani tahlil qiladigan bo`lsak, turizmni rivojlantirish imkoniyatlari O`zbekistonda keng miqyosli bo`lsada, afsuski sovetlar davrida bu sohaga katta foyda keltiradigan davlat iqtisodiyotining muhim sohasi sifatida alohida e`tibor berilmadi. Aynan shunday e`tiborsiz yondashuv mamlakatda turizm industriyasi rivojlanishiga to`sinqlik qildi. Jumladan turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko`rsatishni ta`minlovchi turli subyektlar majmuasi ya`ni mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari hamda soha bilan bog`liq boshqa tarmoq korxonalarini qurilishi yoki tashkil etilishi jarayoni juda sust bo`lib, keng amaliy ishlar olib borilmagan. Bu sustkashlikning sababi esa Ittifoqda xalq xo`jaligi sohalarini rivojlantirish uchun davlat byudjetidan mablag` ajratishning qoldiq prinsipiga amal qilinishi tufayli katta va istiqbolli loyihalar, sohani davrga mos rivojlantirishga xizmat qiladigan chora tadbirlari uchun mablag` defitsiti jarayoni kuzatildi. Bu esa ayniqsa O`zbekistonda yanada salbiy oqibatlarga olib keldi. Birinchidan mablag` kamligi tufayli milliy turizmnинг asosiy qiziqishb manbasi bo`lgan tarixiy me`moriy obidalarni asrash, restavratsiya qilish hamda saqlab qolish borasidagi chora – tadbirlarni keskin kamayishiga, ikkinchidan esa bu davrdagi turistik sohaning juda cheklangan imkoniyatlari tufayli 1980 yillar oxirida mamlakatimizning qariyib yigirma million aholisidan atigi 5% i turistik xizmatlardan foydalana olgan xolos. Sobiq Ittifoq davida 15

ta mustamlaka davlatlar ichida aholisi soni bo'yicha Rossiya va Ukrainadan so'ng uchinchi o'rinda bo'lgan O'zbekiston turizm rivoji borasida esa ancha orqada bo'lib, butun ittifoqning turistik mehmonxonalar, bazalar, lagerlar va pansionatlar umumiy sonidagi ulushi atigi 3% ni va dam oluvchilar soni bo'yicha ham 3% lik[23] ko'rsatkich bilan bu borada o'z salohiyatidan ancha past natijani qayd etgan.

Natijalar. Sovet davrida turizm va ekskursiyalar tizimi hech qachon ijtimoiy – iqtisodiy tashkilot sifatida mustaqil faoliyat ko'rsatmadni. Aksincha kommunistik mafkuraning xizmatchisiga aylantirilib, sohaning ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi muhim funksiyasiga e'tibor berilmadi. Shu jumladan O'zbekistonda ham turizm sohasining imkoniyatlari yuqori bo'sada, ammo samarali foydalanilmadi. 1950 – 1990-yillarda turizm sohasidagi muammo va kamchiliklar Ittifoq respublikalarida, jumladan O'zbekiston va uning turistik viloyatlarida esa yanada ko'proq darajada namoyon bo'lgan. Bular quyidagilardan iborat edi:

- Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston sobiq Ittifoq nazarida birinchi navbatda xom ashyo manbai sifatida e'tiborga olinib, xalqning ming yillar davomida yaratgan tarixiy madaniy yodgorliklari, obidalari esa ta'mir talab va hatto restavratsiyaga muhtoj bo'sada afsuski juda kam e'tibor va mablag' yetishmasligi boisdan obodonlashtirilmadi.

- turistlarga shahar bo'ylab mustaqil harakat qilganda taksi haydovchilarning insofsizligi va yo'l kiraning yuqori narxlari;

- metro bekatlarida hojatxonaning mavjud emasligi, yengil nonushtaga sharoit yo'qligi;
- hammomlarning yetarli emasligi, issiq suv ta'minotidagi uzilishlar;
- shaharda kanalizatsiya yo'qligi, oqova suvlarni olib tashlash uchun maxsus mashinalar yo'qligi[24];

- mehmonxonalar tamaddixonalarida menuyu yo'qligihama mavhum sabablargako'ra sayyoohlarning pasportlari vaqtincha olib qo'yilishi va sanitariya-gigiyena vositalarining yo'qligi, liftlarning tez – tez ishdan chiqishi;

- temir yo'l transportida servis xizmatining to'la shakllanmaganligi va sifati pastligi;
- "Inturist" tomonidan mehmonxonalarda xona va aviachiptalarni bron qilish majburiyatları tez-tez buzilishi;

- ekskursiya dasturlarida mahalliy aholining kundalik hayoti to'g'risida ma'lumotlar yo'qligi, haqiqiy kundalik hayotni yashirish orqali soxta bo'rttirilgan sovet hayotini namuna qilishda turizm mafkuralar kurashi vositasiga aylantirilishi edi.

- malakali mutaxassislar va gid tarjimonlar yetishmasligini (1975-yilda o'tkazilgan so'rovnoma da qatnashgan 34,2 foiz turistlar transport va xizmat ko'rsatish sohasida malakali mutaxassislar va gid tarjimonlar yetishmasligini qayd etgani ham tasdiqlamoqda[25]).

- O'zbekistonda turizm sohasi bo'yicha oliy va malakali kadrlar tayyorlaydigan maxsus oliy o'quv yurtlari faqat Toshkent va Samarqandda bo'lib, bu esa kadrlar taqchilligi muammosini bartaraf etishga imkon bermadi[26].

- 1989 – 1990-yildagi millatlararo munosabatlarning taranglashuvi[27].
- ekskursiyalarini tashkil etish imkoniyatlaridan amalda foydalanilmaganligi, ekskursiya guruhlarini tashkil qilish uchun ish haqi o'zgarmaganligi, kamlig[28].

- Turizm va ekskursiyalar tashkilotining mustaqil faoliyatiga yo'l qo'yilmaganligi(dastlab sport va fizkultura, so'ngra kasaba uyshmalari ittifoqi boshqaruvida)

- 1987 – 1990-yillardada iqtisodiy ahvolning og'irligi, o'tish davridagi qiyinchiliklar tufayli turizm va ekskursiyalar sohasi hamda u bilan bog'liq tarmoqlarda davlat yoki kooperativ mulkinining talanishi yoki moliyaviy jinoyatchilik holatlari soni ko'paygan[29].

Shu bilan birga 1950 – 1990-yillarda O'zbekistondagi turizm sohasi faqat muammo va kamchiliklardan iborat bo'lmasdan balki, mintaqaning keying rivoji uchun ijobjiy ahamiyati bo'lgan yutuq va o'zgarishlar ham amalga oshirildi. Jumladan:

1. O'zbekistonda turizmnning velosiped va piyoda yurish turi bo'yicha ananaviy ommaviy yurishlar hamda sayohatlar boshlandi.

2. Turizm bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash maqsadida Samarqandda dastlabki turizm va ekskursiya bo'yicha universitet tashkil etildi.

3. Dastlabki turistik bazalar va komplekslari (Chimyon) tashkil topib, ulardagi o'rinnar soni ko'paydi.

4. Yoshlar va bolalar turizmi tashkil topib, bolalar sog'lomlashtirish lagerlari vujudga keldi[30].

5. Dastlabki zamonaviy mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari barpo etildi (Toshkent

– hozirgi Latte City Hotel Tashkent Palase, O'zbekiston, Chorsu, Buxoroda esa Buxoro, Zarafshon, Varaxsha, Guliston mehmonxonalarini barpo etilgan).

6. O'zbekistonda hozirgi kungacha davom etib kelayotgan ko'p kunlik sayohat marshrutlari yaratilib, 20 kunlik "O'zbekiston bo'ylab ekskursiya", 12 kunlik "O'zbekiston arxeologik yodgorliklari orqali" va 20 kunlik "O'zbekiston bo'ylab" ekskursiyalari uchun yo'nalishlar loyihalari ishlab chiqildi hamda amalga oshirilshi[31].

Turizm va ekskursiyalar sohasi rivojlanishida ham sobiq Ittifoq markazi o'z manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib, ayniqsa chekka hudud bo'lgan O'zbekistondagi turistik salohiyat kuchli bo'lsada, ushbu hududda sohaga tegishli infratuzilma obyektlarini jadallik bilan barpo etish chora – tadbirlari paysalga solinib, hatto soha kelajagi uchun ahamiyatli bo'lgan loyihalar ham amalga oshirilmadi[32]. 1970 yilda sobiq Ittifoq bo'yicha turistik mehmonxona, bazalar va boshqa joylashtirish vositalari soni 592 ta bo'lsa, 1980 yilda 963 ta, 1987 yilda 983 ta, o'rinalar soni 459 mingtaga ko'paygan holatda O'zbekistonda 1970 yilda 8 ta, 1988 yilda 32 tani (ba'zi manbalarda 36 ta) tashkil etib, undagi o'rinalar soni 8500 tani tashkil etgan[33]. Ya'ni Ittifoqdagi jami mehmonxona va bashqa joylashtirish vositalarining atigi 3,3 % ini, ulardagi jami o'rinalar sonining 1,9 % ni tashkil etishi O'zbekistonda olib borilgan mustamlakachilik siyosatining turizm sohasidagi salbiy ta'sirining natijasi bo'ldi. Ushbu tahlilga ko'ra, asosiy turizm rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha 15 ta Ittifoqdosh davlatlar orasida Rossiya, Ukraina, Gruziyadan so'ng to'rtinchli o'rinda bo'lgan O'zbekistonda turizm sohasida salohiyat va imkoniyat katta bo'lsada, lekin soha industriyasi asosan Rossiya va Ukrainada rivojlantirilgan. Holbuki, 1980 yillarda davomida O'zbekistonda xorijiy va ichki turizm sifat hamda miqdor jihatdan ham o'sish tendensiyasini namoyish etib, bu davrdagi ichki va mintaqaviy turizmning faol ko'rsatkichi 1986 yilda bo'lib, joriy yilda turistik mehmonxona, bazalar, kemping va pansionatlar soni 23 ta, undagi o'rinalar soni 8000 tani tashkil etgan holda, jami dam olganlar soni bir million qirq olti ming kishini tashkil etgan[34]. Jumladan quyidagi jadval statistikasi orqali O'zbekiston respublikasida mehmonxona, sanatoriy va boshqa dam olish maskanlarida dam oluvchilar va davolanganlar sonining(ming kishi) o'sish tendensiyasini kuzatamiz (2- jadval*).

| Yillar bo'yicha | 1980 | 1985 | 1986 | 1987 | 1988 | 1989 | 1990 |
|---|-------------|--------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| Mehmonxona, va sanatoriyalardan foydalanganlar (jami kishi) | 811,3 | 1241,7 | 1452,0 | 1459,1 | 1497,1 | 1474,4 | 1603,8 |
| Sanatoriyalarda(o'smirlar va bolalar) | 95,9 | 140,7 | 154,2 | 156,3 | 170,5 | 164,0 | 175,0 |
| Sanatoriya – profilaktoriyalarda | 76,8 | 133,0 | 141,8 | 164,6 | 180,4 | 186,1 | 187,8 |
| Kurort poliklinikalarida | 4,3 | 5,3 | 5,0 | 5,9 | 7,8 | 6,6 | 8,6 |
| Dam olish uylari va pansionatlarda | 9,2 | 56,6 | 80,2 | 83,6 | 91,8 | 74,2 | 72,3 |
| Bazlaar va boshqa dam olish mussasalarida | 16,2 | 18,1 | 24,8 | 22,7 | 31,6 | 26,5 | 24,1 |
| Turistik mehmonxonalar va bazalarda | 58,9 | 888,0 | 1046,0 | 1026,0 | 1015,0 | 1017,0 | 1136,0 |

2- jadval - O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining 1990 yilgi statistik yilnomasi asosida tuzilgan[35].

Ushbu statistik jadvalga ko'ra, 1950 – 1990 yillar oralig'idiagi eng yuqori ko'rsatkich ichki va mintaqaviy turizm bo'yicha 1990 yilda yuz berib, unga ko'ra mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarida hammasi bo'lib jami 1136000 kishi dam olib turistik xizmatlardan foydalangan bo'lsa, sanatoriy va boshqa dam olish maskanlarida jami 467,8 ming kishi davolanib dam olishgan. Umuman olganda 1990 yilda O'zbekistonda turistik va sog'lomlashtirish xizmatidan foydalanganlar soni jami 1603,8 ming kishini tashkil etgan. 1990-yilda sanatori-kurort dam olish maskanlari, pansionatlar va dam olish markazlarida, turistik marshrutlar va bazalarda 2017,3 ming kishi davolanib, dam oldi. Turli kasb egalari bo'lgan ishchilar va ularning oila a'zolari, shundan 1603,8 ming nafari uzoq muddatli davolanish va dam olishdan, 413,5 ming nafari bir yoki ikki kunlik dam olishdan foydalangan. Ekskursiya ishtirokchilari soni 1980 yildagi 4075 ming kishiga nisbatan 1990 yilda 7260 ming kishini tashkil etdi. 900 mingga yaqin bolalar va o'smirlar yozda pioner va maktab lagerlarida, ekskursiya va turistik bazalarda dam oldilar

yoki bolalar bog‘chalari joylashgan yozgi muassasalarga borib dam oldilar[36]. Demak O‘zbekistonda 1980 yilga nisbatan 1990 yilda ekskursiya ishtirokchilari soni ko‘payib, jumladan davlat tomonidan yoshlarning dam olishlari uchun katta e‘tibor berilganligini statistika ham tasdiqlamoqda. Lekin bu davrni og‘ir va ziddiyatli ijtimoiy – iqtisodiy hayotini tahlil qilganimizda, barbod bo‘lgan “qayta qurish siyosati”, markaz tomonidan juda bir biriga tobe qilib qo‘ylgan iqtisodiyotlardagi inqiroz va xo‘jalik hamda iqtisodiy aloqalarning barbod bo‘lishi jarayonining barcha sohalari taraqqiyotidagi salbiy ta’siri kuchli bo‘lishiga qaramasdan turizm sohasida sekinlik bilan bo‘lsada o‘zgarishlarga yuz berayotgan edi. Jumladan O‘zbekistonda 1980 yillar va 1990 yil turizm, dam olish va sog‘loimlashtirish sohasidagi maskanlarning soni o‘zgarib tursada, lekin ulardagi o‘rin joylari soni faqatgina ko‘payib borgan. 1990 yilda sanatoriy va dam olish maskanlaridagi umumiyo‘r inqiroz 6 mingtasi oilalar uchun, 1,2 mingtasi esa bolali ota-onalarni davolash uchun mo‘ljallangan edi. 1990-yilda O‘zbekistonda 5,4 ming o‘ringa mo‘ljallangan 111 ta bir-ikki kunlik dam olish maskanlari ham mavjud edi[37]. O‘zbekistondagi sanatoriy-kurort davolash va dam olish muassasalari tarmog‘i aholining ehtiyojlarini umuman qondira olmas edi. O‘zbekistonning 1990 yildagi 20 322 ming kishilik aholisidan atigi 1,6 million kishi davolanish va dam olish huquqidан faol foydalana olgan. Bu esa umumiyo‘r aholining 8 foizini tashkil etadi xolos. Ayniqsa respublikada pulli xizmatlarning tuzilishida jami 100% lik ko‘rsatilgan xizmatlar tarkibida sayyohlik va ekskursiya xizmatlari 1989 yilda 4,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 1990 yilda esa 4,6 % ni tashkil etdi. Jumladan sanatoriy – kurort va sog‘loimlashtirish sohasida esa 1989 yil 1,6 %, 1990 yilda ham 1,6 %, jismoniy tarbiya va sport sohasida 1989 yil 0,4 %, 1990 yilda 0,3 % ni tashkil etib, bu davrlar oralig‘ida aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish darajasi pasayganligi aks etmoqda. Aholining turli turdag‘i pullik xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdagi mavjud nomutanosibliklarga barham berilmagan. Umumiyo‘r hajimning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i maishiy(40,1%), uy-joy kommunal(21,3%) va transport(39,8%) xizmatlariga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa turistik korxonalarda pullik xizmat ko‘rsatish sohasi yetarli darajada rivojlanmagan. Aholi jon boshiga pullik xizmatlarning ayrim turlari hajmi bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, jumladan turistik ekskursiya xizmatlari O‘zbekiston bo‘yicha aholi jon boshiga 6,4 rublni tashkil etib, bu borada Toshkent shahri 19,0 rubl, Samarqand viloyati 8,2 rubl, Buxoro viloyati bo‘yicha esa 6,9 rublni tashkil etib, qolgan viloyatlar esa respublika darajasidan past ko‘rsatkichni qayd etishgan[38]. Turizm va ekskursiyalar sohasida xizmat ko‘rsatishning pullik turlarini rivojlangan davlatlarga nisbatan juda kam bo‘lib, hatto yangi xizmat ko‘rsatish turlarini o‘zlashtirish darajasi ham juda sust bo‘lib, bu esa respublika turizmining sobiq sotsialistik tuzum davridan qolgan salbiy xususiyatlaridan biri edi. Bu esa ushbu sohada xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida narx navoni belgilash, zamonaviy boshqaruv joriy etish, kadrlar masalasi va o‘z mahsulotlarini targ‘ibot tashviqoti kabi masalalarida ko‘plab muammolar mavjudligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 1989-1991 yillarda O‘zbekiston turizm sohasi yillar davomida olib borilgan noto‘g‘ri siyosat tufayli chuqur inqirozga yuz tutdi. Bu inqirozning sabablari birinchidan sobiq Ittifoq davrida xalq xo‘jaligining boshqa barcha sohalari kabi turizm va ekskursiya ishlari ham markaz tomonidan boshqarilishi va respublikalardagi mahalliy turizm tashkilotlarining mustaqil harakat qila olmasligi mahalliy hududlarda samarali va istiqbolli rejalar, yangi turistik mahsulotlar, yangi turyo‘nalishlar yaratish hamda xorijiy hamkorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar o‘rnatish imkonini bermagan, ikkinchidan esa turizm va ekskursiya ishlaridan kelayotgan daromadlarining bir qismi mahalliy hudud g‘aznasiga tushayotgan bo‘lsada, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan turizmning iqtisodiy va ijtimoiy samarador faoliyatini tan olib, mablag‘larni sohaning respublika yoki viloyat hududida keng rivojlantirish uchun yo‘naltira olmasligi, ya‘ni qisqasi turizmni hududiy rivojlantirishga e‘tibor berilmaganligi, uchinchida turizm sohasi sovet mafkurasining xizmatchisiga ya‘ni tenglar jamiyatni mafkurasini bo‘lmish komunistik jamiyatni targ‘ib qilish quroliga aylantirilib, uning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy roli ikkinchi darajaga tushirib qoldirilishi, to‘rtinchidan jahonda turizmni rivojiga asosiy omil bo‘lgan xususiy sektor faoliyatiga yo‘l berilmaganligi, beshinchidan O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning va sayyohlarni jalb etishning omili bo‘lgan tarixiy – madaniy yodgorliklar, masjid va maqbaralarning ko‘pchiligi xaroba yoki butunlay yo‘olib ketish holatiga tushib, ularda obodonchilik hamda ta‘mirlash chora tadbirlarining tizimli yo‘lga qo‘yilmaganligi, oltinchidan sobiq Ittifoq davrida xalq xo‘jaligini markazlashtirilgan rejalashtirish va direktiv (yuqori hokimiyat organlar tomonidan berilgan va bajarilishi majburiy sanalgan rasmiy yo‘l-yo‘riq, dastur, reja, ko‘rsatma) boshqaruv usuli o‘zini oqlamadi. Bunday boshqaruvda asosan ustuvor sohalarga (harbiy, metallurgiya, neft va gaz kabi

sohalarga) katta e'tibor va mablag` ajratilib, lekin 1980 yillar davomida iqtisodiy samaradorligi ko'tarilib borayotgan turizm sohasi esa muhim strategik sohalar qatoriga kiritilmagan. Shuningdek hozirgi kundagi kabi yagona turistik siyosat hamda turistik salohiyati yuqori bo'lgan viloyatlar uchun aniq va tizimli davlat dasturlari, rejalar va konsepsiyalari ishlab chiqilmaganligi, yettingidan sobiq Ittifoq hududida boshqaruvning sotsialistik shakli o'rnatilganligi tufayli turizm va ekskursiya sohasi rivojlanmadidi. Chunki turizm rivojiga xizmat qiladigan zamonaviy yondashuv va raqobat, xalqaro hamkorlik hamda sohadagi xususiy tadbirdorlikka ya'ni nodavlat turizm tashkilotlari faoliyatiga yo'lbirligining bilan ham ushbu davr tavsiyelarni.

Foydalanimizga adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi qonuni // Xalq so'zi , №147(7377), 2019 yil 19 iyul .
2. Jahon Sayyohlik Tashkiloti- bosh qarorgohi Ispaniyaning poytaxti Madridda joylashgan bo'lib, 1975 yil 1-noyabrda tashkil etilgan.
3. <https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>
4. <https://wttc.org/Research/Economic-Impact>
5. Г.Усискин «Очерки истории Российского туризма» Москва - Санкт-Петербург. “Герда», 2000. Б-51
6. И. Б. Орлов, А. Д. Попов. Сквозь «железний занавес». Руссо туристо: советский виэздной туризм, 1955—1991 Издательский дом Высшей школы экономики ,Москва -2016.Б-302
7. Р.Абдумаликов, Т.Холдоров. Туризм “Ўқитувчи” Тошкент-1988. Б-20.
8. М.В.Соколова. История туризма.”Академия” Москва–2008, Б-294-296.
9. Ю.С. Путрик. История туризма. Федеральноэ агентство по туризму.Москва-2014. С-203.
- 10.<http://istmat.info/node/21341>
- 11.В. Э. Багдасарян, И. Б. Орлов “Советское “Зазеркалье” (Иностранный туризм в СССР в 1930 – 1980 – е годы) Москва 2007 .С-161.
- 12.И.А.Колупанова. Проблеми становления массового туризма в СССР в 1960–1970-е годы .Вестник ТГПУ (ТСПУ Буллетин). 2016. 9 (174) С-54-55.
- 13.R.Abdumalikov, T.Xoldorov. Turizm “O'qituvchi” Toshkent-1988. B-24.
14. O'sha joy. B-32.
- 15.Р.Абдумаликов, Т.Холдоров. Туризм “Ўқитувчи” Тошкент-1988. Б-35.
- 16.В. Э. Багдасарян, И. Б. Орлов “Советское “Зазеркалье” (Иностранный туризм в СССР в 1930 – 1980 – е годы) Москва – 2007 .С-152-153.
- 17.https://tatlin.ru/articles/turistskie_centry_v_uzbekistane
- 18.M.Sh. Mansurov. Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanish jarayonlari va holati (1980-2018 y). Avtoreferati. Toshkent – 2020. B-12.
- 19.R.Abdumalikov. T.Xoldorov. Turizm “O'qituvvchi” Toshkent-1988. B-44.
- 20.Народное хозяйство СССР в 1988 г. статистический ежегодник. Москва.1989. ©Издательство «Финансы и статистика». С-16
- 21.Народное хозяйство СССР в 1988 г. статистический ежегодник. Москва.1989. ©Издательство «Финансы и статистика». С-80-83.
- 22.Народное хозяйство СССР в 1988 г. статистический ежегодник. Москва.1989. ©Издательство «Финансы и статистика»,С-239.
- 23.Народное хозяйство СССР в 1988 г.статистический ежегодник. Москва.1989. ©Издательство «Финансы и статистика»,С-20.
- 24.V. E. Bagdasaryan, I. B. Orlov “Sovetskoe “Zazerkal'e” (Inostranniy turizm v SSSR v 1930 – 1980 – ye godi) Moskva. 2007.C-161.
- 25.M.Sh. Mansurov. Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanish jarayonlari va holati (1980-2018 y). Avtoreferati. Toshkent – 2020. B-12.
- 26.R.Abdumalikov, T.Xoldorov. Turizm “O'qituvchi” Toshkent-1988. B-24-25.
- 27.O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.12-Ish 36-varoq.
- 28.O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro'yxat.12-Ish 39-varoq.

- 29.O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat.12-Ish 182-195-varoq.
- 30.R.Abdumalikov, T.Xoldorov. Turizm "O`qituvchi" Toshkent-1988. B-24-38.
- 31.G.Egamberdieva. O'zbekistonda turizm sohasini isloq qilish bosqichlari (XX asrning ikkinchiyarmi – XXI asrning birinchi choragi. "FarDU. ILMIY XABARLAR – NAUCHNIY VESTNIK.FerGU" Farg'ona, 2020/№2.B-89-94.
- 32.Sh. Rashidov O'zbekistonda turizm rivojlanishini yangi bosqichg ko'tarish uchun Ittifoqning mashhur arxitektori va mahalliy arxitektori bilan O'zbekistonligi turistik markazlar loyihasi asosida Samarqand da 620 o'rinni, Buxoroda 420 o'rinni milliy dizayndagi turistik markazlar loyihalari 1980 – 1983 yillarda ishlab chiqilib, amalga oshirish jarayonlariga yetganda afsuski Sh. Rashidovning vafot etdi. Kelajakda milliy turizm uchun xizmat qilishi mo'ljallangan ushbu loyihalar qurilish uchun qabul qilinsada, lekin amalga oshmadidi (https://tatlin.ru/articles/turistskie_centry_v_uzbekistane).
- 33.Narodnoe xozyaystvo SSSR v 1988 g. Statisticheskiy yejegodnik. Moskva.1989. ©Izdatel'stvo «Finansi i statistika». S-239.
- 34.Narodnoe xozyaystvo SSSR v 1986 g. Statisticheskiy yejegodnik. Moskva.1987. ©Izdatel'stvo «Finansi i statistika». S-603.
- 35.Narodnoe xozyaystvo Uzbekskoy SSR v 1990 g. Statisticheskiy yejegodnik. Toshkent. «Uzbekistan» 1991. S-143.
- 36.Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический ежегодник. Тошкент. «Узбекистан» 1991. С-143.
- 37.Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический ежегодник. Ташкент. «Узбекистан» 1991.С-143.
- 38.Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический ежегодник. Ташкент. «Узбекистан» 1991.С-79-80.

QARSHI SHAHRIDAGI QO'RG'ONCHA JOME' MASJIDI: O'RGANILISH VA TA'MIRLANISH TARIXI

*Qo'yliyev Ravshon Maxmanazarovich,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qarshi shahrida joylashgan Qo'rg'oncha jome' masjidi tarixi, uning ilmiy, tarixiy va injener-geologik jihatdan o'rganilishi, qurilish uslubi, masjid qurilishida ishlataligan materiallar, masjidning o'rganilgan vaqtgagi saqlanish holati, masjiddagi tarixiy bitiklar hamda masjidning tamirlanish tarixi yoritilgan.

Kalit so'zlar; Sajdagoh, xonaqoh, waqf, mutavalli, dakhma, kapitel, stela, ravoq, mehrob, abjad, trapesiya, parallelopiped, nastaliq, suls, nasx

МЕЧЕТЬ КОРГОНЧА ДЖОМЕ В ГОРОДЕ КАРШИ: ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ И РЕНОВАЦИИ

*Койлиев Равшон Махманазарович,
преподаватель Национального университета Узбекистана имени -Мирзо Улугбека.*

Абстракт. В данной статье рассмотрена история мечети Курганча Джаме, расположенной в городе Карши, ее научное, историческое и инженерно-геологическое изучение, метод строительства, материалы, использованные при строительстве мечети, состояние сохранности мечети на освещено время изучения, исторических надписей в мечети и восстановления истории мечети.

Ключевые слова; Саждагох, ханака, вакф, мутавалли, дахма, капитель, стела, крыша, михраб, абджад, трапеция, параллелепипед, насталик, сулс, насх

KORGONCHA JOME MOSQUE IN KARSHI CITY: HISTORY OF STUDY AND RENOVATION

*Kuyliyev Ravshon Makhmanazarovich,
teacher at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.*

Abstract. In this article, the history of the Kurgancha Jame Mosque located in the city of Karshi, its scientific, historical and engineering-geological study, the construction method, the materials used in the construction of the mosque, the state of preservation of the mosque at the time of the study, the historical inscriptions in the mosque and the renovation of the mosque history is covered.

Keywords; Sajdagoh, khanaqah, waqf, mutavalli, dakhma, capital, stela, roof, mihrab, abjad, trapezoid, parallelopiped, nastaliq, suls, naskh

Kirish. Qarshi shahri O'zbekistonning janubiy viloyatlaridan biri –Qashqadaryo viloyatining markazi bo'lib, u Pomir-Oloy tog' tizmasining g'arbiy chekkasida, Qarshi vohasida joylashgan. Mil. av. VII asrda Qarshi hududida ilk manzilgoh shakllanganligi va uning atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralganligi aniqlangan. Qarshi shahri qadimgi So'g'diyona shaharlari yoki mulkclaridan biri sifatida tanilib, u so'g'dcha Naxshab deb atalgan. Shuningdek shaharga nisbatan Nasaf atamasi ham ishlataladi va bu nom arablar fathidan keyin xalq orasida va adabiyotlarda paydo bo'lgan[1].

Qarshi shahrining jome' masjidlaridan biri aholi va jamoatchilik orasida Qo'rg'oncha nomi bilan keng tanilgan. Ammo mazkur sajdagoh Xonaqoh hamda Qilichbek qo'rg'oncha jome' masjidi nomlari bilan ham ma'lum. Ayrim ilmiy adabiyotlarda va matbuot sahifalarida u "Qo'rg'oncha" mahallasida joylashgan Xonaqoh jome' masjidi deb ko'rsatilgan. Hozirgi vaqtida Qarshi shahri namozxonlari va diniy ulamolari Qilichbek qo'rg'oncha jome' masjidi nomini tilga olishadi va bunday nomda atalishiga asosiy sabab qilib ibodatgohning Qilichbek qo'rg'oncha mahallasida joylashganligi aytildi[2]. Qo'rg'oncha Qarshi shahrining katta va mashhur mahallalaridan biri sifatida eslab o'tilgan hamda bu yerdan chiqqan kishilar Qo'rg'onchagiy nisbasini ham olishgan[3]. Sobiq sho'rolar davrida jome' masjidi Qarshi shahrining Sputnik ko'chasida joylashgan, deb qayd etilgan[4]. XX asrning 50 yillarda masjiddan somonxona sifatida foydalanishgan. Qarshi shahri hududidagi jome' masjidlari ichida Qo'rg'oncha

“Oshiqning qalbiga” yaqin za’faron tuyg‘ular, aslida shoira muhabbatining pok va beg‘uborligini tasdqamoqda. Tuyg‘ulari bo‘g‘ilgan lahzada tun masha’li yulduzlarga yukanish – lirik qahramonga saodat tuhfa etayotgandek. “Ko‘zlarga tikka boqqan yulduz”ni u muhabbatiga qiyoslaydi. Shu kayfiyat unga shodlik va yupanch hadya qilmoqda. Bular insoni irodasining o‘ziga tabiat hodisalaridan, fazo jismlaridan taskin topishi mangu ayriliqni biroz yumshatgandek. Lirik qahramon yana u bilan suhbatda. “Senday uzoq va senday yorqin” satrida inson istaklarining naqadar ranginligi, umid tamoman yo‘qolib ketmasligiga mantiqiy ishora mavjud. Unda bashariyat istaklari mujassam. “Bir yupanch: sevgimning osmoni”da faqat o‘zing dardi holimga yupanch bo‘lishing mumkin, bunda o‘chmas yoding va xayoling menga bir umr hamdam bo‘ladi demoqda. “Yudduz” deb nomlangan she’rda qahramon o‘y-xayollarining tizginsiz mushohadalari inkishof qilingan. Jamiki ezgu insoniy fazilatlar lirik kechinmada o‘ta haroratlari va samimiy ifoda markaziga tortilgan. Bunday tavsiflash shoira Zulfiya lirikasining markazida fenomen bo‘lib hisoblanadi. Kutilmagan zid, no zid atamalar negizida “vafo va sadoqat” timsolining poetik olamini kashf etish mumkin. Jumladan, real voqelik har bir she’rida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mavhum tushunchalarni, bosib o‘tilmagan yo‘llar, anglanmagan hissiyotlar, kechirilmagan taqdirlar, kuztilmagan lahzalar shoira lirikasiga yot hodisa. Nimaiki, ro‘y bermasin, o‘zi yashab va his qilgan kayfiyatni, ruhiyat manzarasining tasvirini idroklash hayotiy a’moli sanaladi.

Ma’lumki, “ayriliq Zulfiyani bukib tashlay olmadi. Unda qodir bir ong, burch hissiyoti bosh ko‘tardi. U Hamid Olimjon uchun ham yashash, yaratish, xizmat qilish tilagini yuragiga singdirdi. Bu katta ahd edi. Qarori qattiq ayolning, san’atkorning, onaning, ahdi. Zo‘r kelajak bilan yashab, harakat qilib turgan zotning o‘tolmagan burchini yelkaga olish oson emasdi. Buning uchun katta iqtidor, shijoat mardlik va iroda bo‘lishi kerak”[6]. Darhaqiqat, mazkur tavsirlarda shoiraning ijodiy va hayotiy qarashlari ilgari surilgan. Olim haqli ravishda ta‘kidlaganidek, uning tuyg‘ularida nafosat va go‘zallik, baxt va baxtiyorlik – mahzunlik va hijron soyasida qolib ketgan bo‘lsa-da, yashashga kuch, ilohdan taskin so‘rashi, “iltijoviy” yo‘sinda aks ettirilgan. Matonatli o‘zbek ayoli, sadoqati mangu “vafo timsoli” shoira Zulfiya estetikasida olimjonona ruh: soddalik va beg‘uborlik, samimiylik va baxtiyorlik, jo‘shqinlik va barhayotlik, go‘zallik va nafosat, shodlik va quvonch tuyg‘ulari yuksak mahorat bilan musavvirona nigoh bilan “chizib” berilgani yaqqol ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lib turibdi.

Odatda, ijodiy portretni faqatgina so‘z va iboralar bilangina emas, to‘rt misra she’riy matn orqali ifodalash ham mumkin. Shoira Shukrullo Zulfiyaga bag‘ishlab to‘rt misra she’r yozgan. Mazkur satrlarda Zulfiyaning xarakter qirrlari, matonatini tasvirlashga erishgan:

Barchinni bilaman. Ko‘rmadim ammo,
She’r gulshanida sendek mardini.
Koshki hamma sendek dilga qilsa jo,

Odamlar dardini do'stlar dardini.

Ushbu mo'jaz she'riy parchada shoira qalbining, hayot va ijod yo'lining butun iste'dodining qirralari "odamlar dardini" yelkalay olish, birovning mushkulini oson qilish fazilatlari, chinakam ijodkorning iibratli manzaralari mammuniyat ruhi bilan sug'orilgan. "Dunyoda insondan faqat yaxshilik qolishini, qo'lingdan kelganicha birovning kam-ko'stini to'ldirishga yordam ber, insonni ulug'la. Uning boshiga musibat tushsa darrov unga madadga shoshil" degan hikmatomuz fikrlarni ham shoira Zulfiya o'z ijodiy qarashlarida ifodalab ketdi.

Chinakam ijodkorning qismati hech qachon osonlikcha kechmagan. Davr va zamon muammolarini o'z qismatiga aylantirgan "yoniq va yorug" qalblargina ijod baxtiga tuyingizni bo'lib qoldi. Inson qalbining, ayniqsa, ayol ruhiyatini nozik sezimlar bilan inkishof qilgan "sadoqat va vafo" timsoli deya qadrlangan, e'zoz topgan shoira Zulfiya taqdirining murakkab va ziddiyatli lahzalari hamisha har birimizni o'ylashga undaydi. XX asr adabiyot tarixiga nazar tashlansa, bir qator ijodkorlar singari shoira Zulfiya ham murakkab hayot va ijod imtihonlarini boshidan kechirdi. Matonatli va irodasi mustahkam ayol tiynatida – o'zbek ayolining mehru muhabbat, insoniy fazilatlari, jamiki ezgu amallari, sabr-bardoshi mujassam edi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Oddiy temirchi oilasida kamol topib, ijod olamiga kirib kelishining o'zi bir baxt va saodat nashidasi bo'lib qoldi. Lekin hayot imtihonlari, sinovlari borligini oldindan kim bilibdi deysiz? Hassos shoir, benazir siymo Hamid Olimjon bilan bor-yo'g'i to'qqiz yil birga umr kechirgan shoira qalbining eng nozik tuyg'ulari ham, irodasi ham umr yo'ldoshidan kutilmaganda ayrilgach, kanday kayfiyatda qolganligini tasavvur ham qilolmaymiz. Bosib o'tilgan sharaflı yo'l, ijod mashaqqati, hayot sinovlari shoira Zulfiya lirikasining bosh mavzusi, "hijron va ayrılıq" esa motivi bo'lib qoldi. Ana shu jarayonning faol ishtirokchisi ham, qahramoni ham shoiraning o'zi edi...

Xulosa shuki, inson tabiatiga daxldor eng muqaddas tuyg'ular (muhabbat, mehr-shafqat) ham boshga kulfat tushganda irodasi dosh berolmasa, siniq va aftoda holga tushishi tayin. Shuning uchun ko'pchilik ijodkorlar o'z qismatidan nolimaydi, boshiga yog'ilgan kulfatu uqubatlarni ijod qilish bilan yengib o'tadi. Ana shu murakkab mashaqqatlarni yengib o'tgan shoiralardan biri Zulfiyadir. Shoiraning har bir she'rida – sog'inch va qumsash, sadoqat va vafo tushunchalari o'ziga hos tarda poetik mushohada sahniga tortilgan. Bunda o'z taqdirining iztirob va quvonchlarini zukko o'quvchidan pinhon tutmay, go'zal badiiy-tasviriy vositalar bilan chizishga erishgan.

Alovida ta'kidlash joizki, shoira lirikasida "bahor" o'ziga xos shodlik va tarovat ulashvchi ilohiy ne'mat tarzida qadrlanadi. Bahorning kirib kelishi, Zulfiya hayotida armonning ushalishi, hijronning bir dam bo'lsa ham chekinish lahzasidir. "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'rik gullaganda...", "Sensiz" kabi she'rlari ushbu kayfiyatning mahsuli sanaladi. "Xasta tuyg'ular she'r yordamida go'zallikka aylantiriladi" (R.Rahmat). Shoira Zulfiya ham qalbini ayovsiz iztirobga solgan tuyg'ularni – she'rga aylantirdi. Bu bora-bora qismatga aylandi. Ijodkor she'r yozib o'quvchiga aql o'rgatmaydi. Shaxsiy-intim kechinmalar idrok, tasavvur, sezgi va ruhiy ehtiyoj tufayli she'rga aylanadi. Shoira Zulfiya ham o'z qismatining nechog'li ayriliq va musibatlarga to'laligina anglab yetmasin, baribir qalbidagi o'sha sezimlar hissiy idrokning bezovta bo'lishidan uni she'rga ko'chirishga talpinib yashagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Рахимжон Раҳмат. Даала гуллари. –Т.: 2006.
- Акрамов Б. Шеърият гавҳари. –Т.: "Адабиёт ва санъат" нашриёти. 1979.
- Фафуров И. Вақт ва қалб. Зулфиянинг "Хаёллар" китобига ёзилган сўз боши. –Т., 1982.
- Фафуров И. Зулфия сиймоси. Шарқ юлдузи журнали. Т.: 2015.
- Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: «Фан», 2004.

2000-YILLAR AMERIKA KAMPUS ROMANLARINING TASNIFI

*Kamola Alimova,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada kampus romanlariga ta'rif berish bilan bir qatorda, uning etimologiyasi va rivojlanish omillari ham yoritiladi. Maqola kampus romanlarini o'rganish borasida samarali ijod qilgan xorijiy adabiyotshunos va mualliflarning tanqidiy va tahliliy asarlarini ham sanab o'tadi va bu sohaning alohida janr sifatida tan olinishiga alohida hissa qo'shgan olimlarning nomlariga alohida urg'u berib o'tadi. Tadqiqot uchun qo'llanilgan asosiy metodlar, jumladan biografik, madaniytarixiy, ijtimoiy va strukturaviy usullar haqida ham izchil tushunchalar beriladi. Maqolada 2000-2023 yillar oraliq'ida asosan amerikalik mualliflar tomonidan yozilgan 76 ta kampus romani yozuvchilarning jinsi va asar bosh qahramonlarining akademik mavqeい bo'yicha tizimli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kampus romani, metodlar, janr, biografik, ijtimoiy.

КЛАССИФИКАЦИЯ АМЕРИКАНСКИХ КАМПУСНЫХ РОМАНОВ 2000-Х ГОДОВ

*Алимова Камола,
Старший преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков*

Аннотация. Помимо определения кампусного романа, в статье кратко рассматриваются его этимология и факторы развития. В статье также перечислены критически-аналитические работы зарубежных литературоведов и авторов, добившихся успехов в изучении академического романа, выделены имена ученых, внесших особый вклад в признание этой области как самостоятельного жанра. Даётся целостное представление об основных методах исследования, включая биографический, культурно-исторический, социальный и структурный методы. В статье систематически анализируются 76 студенческих романов, написанных американскими авторами в период с 2000 по 2023 год, в зависимости от пола авторов и академического статуса главных героев.

Ключевые слова: кампусный роман, методы, жанр, биографический, социальный.

CLASSIFICATION OF AMERICAN CAMPUS NOVELS OF THE 2000

*Alimova Kamola,
Senior teacher of Uzbekistan State University of World Languages*

Abstract. In addition to defining the campus novel, the article briefly covers its etymology and developmental factors. The article also lists the critical and analytical works of foreign literary scholars and authors who have achieved success in the study of academic novel, and highlights the names of scientists who have made a special contribution to the recognition of this field as an independent genre. A holistic view of the main research methods is given, including biographical, cultural-historical, social and structural methods. The article systematically analyzes 76 student novels written primarily by American authors between 2000 and 2023, according to the gender of the authors and the academic status of the protagonists.

Keywords: campus novel, methods, genre, biographic, social.

Kirish. Kampus romanining mustaqil janr sifatida shakllanishiga 1960-yillarda universitet ta'liming kengayishi ta'sir ko'ssatdi. Aholining turli ijtimoiy, xususan o'rta va quyi qatlamlari ham universitetlarda o'qish imkoniyatiga birmuncha ega bo'ldilar. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda universitetlar soni tez sur'atlar bilan o'sib bordi. Bu kengayish urushdan qaytgan ijodkor yozuvchilarga ushbu universitetlarga ishga kirish imkoniyatini yaratdi. Gumanitar va ijtimoiy fanlar fakultetlarida ish o'rirlari talaygina edi va ularning o'quv dasturlarida ijodiy yozish fani ham mavjud edi. Natijada, an'anaviy adabiyot fani bilan bir qatorda ijodiy yozish fanini o'qitish uchun tajribali yozuvchilar yollandi. Universitetda dars berish, o'zining qulay sharoitlari va barqaror daromad manbai sifatida yozuvchilar uchun muqobil kasbga aylandi. Bundan tashqari, yo'zuvchilar o'z asarlarini yaratish uchun barqaror

moliyaviy daromadga ega bo'lish bilan bir qatorda, o'z atroflaridagi prototip qahramonlar dunyosida yashayotganlarini angladilar. Yozuvchilar faoliyat olib borgan "kampus" deb atalmish bu kichik, yopiq dunyo, umum dunyoning mikrokosmosi edi va bu ularga o'z qahramonlarini yaratish va bu sohada ijod qilish uchun qulay zamin yaratdi.

Garchi bu janr 20-asr o'rtalaridan boshlangan deya e'tirof etilsada, ingliz kampus romanlari XIX asrning o'zidayoq paydo bo'lganligi ham ayrim adiblar tomonidan ta'kidlanadi. Xususan, Shoualter shunday yozadi: "Entoni Trolloping «Barchester Towers» (1857) nomli satirk she'ri, garchand u chekka qishloqdagagi ingliz ruhoniylarining yevangelist islohotlariga qarshi tortishuvi haqida bo'lsa ham, akademik adabiyotning ajoyib namunasidir. Trolloping munozarali, bizga zamonaviy ziyyolilar: dotsentlar, dekanlar va provostlarni eslatadi". Shoualter yana qo'shimcha qiladi: "19-asrning eng oliy kampus romani, Jorj Eliotning "Middlemarch" (1872) bo'lib qolmoqda va Eliotning bosh qahramoni janob Kasaubon g'alati pedagog sifatida gavdalananadi".

Tadqiqot metodlari. Kampus romani hozirgi kunga qadar zamonaviy romanchilikning mustaqil janri bo'lib, unga bag'ishlangan jiddiy tahlil va tanqidlarga ega. Kampus romaniga oid dastlabki tadqiqotlar orasida J. Lionsning "Amerikadagi kollej" romani (1962) va Mortimer R. Prokturning "Ingliz universiteti romani" (1957) nomlarini qayd etish mumkin. Ian Karterning "Ancient Cultures of Conceit: Urushdan keyingi yillarda Britaniya universiteti fantastikasi (1990) kampus asarlariga oid yana bir muhim tanqidiy asardir. Biroq, Eleyn Shoualterning "Fakultet minoralari: Akademik roman va uning kamchiliklari" (2005) asari akademik romanlarning juda to'liq va izchil tadqiqotlaridan biri hisoblanadi.

Shunigdek rus olimasi O. Y. Antsyferovaning «Universitet romani: janrning hayoti va qonunlari» (Университетский роман: жизнь и законы жанра), «Universitet romani: janr nomenklaturasining paradokslari» (Университетский роман: парадоксы жанровой номенклатуры), «Amerika universitet romani: ijtimoiy-madaniy kontekst va stereotiplarni yengish» (Американский университетский роман: социокультурный контекст и преодоление стереотипов) kabi maqolalari kampus adabiyotini tahlil qilishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda talaygina o'rganish metodlari bo'lib, ulardan keng tarqalganlaridan biri biografik metoddir. Ushbu usul yozuvchining tarjimai holi va uning yaratgan adabiy asar xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi. Muallifning tarjimai holi, shaxsiyati uning ijodi bilan uzviy bog'langan. Kampus romanlarini tahlil qilishda bu metod muhim o'rinn tutadi. Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, kampus romanlarining aksariyat mualliflari yozuvchilik bilan bir qatorda universitet yoki kollejlarda ham dars beradilar yoki universitet bitiruvchilari hisoblanadilar. Misol tariqasida taniqli ingliz yozuvchisi Devid Lodjni olsak, u bir qancha romanlar muallifi va Boker mukofoti sovrindori bo'lish bilan bir qatorda, Birmingem universitetining faxriy professori ham hisoblanadi. Shuningdek u Amerikaning Kaliforniya va Angliyadagi Ist Angliya universitetlarida ham ijodiy yozish fanidan dars bergen. Vladimir Nabokov, taniqli rus-amerika yozuvchisi ham Kornel universitetida uzoq yillar mobaynida rus adabiyotidan dars bergen. Uning mashhur "Pnin" (1957) romanidagi professor Timofey Pavlovich Pnin timsolida muallif o'z hayotini qisman tasvirlagan. Yoki "Educated" (2018) "Ziyoli" romani muallifi Tara Vestoverni olsak, bir qator nufuzli mukofotlar sovrindori, amerikalik yosh yozuvchi ayol bu taniqli asarida o'z hayotini memuar shaklida to'laqonli yoritgan.

Kampus romanlari bir qator boshqa janr modifikatsiyalari jumladan, filologik roman, ta'lim romani, sinov romani, memuar romani, ijtimoiy-psixologik roman va detektiv roman kabi sub-janrlarda namoyon bo'ladi. Masalan, Filipp Rotning «Inson zoti» romani oilaviy roman, sinov romani, memuar romani, ijtimoiy-psixologik roman va boshqa janr modifikatsiyalarining uyg'unligir. Donna Tarttning «Maxfiy tarix» (The Secret History, 1993) romani filologik roman, tarbiyaviy hamda psixologik kabi janrlarni aks ettiradi. Jeffri Eugenidesning "Nikoh syujeti" romani (Marriage Plot, 2001) ta'lim romani, ijtimoiy-psixologik roman, sayohat romani va boshqalarning xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Natijalar va muhokama. Yuqorida sanab o'tilgan metodlarni uyg'unlashtirgan holda postmodernism davri romanlari tahlil qilindi. Mazkur tahlil 2000 yillarda nashr etilgan amerikalik yozuvchilar romanlari namunasida olib borildi. Unda asosiy e'tibor asarning bosh qahramoni kim ekanligiga qaratildi. Shunigdek, yozuvchilarning qaysi jins vakili ekanligi ham inobatga olindi. Quyidagi jadval bu izlanishlarni o'z ichiga jamlaydi.

| # | Yil | Asar muallifi | Asar nomi | Bosh qahramoni |
|-----|------|---------------------------------|---|--|
| 1. | 2000 | Denino, Kae (ayol) | <i>Glow</i> | Talaba |
| 2. | 2000 | Hughes, Althea Christina (ayol) | <i>Walking the Line</i> | Talaba |
| 3. | 2000 | Goldstein, Rebecca (ayol) | <i>Properties of Light</i> | O'qituvchi |
| 4. | 2000 | Hill, Gerri (ayol) | <i>One Summer Night</i> | O'qituvchi |
| 5. | 2000 | Medwed, Mameve (ayol) | <i>Host Family</i> | Chet ellik talabalarni qabul qilgan oila |
| 6. | 2000 | Prose, Francine (ayol) | <i>Blue Angel</i> | O'qituvchi |
| 7. | 2000 | Dieker, Lawrence, Jr. | <i>Law Student</i> | Bitiruvchi talaba |
| 8. | 2000 | Jackson, Carl Romeo | <i>Mistrustful</i> | Talaba |
| 9. | 2000 | Perrotta, Tom | <i>Joe College</i> | Talaba |
| 10. | 2000 | Brothers, William P. | <i>The Sabbatical</i> | O'qituvchi |
| 11. | 2000 | Damrosch, David | <i>Meetings of the Mind</i> | O'qituvchi |
| 12. | 2000 | Hill, Christopher | <i>Virtual Morality</i> | O'qituvchi |
| 13. | 2000 | Johnson, Denis | <i>The Name of the World</i> | O'qituvchi |
| 14. | 2000 | Roth, Philip | <i>The Human Stain</i> | O'qituvchi |
| 15. | 2000 | Tarloff, Erik | <i>The Man Who Wrote the Book</i> | O'qituvchi |
| 15. | 2001 | Brown, Amanda (ayol) | <i>Legally Blonde</i> | Bitiruvchi talaba |
| 17. | 2001 | Brownrigg, Sylvia (ayol) | <i>Pages for You</i> | Talaba |
| 18. | 2001 | Feldhahn, Shaunti (ayol) | <i>The Veritas Conflict</i> | Talaba |
| 19. | 2001 | Everett, Percival | <i>Erasure</i> | O'qituvchi |
| 20. | 2001 | Anderson, Walter | <i>Pledge Brothers</i> | Talaba |
| 21. | 2001 | Kidd, Chip | <i>Cheese Monkeys: A Novel in Two Semesters</i> | Talaba |
| 22. | 2001 | Adams, Hazard | <i>Home</i> | O'qituvchi |
| 23. | 2001 | Brookhouse, Christopher | <i>A Selfish Woman</i> | O'qituvchi |

O'tkazilgan tadqiqotda mazkur 76 ta romanning bosh qahramonlari ham ko'rib chiqildi. Unga ko'ra bosh qahramon timsolida o'qituvchi obrazining namoyon bo'lishi 39 ta roman misolida kuzatiladi va shubhasiz, yetakchi pog'onani egallaydi. Shuningdek, talaba obrazi ham 25 ta romanda bosh qahramon timsolida gavdalanadi. Undan keyingi o'rnlarda universitet rahbarlari va universitet hayoti bilan bevosita

bog'liq bo'lgan boshqa obrazlarni ko'rish mumkin. Demak, kampus romanlari mualliflari voqealar rivojining markazida o'qituvchilarning aks ettirilishiga alohida e'tibor bilan yondashadilar. Bunday yondashuvni aksariyat kampus yozuvchilarining oliygohlarda ta'lim berishlari bilan ham izohlash mumkin. Shu sababli kelgusi tadqiqotlarda yozuvchilarning nafaqat jinsi, shuningdek ularning kasblarini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. Kampus romani yoki akademik roman Shoualter ta'riflaganidek zamonaviy badiiy adabiyotning kichik, ammo taniqli kichik janridir va unga bag'ishlangan kichik tanqidga ega [2005]. U tegishli mamlakatning madaniy kelib chiqishiga qarab turlicha rivojlangan. Bu shuni anglatadiki, kampus romani yangi janr sifatida Evropada (bu holatda, Angliyada), Amerikada yoki dunyoning boshqa joylarida turli sabablarga ko'ra paydo bo'lgan va turli ta'sirlar - madaniy, siyosiy, estetik yoki shaxsiy - har qanday romanda va ayniqsa, kampus adabiyoti sohasida bir-biriga aralashib ketadi [Rossen, 1993].

Kampus romani tashqi va ichki siyosat va ta'lim muammolari bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish uchun intellektual maydon yaratish zarurati bilan bog'liq holda vujudga kelgan hamda mualliflarning kasbiy faoliyati bilan ham bevosita bog'liq edi. Akademik romanning badiiy maydoni ham torlik, ham yopiqlik, ham kenglik xususiyatlariga ega bo'lib, unda universitet dunyoning mikromodeli sifatida gavdalanishi mumkin. Kampus (talabalar shaharchasi) romanning asosiy, lekin majburiy emas, o'rni bo'lib, maxsus tashkil etilgan akademik makon sifatida tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анцыферова О.Ю. Американский университетский роман: социокультурный контекст и преодоление стереотипов // Американский ежегодник 2007. 2009. С. 190-216.
2. Анцыферова О.Ю. Университетский роман: жизнь и законы жанра // Вопросы литературы. 2008. № 4. С. 264-295.
3. Анцыферова О.Ю. Университетский роман: парадоксы жанровой номенклатуры // Вестник Ивановского Государственного Университета. 2010. № 1(10). С. 3-8.
4. Rossen, Janice. The University in Modern Fiction: When Power is Academic. Hounds mills, Basingstoke, Hampshire, London: The Macmillan Press LTD, 1993.
5. Roth P. The Human Stain. New York: Houghton Mifflin Harcourt, 2000. 352 p.
6. Showalter, E. (2005). Faculty Towers: The Academic Novel and its Discontents. Oxford : Oxford University Press, 166 p.
- Atoyeva M. F., Zoirov S. X., Patinov J. R., Xoshimov T. F. Elektromagnit

HIKOYADA MAVZU VA G'oya BIRLIGI MODIFIKATSIYASI

Axmad Baisov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada hikoyada mavzu va g'oya birligi modifikatsiyasi haqida so'z boradi. Maqolada jahon adabiyoti namoyondalaridan ingliz adibi Roald Dal haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar; hikoya, g'oya birligi, modifikatsiya, adabiyot, jahon adabiyoti

MODIFICATION OF TOPIC AND UNIT OF IDEA IN A STORY

Akhmad Baisov

Researcher of Chirchik State Pedagogical University

Abstract. The article talks about the modification of the topic and idea unit in the story. The article talks about the English writer Roald Dahl, one of the representatives of world literature.

Keywords; story, unity of idea, modification, literature, world literature

МОДИФИКАЦИЯ ТЕМЫ И ЕДИНИЦЫ ИДЕЙ В ИСТОРИИ

Ахмад Байсов

научный сотрудник Чирчикского государственного педагогического университета

Абстракт. В статье говорится об изменении темы и идейной единицы в рассказе. В статье говорится об английском писателе Роальде Дале, одном из представителей мировой литературы.

Ключевые слова; сюжет, единство идеи, модификация, литература, мировая литература

Kirish. XX asrning boshlarida yashab ijod qilgan ingliz adibi Roald Dalning hikoyachilikdagi mahorati shundan iboratki, u adabiy jamoatchilikda "omadi yurishgan yozuvchi" sifatida shuhrat qozonadi. Adib 1942 yildan boshlab ixcham novellarlar yoza bshlaydi. Ikkinci jahon urushini o'z ko'zi bilan ko'rib, uchuvchi sifatida qatnashib, hayotning pastu balandlarini boshidan kechiradi. Qariyb o'zbek adabiyotining hikoyanavisi A.Qahhor bilan bir davrda badiiy adabiyot olamiga qadam qo'yadi. Yozuvchilikning mashaqqatlari va iztirobli urush manzaralari Rolad Dalni psixologik va falsafiy jihatdan yanada mustahkam qilib tarbiyalaydi. Biz ushbu mulohazalarimizni A.Qahhor bilan birgalikda qiyoslab, asoslashga harakat qilamiz. A.Qahhor va Rolad Dalning tasvir metodikasi deyarli bir xil. So'zga ixcham va siqiq bir tarzda yondashadi. Uslubda tejamkorlik, matnda voqeanning birdan sodir bo'lishi va asosiy masalaga o'tish prinsiplari qabarib ko'rindi. Ingliz yozuvchisi Roald Dalning "Polkovnikning sovg'asi" nomli hikoyasida tanqidiy realizmning (Chexov, Qahhor poetik uslubiga xos) o'ziga xos namunasini ko'ramiz. Hikoyada bir oilaning Amerikacha yashash tarzi bayon qilinadi. Er-xotin orasidagi ishqiy munosabatlarning darz yetishi, xiyonat va yengil hayotga mukkasidan ketish, alaloqibatda SHAXSni fojeaviy, ruhiy sinishga, xiyonatning natijada qaror topishida polifonik nutq ko'rinishda namoyon bo'ladi. Hikoyani o'ziga xos qissaga mavzu, mantiq bo'lgulik zalvor borligini sezish qiyin emas:

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

"Amerika – ayollar uchun ulkan imkoniyatlar mamlakati. Hozirda ular butun millat boyligining taxminan sakson besh foiziga egadirlar. Tez orada esa ular butun boylikni o'z qo'lllariga olishadi. Ajrashish jarayonlari ularga katta miqdorda daromad topishning oson yo'liga aylanib qolgan. Erning o'limi ham yaxshigina daromad keltiradi va ayrim xonimlar shu yo'ldan foydalanishni ma'qul ko'rishadi. Ular bir kun kelib, sabrlari mukofot bilan taqdirlanishiga ishonishadi; ortiqcha zo'riqish va qon bosimi o'z ishini qiladi va bechora er qo'lida dori solingan shishani ushlaganicha jon beradi.

Yosh amerikaliklar ajrashish va o'lim tahdididan unchalik ham tashvish chekishmaydi. Yoshlar, hattoki voyaga yetguncha ham sabrlari chidamay uylanib olishadi va o'ttizdan oshgan paytlarida kamida ikkita sobiq xotinlariga pullarini sovurishga ulgurishadi. Sohibjamollarining farovon hayot kechirishlari uchun erkaklar quldek ishlashadi. Nihoyat, kamolga yetgach, ularning qalbini zerikish va qo'rquv egallay boshlaydi. Ular kech kirishi bilan barlarga borishadi. Bu yerda viski ichib, bir-birlariga "hayotiy hikoyalar"idan so'zlashadi.

Bu hikoyalarning mazmuni bir xil. Ularda uchta qahramon bo'ladi: er, xotin va itvachcha ma'shuq.

Er – sodda va buyuk mehnatkash. Xotin – ayyor va xiyonatkor mavjudot. U itvachcha bilan birga turli nayranglar o‘ylab topadi. Er esa ishonuvchan bo‘lganligi uchun xotinidan shubhalanmaydi. Nahotki bechora umrining oxirigacha shunday yashab o‘tsa? Shunaqa bo‘lsa kerak. Lekin bir daqiqa! Kutilmaganda, er xotiniga shunday zo‘r zarba beradiki, xotin o‘zining mag‘lub bo‘lganligini his etadi”[4].

Hikoyaning ekspozisiyasida badiiy tasvir prinsiplari A.Chexov, A.Qahhor, Sh.Xolmirzayev, U.Hamdam singari masalaga teran kirib borish manerasi namoyon bo‘ladi. Yozuvchi syujetni shu qadar qiziqarli tasvirlaydiki, adib axloq qoidalaridan bir dam nari chekkaga chiqmaydi. Mavjud hayotni qayta ishlab, qiziqarli yo‘sinda yetkazishga harakat qiladi. Chunki yozuvchining maqsadi – er-xotinni biror xiyonat bilan ajratib yuborish emas, oiladagi bir vujudning ikki tomonga ayrib ketishga sabab bo‘lgan vositani ko‘rsatadi. Ruhiy-ijtimoiy tengsizlik oiladagi asosiy masalalarning ildiziga olib boradigan yo‘lda sodir bo‘ladi. Mister va missis Biksbisi ismli er va xotin hayotidan olingan voqelik hquvchini bir o‘trishida asarni mutolaa qilishga yetaklaydi. Chunki hikoyadagi sargo‘zasht-tasvirlar Nyu-Yorkdagi xonardonlardan birida istiqomat qiladigan tish shifokori Mister Biksbisi va Missis Biksbining hayotidan xabar beradi. Er-xotinning bir-biriga xiyonatiga asosiy sabab oiladiga o‘zaro tushunmovchilik va mo‘maygina pul evaziga paydo bo‘ladi. Missis Biksbisi yolg‘on evaziga o‘z eriga xiyonat qilib, chekka shaharda, Baltimorga har oyda tez-tez qatnab, Polkovnik bilan tanish orttirishdan boshlanadi. Yozuvchi syujetni shu qadar ixcham qurganki, mavzuning aktualligi, syujetni va g‘oyani bir-butun tarzda ifodalishiga katta zamin hozirlaydi. E’tibor bering. Yozuvchi hikoyada A.Qahhor kabi dialoglardan shu qadar unumli foydalananadi, uning natijasida uzundan-uzun tasvirlar emas, sahnaviylik (dramadagi harakat) negizida xarakterlar o‘zlarini o‘zlar fosh qilib boradi. Hikoya arxitektonikasida bir-biriga mos keluvchi tasvirlar ko‘p ovozliligi mavjudki, unda har qanday idrok tamoyili muhim ahamiyatga ega. A voqelik ro‘y berish vaqt bilan B hal etilish vaqtigacha hikoyada poetik tasvirlar muvofiqligi yaqqol seziladi. Missis Biksbisi bahonai sabab – Baltimurdagi xolasi Mod bilan umuman uchrashmaydi. Afsuski, Polkovnikning xushtoriga aylangan ayol tabiatidagi o‘zgarishlar shu kecha kunduzda ro‘y berayotgan voqelikdek taassurot uyg‘otadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz yozuvchisi Roald Dalning “Polkovnikning sovg‘asi” hikoyasida badiiy g‘oya uch o‘lchamli olam kecha-bugun-ertaga tarzida namoyon bo‘ladi. Chunki yozuvchi badiiy g‘oyani silliq tarzda ixchamlashtiradiki, o‘quvchi mutolaa jarayonida qiziqarli bir sargo‘zashtni boshidan kechiradi. “Adabiyotshunoslikda badiiy g‘oya to‘g‘risida gap ketganda, eng avvalo, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy g‘oyalardan farqli tomonlarini aniqlab olishga to‘g‘ri keladi.

Tahlil va natijalar. Badiiy g‘oya yozuvchining voqelikni badiiy tarzda hissiy aks ettirishdan bunyodga keladi. Badiiylikning yetakchi belgisi bo‘lgan hissiy mazmunni faqatgina badiiy g‘oya yaratishi mumkin. Qadimgi tadqiqotlarda badiiy g‘oyani pafos deb ham atashgan. Badiiy asar pafosi deyilganda qalblarni larzaga soladigan tuyg‘ular dunyosini, to‘lib-toshgan his-hayajonlar olamini, biron narsaga haddan ortiq maftun bo‘lib qolish ma’nolarini tushunganlar. Gezel badiiy g‘oyani ichki “ichki dard” deb baholagan bo‘lsa, Belinskiy “jonli ehtiros” yoki “qudratli istak” deb ta’riflagan[1]. Haqiqatdan ham, badiiy g‘yaning pafos darajasiga ko‘tarilishi asarning qay tariqa ifoda qilinayotganidan dalolat beradi. Yozuvchi Roald Dalning “Polkovnikning sovg‘asi” hikoyasida asosiy voqelik sovg‘a bilan o‘z yechimini topadi. Asosiy uchta qahramonning syujet voqeligida harakatlanishi – mavzu va g‘yaning birligini ta’minalashga qaratiladi:

“Shu zaylda sakkiz yil o‘tdi.

Rojdestvo bayrami yaqinlashayotgandi. Missis Biksbisi Baltimor shohbekatida Nyu-Yorkka qaytadigan poezdni kutib turardi. Hozirgina tugagan visol onlari har galgidan-da yoqimli bo‘lgan va shuning uchun uning kayfiyati a’lo edi. Umuman olganda, Polkovnik bilan muloqotda bo‘lish doimo uning kayfiyatini ko‘tarardi. Bu kishi uni o‘zini butunlay boshqacha, go‘zal ayoldek his qilishiga sababchi bo‘lar, ana shunday paytlarda u shifokor erining qanchalar notavon ekanligini o‘ylardi.

– Polkovnik mana buni sizga berib qo‘yishimni buyurdi, – kimningdir ovozi eshitildi. U yoniga o‘girildi va Polkovnikning qari xizmatkori Uilkinsni ko‘rdi. Uning qo‘lida katta karton quti bor edi.

– Yo Xudoyim! – hayajon bilan xitob qildi missis Biksbisi. – Qanday katta quti! Bu nima, Uilkins? Xat-pat ham berib yubordimi?

– Yo‘q, bermadi, – dedi xizmatkor va qaytib ketdi.

Missis Biksbisi poezdda qutini begona ko‘zlardan yashirdi. Qanday yoqimli – Polkovnikning sovg‘asi. U qutiga bog‘langan ipni yechishga kirishdi. – Ko‘ylak bo‘lsa kerak, – dedi u o‘ziga o‘zi. – Balki, ikkita ko‘ylakdir. Hozir qaramayman. Yaxshisi, siypalab ko‘rib, nimaligini bilishga urinib ko‘raman. Uning

rangi va narxini ham aniqlashga urinaman.

U ko‘zini mahkam yumdi, quti qopqog‘ini ochdi va quti ichidagi narsani paypasladi. Uning qo‘liga shildiroq qog‘oz urildi. Keyin esa xatjildni ushladi. Shildiroq qog‘oz ostiga asta qo‘lini tiqdi.

– Yo, Xudoyim! – xitob qildi u birdan. – Bo‘lishi mumkin emas!

U ko‘zlarini katta-katta ohib, mo‘yna paltoga tikildi va shu zahoti uni qutidan yulqib oldi. Mo‘ynani bor-bo‘yi bilan ko‘rgan missis Biksbining nafasi tiqilib qoldi”[4].

Yozuvchi hikoyadagi syujet qismlarini idroklar ekan, oradan suvdek oqib ketgan umrni 8 yilga qisqartiradi. Chunki bu oraliqda ortiqcha tafsilotlardan ham tiyiladi. Hikoyaning dialogik matn strukturasi yo‘sinda – tasdiq va tasdiq, inkor va tasdiq ifoda xususiyatlari personajlarning haqiqiy qiyofasini ohib beradi. Er-xotinni tutib turgan shunchaki nikoh qaydnomasi bitilgan guvohnomasi ularni rasmiy bog‘lab turadi. Ruhiy-falsafiy bog‘liqlik er-xotin orasida umuman ro‘y bermaydi. “Adabiyotning atomdan kuchli” ekanligini bot-bot ta’kidlagan A.Qahhor nazdida ommaviy adabiyotning yer yuzida asosiy o‘ringa chiqib olishi, bu ham xalqlarning ma’naviy-ruhiy ehtiyoji sabab sodir bo‘lmoqda. Hikoyaning kulminasion nuqtasi shu yerda ro‘y beradi. Missis Biksbining jazmani Polkovnikdan olgan sovg‘asi uning bunday noma‘qbul munosabatiga yakun yasaydi. Chunonchi sovg‘a bitta oiladigi ikkita xiyonatkorga atlganligi bilan yechim topadi. Tish doktori Mister Biksbining ham o‘z ishxonasida yordamchisi bilan don olishib, hayot kechirishi mo‘ynali paltoning ikki ayolga bo‘lib berilishi o‘quvchida xayriohlilik tuyg‘usini emas, aksincha ijirg‘anish, yugurganning emas, buyurganniki degan aqidaga juda-juda mos tushadi. Hikoyadagi asl sabab va oqibat o‘rtasida falsafa ham ayni jarayonda o‘zining qiyofasini to‘laqonli namoyon etadi. “Yaxlit voqelikni tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeanning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ohib beradi. Hikoyaning ikki tipi bo‘lib, birinchisi ocherklilik (tavsifik-rivoyaviy), ikkinchisida novellistiklik (konfliktli-rivoyaviy) xususiyat usutundir. Adabiyotshunoslikda bularning birinchisini hikoya, ikkinchisini novella deyish amaliyoti ham mavjuj”[3]. Ko‘rinadiki, hikoyaning bu ikki turining ikkinchisi A.Qahhor va R.Dallning poetik izlanishlarida ko‘proq uchraydi. Chunki ularning har bir hikoyasida – voqelik o‘z-o‘zidan yangilik, yangilikning sahnaviyligi, novellistik ruhning ustunligida seziladi. Demak, Roald Dallning “Polkovnikning sovg‘asi” hikoyaидаги butun jamiyatning izdan chiqishi, insoniy muhababtning iqtisodiy tanglik va sho‘xlik bilan o‘rin almashinishi, ma’naviy qadriyatlarning tanazzuli negizida ochiqlansa, A.Qahhor izlanishlarida sobiq ittifoqning yakka hokimligi, jamiyat hayotida, xususan, odamlarning orzu-umidlari bo‘g‘ilgan, qadriyatlari toptalgan, insoniy burch va mas‘uliyatni qullik va mutelik bilan o‘rin almashtirgan qattol tuzum nayranglari egallaydi. Uzundan-uzun tasvir elementlari ro‘y bermaydi. Har ikkala hikoyada vaqt yozuvchi tomonidan ixcham tarzda qisqartiriladi. Bu yerda mazmun emas, tanlangan mavzuning shakliy-uslubiy jihatini nazarda tutmoq joiz.

Hikoya xotimasida qiziq holat ro‘y beradi. Buni yozuvchi Roald Dall atayin shunday epilog bilan yakunlay olganligida deb bilish mumkin:

– Oly nav, – dedi eri. – Rangi ham zo‘r. Bilasanmi, nima? Menimcha, u kamida ikki-uch yuz dollar turadi.

– Ha.

Bu boshlari va panjalari osilib turgan ikkita norka terisi edi.

– Qani, – dedi eri, – ko‘raylik-chi. U yaqinlashib, yoqani xotinining bo‘yniga tashladi va ortiga tisarildi. – Qoyil. Senga juda yarashdi. Har qanday ayolda ham bunday narsa yo‘q, azizam.

– Ha.

– Buni taqib do‘konga borma. Seni puldor deb o‘ylab, narxni qimmat aytishlari mumkin.

– Buni yodimda saqlayman, Siril.

– Aytgancha, Rojdestvoga boshqa sovg‘adan umid qilmay qo‘yaqol. Usiz ham, ellik dollar sarfladim. U qo‘lini yuvish uchun o‘girildi.

– Endi esa, azizam, boraqol. Seni kuzatib qo‘yardim-u, qabulxonada qariya Gormen o‘tiribdi.

Missis Biksbni eshik tomon qadam tashladi. “Bu sudxo‘rni o‘ldiraman, – o‘ylardi u. – hoziroq lombardga borib, mana bu la’nati yoqani uning yuziga uloqtiraman. Menga paltomni qaytarib bermay ko‘rsin. Mana shu qo‘llarim bilan bo‘g‘ib o‘ldiraman!”.

– Senga kechroq borishimni aytdimmi? – so‘radi Siril Biksbni qo‘lini yuvarkan.

– Yo‘q.

– Sakkiz yarimlarda boraman. Yoki to‘qqizda.

– Bo‘pti, – missis Biksbai eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi.

Ayni shu lahzada miss Paltni, erining yordamchisi tushlikka chiqib ketayotgandi.

– Bugun ajoyib kun bo‘lyapti, a? – dedi u jilmayib.

Uning qadam tashlashida g‘aroyib yengillik bor edi va u Polkovnik missis Biksbiga sovg‘a qilgan norka paltoda xuddi qirolichalardek ko‘rinardi”[4].

Hikoyadagi novellaga xos badiiy unsurlar, kutilmagan iprozivatsiya bilan yakunlaydi. Unda missis Biksbiga atalgan norka mo‘ynali paltoning mo‘ynasininga beradi, xolos. Paltoning o‘zini esa tish shifoxanasidagi yordamchisi miss Paltniga tuhfa qiladi. Voqelikning bu tarzda epilogi o‘quvchini hayratga solishi tabiiy. Kutilmagan burilish, insonning oilaga, o‘z hayotiga mehr-muhabbatlari bo‘lishlikni, dunyoning hoyu havaslari o‘tkinchi ekanligdan shahodat beradi. Pirovard natijada, insonning hayotidagi ruhiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, yaxshi tomonga o‘sishi, ayniqsa, oilaning muqaddasligini tushunib yetishi tayin. Yozuvchi bir oila timsolida butun jamiyat hayotining inqirozga yuz tutishini idroklash ekan, sizivilizatsiyaning bizga bergen ne’mat deb ataluvchi asl qiyofasi nimalarga olib kelishini o‘quvchiga so‘z va voqelik shaklida tushuntirishdan iboratligi ayonlashadi. Yozuvchi N.Eshonqul bu haqda shunday mulohazalarni ilgari suradi, ya’ni mahorat maktabi borasida: “O‘zbek hikoyachiligidagi maktab yaratish yo ma’lum bir o‘rin qoldirish uchun yuzlab hikoya yozish shartmas. Bitta hikoya bilan adabiyotda o‘ringa ega bo‘lish mumkin. Men Shukur Xolmirzayevning, Abdulla Qahhorning hikoyachilik maktabiga daxl qilmagan holda aytmoqchimanki, ulardan keyingi avlod vakillarida ham hikoya maktabi bor. Endi bu avdiblar kammahsul bo‘lgani uchun maktab yaratmagandek tuyulishi mumkin. Adabiyotda bitta hikoyaning o‘zi bilan maktab yaratgan yozuvchilar bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘ladi. “Dashtu dalalarda” hikoyasining o‘ziyoq Murod Muhammad Do’stni o‘zbek hikoyachiligidagi o‘ziga xos yo‘nalishdagi, o‘ziga xos maktabdagisi asar yaratgan, yangi shakl, ohang, ruh olib kirgan adib sifatida tan olishga to‘liq asos beradi”[2]. Darhaqiqat, hikoya yozish osonmi yoki qiyinmi degan parodks yuradi adiblar orasida. Negaki, yozishdan ham, qanday yozish muhimroq ekanligini tushunib yetish lozim. N.Eshonqulni tashvishlantirayotgan masala ham shu haqdadir. XX asrning 70-yillardan keyingi ko‘zga tashlanayotgan sifat o‘zgarishlari G‘arb va Sharq adabiy tafakkurida ham jiddiy yangilanishlarni boshlab berdi. Bu o‘rinda aytish lozim, hikoyaga mavzu tanlash, tanlangan mavzuni g‘oyaviy-badiiy qiymatini to‘g‘ri ifodalash, muammoning sintezini aniqlash, olam va odam muammolariga teran yondashish muhimligini ham taqozo etmoqda. Zero, badiiy nasrning intensiv taraqqiyoti – novellistik ruhning ifoda madaniyatiga sezilarli ta’siri doirasida ro‘y berganligini unutmasligimiz muhim. Ayni paytda, ingliz va o‘zbek hikoyachiligidagi talqin muvofiqligi, sayyor syujet va idrok sarzanishlarida bunday holatning takomili yanada murakkab kartinalarning yuzaga kelishiga katta zamin hozirlashi tabiiydir. Zotan, inson badiiy olami nihoyatda serqirra, va serjilvadir. Undan yangi-yangi g‘oyalar, mavzular topish, iuni hech kimga o‘xshamagan tarzda badiiy jozibada belgilash va ifodalash mahorat bilan bog‘liqligi ham ayni damda haqiqat bo‘lib gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘rayev D. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammoasi. –T: “Universitet”. 2001.
2. Nazar Eshonqul. Menden “Men”gacha. –T: “Akademnashr”. 2014.
3. Yo‘lchiyev Q. Nurali Qobulning prozaik mahorati. –T.: “Ma’rifat bitiklari”. 2021.
4. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/roald-dal/roald-dal-polkovnikning-sov-asi-iko/>

TILSHUNOSLIKDA NUTQIY FAOLIYAT VA NUTQIY STRATEGIYANING PRAGMATIK IFODASI TAHLLILI

*Baymuradova Laylo Kaxramonovna,
Qarshi davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Har qanday nutqiy ifoda bir vaqtning o'zida muloqot vositasi va shuningdek, ma'lum maqsadga, vazifaga erishish vositasi ekanligi bilan ham izohlanadi. Nutq jarayoni insonlar o'rtasidagi munosabatlarning barcha qatlamlarini qamrab oladi. Muloqot jarayonida suhabatdoshini o'ziga ishontira olish, yetkazayotgan ma'lumotga jalb qilishda nutq strategiyasini ishlab chikish, muloqot imkoniyatini o'zida aks ettiradigan muloqot jarayonidagi taktikalarga ega bo'lish, qapshi tomon bilan bahs munozaralarga kirisha olish, bahslashish qobiliyati, shuningdek, tegishli til vositalarini qo'llash imkoniyatini o'z ichiga olgan nutq ta'siri usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, muloqot jarayonida suhabat, nutqiy faoliyat, bilimlarni o'zaro munosabati, insonning nutqiy faoliyati;

ANALYSIS OF PRAGMATIC EXPRESSION OF SPEECH ACTIVITY AND SPEECH STRATEGY IN LINGUISTICS

*Baymuradova Layla Kahramonovna,
Karshi State University Doctor of Philology (PhD)*

Abstract. Any speech expression is explained by the fact that it is simultaneously a means of communication and also a means of achieving a certain goal, task. The speech process covers all layers of human relations. In the process of communication, the ability to convince the interlocutor, to develop a speech strategy to attract the information conveyed, to have tactics in the communication process that reflect the possibility of communication, to be able to enter into discussions with the opposite party, the ability to argue, as well as the ability to use appropriate language tools. It is important to use methods.

Key words: linguistics, conversation in the process of communication, speech activity, interaction of knowledge, speech activity of a person;

АНАЛИЗ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ВЫРАЖЕНИЯ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РЕЧЕВОЙ СТРАТЕГИИ В ЛИНГВИСТИКЕ

*Баймурадова Лейла Каҳрамоновна,
Каршинский государственный университет доктор филологических наук (PhD)*

Аннотация. Любое речевое выражение объясняется тем, что оно одновременно является средством общения, а также средством достижения определенной цели, задачи. Речевой процесс охватывает все слои человеческих отношений. В процессе общения умение убеждать собеседника, вырабатывать речевую стратегию для привлечения передаваемой информации, иметь в процессе общения тактику, отражающую возможность общения, уметь вступать в дискуссию с противоположной стороной, умение спорить, а также умение использовать соответствующие языковые средства. Важно использовать методы.

Ключевые слова: языкознание, разговор в процессе общения, речевая деятельность, взаимодействие знаний, речевая деятельность человека;

O'z navbatida, nutqiy faoliyat muloqot tarkibida faollashadi. Muloqot tarkibi ham boshqa funksional sistemalar singari o'z invariant birliklariga ega. Ularning tahlili ma'lum faoliyat turlarining mazmuniy tarkibini tashkil qiladi[1]. Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi perlokutiv akt nomini olgan[2]. Perlokutiv akt nutqiy jarayonning boshlang'ich bosqichi sanaladi. Nutqiy jarayonning keyingi kechimi muloqotdosh borasida, muloqot mavzusi, muloqot maqsadi borasidagi bilimlarga ega bo'lish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun faqat mazkur bilimlarning o'zaro munosabatini hisobga olgandagina, biz nutqiy jarayonning mohiyatini anglashga yaqinlashgan bo'lamiz. Nutqiy muloqot jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang, chunonchi: ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va hokazolar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Nutqiy muloqot jarayoni ijtimoiy va tabiiy jarayon bo'lganligi sababli,

pragmatikada nutqiy muloqot jarayoni inson faoliyatining o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Shuning uchun sistem tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rgansa, pragmatika muloqot, o'zaro fikr almashuv, kommunikativ maqsad, shaxslararo munosabatlar, muloqot kechimi, muloqot faolligi, nutqiy strategiya kabi so'zlashuv tizimini o'rganadi. Nutqiy muloqot jarayoniga ma'lum tizim sifatida yondashish pragmatikaning asosiy tadqiq manbai va usuli sanaladi. Pragmatikaning muayyan vaziyatda yetkazilgan ma'lumotning tinglovchiga bo'lgan ta'sirini o'rganadigan bo'limi kommunikativ strategiya atamasi bilan nomlanadi. Mazkur ta'sir etishning maqsadli hatti-harakati nutqiy strategiya doirasida o'rganiladi. O'z navbatida, pragmalingvistika nutqiy muloqotning samarali kechishini yaxlit bir tizim sifatida, muloqot jarayonida ishtirok etadigan barcha lisoniy va nolisoniy omillari bilan uzviy bog'liqlikda, hamkorlikda o'rganuvchi fan hisoblanadi. Pragmatikaning lug'aviy ma'nosi yunoncha "pragma" so'zidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinganda "ish, harakat" ma'nolarini bildiradi.

Ma'lumki, til shaxslararo o'zaro muloqotga kirishilganda harakatda bo'ladi, nutqga aylanadi. Demak, pragmatika nutqiy muloqot jarayonida sodir bo'ladigan nutqga aloqador bo'lgan barcha hodisalarini, vaziyatlarni o'rganadi[3]. Shuningdek, pragmatika tilda mavjud belgilarning nutqdagi amaliy qo'llanishini o'rganadigan tilshunoslikning muhim tadqiqot ob'ekti ham hisoblanadi. Lingvistik pragmatikaning tadqiqot ob'ekti keng qamrovli bo'lib, nutqiy aktlar tahlili, diskurs, matnning og'zaki hamda yozma shakllari, matnning alohida turlarining lingvistik, kommunikativ voqelanishi tahlilini qamrab oladi. M. Hakimovning qayd etishicha kommunikativ niyatning ifodalanish darajasiga ko'ra ifodaning oshkora va yashirin shakllari mavjud bo'ladi. So'zlovchi nutqiga xos ifodaning oshkora yoki yashirin shakllari kommunikativ strategiya uchun yo'l ochadi. Shuningdek, uning tahlil tarkibiga so'zlovchi va tinglovchi, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabati, shaxslararo munosabatda lisoniy birliliklarning faollahuvi, muloqot qurilishi, muloqotni maqsadini tashkil qiluvchi omillar, nutqiy harakatlariga bog'liq masalalar majmui kiradi. Muloqot jarayoni bevosita shaxslarning axborot almashinuvi asosida quriladi. Tinglovchida axborotni eshitish jarayonida unda yetkazilayotgan axborotga nisbatan muayyan bir tasavvur paydo bo'ladi, hamda mazkur axborotga nisbatan munosabat yuzaga keladi. Bu munosabat pragmatik munosabat deb yuritiladi. Bunday munosabatlar turlicha xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ular ko'p hollarda intellektual xususiyatga ega bo'lib, u tinglovchi (adresant) uchun qiziq tuyulmaydigan, unga taalluqli bo'Imagan axborotlardan tashkil topgan bo'lishi va ayni paytda qabul qilingan axborot unga juda kuchli emotsional ta'sir qilishi, hamda ma'lum fikr, g'oya, munosabatlarni yuzaga keltirishi va shu asosda ma'lum hatti-harakatlarga yo'naltirishi mumkin. Axborotni qabul qiluvchida yuzaga keladigan bu kabi kommunikativ ta'sir pragmatik munosabatining muhim aspekti yoki salohiyati[4] sifatida talqin qilinadi.

So'zlovchi va tinglovchi munosabatining pragmatik ifodasi nutqiy muloqot sharoitida yuzaga keladi. Nutqiy harakat esa muloqot matnini talab qiladi va shu muloqot matni kommunikativ mazmunga ega bo'ladi hamda qator omillardan, ya'ni maqsad, motiv, strategiya kabilardan tashkil topadi. Kommunikativ jarayonda so'zlovchi va tinglovchining ishtiroki, maqsadi, vazifasi, muloqot maqsadi, muloqot kechimiga ko'ra turlicha bo'ladi. So'zlovchi tinglovchining muloqot tarzi, ko'zlangan muloqotning mazmuniga bo'lgan munosabatini hisobga olishga majbur[1]. Muloqot yuzaga kelishi uchun kommunikativ muhit bo'lishi darkor. Kommunikativ muhit, o'z navbatida, ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u ijtimoiy qatlamdagil shaxslarning ijtimoiy guruhning madaniyati, ma'lum etnosga xos milliy-madaniy tushunchalari, intellektual bilimi, ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Aynan shu asosda muloqot kechimi belgilanadi, maqsad aniqlanadi, kommunikativ va nutqiy strategiyalar ishlab chiqiladi. Har bir guruhda turli muloqot vaziyatlari yuzaga kelishi mumkin. Mazkur hollarda muloqot ishtirokchilari yuzaga kelgan ma'lum anglashilmovchiliklarni ikkiyoqlama hosil bo'lgan ma'lum noaniqliklarni bartaraf etish imkonini beradigan umumiyl bilim zaxirasiga hamda muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlovchi qoidalardan foydalanish malakasiga ega bo'lish maqsadga muvofiq sanaladi. Muloqotdoshlarning bir birini tushunishi, axborot almashishi lisoniy kommunikatsiyaning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham lisoniy muloqot pragmatika doirasida nutqiy muloqot jarayonining inson faoliyatiga aloqador bo'lgan o'nlab qirralarini bir-biri bilan bog'lagan holda o'rganadi.

Lisoniy muloqot qobiliyatining o'zi kognitiv va kommunikativ vazifalar umumlashmasi bo'lgan maqsadga erishishda lisondan foydalana olish qobiliyatini[2] tarzida namoyon bo'ladi. Nutqiy muloqot jarayonini o'rganish mobaynida presuppozitsiya lingvistik hodisa sifatida tahlil etiladi. Muloqot jarayonidagi muvaffaqiyatning dastlabki shartlari va fikrlarini o'rganishda qo'llaniladigan so'zlarning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratilmasdan ifoda etilayotgan bayonotlar, ularni ishlatilishi, mazkur

bayonotlarni qo'llash uchun yuzaga kelgan omillar borasidagi bilimlar kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradi[5]. Nutqiy muloqotni o'rganishga bo'lgan pragmatik yondashuv muloqotga kirishuvchilar maqsadi va presuppozitsiya orasidagi o'zaro munosabatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Presuppozitsiya hodisasiiga bo'lgan turli yondashuvlar ushbu tushunchaga nisbatan ishlataligan turli xil tavsiflar mavjud. Jumladan, presuppozitsiyaning keng tarqalgan tavsiflarida turli ma'lumotlar, umumiylarning keng miqyosda qo'llanilishi, muloqot jarayonida til birliklarining lug'aviy ma'nolarini to'g'ri tushunish borasidagi fikrlar bildiriladi[6]. R.Stalneyker esa nutqiy muloqotga pragmatik yondashuv orqali tahlilda presuppozitsiyani muloqot ishtirokchilarining gapiruvchi tomonidan amalga oshirilgan umumiylasosini (umumiylarning bilimlari) tashkil etuvchi hodisa sifatida ta'riflaydi[7].

Nutqiy muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birlashtirishda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Nutqiy muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayon sanalib, o'zaro nutqiy muloqot kishilik jamiyatni vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Kommunikativ jarayon odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Uinsondagi eng muhim ehtiyojini, ya'ni jamiyatda yashash va o'zini shaxs sifatida faoliyat yuritishi bilan bog'liq ehtiyojini qondirish sanaladi. Shuning uchun ham jamiyatdagi faoliyatni tashkil qilish uchun nutqiy muloqot har bir inson uchun ahamiyatlidir. Muloqot jarayonida pragmatik vazifalar kommunikativ maqsad doirasida voqelanadi. Shuning uchun ham nutqiy harakat natijasida yuzaga keladigan perlokutiv ta'sirni pragmalingvistik tahlil doirasiga kiritish taklifi[2] yuzaga keldi. Muloqot jarayoni kommunikativ (axborot uzatish) interaktiv (o'zaro ta'sir) va perseptiv (o'zaro idrok etish) kabi amallar asosida quriladi. Z.Vendler talqinicha, illokutiv maqsad aslida, «mental harakat bo'lib, so'zlovchi tinglovchini ushbu harakatni bajarishga undaydi»[8]. Bu maqsad esa ma'lum nutqiy strategiyalar, nutqiy taktikalar yordamida amalga oshiriladi. Muloqot odamlarning birlashtirishda faoliyatlar extiyojlaridan kelib chiqadigan faolliklari natijasida bir birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni har bir shaxsning jamiyatdagi faoliyati (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) asosida o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sir shakllari, o'zaro hamkorlik, raqobat turlari hosil bo'ladi. Chunki, har qanday faoliyat insonlarning bir birlari bilan muloqotga kirishishi, munosabatlarni shakllantirishi, turli masalalarni muhokama qilishi, bir-biriga turlicha ma'lumotlarni uzatishi, qarama-qarshiliklarga borishi, fikr almashinushi kabi murakkab hamkorlikda kechadi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni faoliyatidagi muvaffaqiyati, jamoadagi obro'si uning muloqotga kirishish qobiliyati bilan bevosita bog'liqidir. Shaxslarning mazkur jamiyatdagi faoliyati o'zaro munosabatlarning qay darajada samarali amalga oshirilishiga ham bog'liq. O'zaro hamkorlikda, munosabatlarning maqsadli kechimida muloqot muhiti muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot esa ma'lum kommunikativ va nutqiy strategiyalar asosida quriladi. Ko'rindaniki nutqiy muloqot strategiyasi ma'lum bir muloqot maqsadiga erishishga qaratilgan oddiy nutqiy ketma ketliklardan farqli hodisa hisoblanadi. Nutqiy harakatlar, nutqiy amallar ketma ketligi kommunikativ hodisani voqelanishini bildiradi. Nutqiy strategiya esa o'sha voqelanishda markaziy o'rinda turadi. Nutq yaratilishi jarayonida so'zlovchi o'z nutqini tinglovchining reaksiyasiga qarab o'zgartirib boradi. Ta'kidlash lozimki, nutqni rejalashtirish hamda uning voqelanishi deyarli bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Inson har doim ham o'z nutqining qanday shaklda ifodalanishini oldindan bilavermaydi, chunki bir jumla yoki so'z boshqa jumla yoki so'zni aytishni taqozo qiladi. Kognitivistlar fikriga ko'ra, bu jarayon grammatik monitor qurilma (monitoring) nazorati ostida kichadi[9].

O.S.Issers kommunikativ strategiyalarning nazariy tizimi tahlilini amalga oshiradi. Unda muallif kommunikativ strategiyaning modeli sifatida lisoniy tanlov tizimiga murojaat qiladi. Nutqiy jarayonda qo'llaniladigan lisoniy vositalar kommunikativ strategiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan asosiy strategiyalarga e'tibor qaratiladi. Bunda ma'lumot yetkazish; ma'lumotni tahrirlash, olingan ma'lumotlarni subordinatsiya qilish kabi strategiyalar nazarda tutiladi. O.S.Issersning fikriga ko'ra, yordamchi strategiyalar kommunikativ jarayonni samarali interfaol tashkil etishga ko'maklashadi va quyidagicha turlarga bo'linishi mumkin; pragmatik imidjni yoki obrazni yaratish, emotsiyonal jarayonni shakllantirish, muloqot kechimida mavzu ustidan nazorat qilish, tashabbuskorlikni nazorat qilish va ritorikaga ya'ni diqqatni jalb qilish, dramatizatsiya usulidan foydalanish[10] kabilalar kiradi. Kommunikativ strategiyalarning muloqot kechimida faollashuvi, qo'llanishi ham qator usullar, vositalardan foydalanishni, pragmatik mazmunga e'tibor qaratishni talab etadi. Jumladan, K.Ye.Kalinin o'z ishida quyidagi muloqot strategiyalarini, shuningdek ularni amalga oshirish uchun ishlataladigan

usullarni, texnikani va vositalarni belgilaydi:

- 1) Taqdimot strategiyasi: so‘z taktikasi, shaxsiy tajriba namunasi, ijobiy emotsiyal holatning paydo bo‘lishi;
- 2) Chaqiruv strategiyasi: murojaatlar, mulohazalar, ishonchli taqdimot, so‘zlovchining samimiyligi;
- 3) O‘z-o‘zini namayon qilish strategiyasi: tanqid, raqiblarga nisbatan ustunlikni namoyish etish, ijobiy qiyofani o‘rnatish, kalit so‘zlardan foydalanish, parallelizm, nutqning strukturaviyligi, e’tirozni emotsiyal tarzda namoyish qilish;
- 4) Raqibga nisbatan obro‘sizlantirish strategiyasi: mantiqiy dallillarni keltirish taktikasi, dalillarni namoyish qilish, axborotni tanlab olish va kerakli sharxlarni talqin qilish, chaqiruv, salbiy imidj (obrazni) yaratish, avtoritar fikrlar bildirish[11].

Mualif ta’kidlab o‘tgan strategiyalar ma’lum ma’noda siyosiy imidjga qaratilganligini anglash mumkin. Shuning uchun ham, K.Ye.Kalinin ushbu strategiyalarni ishontirish strategiyasining turlari sifatida baholaydi. Keltirilgan strategiya turlarining asosiy maqsadi birinchidan adresatning jismoniy va intellektual faoliyatini boshqarishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchidan, barcha holatlarda adresantning tinglovchi oldidagi nutqi mavjudligi[11] bilan aloqador hisoblanadi. Ijtimoiy muloqot strategiya va taktikani shakllantirishda muloqot vaziyati va nutq davomida ba’zi amaliy natijalar (masalan, shartnomani imzolash, loyihami amalgalash, birlashtirish, qaror qabul qilish) muvaffaqiyatga erishilgandan so‘ng, adresat biznes hamkor bo‘ladimi yoki ommaviy auditoriyami, birinchi navbatda ishonchli muloqot strategiyasiga e’tibor qaratiladi. Muloqotdoshlarning sifatlari muloqot tizimida qanchalik muhim o‘rinni egallamasin, har holda bu tizimning markazida kommunikantlarning ijtimoiy roli turadi. Muloqot ishtiroychilarining aynan shu xarakteristikasi nutqiy faoliyatning «qay darajada joriylanishiga ob’ektiv va sub’ektiv ravishda o‘z ta’sirini ko‘rsatuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi»[12].

Dissertatsiyadan o‘rin olgan kommunikativlik va muloqot tushunchalarini ham farqlab o‘tish lozim. Kommunikativlik muloqotga nisbatan kengroq ma’noga ega bo‘lib, baholanishi, modellashtirilishi, boshqarilishi mumkin. Hozirgi informatsion jamiyatda boshqaruv tizimi kommunikativ modellar asosida quriladi. Muloqot jarayonini to‘g‘ri tuzish orqali butun boshqaruv tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy masalalarni yechimini yengillashtirish mumkin. Kommunikativlik, shuningdek, ma’lumotlar almashish, ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilishda, ma’lumot yetkazishda til vositalari, nutq vositalarining samarali yo‘llarini topishga ham qaratiladi. Mazkur xatti-harakatlar kommunikativ strategiya tanlash orqali amalgalash mumkin. Shuning uchun ham kommunikativ strategiya nutq faoliyatini bilan uzviy bog‘liqlikka ega sanaladi. Kommunikativ strategiya faollashuvi nutqiy strategiyada yuzaga keladi. Nutq strategiyasi bevosita nutq vaziyati bilan aloqador bo‘lib, nutqiy strategiya turli vaziyatlarda turlicha qurilishi mumkin. Muloqot jarayonida nutqiy strategiya muloqot kechimining samarali amalgalash mumkin. Umuman olganda kommunikativ strategiya nafaqat moddiy, balki ma’naviy foyda olish uchun ham qo‘llanilishi mumkin.

Kommunikativ strategiya doimo nutq vaziyatidan kelib chiqgan holda rejalshtiriladi. Qo‘llanilgan strategiyaning samarali bo‘lishi nutq vaziyatining adresant tomonidan boshqarilishini ta’minkaydi. Shuningdek, nutq vaziyati tahlili, baholanishi ham aynan adresant tomonidan amalgalash mumkin. Nutqiy strategiya esa butun muloqot jarayonida dialogning qurilishini ta’minalash maqsadida paydo bo‘ladi. Nutqiy strategiya ma’lum muloqot jarayoniga xos bo‘lgan ijtimoiy, psixologik, emotsiyal xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, so‘zlovchi yoki tinglovchilarning maqsad, istak-xohishlari asosida amalgalash mumkin. Nutqiy strategiya dialog yoki muloqot jarayonida nutqiy muomala modellari (odatiy salomlashish, formal suhbat usullari va shu kabilalar) tarzida, shuningdek, noodatiy muloqot usullaridan (luqma tashlash, fraza, maqol, matal kabilalar yordamida) foydalanish bilan hosil qilish mumkin. Umuman olganda kommunikativ strategiya tahlili quyidagilarni e’tiborga oladi:

- kommunikativ vaziyat yuzaga kelishidan oldingi holat tahlili;
- muomala modelini belgilash;
- belgilangan model asosida muloqot yurishlarini rejalshtirish, nutq va muomala usullarini aniqlashtirish;
- strategiya tuzilishini maqsad va motivga moslashtirish;
- maqsad qilingan kommunikativlikka erishish.

“Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog‘liqdir. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga ta’sir

etgan har qanday narsa tanaga ham ta'sir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofiziologik aspektini tashkil etadi”[12]. Kommunikativ strategiya aniq muloqot vaziyatida strategiyani amalga oshirishga qaratilgan usullarni bajaruvchi taktika orqali amalga oshiriladi. So‘zlovchi ongida mavjud bo‘lgan va ko‘zlangan kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradigan nutqiy tuzilmalar majmuasi ushbu shaxsnинг pragmatik zahirasi va imkoniyatidir[2]. O‘z navbatida, kommunikativ taktika muloqotning real o‘zaro ta’siri, kechimi jarayonida qo‘llaniladigan amaliy yurishlar majmui sifatida baholanadi. Kommunikativ taktika aniq vaziyatlarda mo‘ljallangan maqsadga va natijaga erishishda asosiy vazifani bajaruvchi nutqiy ifoda usulidir. Verbal muloqot jarayonida taktikaning amalga oshirilishini ta’minlovchi vositalar sifatida turli sathdagi nutqiy vositalar qo‘llaniladi. O.S. Issersning fikricha, “.....nutq harakati strategiyasi uzoq muddatli kutilayotgan natijalarga erishish maqsadida muloqot jarayonini barpo etishning barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi»[14]. Umumiy ma’noda nutq strategiyasi muloqotning aniq bir shart- sharoitlarini adresantning va kommunikatsiya jarayonida rejalashtirilgan reja va maqsadlarni amalga oshirilishining lisoniy usuli tushuniladi. Shunday qilib, nutq strategiyasi muloqot maqsadiga erishish uchun mo‘ljallangan nutq harakatlar majmui shaklida ifodalanishi mumkin. Nutqiy strategiya kommunikativ maqsadga erishishga yo‘naltirilgan murakkab nutqiy harakatlar majmuasi bo‘lib, muloqotdosh shaxsidan kelib chiqqan holda muloqot jarayonini rejalashtirish[15], muloqot jarayonida muloqotdoshlarning o‘zaro munosabatlari va nutqiy vaziyatda nutqiy strategiyani o‘zgartirishga[16] olib kelishi mumkin. Ta’kidlash kerakki, kommunikativ strategiya faqatgina adresant tomonidan tuzilib qolmasdan, balki adresat tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Mazkur vaziyat adresatning so‘zlovchi taklifi, ma’lumoti, buyrug‘i kabilarni qabul qilishi, ayblovni qisman yoki to‘laligicha tan olishining nutqiy kechim rejasini ifoda usullarini ishlab chiqilishi hamda taklif, buyruqga rad javobini berish, ayblovni tan olmaslik kabi pragmatik ifoda usullarini shakllantirishda yuzaga keladi. Ayblovni tan olmaslik, rad javobini berish usullari quyidagi til vositalarida ifodalanishi mumkin:

- ayblov borasidigi ma’lumotdan bexabarlik ifoda usulini qo‘llash;
- ayblovni noto‘g‘ri yo‘naltirilganligini isbotlashga qaratilgan ifoda;
- o‘zini oqlash imkoniyatlarini ishga solish;
- taklifni amalga oshirishdagi imkoniyatsizligini namoyish etish (uning kompetensiyasiga kirmasligi, bajarishni qo‘lidan kelmasligi va shu kabi bahonalar majmuuni shakllantirish);
- o‘sha paytda bajarish imkoniyatini yo‘qligini namoyish etish (boshqa mashg‘ulot bilan bandlikka yoki kattaroq lavozimdagи shaxs topshirig‘iga ishora orqali);
- to‘g‘ri javobdan ochish (ha yoki yo‘q) yo‘llarini shakllantirish.

Xulosa. Mazkur hollarda muloqot initsiatori, ya’ni adresantning kommunikativ strategiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchrashi va aksincha, adresatning kommunikativ taktikasi amalga oshishi mumkin. Ko‘rinadiki, kommunikativ strategiya o‘zaro muloqotni maqsadi adresatgata’sir etish modellarini nazariy va amaliy shakllantirish hisoblansa, nutqiy strategiya o‘zaro muloqot kechimida nutq vositalari, lisoniy va nolisoniy usullarni qo‘llash orqali amaliy natijaga erishish vositasi sifatida baholaymiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Сафаров Ш. Лингвистика дискурса. Челябинск. ЧГИК. 2018. – С. 136.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2008. – С. 82.
3. Баженова И.С. Эмоции, прагматика, текст. М.: Издательство «Менеджер», 2003. – С. 56.
4. Русакова О. Ф. Дискурс, политический дискурс, политическая дискурсолология // Многообразие политического дискурса. Екатеринбург, 2004. – С. 23.
5. Арутюнова Н.Д. Практическое рассуждение и язык. Сб. : “Сущность, развитие и функции языка”. М: Наука, 1987. – С. 5- 12 (220 с.).
6. Т. А. ван Дейк. Вопросы прагматики текста // Новое в зарубежной лингвистике. - Вып. 8. Лингвистика текста. М.: Прогресс, 1978. – С. 259-336.
7. Столнейкер Р. Прагматика // Новое в зарубежной лингвистике Вып. Лингвистическая прагматика. М.: Прогресс, 1985. – С. 419-438.
8. Вендлер З. Иллокутивное самоубийство // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып.XVI. – М.: Прогресс, 1985. – С. 238-250.
9. Худойберганова Д., Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли лугати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б. 41.

- 10.Иссерс О. С. Речевое воздействие. - М.: Флинта: Наука, 2011. – С. 224.
- 11.Калинин К. Е. Коммуникативные стратегии убеждения в англоязычном политическом дискурсе : дис. канд. филол. наук. - Н. Новгород, 2009. – С. 83.
- 12.Мўминов С., Расулов Қ. Комуникантларнинг ижтимоий роли ва нутқий мулоқот ҳақида // Услубшунослик ва фразеологиянинг долзарб муаммолари. -Самарқанд: СамДУ, 2007. –С. 71.
- 13.Мўминов С. Узбек мулоқот хулқининг ижтимоий - лисоний хусусиятлари. ДДА.-Т., 2000. –Б. 44.
- 14.Иссерс О. С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – Омск: Изд-во Омск. гос. ун-та, 1999. – С. 157.
- 15.Ларина Т.В. Доминантные черты английского вербального коммуникативного поведения // Филологические науки, 2007. № 2. – С 71-81.
- 16.Сухих С.А. Речевые интеракции и стратегии // Языковое общение и его единицы. – Калинин: КГУ, 1986. – С. 72

OGAHIYNING “TA’VIZ UL-O SHIQIN” DEVONIDA DINIY LEKSIKA

*Bobomurotova Saboxat Rustamovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonida diniy leksikaga oid so‘zlarning berilishi haqida ma’lumotlar beriladi va xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: din, tasavvuf, Rab, Haq, Haq Taalo, Tangri, Hizr, Sulaymon, Iso, jannat, do‘zax, iyd.

RELIGIOUS VOCABULARY IN «TA’VIZ UL-ASHIQIN» DEVON OF OGAHI

*Bobomurotova Sabokhat Rustamovna,
Researcher of Jizzakh State Pedagogical University*

Abstract. In this article, information is provided and conclusions are drawn about the giving of words related to the religious lexicon in Ogahi’s «Ta’viz ul-ashiqin» book.

Key words: religion, Sufism, Rab, Haq, Haq Taalo, God, Hizr, Solomon, Jesus, heaven, hell, Eid.

РЕЛИГИОЗНАЯ СЛОВАРЬ В «ТАВИЗ УЛ-АШИКИН» ДЕВОН ОГАХИ

*Бобомуротова Сабоҳат Рустамовна,
научный исследователь Джиззакского государственного педагогического университета*

Абстракт. В данной статье представлена информация и сделаны выводы о даче слов, относящихся к религиозной лексике, в книге Огахи «Тавиз уль-ашикин».

Ключевые слова: религия, суфизм, Раб, Хак, Хак Таало, Бог, Хизр, Соломон, Иисус, рай, ад, Ид.

Kirish. XIX asrda Xivada yashab ijod etgan shoir Muhammad Rizo Ogahiy o‘zining asarları bilan o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shoirdir, turli janrlarda ijod qilgan va she’r yozish bilan birga tarixiy asarlar ham bitgan.“Ogahiyning diniy-ilohiy fikr-qarashlari islomi tushunchalar, ayniqsa, Qur’oni Karim ta’sirida shakllangan, shubhasiz. Uning tasavvufiy dunyo bilan bog‘lanishi Najmuddin Kubro tariqiga, balki undan oldinga ham uzayib borar. Ogahiy Alisher Navoiyning she’riyatdagı yo‘lini davom ettirgan eng sodiq izdosh va eng talantli shogirddir. Uning “Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo, Bahra gar yo‘qtur Navoiyning navosidan sanga” deyishi, shogirdlik e’tiqodi va ehtiromining samimiy ifodasi edi...”[1].

Tasavvuf so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha berilgan:

Tasavvuf [a. – jundan qilingan kiyim, po‘stin kiyish; sufylilik]. Islomda insonning ruhiy dunyosi to‘g‘risidagi, uni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘lllovchi ta’limot, diniy e’tiqod; so‘fiylik[3]. Demak, tasavvuf – bu diniy e’tiqod.

Ushbu so‘z “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da quyidagicha berilgan:

Tasavvuf – bu arabcha so‘z taşavvuf(un) shakliga ega (APC, 271); o‘zbek tiliga sad undoshini s undoshiga almashtirib qabul qilingan: taşavvuf □ tasavvuf; “so‘fiy bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi V bob taşavvufa fe’lidan (APC, 450) hosil qilingan masdar bo‘lib (ATG, 196), “ilohiy kuchlarga ishonuvchi diniy e’tiqod” (sufizm) ma’nosini anglatadi[4].

Din so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha berilgan:

“Din” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’riflangan. “Din [a.- e’tiqod, ishonch]. Ilohiy kuchga, Xudoga ishonishga asoslangan dunyoqarash, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmui”[3].

Ushbu so‘z “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da quyidagicha berilgan:

Din – bu arabcha so‘z bo‘lib, dīn(un) shakliga ega (APC, 271); o‘zbek tiliga cho‘ziq ī unlisi i unlisiga almashtirib qabul qilingan: dīn □ din. Bu so‘z asli “itoat qildi” ma’nosini anglatuvchi dāna fe’lining “ilohiy kuchga sig‘indi” ma’nosini bilan (ATG, 142), “ilohiy kuchga asoslangan ta’limot” ma’nosini anglatadi[5].

Diniy leksika deyilganda har bir tilda miflar va din ta’sirida shakllangan, keng qamrovga ega bo‘lgan lug‘at qatlami tushuniladi. Diniy leksika har bir davr tilida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Bunday so‘zlar Ogahiy ijodida ko‘plab uchraydi.

Diniy leksikaning o‘zini ham ma’lum mavzuiy guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Yaratuvchiga murojaatlar;
2. Payg‘ambarlarning nomlari;
3. Diniy joylar;
4. Diniy marosimlar.

1. Yaratuvchiga murojaatlar. Ogahiy devonining deyarli har bir g‘azalida Allohga murojaat ifodalangan. Juda ko‘p holatda Allohga murojaat “Yo Rab”, “Tangri” so‘zleri orqali, ayrim o‘rinlarda esa Haq Taolo so‘zi orqali ifodalangan:

Yo rab, ul xilvatki, ushshoq ahlidur mahram ango,

Doxil et mahzi karamdin bu hazinni ham ango [3].

Ushbu baytda Allohga “Yo rab” deb murojaat qilgan. Yo rab, oshiqlar ahlining mahramidan yashinishga menga shunday maxfiy joy berginki, toki, xolis marhamatingni menga daxldor qilgin.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zlar quyidagicha izohlangan:

Rab(b) [a. – olloh, xudo; janob; hukmdor; xo‘jayin] din. Xudo, tangri, parvardigor[3].

Ushbu so‘z etimologik lug‘atda quyidagicha keltirilgan:

Rab(b) – bu arabcha so‘z rabb(un) shakliga ega (APC, 281); “parvarish qildi” ma’nosini anglatuvchi rabba fe’lining I bob masdari bo‘lib (APC, 281), to‘g‘ri ma’nosida “xo‘jayin” ma’nosini, ko‘chma ma’noda esa “tangri” ma’nosini anglatadi[3].

Tangrig‘a aylab tavakkul, qil qanoatin shior,

Ikki olamda kerak bo‘lsa agar izzat sango [59].

Ushbu baytda esa Allohga Tangri deya murojaat qilgan. Agar senga ikki olamda ham izzat kerak bo‘lsa, ikki dunyo baxt-saodatiga erishishni xohlasang, yaratgan zotga tavakkal qilib, qanoatni, sabr-bardoshni o‘zingga shior qil.

Tangri so‘zi izohli lug‘atda quyidagicha berilgan:

Tangri [mo‘g‘. Təngər – osmon; xudo] Olloh, Xudo, parvardigor[3].

Ushbu so‘z Navoiy asarlari lug‘atda quyidagicha berilgan:

Tangri – xudo, tangri[2].

Haq taolo o‘z kalomida dedi ufu bi ahd,

Borchag‘a lozimdur etmak ahdig‘a amdo vafo [3].

Bu baytda Haq taolo deya murojaat qilingan. Alloh o‘zining kalomida ahd qilib aytdiki, agdiga vafo qilmoq barchaga farzdir.

Haq va taolo so‘zleri izohli lug‘atda quyidagicha keltirilgan:

Haq [a. – to‘g‘ri, rost, chin, haqqoniy; huquq; adolat; maj. xudo].

1. Haqiqiy holatga mos; haqqoniy, rost.

2. Haqiqiy holat; haqiqat.

3. Shaxs bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llanib, haqiqatning shu so‘z bildirgan shaxs tomonida ekanini bildiradi.

4. Biror narsa, ish-harakat uchun qonuniy bo‘lgan, talab, tartib-qoidaga to‘g‘ri keladigan asos, erk-imkoniyat; huquq.

5. Huquq, qonun va sh.k. yuzasidan biror kimsa yoki narsaga tegishli hissa, to‘lanadigan yoki olinadigan narsa.

6. Ish, mehnat, xizmat evaziga to‘lanadigan pul yoki boshqa narsa.

7. Din. Xudo, olloh, tangri, parvardigor (xudoning sifatlaridan biri). Haq taolo.

8. (3-sh. Egalik shakli – haqi, haqqi). Biror gap, fikrning o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z anglatgan so‘z anglatgan shaxs, narsa va sh.k. ni o‘rtaga qo‘yib anglayotgani ma’nosini bildiradi[2].

Ushbu so‘zlar etimologik lug‘atda quyidagicha keltirilgan:

Haq – bu arabcha so‘z haqq(un) shakliga ega (APC, 184); o‘zbek tiliga hoyi hutti undoshini h undoshiga almashtirib, so‘z oxiridagi qq tovushlaridan birini tashlab qabul qilingan: haqq □ haq; haqqa fe’lining “haqiqat, chin bo‘ldi” ma’nosini bilan (APC, 184); hosil qilingan I bob aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib, arab tilida “chin, haqiqat” ma’nosini anglatadi (APC, 184); bu so‘z ЎТИЛдаги (II, 692) haq so‘zining birinchi ma’nosiga to‘g‘ri keladi.

Taolo – bu arabcha so‘z asli taъalin shakliga ega (APC, 536); o‘zbek tiliga cho‘ziq fathali ayn tovushini а tovushiga, so‘z oxiridagi in qismini а tovushiga almashtirib qabul qilingan: taъalin □ taâlâ (taolo); ko‘p ma’noli ъалâ fe’lining “yuksak bo‘ldi” ma’nosini bilan (APC, 536); hosil qilingan VI bob masdari bo‘lib, yuksaklik ma’nosini anglatadi; bu so‘z anglatgan belgi Olloga nisbat berilib, Ollo taolo

birikmasi tarkibida ishlatiladi.

2. Payg‘ambarlarning nomlari. Ogahiy devonda juda ko‘plab payg‘ambarlarning, jumladan, Sulaymon, Iso, Ilyos, Yusuf, Ya’qub, Ayyub, Odam alayhissalom nomlarini uchratamiz. Devonda Sulaymon payg‘ambarning nomlari 7 marta, Iso alayhissalomning nomlari 19 marta qo‘llangan.

Davlati vaslidin el ichra Sulaymonlig‘ topib,

Halqai baxti qavi ilkimda xotamdur mango.

Qo‘limdagi muhr o‘yib tushirilgan uzugimga kuchli sadoqatliligidan davlatimga, mamlakatimga bog‘lanib, el ichida Sulaymonlig‘ topdim.

Sulaymon so‘zi etimologik lug‘atda quyidagicha berilgan:

Sulaymon – bu so‘z miloddan oldingi I asrda yashab, o‘sha davrdagi qudratli Isroil davlatining podshosi bo‘lgan kishining ismi bo‘lib, asli Shelomo shakliga ega bo‘lgan, keyinchalik Solomon shaklida talaffuz qilingan (Malaya ensiklopediya, VIII, 743); arab tilida bu ism tovush jihatdan o‘zgartirilib, Sulaymon shakliga o‘tgan (APC, 371), o‘zbek tiliga shu tovush tuzilishi bilan qabul qilingan.

Ilyos-u Xizr hamrahi iqbol-u baxtdek,

Davlat bila qo-yu taraf o‘lsa xirom ango [4].

Ilyos – Xizr alayhissalomlarning hamrohi, ya’ni yo‘ldoshi baxt-iqbol bo‘lganligi uchun, davlat qaysi tarafda bo‘lsa ham unga tomon yuradi.

Ilyos va Xizr so‘zлari Navoiy asarlarining izohli lug‘atida quyidagicha berilgan:

Ilyos – a. Xizrga o‘xshash obihayot ichib, mangu tirik, deb faraz qilingan payg‘ambar (Xizr quruqlikda, Ilyos esa suvdan kishilar hamrohi deyiladi)[2].

Xizr – a. afsonaga ko‘ra “obi hayvon” (tiriklik suvi)ni izlab topgan va undan ichib, doimiy tirik yurgan bir payg‘ambarning nomi. Kishilarga yo‘ldoshlik bilan mashhur[2].

Shakar demak g‘alatdurd la‘lingga jonbahshliq ichra,

Qachon Iso-u Maryam mu‘jizin shakkar qilur paydo.

Sening labingni shakar deyish g‘alati, sababi shakarning faqat shirasi bor. Labing esa nafaqat shirin, balki, unda hayot beruvchi xususiyat bor. Xuddi, Iso-yu Maryamning o‘likni tiriltiruvchi mo‘jizasi singari.

Iso so‘zi Navoiy asarlarining izohli lug‘atida quyidagicha berilgan:

Iso, Iyso – a. Xristianlar payg‘ambari (she’rda ko‘pincha o‘likni tirizuvchi kuch timsoli sifatida ishlatiladi)[2].

Odam qoshida iblis erkanmu va yo yorim

Olida raqib otlig‘ badtarmu ekan oyo.

Agar ko‘rsa edi Yusuf malohatlig‘ jamolingni,

Der edi sidq ila: “Ruxsori toboningg‘a sallamno”.

Muqaddas kitoblarda keltirilishicha, Yusuf alayhissalom go‘zallikda tengsiz bo‘lganlar. Shunga nisbat berib, shoir yorining husn-jamolini Yusuf alayhissalomdan ham go‘zal ekanligini ta’riflagan. Agar Yusuf sening malohatli jamolingni ko‘rganda, samimiyat bilan “go‘zalligingga tasanno” der edi. Yor go‘zalligi o‘ta mubolag‘ali ta’riflangan.

Xiradur sansiz ko‘zim ko‘rguz yuzingnikim, erur

Ko‘rsa Yusufning jamolin diydai Ya’qub xo‘b.

Hech kim mandek to‘za olmas jafo-u javringg‘a

Kim, balo anvo‘ig‘a sabr etkali Ayyub xo‘b.

Xuddi Yusufning jamolini ko‘rganda Ya’qubning ko‘zi yorishgandek, gar yuzingni ko‘rsatgin, sensiz ko‘zim xiradir. Sening berayotgan azoblaringga hech kim mendek bardosh bera olmaydi. Turlituman balolarga sabr etgan Ayyub alayhissalom singari.

Ki ko‘b rahravni nokom o‘tkaribdur,

Na topti Nuh maqsudin na Yofis.

Nuh – a. uzoq umr ko‘rgan deb faraz qilinadigan payg‘ambar nomi[2].

3. Diniy joylar. Devonda diniy makonlarga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, jannat, do‘zax, ka’ba kabi joy nomlari keltirilgan. Ayniqsa, jannat so‘zini juda ko‘p uchratamiz. O‘z-o‘zidan shuni anglashimiz mumkinki, har bir mo‘min banda singari Ogahiyning ham jannatni orzu qilgani, unga erishish uchun farz amallarni bajarishga harakatini ko‘ramiz. Ogahiyning “Yor hamdamdur mango” g‘azalida jannatni qanchalik xohlaganligini anglash qiyin emas.

Istabon jannatnikim, ul gul bahori husnidin,

Bazmi ishrat gulshani sarsabza hurrAMDUR mango [2].

Baytda yorning go'zalligini ifodalashda gul fitonimidan foydalangan. Bizga ma'lumki, bahorda tabiat singari insonlar ham yanada chiroyli bo'lib ketadi. Ogahiy ham shuni nazarda tutib, har qanday bazm gulshanidagi hurrAMlikdan, yorning bahoriy husnidan, gul kabi go'zalligidan jannatni istaydi. Diniy kitoblarda Jannatning nihoyatda go'zal, judayam hushbo'y iforli joy ekanligi ta'riflanadi.

Jannatda doimiy chanqoqni qondiruvchi Kavsar suvi borligi haqida ham ushbu g'azalda aytilgan.

Jannat so'zi izohli lug'atda quyidagicha berilgan:

Jannat [a. – behisht; bo'ston, serbog' daraxt, bog']. 1. Din. Begunoh, taqvodor kishilar u dunyoda yashaydigan rohat-farog'atli joy, behisht. 2. Ko'chma. Hamma narsa muhayyo bo'lgan, obod, rohatbaxsh, xushmanzara joy[3].

Ushbu so'z etimologik lug'atda quyidagicha berilgan:

Jannat – bu arabcha so'z çannat(un) shakliga ega (APC, 141); asli “yashirdi” ma'nosini anglatuvchi çanna fe'lidan hosil qilinib, “bog” ma'nosini anglatuvchi çann(un) masdarining (APC, 140) “yakka”, “bir dona” ma'nosini ifodalovchi -t (ta marbuta) qo'shimchasi bilan hosil qilingan shakli bo'lib (ATF, 373), arab tilida al çannatu tarzida al aniqlik artikli bilan ishlatilib, “begunoh kishilarning ruhi narigi dunyoda rohat-farog'atda yashaydigan makon”, “bihisht” ma'nosini anglatadi; o'zbek tiliga bu so'z aniqlik artiklisiz qabul qilingan. O'zbek tilida Jannat so'ziga “joy”, “maskan” ma'nosini anglatuvchi arabcha makon so'zini qo'shib, jannatmakon tarzida ishlatish o'rini emas[4].

Yuz uzra tabassumlig' lablarmu ekan, yohud

Jannat aro mavj urg'on kavslarmu ekan oyo.

Bunda insonning tabassumli lablari yuzining go'zalligiga yanada go'zallik ularshadi, go'yo Jannatning salqinligiga, serjiloliga mavj urgan kavslar yanada orom baxsh etgani singari juda yoqimli tuyuladi.

Kavslar so'zi izohli lug'atda quyidagicha berilgan:

Kavslar [a. serob, mo'l; jannatdagi daryo nomi] Islom dini e'tiqodiga ko'ra jannatdagi g'aroyib daryo yoki hovuzning nomi[3].

Sening bila gar esam bog' erur manga do'zax,

Valek do'zax o'lur sandin oyr-u bog' mango.

Agar sen bilan bo'lsm, hatto do'zax ham menga bog' bo'lib tuyiladi. Lekin, sen yonimda bo'lmasang bog' ham men uchun do'zax bo'ladi.

“O'zbek ilining izohli lug'atida do'zax so'zi quyidagicha berilgan:

Do'zax [f. jahannam]. 1. Diniy tasavvurga ko'ra: o'lgan, din talablarini bajarmagan gunohkor bandalar oxiratda abadiy jazolanadigan joy; jahannam. 2. Ko'chma. Kishini ortiq azob-uqubat va mushkul ahvolga soluvchi sharoit, muhit, holat[3]. Ushbu so'z etimologik lug'atda quyidagicha berilgan:

Do'zax – bu so'z asli [duzax] shakliga ega bo'lib, “badaxloqlik”, “buzg'unchilik” ma'nosini anglatgan (ПРС, 229); shu ma'nodan “narigi dunyoda gunohkor bandalar abadiy azoblanadigan joy”, “jahannam” ma'nosini o'sib chiqqan (ПРС, 229; ЎТИЛ, I, 241). Bu ot tojik tilida do'zax tovush tarkibiga ega (ТЖРС, 143), o'zbek tiliga shu shakli olingan[4].

Yuz yil etsa say'yi etmas Ka'bai maqsudig'a,

Etmadi har kimki onda qasdi ihrom aylagach.

4. Diniy bayram. Islom dinida faqat hayit bayrami borligi bizga ma'lum. Ogahiy ijodida ham hayit bayramiga alohida e'tibor qaratilgan.

Jamoling partavidin iyd subhidek munavvar qil,

Qororg'on kulbam ichra mehri anvardek maqom aylab.

Jamoling shulasi go'yo iyd tongidek nur sochganidan, qorong'i kulbamga quyoshning eng zarrin nurlari sochilgandek charog'on, nurli bo'ladi.

Iyd so'zi izohli lug'atda quyidagicha berilgan:

Iyd [a. – bayram, hayit] diniy bayram; hayit[3].

Ushbu so'z etimologik lug'atda quyidagicha berilgan:

Iyd – bu arabcha so'z ъиyd(un) shakliga ega (APC, 548); o'zbek tilida kasrali ayn tovushini i tovushiga almashtirib talaffuz qilinadi. Bu so'z asli ъада fe'lining (APC, 548); “bayram qildi” ma'nosidan hosil

qilingan masdar bo‘lib (УАЯ, 568), arab tilida “bayram” ma’nosini, o‘zbek tilida esa “hayit” ma’nosini anglatadi[4].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shoirning ko‘plab g‘azallarida Allohga murojaat qilganligiga, payg‘ambarlarning nomlarini bir necha marta keltirganligiga yuqoridagi baytlardan ham guvoh bo‘ldik. Ayrim o‘rinlarda Yo rab, boshqa g‘azallarida Tangri, Haq, Haq Taolo shaklidagi yaratuvchiga murojaatini ko‘rib chiqdik. Muhammad Rizo Ogahiy devonida diniy leksikaga oid so‘zlarni uning har bir g‘azalida uchratamiz. “Ogahiy tasavvuf shoiri emas, u tasavvufning muhibi. U tasavvufiy hayot go‘zalligi va haqiqatlariga muhib nazari bilan qaragan... Ogahiyning she’riyati – tasavvuf bilan aloqador she’riyat”[1].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Haqqulov I. “M.R.Ogahiyning o‘z.mumtoz ad.da tutgan o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani. – T.: 2020-yil 20-may. – B.10.
- 2.Навоий асарлари лугати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент, 1972. 784 бет.
- 3.Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Беш томлик.I том – Тошкент: ЎзбМЭ, 2006. 680 бет.
- 8.Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. II том. – Тошкент: Университет, 2003. 600 бет.
- 9.Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. III том. – Тошкент: Университет, 2003. 283 бет.

RUS VA O'ZBEK ESSELARIDA QO'LLANILADIGAN STILISTIK VOSITALARNING TASNIFI

Ergashev Aslbek Hamzayevich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Rus tili va adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada rus va o'zbek esselarida qo'llaniladigan stilistik vositalarning tasnifi haqida so'z boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida o'zbek va rus tillaridagi esse tushunchasi, ularning turlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar; esse, rus tili, o'zbek tili, stilistik vositalar, badiiy adabiyot

КЛАССИФИКАЦИЯ СТИЛИСТИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЭССЕ

Эргашев Аслбек Хамзаевич,
Чирчикский государственный педагогический университет, Преподаватель кафедры
методики преподавания русского языка и литературы

Абстракт. В статье говорится о классификации стилистических средств, используемых в русском и узбекском очерках. В целях раскрытия содержания статьи рассматривается понятие эссе на узбекском и русском языках и их виды.

Ключевые слова; эссе, русский язык, узбекский язык, стилистические средства, художественная литература

CLASSIFICATION OF STYLISTIC DEVICES USED IN RUSSIAN AND UZBEK ESSAYS

Ergashev Aslbek Hamzayevich,
Chirchik State Pedagogical University,
Teacher of the Department of Teaching Methodology of Russian Language and Literature

Abstract. The article talks about the classification of stylistic tools used in Russian and Uzbek essays. In order to reveal the content of the article, the concept of essay in Uzbek and Russian languages and their types are discussed.

Keywords; essay, Russian language, Uzbek language, stylistic tools, fiction

Kirish. O'zbek va rus asar mazmunining tarkibiy qismlarini o'rganish adabiy tanqidiy inshoning tuzilishi va faoliyati bilan bog'liq ba'zi jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Har bir matn yozilishi yozuvchi, o'quvchi yoki boshqa uchinchi shaxsning ehtiyojiga asoslangan bo'lib, ushbu ehtiyoj goya va janr tanlash uchun asos bo'ladi. Shu bilan birga, og'zaki muloqotning ko'plab original janrlari janr modeli doirasida sezilarli darajada rasmiy moslashuvchanlik bilan (masalan, turli xil so'rov, maslahat, rad etish shakllari va h.k.) ajralib turib o'zgarishlarga moyil bo'ladi.

Bu muloqotning pragmatik tuzilishi elementlarining shaxsiy mazmunining beqarorligi bilan bog'liq. O'z navbatida, bunday beqarorlik ko'plab omillarga, jumladan, suhbat ishtirokchilarining jinsi, yoshi, ma'lumoti, ijtimoiy mavqeい, shuningdek, hozirgi va oldingi matndagi sharoitlarga bog'liq. Ayrim an'anaviy yozma muloqot shakllari, masalan, rasmiy va ishbilarmonlik matnlari, belgilangan qoidalar va tuzilishlar bilan qat'iy nazorat qilinadi va yozuvchi ularga rioya qilishi shart. Ular ma'lum bir janrlarga xos bo'lgan aniq va o'zgarmas formaga ega. Biroq shunday janrlar ham, ular ko'proq erkin va ijodiy deb hisoblangan bo'lsa-da, to'liq cheklardan xoli emas — ularning o'z belgilangan chegaralari va nutqiy ta'sir usullari, shuningdek o'z «janr xususiyatlari» bor.

Shumunosabat bilan rus va o'zbek esseistikasida ishlatalidigan uslubiy vositalarning klassifikatsiyasiga e'tibor qaratish lozim. Xususan, janr tadqiqotchilari doimo esselardagi til aks ettirishining nisbatan yuqori darajasini ta'kidlashadi, bu esa «xabardorlik, o'z lingvistik xulq-atvorini va jamiyat tilini tushunish».

Katta tushunchali rus tili lug'ati esseni «adabiy, falsafiy, ijtimoiy va boshqa muammolarni sistematik ilmiy ko'rinishda emas, balki erkin shaklda muhokama qiluvchi esse» sifatida ta'riflaydi. Erkin shakl esa erkin til vositalarini tanlashni taklif qiladi. Boshqacha aytganda, esseda ma'lum bir «til ozodligi» mavjud, va uning uslub xususiyatlari «obrazlilik, aforistika, sub'yekтивlik, suhbat nutqini takrorlashga

yo‘naltirish»dir. Shunday qilib, Katta tushunchali lug‘at va «Qisqa adabiy ensiklopediya» esse tili va uslubining o‘ziga xos jihatlarini birinchi yaqinlashuvdayoq ta’kidlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O‘zbek adabiyotshunosligida janrning akademik tavsifi «Adabiyotshunoslik lug‘ati»da berilgan va shunday deyilgan: «ESSE (fransuzcha essay - tajriba, sinab kurish) - muallifning u yoki bu masala (muayyan vokea va hodisa, xayotiy xolat va sh.k.) buyicha shaxsiy mulokhazalari bayon kilinuvchi nasriy asar adabiy janr. E.ning kompozision kurilishiga xam, tematik tomoniga xam cheklovlar kuyilgan emas, u muallifga uz fikr-muloxazalari, kechinmalarini tom ma’noda erkin ifodalash imkonini beradi. Tematik jixatdan tarixiy, biografik, adabiy-tankidiy, ilmiy-ommabop kurinishlarga ega bulgan. E.ga xos yana bir xususiyat shuki, u kuyilgan masalaning tugal yechimini takdim etish da’vosini kilmaydi, masala muallif xayotiy tajribasidan kelib chikkan xolda, uning ongiyu kalbidan utkazib yoritiladi. Shu bois E. markazida muallif shaxsi turadi, bayon kuzga yakkol tashlanuvchi sub’yekтив buyokdorlikka ega buladi. Mutaxassislar essening mustakil adabiy janr sifatida shakllanishi XVI asrga tugri keladi deb xisoblaydilar va buni fransuz adibi M.Monten (1533 - 1592) faoliyati bilan, janrning nomini esa uning 1580 yilda chop etilgan «Essays» (Tajribalar) asari bilan boglaydilar. Ayni chogda, essega xos elementlar bunga kadar xam bulgani, jumladan, ularni antik davr adibi Lukian nutklarida kuzatish mumkinligini ta’kidlaydilar. Essega xos xususiyatlar Shark adabiyotida, xusan, uzbek adabiyotida xam kadimdan mavjud (masalan, Navoiy. «Maxbub ul-kulub»). Shuni xam kayd etish joizki, esse tabiatiga xos erkinlik uning rivojiga nafakat professional yozuvchilar, balki boshka soxa kishilari (olimlar, faylasuflar va b.) ning xam sezilarli xissa kushishiga imkon berdi. Essega xos xususiyatlar sunggi davr adabiyotidagi boshka janrlar strukturasiga xam uz ta’sirini kursatdi, ayrim yunalishlarning esa (postmodernizm) ustuvor belgilaridan biriga aylandi. Xozirgi uzbek adabiyotida Sh.Xolmirzayev, O.Muxtor, X.Davron, X.Sultonov kabi ijodkorlar, shuningdek, M.Kushjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov kabi adabiyotshunoslarning E. janridagi asarlari kitobxonlar orasida mashxur»[4].

Yuqorida tafsif esse janrining asosiy mezonlarini taqdim etadi, bu lug‘at mualliflari tomonidan ushbu masala bo‘yicha batafsil tahlilni ko‘rsatadi.

O‘ziga xos uslubiy xususiyatlarga bag‘ishlangan turli janrlardagi bosma nashrlarga bag‘ishlangan ishlar soni kam. Shunday qilib, ocherk poetikasi haqida G.V. Kolosov, M.S. Cherepaxov, N.I. Glushkovlar yozgan bo‘lsa, reportaj uslubi haqida — G.Ya. Solganik, felyeton haqida — L.G. Kayda yozgan, publisistikating tasviriy resurslariga M.I. Styuflyayeva, D.P. Vovchok, Ye.I. Jurbinalar ham murojaat qilganlar. Odatda, ko‘rsatmalar summasi sifatida qo‘llanma tuzish imkonsizligiga tayanib, mualliflar jurnalistlar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolar ro‘yxatini sanab o‘tishga e’tibor qaratadilar, janrga qarab, turli nutq vositalaridan foydalanishga bog‘liqligini ta’kidlashadi.

Esse nazariyasi rus va o‘zbek adabiyotshunosligida kam sonli ilmiy ishlar bilan ifodalangan, esse matnlarining tili va uslubiy tahlili amalda cheklangan. Shunday qilib, esseist V.Kantorovich «bizning badiiy publisistikamiz ko‘pincha Yevropacha «esse»ga yaqinlikni ochib beradi»[7], deb ta’kidlab, esseda maqsadli og‘zaki o‘yin haqida gapiradi. U shuningdek, esseistik uslubni yozuvchining yozish mahorati sifatida tasvirlaydi.

Esse matnini yaratishda asoslanadigan usullarning batafsil klassifikatsiyasi N.L. Mishatinaning maqolasida bor, u yerda ushbu janrni yozma nutqni o‘rganish vositasi sifatida taklif qilinadi. N.L. Mishatinaning ajratib ko‘rsatgan essening uslubiy xususiyatlari tizimi iqtibos olish usullari, ritorik savollar, taqqoslashlar, antiteza, assosiativ «chekinishlar», dialogik vaziyatni modellashtirishni o‘z ichiga oladi[2].

Esse matnining uslubiy belgilariga kengaytirilgan tafsif I.S. Alekseyevning kitobida taklif etilgan[6]. Unda esse tarjimasining xususiyatlari hisobga olingan. Muallif til va uslubning quyidagi xususiyatlarini taklif qiladi: yuqori leksika va argo so‘zlarning aralashmasi, emosional-baholash leksikasidan faol foydalanish, frazeologizmlarning yuqori chastotali ishlatilishi, muallifning yangi so‘z yaratishlari, sintaksik parallelizm, inversiya, parsellyasiya.

N.B. Rujenseva adabiy-tanqidiy esseni tahlil qilar ekan, uning assosiativ foni, polistilizmi, intertekstualligi kabi xususiyatlarini qayd etadi[2], A.V. Yakunov essening mazmunan va shaklan belgilarini ajratib ko‘rsatadi, ular orasida stilistik belgilar ham bor: kompozisiyaning mozaykaligi, paradigmatic taskiloti, assosiativligi, nonkollokviyal suhbatdoshligi va boshqalar[1].

Zamonaviy matbuotdagli esse matnlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, polistilizm — uning tilining

yetakchi xususiyatidir. Biroq olimlar tomonidan tanlangan atama muvaffaqiyatsizdir, chunki bu yerda turli uslublar elementlarining formal aralashuvi haqida emas, balki ularning o'zaro ta'sir va o'zaro kirib borishi haqida so'z bormoqda. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, «diffuziya» fizik atamasi mazkur usulning mohiyatini aniqroq aks ettiradi.

Esse janrini tadqiq qilish uning bir nechta asosiy stil xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga imkon berdi. Emosional-baholash leksikasining mavjudligi (standart va ekspressiyaning aniq almashinuv), polistilizm, assosiativlik, suhbatlashishga yo'l qo'yish, an'anaviy bo'limgan kompozisiya, noyob sintaksis va boshqalar.

Qoida tariqasida, esseistik matnlarda stilistik «pastlik» bilan tavsiflangan kontekstda stilistik «yuqori» lug'at mavjud yoki aksincha. Bu usul matnga til birliklarining turlicha uslublarini birlashtirish natijasida maksimal ifodaviylik beradi. Esseist fakt yoki hodisani tasvirlayotganda, ushbu voqealarning xarakteriga yoki emosional foniga mos keladigan tildan foydalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Esse janriga mos termin tanlash imkoniyatini ko'rib chiqsak, bu janrda so'zlashuvchanlik funksional uslub emas, nafaqat leksikani, balki sintaksisning xususiyatlarini, xususan ellipsis, inversiya, parsellyasiyadan foydalanishni ham o'z ichiga olgan til materialining bir qismini tashkil qiladi deb o'yayman.

Tahlil va natijalar

Esseda uch xil dialoglashtirish usuli ko'rsatilishi mumkin:

- muallif, aniqrog'i, guvohi bo'lgan dialogni takrorlash. Bu usul o'quvchini matnda tasvirlangan voqealarning «guvohi»ga aylantirish imkonini beradi, bu esseni jurnalistika janrlarining ma'lumotnomaga turlariga yaqinlashtiradi:

- suhbatdoshga murojaat qilish -suhbatdosh-o'quvchiga (ot yoki fe'l shaklida) bu, albatta, murojaat qiluvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi kommunikativ harakatning samaradorligini oshiradi:

- muallifning o'z-o'zi bilan dialogi, savol-javob birligi yoki epilemma — bu ritorik usul, bunda orator o'ziga o'zi e'tiroz bildiradi va keyin bu e'tirozga javob beradi. Shunday qilib, esseist auditoriyaga haqiqat faktlari ustida fikrlash natijasini emas, balki o'sha jarayonni taklif qiladi. Va o'quvchi muallifning tashqi refleksiyasining emas, ichki refleksiyasining «guvohi»ga aylanadi.

Elliptik qurilma esse tilini tadqiqotchilar tomonidan ajratib ko'rsatilmagan, lekin u sintaksisning bir usuli sifatida taxmin qilinadi[6]. Ellipsis bu-aytilishning tashlab yuborilgan elementini berilgan kontekst yoki vaziyatning oson tiklanishi»[3].

Vizual ravishda, ellipsning «buzilgan» jumlalari muallifning intonatsiyasini aniq aks ettiradi va uni grafik jihatdan ko'rsatish uchun mo'ljallangan[5]. Jumlaning intonasion bo'linishi, bizning fikrimizcha, murojaat qiluvchining kommunikativ aktning manziliga yuborilgan ma'lumotlarning samaradorligi va mavjudligiga ishonchining belgisidir.

Parsellyasiya — bu jumla tarkibining shunday bo'linishiki, «gapning mazmuni bir emas, balki ikki yoki bir necha intonasion-ma'noli nutq birliklarida, bir-biridan ajratuvchi tanaffusdan keyin ketma-ket amalga oshiriladi»[4].

Bizning fikrimizcha, muallif o'quvchi e'tiborini qandaydir fakt yoki mulohazaga jalb qilish maqsadida parselatasiyadan foydalanadi, matnda bu fikrni grafik tarzda ta'kidlaydi. Ritorik savol - bu «javobi kutilmaydigan savol ko'rinishidagi tasdiqlash yoki rad etish»[4].

Zamonaviy lingvistikada ritorik savollarni tasniflashning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular esse janrida asos topgan. Rozental D.Ye. ritorik savollarni so'zlash intonatsiyasi bo'yicha, savol-javob seriyasining tarkibida ishslash bo'yicha, shuningdek, murojaat etilgan qabul qiluvchi turi bo'yicha ajratib ko'rsatishni taklif qiladi. Murojaat aniq suhbatdoshga, qabul qiluvchisiz bo'lishi yoki muallifning o'ziga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin[4].

Shunday qilib, yuqoridagi tasnif XXI asr boshlarida zamonaviy esse yozishga xos bo'lgan bir qator stilistik uslublarni aks ettiradi. Ushbu tasnif to'liq emas va, albatta, uni to'ldirish va tuzatish mumkin.

Adabiy-tanqidiy esseda mualliflar ko'pincha tasodifiy yozuvchilarni emas, balki o'z ijodida chuqur va ba'zida to'liq anglanmagan ma'nolar va imkoniyatlarni mujassamlashtirgan yozuvchilarni tahlil qilishni afzal ko'rishlarini ta'kidlash lozim. Bu Gogol, Dostoyevskiy, Chexov kabi mualliflarga va Kumush Asr shoirlariga nihoysatsiz qiziqishning sababini tushuntiradi. Adabiy-tanqidiy esse tuzilishida ayniqsa muhim rol o'ynaydigan muallif, intellektual va hissiy faoliyat bilan to'lgan shaxsdir. Esse muallifi faqat fikrlash uchun mavzuni va unga o'z munosabatini tanlamaydi, balki u o'quvchiga murojaat qiladi, u bilan aloqa o'rnatadi, o'z nuqtai nazarini yetkazish uchun yozma aloqaning barcha imkoniyatlaridan foydalanadi.

Esse tuzilishining murakkabligi va muallif tomonidan bajariladigan turli funksiyalar, shuningdek, uning o‘quvchi bilan aloqa o‘rnatish va unga ta’sir o‘tkazish istagi, polifonik ta’sirni keltirib chiqaradi, muallifning monologini dialog bilan to‘ldiruvchi «ovozlarning musiqiy kompozisiyasi»ni yaratadi, bu esa o‘quvchida matn yaratuvchisi – bitta odam bilan emas, balki turli davrlarda mavjud bo‘lgan ko‘plab kaxramonlar bilan suhbatlashayotgandek tuyg‘u uyg‘otadi.

Adabiy-tanqidiy esseda asosiy rolni assosiativ matn osti mazmuni o‘ynaydi, u janrning muhim elementi hisoblanadi. Boshlang‘ich matnda qisqartirilgan, lekin ko‘p ma’nolar ma’nolar va bog‘lanishlar mavjud, va esse yozuvchisining vazifasi – o‘quvchining assosiatsiyalarini boshqarish, uning fikrlarini istalgan yo‘nalishda yo‘naltirish. Nutq tuzilishi jihatdan, adabiy-tanqidiy esse matn elementlarining barqaror to‘plami tashqi kontekstga va muallifning noyobligiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin bo‘lgan elementlar bilan farq qiladi. Ushbu janrning xususiyati – polistilizm bo‘lib, u ilmiy, publisistik, badiiy va, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, uning soddalashtirilgan, kundalik ijrosidagi suhbat stilini qo‘sghan holda turli stil elementlarining aralashmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Канторович В. Заметки писателя о современном очерке. М., 1973.
2. Краткая литературная энциклопедия. М., 1975.
3. Вовчок Д.П. Стилистика газетных жанров. Свердловск, 1979; Глушков Н.И. Очерковая проза. Ростов н/Д, 1979; Журбина Е.И. Теория и практика художественно-публицистических жанров. М., 1969;
4. Розентал Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. М., 1985.
5. Большой толковый словарь русского языка. СПб., 1998.
6. Алексеева И.С. «Профессиональный тренинг переводчика» СПб., 2001.
7. Культура русской речи: Энциклопедический словарь-справочник. М., 2003.
8. Мишатина Н.Л. Работа с художественным концептом как средство речевого развития школьника // Русский язык в школе. 2006. № 3.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TAQLIDIY SO'ZLARNING USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI

Haydarov Anvar Askarovich
(Buxoro davlat universiteti professori)

Alimova Mubina Murodjon qizi
(I bosqich magistranti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada taqlidiy so'zlar va tovushlar uslubiy jihatdan tahlil qilinib, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy-ifodaviy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Maqola taqlidiy so'zlar va tovushlar qo'llanilgan shakllarining tahlilini taqdim etadi va ularning badiiy-ifodaviy xususiyatlari haqida tushunchalar beradi. Ingliz tilida taqlidiy so'zlar va tovushlar adibning tilida ijodiy ifodaviy vositalar sifatida ishlataladi, shuningdek, o'zbek tilida ham shaxsning ma'naviy aloqasini ifodalashda muhim rollarni o'zlashtiradi.

Kalit so'zlar: poetik nutq, qo'ng'iroqlar, alliteratsiya, pauza, uslubiy vaziyat

СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОХОЖИХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Хайдаров Анвар Аскarovич
(профессор Бухарского государственного университета)

Алимова Мубина Муроджон қизи
(магистрант 1 курса)

Аннотация: В данной статье методически анализируются подражательные слова и звуки, а также приводятся сведения об их художественно-экспрессивных особенностях в английском и узбекском языках. В статье представлен анализ форм используемых подражательных слов и звуков, даны представления об их художественно-экспрессивных особенностях. В английском языке подражательные слова и звуки используются как творческие средства выразительности в языке писателя, а также в узбекском языке они играют важную роль в выражении духовной связи человека.

Ключевые слова: поэтическая речь, призывы, аллитерация, пауза, стилистическая ситуация.

STYLISTIC CHARACTERISTICS OF SIMILAR WORDS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Haydarov Anvar Askarovich,
(professor at Bukhara State University)

Alimova Mubina Murodjon qizi
(1st year Master student)

Abstract: This article methodically analyzes imitative words and sounds, and also provides information about their artistic and expressive features in the English and Uzbek languages. The article presents an analysis of the forms of imitative words and sounds used and gives insights into their artistic and expressive features. In English, imitative words and sounds are used as creative means of expression in the language of the writer, and also in Uzbek, they play an important role in expressing the spiritual connection of a person.

Key words: poetic speech, appeals, alliteration, pause, stylistic situation.

Kirish. Tilda emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi vositalar turli xil bo'lib, ulardan biri Onomotopiya-ya'ni tovushga taqlid so'zlardir. Badiiy matnda emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda onomatopeyalarning ahamiyati juda katta. "Onomatopeya"-poetik nutqda she'r yoki nasrdagi tovush xodisalariga badiiy taqlid qilish usulidir.

Onomatopeya grekcha "onomatopedia" -nom hosil qilish, "onoma"-nom, poieo-yasayman, qilaman. Hayvon, qush tovushlari va tabiiy tovushlarga taqlidan so'z hosil qilish, deb ta'rif berilgan.

Dolzarbli. Ingliz tili va o'zbek tillarida uslubiy o'ziga xosligi bir-biridan farq qiladi va har bir tilda o'z ta'siri bilan foydalilanildi. Ingliz tilida taqlidiy so'zlar ingliz tilining grammatikasi, so'z ortishi va tushunchalari asosida ishlataladi, bu esa ularni ingliz tilini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida esa, taqlidiy so'zlar o'zbek tilining tuzilishi, qoidalar va ma'noni ifodalash usullari bo'yicha taniladi. Shuningdek, har bir tilning madaniy va tarixiy xususiyatlari ta'siri bilan taqlidiy so'zlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Onomatopeya tasvirlanayotgan narsaning tovushga yoki fonetik taqlidini bildiradi. Masalan, hayvonlarning tovushiga taqlidni bildiruvchi so'zlar – "vov-vov"-itlarda, "miyov-miyov"-mushuklarda, "mo-mo" -sigirlarning tovushlariga taqlid so'zlar hisoblanadi. I.R.Galperin onomatopeyalarini 2 guruhga bo'ladi: o'z va ko'chma ma'noli

O'z ma'nosidagi onomatopeyalardagi so'zlar tabiiy tovushlarni ifoda etib, turli darajalarni ko'rsatadi. Jumladan, hayvon va qushlar ovoziga taqlid so'zlar: to buzz,to mew.

Ushbu so'zlar metaforalashtirilgan bo'lib, ular inson nutqini boyitadi.O'z ma'nosidagi onomatopeyalar shunday so'zlarni o'z ichiga oladiki,bular tovushlarga tabiiy taqlidni ifodalaydi.

Masalan, ding-dong, buzz, bang, cuckoo, tintinnabulation, mew, ping-pong, roar.

Yuqorida keltirilgan taqlidiy so'zlar emotsionallikni ifodalaydi, jumladan, ding-dong qo'ng'iroq tovushining davomli jiringlashini ifodalaydi. Bunga misol qilib Edgar Poning quyidagi she'rini keltiramiz:

-Hear the loud alarum bells,
Brazen bells
What a tale of terror, now, their turbulence tells!
In the startled ear of night
How they scream out their affright!
Too much horrified to speak,
They can only shriek, shriek,
Out of tune...
How they clang, and clash, and roar!
What a horror they pour
On the bosom of the palpitating air!
Yet the ear it fully knows,
By the twanging, and the clangling,
How the danger ebbs and flows.
(“The Bells” by Edgar Allan Poe)

Yuqoridagi she'rda onomatopik birliklar juda ko'p qo'llanilgan bo'lib, unda 4 xil qo'ng'iroqlar: "loud alarum bells", "silver bells", "mellow golden bells", "iron bells" tasvirlangan. She'rning har bir misrasida shoir ushbu qo'ng'iroqlar tovushini ifodalovchi turli onomatopik so'zlardan o'rinli foydalangan va ushbu vosita orqali she'rning ta'sirchanligini oshirgan.

Jumladan, silver bells (kumush qo'ng'iroqlar)ga nisbatan "jungle" va "tinkle" so'zlari bo'lib, ular yengil zavqli tovushlarni ifodalaydi.

"Mellow wedding bell" esa "gush of euphony" iborasi orqali ifodalangan.

She'r misralaridagi "shrick, clang, roar, twanging, clangling" kabi so'zlar xavotirli va notinch

vaziyatni ifodalash maqsadida shoir tomonidan qo'llanilgan.

Shuningdek, taqlidiy so'zlardan hajviy va satirik vaziyat yaratishda ham adiblar foydalanganlar. Komik yozuvchi Roy Kreyn she'rlarida ushbu san'atdan foydalanib, misralar yaratganligini ko'rish mumkin:

Ker-splash and lickety-wop.

Ariel:

Hark, hark

Vow-vow

He watch-dogs bark,

Vow-vow

Hark, hark, I hear

She strain of strutting chanticleer

Cry cock a didle-dow.

Yuqorida keltirilgan she'riy parchada esa Ariel obrazini yaratishda V.Shekspir onomatopeyadan unumli foydalanganligini ko'ramiz.

Ko'chma ma'noli onomatopeyalarda esa tovushlarga taqlid biror vosita orqali amalga oshiriladi va o'shangta qilinadi, ingliz tilida bu hodisa "echo-writing" deyiladi.

Masalan, "and the silken, sad, uncertain rustling of each purple of the rustling of the curtain".

Yuqoridagi parchada "s" tovushining takrori deraza pardasining sharpasini eslatadi:

Afrika bo'ylab soldat-askarlarning marsh qilishi oqibatida paydo bo'ladigan tovush quyidagi misolda ko'rsatilgan.

We are foot-slog-slog-slog-slogging,

Foot-foot-foot-slogging over Africa

Boots-boots-boots-

Moving up and down again. (R.Kipling)

Ko'chma taqlidiy so'zlar alliterasiyadan farqli o'laroq, tovush takrori orqali amalga oshadi. Quyidagi inglizcha she'riy parchada shamolning esishi "w" tovushini takror qo'llash orqali ifodalangan:

Whenever the moon and stars are set,

Whenever the wind is high

All night long with dark and wet

A man goes riding by. (R.S.Stevenson).

Shunday holatni o'zbek tilida ham uchratamiz. "Sh" tovushining tabiatan shovqinli ekanligiga e'tibor qaratilib, shovqinli xarakter anglashiladi.

Shovqinlar shoshadir chirmab olmakka,

Sirmab tortaverar umr shamoli.

Xakkaday xakkalab o'taverar vaqt,

Qarib qolmoqdamiz, birga ayolim. (A.Qutbiddin)

Nutqda tovush shakllanishi badiiy ifodaviy xususiyat kasb etadi, muayyan uslubiy vazifa bajaradi, tilning tovush tuzilishidagi u yoki bu elementlarning nasriy yoki she'riy matnda (unli va undosh tovushlar, urg'uli va urg'usiz, pauza, intonasiyaning turli xillari, sintaktik qurilmalar, so'zlar takrori) qo'llaniladi.

Nutq tovushlari badiiy tasvirda o'zining asosiy vazifasidan tashqari emotsional-ekspressiv va appelyativ (eshitib ta'sirlanish) xususiyatiga ega. Tovushlar ham biror obraz yaratishda vosita yoki o'zları ham obraz bo'la oladi. She'riy til uchun tovush bilan holat o'rtasidagi munosabat bo'lishi emotsional ta'sir kuchini oshiradi. Tovush orqali keltirilgan his-tuyg'u she'r ma'nosining beradigan hayajonga zid bo'lmasligi lozim. Shu sababdan tovushlar vositasida yaratilgan emotsiyonallik va obrazlilik she'rni o'qishda o'quvchini zeriktirmaydi, aksincha unga zavq beradi.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Ravshan" dostonida tovushlar yordami bilan poetik obraz yaratgan. Bunga asosan poetik obraz yaratishning biri hisoblangan taqliddan unumli foydalilanigan.

Masalan,

Hasanxonning bir otı,
Qopdi pechkanday bo'ldu
Bir nayza Hasanxonni
Xuddi chaqqanday bo'ldu
Qoraxon shonning chirog'i
Shu kun o'chganday bo'ldu.

Ingliz va o'zbek tillarida tovushga taqlid so'zlarni 3 guruhgaga bo'lish mumkin:

1.Turli predmetlar, mashina, apparatlardan chiqadigan ovozlar: taraqlamoq, chiyillamoq, g'ijirlamoq;

2.Tabiat xodisalaridan shamol, yomg'ir, bo'ron bilan bog'liq:momaqaldiroq;

3. Inson va hayvonlar tomonidan hosil qilinadigan ovozlar: shivirlamoq, pishillamoq, mo'ramoq;

Tovush va mazmun aloqadorligi tovushlar moslashishi asosida yuzaga chiqadi. Alliterasiyaga asoslangan tovushlar avval zikr etilgan yoki qayd etilmagan muayyan kalit so'zlarga ishora qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, tovushlar tabiatini milliy mentalitet asosida yuzaga chiqadi, chunki o'zbeklarga xos an'ana, urf-odatlarga mos kelmasligi, ularda boshqa kasb etishi mumkin. Tovushlarning tovlanishi, matn qurshovi va sharoitiga bog'liq holda tushuniladi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1.Hotamov N.,Sarimsoqov B.Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.-T.:1979.-B.215

2.Hojiyev A.Lingvistik terminlarning izohli lug'ati.-T.:O'qituvchi.1985.-B.64

3.Galperin I.R.Stylistics.M.:Higher school.1977.-P.124-125

4.Tursunova O.Onomatopeyalarning emotsional-ekspressiv vazifalar.O'zbek tili va adabiyoti.2012.№5.-B.99-101.

BADIY NUTQ VA TIL MUNOSABATI

Xayrulla Ibragimov

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti

Annotatsiya: Maqolada badiy nutq va tilning o'zaro munosabati, badiy nutqni tashkil etuvchi lingvistik birliklar, badiy matnni tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishning nazariy asoslari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, nutq uslublari, badiy nutq, nasriy nutq, she'riy nutq, she'riy til, xalq tili, adabiy til, lirik asar.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ РЕЧЬ И ЯЗЫКОВЫЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

Хайрулла Ибрагимов

доцент Джиззакского филиала Национального университета Узбекистана.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы взаимодействия поэтической речи и народного языка, языковых единиц образующих поэтическую речь, научно-теоретические основы исследования художественного текста с точки зрения лингвистики.

Ключевые слова: речь, устная речь, письменная речь, стили речи, художественная речь, поэтическая речь, поэтический язык, народный язык, литературный язык, лирическое произведение.

ARTISTIC SPEECH AND LANGUAGE RELATIONSHIP

Khayrulla Ibragimov

an associate professor of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

Annotation: The article deals with the interaction of poetic speech and the national language, the language units that form poetic speech, and the scientific and theoretical foundations of the study of a literary text from the view of linguistics.

Key words: speech, oral speech, written speech, speech styles, artistic speech, poetic speech, poetic language, folk language, literary language, lyrical work.

Nutq yozma va og'zaki ifoda shakliga ega bo'lib, u co'zlashuv, badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy uslublarni o'z ichiga oladi. Har bir nutq uslubi ma'lum maqsadni ifoda etishga xizmat qiladi.

She'riy til – murakkab, serqirra, serjilo, obrazli nutq. She'riy nutq – she'r tuzilishi - o'zgacha bir dunyo: she'r to'qimasida, birinchidan, nasriy va dramatik asarlardagidek, g'oya, obraz, konflikt, syujet, kompozitsiya, badiy til unsurlari mavjud bo'lsa, ikkinchidan, unda faqat she'r tuzilishiga xos bo'lgan unsurlar: musiqiylik, ohang, ritm, bo'g'in, turoq, bosh turoq, turkum, vazn, qofiya, band, ko'chimlar, figuralar, badiy san'atlar, fonetik usullar bo'lishi hamda she'riy nutqda A.Fitrat ta'biri bilan aytganda, «yurak sezgilarini ko'rsatadigan» ma'naviy-iloxiy kuch-ohangrabo, joziba bo'lishi shart.

Badiy nutq — badiy nutqning nasriy (sochma) va she'riy (tizma) tarzidagi ikki shaklidan biri bo'lib, tilning muayyan ichki o'lchamga solingan, ma'no ko'chishiga asoslangan, hissiyotga to'yingan alohida ko'rinishidir.

Filologiya fanining rivojlanish tarixida she'riy nutq (poetik til) muammosi tilshunoslik chegaralari doirasida o'rganilgan va rivojlantirilgan, keyinchalik u tilshunoslik chegaralaridan chiqib ketgan. Uzoq vaqt davomida tilshunoslар va adabiyotshunoslар o'zaro she'riy matnlarni o'rganish huquqi to'g'risida bahslashishgan va bunday matnlarni lingvistik yo'naltirilgan tadqiqotlar tilshunoslikning she'riy nutq muamolarini o'rganishga haqli degan tezisni asoslashdan boshlangan.

Hozirgi vaqtida ushbu sohadagi lingvistik tadqiqotlar namunasini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan filologiya doirasida alohida yo'nalish paydo bo'ldi. Bu "she'riy asarlarni til prizmasi orqali ko'rib chiqish va she'riyatda dominant vazifani o'rganish" bilan shug'ullanadigan soha lingvistik poetika (poetik nutq nazariyasi)dir.

"Poetik lug'atda" poetika "adabiy asarlarning tarkibiy shakllari va yangi shakllar ta'siri ostida ushbu shakllarning o'zgarishi tarixiy qonuniyatlar" deb ta'riflanadi[1]. Rus poetikasining tug'ilishi va rivojlanishida ko'plab tilshunos va adabiyotshunoslар o'z hissalarini qo'shganlar. Bular: V.G. Admoni,

M.M. Baxtin, R.A. Budagov, V.V. Vinogradov, G.O. Vinokur, I.R. Galperin, L.Ya. Ginsburg, G.A. Gukovskiy, V.M. Jirmunskiy, A.N. Kojin, D.S. Lixachev, Yu.M. Lotman, A.A. Potebnya, V.Ya. Propp, T.P. Silman, B.V. Tomashevskiy, Yu.N. Tyulyanov, V.B. Shklovskiy, L.V. Щерба, B.M. Eyxenbaum, Ye.G. Etkind, P.O. Yakobson va boshqalar.

Hozirgi kunda tilshunoslik poetikasi ichki va xorijiy adabiy merosni tushunishda boy tajribaga ega. Biroq, she'riy nutq nazariyasida ko'plab muhim masalalar hali ham munozarali. Xususan, ko'p sonli asarlar bilan, poetik tilning umume'tirof etilgan va har tomonlama bahsli nazariyasi hali ishlab chiqilmagan, uning maqomi masalasi to'liq hal etilmagan va "poetik" so'zining o'zi, shuningdek, "poetik til"/ "poetik nutq" bugungi kunga qadar noma'lum tarkib bilan to'ldirilmoqda.

She'riy nutq she'rning yaratilishi uchun eng muhim birlamchi vosita bo'lib, kelib chiqishiga ko'ra nasriy nutqdan qadimiydir. U inson tamaddunining dastlabki paytida uzoq vaqtgacha badiiy nutqning yagona shakli bo'lgan. Chunki she'riy nutq qurilishidagi tartiblilik, musiqiylik, hissiylik, o'chovlilik uni kundalik qora so'zdan farqlagan, u orqali ifodalanayotgan axborotning san'atga tegishliligini ko'rsatib turgan.

Badiiy nutq – badiiy ijod vositasi va badiiy idrok predmeti sifatida nutq xususiyatlarining umumiyligi; ba'zan she'riy nutq oyat qonunlariga muvofiq tashkil etilgan san'atdir. Tor ma'noda she'riy nutq yoki "poetik til" so'zlashuv, frazeologiya va sintaksidan foydalanib, hozirgi zamongacha she'riyatning muayyan tiliga tegishli bo'lib, deyarli nutqning boshqa sohalarida qo'llanilmaydi, masalan, qadimgi Islandiya, klassik fors she'riyati va boshqalar.

Badiiy adabiyotda she'riy nutq va xalq tili bir butun holda namoyon bo'lsa, asar o'qishli, tushunarli hamda xalqona ruhga boy bo'ladi. Adabiy til va badiiy asar tilida xalq tilining muhim jihatlari umumlashadi. Shoир tilining individualligi mana shu mushtaraklikda namoyon bo'ladi.

Xalq tili bilan adabiy til qadimgi davrlardanoq farqlangan. Maqmud Koshg'ariy turkiy tillarni tekshirar ekan, dialektlar bilan adabiy til orasidagi farqni ko'rsatib berdi. Ularni chuqur tahlil qilib, ilmiy xulosalar chiqardi.

Adabiy til tarixan shakllangan, so'z ustalari tomonidan qayta ishlangan, sayqal berilgan, me'yoriy va jamiyatda kishi faoliyatining hamma sohalari bilan bog'langan badiiy-publisistik, ilmiy adabiyot tilidir. Boshqacha qilib aytganda, adabiy til barcha o'zbeklar uchun namuna bo'ladigan, umumxalq tilining eng yaxshi ifoda-imkoniyatlari mujassamlangan tildir[2].

Xalqning tili – bu ularning ma'naviy hayotidagi eng yaxshi narsa. Ona tili – zamondoshlarni, avlod va ajdodlarni birlashtiradigan vosita. Zamonaviy odam uchun insonlarni birlashtiradigan emas, ajratadigan narsalar muhimdek ko'rinadi. Ehtimol, shuning uchun bizning ko'pchilik zamondoshlarimiz ona tillariga unchalik e'tibor bermaydilar, lekin bilmaydilarki, til biz uchun havo va suv kabi zarurdir.

Ko'pincha biz atrof-muhit va tabiat ekologiyasi haqida gapiramiz. Inson yaratgan muhit esa tabiat emas, balki uning madaniyatidir. Hatto aytish mumkinki, zamonaviy insonning tabiatni ko'p jihatdan uning atrof-muhitiga, madaniyatiga bog'liq. Til esa madaniyatning ajralmas qismidir. Ona tili uni yo'q qiladigan, tahdid qiladigan har qanday narsadan himoya qilinishi lozim. Yangi bo'lib tuyulgan, hozirgina nutqda paydo bo'lgan tilning aksariyati, aslida, tilning o'zi kabi eskidir. Bizning tilimiz juda moslashuvchan bo'lib, so'z ustalari – yozuvchilar va filologlar unga ishlov berib, jozibali qilishgan.

Til hozirni va o'tmishni, kelajak avlodlarni bir butunga birlashtiradigan eng muhim, eng kuchli va eng boy vositadir. Til yo'qolsa, xalq ham yo'qoladi. Va aksincha, xalq o'z tilini ishlatgunicha yashaydi. Donishmandlarning aytishicha, xalqdan xamma narsasini olish mumkin, u barini qaytaradi, lekin uning tilini olib qo'ysangiz, u qaytarolmaydi.

Xalq tili – adabiy tildan farqli o'laroq, faqat og'zaki nutqda yoki xalq og'zaki ijodi asarlari sifatida ma'lum bo'lgan tirik tildir.

Ko'pincha, faqat bir-biriga yaqin yashaydigan xalqlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib, xalq tili hududiy yoki mahalliy lahjalarga bo'linib, nisbatan kichik hudud bilan chegaralangan. Bundan tashqari, kundalik hayot ehtiyojlariga xizmat qiladigan xalq tili adabiy tilga qaraganda umuman qashshoqdir.

Shu bilan birga, xalq tili dialektik parchalanish tendensiyasiga ega, adabiy, aksincha, tekislash, bir xillikni o'rnatish tendensiyasiga ega. Xalq tilini farqlashda geografik prinsip ustunlik qiladi: individual kasbiy yoki kundalik guruhlarning (dehqonlar, baliqchilar, ovchilar va boshqalar) tili o'rtasida har doim ma'lum bo'lgan farqlar mavjud, ammo bu farqlar alohida joylarning lahjalari o'rtasidagi farqlarga qaraganda kuchsizroq[7].

Rivojlangan har qanday til, shu jumladan, hozirgi o‘zbek tili ikki asosiy funksional turga: adabiy til va jonli so‘zlashuv tiliga bo‘linadi. Har bir muayyan tilning sohibi, tashuvchilari bo‘lgan elat (xalq) yoki millatning vakillari tomonidan jonli so‘zlashuv tīli bolalikdan boshlab egallanadi. Adabiy til, uning me’yorlari va qonuniyatları esa balog‘atga yetgan, kamolatga erishgan kishining shakllanishi jarayonida o‘rganib, o‘zlashtirib olinadi. Bunda, ayniqsa, oila va məktəb, olıy o‘quv yurti, adabiy tilni egallagan şaxslar, olimlar bilan yaqin aloqada bo‘lib turish va ular ko‘magida turli janrdagi adabiyotlarni o‘qish, o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Umumxalq tilining yuqori shakli hisoblangan ada-biy til aniq va muayyan bir tizimda har bir davrning tiliga xos me’yor, tartib-qoidalarni ifodalaydi. Milliy adabiy tilni, uning og‘zaki va yozma shakllarini aniqlashda eng muhim va asosiy belgi uning muayyan bir me’yorga, ya’ni aniq bir maromga, tartib-qoidalarga solingenligidir. Milliy tilgacha bo‘lgan davrdagi adabiy til bilan milliy adabiy til orasida muhim tafovutlar bo‘lishiga qaramay, normativlik adabiy til taraqqiyotining barcha davrlarida — milliy tillarning tashkil topish davrida ham, ayniqsa, milliy adabiy tillar to‘la shakllangan davrlarda ham — asosiy belgi bo‘lib qoladi. Adabiy til taraqqiyotining dastlabki davrlariga tegishli yodgorliklarni o‘rganish unda bir qator me’yorlar mavjudligini, eski me’yorlar yo‘qolib ketishi, yangi me’yorlar yuzaga kelishini, yangi va eski me’yorlarning muvoziy (parallel) holda qo‘llanganligini ko‘rsatadi. Demak, me’yor faqat tilning hozirgi holati, sinxroniya uchungina xarakterli bo‘lib qolmay, balki diaxroniyada ham vujudga keladi[3].

O‘zbek milliy tili jonli xalq tili va adabiy tilga bo‘linadi. Jonli xalq tili o‘z ichiga jargonlar, dialektlar va oddiy so‘zlashuv tilini qamrab olsa, adabiy til og‘zaki va yozma turga ajatiladi.

Badiiy uslubni she’riy, nasriy va dramatik nutq uslublariga, ularni yana o‘z navbatida janrlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Badiiy asar matnlarida har bir rivojlangan tilning ikki asosiy funksional ko‘rinishi — adabiy til va jonli xalq tilining dialektik birligi, o‘zaro uzviy bog‘liqligi ochiq namoyon bo‘ladi. Rus olimlari L. V. Shcherbak va V. V. Vinogradov[4] hamda A. I. Yefimov[5] ko‘rsatishlaricha, til taraqqiyotining ma’lum davrlariga xos adabiy til me’yorlarini badiiy asarlarning matnlarini tahlil qilish orqali belgilash mumkin.

XIII-XVI asrlarda eski o‘zbek tili uchun xarakterli bo‘lgan adabiy til me’yorlari turli davrlarda yashagan Xorazmiy, Durbek, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy kabi shoirlarning asarlari tilini o‘rganish, lingistik tahlil qilish asosida aniqlanadi. O’sha davrlarda yaratilgan yodgorliklarning tili o‘z davri xalq tiliga, tushunishning yengilligi jihatidan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga hamda jonli xalq tiliga ancha yaqin turadi.

Tilning xilma-xil birliklarini badiiy adabiyot asarlarda ishlatish hamma vaqt uslub jihatidai asoslangan bo‘ladi. Jumladan, yuqorida tilga olingan shoirlarning, ayniqsa Alisher Navoiyning asarlari XIV—XV asrlardagi eski o‘zbek adabiy tilining xususiyati, uning og‘zaki va yozma shakllari, shuningdek jon-li xalq tili hamda adabiy tilning og‘zaki shakli qanday ekanligi to‘g‘risida aniq tasavvur bera oladi. Yozuvchi yoki shoir o‘z asarlarda turli darajadagi til birliklarining ma’lum qolipga solingen, takomillashgan namunalarini, shakllarini ishlatadi. Shuning uchun til ifoda vositalarining normativligi, tartib-qoidalari badiiy asarlarda ko‘proq va aniqroq namoyon bo‘ladi. Demak, turli davrlarga tegishli badiiy asarlarning til xususiyatlarini o‘rganish o‘sha davr til tizimini tushunib olish imkonini beradi. Badiiy asar tilini o‘r ganish bu xil lingistik tekshirishlarning ikki jihatini bir-biri bilan bog‘laydi, uning ikki tomonini belgilash imkonini beradi, ya’ni badiiy asar matn-larida adabiy til me’yorlari hamda ma’lum darajada jonli xalq tilining xususiyatlari aks etganligi aniqlanadi.

Til hodisalarini to‘g‘ri va chuqur tushungan holda keng ilmiy tahlil qilish, hozirgi jonli xalq tili, so‘zlashuv nutqi xususiyatlari bilan adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari faktlarini qiyoslab o‘rganish natijalari o‘tmisidagi jonli xalq tilining ayrim xususiyatlarini bilib olishda ma’lum asos bo‘lishi mumkin. Yozma manbalar asosida o‘tgan asrlardagi jonli xalq tili, so‘zlashuv nutqi xususiyatlarini o‘rganishda tarixiy obidalarni, badiiy asarlarning matnlarini, ayniqsa, o‘z davriga xos nutq amaliyotini aks ettiruvchi asarlarni tanlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunos olim S.Karimov badiiy asarda til vositalarining qo‘llanishini qat’iy bir qolipga solib bo‘lmasligini, unda umumxalq tilidagi barcha elementlarning qo‘llanishida chegaranining yo‘qligini, xullas, badiiy matnda umumtil fondining birliklari uchrashi mumkinligini ta’kidlab o‘tgan[6].

Xulosa qilib aytganda, umumxalq tilining ko‘p unsurlaridan she’riy nutqda foydalanish mumkin. Masalan, dialektizm, varvarizm, vulgar, jargon so‘zlardan badiiy nutqda faol qo‘llanishini kuzatish mumkin. Xalq tilining bu muhim vositalaridan o‘z o‘rnida foydalanish ijodkorning mahoratini belgilaydi.

She’riy nutqda xalq tili unsurlari shoir yoki yozuvchining badiiy yondashuvi asosida individuallik kasb etishi mumkin. Ijodkor xalq tilida mavjud birlikka obraxli tafakkuri orqali yangicha yondashuv

асосида о‘зgartirish kiritishi, boyitishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Квятковский А.П. Поэтический словарь. – Москва: Советская Энциклопедия, 1966.
2. Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 52.
3. Будагов Р.А. Литературный язык и языковые стили. М., 1967 й. 5-бет.
4. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. М., 1959; О теории художественной речи. М., 1971; Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М., 1963.
5. Ефимов А. И. Стилистика художественной речи. – М., 1961; О языке художественных произведений. – М., 1962.
6. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд, 2010. – 192 б.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/poeticheskiy-yazyk-kak-obekt-lingvisticheskikh-issledovaniy>
8. <https://qomus.info/>
9. https://works.doklad.ru/view/8OraVJq_LKY.html
10. <https://uzfor.uz/>

DRAMATIK MATNDA TARIXIY KOLORITNI IFODALOVCHI ONOMASTIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Muhtaram Ikramova

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida timsol nomlarining lisoniy xususiyatlari, shuningdek, bu nomlarning tarixiy koloritni ifodalashiga xos lingvopoetik tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, onomastika, laqab, epithet, badiiy- ekspressiv funksiya.

LINGUOPOETIC ANALYSIS OF ONOMASTIC UNITS REPRESENTING HISTORICAL COLOR IN THE DRAMATIC TEXT

Muhtaram Ikramova

doctoral student of Namangan State University

ANNOTATION: The article presents the linguistic features of symbolic names in the tragedy «Mirzo Ulugbek» by Maqsud Sheikhzadeh, as well as the linguopoetic analysis of the historical color of these names.

KEY WORDS: linguopoetics, onomastics, nickname, epithet, artistic-expressive function.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, РЕПРЕЗЕНТИРУЮЩИХ ИСТОРИЧЕСКИЙ ЦВЕТ В ДРАМАТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

Мухтарам Икрамова,

базовый докторант Наманганского государственного университета

Аннотация: В статье представлены лингвистические особенности символических имен в трагедии Максуда Шейхзаде «Мирзо Улугбек», а также лингвопоэтический анализ исторической окраски этих имен.

Ключевые слова: лингвопоэтика, ономастика, прозвище, эпитет, художественно-выразительная функция.

KIRISH. Ijodkor ma'lum tarixiy asar yaratish ekan, asar g'oyasidagi davr muhiti, makon va zamondagi har bir detaldan tortib tarixiy qahramon xarakterini ochib berishda til birliklarning tarixiy bo'yoqni ochib berishiga alohida e'tibor qaratadi va saralaydi. Bir tarixiy davr yohud tarixiy shaxs hayoti ko'plab qalam ahllari tomonidan turlicha individuallashtiriladi. Zamonaliviy tilshunoslikda tarixiy haqiqatning qay darajada ochiq va ta'sirchan tasvirlanganligi badiiy asar lingvopoetikasi bilan baholanadi. Lingvopoetika – badiiy matnda nafosat yaratish san'ati hisoblanadi, xususan, tarixiy dramatik asarda o'tmish haqiqatlarini badiiyatga aylantirish ham alohida san'atdir.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYASI. Maqsud Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek" dramasida tarixiy davr koloritini ochib berish uchun onomastik birliklar ko'lamiga alohida urg'u beradi. Dramatik asar asosini nutq tashkil etadi, shunday ekan, qahramonlar nutqida ham timsol nomlarining funksional-semantik mohiyati namoyon. Muallif tomonidan mohirlik bilan tanlangan bu birliklar asar badiiyatining ekspressivligini oshirishda, dramatik xususiyatni asar g'oyasiga singdirishda muhim ahamiyatga egadir. Badiiy matnda poetik ko'lamdagagi onomastik birliklarni tahlil etish lingvopoetika sohasining asosiy masalalaridandir. Bu kabi tahlillar lingvopoetika yo'nalishida onomopoetika termini bilan atalishi ma'lum. Bu masalada tilshunos olima D. Andaniyazovaning tadqiqot ishlarida asarda onomastik birliklar matnning struktural-semantik yaxlitligiga xizmat qilishi barobarida uning ichki dinamikasi va ohang butunligini ham ta'minlashi lozimligi alohida nazariy va amaliy tahlil etilgan [1:92-94]. Ishimizda badiiy matnning lisoniy tahlili metodologik tamoyillari masalalari yoritilgan tilshunos M. Yo'ldoshevning [2] tadqiqot materiallari ham bizning ilmiy faoliyatimiz uchun muhim manbalardan biri bo'ldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Badiiy matnda, jumladan, dramatik matnda nomlar badiiy poetikani shakllantirish va qahramonlar ruhiyatiga xos, shuningdek, drama nutqiga xos badiiy ekspressiv funksiya ifodalashi lozim. Xususan, Mirzo Ulug'bek fojiasida ijodkor tarixiy davdr muhitini yorqinroq

ifodalash uchun Piri Zindony, Bobo Kayfiy (to‘qima obraz) kabi laqablarni drama sujetiga olib kiradi. Bu kabi laqablar muallif ideostilidagi tarixiy davrni ro‘yirost ochishga va asar badiiyatining ekspressivligini oshirishga xizmat qilgan. Laqablar insonning ikkinchi ismdir. Laqab – uning atrofidagilari tomonidan beriladigan, shaxsning biror xarakterli belgi, xususiyatini ifodalovchi, asosan, shaxs ismi bilan birlgilikda qo‘llanadigan antropom turi [3:42] bo‘lib, badiiy matnda muallif laqablardan asar g‘oyasini ochib berish, shuningdek, muallif tafakkuridagi fikrlarni shu timsollar nutqi vositasida ifodalash, asarning badiiy ekspressiv funksiyasini ta‘minlash uchun foydalananadi. Jumladan, “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy fojiasida Piri Zindony laqabi misralar bayonida quyidagicha keltiriladi:

Zindonbon

Bunda ismi o‘chirilgan... ammo zindonda
Unga laqab qo‘yganmiz biz: - Piri Zindony.

Senga so‘roq, qani ayt-chi, Piri Zindony,

Qilmishingga sen pushaymon edingmi, yo‘qmi? [4:129]

Ma‘lumki, pir leksemasi bir necha lug‘aviy ma’nolarda qo‘llaniladi. Jumladan, keksa, diniy tariqat asoschisi, diniy rahbar, ustoz, afsonaviy shaxs kabi semalarda ifodalanadi [5:261]. Matn mazmunida Piri Zindony Amir Temurga bo‘ysunmaganligi uchun mangu zindonband etiladi. Uning nasl-nasabini Ulug‘bek saroyida hech kimsa bilmaganligi bois asarda muallif shu nom bilan ifodalagan. Asar mazmunida ko‘pni ko‘rgan ustoz semasi ham ifodalanadi. Shayxzodaning shayxona uslubi shundaki, zindon leksemasi bilan pir leksemasini yonma-yon qo‘llaydi. Odatdagi zindonband shaxs emas – zindonning piri, dono, barchani ezgulikka chorlovchi va mayoq bo‘luvchi, vatanparvar, xalqning osoyishtaligini o‘ylovchi Piri Zindony. Laqab so‘z birikmasi shaklida ifodalangan, ya’ni Piri Zindony – zindonning piri bo‘lib, izohlovchiga -i egalik affiksi, izohlan mishga -iy so‘z yasovchi affiksini qo‘shish orqali epitetli birikma hosil bo‘lgan. Asar matnida Piri Zindoniyning asl nomi Hasan chilangar bo‘lib, bu laqab timsol xarakterini ochib berishga, tarixiy davrni yorqinlashtirishga xizmat qilgan. Misralar badiiyatini yanada oshirgan.

Asar mazmunida Piri Zindoniyning asl nomi quyidagicha keltiriladi:

Menmi? Hasan degan bitta chilangar.
Men chilangar, otam, bobom, bari ohangar.

Bu zindonga tushganimga necha yil bo‘ldi.

Voh-voh, ellik yildir men bunda bandi...

Ammo ko‘rib turibsizki, o‘lgan emasman. [4:130]

Har bir laqablar ma‘lum bir sabablarga ko‘ra paydo bo‘ladi, ular o‘z tarixi va biografiyasiga ega. Piri Zindony nomi tarixda ham ma‘lum. Uning ota-bobolari, shuningdek o‘zi ham “Sarbadorlar harakati”ga boshchilik qiladi. Sarbadorlar XIV asrlarda mo‘g‘ullar va boylar zulmiga qarshi Eron va Movarounnaharda xalq qo‘zg‘olonlariga boshchilik qilishadi. Amir Temur bu kabi xalq qo‘zg‘olonlariga qarshi chiqib, ularni birdamlikka chorlaydi. Sarbadorlar hukmronligi 50 yil davom etadi va Amir Temur tomonidan bo‘ysundiriladi. Bu tarixiy voqe Maqsud Shayxzoda tomonidan asar matnida Piri Zindony laqab nomi vositasida mahorat bilan ochib berilgan. Muallif tarixdagi Sarbadorlarni jonlantirish uchun bu laqabni asar sujetiga olib kiradi.

Piri Zindony nomi orqali Shayxzoda ikki tarixiy davrni bir tragediyada jamlaydi. Asar yaratilishidan avval muallif 50-yillarning boshida “aksilsho‘roviv” ijodkor sifatida nohaq 25 yil ozodlikdan mahrum qilinadi. Ozod bo‘lgach 1967-yil “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini keng ommaga tuhfa etadi. Tarixiy asardagi Piri Zindony aynan muallifning o‘zidek. Piri Zindony nutqida ifodalagan har bir til birliklarida muallif ruhiyati, hayotiga taalluqli tarixiy haqiqatlar ayondek. Jumladan, Piri Zindoniyning podshoh Ulug‘bek bilan bo‘lgan dialogiga e’tibor beraylik:

Nega darkor? Sarguzashtlar, sarguzashtlarmish!

Men ularni aytgan bilan yoriydimi kun?

Yo la’nati zindon qulab kelarmi erklik?

Yo qaytadan men yosharib, jo‘ralar bilan –

Juma’likda yallaxonlik qilamanmi-a?

Podshohga insonlarni o‘ldirmoq oson!

Ammo, qani, ular kimni tiriltgan? Hayhot! [4:160]

Shayxzoda laqab mazmunini timsolning har bir nutqida ochib beradi. Piri zindoniyning zindonning

piri ekanligi uning so‘zlaridan, sahnaga xos viqoridan, o‘tmishidan namoyon. Shayxzodaning laqab yaratish mahorati qahramonning har bir nutqi asosidagi til birliklarida obraz portretini yorqin ranglarda usta musavvirdek mohirlik bilan chizib bergan. Shuningdek, muallif kontekst semasiga tadrij san’ati va sarkazm vositasida badiiy bo‘yoq bergan. Zindondagi qorong‘u tunlari qaytadan yorug‘ kunga aylanmasligi, zindon har zamonada manguligi, yigitlik davri takrorlanmasligi, shoh bor maskanda o‘lim borligi abadiy ekanligini kinoyaviy sarkazm vositasida ochiq ifodalangan. So‘z ustasi zindon – erklik, o‘ldirmoq – tiriltgan leksemalari orqali tazod san’atini ham uyg‘unlashтирган. Bu badiiy san’atlar vositasida Piri Zindoniying nutqi tag ma’nosida tarixiy davrga, Temuriylar davriga bo‘lgan salbiy subyektiv munosabati namoyon.

XULOSA

Turkiy tillarda ot yasovchi affikslarning eng salmog‘dori -iy so‘z yasovchi affiksi hisoblanadi va bir necha turdag'i nomlarni hosil qiladi. Navoiy, Lutfiy, Niyoziy, Qodiriy kabi nomlarda taxallus, nisbat nomlari yasaydi. Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy nomlarida Shayxzoda laqab nomlarini ifodalangan va dramatik asarga aynan tarixiy haqiqatni baiylashtirish uchun bu nomlarni asar sujetiga olib kirgan.

Tahlillar shuni dalillaydiki, Shayxzoda olib kirgan har bir nomda timsolning portreti namoyon. Qahramon nutqidagi har bir til birliklari, o‘zgalar nutqida ifodalangan badiiy til vositalari ham aynan shu nom uchun muallif tomonidan kashf etilgan.

Dramatik matnda onomastik nomlar, xususan, laqablar tarixiy davrga badiiy bo‘yoqdorlikni shakllantirish, muallif tafakkuridagi falsafiy haqiqatni asar sujetiga olib kirish va asar dinamikasining uzviyligi, ekspressivligini ta’minalash uchun muallif tomonidan mahorat bilan ifodalanganadi. Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy kabi to‘qima laqablar ijodkor tomonidan tragediya kulminatsiyasida ham puxta ishlangan va har bir sahna pardalarini to‘ldiruvchi zanjirdir. Go‘yo bu qahramonlar nutqining bir qismi drama matnidan tushirilsa asar sujetiga zarar yetadigandek, tarixiy haqiqat ochilmagandek.

Maqsud Shayxzodaning nom yaratishdagi musavvirona uslubi shundaki, har bir nomda qahramonning portretini o‘ziga xos yaratadi, nutqida – so‘zida uning shakl-u shamoyili, nom mohiyati namoyon. Shayxzoda dramalaridan ma'lumki, tarixiy dramada har bir nom tarixiy koloritni ifodalovchi, badiiy ekpressivlikni ta’minlovchi lingvopoetik vositadir. Zero, har qanday matnda muallif badiiy maqsadini ifodalovchi onomopoetik birliklar tahlili lingvopoetikaning amaliy asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоетикаси: Филол. фанлари фалсафа доктори диссертация. –Тошкент, 2017.
- 2.Иўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Тошкент: Фан, 2007.
- 3.Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006.
- 4.Шайхзода М. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
- 5.Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 3-ж. – Б. 261.

BADIY ADABIYOTSHUNOSLIK DAGI DETEKTIV JANR TUSHUNCHASI VA ULARDA UCHRAYDIGAN "QOTIL OBRAZI" ("CHO'QINTIRGAN OTA" ASARI MISOLIDA)

Latipova Soniya Shokir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

O'zbek va xorijiy tillarni o'qitish markazi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola detektiv janrining badiiy adabiyotshunoslikdagi tushunchasi va uning xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. "Cho'qintirgan ota" asari misolida qotil obrazining qanday qilib janrnning asosiy elementlaridan biri sifatida tasvirlanishini o'rghanadi. Maqolada detektiv asarlarda qotilning psixologik va ijtimoiy portreti, uning motivatsiyalari va jinoyatga yo'l qo'yish sabablari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: detektiv janri, qotil obrazlari, badiiy adabiyotshunoslik, jinoyat motivatsiyasi, psixologik portret, ijtimoiy kontekst, uslubiy yondashuvlar.

ПОНЯТИЕ ДЕТЕКТИВНОГО ЖАНРА В ЗАВОДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ОБНАРУЖЕННЫЙ В НИХ ХАРАКТЕР «УБИЙЦЫ» (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «КРЕСТНОГО ОТЦА»)

Латипова Соня Шокировна

Ташкентский государственный экономический университет

Преподаватель Центра обучения узбекскому и иностранным языкам

Аннотация. Статья посвящена анализу понятия детективного жанра в художественной литературе и его характеристикам. На примере произведения "Крестный отец" исследуется, как образ убийцы представляет собой один из ключевых элементов жанра. В статье подробно анализируются психологический и социальный портреты убийцы в детективных произведениях, его мотивации и причины совершения преступления. Ключевые слова: детективный жанр, образы убийц, художественная литературоведение, мотивация преступления, психологический портрет, социальный контекст, стилистические подходы.

CONCEPT OF THE DETECTIVE GENRE IN FACTORY LITERATURE AND THE CHARACTER OF «THE KILLER» FOUND IN THEM (IN THE EXAMPLE OF THE WORK OF «THE FATHER OF THE GODFATHER»)

Latipova Sonia Shokirovna

Tashkent State University of Economics

Teacher of the Center for Teaching Uzbek and Foreign Languages

Annotation. The article is dedicated to analyzing the concept of the detective genre in literary criticism and its characteristics. Using the work "The Godfather" as an example, it explores how the image of the murderer serves as one of the key elements of the genre. The article provides an in-depth analysis of the psychological and social portrait of the murderer in detective works, their motivations, and the reasons for committing a crime. It also showcases the author's stylistic approach and use of artistic tools in creating the image of the murderer. The analysis of the work discusses the artistic possibilities of the detective genre and its impact on readers.

Keywords: detective genre, images of murderers, literary criticism, crime motivation, psychological portrait, social context, stylistic approaches.

Kirish.Ishning maqsadidan kelib chiqar ekanmiz badiiy asar tili uni o'quvchiga ta'siri haqidagi to'xtalib o'tishimiz asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Ushbu o'rinda adabiyotshunos olim Ibrohim Hakkulov juda o'rinli ta'kidlaganidek, haqiqiy adabiyot – san'atkorlik zavqi ila yaratilgan asardan boshqa bir narsa emas. Uning bilan to'g'ridan to'g'ri munosabat o'rnatishiga shaxsiy taasurot va tasavvurni yuzaga keltiradi. Biroq hech qanday adabiy matn muayyan bir usul, tushuncha va haqiqatga tayanilib o'qilmaguncha, o'z-o'zidan tuyg'u va fikr uyg'otolmaydi [3;305]. Maqola asosan, detektiv asarlar haqidagi kitobxonlarni darhol mazmun va muammolarning chuqurliklariga tortib kirishi orqali

ham o‘zining murakkab syujetlari va kutilmagan burilishlari bilan, har doim o‘quvchilarni hayajonga solib kelgan. Sirli voqealar, gumonlanuvchilar ro‘yxati va aqlni charxlovchi yechimlar bilan, detektiv adabiyoti janri tarixda o‘z o‘rniga ega. Agata Kristidan Artur Konan Doylgacha, detektiv yozuvchilar o‘zlarining esselari orqaliadolat va haqiqat tushunchalarini qayta shakllantirganlar. Bundan tashqari, psixologik chuqurlik, adrenalin ortishi va intellektual jumboqlar - bularning barchasi zamonaviy detektiv asarlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ushbu maqolada, Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” asari orqali detektiv asar va undagi “qotil” obrazi haqida ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Adabiyot tahlili. Badiiy asar haqida so‘z borar ekan, tilning bevosita uch xil bir-birga aloqador tomonini qayt etib o‘tish zarur bo‘ladi: adabiy til, jonli so‘zlashuv til va badiiy til.

1) Adabiy til grammatik me’yorlarga bo‘ysundirilgan, qat’iy talaffuz normalariga ega bo‘lgan jonli xalq tilidagi har xilliklarni bir xillikga olib kelgan tildir

2) Jonli so‘zlashuv tili yoki umumxalq tilida grammatica va orfoepiya qoidalariga doim ham amal qilinavaermaydi, emotsiyal leksika va frazeologiya, sheva elementlari, kasb-hunar leksikasi, jargonlar va boshqalardan keng foydalaniladi;

3) Badiiy til esa jonli so‘zlashuv tiliga asoslangan, adabiy til bilan chambarchas bog‘langan, hammaga tushunarli bo‘lgan, “so‘z ustalari tomonidan pardozlangan, sayqal berilgan poetik tildir [2;159].

Aynan shunday, ijodkorning uslubi uning til birliklaridan foydalanish tarzida, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashda, shuningdek boshqa ko‘plab jihatlarida namoyon bo‘ladi. Bu uslubiy tanlovlar nafaqat matnning tili va ohangini, balki o‘quvchilarga ta’sir qilish usulini ham belgilaydi. Har bir yozuvchi yoki shoir o‘zining noyob tilini yaratadi, bu esa uning asarlarini boshqalardan ajratib turadigan noyob belgi bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon adabiyotshunoslaridan venger adabiyotshunosi namoyondalaridan Tibor Kiyostxeyn detektiv asarlarni quyidagicha tasniflab bergan:

1. detektiv-jumboq (Artur Konan Doyl);
2. tarixiy-detektiv (D.Karr);
3. ijtimoiy-detektiv (D.Seyers);
4. politsiya tarixi (E.Uolles);
5. realistic detektiv (E.S.Gardner);
6. naturalistic detektiv (S.D.Hammet);
7. adabiy detektiv (J.Simenon)[4;P.134].

Tibor Kiyostxeynning detektiv adabiyotni tasniflashi juda qiziqarli va o‘ziga xos yondashuvni aks ettiradi. Har bir tur o‘ziga xos estetikasi va kitobxon tajribasini taklif etadi, bu esa detektiv janrining boy va rang-barangligini ta’kidlaydi.

Rus adabiyoti izlanuvchilari so‘nggi 90-yillardan boshlab zamonaviy adabiyotga qo‘lura boshlashdi. Hozirgi kunda, “zamonaviy adabiyot” yo‘nalishlarini rivojlanishida izlanishlar olib borayotganlardan namuna sifatida M.A.Chernyakni aytishimiz mukin. Rus adabiyotida bundan tashqari A.Adamov, G.Andjaparidze, V.Rudnev, A.Vulis, I.Bannikova, O.Antsiferova, S.Kovalevlar detektiv janrlarda o‘z faoliyatini olib borganlardan hisoblanishadi. A.Adamovs “Detektiv janri mening eng sevimli janrlarimdan biri” deya E.Po, G.K.Chesterton, V.Kollinslarnning detektiv janrning “klassik” sidan ilhomlangan tarzda o‘z fikrlarini namoyon etadi. Adamov detektiv asarlarning mahshur ekanligining uchta asosiy sabablarini ko‘rsatib bergan. Birinchidan, detektiv asarlar syujetlarining markaziy qismida maxfiylik o‘rin oladi. Ikkinchidan, to‘laqonli shahar bilan bog‘liq bo‘ladi asosan rivojlangan. Sababi, kitobxonlarning ko‘pchiligi fuqarolarni tashkil etadi va ular o‘zlarini atrofida nimlar sodir bo‘layotganligini, oldinda qanday xavf-xatar turganini va ularning dushmanu-himoyachilarini kim ekanliklari haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi. Uchinchi sababiga keladigan bo‘lsak, ikkinchidan farqli o‘laroq, asar ijtimoiy muammollarni ortida naqadar qaltis va mashaqatlili bilan tabiiy va takrorlanmasligi ega ekanligi bilan kitobxonni o‘ziga jalb etadi [1].

Muhokamalar. Detektiv asarlarning muhim xususiyatlari haqida kengroq va aniqroq tushuncha berish uchun, har bir belgini batafsilroq ko‘rib chiqamiz:

- 1.Jinoyat yoki sir;
2. Detektiv yoki tergovchi;
3. Tergov va yechim.

Bu jarayon, o‘quvchilarga nafaqat qoniqish hissini beradi, balki ularni asarning murakkabligi va yozuvchining mahoratiga tasanno aytishgaham majbur qiladi. Detektiv asarlarning ushbu uch asosiy

belgisi, ularni boshqa janrlardan ajratib turadigan, o‘quvchilarni jalg qiladigan va ularning qiziqishlarini uyg‘otadigan xususiyatlardir. O‘quvchilar, detektiv yoki tergovchi bilan birgalikda sirni hal qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatini topishadi, bu esa ularni hikoyaga yanada chuqurroq jalg qiladi va ularning qiziqishini uyg‘otadi.

Jahon adabiyotshunosligi tajribasida detektiv asarlarni konkret muallif ijodiy prinsplariga tayangan holda mavzu va adabiy metodlar nuqtayi nazaridan tasniflash tajribasi ham bor. Bundan detektiv asarlar tasnifining faqat mavzu doirasiga ko‘ra amalga oshirish to‘la ma’ noda o‘zini oqlamasligiga oydinlashadi.

Detektiv asarlar jahon adabiyotshunoslarning mavzusi va adabiy metodlari orqali o‘rganilganda, konkret muallifning yaratuvchi prinsiplari va yondashuvlarini hisobga olgan holda tasniflash yanada aniq va to‘liq tasavvur beradi.

Badiiy asarlarda detektivlik xususiyatini namoyon etish voqealikning ko‘lami va tabiatida asosiy vazifani bajaradi. Shu sababdan, adabiyot tarkibidagi detektiv janr deyish mqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tom ma’ nodagi detektiv asar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

1)dalillar to‘liq va mukammal bo‘lishi, qidiruv so‘nggida o‘quvchi mustaqil xulosa chiqara oladigan darajada yetarli ma’lumotni qamrab olishi;

2)voqealik shart-sharoitlarning o‘qituvchi uchun tanish, real model bilan mosligi;

3)obrazlar, personajlar holat va xarajatlarida ayniyat moslikning mavjudligi;

4)an‘anaviy obrazlar mantig‘iga putur yetkazmaslik, ya’ni hikoyanavis va izquvarning jinoyatchiga aylantirishning mumkin emasligi;

Asarda yuksak axloqiy, ma’naviy ideallarning talqin etilishi. Asar yomonlikning yazoga hukm qilinishi va adolat tantanasi bilan yakun topishi [10;38].

Izlanishlar jarayonida detektiv janriy shakllanishi uchta muhim omil doirasida paydo bo‘lgan, degan xulosaga keldik. Bularni shartli ravishda, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-falsafiy, adabiy-badiiy omillar tarzida tansif etdik [10;39]. Detektiv asarlarda asosan o‘quvchining diqqatini tortadigan jinoyat sodir etgan qotil kim ekanligi va uni izquvar yoki politsiya tomonidan kim ekanligini topishi asar yoki filmning kulminatsion nutqasi sifatida qaraladi.

Qotil obrazi. Odam o‘ldirilgan personajning abstraktlashgan funksional mohiyati ifodasi – qotil deb ataladi. Ushbu nominatsiya detektiv adabiyotda “qotillik” doirasida harakat qilib belgilangan faoliyatini amalga oshiruvchi personajga nisbatan qo‘llaniladi. Binobarin, qotil bajaradiga rol bo‘yicha identifikatsiya qilindi. Muayyan detektiv asarlarda bu rolining diskursiv ahamiyati konkretlashgan rol nominatsiyalarini murdererer, criminal, maniac yordamida amalga oshiriladi. Shula orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan turi murdererer hisoblanadi.

Badiiy asar muallifi qotilni abstraktlshtirar ekan, bu jarayonda qotilning portretini qotillik yuz bergan vaziyatdan keyib chiqqan xolda tasvirlaydi. “Cho‘qintirgan ota” romanida Vito Korleone – qotil. U birinchi Fanuchchini o‘ldiradi, undan keyin shaxsan o‘zi odam o‘ldirganmi aniq emas, asar davomida bunday ma’lumotlar haqida so‘z bormaydi [10;76].

“Cho‘qintirgan ota” Mario Pyuzo tomonidan yozilgan va keyinchalik Fransis Ford Koppola tomonidan film sifatida ekranlashtirilgan mashhur asardir. Asar, italyan-amerikalik mafia oilasi bo‘lmish Korleone oilasining hayoti va jinoyat olamidagi faoliyati haqida hikoya qiladi. Vito Korleone, asarning markaziy qahramonlaridan biri sifatida, oilaning boshlig‘i va “Godfather ya’ni Cho‘qintirgan ota” sifatida tasvirlanadi. Uqotillik va boshqa jinoyatlarni buyuruvchi sifatida ko‘rsatiladi, lekin uning obrazida faqat qotil sifatida emas, balki adolatli va oqil rahbar sifatida ham tasvirlanadi. Vito Korleone o‘z oilasini va yaqinlarini himoya qilish maqsadida ish tutadi, va uning harakatlari ko‘pincha murakkab axloqiy masalalarni ko‘taradi.

Vito Korleone obrazida qotillik va zo‘ravonlik bilan bir qatorda, oila qadriyatлari, hurmat va sadoqat kabi mavzular ham muhim o‘rin tutadi. U, jamiyatda o‘ziga xos adolat tizimini yaratishga urinadi, bu tizim ko‘pincha rasmiy huquq tizimining adolatsizligi yoki samarasizligi tufayli paydo bo‘ladi. Vito Korleone, o‘zining adolatli va oqilona yondashuvi bilan, nafaqat jinoyat olamida, balki o‘z oilasi ichida ham hurmat qozonadi. Uning qarorlari va harakatlari, shuningdek, oilaning boshqa a’zolari, jumladan uning o‘g‘illari Sonni, Maykl va Fredo, shuningdek, qabul qilingan o‘g‘li Tom Heygenning kelajagini shakllantiradi.

Don Korleone.“Cho‘qintirgan ota” asarida Vito Corleone qotil sifatida tasvirlanishi bilan bog‘liq muhim jumlalarni topish uchun, avvalo, asarning ingliz tilidagi asl matnidan va keyin o‘zbek

tilidagi tarjima shaklidan namunalar keltirish zarur. Buning uchun, Mario Pyuzo tomonidan yozilgan "Cho'qintirgan ota" kitobining ingliz tilidagi asl matnidan va uning o'zbek tilidagi tarjimasidan tegishli parchalarni keltirib o'tamiz:

"He is a businessman," Don said blandly. «I'm gonna make him an offer he can't refuse»[6;31].

Vito Korleonening qotil sifatidagi tasviri, muammolarni hal qilishda zo'ravonlikdan foydalanishga tayyorligini va qudratini namoyish etadigan sahnada ko'rindi. Mario Puzo tomonidan yozilgan asarning o'zbek tilidagi tarjimasidan tegishli iqtibos:

- U ishbilarmon odam, - dedi Don zerikarli ohangda.

- Men shunday bir narsani taklif qilamanki, u qanday qilib ko'nganini sezmay ham qoladi[7;50]

Bu jumla, to'g'ridan-to'g'ri qotillik haqida gapirmsada, maqsadlarga erishish uchun, shu jumladan zo'ravonlikni ham, har qanday vositadan foydalanishga tayyorligini anglatadi. Bu uning qudrati va ta'sirini, hamda boshqalarda uyg'otadigan qo'rquvni tasdiqlaydi.

The Don was a real man at the age of twelve. Short, dark, slender, living in the strange Moorish-looking village of Corleone in Sicily, he had been born Vito Andolini, but when strange men came to kill the son of the man they had murdered, his mother sent the young boy to America to stay with friends[6;172].

Don o'n ikki yoshga to'lgandayoq katta kishi bo'lib qolgandi. O'rta bo'yli, bug'doyrang, qaddi qomati kelishgan bu yigitcha Sitsiliyaning ko'rinishidan Marvitaniya qishloqlarini eslatuvchi o'ziga xos qishlog'i Korleoneda yashardi. Uning ismi sharifi Vito Adolini edi. Kunlarning birida qishloqqa begona odamlar bostirib kirishib, otasini o'ldirib ketishdi. Keyin o'g'lini ham o'ldirmoqchi bo'lishganda onasi uni Amerikaga do'stlari oldiga qochirib yubordi[7;244].

Uning qotillikga qo'l urish masalasiga kelsak, yigirma besh yoshli Don Fanuchini o'ldirmaganda xotini va bollari ochlikda qolishlarini o'ylab bu vaziyatdan chiqish uchun qulay vaziyatni kutib yurgan Don o'z mantig'i bir jinoyatchini o'ldirish xisobiga oilasi hayotini saqlab qolish hamda boshqalarni bir zo'ravondan xalos qilshni o'ziga maqsad qiladi va buni uddasidan chiqadi.

Santino.Kitobxon ko'z o'ngida ham Santino Karleone-badkirdor va qotil, lekin beshavqat zolim sifatida tasvirlanmagan. U oilasi uchun yashadi va sha'ni uchun kurashib xalok bo'ladi. Muallif ham qahramonni ta'riflar ekan quyidagicha yozgan:

He got into fights, did badly in school and finally, Clemenza, who was the boy's godfather and had a duty to speak, came to Don Corleone one evening and informed him that his son had taken in an armed robbery, a stupid affair which could have gone very badly. Sonny was obviously the ringleader, the two other boys in the robbery his followers[6; 197].

Goh ko'chada bolalar bilan mushtlashib, goh maktabdan yomon baho olib kelardi. Bularning hammasi shu bilan tugadiki, kunlarning birida cho'qintirgan otasi sifatida Santino uchun mas'ul bo'lgan va sabr kosasi to'lgan Klemensa ortiqcha jim yurishni lozim topmay, bir kuni oqshomda Don Korleone oldiga kelib, uning o'g'li xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan ahmoqona ishda, qurolli talonchilikda qatnashganligini aytib berdi. Bu ishni Sonni boshlagan, ikki yigit unga sherik bo'lgan edi[7;283].

Ushbu ta'riflar orqali yoshligidan Sonnni jinoyat olamiga qadam qo'yanligi va uni bu yo'lni tanlaganligiga sabab esa otasining qilgan ilk qotilligiga guvoh bo'lganligi orqali muallif asarning keyingi satrlarda izohlab bergen. Garchi shunday bo'lsada, oilasi uchun hamma narsaga tayyor ekanligini va daxshatli o'lim topganligi kitobxонни ta'sirlantirmsandan qo'ymaydi:

The man in the darkened tollbooth opened fire and theshots caught Sonny Corleone in the head and neck as his massive frame spilled out of the car. The two men in front held up their guns now, the man in the darkened tollbooth cut his fire, and Sonny's body sprawled on the asphalt with the legs still partly inside. The two men each fired shots into Sonny's body, then kicked him in the face to disfigure his features even more, to show a mark made by a more personal human power[6;237].

Qorong'u do'kondagi odam o'q otdi. O'q tekkanda Sonni Korleonening jussador tanasi mashinaga osilib qolgandi. O'qlarning biri boshiga, ikkinchisi yelkasiga tegdi. Oldindan kelgan ikki kishi qurolini ko'tardi, do'kondagi odam o'q uzishni to'xtatdi. Sonnining tanasi asphalt ustida yotar, faqat oyoqlari mashinaga ilashib qolgandi. Oldindagi mashinadan kelgan kishilar Sonnining jonsiz jasadini o'q yog'dirib, ilma-teshik qilib tashlashdi, kallasiga tepib, afti-angorini tanib bo'lmaydigan xolga keltirishdi[7; 247]

Maykl. Asarda, Maykl Karleone dushmanlariga qarshi murosasiz kurash olib bordi. Uning joniga qasd qlmoqchi bo'lganlarni o'ldirdi. Agar u o'ldirmaganida, uni o'ldirishar edi va oila boshliqsiz qolar

edi. Maykl Donning o‘zi kabi sovuq va shafqatsiz edi, balki undan ham ko‘proq, va Besh oilaga qarshi urushning muvaffaqiyatli strategiyasini rejalashtirgan ham aynan Maykl ekanligini uning oqilona ish raqiblarini strategik jihatdan boshqarishda namoyon bo‘ladi, raqib mafiya boshliqlarini yo‘q qilishni ehtiyyotkorlik bilan rejalashtirib, Korleone oilasining ustunligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari asarda qotil obrazi sifatida bir qator qahramonlar haqida ma’lumot berib o‘tadigan bo‘lsak ulardan biri: Lyuko Brazi – jismonan baquvvat odam bo‘lgani bilan, aslida nochor odam. Muallif uni past bo‘yli, badbashara odam sifatida ta’riflaydi. Uning ruxiyati shunday tasvirlanadiki, u hech narsadan qo‘rqmaydi [10;80].

Jerry Venger Va Kevin Munankuchli jinoiy oila ichida tashkil etilgan jinoyatchilik dunyosiga chuqur singib ketgan murakkab shaxslar sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Jerry Venger oila ichida aqlli, strategik va gumonsiz rejalashtirish qobiliyati uchun yuqori hurmatga sazovor bo‘lgan maslahatchi yoki eng yuqori maslahatchi sifatida tasavvur qilinishi mumkin. U ko‘p maxfiy operatsiyalarning miyasi bo‘lib, oilaning harakatlarini orqadan boshqarar edi. Uning xulqi tinch va yig‘ilgan bo‘lib, doimo bir necha qadamlar oldinga o‘ylardi, bu uni oila uchun o‘rnib bo‘lmas a’zo qiladi.

Kevin Munan, Jerriga zid ravishda, sodiqligi va kuchi kuchi bilan tanilgan majburlaguvchi yoki qotil sifatida tasvirlanishi mumkin. Uning roli oilaning iflos ishlarini bajarishdan, qo‘rqitishdan tortib to‘g‘ridan-to‘g‘ri qotillikgacha bo‘lardi. Kevinning impulsiv tabiatini tez-tez uni Jerrining hisoblangan strategiyalariga zid qo‘yar edi, lekin buyruqlarni bajarishdagи samaradorligi inkor etib bo‘lmas edi.

O‘z ixtiyori bilan qotillik ko‘chasiga kirganlardan biri Karlo Ritsi. Jismonan baquvvat bo‘lgan Karlo xomilador xotinini klataklab xuzur qiladi. Sotqinlik qilib, Santinoni Emiliyo Barzini odamlari qo‘ygan tuzoqqa tushiradi. Shunda ham u Korleonelar tarafidan xotinini urgani uchun emas, Santinoni sotgani uchun jazoga tortiladi [10;80].

Virgiliy Solotzo – an‘anaviy qotil sifatida tasvirlanmagan, balki ayyor va ambitionsiyali giyohvand moddalar qiroli sifatida tasvirlangan bo‘lib, u tashkil etilgan jinoyatchilikka chuqur aralashgan. Uning laqabi “Turk” laqabi bo‘lib, bu uning geroin aloqalari va Turkiya opium maydonlariga bog‘liq. Sollozzo strategik fikrlaydi, narkotik savdosи haqidagi bilimlaridan foydalanib, Korleone oilasi bilan sheriklik qilishni maqsad qilgan bo‘lib, himoya va siyosiy ta’sir olishni ko‘zlagan qahramon sifatida tasvirlanadi. Sollozzo harakatlari qonli mafiya urushini keltirib chiqaradi, bu uning keskin raqib sifatidagi rolini va uning harakatlari o‘ldiruvchi oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatadi. U shafqatsiz shaxs sifatida tasvirlangan bo‘lib, uning qarorlari va harakatlari har qanday narxda o‘z giyohvandlik imperiyasini kengaytirish atrofida aylanadi. Solotzo Donning qabuliga kelganda ham undan murodi xosil bo‘lishiga to‘la ishonchi yo‘q edi. Unig kelishdan maqsadi “Chiqmagan jondan umid” qabilida bir urinib ko‘rish va bu yerdagi vaziyatni o‘rganib chiqish edi. Shu voqeadan so‘ng u uch oyga yaqin vaqtini Sonnining fe‘li, nozik jihatlarini o‘rganishga sarfladi va natijada unga suiqasda uyishtirish Niyati qat’iylashdi. Demak, bu Solotzo Don Karleonening nozik nuqtasini topgan. Bu nuqta – Donning o‘gli Sonni edi. Sonnining bir og‘iz savoli Amerika jamiyatini daxshatga solga, ko‘cha tozalovchilarining har kuni bir nechta jasad yig‘ishtirib olar darjada oilaviy sindikatlar o‘rtasida urush boshlanib ketishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa.Mario Pyuzo qotillik haqidagi kuzatishlari, bilimlari va xulosalarini ushbu asarda mahorat bilan qo‘llagan. Bunga uning uzoq yillar criminal jurnalistika bilan shug‘ullangani, Ikkinci jahon urushida ishtirok etgani qo‘l keladi.U qotillik ro‘y bergandan so‘ng qotiling ichki kechinmalarini tasvirlamaydi, lekin shunday yo‘l tutadiki, qotilning nimani his qilayotganini kitobxon aniq sezib turadi.

“Cho‘qintirgan ota” asari detektiv janrida qotil obrazining murakkabligini namoyish etadi. Maqola detektiv hikoyalarida qotilning ijtimoiy va psixologik portretini tahlil qilish orqali janrning badiiy va ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. Asarda qotilning motivatsiyalari va jinoyat ortidagi psixologik omillar chuqur o‘rganiladi, bu esa janrning o‘quvchilar uchun ta‘sirchan va o‘ylantiruvchi bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga, adibning qotil obrazini yaratishdagи mahorati, uslubiy nozikliklari va badiiy vositalaridan foydalanishi detektiv janrining estetik va psixologik jihatlarini yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adamov A. My favorite genre is detective. 1980
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002. – B 159.
3. I. Hakkulov.Badiiy matn tahlili va talqin muammolari (ilmiy to‘plam). Toshkent. 2012 – 305b.
4. Kyostheji, T. Detective’s anatomy – Budapest.1989 – P.134

5. M.Puzo. Godfather: Copyright, 1969. – 400 p
6. M.Pyuzo.Cho‘qintirgan ota. Yangi Kitob: Toshkent. 2023 -526 b.
7. Mazin A.The Brilliance and povertyof the detective genre. 2009 <https://libking.ru/books/det-detective/198429-aleksandr-mazin-blesk-i-nishcheta-detektivnogozhanra.html>
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi -T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediya” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 553 b.

MULOQOTDA O‘ZARO MUVOFIQLIKNING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Mamajonov Muhammad Yusubjonovich
FarDU, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya. So'nggi yillarda antroposentrik paradigma nomi ostida birlashuvchi, til va inson omilining chambarchas bog'liqligi masalalarini o'rjanuvchi yangi tilshunoslik yo'nalishlari vujudga kelib, rivojvana boshladi. Shunday sohalardan biri psixologiya va tilshunsolikning uyg'un nuqtalarini, insonning ruhiy-emotsional holati va til bilan bog'liq jarayonlarni o'rjanuvchi psixolingvistikadir.

Kalit so'z va iboralar: psixologiya, psixolingvistika, kommunikativ va ekspressiv vazifalar, transformatsional grammatika.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМНОЙ СОВМЕСТИМОСТИ В ОБЩЕНИИ

Мамаджонов Мухаммад Юсубжонович
ФарГУ, доктор философских наук филологические науки (PhD), доцент.

Аннотация. В последние годы появились и начали развиваться новые направления языкознания под названием антропоцентрическая парадигма, изучающая вопросы тесной связи языка и человеческого фактора. Одной из таких областей является психолингвистика, изучающая точки соприкосновения психологии и языкознания, психическое и эмоциональное состояние человека, процессы, связанные с языком.

Ключевые слова и фразы: psychology, psycholinguistics, communicative and expressive tasks, transformational grammar.

PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS OF MUTUAL COMPATIBILITY IN COMMUNICATION

Mamajonov Muhammad Yusubjonovich
FarSU, doctor of philosophy in philological sciences (PhD), associate professor


Annotation. In recent years, new areas of linguistics have emerged and begun to develop called the anthropocentric paradigm, which studies the close connection between language and the human factor. One of these areas is psycholinguistics, which studies the points of contact between psychology and linguistics, the mental and emotional state of a person, and processes related to language.

Key words and phrases: psychology, psycholinguistics, communicative and expressive tasks, transformational grammar.

Kirish. Psixolingvistika tildan foydalanishga asoslangan psixologik jarayonlarni tasvirlashga qaratilgan. O'qish, yozish, nutq tayyorlash va uni tinglash ham universal qobiliyat bo'limgani holda, tildan foydalanishning eng tabiiy va asosiy shakli dialogdir: har bir til foydalanuvchisi, yosh bolalar va savodi bo'limgan kattalar ham suhbat qura oladilar. Shuning uchun psixolingvistikating asosiy maqsadi tabiiy dialog paytida qo'llaniladigan asosiy mexanizmlar haqida ma'lumot berish bo'lishi kerak [27:169].

Asosiy qism. Suhbatdoshlar muloqotda bir-birlariga moslashadilar: bunda suhbatdoshlar tovushlar va so'zlardan tortib sintaktik qurilish va ma'no ifodalarigacha bo'lgan o'xshash tasvirlardan foydalanishni boshlaydilar. Masalan, suhbatdosh tez va baland ovozda gapirganda, ikkinchi suhbatdosh ham ko'pincha shunday javob beradi; bir suhbatdosh ma'lum bir sintaktik qurilmadan ko'p foydalansa, ikkinchisi ham bu qurilmadan foydalanishi mumkin. D. Levisning fikricha, dialog hamkorlik o'yinidir, bunda agar suhbatdoshlar dialogda bir-birlarini tushunsalar, "yutadilar", agar ishtirokchilarning biri yoki ikkisi ham tushunmay qolsa, "yutqazadilar" [2]. Demak, muloqotda hamkorlik, o'zaro tushunish, suhbatdoshning fikrini ilg'ay olish muhim ahamiyatga ega. Olimlarning fikricha, bu moslashish jarayoni nutqni hosil qilishning barcha darajalarida, mazmun tanlashni boshqaradigan semantik tasvirlardan tortib artikulyatsiya bilan bog'liq bo'lgan fonetik tasvirlargacha sodir bo'ladi hamda bu jarayon suhbatni yanada silliq davom

ettirishga yordam beradi. Ularning izlanishlari natijalariga ko‘ra, dialogda suhbatdoshlar bir-birlariga moslashadilar. Bunday moslashish, muvofiqlik tilning turli sathlarida ham kuzatilishi mumkin. Olimlar muvaffaqiyatli muloqotda o‘zaro moslashishning quyidagi sxemasini taklif qilganlar:



Ushbu chizmaga ko‘ra, suhbatdoshlar bir-birlariga moslashishlari uchun, avvalo, vaziyat modeli mos kelishi kerak, ya’ni bir vaziyatga, holatga mos suhbat qurilishi zarur. Muvofiq vaziyat bo‘lmasa, muloqot ham shakllanmaydi. Har qanday turdagи suhbat qurish uchun, avvalo, suhbatlashish uchun vaziyat, mavzu bo‘lishi lozim. Muvofiq vaziyatsiz, mos mavzusiz muloqot qurish imkonsiz, suhbatdoshlar “nimadir umumiy” haqida muloqotga kirishishlari talab etiladi.

Vaziyatga mos xabar yuborilgach, suhbatdoshlar ongida semantik reprezentatsiya yuz beradi, bunda adresant yuborgan xabarni adresat yuboruvchi jo‘natgandek tushunishi, idrok qilishi muhim sanaladi. Yetkazilgan fikr adresat ongida noto‘g‘ri, nomuvofiq reprezentatsiya qilinishi suhbatning uzilishi, muloqotning samarasiz holda to‘xtab qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda psixologik jarayon – idrok ishtirok etidi.

Muloqotda faqatgina semantik reprezentatsiyaning muvofiq kelishi eng ahamiyat sanalsa-da, suhbatdoshlar sintaktik, leksik, fonologik va fonetik sathlar nuqtayi nazaridan ham o‘zaro moslashadilar. Muloqot paytida suhbatdoshga moslashgan holda o‘xhash sintaktik qurilmalar, bir xil leksik birliklar tanlanishi dialogda suhbatning oson tushunilishi, o‘zaro muvofiqlikni ta’minlaydi.

Shu o‘rinda fonetik-fonologik moslashishni ham ta’kidlash zarur. Fonetik moslashish ma’lum tovushlar talaffuzida suhbatdoshga muvofiq muloqotni anglatadi. Bunday holat o‘zbek muloqotida ko‘p hollarda shevalarga xos moslashishda va kichik yoshdagи bolalar bilan suhbatda tovushlarni moslashda namoyon bo‘ladi.

- Nima yeding?
- Chikalat.
- Voy, chikalat yedingmi san? (So‘zlashuvdan).

Kichik yoshdagи bolalarga ularga mos gapirish bolalarning kattalar tomonidan tushunilayotganini, bolalar o‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalab berayotganlarini bildirish uchun ham amalga oshiriladi.

Dialogik muloqotda suhbatdoshning ovoz toni, tempiga moslashish ham ahamiyatlidir. Aytaylik, suhbatdosh shoshayotgan bo‘lsa, u tez-tez gapirib, muddaosini bayon etishga harakat qiladi. Yoxud suhbatdosh jahl qilib, ovoz tonini balandlatib gapirsa, suhbatdosh ham shunga yarasha ovozini balandlatib

javob berishi tabiiy sanaladi. Shu sababdan ham dialogik muloqotda moslashish muhimdir.

– Ilki jarohatlangan emish-a! – dedi. – Ertaga asfalasofilinga ketadigan haromi, bugun ilkingni o‘ylab nima qilasen?

Eshik ortidagi mahbusning nafrat bilan:

– Jallodlar! – degani eshitildi.

Xirilloq soqchi o‘rnidan sapchib turib do‘q qildi:

– Jim yot, o‘laksa! Hozir kirib, bir jarohatingni o‘nga yetkazamen! (P.Qodirov “Yulduzli tunlar”, 158-bet).

Jahl qilgan suhbatdoshga jahl bilan, nafrat bilan javob qaytarish, ovon toniga moslashish tabiiy dialogning muhim jihatlaridandir. Yuqoidagi dialogik muloqotda soqchi va mahbus suhbatida birlariga munosabat salbiy bo‘lgani holda, ikki suhbatdosh o‘zaro baqirib, ohangni moslashtirgan holda muloqot qilishi ham aynan muvofiqlikning psixologik asoslari bilan bog‘liq. Baland ovoz, yuqori ton inson ruhiyatiga ta’sir qiladi, buning natijasida ana shu muomalaga yarasha reaksiya yuzaga chiqadi. Bu reaksiya nafaqat qo‘llanilayotgan lisoniy birliklar va sintaktik qurilmalar, balki tilning intonatsion xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi.

M. Pikering va S.Garrodlar dialogik muloqotda o‘zaro muvofiqlikni tadqiq qilishda morfologik moslashishga e’tibor qaratmaganlar. Bunda mualliflarning ingliz tili muloqotini o‘rganganlarini e’tiborga olish zarur. O‘zbek tili agglyutinativ til ekanligi sababli uning morfologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘zbek tilida muloqot amalga oshirilganda morfologik moslashish ham vujudga kelishini ta’kidlab o‘tish zarur. O‘zbek muloqotida vaziyatga, shevalarga moslashgan holda qo‘sishchalarda muvofiqlik ham yuzaga keladi.

Ayrim hollarda muloqot faqat bir til doirasidagina yuz bermaydi, suhbatdosh adresatga mos ravishda tilni o‘zgartirishi, suhbatdoshiga tanish tildan foydalanishi ham mumkin. Suhbatdosh adresant yuborayotgan xabarni tushunish, unga mos javob qaytarish uchun ham muvofiq tildan foydalanishi talab etiladi.

Kimdir yelkamga turtdi. O‘girilib qarasam, hozirgina simyog’ochga suyanib «Sashenka» deb yig’layotgan xotin. Labining bo‘yog’i surkalib ketgan, og’zi qiyshayib qolganga o‘xshardi. – Aksakal... – U bobomni ham nari surdi.

Robiya rus xotinni ko‘rgach, uning o‘zbek tilini bilmasligini fahmlagach, bilganicha rus tilida gapirib, suhbatdoshga o‘z fikrini tushuntirmoqchi bo‘ldi:

– Mama ploxa, – dedim bilganimcha o‘rischa gapirib. – Mama umer budit. – Nichego! – Xotin ma'yus jilmaydi. – Ya vrach, pomogu. Prinesi pit. (O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi”, 130-bet).

Agar ushbu holatda Robiya rus tilida muloqotga kirishmaganida, onasining ahvolini tushuntirib bermaganda, rus ayolning vrach ekanidan ham bexabar qolgan bo‘lishi mumkin edi. Demak, ayrim hollarda suhbatdosh so‘zlashadigan tilga ham moslashish talab etiladi.

Agar muloqotda yuqoridagi moslashishlar bo‘lmasa, dialogda nomuvofiqliklar yuzaga kelishi, bu esa muloqotning uzilib qolishiga yoxud muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Muloqotda muvofiqlikka intilish bir necha ekstralengvistik sabablar orqali yuzaga kelishi mumkin: muloqotning samarali kechishiga erishish; muloqotning uzilishlarsiz, ravon kechishini ta’minalash; vaziyatga mos muloqotga erishish; suhbatdoshga o‘z fikrini osonroq bildirishga erishish; suhbatdosh bilan mavqe jihatdan tenglashishga erishish va boshqalar.

Shu o‘rinda suhbatdoshga mavqe jihatdan teng kelishga intilish bo‘yicha izoh berib o‘tish zarur. Bunda ayrim hollarda sof adabiy tilda so‘zlayotgan suhbatdoshga shunday javob qaytarish maqsadida shevalardan foydalanmay, adabiy tilni qo‘llab suhbatlashish nazarda tutilishi ham mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqqan holda Toshkentga kelgan viloyatliklarning Toshkent shevasidan foydalangan holda suhbatlashishga intilishlari ham mavqe jihatdan tenglashishga intilish sifatida baholanishi mumkin.

Murod Muhammad Do‘sning “Lolazor” romanida yozuvchi, jurnalist Nazar Yaxshiboyev va rais o‘rtasida qiziqarli suhbat keltirilgan. Soddagina, qishloqdan davolanishga kelgan rais Yaxshiboyevni ko‘radi-yu, televizorda ko‘rgan, maqlolarini o‘qigan yozuvchi shu ekanini tanib, yozuvchiga mos ravishda adabiy tilda, badiiy ifoda va konstruksiyalardan foydalanib, gapira boshlaydi:

- Uzr, domlajon... Bezovta qildim... Suratingizni ko‘rib yurardik, lekin darrov taniyolmabman. Mana, diydoringiz nasib etdi.

- Qayerlardan so‘raymiz?

- Uzoqdan, domlajon, janub tomonlardan. Ammo-lekin, bahavo joylar. Sizdek ulug‘ odamni ko‘rmoq orzuimiz edi, mana, orzuimizga yetdik (Murod Muhammad Do‘s ‘Lolazor’, 93-bet).

Yaxshiboyev bunday kitobiy so‘zlarni, jumlalarni eshitib, ichida g‘ijinadi. Oddiy to‘pori insonning bunday jimjimador lisoniy birlklardan foydalanishi notabiiy eshitiladi. Aslida esa rais aynan Yaxshiboyevga moslashish uchun shunday qurilmalardan foydalanadi. Suhbatdosh sifatida bunday holat Yaxshiboyevga yoqmasa-da, suhbatni buzmaslik uchun indamaydi. Raisning aynan o‘zi uchun bunday tildan foydalanayotganini ham yaxshi anglaydi:

Yaxshiboyev ichida g‘ijindi. Namuncha kulturniy bo‘lmasa, deb o‘yladi, o‘zi bilmagan so‘zlarni aytadi-ya!.. Darvoqe, bu so‘zlarni biladi, lekin aytadigan mavridu joy topmagan, endi aytsa bo‘laveradi, meni ko‘rdi, menga aytsa bo‘ladi (Murod Muhammad Do‘s ‘Lolazor’, 93-bet).

Rais ongida kechadigan psixik jarayonlar yordamida u mashshur yozuvchi bilan suhbatga tayyorlanishda bu insonga tenglashish, mos gapirish, oldida uyalib qolmaslik uchun shunday muloqot qilishni afzal biladi. Ziyoli insonlar doim kitobiy tilda so‘zlashadi, bu inson bilan men ham shunday muloqot qilishim kerak, degan qarash, yozuvchilarni o‘z shaxsiy qarashlariga ko‘ra idrok qilish natijasida aynan shu turdagи nutq yuzaga keladi. Bunda suhbatdoshga moslashishda nafaqat idrok, balki ruhiy-hissiy jihatdan hayajonlanish, o‘zini suhbatdosh oldida qanday tutishni bilmaslik, ikkilanish kabi jarayonlar ham ko‘zga tashlanadi. Notabiiy ravishda kitobiy so‘zlardan foydalanish esa rais nutqida nomuvofiq birikmalar, jumlalar ham irod etilishiga olib keladi: ikkita oljanob molxona qurdik. Olijanob sifati molxona joy oti bilan o‘zaro mos kelmaydi. Lekin rais molxona uchun mos baladparvoz, kitobiy sifat topolmay, oljanob so‘zidan foydalanadi. Yozuvchi Yaxshiboyev esa raisning nutqidagi bunday xatoliklarni tahlil qiladi:

Sog‘liqni o‘ylab, bu taraflarga tashrif buyurdik.

Ol-a, dedi Yaxshiboyev ichida, sen o‘zing kimsanki, tashrif buyursang. Yo‘q buniyam aybsitib bo‘lmaydi, televizor-pelevizorga chiqadidan xotin shoirlardan o‘rgangan chiqar (Murod Muhammad Do‘s ‘Lolazor’, 94-bet).

Muloqot davom etar ekan, suhbatdoshlar o‘zaro biroz yaqinlashgach, rais oddiy tilda so‘zlasha boshlaydi: Rais dardini gapirgani sari jo‘nlashib, tappa-tuzuk odamga aylandi-qoldi (Murod Muhammad Do‘s ‘Lolazor’, 95-bet).

Badiiy uslubdan so‘zlashuv uslubiga ko‘chgan rais asta-sekin shevaga xos birlklardan ham foydalana boshlaydi: odamlarni bir pasda yig‘naymiz, paxta teraydigan moshin va boshqalar.

Xulosa. Shunday qilib, suhbatdoshlar yaqinlashganlari sari, raisda hayajon yo‘qolib, Yaxshiboyev bilan moslashishda badiiy uslubga xos so‘zlardan foydalanmay, so‘zlashuv uslubidan, hatto shevadan ham foydalanishni boshlaydi. Demak, muloqotda moslashishda suhbatdoshni o‘z tasavvuriga ko‘ra idrok qilish, ijtimoiy masofa, mavqe, ruhiy-hissiy bosim ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, muloqot jarayonida suhbatdoshlar o‘zaro bir-birlariga moslashishga intiladilar. Bu moslashish esa semantik reprezentatsiya, idrok, hissiyot, ruhiy bosim kabi psixik jarayonlar bilan bog‘liq holda fonetik, intonatsion, leksik, morfologik, sintaktik qurilmalarni tanlash va nutqda qo‘llashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.K.Lewis. Convention: A philosophical study. Basil Blackwell/Harvard University Press.-1969.
2. M. Pickering, S. Garrod. Toward a mechanistic psychology of dialogue//Behavioral and brain sciences. - 2004. 27. -169.
3. C.E. Osgood, T.A.Sebeok. Psycholinguistics: a survey of theory and research problems. Journal of abnormal psychology, 49 4, Part 2, 1-203.
4. N.Purba. The role of psycholinguistics in Language Learning and Teaching. Tell Journal, Volume 6, Number 1, April 2018. –P.47.
5. P.FraisseLa psycho-linguistique // Problems de psycho-linguistique. – Paris, 1965. – P.5.
6. Sami Boudelaa. Psycholinguistics// https://www.researchgate.net/publication/272160770_Psycholinguistics_Sami_Boudelaa_The_Oxford_Handbook_of_Arabic_Linguistics.
7. W. D. Carroll Psychology of Language. Fifth edition. 2008.
8. W.Rieber, H.J.Vetter. Theoretical and Historical Roots of Psycholinguistic Research.

RUS TILIDA QUVONCHGA OID SINONIM SO'ZLARNING TASNIFLANISHI

Mirsagatova Umida Zaxidovna,
Toshkent kimyo- texnologiya institute dotsent v.b.

Abstrakt. Rus tilidagi sinonimiya, ayniqsa, his-tuyg'ular bilan bog'liq leksikani o'rghanishda boy o'rghanish sohasini taqdim etadi. Ushbu maqola quvonch hissi uchun sinonimlarni tasniflashga qaratilgan. Ushbu sinonimlarning semantik nuanslari va foydalanish kontekstlarini tahlil qilib, biz rus tilidagi xilma-xillik va noziklikni ta'kidlaydigan keng qamrovli tasnifni taqdim etishni maqsad qilganmiz.

Kalit so'zlar: rus tili, sinonimlar, quvonch, semantik tasnif, intensivlik, kontekst, stilistik tahlil, hissiy ifoda, madaniy nuanslar

CLASSIFICATION OF SYNONYMS FOR JOY IN THE RUSSIAN LANGUAGE

Mirsagatova Umida Zakhidovna,
acting associate professor of Tashkent Institute of Chemistry and Technology

Abstract. Synonymy in the Russian language presents a rich field of study, particularly when examining the lexicon related to emotions. This article focuses on the classification of synonyms for the emotion of joy. By analyzing the semantic nuances and usage contexts of these synonyms, we aim to provide a comprehensive classification that highlights the diversity and subtlety within the Russian language.

Keywords: Russian language, synonyms, joy, semantic classification, intensity, context, stylistic analysis, emotional expression, cultural nuances

КЛАССИФИКАЦИЯ СИНОНИМОВ РАДОСТИ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Мирсагатова Умида Захидовна,
и.о. доцент Ташкентского химико-технологического института.

Абстракт. Синонимия в русском языке представляет собой богатое поле для изучения, особенно при изучении лексики, связанной с эмоциями. В данной статье основное внимание уделяется классификации синонимов эмоции радости. Анализируя семантические нюансы и контексты употребления этих синонимов, мы стремимся предоставить комплексную классификацию, подчеркивающую разнообразие и тонкость русского языка.

Ключевые слова: русский язык, синонимы, радость, семантическая классификация, интенсивность, контекст, стилистический анализ, эмоциональное выражение, культурные нюансы.

Введение. Синонимия, существование нескольких слов со схожим значением, — это увлекательный аспект языка, который позволяет понять богатство и сложность языковых выражений. Русский язык, известный своим выразительным словарным запасом, особенно выделяется разнообразием синонимов для передачи тонких оттенков значения. Среди множества эмоций радость выделяется как фундаментальное человеческое переживание, глубоко укоренившееся в русской культуре и языке.

Целью данного исследования является изучение и классификация синонимов радости в русском языке, проливая свет на семантические нюансы, особенности употребления и стилистические вариации этих слов. Изучая различные способы выражения радости в русском языке, мы можем глубже понять культурный и эмоциональный ландшафт языка.

Путем систематического анализа современных словарей, литературных произведений и лингвистических корпусов мы стремимся классифицировать синонимы радости на основе их семантических особенностей, уровней интенсивности и контекстуального использования. Эта классификация не только послужит ценным ресурсом для студентов и исследователей русского языка и культуры, но и внесет вклад в более широкую область исследований синонимии в лингвистике.

В следующих разделах мы углубимся в различные категории синонимов радости, изучая, как эти слова различаются по своему значению, стилистическим нюансам и культурному резонансу.

Целью данного исследования является предоставление всестороннего обзора богатого лексикона радости в русском языке, подчеркивая сложное взаимодействие между языком, эмоциями и культурой.

Методология. В исследовании использован качественный анализ синонимов радости в русском языке. Данные собраны из современных русских словарей, художественных текстов и корпусов. Каждый синоним был проанализирован на предмет его семантических нюансов, частоты использования, коллокационных моделей и контекстуальных вариаций.

Семантическая классификация синонимов радости в русском языке

Синонимы радости в русском языке можно разделить на несколько смысловых категорий, исходя из их основного значения и нюансов. Эта классификация учитывает интенсивность передаваемых эмоций, а также конкретные контексты, в которых обычно используется каждый синоним.

Классификация по интенсивности:

Восторг (Восторг): передает чувство экстаза или восторга, часто связанное с сильными эмоциональными переживаниями, такими как трепет или восхищение.

Эйфория (Eiforiya): указывает на состояние крайнего счастья или восторга, часто характеризующееся повышенным чувством благополучия.

Ликование (Likovanie): подразумевает ликование или ликование, обычно в ответ на значительное событие или достижение.

Умеренная интенсивность:

Радость (Радость): общий термин, обозначающий радость или счастье, часто используемый в повседневном языке для выражения положительного эмоционального состояния.

Удовольствие (Удовольствие): передает чувство удовольствия или удовлетворения, часто получаемое от приятного опыта или деятельности.

Веселье (Веселье): указывает на состояние веселья или бодрости, часто связанное с общественными собраниями или праздниками.

Улыбка (Улыбка): буквально означает «улыбка», но также может передавать чувство легкой радости или веселья.

Приятность (приятность): указывает на ощущение приятности или приятности, часто используется для описания умеренно приятного опыта.

Довольство (Dovol'stvo): передает чувство удовлетворенности или удовлетворения, часто в ответ на приносящий удовлетворение или приносящий удовлетворение опыт.

Личные достижения и успех:

Гордость (Гордость): передает чувство гордости или самоудовлетворения, часто в ответ на достижение или достижение.

Торжество (Torzhestvo): подразумевает триумф или празднование, часто в контексте преодоления вызова или невзгод.

Межличностные отношения:

Радость общения (Радость общения): Указывает на радость, полученную от социального взаимодействия или общения.

Взаимная радость (Взаимная радость): передает взаимную радость или счастье, часто испытываемое в отношениях или совместном опыте.

Эстетическое и сенсорное удовольствие:

Наслаждение (Наслаждение): передает чувство восторга или удовольствия, часто возникающее в результате эстетических или чувственных переживаний.

Удовольствие (Удовольствие): Указывает на удовольствие или наслаждение, часто получаемое от сенсорных стимулов или приятных занятий.

Эта семантическая классификация обеспечивает основу для понимания разнообразного спектра синонимов радости в русском языке, подчеркивая нюансы способов выражения и переживания этой сложной эмоции.

Обсуждение

Семантическая классификация синонимов радости в русском языке раскрывает глубину и богатство лексики, связанной с этой фундаментальной человеческой эмоцией. Классифицируя эти синонимы на основе их основных значений и нюансов, мы получаем представление о

различных способах концептуализации и выражения радости в русской культуре. Одним из примечательных аспектов классификации является различие между синонимами по уровням интенсивности. Деление синонимов на высокую, среднюю и низкую интенсивность отражает нюансы эмоциональных переживаний, передаваемых этими словами. Например, такие слова, как «восторг» (восторг) и «эйфория» (eiforiya), которые относятся к категории высокой интенсивности, передают чувство всепоглощающего счастья и восторга. Напротив, такие слова, как «радость» (радость) и «удовольствие» (удовольствие), которые относятся к категории умеренной интенсивности, передают более приглушенное чувство радости и удовлетворения. Еще одним интересным аспектом классификации является контекстная категоризация синонимов. Такие слова, как «гордость» (гордость) и «торжество» (торжество), которые относятся к категории личных достижений и успеха, подчеркивают культурную ценность, придаваемую индивидуальным достижениям и празднованию успеха в российском обществе. Точно так же такие слова, как «радость общения» (радость общения) и «взаимная радость» (взаимная радость), которые относятся к категории межличностных отношений, подчеркивают важность социальных связей и роль отношений в формировании эмоциональных переживаний. Стилистический анализ синонимов радости также выявляет интересные закономерности. Такие слова, как «веселье» (веселье) и «улыбка» (улыбка), которые относятся к разговорной категории, обычно используются в повседневном языке для выражения радости в неформальной обстановке. Напротив, такие слова, как «восторг» (восторг) и «ликование» (ликование), которые относятся к литературной категории, чаще используются в формальных или выразительных контекстах, таких как литература или поэзия. В целом классификация синонимов радости в русском языке дает детальное представление о том, как выражается и переживается эта сложная эмоция. Исследуя семантические, контекстуальные и стилистические нюансы этих синонимов, мы получаем представление о культурных ценностях, социальных нормах и языковых конвенциях, которые формируют эмоциональное выражение в русской культуре.

Заключение

Классификация синонимов радости в русском языке раскрывает глубину и сложность эмоционального выражения в русской культуре. Классифицируя эти синонимы на основе их семантических особенностей, уровней интенсивности и контекста использования, мы получаем тонкое понимание различных способов концептуализации и выражения радости в русском языке.

Категории высокой, средней и низкой интенсивности выделяют диапазон эмоциональных переживаний, связанных с радостью, от экстатического восторга до легкого удовлетворения. Эта классификация отражает нюансы эмоционального выражения и тонкие различия в значениях, которые характеризуют русские синонимы радости.

Контекстная категоризация еще больше подчеркивает культурные и социальные аспекты радости в русском языке. Слова, относящиеся к личным достижениям и успеху, отражают ценность индивидуальных достижений, а слова, относящиеся к межличностным отношениям, подчеркивают важность социальных связей и эмоциональных связей.

Стилистический анализ раскрывает динамическую природу языка и способы использования разных слов в разных контекстах. От разговорных выражений радости в повседневной речи до литературных выражений в поэзии и прозе — русский язык предлагает богатую палитру слов, передающую нюансы этой фундаментальной человеческой эмоции.

В заключение классификация синонимов радости в русском языке дает ценную информацию о языковых, культурных и эмоциональных аспектах российского общества. Изучая эти синонимы, мы получаем более глубокое понимание сложности выражения эмоций и того, как язык отражает и формирует наше понимание мира.

SHO'ROLAR DAVRIDA GAZETA-PUBLITSISTIK USLUBI: SOTSIOLINGVISTIK YONDASHUV

Mukaddas Israil,

filologiya fanlari nomzodi, professor. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotation. Gazeta tilining tarixiy taraqqiyoti borasida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, turli davrda til vositalarini qo'llashning o'ziga xos jihatlaridan biri, ularning tizimli tasnifi hamda ekstralolingvistik faktorlarni o'zida mujassam qilganligidadir. Gazeta matnini diaxronik tahliliga murojaat qilish orqali gazetaning muhim jihatlari bo'lgan standart va ekspressiyani doimo "ijtimoiy baho" sifatida qaralishini kuzatishimiz mumkin. Sho'rolar davrda gazeta-publitsistik uslubi aniq xususiyatlarga ega bo'lgan, bu xususiyatlar mazkur davrning masifikasiy va madaniy konteksti bilan chambarchas bog'liq edi. Sho'rolap davrda gazeta-publitsistik uslubini sotsiolingvistik jihatdan tadqiq etish o'sha davr siyosatining gazeta tiliga va uslubiga tasirini, hukmron rus tilining ozbek tili va uslubiga tasirini, shu bilan birga, gazeta leksikasining yangi ijtimoiy-siyosiy terminlar hisobiga boyishini korishga va tahlil qilishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, gazeta-publitsistik uslubi, ijtimoiy-siyosiy vogelik, mediamatn, ijtimoiy-siyosiy terminlar, o'zbek gazetasi tili va uslubi, maqola, bosma media, gazeta matni.

ГАЗЕТНО-ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИЙ СТИЛЬ В ПЕРИОД СОВЕТОВ: СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Мукаддас ИСРАИЛ,

*кандидат филологических наук, профессор. Узбекский государственный университет
Узбекистана*

Аннотация. Согласно результатам исследования исторического развития газетного языка, одним из отличительных аспектов использования языковых средств в разные периоды является их системная классификация, а также включение экстралингвистических факторов. Обращаясь к диахроническому анализу газетного текста, мы можем наблюдать, что стандарт и экспрессия, которые являются важными аспектами газеты, всегда рассматриваются как "социальная оценка". Газетно-публицистический стиль в период Советов имел ярко выраженные черты, которые были тесно связаны с идеально-культурным контекстом этого периода. Социолингвистическое исследование газетно-публицистического стиля этого периода позволяет увидеть и проанализировать влияние политики того времени на язык и стиль газеты, влияние господствующего русского языка на язык и стиль узбекского языка, а также обогащение газетной лексики за счет новых социально-политических терминов

Ключевые слова: социолингвистика, газетно-публицистический стиль, социально-политическая реальность, медиаконтекст, социально-политические термины, язык и стиль узбекской газеты, статья, печатные медиа, газетный текст.

NEWSPAPER AND JOURNALISTIC STYLE DURING THE SOVIET PERIOD: SOCIOLINGUISTIC APPROACH

Mukaddas ISRAIL,

doctor of philological sciences, professor. Uzbekistan State University of World Languages

Annotation. According to the results of the study of the historical development of the newspaper language, one of the distinctive aspects of the use of language tools in different periods is their systematic classification, as well as the inclusion of extralinguistic factors. Turning to the diachronic analysis of the newspaper text, we can observe that the standard and expression, which are important aspects of the newspaper, are always considered as a "social assessment". The newspaper and journalistic style during the Soviet period had pronounced features that were closely related to the ideological and cultural context of this period. A sociolinguistic study of the newspaper and journalistic style of this period allows us to see and analyze the influence of politics of that time on the language and style of the newspaper, the influence of the dominant Russian language on the language and style of the Uzbek language, as well as

the enrichment of newspaper vocabulary due to new socio-political terms

Keywords: *sociolinguistics, newspaper and journalistic style, socio-political reality, media text, socio-political terms, language and style of the Uzbek newspaper, article, print media, newspaper text.*

KIRISH. O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettirgan publitsistikating paydo bo‘lishini insoniyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi bilan birqalikda o‘rganishni taqozo etadi. O‘zbek publitsistikasining rivoji birinchi gazetalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar davrida bosma publitsistikating paydo bo‘lishi odamlar ongi va xatti-harakatiga, ijtimoiy faoliyatining faollashuviga va siyosiy jarayonlarga munosabatining shakllanishi va ularning ongiga ta’siri beqiyos darajada o‘sdi.

Ta’kidlash lozimki, o‘sha davrda o‘zbek tilining yozuvi bir necha bor o‘zgardi. Dastlabki yillarda o‘zbek tili Arab alifbosidan Fors-Tojik alifbosiga, keyin Lotin alifbosiga va nihoyat 1940-yilda Kirill alifbosiga o‘tkazildi. Bu o‘zgarishlar tilimizning yozma an'analarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Albatta, matbuot tiliga ham.

Tadqiqotimiz doirasida gazeta tilining diaxronik tahlili mustamlaka davrining 1940-1989 yillarini o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, sobiq SSSRda o‘zbek matbuoti, shuningdek, milliy respublikalarning boshqa tillaridagi matbuot sobiq sho‘ro hokimiyati nazoratida bo‘lib, uning senzurasiga bo‘ysungan.

METODLAR: Mazkur maqolada gazeta-publitsistik uslibining sotsiolingvistik aspekti va gazeta tilining shakllanishida lingvistik omillarning o‘rni, tarixiy shakllanish jarayoni, shuningdek, gazeta tilining shakllanishida va taraqqiyotidagi sotsiolingvistik omillar lisoniy-uslubiy, mantiqiy, qiyosiy, content-tahvilga tortilgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA: Mustamlaka davrida gazeta publitsistikasi tili xususiyatlari borasida quyidagilarni kuzatish mumkin:

Sho’rolar davrida gazeta tili asosan standartlik va ta’sirchanlikka asoslangan bo‘lib, sobiq sho‘ro tuzumi standartlariga javob beradigan kommunistik tadbirlar, sotsialistik iqtisodiyot va boshqalar yoritilgan. Buni quyidagi standart jumlalarda ko‘rish mumkin: “kommunistik mehnat kollektivi”; “kelishmoq”; “qo‘llab-quvatlamoq”; “kengayib bormoq”; “o‘sish suratlari”; boshlang‘ich tashkilot”; “brigda pudrati”; “puxta tanlov”; “zarur vazifa”; muhim vazifalar”; “partiya chaqirig‘i”; “partiya tashkiloti”; “imkon bermoq”; “tinchlik va do‘stlik uchun”; “mehnat zarbdori”; “muhim topshiriq”; “yordam ko‘rsatmoq”; “konkret ishlar”; “odim qadamlar”; “chora ko‘rmoq”; “sabiq chiqarmoq” va h.k.

Shuningdek, o‘sha davr matbuotida:

“Proletariat” – mehnatkash sinf, ayniqsa, fabrika va zavod ishchilari.

“Kommunizm” – klassiz jamiyat qurish maqsadida barcha mulk umumiylashtiriladigan ideal jamiyat tuzilishi.

“Sotsializm” – ishlab chiqarish vositalarining davlat yoki jamoa tomonidan boshqarilishi asosida qurilgan ijtimoiy va iqtisodiy tuzum.

“Kolxoz” – kollektiv xo‘jalik, dehqonlarning birqalikda yerni ishlashi.

“Sovxozi” – davlat xo‘jaligi, asosan, qishloq xo‘jaligida ishlatilgan.

“Partiya” – siyosiy partiya, ayniqsa Kommunistik partiya kabi tushunchalarni qo‘llash faol bo‘lgan.

“Brigada” – ushbu tushuncha ko‘plab sohalarda ishlatilgan va uning ma’nosi kontekstga qarab farqlangan. Biroq, “brigada” termini kichik guruh yoki jamoa a’zolarini anglatgan, bu guruh muayyan vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan.

Davr muhiti bilan va ijtimoiy-siyosiy voqelikni aks ettiruvchi tushunchalar kuzatiladi: “Besh yillik”; “Ishlab chiqarish plani”; “Yillik plan”; “Sotsialistik musobaqa”; “Sovet kishilari”; “Sovet xalqi”; “Mahalliy sovetlar” va h.k.

Masalan, “Zavoda ishlab chiqarish planini o‘z vaqtida bajarilishi ishchilarning ko‘nglini ko‘tarilishi va ularni yanada yangi zafarlarga chorladi”; “Bizning kollektivimiz sotsialistik musobaqa g‘olib bo‘lish uchun harakat qilishyapti”; “Yetti yillik planni bajarish uchun kurash kuchlarimizni ham qachongidan ham faolroq safarbar qilishni, partianing butun tashkilotchilik va tarbiya ishlarini yanada yuksak darajaga ko‘tarishni talab qiladi” (“Qizil O‘zbekiston”. 03.10.58); “Kommunistlar, ishchilar va kolxozchi dehqonlarning siyosiy, madaniy saviyasi beqiyos oshib, ishga, turmushga hayotning barcha sohasiga talabi, munosabati o‘zgarmoqda” (“Qizil O‘zbekiston”. 12.7.55) va h.k.

Organlar nomlari: “SSSR ichki ishlar organlari”; “Davlat xavfsizligi komiteti”; “Sovet Armiysi”;

“Ichki ishlar ministrligi”; “Komitet” va h.k.

O’sha davr siyosiy vaziyatni yorituvchi mavzularda o’sha davr so‘z va so‘z birikmalari va siyosiy leksika qo‘llanilgan:

“Kommunistik partiya”; “komsomol”; “kommunizm”; “Ministrler Soveti”; “Yozuvchilar soyuzi”; “Markaziy Komitet”; “markscha-lenincha dunyoqarash”; “Marksizm – leninizm ideyalari”; “Sotsialistik Mehnat Qahramoni”; “Oliy sovet deputati”; “Brigada boshlig‘i”; “Sovetlar respublikasi”; “Sovet xalqi”; “Plenum”, KPSS delegatsiyasi”; “Oliy Sovet Prezidiumi”; “SSSR Ministrlar Sovetidagi” va h.k.

Gazeta matniga murojaat qilamiz. “Sovet O‘zbekistoni” gazetasida “Buyuk qudratli kuch” sarlavhasi ostida berilgan maqoladan parcha keltiramiz:

“Biz marksizm-leninizm yer yuzidagi yuz millionlab kishilarning fikr-tuyg‘larida hukumron bo‘lib qolgan zamonaviy, eng ilg‘or va hayotning ta’limoti sifatida planetaning hamma qit’alarida keng xalq ommasi ongiga chuqurroq singib, dunyoda eng qudratli moddiy kuchga aylanayotgan davrda yashamoqdamiz. Ulug‘ Oktyabr sotsialistik revolyutsiyasining g‘oyaviy bayrog‘i bo‘lgan marksizm-leninizm sinfiy va milliy zulmga qarshi, sotsializm va kommunizm g‘alabasi uchun kurashda barcha mamlakatlar mehnatkashlarning yo‘lchi yulduzi bo‘lib qoldi” (“Sovet O‘zbekistoni” 1968. 2.04) va h.k.

Ushbu misolda gazeta publitsistik uslubning asosiy vazifasi marksizm-leninizm g‘oyalarini aks ettirish va ularni omma ongiga singdirish bo‘lgan. Ma’lumki, marksizm-leninizm g‘oyasi – bu siyosiy va iqtisodiy nazariyalar majmui hisoblanadi. Bu nazariya asosan ishchi sinfning kapitalistik tizimga qarshi kurashi va proletariat diktaturasini o‘rnatish g‘oyalariga tayangan va gazetada keng targ‘ib qilinganligi sababli, g‘oyaviy bayrog‘; milliy zulmga qarshi; mehnatkashlarning yo‘lchi yulduzi kabi ekspressiv vositalar orqali matn axborotning ta’sirchanligiga erishilgan.

Ko‘rib turganimizdek, o’sha davr o‘zbek jurnalistikasi sobiq sho‘rolar davrida respublikaning ijtimoiy ongi va mafkurasini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Shu nuqtayi nazardan, bir nechta asosiy jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkinki, ular quyidagilardan iborat:

Sobiq sho‘ro davrida o‘zbek jurnalistikasi kommunizm mafkurasi va sotsializm qurilishiga qat’iy yo‘naltirilgan edi. Publitsistlar kommunistik g‘oyalarni faol targ‘ib qilar edilar, sobiq sho‘ro tuzumining afzalliklari va kommunizmning O‘zbekiston jamiyatiga ta’sirini ochib berar edilar:

“Sovet matbuotining ishi keng ishchilar, kolxozchilar va intelligentlar ommasining aktiv ishtirok qilishiga asoslanadi”; “Xalqimizning madaniy saviyasi tobora o‘smoqda. Oblastimizning zavod, fabrika, kolxozi, sovxozi va MTS larida juda ko‘p devoriy gazeta, “Jangovar varaqa”, satira varaqlari chiqarilib turmoqda” (“Sovet O‘zbekistoni”. 1950-1954).

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qo‘llanilishi davr talabi bo‘lib, bu mafkuraviy vazifani bajargan. Deyarli har bir materialda bu holatni kuzatish mumkin: KPSS Markaziy Komiteti rayon va shahar gazetalariga bevosa rahbarlik qilishga shahar va rayon partiya komitetlari birinchi sekretarlarining zimmasiga yuklangan” (“Sovet O‘zbekistoni”. 1950-54); “Hozir Sovet Ittifoqi yakka emas. U bilan bir qatorda internasionalizmining bayrog‘i ostida 1-May kuni ulug‘...”; “Buning natijasida to‘rt mamlakat tashqi ishlar ministrlarining Berlin kengashi chaqirildi” (“Sovet O‘zbekistoni”. 30.11.1990) va h.k.

Shuning bilan birga qisqartmalarining faollashuvi kuzatiladi. Bu qisqartmalar ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog‘liq edi: “RSDRP(b)”; “RKP(b)”; “VKP(b)”; “VLKSM”, “KPSS”, “SSSR”, “O‘zTAG” va h.k.

Shunisi e’tiborga loyiq-ki, bu qisqartmalar asosan, rus tushunchalarini o‘z ichiga olgan va o‘zbek tilida qisqartmalar rus tilida qanday bo‘lsa, shundayligicha qo‘llanilgan. Masalan, “SSSR” abbreviaturasi rus tilidagi to‘liq ma’nosi “Союз Советских Социалистических Республик” bo‘lib, o‘zbek tilida “Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi” deb yuritilgan hamda Sovet Ittifoqi davlatining rasmiy nomi sifatida qo‘llanilgan.

“VLKSM” abbreviaturasi rus tilida to‘liq “Всесоюзный Ленинский Коммунистический Союз Молодёжи” tushunchasining qisqartmasi bo‘lib, o‘zbekchaga tarjima qilinganda “Butunitifoq Leninchi Kommunistik Yoshlar Ittifoqi” degan ma’noni anglatadi. Davrning mafkuraviy ta’siri natijasida VLKSM a’zolari yoshlar orasida kommunistik ideologiyani targ‘ib qilish, o‘z a’zolarini mehnat va mudofaa tayyorgarligiga jalb qilish, shuningdek, madaniy va ilmiy faoliyatlarga ko‘maklashish kabi vazifalarni bajargan. Ular shuningdek, yoshlarni siyosiy tarbiyalashda muhim rol o‘ynagan va Kommunistik Partiya bilan yaqin hamkorlik qilgan.

“KPSS” qisqartmasi “Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi”ning qisqartmasi bo‘lib, Sovet Sotsialistik Ittifoqi Respublikalarining yetakchi va yagona siyosiy partiyani anglatgan. Bu partiya Sovet Ittifoqi tarixida muhim rol o‘ynagan va davlat hamda jamiyat hayotiga keng ta’sir ko‘rsatgan. KPSS, Sovet

Ittifoqi davrida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotni boshqaruvchi asosiy kuch bo‘lib, partianing siyosiy qarorlari va yo‘nalishlari mamlakatning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatgan.

“Delegatsiya” termini (“delegatio”) lotin tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ma’nosи muayyan vazifa yoki maqsad bilan bir guruh odamlarning biror tadbiriga yoki muzokaralarga yuborilishidir. “Delegatsiya” tushunchasi ma’lum bir vazifani bajarish yoki muayyan muzokaralarda qatnashish uchun rasmiy ravishda tanlab olingan shaxslar guruhini bildiradi. Sovet Ittifoqi davrida “KPSS delegatsiyasi” mamlakat ichida va xalqaro maydonda partiya va davlat manfaatlarini ifoda etuvchi muhim tushuncha sifatida qaralgan hamda delegatlar muhim siyosiy qarorlarni muhokama qilish, ittifoqchilar bilan aloqalarni mustahkamlash va Sovet Ittifoqining mavqeini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

“Ministrlar Soveti” tushunchasi, asosan, hukumatning yuqori ijroiya organini anglatib, o‘sha davrda bu organ davlatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan vazirlar va boshqa yuqori martabali tashkilotlardan iborat bo‘lgan. Ushbu tushuncha mamlakatning ichki va tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda asosiy rol o‘ynagan. Bu jumladan iqtisodiyot, mudofaa, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarga oid qarorlarni qabul qilishni o‘z ichiga olganligi sababli ijtimoiy-siyosiy termin sifatida qo‘llanilishi faol bo‘lgan.

“Sovet” termini siyosiy termin sifatida o‘zbek tiliga rus tilidan kirib kelgan bo‘lib, “maslahat” yoki “kengash” ma’nosini bildiradi. Umuman olganda, ushbu tushuncha maslahatlashuv yoki bir guruh odamlarning muayyan masalalar yuzasidan muhokama qilish jarayonini anglatadi. Bu termin o‘sha davrda yangi siyosiy va ijtimoiy ma’no kasb etgan muhokama va qaror qabul qilish organlarini anglatgan. Shuningdek, sovetlar davrida bu muhim madaniy va tarixiy konnotasiyalarga ega bo‘lgan. Rus tilida ushbu leksika endilikda faqat maslahat yoki kengash ma’nosini emas, balki ma’lum bir siyosiy tuzum va uning ijtimoiy tuzilmasini ham anglatadi.

Ta’kidlash lozimki, ushbu tushunchalar ma’lum bir tarixiy davr va ijtimoiy tuzum bilan bog‘liq ma’no va konnotasiyalarni o‘zida mujassam etgan. Ularning gazeta tilida qo‘llanilishi jamiyatning hayoti, tarixiy va madaniy evolyutsiyasi hamda jamiyatdagi roli va ahamiyatini ko‘rsatadi.

Rus tilida: “Советский народ”; “Совета Министров СССР”; “Верховного Совета СССР”; “Центральный Комитет партии”; “Отечественный народный фронт”; “Коммунистический союз молодёжи”; “XXIV съезд КПСС”; “Центральный комитет ВЛКСМ”; “Комитет одобрил позисию правительства va h.k.

Sovet hukumati ma’lum bir ideologik maqsadlarga erishish uchun til islohotlarini amalga oshirdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu islohotlar doirasida o‘zbek tilining lug‘at boyligi va grammatikasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Rus tilidan o‘zlashmalar soni ortishiga va yangi tushunchalarni va so‘zlar hisobiga o‘zbek tili leksikasini boyib bordi: “leksiya”; “direktor”; “prinsip”; “rayon”; “miting”; “oblstan”; “plan”; “konferensiya”; “texnika”, “Mashina”, “reaktor”; “Teleskop”; “Antenna”; “kolxoz”; “savxozi”; “Rejissyor”; “Komsomol”; “Kran”; “Avtobus”, “seyalka”, “agrotexnika”, “imperializm”, “kosmik fazo”, “quyosh sistemasi”, “sovet fani va texnikasi”, “astronomiya”, “observatoriya”, “fotografik astrometriya”, “laboratoriya”, “fanlar kandidati” va h.k.

XULOSA. Ko‘rib turganimizdek, 1940-1988-yillar oraliq‘ida O‘zbekiston Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lgan, shu sababli bu davrda rus tilidan o‘zbek tiliga ko‘plab so‘zlar kirib kelgan. Yangi tushuncha va hodisalarni ifodalashda asosan rus tilining ta’siri katta bo‘lgan hamda asosan siyosiy, ilmiy, texnik, madaniy va ijtimoiy va h.k. sohalarning rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu holat o‘zbek tilining leksik tarkibini kengayishiga sabab bo‘lgan.

Tahlillar natijasida o‘sha davrda gazeta maqolalari, ocherklar va boshqa publitsistik asarlarda sotsializm va kommunizm g‘oyalari, shuningdek, sotsialistik qadriyatlar madh etilganini kuzatish mumkin: “Sovet xalqining traditsiyalari!” sarlavhasi ostida e’lon qilingan maqolada bu holatni kuzatish mumkin: “Sovet xalqining yangi traditsiyalari ham milliy, ham internatsional xarakterga ega. Sotsialistik traditsiyalar xalqimizning milliy mulki bo‘lib qoldi” (“Sovet O‘zbekistoni” 01.07.64). Ko‘rib turganimizdek, maqolada tradisiya, internosional, xarakter kabi o‘sha davr o‘zlashmalari ishlataligan.

Shu bilan birga gazeta matnida ta’sirchan vositalardan qo‘llash va ommaga ta’sir etish davr talabi sifatida qaralgan. “Zo‘rovonlik pozitsiyasi!” (sarlavha). “Siyosiy urush yoqasiga olib borib qo‘yish siyosati ketma-ket barbod bo‘lmoqda. Lekin G‘arbdagi ba’zi kishilar bundan tegishli saboq chiqarib olmayotir”; “Vatanparvar oqsoqolimiz har doim gapirib kelgan va turmushga oshirish uchun kurashgan...”;

“Shaharlar yuzida dog‘ qolmasin...”; “Do‘stlik diydori...” (“Qizil O‘zbekiston”. 11.06.56) va h.k.

Publitsistlar ommanning hissiyotlariga ta’sir qilish maqsadida turli til birliklarini qo‘llashgan va asosan undov, murojaatlardan foydalanishgan: “Minnatdormiz o‘zbeklar!”; “Tinchlikda va do‘stlikda yashaylik!” va h.k.

O‘zbek matbuoti sobiq SSSRning rasmiy tilidan, ya’ni rus tilida chop etilgan. O‘zbekistonda chop etilgan rus tilidagi gazetalar, o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotini yoritgan. Gazetalar nafaqat mahalliy aholi orasida, ya’ni o‘zbek va rus millatiga mansub kishilar orasida ham ommabop bo‘lgan. Ularning tili va uslubi o‘zbek gazetalari kabi o‘sha davrning ideologiyasi va madaniyatini aks ettirgan. Buni gazeta sarlavhalaridan ham kuzatish mumkin: “Первоочередная партийная задача!”; “Октябрьское воскресение народов”; “Водный транспорт должен победить”; “О партийном хозяйстве и задачах парторганизации Узбекистана. Доклад тов. Цехера на ИВ пленуме СККП(б)Уз”; “Наведем большевистский порядок в партийном хозяйстве” (“Правда Востока”. 1935-1940).

Shunday qilib, mustamlaka davrida o‘zbek gazeta-publitsistikasi asosan, davlat va partianing siyosiy va mafkuraviy maqsadlariga xizmat qilgan. Sho’ro davlati va jamiyatining yutuqlari, mehnat qahramonlari, fan va madaniyat namoyandalari haqida ko‘p yozilgan. Bunda ularning sa‘y-harakatlari sotsialistik ideallarga mos kelishi masalalari chop etilgan. Shunga qaramay, shuni ta’kidlash kerakki, sobiq sho’ro rejimi sobiq O‘zbekiston SSRning rasmiy mafkurasi va siyosatiga muvofiqligini ta’minalash uchun o‘zbek gazetalarida e’lon qilingan kontent va axborotni qat’iy nazorat qilganligi gazeta tiliga o‘z ta’sirini ko‘rsatganligini ko‘rshimiz mumkin.

Shunday qilib, o‘sha davrdagi o‘zbek gazetasi publitsistikasi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan:

- Partiyaviylik. Kommunistik partianing faoliyati, jamiyatdagi mavqeini oshirish, ommada jangovar kurashuvchilikni shakllantirish, marksizm-leninizm g‘oyalarini singdirish, xalqlar do‘stligi, proletariat g‘oyalarini targ‘ib qilish;
- Xalqchillik. Xalq intilishlarini, orzu-umidlarini, milliy dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish hamda uning kompleks innovatsion dasturiy mobil ilovasini yaratish muammosining o'rganilganlik darajasini tahlil qilsak, chet tillarni sun'iy intellekt texnologiyalari orqali o'rgatish/o'qitish bo'yicha Boston universiteti tadqiqotchisi Leyn M.Kokborn (Iain M. Cockburn), Garvard Menejment Biznes maktabi professori Rebeka Xenderson Xeynz (Rebecca Henderson Heinz), Massachusets axborot texnologiyalari qoshidagi Sloun menejment universiteti professori Skot Stern (Scott Stern), Mustafa Elkadir (Turkiya), Anant Manisha Sinx (Anant Manish Singh), Vasif Bilal Xaju (Wasif Bilal Haju), Xindiston Gauxati universiteti (Gauhati University) tadqiqotchilari Tulshi Bezboru (Tulshi Bezboruah) va Abxijit Boro (Abhijit Bora)lar tomonidan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Yurtimizda ham loyiha ishi mavzusiga oid Farrux Hakimov, Elmira Sirazieva, Mahbuba Eshnazarova, Saidjalol Hasanov, Olimjon Jamalov kabi tadqiqotchilar tomonidan ijobiy yutuqlar amalga oshirilgan hamda salmoqli tarzda amaliy natijalarga erishilgan.

Jahon tajribasidan ma'lumki, chet til turli davrlarda turli xil metodlardan foydalangan holda o'rgatilgan. Umuman aytganda, XIX asrning to'rtinchi hamda XX asrning birinchi choragigacha chet til tarjima metodi orqali o'rgatilgan. Yevropada chet til o'qitish metodikasini islohotidan so'ng to'g'ri (direct) metod ishlab chiqildi. Shu davrdan boshlab, har qanday chet tilni o'qitishda nutq faoliyatiga o'rgatila boshlandi. Buning natijasida ko'plab yangi metodlar tavsiya etildi. Masalan, og'zaki nutq

yondashuvi yoki vaziyatli til o'rgatish metodi (CLM), audio-lingval yoki og'zaki nutqqa asoslangan metod (ALM), sokin o'rgatish metodi (SW), motor/jismoniy harakatlar yordamida javob berish metodi (TPR), jamoaviy til o'rganish metodi (CLL) yoki gumanistik usul, disuggestopidiya (DeS) metodi va boshqalar. Shuningdek, so'nggi yillarda kommunikativ til o'qitish metodlari (CLT) bilan birga kompetentsiyalarga asosan til o'qitish (CBL), lingvistik korpus asosida o'qitish (LCT), kooperativ til o'qitish (CLT), mazmunga asoslangan ta'lif (CBI), vazifalarga asoslangan til o'qitish (TBL) metodlari chet til o'qitishda ommalashgan. Amerikalik amaliyotchi-tilshunoslar Jak S. Richards hamda Teodor S.Rodgers, Ramin Akbari ilmiy mulohazalariga ko'ra, ayni damda ingliz tili o'qitish uchun metodlardan keyingi davr (The post-methods era) kelgani e'tirof etiladi.

Ayni damda halqaro miqyosda chet tillarni o'qitishga oid tilshunoslik, lingvodidaktika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika, kontseptologiya kabi fanlar tomonidan erishilgan amaliy natijalaridan kelib chiqib, turli fanlarni, xususan, chet tillarni sun'iy intellekt ilovalari yordamida o'qitish masalasi aktuallikka ega. O'zbekistonning uchinchi renessansida uzluksiz ta'lif tizimida turfa fanlarni o'qitish, turli veb va mobil ilovalarni o'quv jarayoniga tadbiq qilish, puxta bilim berish uchun ta'lif ilg'or rivojlangan davlatlar tajribasidan keng foydalanish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish asosiy davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Zero, jahonda ona tili va chet tillarni o'qitishga boshqa fanlar yanglig' alohida e'tibor qaratiladi.

Muhokama. Mamlakatimizda ham chet til fani barcha ta'lif muassasalari o'quv rejasiga (OTM.larda majburiy va tanlov fan sifatida) kiritilgan. Binobarin, har qanday ta'lif muassasasida birorta G'arb yoki Sharq tilini o'rganish o'quvchi/talabalar uchun majburiy hisoblanadi. Amalga oshirilishi rejalashtirilgan tadqiqotda nazariy va amaliy mo'ljali, ixtisosligi iqtisodiyotning turli sohalari bo'lgan bakalavr va magistratura tinglochilariga ilk marotaba biznes ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarini amaliyotga joriy qilishdan iborat. Shu bilan birga mazkur fanni o'qitishda ilmiy tadqiqotlarda qabul qilingan havolalardan foydalanish, turli manbalarni o'qib tanqidiy tahlil qilish va ingliz tili bilan biznes tushunchasiga oid mavzularni muvoziy tarzda o'zlashtirib borish ehtiyoji mavjudligiga oid ilmiy nazariy hamda amaliy g'oyalar ilgari suriladi.

Zamonaviy sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritm va dasturiy tizimlardan iborat bo'lib, inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarni axborot bazasiga kiritilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, sun'iy intellekt mantiqli izchil mulohaza qilish hamda tavsiya berish qobiliyatiga ega "aqlii" texnologiya hisoblanadi. Sun'iy intellekt va zamonaviy mobil ilovalar yaratish yo'nalishida ta'lif tizimida alohida yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimizda ham chet til o'qitishda yetakchi davlatlar tajribasidan keng foydalanish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan xukumat tomonidan bir qator muhim dasturlar, qarorlar qabul qilingan hamda sun'iy intellekt sohasida o'ziga xos salohiyat asoslari mavjud. Sun'iy intellekt texnologiyalarini insoniyat jamiyati a'zolarining aqliy va jismoniy mehnati mahsuli deya talqin qilinadi. Chunonchi, muqobil biznes ingliz tilini o'rganishga tegishli sun'iy inellekt texnologiyalarini tanlash hamda ular yordamida mobil ilova yaratish ko'zda tutilgan loyihamdan ko'zlangan asosiy maqsad sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tilini o'qitish jarayoniga joriy qilishdan iborat.

Dastlab, ingliz tilini o'qitishga tegishli xorijiy ekspertlar tomonidan yaratilgan sun'iy intellekt texnologiyalarini tahlil qilinadi (Blended lingua, COIL -Collaborative Online International Learning connects, COCA-The Corpus of Contemporary American English). So'ngra, muqobil billari tanlab olinadi. Ushbu tanlangan ilovalar biznes ingliz tilini o'qitish jarayonida amalda sinab ko'riladi va tajriba-sinov ishlari tashkil qilinadi. Tadqiqot doirasida chet tillar o'rgatishni sun'iy intellekt texnologiyalarini orqali uyg'unlashtirib tashkil etilishi lingvodidaktikaning asosiy yo'nalishiga aylanadi. Natijada, ingliz tilini turli veb va mobil ilovalar orqali o'rganish rivojlantiriladi. Har qanday ikkinchi va boshqa tillarni o'rganishga kirishar ekanmiz, birinchi navbatda, ular orasidagi o'xshashlik (universal belgi)larga e'tibor qaratishimiz kerak. Qolaversa, ona tili va chet tildagi differentsial birliklar va belgilarni farqlab o'rgatishga tegishli vaqt va kuch sarflash hamda ehtimoliy qiyinchiliklarni oldindan bartaraf etish talab etiladi. Bunga lingvistik va lingvodidaktik muqoyasa va talabalarning nutqida sodir bo'ladigan xatolarning tipologiyasini yaratish orqali erishiladi. Tadqiqotning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, zamonaviy ingliz tilini o'rganishni tashkil qilishda sifatli va yuqori samarador metodologiyani yaratishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonning yaratilishi va ishlab chiqilishi texnik va texnologik jihatdan murakkab, biroq bunday muhit ta'lif tizimini takomillashtirishga, samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, O'zbekiston yoshlari orasida xorijiy nufuzli universitetlarda talaba bo'lish istagi tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayonni ham sun'iy

intellekt texnologiyalari yordamida xorijga bormasdan o’zi yashayotgan davlatda o’qib ham amalga oshirish imkoniyati mavjud. Masalan, “COIL–Collaborative Online International Learning” sun’iy intellekt ta’limiy platformasi orqali mamlakatimiz universitetlari va xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qo’lga qo’yiladi. Bunda talabalar bir vaqtning o’zida xorijiy universitetlardagi tengdoshlari bilan virtual auditoriya orqali dars jarayonlarida faol qatnashishi va bilim olish imkoniyatiga ega bo’lishlari mumkin. Natijada, O’zbekiston yoshlari nufuzli universitelarning birida talabalar almashinuvni dasturlarida qatnashish imkoniyatiga ega bo’lishadi hamda xorijiy oliv o’quv yurtlari ta’lim dasturlari asosida bilim va ko’nikmalarni xorijga chiqmagan holda o’zimizda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotda ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat ishlannalarining natijalarini qo’llash orqali yaratilgan mobil ilova realizatsiya qilinadi. So’ngra bank-moliya akademiyasi tinglovchilariga biznes ingliz tilini o’qitish jarayonida foydalaniladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratilgan mobil ilova “google market” platformasiga hamda <https://lms.bfa.uz/> elektron ta’lim tizimiga maxsus joylashtiriladi. Joylashtirilgan mobil ilovadan foydalanish dastlabki bosqichda bepul. CEFR darajalari bo’yicha shkalalarga ajratilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarish va yakuniy natijada sertifikatga ega bo’lish loyiha a’zolari tomonidan tijoratlashtiriladi. Ushbu intellektual mulk maxsus axborot texnologiyalari mutaxassislari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Amalga oshirilgan dastlabki tajriba-sinov ishlardan quyidagi asosiy ilmiy muammolar aniqlandi va ular shunday tavsiflanadi: birinchidan, biznes ingliz tilini o’qitishda sun’iy intellekt texnologiyalari ishtirotida mobil ilovalar yaratish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini amalda yoritib berish; ikkinchidan, O’zbekiston sharoitida chet til o’qitishga oid jahon lingvodidaktikasining zamonaviy yo’nalishlarini aniqlash hamda uning mexanizmlarini ishlab chiqish; uchinchidan, Oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet til bo’lmagan fakul’tetlari bitiruvchilariga S1 (Chet til o’rganishning mustaqil muloqoti) darajasini egallash vazifasi qo’yilgan bo’lsa, uning kommunikativ aspektini aniqlashtirish talab qilinadi; to’rtinchidan, OTM bitiruvchilarining retseptiv va produktiv nutqiy malakalarini “MySQL, Flutter, Prezi” dasturiy sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida rivojlantirish; beshinchidan, mavjud darsliklarga qo’shimcha multimedial o’quv resurslar o’rniga, ingliz tilini o’rganish muddatini minimallashtiradigan, sarf-harajatlarni kamaytiradigan (darsliklar yaratish, chop qilish) muqobil mobil ilovalarning ta’limiy ahamiyatini kengaytirish, muallim mehnatini fasilitator maqomida belgilash; oltinchidan, kredit-modul tizimida jahon tajribasiga ko’ra talabalar bilimini assesment qilishda inson omilini kamaytirishni optimallashtirish maqsadida sun’iy intellekt dasturlari ishtirotini inobatga olish va boshqalar.

“Biznes ingliz tili” fani turli iqtisodiyot yo’nalishlariga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarida “Ingliz tili/Xorijiy til/Kasbiy sohada xorijiy til yoki ingliz tili” kabi nomlar bilan o’qitilmoqda. Mazkur fanni o’qitishda biznesga oid turli xorijiy o’quv adabiyotlaridan foydalanilmoxda. Bugungi kunda har qanday fanlarni o’qitish xususiyatiga binoan, ularni turli dasturiy vositalar, multimedial o’quv resurslar, veb va mobil ilovalar orqali o’qitish/o’rganish taklif qilinmoqda. Ayni damda turli ijtimoiy sohalarda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo’llash keng urfga aylanmoqda. Mazkur loyihada sun’iy intellekt texnologiyalarining muqobil funktsiyalari yordamida biznes ingliz tilini o’qitishga e’tibor qaratiladi. Tadqiqotdan ko’zlangan asosiy maqsad O’zbekiston sharoitida ta’limiy mobil ilovalar yaratish jarayonining o’sishiga xissa qo’shish hamda optimal sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o’qitishga oid kompleks innovatsion dasturiy mobil qurilma va planshetlarda ishslash imkoniyatiga IOS (Iphone Operating System) va Android platformalari uchun vizual yechimga ega mobil ilova yaratishdan iborat.

Mazkur loyihada hal etilishi ko’zda tutilgan asosiy ilmiy muammolar quyidagicha tavsiflanadi: birinchidan, biznes ingliz tilini o’qitishda sun’iy intellekt texnologiyalari ishtirotida mobil ilovalar yetishmasligini isbotlash hamda muqobil mobil ilovalarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini amalda yoritib berish; ikkinchidan, O’zbekiston sharoitida chet til o’qitishga oid jahon lingvodidaktikasining zamonaviy yo’nalishlarini aniqlash hamda uning mexanizmlarini ishlab chiqish; uchinchidan, Oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet til bo’lmagan fakul’tetlari bitiruvchilariga S1 (Chet til o’rganishning mustaqil muloqoti) darajasini egallash vazifasi qo’yilgan bo’lsa, uning kommunikativ aspektini aniqlashtirish talab qilinadi; to’rtinchidan, OTM bitiruvchilarining retseptiv va produktiv nutqiy malakalarini “MySQL, Flutter, Prezi” dasturiy sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida rivojlantirish; beshinchidan, mavjud darsliklarga qo’shimcha multimedial o’quv resurslar o’rniga, ingliz tilini o’rganish muddatini minimallashtiradigan, sarf-harajatlarni kamaytiradigan

(darsliklar yaratish, chop qilish) muqobil mobil ilovalarning ta'limi ahamiyatini kengaytirish, muallim mehnatini fasilitator maqomida belgilash; oltinchidan, kredit-modul tizimida jahon tajribasiga ko'ra talabalar bilimini assesment qilishda inson omilini kamaytirishni optimallashtirish maqsadida sun'iy intellekt dasturlari ishtirokini inobatga olish kabi muammolarni hal qilishdan iborat.

"Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish hamda uning kompleks innovatsion dasturiy mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi loyiha ishida quyidagi vazifalar belgilandi:

- sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish hamda uning kompleks innovatsion dasturiy mobil ilovasini yaratishga oid adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;

- ixtisosligi chet til bo'limgan OTM. Talabalari/tinglovchilariga biznes ingliz tilini o'qitish mazmunini ishlab chiqish;

- lingvistik (nutqiy, til) kompetentsiyalarni rivojlantirishga qo'yilgan talablarga binoan, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish metodikasini ishlab chiqish;

- sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini samarali o'qitishga tegishli mobil qurilmaning texnik topshiriqlarini, asosiy ekranda aks etadigan funktsiyalarni hamda menim profilim bo'lmlarini ishlab chiqish;

- sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitishni samarali tashkil qilish maqsadida "Business English with AI" nomli innovatsion dasturiy mobil ilovani yaratish;

- yuqoridaqgi vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilish birinchidan, O'zbekiston sharoitida ta'limi mobil ilovalarni ko'paytirishga yordam beradi. Ikkinchidan, darsliklarni chop qilishga oid iqtisodiy muammolarni hal qiladi. Uchinchidan, yangi ilmiy ishlanma (mahsulot/texnologiya) olishni ta'minlab beruvchi texnik-iqtisodiy daromad keltiruvchi innovatsion dasturiy ta'minot yaratiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga kirib keldi. Qishloq xo'jaligi, bank-moliya tashkilotlari, tijorat banklari faoliyatları, energetika, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, soliq, transport sohalarida erishilgan barcha zamонави yutuqlar sun'iy intellekt texnologiyalari orqali amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyihaning ilmiy yangiligi quyidagicha tavsiflanadi:

- innovatsion dasturiy mobil ilova yaratishga oid adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish orqali sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini samarali o'qitishga erishiladi;

- ixtisosligi chet til bo'lajak iqtisodchi talabalarga O'zbekiston sharoitida biznes ingliz tilini o'qitish mazmuni ishlab chiqiladi;

- chet til o'qitish Dasturiy standartlariga binoan, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish metodikasi ishlab chiqiladi;

- sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini samarali o'qitishga tegishli mobil qurilmaning texnik topshiriqlari, asosiy ekranda aks etadigan funktsiyalarni hamda "mening profilim-my profile" bo'lmlari ishlab chiqilib, talabalar bilimini baholash kompleksi yaratiladi;

- ilk marotaba o'zbek olimalari tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida biznes ingliz tilini o'qitish imkoniyatiga ega bo'lgan "Business English with AI" nomli innovatsion dasturiy mobil ilova yaratiladi.

Natijalar. Shuni alohida e'tirof etish lozim-ki, "Linux" yadroси asosida "Android" uchun dasturlar va mobil ilovalarni yaratish murakkab ko'p funktsiyali mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Demak, mobil ilovalar bozori sezilarli darajada kengayib, raqobatga boy maydonga aylanib bormoqda. Talabalar va tinglovchilar (magistratura mutaxassislari) loyiha doirasida yaratish rejalashtirilgan mobil ilovani "App Store" yoki "Google Play Market" onlayn dastur do'konlari orqali bepul yuklab olishlari mumkin va minimal harajatlar hisobiga biznes ingliz tili glossari bankini erkin o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Natijada, mobil ilova foydalanuvchilari biznes ingliz tilini qerda qo'llay olish xususida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Shuningdek. kasbiy leksik atamalarni o'zbek, rus tillarida qiyoslash va tushunishga erishadi, ijtimoiy va biznesga oid oddiy va murakkab matnlarni o'qib anglay oladi. Mobil ilova orqali ingliz tilini o'rjanuvchi talaba va tinglovchilar bir nechta modullarga ajratilgan dasturdan yakuniy testgacha ilovadan foydalanish davom ettirilsa, maxsus sertifikat taqdim qilinadi. Shuningdek, mazkur yaratilishi rejalashtirilgan mobil ilova o'zining dizayni, tarkibi va mazmuni bilan boshqalardan ajralib turadi.

Ilg'or xorijiy mamlakatlarda "Google Play Market"ning so'nggi oylardagi eng foydali mobil ilovalari quyidagilar: Microsoft Math Solver, Microsoft kompaniyasi tomonidan yaratilgan va yangi matematik tenglama va misollarni yechishga yordam beradi. Uning ishlash tartibi oddiy: smartfon kamerasini

yechimi topilmayotgan misol yozilgan varaq qarshisida tutasiz va suratga olasiz, Microsoft Math Solver avtomatik natijani hisoblay boshlaydi. Shuningdek, mashqlarni qo’lda yoki klaviatura orqali ham yozib kiritish mumkin. Ilova nafaqat natijani, balki yechimning kelib chiqish bosqichlarini ham ko’rsatadi. Shuningdek, onlayn magazinda xorijlik malakali mutaxassislar tomonidan yaratilgan eng sara va ommabop quyidagi ta’limiy mobil ilovalar aniqlandi. Duolingo, Google Primer, LinkedIn, Steezy, Simple Piano App, Khan Academy, Tasty, Skillshare. G’arb mamlakatlari ilmiy-tadqiqot yo’nalishlari bo’yicha erishilgan yutuqlar natijasida 2023 yilning eng foydali ta’limiy platformalarini (Kristofer Pappas) talentLMS, IspringLearnLMS, 360Learning, Moodle, MyLearningHub va boshqalar tashkil qiladi. Turli yoshga mo’ljallangan ingliz tilini o’rganishga tegishli eng ko’p foydananuvchilarga ega mobil ilovalarga Britaniya Kengashi tomonidan yaratilgan LearnEnglishPodcasts, BBCLearningEnglish, British Council EnglishScore, ABA English, Babbel-LearnLanguages, Learn English Conversations, RealLife: Speak, Learn English, Hello Talk, Fun English, Speak English Fluently kabi misol keltirishimiz mumkin. Biznes ingliz tilini o’rganishga tegishli mobil ilovalar quyidagilar: Business English by BEP, Learn English Business, Business English by AEE.

Xulosa. Biznes ingliz tilini o’qitishda sun’iy intellekt texnologiyalari ishtirokida mobil ilovalar zarurligi hamda muqobil mobil ilovalarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega ekanligi amalda isbotlab beriladi. Ikkinchidan, O’zbekiston sharoitida chet til o’qitishga oid jahon lingvodidaktilasining zamonaviy yo’nalishlari aniqlanadi hamda uning mexanizmlari ishlab chiqiladi. Uchinchidan, Oliy ta’lim muassasalarining ixtisosligi chet til bo’limgan fakul’tetlari bitiruvchilariga S1 (Chet til o’rganishning mustaqil muloqoti) darajasini egallash vazifasi samarali hal qilinadi. Shuningdek, o’zbek lingvodidaktlari orqali ingliz tilini o’qitishning kommunikativ aspekti aniqlashtiriladi. To’rtinchidan, OTM bitiruvchilarining retseptiv va produktiv nutqiy malakalarini “MySQL, Flutter, Prezi” dasturiy sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida rivojlantiriladi. To’rtinchidan, mavjud darsliklarga qo’shimcha mul’timedial o’quv resurslar o’rniga, ingliz tilini o’rganish muddatini minimallashtiradigan, sarf-harajatlarni kamaytiradigan (darsliklar yaratish, chop qilish) muqobil mobil ilovaning ta’limiy ahamiyati kengaytiriladi Beshinchidan, kredit-modul tizimida jahon tajribasiga ko’ra talabalar bilimini assesment jarayonini amalga oshirishda inson omilini kamaytirishga erishiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Farrux HAKIMOV. <https://strategy.uz/index.php?news=1198>. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo’lim boshlig’i
2. Lizhen Shi, Arshad Muhammad Umer & Yanting Shi. Utilizing AI models to optimize blended teaching effectiveness in college-level English education. ISSN: (Print) (Online) Journal homepage: <https://www.tandfonline.com/loi/oaed20>
3. L. Ferguson, “Advancing Research Integrity Collaboratively and with Vigour,” 2022, <https://www.hindawi.com/post/advancingresearch-integrity-collaboratively-and-vigour/>
4. S. Makridakis, “The forthcoming artificial intelligence (AI) revolution: its impact on society and firms,” Futures, vol. 90, no. jun., pp. 46–60, 2017.
5. P. Fernandez, ““Through the looking glass: envisioning new library technologies” how artificial intelligence will impact libraries [J],” Library Hi Tech News, vol. 33, no. 5, pp. 5–8, 2016.
6. E. Vickers, “The strange child: education and the psychology of patriotism in recessionary Japan by Andrea Gevurtz Arai,” Monumenta Nipponica, vol. 72, no. 1, pp. 146–152, 2017.
7. M. Garcia, “Racist in the machine: the disturbing implications of algorithmic bias,” World Policy Journal, vol. 33, no. 4, pp. 111–117, 2016.
8. A. I. Review, “About the authors,” Artificial Intelligence Review, vol. 15, no. 6, pp. 1–6, 2016.

ABDULLA ORIPOV IJODIDA SHE'R VA SHOIRLIK MASALASI TALQNIGA DOIR*Saidova Rayhon Bekmurodovna**Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotchisi, Zarmed universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),***POETRY AND POET IN THE WORK OF ABDULLAH ORIPOV REGARDING THE INTERPRETATION OF THE ISSUE***Saidova Rayhon Bekmurodovna**Samarkand State University named after Sh.Rashidov scientific researcher,
Associate Professor of Zarmed University, doctor of philosophy in philology (PhD),***ПОЭЗИЯ И ПОЭТИКА В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ АРИПОВА ВОПРОС О ТОЛКОВАНИИ***Сайдова Райхон Бекмуродовна**Самаркандский государственный университет имени Ш.Рашидова научный сотрудник,
доцент Университета Зармед, доктор философии (PhD) по филологическим наукам,*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola zamonaviy o'zbek adabiyotida she'r va shoirlilik haqidagi badiiy-estetik qarashlar tadqiqiga bag'ishlanadi. Unda XX asr o'zbek she'riyatining ulug' siyomosi Abdulla Oripovning she'r-u shoirlikka doir fikrlari imkon qadar tahlil etiladi. She'rni hal qiladigan mezon g'oysa emas, ruhiyat ekanligi shoir misralari orqali ochiqlanadi. Abdulla Oripov ijodidagi tuyg'ular zavqi, mahoratlari shoirning she'rni yozish uslubi, texnikasining o'ziga xos jihatlari, taqlidga munosabati ham yoritilgan. Shu bilan birga muammo tadqiqida Alisher Navoiy, Erkin Vohidov ijodiga ham ayrim o'rinnarda murojaat etiladi.

Kalit so'zlar: Sharq adabiyoti, she'r va shoirlilik, Abdulla Oripov qarashlari, badiiy-estetika, mavzu va g'oysa, lirik dard, badiiy ifoda, qiyosiy tahlil

Annotation: This scientific article is devoted to the study of artistic and aesthetic views of poetry and poetry in modern Uzbek literature. In it, the thoughts of the great figure of 20th century Uzbek poetry, Abdulla Oripov, on poetry are analyzed as much as possible. It is revealed through the poet's verses that the criterion that decides the poem is not the idea, but the spirit. The pleasure of emotions in the work of Abdulla Oripov, the style of writing poetry, the unique aspects of the technique of a skilled poet, and his attitude to imitation are also covered. At the same time, the work of Alisher Navoi, Erkin Vahidov is referred to in some places in the study of the problem.

Key words: Eastern literature, poet and poetry, Abdulla Oripov's views, artistic aesthetics, theme and idea, lyrical pain, artistic expression, comparative analysis

Аннотация: Данная научная статья посвящена изучению художественно-эстетических взглядов на поэзию и поэзию в современной узбекской литературе. В ней максимально анализируются мысли великого деятеля узбекской поэзии XX века Абдуллы Орипова о поэзии. Через стихи поэта раскрывается, что критерием, определяющим стихотворение, является не идея, а дух. Также освещены наслаждение эмоциями в творчестве Абдуллы Орипова, стиль написания стихов, уникальные стороны техники искусного поэта, его отношение к подражанию. При этом в некоторых местах при изучении проблемы упоминаются работы Алишера Навои, Эркина Вахидова.

Ключевые слова: восточная литература, поэзия и поэт, взгляды Абдуллы Орипова, художественная эстетика, тема и идея, лирическая боль, художественная выразительность, сравнительный анализ.

Jahon adabiyoti singari o'zbek adabiyotida ham she'r va shoirlilik haqida qarashlar qadimdan shakllangan edi. Aytishimiz mumkinki, badiiy ijod tarixida she'r va shoirlilik masalasi qadimgi Sharq xalqlari adabiyoti, antik davr jahon adabiyoti tarixi, Sharq-islom mumtoz adabiyoti va yangi davr o'zbek adabiyotida o'ziga xos bir jarayon sifatida ilmiy-nazariy, badiiy-estetik jihatlardan taftish etib kelindi. Bu bosqichlarni alohida e'tiborga olgan holda zamonaviy o'zbek adabiyoti, xususan, Abdulla

Oripovning she'r va shoirlik haqidagi qarashlarini tadqiq etish hozirgi adabiyot ilmining dolzARB vazifalaridan sanaladi. Bizga ravshanki, Erkin Vohidov va boshqa zabardast badiiy ijod sohiblari bilan birga shakllangan avlod sifatida o'zbek adabiyotida Abdulla Oripov ham chuqur iz qoldirgan. Masala shundaki, ikkala ijodkorni bir-birga o'xshash deb bo'lmaydi, chunki o'ziga xosliklar doim mavjud, vaholanki, biz ikki ijodkor va ikki she'riyat haqida fikr yurityapmiz. Erkin Vohidov tuygan she'r zavqini Abdulla Oripov ham o'z qalb prizmasidan o'tkazgan. Ijodkorni ko'proq lirik dard qo'liga qalam olishga undaydi, deyishadi, ammo o'sha dard bergen turtki nolali bo'lsa-da, zavqli nola hisoblanadi. Abdulla Oripov ham shu zavqni nazarda tutib, "qo'limga qalam tutqazgan narsa", - deya takidlagan edi: "Ijodning ko'pchilik uchun marhamatlik ehsoni shundaki, uning zavqidan dohiy san'atkor ham, g'o'r havaskor ham bebahra qolmaydi. Meni ham she'riyat ko'chasiga olib kirgan o'sha zavqdir. 50-yillarda ko'pchilik nima mavzuda, qaysi shaxs haqida she'r yozgan bo'lsa, men ham o'sha atrofda nimalarnidir yozaverganman". Tug'ma iste'dod bo'lgan shoirning qalbi har bir hodisadan ta'sirlangan edi. Buning sababi "she'r degan abadiy bir sehrga oshno bo'lganligidan"dir, ehtimol. Adabiyotshunos Nurboy Jabborov ta'kidlaganidek: "Chinakam ijodkorning qalbi mudom titrab turadi. Negaki, hech kim ko'rmagan sinoatni mushohada etar ekan, bu uning qalbida aks-sado beradi. Shoirning bedorligi sababi shu". Kuzatuvchilarning aytishicha, she'riyatning bir shoir umrida ikki bosqichi bo'ladi. Bu, albatta, endi qofiyali, ohangli bir nimalar yoza boshlaganida, faqatgina tuyg'usini she'rga solgan shoirlik davri bo'lsa, ikkinchisi, ilm va tajribalarini ham she'rga soladigan ijodkor davri. Ikkinchisi davrga o'tgachgina shoirlar shakllangan, degan imzoni olishlari mumkin. Abdulla Oripov birinchi bosqichdagi shoirda soflik boshqacha bo'lishini takidlaydi: "Faqat ijod dardiga chalingan odamda bu tuyg'u cheksiz armonga, go'zal iztirobga, qondirilishi nihoyatda zarur bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyoj chinakam shoirni umr bo'yi ta'qib etadi... Men hozir shoirning nuqtai nazarlari shakllanmagan, yulduzlardan... boshqa ehtiyojlar boshiga tushmagan, yo'rgakdag'i holati haqida gapirmoqdaman. Bu bosqichda she'riyat chindan ham ko'ngil ishi hisoblanadi. El e'tiborini qozonishni o'ylash, maqtov yoki mukofotlar uchun gadolarcha yaldoqlanishlar bu bosqichda uchramaydi. Nazarimda, shoirning tarbiyasi, agar u zarur bo'lsa, xuddi mana shu joydan boshlanmog'i zarur".

Abdulla Oripovning adabiy qarashlarida she'r masalasi juda chuqur tahlil qilinadi. Shoir zamonasoz shoirlar uchun tanqidchi ham edi. Shoirlikni kasb deb qabul qilmasdi. Adabiyot moddiy ehtiyojni emas, ma'naviy bo'shliqlarni to'ldirish uchundir. Zero ijodkor ta'kidlagani kabi zamon va tuzumdan qat'i nazar shoirga hech bir vaqt oson bo'lgan emas.

Shoir deganlari shahiddir-xunsiz,
Uchinchi dunyodir-kunduzsiz, tunsiz.
Bola kabi kular, biroq ko'zda yosh,
Bola kabi yig'lar, va lekin unsiz.

Ammo 60-yillarda shakllangan shoirlikka doxilman, deb biluvchilar ham turli xil edi. Balki, ularning dardi she'r bo'limgandir. Shoir haqida gap ketar ekan, Abdulla Oripov ilmlilar haqida gapiradi. Shoirda faqatgina tuyg'udan zavqlanish emas, she'rni yozish uslubi, texnikasi ham o'ziga xos bo'lmos'i lozim. U taqlid shakllanayotgan shoirni vaqtinchalik qadam bosishga undab turadi. Shoir ta'biri blan aytganda, "taqlid - butun mahalla biladigan oqsoqolning choponini boshqa birov kiyib yurganday gap. Ammo yaxshi ko'z bilan qaraymizmi, yomon ko'z bilanmi, zavq kabi taqlid ham ijod yaratlishiga omil bo'la oladi. Ana shu taqlidda ham o'ziga xoslik bo'lsagina ijodkor yozgan hisoblanadi. Yaxshi narsa o'qiganda kim ta'sirlanmaydi, deysiz? Ayniqsa, uning qalbida shoirlik zavqi jo'sh urib turgan bo'lsa. Baribir bu bahonalar originallikni cheklab o'tmaydi. Abdulla Oripov she'r individualligiga alohida e'tibor qaratgan: "Kuylayverib siyqasi chiqib ketgan ko'hna borliqni tasvirlay boshlar ekan, shoir she'ri ming-minglab asarlar orasidan jilla bo'lmasa ko'rinish turmog'i uchun birinchi navbatda originallikka e'tibor bermog'i lozim. Jiddiy fikr, chinakam hissiyot, samimiyyat, yuksak mahorat - ana shular shoirning bundan keyingi qimmatini belgilab beradi".

Men shoirman istasangiz shu,
O'zimniki erur shu sozim.
Birovlardan olmadim tuyg'u,
O'zgaga ham bermam ovozim.

Chinakam shoir o‘z sozi bilan kuylashi kerak, quruq taqlid ijodga ziddir. Abdulla Oripov taqlidchi shoirga haqli ravishda mana bunday kinoya qiladi:

Taqlid qila bergin yetsa bardoshing,
Modomiki senda bor ekan havas.
Faqat bir qora kun ko‘tarib boshing,
Asl nusxaman deb dod solmasang bas.

Shoirning shoirligi uning hozirjavobligida ham, deyishadi. Nega aynan shoir hozirjavob bo‘lishi kerak? Chunki u o‘z yelkasiga haqiqat yukini ham ortib yashaydi. Zamonasida qandaydir evrilish yuz bersa, shoir jim tursa yoki yengiltak she’rlar yozib yuraversa, u haqiqiy shoir bo‘lmaydi. Usmon Azimning “Shoiring she’rfurush bo‘lsa” degan gapiga shunday kimsalarning endi tasviriy emas, jonli qiyofasi namoyon bo‘la boshlaydi. Abdulla Oripov uchun ham she’r murakkab, o‘ta jiddiy mashg‘ulot jarayoni edi. Ayoli shoirning yozgan she’rlari ustida qayta-qayta ishlashini ta’kidlagan. Shoir kuchli hofizaga ham ega edi. O‘zining barcha she’rlarini hech qachon qog‘oz ushlab o‘qiganini muxlislari ko‘rmagan. Demak, she’r uning butun jahoni, “ruhiyati alifbosi”dir. Abdulla Oripov ijodida Alisher Navoiy ijodining o‘rni katta hisoblanadi. Alisher Navoiy XV asrda eng buyuk shoir bo‘lgan bo‘lsa, Abdulla Oripov XX asr so‘nggi choragidagi zamonaviy o‘zbek adabiyotining oldi namoyandasi edi. Har ikkala ijodkorning asarlari ham mumtoz na‘munalarga aylandi. She’r umri u mukammal bo‘lganda uzoq bo‘ladi. Umr masalasi shoir va she’r uchun birdek. Shunday shoirlar yozgan she’rlar borki, ular muallifi o‘lmasdan, yozilganiga hech qancha vaqt o‘tmay o‘ladi. Adabiyotshunos Bahodir Karimov bu xususda shunday degan edi: “Bugungi adabiy jarayonning she’riy jabhasi nihoyatda keng ko‘lamli, biroq, ba’zan o‘tkinchi she’rdan ko‘ra suvarak uzoqroq umr ko‘rmoqda. Chin san ‘atga daxldor she’r adabiyot tarixiga zeb beradi, egasini sharaflaydi”. Abdulla Oripov ana shunday abadiylikka daxldor she’riyat yaratgan edi. Shoir o‘zidan oldingi davr ijodkorlaridan ilhom oladi. Shoirni shakllantiruvchi asosiy ilm maxzani ham, uslub kaliti ham oldingilarni o‘qib o‘rganishdadir. U davr she’riyatiga baho bera oladi, tanqidiy ko‘z bilan qaraydi, kimlarnidir o‘ziga ustoz deb biladi. Abdulla Oripov G‘afur G‘ulomni, Hamid Olimjonni, Mirtemirni ustoz sifatida e’zozlagan. Shoirlikni ular timsolida ko‘rgan. Shoirlikni yuksak rutba deb bilgan. G‘afur G‘ulomning vafotiga atab yozgan she’rida shunday satrlar bor:

Dardli musiqalar, ingrangiz bir-bir,

O‘zing ham yig‘la, ey dilda qotgan g‘am.

Yorug‘ bu olamda bormikan axir

Shoir vafotidan ortiqroq motam!

Bu misralar orqali, birinchidan, ijodkor nechog‘liq qiyin bir davrda yashagani anglashilsa, ikkinchidan, ulug‘ shoirlarning o‘limi haqiqiy motam ekani ta’sirli ifodalangan. Shoirning “G‘afur G‘ulom o‘z safdoshlari qatorida g‘oyat ziddiyatlari, tahlikali bir davrda yashab o‘tdi”, - degan fikrlari bilan mazkur she’rdagi tasvir o‘rtasida kuchli hayotiy va badiiy-estetik yaqinlik borligi kuzatiladi. Xalq XX asr shoirlarini ana shunday aziz bilgan. Ular ezgulik ulashuvchi, yorug‘ quyosh kabi ko‘rilgan. Garchand ular hayotlari davomida mafkura yo‘rig‘iga yurishga ham majbur bo‘lgan bo‘lishsa-da, ko‘ksidagi asl haqiqatini boy bermagan. Shoir zotining qismati bir qarashda bunday majburiylikka tomon burilganda achinarli hamdir. Bu barcha davr adabiyotida yuz beradigan hodisa, ammo abadiylikka muhrlangan she’rlar aynan davrboplari emas, ko‘ngilboplaridir. Abdulla Oripov ta’kidlaganidek, “ozod ruh shoirni hech qachon tark etmasligi kerak”.

She’r - ruhning ijrosi. Hamma zamonlarga to‘siksiz ko‘chib o‘tishining sababi ham shunda. U bir tosh emaski, insonga yuk bo‘lsa. U ozod, ko‘rinmas, yoqilmli va toza ruh. Aynan shunday qalblarga ko‘chib o‘tadi. So‘z insonni shu darajada yashashi uchun kerak. Umrida bir marta ham biron she’rga oshiq bo‘limgan odam bo‘lmasa kerak. Uning ruhi qalbni tozartiradi, hatto jon ato ham qilishi mumkin. Abdulla Oripov ham she’r asosini shunday fikrlaydi: “She’rni hal qiladigan mezon ruhiyat, hatto g‘oya emas”. Erkin Vohidov ham mavzuni she’riyatda asosiy o‘ringa qo‘ymagan edi. Endi Abdulla Oripov qarashlarida g‘oyaning ham ustun emasligining guvohi bo‘lyapmiz. She’r - ruhiy ozuqa. Shoir “Bahor” she’rida ramziy ma’noda yurtning boshidan o‘tgan “rutubatli qish” haqida gapiradi. Xalq yukini yengillatish uchun o‘zini hech narsa qilolmagan bir kas hisoblasa-da, she’rlari haqida bunday yozadi:

Tavof ham qilmadim gulshan makoning,

Lekin she’r bahosi muxlislarga tan .

Bir shoirning asl ishi qalamidan to‘kilgan dardlar ila darddoshlik qilishdir. She’r uning haqiqati, she’r uning mardligi nishoni, she’r uning jangidir.

Ayrilsa, ayrilgay tog‘lar qoridan,
 Ayrilgay behimmat boy ham boridan,
 Vafosiz ayrilgay do‘st-u yoridan,
 Shoир xalqi ash’oridan ayrilmash .

Shoirning quroli shu she’ridir. Shoир “Mening ham qonimda qilich zangi bor” degandi “Armaniston” she’rida. Bu bir tomondan Vatan uchun qayg‘urish bo‘lsa, ikkinchi anglamda, shoир qanday bo‘lishi kerak? degan savolga javob bo‘ladi. Shoир Vatanning himoyasiga qalami bilan chiqadi. “Temur tig‘i yetmagan joyni, qalam bilan oldi Alisher”, - misralari tom ma’noda Abdulla Oripovning shoirlilik haqiqati.

Xalqqa jon kuydirish masalasida gap ketar ekan, shoirlarning maslagi shu bo‘ladi, dedik. Bu borada Erkin Vohidov va Abdulla Oripov fikrdosh. Umuman ijodkor zoti haqida Abdulla Oripov shunday deydi: “Uzoq yillik ijodiy tajribamdan xulosam shuki, ijodkor iste’dod darajasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar iloji boricha o‘zini yolg‘on yashiqdan olib qochsin. Iloji boricha katta va kichik haqiqatlarni anglay olsin. Ya’ni, har doim ham o‘zining shaxsiy kechinmalarini butun bir xalqning kechinmalari deb e’lon qilishdan o‘zini tiysin. Aksincha, xalq dardini o‘zining shaxsiy filtiridan o‘tkaza bilsin. O‘zining shaxsiy dardini xalqni deb emas, balki xalqning dardini o‘ziniki deb bilsin”.

Shoirlarga xalq dardini his qilish, el izardrobini o‘z jonidan o‘tkazib tuyish azaliy qadardir. Millatning so‘zlar tili bo‘lgan shoир zimmasida insoniyat dardini kuylashdek mashaqqat va burch bor. Dunyoga kelishining ham asl sababini shoirlilik vazifasi deya anglaydi:

Hech kim “bas” demaydi boylikka to‘yib,
 Yo’qsil ham chidaydi, yonmaydi kuyib.
 Bir juft she’r aytishni bo‘ynimga qo’yib,
 Olamda yo’q edim, O’zi bor qildi.

Xullas, Abdulla Oripovni shoир qilgan ham ana shu dardlar va zavqlar hisoblanadi. Abdulla Oripovning baxti ham, shoirlilik mahorati ham shundadir.

Adabiyotlar:

1. Абу Наср Фаробий. Шеър санъати. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 186 б.
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. I том. – Т.: Фан, 1978. – 416 б.
3. Адабиёт назарияси. Икки томлик. II том. – Т.: Фан, 1978. – 416 б.
4. Аристотель. Поэтика (Поэзия санъати хақида). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 152 б.
5. Abdulla Oripov. Bedorlik. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1999. – B.22
6. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar (1-jild). – Т.: “G`afur G`ulom” nashriyoti. 2000. – B.12
7. Abdulla Oripov. Ehtiyoj farzandi. www.ziyouz.com
8. Abdulhakimova O. Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlarining adabiy-tarixiy asoslari // “Til va adabiyot” jurnali, 2015, 3-son
9. Zamon, Shoир va G`azal (Abdulla Oripov bilan suhbat). “Sharq yulduzi” jurnali, 2015-yil, 1-son
10. Nurboy Jabborov. Zamon. Mezon. She’riyat. –Т.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi., 2015. – B.30
- 11.Rauf Parfi. Saylanma. Sakina .-T.:”Muharrir”nashriyoti,2013.B.103
- 12.Ibrohim Haqqul. Abdulla Oripov she’riyatida malomatiylik motivlari. “O’zbek tili va adabiyoti”jurnali.2019-yil, 3-son.
- 13.”Abdulla Oripov ijodining ilmiy-ma’rifiy ahamiyati “mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiysi materiallari.-T.:2020-yil
- 14.Qozoqboy Yo’ldosh. Milliy ruh suvratlari. ”Abdulla Oripov ijodining ilmiy-ma’rifiy ahamiyati “mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiysi materiallari.-T.:2020.B.13

KORPUS TUSHUNCHASI VA KORPUS LINGVISTIKASI HAQIDA

Saydamatova Dilafro 'z Xamidullo qizi,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
<https://orcid.org/0009-0006-8691-7240>

Annotatsiya. Mazkur maqola korpus tushunchasi va korpus lingvistikasi haqida qisqacha ma'lumotlar berishga bag'ishlangan. Tadqiqotda dastlab, "korpus" atamasining yuzaga kelishi uning lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tilgan. Korpus lingvistikasi tillarning tabiatini, tuzilishi va qo'llanilishini tavsiflovchi dalil manbai sifatida og'zaki va yozma matnlari to'plamini jamlash va tahsil qilishni o'z ichiga olishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, maqolada asosiy e'tibor nofilologik yo'naliishlarda sohaviy leksik kompetensiyani rivojlantirishning korpus texnologiyasini takomillashtirish masalalriga ham qaratilgan.

Kalit so'zlar: korpus, korpus lingvistikasi, xorijiy tillar, tilshunoslik, lingvistik obyektlar, nofilologik yo'naliishlar, ingliz tili, korpus texnologiyasini takomillashtirish.

О ПОНЯТИИ КОРПУСА И КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Сайдаматова Дилафруз Хамидулло кизи
Докторант Наманганского государственного университета

Аннотация. Данная статья посвящена предоставлению кратких сведений о понятии корпуса и корпусной лингвистики. Первоначально в исследовании появление термина «корпус» было ориентировано на его словарное значение. Утверждается, что корпусная лингвистика предполагает сбор и анализ коллекций устных и письменных текстов как источника данных, описывающих природу, структуру и использование языков. Кроме того, основное внимание в статье уделяется совершенствованию корпусной технологии развития лексической компетенции в нефилологических областях.

Ключевые слова: корпус, корпусная лингвистика, иностранные языки, языкознание, лингвистические объекты, нефилологические направления, английский язык, совершенствование корпусной технологии.

ABOUT THE CONCEPT OF CORPS AND CORPUS LINGUISTICS

Saydamatova Dilafruz,
Doctoral student at Namangan State University

Abstract. This article is dedicated to providing brief information about the concept of corpus and corpus linguistics. At first, in the study, the emergence of the term «corpus» was focused on its dictionary meaning. It is stated that corpus linguistics involves the collection and analysis of collections of spoken and written texts as a source of evidence describing the nature, structure, and use of languages. In addition, the main focus of the article is on improving the corpus technology for the development of lexical competence in non-philological fields.

Key words: corpus, corpus linguistics, foreign languages, linguistics, linguistic objects, non-philological directions, English language, improvement of corpus technology.

Kirish. Jahonda mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi integratsiyalashuvi, hususan oliv ta'lif sohasida Baloniya jarayoniga qo'shilishi natijasida chet tillarni halqaro mezonlarda belgilangan malaka talablariga muvofiq o'qitish metod va texnologiyalarini takomillashtirish muoammosi dolzarblashmoqda. Xalqaro mexnat bozorida mutaxassislarning raqobatbardoshligi nafaqat ularning mutahassislik kompetentsiyasiga balki ingliz tilidan kommunikativ kompetentsiyasiga egaligi bilan ham baxolanayotganligi sababli ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitish, ingliz tilini muayyan maqsadlarda o'qitish va ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o'qitish metodikalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bo'lg'usi mutahassislarni taaluqli fan sohalaridagi so'ngi yutuqlar bilan o'z vaqtida tanishib borishlari va turli tillarda so'zlashuvchi ayni kasb egalarining o'zaro fikr almashishlari uchun vositachi til sifatida ingliz tilining ahamiyati oshib bormoqda.

Nofilologik yo'naliish talabalariga ingliz tili o'qitish metodikasi Buyuk Britaniyaning Bermingam,

Oksford, Kembrij, Norvich, Nayl universitetlari, Kanadaning Toronto universiteti, Amerika Qo'shma Shtatlarining Arizona, Baylor, Bruklin, DePaul, Kaliforniya, Chikago universitetlari, Rossiya federatsiyasining Sankt Peterburg universiteti, Kareliya davlat pedagogika universiteti, Bunin nomidagi Yelets davlat universiteti, Orlov davlat universitetlarida olib borilgan tadqiqotlarda ilmiy asoslanmoqda.

Dunyo miqyosida talabalarni ijodkorlikka yo'naltiruvchi produktiv va izlanuvchan yondashuvlarni takomillashtirish orqali shaxs yetukligini ta'minlash jarayonini jadallashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan va muammoli ta'lim texnologiyalari hamda SMART texnologiyalar asosida nofilolgik ta'lim (tarix) yo'nalishi talabalarining tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishning innovatsion shakllari va interfaol usullarini joriy etish masalalari hamon dolzarb bo'lib kelmoqda. Shuningdek, bo'lajak soha mutaxassislarining xorijiy tillarda erkin muloqot yuritishida nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahan tajribasida dunyo mamlakatlaridan Britaniya ta'lim tizimida xorijiy tillarni SMART texnologiyalar bilan integratsiyasi SLE (smart learning environment), kompyuter bilan integratsiyasi CALL (Computer Assisted Language Learning), Amerikada (Web-Based Inquiry Learning), texnologiya integratsiyasi ICT (Technology in the classroom), ingliz tilini ommaviy axborot vositalari orqali o'rganish (English-medium instruction), sohaga oid matnlar yordamida tilni integrasiyalab o'rganish CLIL (Content and Language Integrated Learning), tilni mashq va topshiriqlar asosida o'rganish (Task-based language learning), loyiha asosida o'qitish (Project-based learning) kabi ta'lim shakllarini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari ustuvor xususiyatga ega bo'lib, mazkur tajribalarni puxta o'rganish va amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq.

Yurtimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, chet tillarni interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari yordamida o'qitish, ta'lim jarayonida talabalarining ijodiy-tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion usul va vositalarni amaliyotga tadbiq etish masalasi ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. "Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish lozimlig'i" kabi vazifalar belgilangan.

Adabiyotlartahlili va metodologiya. Mamlakatimizda chet til o'qitish metodikasi vakorpus lingvistikasi J.J.Jalolov, G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, G.T.Maxkamova, D.Djumanova, D.Xashimova, M.Iriskulov, S.A.Misirovlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilingan. Nofilologik yo'nalishlarda tillarni o'qitish muammolari F.Sh.Alimov, T.K. Sattarov, G.A. Asilova, G.N. Irmuhamedova, I.N.Ilxonovalar tomonidan o'rganilgan. Dars jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy qilish masalalari o'zbek pedagogikasida N.Azizxo'jaeva, Z.K.Ismailov, R.S.Musayev, A.A.Shoyusupova, N.A.Muslimov, Z.T.Rahimov, A.A.Xojayev, H.SH.Qodirov, O'.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva, xorijda M.Altun, W.L.Bedwell, E.Salas, S.Smith, Y.T.Sung, CH.Kuo-En, L.Tzu-Chien, K.Uluc, rus pedagogikasida I.Baydenko, T.L.Gerasimenko, A.A.Gin, N.G.Moloshonok, V.V.Serikov, V.P.Tixomirov, A.V.Xutorskiy, A.N.Shukin, kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida ingliz tilini muloqot va mutaxassislik kompetensiyasini shakillantirish vositasi sifatida o'qitish muammolari I. V. Zaytsyeva (Зайцева И.В., 2004), O.Yu.Ivanova (Иванова О.Ю., 2005) N.A.Gazova (Газова Н.А., 2007), O.N.Fedorova (Федорова О.Н., 2007), V.V.Tarasenko (Тарасенко В.В., 2008), T.M.Tatarina (Татарина Т.М., 2009) I. V. Nuja (Нужа И.Б. 2010), T.B.Vepreva (Вепрева Т.Б., 2012), Gryaznova M.A. (Грязнова М.А., 2012) lar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda chet tillarni turli yo'nalish talabalariga o'qitish muammolari D.M.Isroilova (Nofilologik ta'lim yonalishlarida kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini fanlararo bog'liqlikda o'qitish metodikasi), N.H.Kushiyeva (Talabalarga ingliz tili o'qitishda klasterli yondashuv xususiyatlari (qishloq xojaligi ta'lim yo'nalishlari misolida)), H.F.Maqsudova (Farmasevtika yo'nalishida ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarining kasbiy layoqatlarini rivojlantirish), F.S.Artikova (Huquqshunoslik yo'nalishi talabalariga ingliz tili sohaviy leksikasini o'qitish metodikasi), G.O.Yaxshiboeva (Farmatsevtikaga oid terminlarni o'rgatishda o'qish va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari (ingliz tili misolida)" va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot jarayonida muammoga doir psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil etish, ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik kuzatuv, pedagogik eksperiment, modellashtirish, loyihalashtirilgan metodikalar, suhbat, intervju, matematik-statistik tahlil etish va

natijalarni umumlashtirish va grafik tasvirlash kabi usullaridan foydalanildi.

Muhokama. Mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilangan: birinchidan, ushbu masala yuzasidan hozirgacha nufuzli ilmiy-pedagogik tadqiqot olib borilgan emas; ikkinchidan, umumiyo'rta ta'lif makteblari boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilida og'zaki nutqni (tinglab tushunish va gapirish) o'rgatish bilan bog'liq nimani, qachon va qanday o'qitish masalasi, shuningdek chet til ta'limining texnologiya, vosita, usul, yondashuv, va metodlari ta'rif-tavsif etilmagan; uchinchidan, gapirish nutq faoliyat turining umumiyo'rta ta'lif maqomidagi xususiyati metodik nuqtai-nazardan yoritilmagan; to'rtinchidan, umumiyo'rta ta'lif makteblari boshlang'ich sinflarida chet tilda muloqot qilishni o'rgatishda leksika, fonetika va grammatikaning mavqeい aniqlanmagan; beshinchidan O'zbekiston sharoitida ya'ni ingliz tili tabiiy muhiti mavjud bo'lмагan vaziyatda, umumiyo'rta ta'lif makteb sharoitida o'quvchilarining psixofiziologik-tipologik jihatlari, aqliy faoliyat yuritish qobilyatlari, hayot va til tajribalari va o'qishga bo'lgan munosabatlari bilan til o'rganish/o'rgatish jarayoniga o'ziga xos yondashuvni talab etilishi maxsus tadqiq etilmagan; oltinchidan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida muloqot ko'nikmalarini (communicative competence) shakllantirishda jismoniy harakatli kommunikativ o'yinlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati borasida tadqiqot ishlari bajarilmagan; yettinchidan bolalarda ona tilida nutq shakllanishining asosiy omillari va davrlari ularning chet tilni o'zlashtirishlari bilan qiyosiy tadqiq etilmagan.

Shu o'rinda korpus tushunchasi haqida, korpus katta hajmli va tizimga solingan matnlar to'plamidan iborat til manbasi hisoblanadi. Korpus tilshunosligida ular ma'lum bir til doirasida yoki tilning ma'lum bo'limida statistik tahlillarni amalga oshirish, qarashlarni, tildagi hodisalar yoki nazariy qoidalarni tekshirish uchun foydalaniladi. Korpus bir til yoki bir necha tildagi matnli ma'lumotlardan iborat bo'lishi mumkin. Korpus deganda, odatda, matnli korpus tushunchasi anglanadi, lekin hozirgi kunda korpuslar faqatgina matnlardan iborat bo'lmay qoldi. Shuning uchun korpus so'zi o'rniga matnli korpus tushunchasini ishlatamiz. Tilga oid tadqiqotlarni olib borishni yanada samaraliroq qilish uchun korpuslar annotatsiyalanadi [1, 2]. Masalan, korpusni annotatsiyalashning bir turi bu so'zlarni teglash hisoblanadi (POS-tagging). Bunda so'zning turkumi va shu turkum kategoriyalari asosida teglab chiqish tushuniladi. Ya'ni kitoblarga so'zi quyidagi ma'lumotlarni tashiydi: ot, ko'plik, jo'naliш kelishigi. Ayni mana shu ma'lumotlar teglar orqali so'zga biriktirib chiqiladi. Annotatsiyalashning yana bir ko'rinishi o'zaklash (lemmatizatsiya) bo'lib, u so'zning tayanch shaklini ko'rsatib berish hisoblanadi. Masalan, kitoblar, kitobning, kitobga so'zi uchta shaklda turibdi lekin ularning asosi bir xil – kitob. Ana shu lemmatizatsiya (o'zaklash) deb ataladi. Bu yerda asos hamda o'zak tushunchalarini adashtirib yubormaslik kerak. Masalan, bostirma so'zi bostir+ma shaklida yasalagan, lekin uni o'zaklashda bostir so'zini lemma deb qaray olmaymiz, bostirma yagona so'z hisoblanadi. Agar, bostirmada, bostirmaga, bostirmaning so'zlarini o'zaklash kerak bo'lsa unda bostirma so'zini olishimiz to'g'ri bo'ladi. Sodda qilib aytganda, lemma so'zning shakl yasovchi qo'shimchalari tushirib qoldirildigan qismi hisoblanadi. Sodda qilib aytganda, korpus tilshunoslikning istalgan sohasida tadqiqotlarni olib borishning sifatli va samarali bo'lishiga yordam beradi.

Korpus lingvistikasi tillarning tabiatini, tuzilishi va qo'llanilishini tavsiflovchi dalil manbai sifatida og'zaki va yozma matnlar to'plamini jamlash va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu ish, odatda, muayyan kontekstlarda lingvistik obyektlar yoki jarayonlar sodir bo'lish ehtimoli haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan holda tillarni tafsiflash uchun miqdoriy o'chovni olib keladi. Hozirgi korpus lingvistikasi tilning barcha darajalarini, jumladan, fonologiya, leksika, grammatika va nutqni o'rganuvchi, lingvistik tafsiflash uchun empirik asos sifatida matnlardan foydalanishning uzoq an'analardan kelib chiqdi. Korpus lingvistikasi ma'lum bir so'zлarni saqlashga moyil bo'lgan kompaniyaga va til foydalanuvchilari o'zlarini odatda ifodalash usullariga e'tibor qaratgan holda, tillarning turli tarixiy, mintaqaviy va sotsiolingvistik kontekstlarda, janrlarda va registrlarda tizimli ravishda o'zgarishiga yangi yoritib berdi. Tillarning ehtimollik tafsiflari tilshunoslar tomonidan qo'llaniladigan boshqa metodologiyalarni to'ldirishi mumkin va lingvistik tafsifdan tashqari, bir qator sohalarda ishslash uchun ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bularga tabiiy tilni qayta ishslash, til ta'limi va kognitiv lingvistika kiradi [3].

Korpus tilshunosligi atamasi umuman korpusga asoslangan lingvistik tadqiqotlarni anglatadi. Arxetip korpus ishi zamonaviy raqamli davrdan ancha oldin mavjud bo'lgan. Hozirgi vaqtida korpus tilshunosligida hisoblash va statistik vositalardan foydalanish hal qiluvchi rol o'ynasa-da, korpus lingvistikasida ikkita muhim element – tilshunoslik masalalarini o'rganish va korpuslardan foydalanish ekanligini ta'kidlash muhimdir.

Birinchi zamonaviy korpus 1960-yillarda Braun universitetida tuzilgan hozirgi Amerika ingliz tilining Braun universiteti standart korpusi (“Jigarrang korpus”; Frencis va Kučera, 1979; Kučera va Frencis, 1967). Muvozanatlari, turli xil manbalardan to‘plangan taxminan bir million so‘zli matn bilan Jigarrang korpus korpus hajmi va korpus dizayni nuqtai nazaridan yutuq bo‘ldi. Ammo keyingi yillarda korpus hajmining standarti tez sur’atlar bilan o‘sdi. Korpus tilshunosligi nisbatan qisqaroq tarixga ega, chunki u mavjud deb hisoblanadi kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan paydo bo‘ldi.

Amerika Milliy Korpusi (AMK) – 1990 yildan beri ishlab chiqarilgan 22 million so‘z yozma va og‘zaki ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan amerikacha ingliz tilidagi matn korpusidir. Hozirda AMK bir qator janrlarni o‘z ichiga oladi, jumladan elektron pochta, tvitlar va veb-ma’lumotlar. Britaniya Milliy Korpusi kabi oldingi korpuslarga kiritilmagan. U nutq va lemma, sayoz tahlil va nomli shaxslar uchun izohlanadi.

Britaniya Milliy Korpusi (BMK) – bu XX asrning keyingi qismidagi Britaniya ingliz tilining yozma va og‘zaki tilining 100 million so‘zdan iborat to‘plami. Britaniya Milliy Korpusi kattaroq yozma qismdan (90%, masalan, gazetalar, akademik kitoblar, xatlar, insholar va boshqalar) va kichikroq og‘zaki qismdan (qolgan 10%, masalan, norasmiy suhbatlar, radio ko‘rsatuvlar va boshqalar) iborat. Og‘zaki qism audio formatda ham mavjud.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida chet tillarni kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitishga masul kafedralar doimiy duch keladigan bir qator muammolar to‘sqinlik qilmoqda. Ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat: OTMlarning fakultetlararo chet til kafedralari va mutaxassis tayyorlovchi kafedralari o‘rtasida fanlararo muvofiqlashtirish yo‘qligi sababli tilga oid bo‘limgan oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun ular egallagan mutaxassislik malaka talablariga muvofiq chet tilini o‘rgatish masalalari ishlab chiqilmagan; Talabalarning chet til bo‘yicha egallagan kommunikativ kompetensiyalarini mutahassislik sohasidagi amaliy muammolarni hal qilish uchun ishlata olmasliklari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abjalova M. Tahlil va tahrir qiluvchi dasturning lingvistik modullari: Monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b.
2. Xamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Monografiya. – Globe edit, 2020. – 260 b.
3. Козлова Н.В. Лингвистические корпуса: определение основных понятий и типология / Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2013. Том 11, Выпуск 1. – С. 79-88.
4. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. – Иркутск: ИГЛУ, 2013. – 161 с.
5. http://en.wikipedia.org/wiki/Korpusnaya_lingvistika
6. <https://myfilology.ru>

THE USAGE OF PARALINGUISTIC MEANS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Toshtemirova Adiba Salohiddin qizi

Teacher of The Department of Practical English and Literature

Faculty of foreign philology National University of Uzbekistan

Annotation. The paralinguistic tools used during communication are directly important in reflecting the unique aspects of each nation, culture, etc. In this article, the scope of the use of paralinguistic tools in English and Uzbek languages was studied.

Key words: literature replicas, confirmation, negation, tone of voice, gestures, mannerism

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA PARALINGVISTIK VOSITALARNING QO'LLANISHI

Toshtemirova Adiba Salohiddin qizi

O'zbekiston Milliy universiteti xorijiy filologiya fakulteti Amaliy ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Har bir millatning o'ziga xos jihatlarini, madaniyati kabilarni aks ettirishda muloqotlari mobaynida ishlataligani paralingvistik vositalar ham bevosita muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada paralingvistik vositalarning ingliz va o'zbek tillarida qo'llanish ko'lami tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: adabiy replikalar, tasdiqlash, inkor etish, ovoz toni, imo-ishoralar, manera

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Тоштемирова Адiba Салоҳиддин кызы

Преподаватель кафедры практического английского языка и литературы Факультета иностранной филологии Национального университета Узбекистана


Абстракт. Паралингвистические средства, используемые при общении, имеют непосредственное значение для отражения уникальных особенностей каждого народа, культуры и т.д. В данной статье изучена сфера использования паралингвистических средств в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: литературные реплики, подтверждение, отрицание, тон голоса, жесты, манерность.

Introduction. It is as large, complicated, and articulated as language. Hence comes the difficulty to categorize the main components of this system. For the sake of clarity, a tentative classification of the major components of nonverbal communication is presented in the following figure. It is adapted from Steven Darn's classification . The world is a giddy montage of vivid gestures – traffic police, street vendors expressway drivers, teachers, children on play grounds, athletes, with their exuberant hugging and clenched fists, and high fives. People all over the world use their hands, heads, and bodies to communicate expressively.[1.2]


Research methodology. In literature replicas express greetings, thankfulness, questionare, answer, agreement, confirmation, negation, wonder, astonishment and other feelings by using of gesture, mine, movements of body and tone.

Figure1. Question 1: How important is body language (gestures, movement, mannerisms) and tone of voice during the communication?




It is understandable from the bar chart that 70 percent of students consider non-verbal communication as important, and 20 percent deem as very important. None of the students says unimportant to the use of body language in lesson procedures. However, 5 percent claims that the nonverbal messages as not so important. In the opposite, the same percentage of the respondents believes that it is critical for the students to use this language.

Figure2. Question 2: How important is body language (gestures, movement, mannerisms) in relation to communication?



It is crystal clear that 80 percent of the learners consider the body language as important while speaking with people. The others also mark this question as very important (10%) and even critical (10%).

Figure2. Question 2: How important is body language (gestures, movement, mannerisms) in relation to communication?



Surprisingly, 5 percent of the respondents do not consider that they need to be aware of their body language, and 10 percent of them consider it as slightly important. Other percentage belongs to the ones who marked this statement as important (55%), very important (20%) and critical 10% Gestures Meaning in English and Uzbek

The joining of the thumb and forefinger in a circle

(i.e. The «OK» sign) All is well or perfect

Thumbs-up Approval

Thumbs-down Disapproval

The slapping of the raised right hand with the open palm of another person's right hand

(i.e. The High Five) Approval and acceptance of a deed or incident

Crossing one's fingers Protection from bad luck or from the penalties associated with lying

Shrugging one's shoulders(I don't know)

Feeling incapable or uncertain of responding positively to a given situation

Winking Showing an appreciation of an attractive person or as an invitation to share the company of the person at whom it is being directed

Sticking out one's tongue Mockery or rejection

Shaking hands Friendship and acceptance

There are several well-known facts about human non-verbal communication. Those who are acquainted in another people's emotions usually have the most extended differentiation ability for details in non-verbal communication and belong to the most popular persons in society. They are very sensitive. Another important thing is smile, that affects behaviour of the addressee since it activates feed-back. Percentage of probability from that we are able to recognize basic emotions out of face zones: in 79% is it enough to see eyebrows and forehead to identify surprise; in 67% is it enough to see only eyes to recognize fear and sadness; in 98% is it enough to see inferior part of

face to recognize happiness. Moreover, when we take a look at another person, we look in his/her face, 75% of that time do we look at the triangle between eyes and mouth, 10% at forehead and hair, in 5% we notice his/her chin and only last 10% of time belong to remaining parts of body. When men meets another person, he usually comes closer than women. Furthermore, it does not matter whether the other person is a man or a woman. Another important fact is that repertoire of gestures differs in various cultures.

Through nine basic signals we can read in people's faces . Human face – both by children and by adults consists of 25 various muscles that creat expression of our feelings and mood. Scientist identified by using high-speed film, reading the activity of brain and another methods specific gestures, expressions, sounds, that are connected with every singal. Studies of babies prove, that babies take a look at human face more than at any different impulses. The part, they concentrate the most on are eyes and mouth. Babies do subconsciously look for these signals. There are still discussions about this topic but there are nine basic signals we can read in face.

Interest – is expressed by lifted eyebrows, concentrated look and listening; mouth might be lightly opened • Pleasure – it creates

smile, lips are extended in side-direction or downwards Surprise – it is connected with lifted eyebrows, eyes are widely opened, blinking, mouth opened in a spae of letter "O"

• Unrest – eyebrows lifted in curved shape, crying, corners of mouth downwards, tears and rytmic sobbing Anger – expressed by scowl, eyes narrowed, mandibles clenched and the face turns red

• Abashment – drooped eyelids

• Satiety – children curl lips, stick out their tongues

Aversion against smell – upper lip and nose goes up and a had turns away. [2.29]

Most of basic gestures look rather similar in the entire world. If people are happy, they smile, if they are sad or angry, they scowl, if they shake heads it nearly always means agreement and confirmation. It is supposed to be inborn gesture, since even blind and deaf people use it. If we shake our heads from one side to another it expresses disagreement and it is valid in almost any country as well. It is supposed to be learned at the very beginning of our childhood. If a child is fed up with breast milk, it turns its head aside and refuses mother's breast. If a child does not want to be fed any more, it begins to move its head from one side to another to stop mother's attempts to put another bolus in its mouth. This is how the child learns quickly that by turning of head he/she can express disagreement and refusal.

Furthermore, shrug is a great example of generally valid gesture symbolizing that a person does not know, what is being spoken about, or he/she does not understand it. Although it seems to be very easy, it is rather complicated gesture that consists of three parts: wide-open palms shrugged shoulders and lifted eyebrows.

In Great Britain the thumb up carries three basic meanings. First it is used by hitchhikers, second as a symbol that everything goes well, third, if it is lifted fast, it is insulting gesture symbolizing or "go to hell". In much of the world today, the thumbs up means, «O.K.», «Right On».

Handshake's origin comes from the times when people lived in caves. When two cavemen met, they lifted their hands shown palms in order to prove that they did not hold any weapon. Gesture of lifted hand has changed during the centuries and it it is the origin for many similar gestures, such as lifted hands as a greeting, palm put at the heart (in Uzbekistan). Today's form of old-fashioned ritual is handshake. In most of English speaking countries is it used both as a greeting and as a farewell. [3.60]

Dominant x submissive handshake: Assuming that we meet certain person for the first time and we want to make most-common greeting, we will shake our hands. By this handshake we can express one of three basic attitudes. First of them is dominance : " I can gain control of this person,

he/she will do what I want". Second attitude is submission: "This person tries to gain control of me, he/she wants me to listen to his/her commands". The third attitude is equality: "I like this person, we will get on well with each other".

All attitudes mentioned above are expressed unwittingly. The way of handshake influences the result of our meeting immediately. Dominance will be expressed by turning palm of our hand downwards. Palm does not have to be orientated plumb towards the floor, but in comparison with palm of the person we shake hand with it is orientated downwards. This is the way we suggest that we are going to gain control of situation. Submission, on the contrary, will be expressed by turning palm of our hand upwards. It is a good way how to suggest to another person that he/she is the leader and we do agree with his/her gaining of control. This gesture is in fact rather similar to the way the dogs express their submission, when they lie down on back and show their larynx. [4.31]

In Uzbek culture chewing gum, yawning, scratching, having loud conversations, and resting feet on furniture are all considered rude. Clasp your hands together and raise them above your head to show appreciation. Moving your hand back and forth means no. In England such gestures are more common.

1. To signal a waiter for the bill, make a

motion with both hands of signing your name on a paper. Privacy is very important; do not stare. Tipping at bars is rare

2. Loud behavior is considered rude. The victory sign with your palm facing in is considered vulgar.

3. Never cut in line.

Among friends, women are often kissed (by men and women) lightly on one cheek. Handshakes are firm. The use of first names is widespread. Titles such as "Mr" and "Mrs" are being used less frequently, even when children address adults. The English are in general a reserved people, who do not approve of loud or highly demonstrative behaviour (except in very informal gatherings). Touching is generally avoided. Manners are important, although standards are not as high among young people, who account for nearly one-fifth of the population.

REFERENCES

1. Andersen P.A. Nonverbal communication: Forms and functions. -Mountain View., CA, Mayfield Publishing Co, 1999
2. Holinger, Paul C., Donerová, Kalia. Co říkají děti, než se naučí mluvit. Praha: Triton, 2003.p.29
3. Thiel, E. Řeč lidského těla prozradí víc než tisíc slov. Bratislava: Plasma Service, 1993.p.60
4. Pease, Allan. Body Language. London: Sheldon Press, 1997.p.31

PARAFRAZALAR LINGVISTIKANING TEKSHIRISH OBYEKTI SIFATIDA

Umirov Ixtiyor Ergshevich

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti Umumiy tilshunoslik kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Parafrazalar og'zaki va yozma nutqimizda badiiy obrazlilik vositalaridan biri sifatida faol qo'llaniladi, ular tilning boyligini, semantik imkoniyatlari kengligini ko'rsatuvchi omillardan biridir. Jahon tilshunosligida parafrazalar yuzasidan mulohazalar bilan bir qatorda ixcham ta'rif berilgan, parafrazalarning badiiy tasvir vositalari doirasida o'ziga xos xususiyatlari borligi va ularni alohida o'rganish zarurligi qayd etilgan bir nechta maqolalar mavjud. Binobarin, bu obrazli iborani ilmiy-nazariy nuqtai nazardan alohida tadqiq etish, mohiyatini ochib berish bugungi umumiy tilshunoslik, ayniqsa, stilistika fanining hal etilishi kerak bo'lgan masalalardan biridir. Maqolada tilning tasviriy vositalaridan biri parafrazalarning nomlanishi tadqiq etilgan bo'lib, ularning jahon tilshunosligidagi mavqeい aniqlangan. Shuningdek, parafrazalarning ingliz va o'zbek tillaridagi o'rganilganlik darajasi ham mumkin qadar aniqlandi. Parafrazalar asosan predmetlarga nisbatan qo'llanilib, ularning belgi-xususiyatlarini belgilashda eng muhim omil ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: parafraza, kontekst, tilshunoslik, perifraza, semantika, trop, frazeologiya, turg'un birikmalar.

PARAPHRASES AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH

Umirov Ikhtiyor Ergshevich,

Associate Professor of the General Linguistics Department of the State University of World Languages of Uzbekistan

Abstract: Paraphrases are actively used in our oral and written speech as one of the tools of artistic imagery, they are one of the factors that show the richness of the language and the breadth of its semantic possibilities. In world linguistics, there are several articles that provide a concise definition along with comments on paraphrases, and note that paraphrases have their own characteristics within the framework of artistic image tools and the need to study them separately. Consequently, researching this figurative expression from a scientific-theoretical point of view, revealing its essence is one of the issues that must be solved in today's general linguistics, especially in the science of stylistics. The article deals with the naming of paraphrases, one of the descriptive tools of the language, and their position in world linguistics. Also, the degree of learning of paraphrases in English and Uzbek languages was determined as much as possible. Paraphrases are mainly used in relation to subjects, and it was found to be the most important factor in determining their characteristics.

Key words: paraphrase, context, linguistics, periphrasis, semantics, trope, phraseology, fixed combinations.

ПАРАФРАЗЫ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ

Умиров Ихтиёр Эргшевич

Доцент кафедры общего языкознания Государственного университета мировых языков Узбекистана

Аннотация: Парапрафзы активно используются в нашей устной и письменной речи как одно из средств художественной образности, они являются одним из факторов, показывающих богатство языка и широту его смысловых возможностей. В мировой лингвистике есть несколько статей, дающих краткое определение наряду с комментариями к парапрафзам, и отмечают, что парапрафзы имеют свои особенности в рамках средств художественного образа и необходимость их отдельного изучения. Следовательно, исследование этого образного выражения с научно-теоретической точки зрения, раскрытие его сущности является одной из задач, которые необходимо решить в современном общем языкознании, особенно в науке стилистике. В статье рассматривается именование парапрафраз, одного из описательных средств языка, и их место в мировой лингвистике. Также максимально определялась степень усвоения пересказов на английском и узбекском языках. Парапрафзы в основном используются по отношению к субъектам,

и это оказалось наиболее важным фактором в определении их характеристик.

Ключевые слова: парадраз, контекст, лингвистика, перифраз, семантика, троп, фразеология, устойчивые сочетания.

KIRISH. Barcha tillarning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi vositalardan biri frazeologik birliklardir. Frazeologiya har bir tilning muhim qatlami hisoblanib, uning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko'zga tashlanishida muhim rol o'yndaydi. Frazeologizmlarning tilda qanchalik ko'p bo'lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar (maqol, matal, tasviriy ifodalar va idiomalar) xalqning o'tmishi, tarixi, an'analari, urf-odati, va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga, frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo'ladi, ular chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida ko'rak va ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Frazeologizmlar - bu hozirgi zamon frazeologik sistemasining asosiy birligi bo'lib, tildagi mavjud so'z birikmalarining umumiylisini hisobidan juda qiyinchilik bilan farqlanadigan ko'p aspektli nutq hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologizmlarning lingvistik mohiyati masalasi hanuzgacha munozaraligicha qolmoqda [1,30] Sh. Balli frazeologiyaning asosiy belgisi uning o'rnini o'sha iboraning ma'nosiga to'g'ri keladigan so'z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi, deb hisoblasa [1], B. A. Larin esa uning asosiy belgisi frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi alohida so'zlarning ma'nosidan o'sha birliklar umumiylisini ma'nosining kelib chiqmasligidadir, deb hisoblaydi [4,102].

USUL-METOD

Frazaeologizmlartilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarda rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingen bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi — Frazeologiyada o'rganish masalasi 20—40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda — Ye. D. Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulakovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi.

Frazeologiya obyekti frazeologik birliklar (barqaror birikmalar) dan tashkil topadi. Frazeologik birliklar fikrni obrazli, o'tkir ma'noli va keng qamrovli tarzda ifodalaydigan til birligi hisoblanadi [7,130]. Ana shunday frazeologik birikmalardan biri tasviriy ifodalardir.

Tasviriy ifoda tushunchasiga ta'rif berishdan avval parafraza hamda tasviriy ifoda atamalarini ishlatalishi haqida so'z yuritish lozim.

A. Hojiyevning 1985-yilda nashr etilgan lug'atida perifraza «Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, tasviriy usul bilan ma'lum kontekst, situatsiyadagi xarakterli belgi-xususiyati orqali ifodalanadigan stilistik priyom» deb ta'riflangan [2, 267].

Shu muallifning 2002-yilda nashr etilgan lug'atida «Perifraza (yun. Paraphrasis- tasviriy ifoda, tasvir), Narsa, hodisani o'z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalashdir. Masalan, dala malikasi (makkajo'xori), zangori olov (gaz) kabi» [3, 87] izohi berilgan.

O'zbek tilshunosligida parafrazani o'quv qo'llanmalariga olib kirgan tilshunos R. Qung'urovdir. 1983- yilda nashr etilgan «O'zbek tili stilistikasi» qo'llanmasining «Troplar» qismini R.Qo'ng'urov yozgan. Unda quyidagilar bayon qilingan: «Perifraz kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to'g'ridan-to'g'ri gapirmasdan, ularni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilish parafratz deyiladi. Bu termin parafraza, parafras, parafraza deb ham yuritiladi» [8, 56].

MUHOKAMA

Parafraza, parafras (yun. periphrasis — tasviriy ibora; kinoya, istiora) — borliqdagi narsa va voqealarning nomini to'g'ridan-to'g'ri atamasdan, ularni bilvosita, ya'ni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar bilan ifodalash; majoziy ifodalardan biri (mas, «sher» o'rnida «hayvonlar shohi»; «paxta» o'rnida «oq oltin», Alisher Navoiy o'rnida «O'zbek adabiy tilining asoschisi» iboralarining qo'llanishi). Parafrazalar orqali tasvirlanayotgan tushunchanening ayni matn va vaziyat uchun eng muhim sifati, belgisi, xususiyati birinchi o'ringa qo'yiladi. Parafrazaning asosiy vazifasi matnning ifodaviyligini, bayonning ta'sirchanligini oshirishdir.

Paraphrase is a term in the field of literary theory and means: the free processing of a literary work, developing and modifying the content of the original; the preserved similarity of construction and style

allows to recognize the paraphrased song. [10] (Parafraza - bu adabiyot nazariyasi sohasidagi atama bo'lib, quyidagilarni anglatadi: adabiy asarni erkin qayta ishlash, asl nusxaning mazmunini ishlab chiqish va o'zgartirish; qurilish va uslubning saqlanib qolgan o'xshashligi parafrazlangan qo'shiqni tanib olishga imkon beradi)

Yuqoridagi manbalardan kelib chiqadiki, o'zbek tilshunosligida tasviriy ifoda, parafraza hamda parafraza atamalari bir xil ma'no anglatib, gapda bir xil vazifa bajaradi. Bu hodisaning ingliz tilida o'rganilishi quyidagicha kechadi.

Periphrasis, also called discussion include: the replacement of a word by a group of words which are descriptive or metaphorical equivalent of its meaning. Speaking in a more understandable language, we could define periphery as saying something indirectly, but in a longer way [10]. (Parafraza quyidagilarni o'z ichiga oladi: so'zni uning ma'nosini tafsiflovchi yoki metafora ekvivalenti bo'lган so'zlar birikmasiga almashtirish. Tushunarli tilda gapirsak, parafrazani biror bir narsa-hodisani bilvosita, ammo uzunroq atama bilan ifodalanishi deb tushunish mumkin).

O'zbek va ingliz tilshunosligida parafrazalarning asosiy xususiyatlari to'g'risida mukammal faktik qarashlar mavjud emas, biroq bir qancha tilshunos olimlar tomonidan parafrazalarning ma'lum bir xususiyatlari, qirralari o'rganilgan tadqiqotlar uchraydi.

Parafraza haqidagi ma'lumotni taqdim etgan o'quv qo'llanmalaridan yana biri M.Mirtojiyevning ishidir. Mazkur qo'llanmada "Parafrazalar" sarlavhasi ostida salkam ikki betlik ma'lumot berilgan. Unda "Parafrazalar ma'lum bo'lagi yoki bo'laklari ko'chma ma'noda bo'lib, ular ma'nosini sintezidan tarkib topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug'aviy birlikdir" [5, 20] degan ta'rif o'rinni oлган.

Parafrazaning darslikka olib kirilishi ham M.Mirtojiyev tomonidan amalga oshirildi [6, 95] Muallif yuqoridagi parafrazaga oid ma'lumotlarni to'lig'icha va o'zgarishsiz darslikda ham taqdim etdi.

O'zbek tilshunosligida parafrazaga bag'ishlangan ilk va jiddiy maqola H.Shamsiddinov tomonidan e'lon qilindi [9, 29-35]. Maqolada tasviriy ifodaga oid quyidagi o'zak masalalar o'rtaga tashlangan va muayyan xulosalarga kelingan:

1. Parafrazalar ta'rifi, izohi masalasi.
2. Parafrazaning frazeologizm bilan umumiyyatini va xususiy jihatlari.
3. Parafrazaning til va nutqqa munosabati.
4. Mazkur hodisani yagona atama bilan atash masalasi.
5. Parafrazaning subyektiv omil mahsuli ekanligi, lekin obyektivlikni inkor etmasligi.
6. Uning ikkilamchi yoki qayta nomlashga mansubligi.
7. Parafrazaning yuzaga kelishida umumiilik va xususiylik kabi falsafiy kategoriyalarning amal qilishi.
8. Parafrazalarning paydo bo'lishida ekstralengvistik va psixolengvistik omillar ta'siri.
9. Parafrazalarni matnda taqdim etish va ularning imlosi masalasi.

H. Shamsiddinov parafrazaning frazeologizm bilan umumiyyatini va xususiy jihatlari haqida fikr yuritilgan o'rinnarda parafrazaning predmet-hodisani qayta nomlashni, frazeologizmning esa belgini, holatni va harakatni qayta nomlashini dalillaydi hamda parafraza ham frazeologizmlar kabi til fakti sifatida tan olinishi lozimligini uqtiradi [9, 29-35].

Hakim Shamsiddinov "Perifrazaxususidaayrimmulohazalar" nomlimaqolasidarus tadqiqotchilarining parafrazaga oid ilmiy qarashlarini quyidagicha keltirib o'tgan [9]. Jumladan: mashhur uslubshunos – tilshunos Sh.Balli ushbu hodisani "Fikrning keng shaklda takrorlanishi odatdagagi terminologiyada parafraza deyiladi" [1], – tarzida ta'riflaydi.

V. P. Utkina tomonidan esa ideomatik oborot, frazeologik chatishma, barqaror birikmalar bir vaqtning o'zida perifrastik oborot ham bo'la olishi mumkinligi to'g'risidagi qarashlarini keltiradi. G. G. Molojaj tilidan esa, parafraza ostida semantik jihatdan bo'linmaydigan so'z birikmalari (kam hollarda gaplar) tushuniladi. Ular alohida predmet, belgi yoki harakatlarni tasviriy atash va ayni paytda ularning xususiyatlarini ko'rsatish uchun nutq jarayonida paydo bo'ladi deb tushuntiradi. Yana Molojaj tilidan "Frazeologizmlar – tilning tayyor birliklaridir, parafrazalar esa ma'lum sharoitda, ma'lum badiiy tasvirda, konkret aloqada vujudga keladigan tasviriy ifodalardir" – deya berilgan ta'rifini keltiradi [1, 46].

XULOSA

Xullas, tasviriy ifodalar uslubiy vosita sifatida nutqqa ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lug'at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takrorlardan,

qaytariqlardan, qochish imkonini beradi, notiqni so'zamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy ifodalar faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olg'a qadam qo'yishiga to'sqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish, ulardan kulish va ulraga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlataladi. Binobarin, tasviriy ifodalar predmet, voqealari-hodisalarining o'z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, bo'rttirib, izohlab va to'ldirib ko'rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

Foydalanimanadabiyotlar

1. Balli Sh. Fransuzkaya stilistika. M: Vishaya shkola, 1995
2. Hojiyev A. Lingvistik terminar izohli lug'ati. -T, 1985.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002
4. Larin B.A. Ocherki po frazeologiyi. L:1970.
5. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent.
6. Mirtojiyev M.M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent, 2004
7. Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. T:O'qituvchi, 1991
8. Kungurov R. O'zbek tili stilistikasi – Toshkent, 1983
9. Shamsiddinov H. Parafraza xususida ayrim mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti 1993
10. <http://frazeologiya.haqida//uz/7630/uz>.

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARIDA GENDERNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Xakimbayeva Ozoda Kalandarovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyoti 1-fakulteti
Umumiy tilshunoslik kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Tilshunoslik fan sifatida tobora rivojlanib borar ekan unda til va jins tushunchalarining o'zaro bog'liqligini o'rghanishga bo'lgan qiziqishning ortishi mazkur fanga tegishli terminologik masalalarni ko'rib chiqish ehtiyojini tug'dirdi.

Boshqa sohalarda ham keng tadbiq qilinayotgan gender terminining qo'llanilishi tilshunoslikka qanday ta'sir etishi va qanday o'zgarishlarga olib kelishi olimlar diqqatidan chetda qolmadı. Mazkur maqolada tilshunoslikning muhim qatlamlaridan biri bo'lgan paremiologik birliklar orasida gender masalalari ko'rib chiqiladi. Muallif mazkur masalani misollar yordamida yoritib berishga harakat qilgan.

Kalit so'zlar: gender, tilshunoslik, ingliz tili, o'zbek tili, ayol, erkak, paremiologik birliklar, frazeologizmlar, kognitiv tilshunoslik, gender tilshunosligi, semantika, semantik birlik.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ГЕНДЕРА В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПАРЕМИИ

Хакимбаева Озода Каландаровна

Узбекский государственный университет мировых языков, 1- факультет иностранного языка и литературы Преподаватель кафедры общего языкознания

Аннотация: По мере все большего развития лингвистики как науки возросший интерес к изучению соотношения понятий языка и пола создал необходимость рассмотрения терминологических вопросов, связанных с этой наукой.

От внимания ученых не ускользнуло то, как употребление термина «гендер», широко используемого в других областях, влияет на лингвистику и какие изменения оно вызывает. В данной статье рассматриваются гендерные вопросы среди паремиологических единиц, которые являются одним из важных пластов языкознания. Автор попыталась прояснить этот вопрос с помощью примеров.

Ключевые слова: гендер, лингвистика, английский язык, узбекский язык, женский, мужской, паремиологические единицы, фразеологизмы, когнитивная лингвистика, гендерная лингвистика, семантика, семантическая единица.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF GENDER IN THE ENGLISH AND UZBEK PAREMIA

Khakimbayeva Ozoda Kalandarovna

*Uzbekistan State University of World Languages, 1st Faculty of Foreign Language and Literature
Teacher of the Department of General Linguistics*

Annotation: As linguistics as a science develops more and more, the increased interest in studying the relationship between the concepts of language and gender has created the need to consider terminological issues related to this science.

How the use of the term gender, which is widely used in other fields, affects linguistics and what changes it causes not to have been escaped the attention of scientists. This article examines gender issues among paremiological units, which are one of the important layers of linguistics. The author tried to clarify this issue with the help of some examples.

Key words: gender, linguistics, English language, Uzbek language, female, male, paremiological units, phraseologisms, cognitive linguistics, gender linguistics, semantics, semantic unit.

Kirish. Tildagi o'ziga xos frazeologik sistemaning milliy-madaniy muammolari hozirgi vaqtida ko'plab tilshunoslarning tadqiqot obyektiga aylanganligi bejiz emas. Buni oxirgi yillari til va madaniyat muammosiga bo'lgan e'tibor va qiziqish, zamонавиј tilshunoslikning antropologik paradigmada

rivojlanishi bilan tushuntirish mumkin. Frazeologizmlarning gender, kognitiv, pragmatik xususiyatlari bir qancha tilshunos olimlar ishlarida o'z ifodasini topgan.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni qiyosiy jihatdan leksik, semantik, grammatic sathlarda tadqiq etish, ularning kognitiv, pragmatik va stilistik xususiyatlarini o'rganish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Sh. Rahmatullaev, A.E. Mamatov, B. Yo'ldoshev, P.U. Bakirov, M.K. Xoliqova, B.X. Reimov, A.R. Ismailov, G.S. Hakimova, K.D. To'xtayeva, B.M. Jo'rayeva va boshqalarning tadqiqotlari.

Yevropa tillari gender tilshunosligida ancha keng o'rganilgan. Demak, o'zbek tili frazeologizmi va maqollarida ayol va erkak konseptlari gender tadqiqotlari nuqtai nazaridan qiyosiy tadqiq etilmaganligi va ilmiy tahlilga tortilmaganligi, o'rganilganlari esa matn nuqtai nazaridan tahlil qilinmaganligi uchun ularni hozirgi zamon tilshunoslik nazariyalarini asosida kompleks holda tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tilshunoslik fanining obyekti til bo'lib, u har xil davrlarda, ya'ni tilning xususiyati, vazifalari turli nuqtai nazardan o'rganib kelgingan. Oxirgi o'n yillikda bilishning yangi metodologik yo'nalishi, ya'ni kognitiv yondashuv asosida olib borilayotgan tadqiqotlarning keng tus olishi natijasida kognitiv tilshunoslik – til haqidagi fanning eng jadal rivojlanib kelayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Kognitiv tilshunoslikning paydo bo'lishi 1970 yillarning II yarmida mavjud bo'lган amerikalik olimlar ishlari bilan bog'liq (Lakoff; Paivio; Taylor va boshq.). Ushbu sohada rus tilshunos olimlari ham muvaffaqiyatli ish olib borishmoqda va uning ayrim nazariyalarini ishlab chiqishda katta hissa qo'shib kelmoqdalar (E. Kubryakova; O. Kolosova; A. Baranov; R. Frumkina va boshq.).

Til va kognitsianing o'zaro bog'liqligiga bag'ishlangan talaygina ishlar o'zbek tilshunosligida ham yangi soha sifatida o'z o'rmini topib kelmoqda (D.U. Ashurova, Sh. Safarov, O'. Yusupov). Zero, kognitiv tilshunoslik o'zini fan sifatida oqladi.

Ma'lumki, kognitiv tilshunoslik asosan semantika bilan shug'ullanadi, shuning uchun bo'lsa kerak uni "izchil semantika" sifatida ham ta'riflashadi. Til birlklari dunyoda mavjud bo'lган predmetlar va sodir bo'ladigan harakatlarni ifodalashga xizmat qilar ekan, semantika til birliklarining real yoki tasavvurdagi olam o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bog'lab turadi. Bu munosabatlarni esa tilshunoslik semantikasi o'rganadi. Semantika tilshunoslikning bir bo'limi sifatida shaxsning so'z va grammatic qoidalar yordamida qanday qilib har xil ma'lumotni yetkazib bera olishi mumkin degan savolga javob bersa [8; 49], kognitiv tilshunoslikning diqqat markazida nafaqat "til formasi va substansiysi birligi", balki undanda muhimroq "til va inson birligi" turadi [6; 35], uning strukturaviy tilshunoslikdan farqi ham ana shunda. Shunga ko'ra, kognitiv tilshunoslik kommunikativ pragmatika va diskurs nazariyasi bilan chambarchas bog'liq.

Kognitiv ilm-fan nazariy informatsion modellarni qo'llash asosida ong va oliy idrok etish jarayonlarini o'rganuvchi fan sifatida ham ta'riflanadi [7; 264].

Kognitiv tilshunoslikning muhim xususiyatlaridan biri shuki, u tilni inson bilan, ya'ni uning ongi, bilimi, fikrlash va anglash jarayonlari bilan bog'liq holda ko'rishga imkon beradi [9; 81], unda asosiy e'tibor til formalari va har qanday til hodisalari inson bilimi va tajribasi bilan qanday bog'langanligi va ularning inson ongida qanday tasvirlanishiga qaratiladi. Shunga ko'ra, kognitiv tilshunoslik til haqidagi fan va inson psixikasi haqidagi fan bilan bo'lган o'zaro munosabatlar tarixini davom ettirmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi (A.A. Potebnya, G. Shteyntal, V. Vundt). Chunki tilshunoslik va psixologiya fanlari o'z metodologiyasiga ko'ra keskin farq qiluvchi ikki xil ijtimoiy fan bo'lishiga qaramasdan, tilning shakllanishi ma'lum psixologik mexanizmlarga tayanadi.

Kognitiv yondashuv – til voqeа-hodisalarini bilish nazariyasi yordamida izohlab berish usullaridan biri bo'lsa [10; 16-17], kognitiv tilshunoslik psixolingvistika bilan chambarchas bog'liq, deyish mumkin. Chunki "psixolingvistika fan sifatida lingvistik gipotezalarni psixologik jihatdan asoslasa (yoki boshqacha qilib aytganda psixologik metodologiyaning tilshunoslik nazariyasiga tatbiq etilishi), kognitiv tilshunoslik esa psixologik gipotezalarni lingvistik (reallagini aniqlab) asoslaysidi" [11; 7].

O'. Yusupov kognitiv tilshunoslikning vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- 1) insondagi bilimlarning paydo bo'lishida tilning rolini aniqlash;
- 2) olam va undagi narsalarni kategoriyalashtirish (tushunchalar hosil qilib, ularni turlarga bo'lish), konseptuallashtirish (konseptlar hosil qilish) va atash (nominatsiya) jarayonlarini tushunish;
- 3) konseptual sistema bilan til sistemasi o'rtasidagi munosabatni aniqlash;
- 4) olamning lisoniy va kognitiv (konseptual) tasvirlari bilan bog'liq bo'lган masalalarni yechishdir

[12; 49].

Tadqiqotimizda kognitiv tilshunoslikning yuqorida aytib o'tilgan vazifalaridan to'rtinchisi, ya'ni olamning lisoniy va kognitiv tasvirlari bilan bog'liq masalalar tilning frazeologik tizimida gender tadqiqotlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Mazkur ishda tilning frazeologik tizimida bilish nazariyasi orqali ayol va erkak tushunchalarining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aniqlar ekanmiz, gender tilshunosligining lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlash mumkin.

D. Kurtson ham gender tilshunosligini sotsiolingvistikaning bir bo'limi sifatida ta'riflaydi: "Gender linguistics, a branch of linguistics that is part of sociolinguistics ..." [5; 2].

Ayollar hamda erkaklar so'zlashuvidagi tafovut sezilganligiga ko'p vaqt bo'lган bo'lsada bu sohada tadqiqotlar hali ham davom etmoqda. Bilamizki genderlar lingvistikasi orasidagi farq nafaqat ovoz tembrlerida balki ular so'zlashuvda ko'p foydalanadigan so'zlarda ham seziladi. Gender so'zi ilmiy atama sifatida foydalanilib sotsiologiya, psixologiya, lingvistika va boshqa sohalarda erkak va ayollarning jamiyatdagi o'rni, farqini tasvirlashda ishlataladi. Jins so'zi esa ko'p hollarda biologik va fiziologik sohada qo'llaniladi. Gender lingvistikasida erkak hamda ayollarning tilidagi o'zaro bog'liq hamda bog'liq bo'lмаган turli xususiyatlar o'рганилди. Gender lingvistikasi (lingvistik genderologiya) fanlararo gender tadqiqotlarining bir qismi sifatida genderni (ijtimoiy-madaniy jins, an'anaviy konstruksiya sifatida tushuniladigan, biologik jinsdan nisbatan avtonom) o'рганувчи lingvistik konseptual foydalanadigan ilmiy yo'nalishdir.

Ko'plab mazkur sohadagi izlanishlar natijasini quyidagi maqollarda ko'rish mukmkin:

Yigitga mardlik yarashar, yigitga yig'i yarashmas.

Yigitni bir so'zlik bezar.

Elakka ketgan xotinning ellik og'iz gapi bor.

Ayolning makri qirq tuyaga yuk.

Erkakning kuchi uning aqlida.

Woman's tongue wags like lamb/s tail [13; 45].

"A silent woman is a gift from God".

"Women are necessary evils".

Keltirilgan maqollarda ayollarning so'zlashuviga xos holatlar (tilining o'tkirligi, ko'p gapirishi, muhokamaga moyilligi) tasvirlangan. Bu misollarning barchasi dunyodagi hamma ayollarga tegishli deb bo'lmaydi ko'pi stereotip sifatida shakllanib qotgan. Erkaklar haqidagi misollar ham shunday bir holatda namoyon bo'ladi. [14;89].

Xulosa. Xulosa o'rniда shuni aytish lozimki, zamonaviy ijtimoiy ilm-fan "jins" va "gender" tushunchalarini ajratadi. Jins biologik kategoriya sifatida shaxsning anatomik-fiziologik xususiyatlarini belgilaydi. Gender esa ijtimoiy-madaniy me'yorlar ta'sirida ayol va erkaklarning o'ziga xos genderini, ya'ni ularning psixologiyasi, faoliyati va jamiyat tomonidan biriktirilgan andozalarni o'zlashtirish qonuniyatları majmuidir. Shunga ko'ra, "gender" termini jinslararo farqni (biologik emas) ijtimoiy madaniy nuqtai nazardan ko'rib chiqish ehtiyojining yuzaga kelishi natijasida paydo bo'lди.

Zamonaviy gender tilshunosligi u yoki bu jins egasining nutqiy faoliyatini va tilga ta'sirini emas, balki har bir jinsning o'ziga xos genderining hosil bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun tilda mavjud vositalarni tadqiq etadi.

Shaxsning jamiyatda tutgan ijtimoiy maqomi uning nutqiy faoliyatini belgilashi mumkin va, aksincha, ayol va erkaklar ovozlarining farqlari demografik xarakter bilan birga ularning genderini (ijtimoiy maqomi, ijtimoiy roli, shuningdek, nutqiy salohiyati) ham aniqlash imkonini beradi.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, ayol va erkak orasidagi nutqiy faoliyatlar farqlarini har xil madaniyatlar farqi sifatida ko'rish lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati

- Адам & Ева: Альманах гендерной истории: Сб. науч. тр. института всеобщей истории РАН. – М.: Алетейя, 2003. – 472 с.
- Ашуррова Д.У. Коммуникативно-когнитивная теория текста // Linguistics. - Тошкент, 2010. – С. 17-24.
- Ашуррова Д.У. Стилистика и гендерная лингвистика // Филология масалалари. – Тошкент, 2007. – № 3 (16). – С. 75-79.

4. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси // Илмий мұхаррир: Ү. Абилов; рус тилидан қисқартырылған таржима: – Т., 2003. – 276 б.
5. Kurzon Dennis . Sexist and Nonsexist Language in Legal Texts: the state of the art // International Journal of the Sociology of Language. Volume 1989, Issue 80. – p.p. 99-114. (online: 30/07/2009).
6. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма // Лингвистика – психология – когнитивная наука. – М., 1994. ВЯ №4. – С. 34-37.
7. Меркулов И.П. Когнитивная наука. Новая философская энциклопедия. – М., 2001. Т.2. – 264с.
8. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Т.: Фан, 2007. – 123с.
9. Картушина Е.А. Сценарий как метод сопоставительной фразеологии / Под ред. А.А.Аминовой, С.Г.Васильева. Сопоставительная филология и полилингвизм – Казань: РИЦ «Школа», 2002. – С. 63-64.
- 10.Сафаров Ш. Когнитив тилшүнослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 90б.
- 11.Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистике и семантике термина «когнитивный». Вестник Воронеж. Гос. Унив., Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001. – С. 4-10.
- 12.Юсупов Ү.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида // Стилистика тилшүносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2011. – Б. 49-55.
- 13.Siedl J., McMordie W. English Idioms and How to Use them. – М., 1983. – 265p.
- 14.Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003. – 364p.

FRANSUZ TILIDAGI QUVONCHGA OID SO'ZLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Xamidova Nargiza Yusufovna,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasи
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola frantsuz tilida quvonchni ifodalovchi so'zlarning lingvistik xususiyatlarini o'rGANADI. Baxt bilan bog'liq bo'lgan bir qator lug'at va iboralarni tahlil qilish orqali biz quvonch lingvistik jihatdan qanday tuzilganligini va uzatilishini tushunishga harakat qilamiz. Tadqiqot shuningdek, ushbu quvonch bilan bog'liq atamalarning semantik sohalari, etimologik ildizlari, morfologik tuzilmalari va pragmatik ishlatalishini o'rGANADI. Ushbu lingvistik tahlil orqali biz frantsuz leksikoniga kiritilgan madaniy va hissiy o'lchovlar haqida tushunchaga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar: nemis tili, shodlik, leksik tahlil, semantika, madaniy ahamiyat

A LINGUISTIC ANALYSIS OF JOY WORDS IN FRENCH

Xamidova Nargiza Yusufovna,

Senior Lecturer of the Department of Translation of Romance-Germanic Languages Uzbek State University of World Languages

Abstract: This article delves into the linguistic characteristics of words expressing joy in the French language. By analyzing a range of vocabulary and expressions associated with happiness, we aim to understand how joy is linguistically constructed and conveyed. The study also explores the semantic fields, etymological roots, morphological structures, and pragmatic usage of these joy-related terms. Through this linguistic analysis, we gain insights into the cultural and emotional dimensions embedded in the French lexicon.

Keywords: French language, joy, lexical analysis, semantics, cultural significance

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЛОВ РАДОСТИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ

Хамидова Наргиза Юсуфовна,

Старший преподаватель кафедры Переводоведение романо-германских языков Узбекский государственный университет мировых языков

Абстракт: В данной статье рассматриваются лингвистические характеристики слов, выраждающих радость во французском языке. Анализируя ряд словарных запасов и выражений, связанных со счастьем, мы стремимся понять, как радость лингвистически конструируется и передается. В исследовании также исследуются семантические поля, этимологические корни, морфологические структуры и pragmaticальное использование этих терминов, связанных с радостью. Благодаря этому лингвистическому анализу мы получаем представление о культурных и эмоциональных аспектах французского лексикона.

Ключевые слова: немецкий язык, радость, лексический анализ, семантика, культурная значимость.

Kirish. Til inson his-tuyg'ularining to'liq spektrini ifodalash uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu his-tuyg'ular orasida quvonch alohida o'rIN tutadi, ko'pincha madaniyatlar va jamiyatlarda nishonlanadi va qadrlanadi. O'zining nafisligi va nozikligi bilan mashhur bo'lgan frantsuz tili quvonchni etkazish uchun ajoyib so'zlar va iboralarni taklif etadi. Ushbu tadqiqot frantsuz tilidagi ushbu quvonchli so'zlarni har tomonlama lingvistik tahlil qilish, ularning semantik boyligi, etimologik ildizlari, morfologik tuzilishi va pragmatik kontekstlarini yoritishga qaratilgan.

Frantsuz tili, ko'plab roman tillari singari, lug'atning katta qismini lotin tilidan meros qilib olgan. Ushbu tarixiy bog'lanish quvonchga oid so'zlarning asrlar davomida qanday rivojlanganligini, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarga moslashishini o'rGANISH uchun qulay zamin yaratadi. Ushbu so'zlarni o'rGANIB chiqib, biz frankofoniya dunyosida quvonchni boshdan kechirish, ifodalash va tushunish usullari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati nafaqat uning lingvistik tadqiqida, balki madaniy ta'sirida hamdir. Har qanday tildagi quvonchli so'zlar oddiy lug'atdan ko'proq; ular madaniy munosabatlari, ijtimoiy

qadriyatlar va tarixiy ta'sirlarni qamrab oladi. Frantsuz tilida «*joie de vivre*» (yashash quvonchi) kabi quvonch ifodalari hayot zavqlari va tajribalarini nishonlaydigan kengroq madaniy axloqning timsoli hisoblanadi.

Ushbu maqola frantsuz tilidagi quvonch bilan bog'liq asosiy atamalarning semantik maydonlarini xaritalash, ularning aniq ma'nolari va kontekstlarini ta'kidlash bilan boshlanadi. Keyin bu so'zlarning etimologik kelib chiqishini o'rganadi, ularning tarixiy yo'llarini lotin va boshqa manbalardan izlaydi. Ushbu atamalarning morfologik tuzilmalari umumiy qoliplarni va lingvistik konstruksiyalarni ochish uchun tahlil qilinadi. Va nihoyat, frantsuz tilidagi quvonch so'zlarining pragmatik qo'llanilishi o'rganiladi, bu atamalar kundalik muloqot va madaniy ifodalarda qanday ishlashini ko'rsatadi.

Frantsuz tilidagi quvonchli so'zlarning semantik maydonlari

Frantsuz tilidagi quvonchning semantik sohasi xilma-xil bo'lib, turli xil so'zlar va iboralarni o'z ichiga oladi, ularning har biri ma'no va foydalanishda nozik farqlarga ega. Asosiy atamalarga «*joie*» (quvonch), «*bonheur*» (baxt), «*félicité*» (baxt), «*allégresse*» (quvnoqlik) va «*ravissement*» (zavq) kiradi. Har bir atama o'zining konnotatsiyalari, intensivligi va odatda ishlatiladigan kontekstlari nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin.

Joie: Bu atama ko'pincha quvonch yoki zavqlanishning umumiy tuyg'usini tasvirlash uchun ishlatiladi. Buni «*joie de vivre*» (yashash quvonchi) va «*joie pure*» (sof quvonch) kabi iboralarda topish mumkin.

Bonheur: Ko'pincha baxtning barqaror holati bilan bog'liq bo'lgan «*bonheur*» ko'pincha «*bonheur familial*» (oilaviy baxt) kabi qoniqish va qoniqishni anglatuvchi kontekstlarda qo'llaniladi.

Félicité: Ko'pincha adabiy yoki rasmiy kontekstda qo'llaniladigan yuksak baxt yoki baxt tuyg'usini bildiruvchi atama.

Allégresse: Bu so'z odatda bayram kontekstlarida ishlatiladigan quvnoqlik va jo'shqinlik g'oyasini qamrab oladi.

Ravissement: zavqlanish yoki zavqlanish tuyg'usini bildiradi, ko'pincha kuchli, deyarli ekstatik quvonchni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Etimologik ildizlar

Frantsuz tilidagi quvonch so'zlarining etimologik kelib chiqishini tushunish ularning tarixiy va madaniy evolyutsiyasi haqida tushuncha beradi. Frantsuz tilidagi quvonch bilan bog'liq ko'plab atamalar lotin ildizlariga ega bo'lib, tilning Rim merosini aks ettiradi.

Joie: Lotincha «*gaudia*» dan olingan bo'lib, quvonch yoki zavqni anglatadi.

Bonheur: Qadimgi frantsuz tilidan kelib chiqqan «*bon*» (yaxshi) va «*heur*» (omad yoki omad) so'zlarini birlashtiradi.

Félicité: Lotin tilidan olingan «*felicitas*» baxt yoki omad degan ma'noni anglatadi.

Allégresse: Lotincha «*alacritas*» dan kelib chiqqan bo'lib, jonlilik yoki ishtiyoqni anglatadi.

Ravissement: Lotincha «*raptus*» dan olingan bo'lib, tutilish yoki olib ketish degan ma'noni anglatadi, shiddatli va haddan tashqari tuyg'uni ta'kidlaydi.

Morfologik tuzilmalar

Ushbu so'zlarning morfologik tuzilmalarini o'rganish frantsuz tilida quvonchning lingvistik jihatdan qanday tuzilganligini ochib beradi.

Qo'shimchalar: Ko'pgina quvonch bilan bog'liq so'zlar «-eur», «-ité» yoki «-esse» bilan tugaydi, ular fransuz tilida holatlar yoki sifatlarni (masalan, «*bonheur*», «*félicité*», «*ravissement*») tasvirlaydigan otlarni yaratish uchun keng tarqagan. *allégresse*»).

Prefikslar: «*ravissement*»da «ré» kabi prefikslarning qo'llanilishi asosiy hissiyotning kuchayishini ko'rsatadi.

Pragmatik foydalanish

Tildan foydalanishning pragmatik jihat so'zlarning real hayotdagi muloqotda qanday ishlashiga qaraydi. Frantsuz tilida quvonch so'zları ishlatiladigan kontekst ularning ma'nosи va ta'sirini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin.

Rasmiy va norasmiy kontekstlar: «*Félicité*» va «*ravissement*» kabi atamalar ko'proq rasmiy yoki adabiy kontekstda qo'llaniladi, «*joie*» va «*bonheur*» esa kundalik suhbatlarda keng tarqagan.

Madaniy nuanslar: «*Joie de vivre*» tushunchasi hayot zavqlarini o'ziga xos frantsuzcha qadrlashni

qamrab oladi va quvonch ifodalarining madaniy o'lchovini ta'kidlaydi.

Idiomatik iboralar: «être aux anges» (oy ustida bo'lish) va «rayonner de bonheur» (baxtiyorlik uchun) kabi iboralar fransuz tilida quvonchning metafora va idiomatik tarzda qanday ifodalanganligini ko'rsatadi.

Morfologik tuzilmalar

Ushbu so'zlarning morfologik tuzilmalarini o'rganish frantsuz tilida quvonchning lingvistik jihatdan qanday tuzilganligini ochib beradi.

Qo'shimchalar: Ko'pgina quvonch bilan bog'liq so'zlar «-eur», «-ité» yoki «-esse» bilan tugaydi, ular fransuz tilida holatlar yoki sifatlarni (masalan, «bonheur», «félicité», «...») tasvirlaydigan otlarni yaratish uchun keng tarqalgan. *allégresse»).*

Prefikslar: «ravissement»da «ré-» kabi prefikslarning qo'llanilishi asosiy hissiyotning kuchayishini ko'rsatadi.

Pragmatik foydalanish

Tildan foydalanishning pragmatik jihatni so'zlarning real hayotdagi muloqotda qanday ishlashiga qaraydi. Frantsuz tilida quvonch so'zları ishlatiladigan kontekst ularning ma'nosi va ta'sirini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin.

Rasmiy va norasmiy kontekstlar: «Félicité» va «ravissement» kabi atamalar ko'proq rasmiy yoki adabiy kontekstda qo'llaniladi, «joie» va «bonheur» esa kundalik suhbatlarda keng tarqalgan.

Madaniy nuanslar: «Joie de vivre» tushunchasi hayot zavqlarini o'ziga xos frantsuzcha qadrlashni qamrab oladi va quvonch ifodalarining madaniy o'lchovini ta'kidlaydi.

Idiomatik iboralar: «être aux anges» (oy ustida bo'lish) va «rayonner de bonheur» (baxtiyorlik uchun) kabi iboralar fransuz tilida quvonchning metafora va idiomatik tarzda qanday ifodalanganligini ko'rsatadi.

Xulosa

Frantsuz tilidagi quvonch so'zlarining lingvistik tahlili baxtning turli o'lchovlarini qamrab oluvchi iboralarning boy va nozik manzarasini ochib beradi. «Joie», «bonheur», «félicité», «allégresse» va «ravissement» kabi asosiy atamalarning semantik sohalari, etimologik ildizlari, morfologik tuzilmalari va pragmatik kontekstlarini o'rganish orqali biz quvonch qanday ekanligini chuqurroq tushunamiz. lingvistik va madaniy jihatdan frantsuz tilida qurilgan.

Frantsuz tilidagi quvonch bilan bog'liq har bir atama baxtning o'ziga xos jihatini o'z ichiga oladi: «quvonch» ning o'tkinchi zavqidan tortib, «bonheur» ning doimiy qoniqishigacha, «félicité» ning yuksak baxti, «allégresse» ning umumiy quvnoqligi va shiddatli. «hayratlanish» zavqi. Bu farqlar nafaqat quvonchning hissiy spektrini, balki baxtning turli shakllarini boshdan kechiradigan va ifodalananidan o'ziga xos kontekstlarni ham aks ettiradi. Ushbu atamalarning xilma-xilligi frantsuz tilining nozik hissiy gradatsiyalarni qo'lga kiritish, muloqot va ifodani boyitish qobiliyatini ta'kidlaydi.

Ushbu quvonchli so'zlarning etimologik ildizlari, ularning aksariyati lotin tilidan kelib chiqadi, frantsuz leksikasining tarixiy va madaniy evolyutsiyasini ochib beradi. Ushbu ildizlarni tushunish quvonch tushunchalarining vaqt o'tishi bilan qanday shakllangani va ta'sirini tushunish imkonini beradi, bu esa kengroq til va madaniy o'zgarishlarni aks ettiradi. Ushbu atamalarning lotincha kelib chiqishidan hozirgi frantsuz tilida qo'llanishigacha davom etishi va o'zgarishi til evolyutsiyasining dinamik xususiyatini ko'rsatadi.

«-eur», «-ité» va «-esse» kabi umumiy qo'shimchalar bilan tafsiflangan fransuz tilidagi quvonch so'zlarining morfologik tuzilmalari hissiy holat va sifatlarning lingvistik jihatdan qanday tuzilganligini ko'rsatadi. Ushbu naqshlar frantsuz tilidagi so'z yasalishining asosiy tamoyillarini ochib beradi va bu tilning grammatik va morfologik qoidalarini tushunishimizga yordam beradi.

References

1. Brunot, F., & Bruneau, C. (1967). *Précis de grammaire historique de la langue française*. Masson.
2. Dubois, J., & Lagane, R. (1994). *La vie des mots*. Larousse.
3. Rey, A. (1995). *Dictionnaire historique de la langue française*. Le Robert.
4. Larousse, P. (2008). *Grand dictionnaire universel du XIXe siècle*. Slatkine Reprints.
5. *Dictionnaire de l'Académie française* (9th Edition). Available online at: Académie française
6. Rickard, P. (1989). *A History of the French Language*. Routledge.
7. Walter, H. (1994). *Le français dans tous les sens*. Robert Laffont.

BADIY MATNDA INTERTEKSTUALLIK HODISASI VA INTERTEKSTUAL ELEMENTLAR

Yuldasheva Maftunaxon Azizjon qizi
Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiy matnda intertekstuallik hodisasi hamda intertekstual birliklarning roli haqida so'z boradi. Intertekstual elementlar (alluziya, reministensiya, epigraf, oksimoron va boshqalar) asarning ekspressivligini oshiradi, qo'shimcha ma'lumot beradi va asarning umumiylazmuni yaxlitlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalar o'quvchilarga asarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va matnni yanada qiziqarli va boy qiladi.

Kalit so'zlar: badiy matn, intertekstuallik, intertekstual birliklar, epigraf, precedenit birliklar, oksimoron, metafora, alluziya.

ФЕНОМЕН ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ И ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Юлдашева Мафтунахана Азизжан кизи
Докторант Ферганского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматривается феномен интертекстуальности в художественном тексте и роль интертекстуальных единиц. Интертекстуальные элементы (аллюзия, реминисценция, эпиграф, оксюморон и другие) усиливают экспрессивность произведения, предоставляют дополнительную информацию и играют важную роль в достижении целостности общего содержания произведения. Эти средства помогают читателям лучше понимать произведение и делают текст более интересным и насыщенным.

Ключевые слова: художественный текст, интертекстуальность, интертекстуальные единицы, эпиграф, прецедентные единицы, оксюморон, метафора, аллюзия.

THE PHENOMENON OF INTERTEXTUALITY AND INTERTEXTUAL ELEMENTS IN ARTISTIC TEXT

Yuldasheva Maftunakhan Azizjan kizi
Doctoral student of Fergana State University

Annotation: This article discusses the phenomenon of intertextuality in literary texts and the role of intertextual elements. Intertextual elements (allusion, reminiscence, epigraph, oxymoron, etc.) enhance the expressiveness of a work, provide additional information, and play a crucial role in achieving the overall coherence of the text. These tools help readers better understand the work and make the text more interesting and rich.

Keywords: literary text, intertextuality, intertextual elements, epigraph, precedent elements, oxymoron, metaphor, allusion.

KIRISH. Intertekstuallik hodisasi shu paytgacha tilshunoslar, adabiyotshunoslar, faylasuflar, madaniyatshunoslar, umuman o'rGANISH obyekti matn bo'lgan bir qator soha olimlari tomonidan tadqiq qilingan va hali ham bu jarayon davom etmoqda. Intertekst atamasi matn ichidagi matn ma'nosini anglatib, badiy matnda bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ushbu atama ilk bor 1966 yilda Julia Kristeva tomonidan qo'llanilgan. M. Baxtin, R. Bart, M. Rifattere singari ko'plab olimlar o'z asarlarida intekstual vositalarning turli ko'rinishlarini qo'llagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Badiiy matndagi intertekstual elementlar birlashib uning yaxlit mazmunini ifodalash, asar ekspressivligini oshirish va, albatta, qo'shimcha ma'lumot berish uchun xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, intertekstuallik hodisasi o'quvchi uchun tanish bo'ladi va badiiy matnning qabul qilinishini osonlashtiradi.

Intertekstual birliklarning bir nechta turlari mavjud bo'lib, quyidagilar shular sirasidandir:

1. Alluziya
2. Reminisensiya
3. Epigraf
4. Oksimoron
5. Pretsedent birliklar
6. Geminatsiya
7. Tagma'no
8. Iboralar
9. Maqollar
10. Matallar
11. Alliteratsiya
12. Assonans
13. Ko'chimlar(metafora, metonimiya, ironiya)
14. Parafraza
15. Anafora
16. Epifora
17. Iqtibos
18. Ellipsis

Quyida ayrim intertekstual vositalarning badiiy matnni yoritishdagi ahamiyati haqida so'z yuritamiz va misollarni ko'zdan kechiramiz.

NATIJALAR

Pretsedent birliklar. Pretsedent (lot. Praecedens – oldinda yuruvchi, oldingi) – oldin, o'tmishda sodir bo'lib, shu ko'rinishdagi keyingi birliklarga namuna yoki oqlovchi dalil bo'lib xizmat qiluvchi birlik. Boshqacha aytadigan bo'lsak, oldin mavjud bo'lgan, barchaga tanish bo'lgan nomning o'zga bir shaxs yoki narsaga nisbatan qo'llanilishi tushiniladi. Ular badiiy matnning intertekstualligini ta'minlashda mihim rol o'ynaydi. Shoir Usmon Nosirning "Monolog" she'rida predsedent nomlarning bir nechtasini ko'rishimiz mumkin.

Bilamanki, Tasso bechora

Rohat ko'rmay o'tgan bir umr.

Ey makkora qiz, Leonora ,

Nomi qora bilan yozilgur!..

Ushbu parchada Tasso qadimgi davrlarda o'tli ishq-muhabbat kuylangan asarning baxtsiz qahramoni, Leonora o'z oshig'ini ming azob-u uqubatlarga giriftor aylagan adabiy qahramon sifatida tilga olingan.

Javob bersin. Afotunmi , Vergiliymi , yo –
 Boshqa biri, qani kim? Kim mard? Kim guvoh?
 Ki, tun qancha qora bo'lsa, oy shuncha yorug‘!
 Spartakning lashkarlari hali ham borur.
 To Minisdan Ramzesgacha, Ramzesdan nari
 “Malika qiz” – Kleopatra hukmron davri.
 Undan tortib... yana uzoq, yana ko‘p yillar
 Xarsang bilan yotqizilgan necha ming yo‘llar.
 Ko‘zyoshidan, dil toshidan qurilgan haykal[2]

Yuqoridagi misralarda adib Usmon Nosirning "Nil va Rim" sherida tilga olingan qahramonar

nomiga e'tibor qarataylik. Aflatun va Vergiliy qadimgi Yunonistonning buyuk olimlari, Minis, Ramzes va Kleopatra esa Qadimgi Misr davlatining nomdor hukmdorlari. Ushbu pretsedent nomlar tinglovchiga tarixiy obraz sifatida tanish bo'lGANI holda asarning ekspressivligini va mazmuniy yaxlitligini ochib berishga xizmat qiladi. Asarning sarlavhasi "Nil va Rim" deb atalganligi ham bejiz emas.

«Epigraf» atamasi yunoncha (epigraphē) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «yozuv» degan ma'noni anglatadi. Dastlab, bu atama binolar, haykallar yoki boshqa yodgorliklardagi yozuvlarga nisbatan ishlatilgan, lekin vaqt o'tishi bilan uning qo'llanilishi adabiy kontekstlarni ham o'z ichiga olgan holda kengaydi. Epigraf — bu hujjat, bob yoki bo'lim boshida joylashtirilgan qisqa iqtibos, ibora yoki she'rdir. U kirish so'zi yoki boshlang'ich sifatida xizmat qilib, keyingi mazmun haqida kontekst yoki mavzuli ishora beradi. Epigraflar ko'pincha ohangni belgilash, asosiy mavzuni taklif qilish yoki muallifning niyatlari haqida tushuncha berish uchun ishlatiladi. Ular boshqa adabiy asarlar, diniy matnlar, mashhur iqtiboslar yoki muallif tomonidan yaratilgan original asarlar bo'lishi mumkin.

O'zbek adabiyotshunosligida epigraflar A. Qahhor, G'.G'ulom asarlarida tez-tez ko'zga tashlanadi. Jumladan, A.Qahhor hikoyalarida xalq maqollarini epigraf sifatida qo'llash orqali butun boshli hikoya mazmunini bir maqol vositasida mahorat bilan ochib bera olgan. Adib "O'g'ri" hikoyasining epigrafida "Otning o'limi, itning bayrami" deb yozadi. Epigrafni o'qiboq o'quvchi hikoyaning mavzusi kimningdir qiyin vaziyatga tushib qolishi boshqa birovga xursandchilik olib kelishi mumkinligini anglab yetadi. Bunda o'lim va bayram so'zları antonim sifatida qo'llangan. Ot va it ham salbiy qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Adib hikoya qahramonlarining tushkun holatini go'zal implikatsion talqinda yoritib bergen.[6] Shuningdek, hikoyada "Begim deguncha belim sinadi", "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi", "Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz", "Quruq qoshiq og'iz yirtadi", "O'ynashmagil arbob bilan -seni urar har bob bilan" kabi maqollarning har biri zamirida chuqur yashirin ma'no bo'lib asar bosh qahramonining nochor holda qolgan bo'lsada, yakkayu yagona boquvchi sigirini topish uchun qo'lidan kelganicha yuqori mansabdagi shaxslarga sovg'a-salomlar ularшиб, bor-budini sovirishi nazarda tutiladi va bu holat hikoya oxirigacha davom etadi. [8]

"Bemor" hikoyasi epigrafida Qahhor uslubiga xos bo'lган qisqa va lo'nda "Osmon yiroq, yer qattiq" maqoli qo'llanadi. Bunda osmon va yer o'zaro qarama-qarshi tushunchalar bo'lib, kambag'al va omi kishining vaziyatdan chiqib keta olmasligi, hech qanday imkon yo'qligini ta'riflaydi. Ushbu hikoyada bemorga qarashga mablag'i bo'lman turmush o'rtog'ining og'ir holatiga nisbatan "Bunday paytlarda yo'g'on cho 'ziladi, ingichka uziladi" maqolidan foydalanilgan. Yo'g'on va ingichka o'zaro zid ma'noda ishlatilib, bosh qahramon misolida mablag'i bor odam vaziyatdan chiqqa oladi, qashshoq esa uziladi, ya'ni vaziyatning qurboni bo'ladi, degan natijani intertekstual birliliklар yordamida mohirlilik bilan o'quvchiga yetkaza oladi.[3]

"So'ngan vulqon" hikoyasi nihoyasida "Yer tepganni, el tepadi" maqolini bosh qahramon tili bilan aytadi. Ushbu hikoyada Shermat aka yoshi o'tib, mansabidan tushar ekan, bu holatni qabul qila olmay, o'ziga nisbatan baho berib shunday deydi. "Ikki yorti bir butun" hikoyasi sarlavhasi maqol bo'lib, shu birgina maqol butun asar mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Hikoyadagi ikki erkak o'zaro suxbatidan bir-biriga mos tushgan xarakterli shaxslar ekanligi ushbu maqolda yoritib berilgan. Yorti va butun so'zları qarama-qarshi so'zlardir. Shuningdek, hikoya tarkibidagi "Eshakni yashirsangiz, hangrab sharmanda qiladi" deganida esa xufiyona bajarilgan har qanday barribir oshkor bo'ladi ma'noda ishlatilgan. "Bashorat" hikoyasida epigraf sifatida "Ola qarg'a qag' etadi, o'z ko'nglini chog' etadi" maqolini har kim qandaylididan qat'iy nazar o'z xursandchiligini nishonlashini aytadi, "Sep" hikoyasida esa "Mashqda qiyalsang, urushda qiyalmaysan" kabi maqollardan samarali va o'z o'mnida hikoya qahramonining asl holatini tasvirlash maqsadida foydalanadi. [7]

Xalq maqollaridan epigraf sifatida foydalanish intertekstuallikni hosil qiladi hamda badiiy asarning oson tushunilishi, matnning ekspressivligini ta'minlaydi va maqsadini keng ochib beradi.

Yana bir intertekstuallikni hosil qiluvchi vosita oksimoron hisoblanadi. «Oksimoron» atamasi yunoncha (oxys), ya’ni «o’tkir» yoki «keskin», va (moros), ya’ni «bo‘g‘iq» yoki «ahmoqona» so‘zlaridan kelib chiqqan. Ushbu ikki qarama-qarshi atamaning birikmasi o‘z-o‘zidan bir oksimoron yaratadi, chunki u keskinlik va bo‘g‘iqni ya’ni “keskin lekin be’mani” tushunchalarini yonma-yon qo‘yadi. Ushbu tushuncha ritorikada qarama-qarshi g‘oyalarni birlashtirish orqali e’tiborni jalb qilish va o‘ylantiruvchi ta’sir yaratish uchun qo‘llaniladi. Oksimoron ikki ko‘rinishda qarama-qarshi yoki zid atamalarni birlashtirib, paradoksal ta’sir hosil qiladigan iboradir. U ko‘pincha murakkab g‘oyani ta’kidlash, hazil qo‘shish yoki dramatik ta’sir yaratish uchun ishlatiladi.

Buyuk ingliz adibi va dramaturgi V.Shekspir “Romeo va Julietta” tragediyasida quyidagi jumlalarni keltiradi:

Good night, good night! parting is such sweet sorrow,

That I shall say good night till it be morrow.[4]

Julietta Romeoning uni tark etayotgandagi qayg’uli his-tuyg’ularini “sweet sorrow” ya’ni «shirin qayg’u» deb tasvirlaydi. Adibning oksimoron ishlatishi shuni ko’rsatadiki, Juliettaning Romeo bilan ajralish haqidagi «qayg’u»si va xafachiligi ham «shirin» va yoqimli. U Romeoga xayrli tun deyishi kerakligini bilib, qayg’u his qiladi. Biroq, u yana uni ko’rishni orziqib kutayotganligi bu yoqimli his-tuyg’ularni uyg’otadi. Bundan tashqari, loving hate (muhabbatli nafrat), heavy lightness og’ir yengillik), bright smoke(musaffo tutun), cold fire (otashin olov), sick health(zaif sog’lik) kabi iboralar ushbu asarda oksimoron sifatida qahramonlar nutqida mohirona foydalanilgan va intertekstuallikni hosil qilgan.

Yana bir eng ko‘p foydalaniladigan intertekstual vositalardan biri metafora hisoblanadi. «Metafora» atamasi yunoncha (metaphora) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «ko‘chirish» yoki «o‘tkazish» degan ma’noni anglatadi. Yunoncha ildizlari (meta) - «ustida» yoki «ortiq», va «(phero) - «ko‘tarish» yoki «olib borish» degan ma’noni bildiradi. Bu tushuncha bir so‘z yoki g‘oyadan boshqasiga ma’no ko‘chirishni, bir obyektning sifatlari yoki xususiyatlarini boshqasiga ko‘chirishni anglatadi, bu orqali ikkalasining ham tushunilishini boyitadi. Metafora — bu ikki o‘xhash bo‘lmagan narsalar o‘rtasida aniq taqqoslashni o‘z ichiga olgan ibora shakli bo‘lib, bir narsani boshqa narsa sifatida tavsiflashni taklif qiladi. Bu taqqoslash uchun «kabi» yoki «day» so‘zleri ishlatilmaydi. Metaforalar ma’noni qo‘shish, tasvir yaratish va mavzuning chuqurroq tushunilishini ta’minalash uchun ishlatiladi, o‘xhashliklarni aniqroq va tasavvuriyoq tarzda ta’kidlaydi.

Boy: -He, attang! Gulni gulga qo‘shmay, gulni sassiqalafga qo‘shib qo‘yibman. Ha, pishmagan xom kalla! (Peshonasiga urub) Bu nozanin uvol. Cho‘rilikka emas, bekalikka arziydi-ya (Hamza. «Boy ila xizmatchi»).

Solihboy nutqidagi birinchi va uchinchi «gul» so‘zlaridan Jamila tushunilsa, ikkinchi «gul» so‘zi orqali boyning o‘ziga ishora qilinyapti va «sassiq alaf» iborasi orqali esa G‘ofur nazarda tutilyapti. Shu o‘rinda yozuvchi tomonidan qo‘llagan metaforalar intertekstuallik hosil qilib asarning bo‘yodorligini ta’minalaydi.

Quyidagi keltiriladigan Qoratoy nutqidagi «qizilgul», «oq gul» iborasidan Gulnor bilan Yo‘lchi tushunilsa, «chaqir tikanak» birikmasidan Mirzakarimboy anglashiladi:

— Sen, oti nima, Gulnorni sevasan-a? U ham sevadi. Shundaymi?—Misoli Tohir-Zuhra... Qarabsanki, qizil gul bilan oq gul o‘rtasidan chaqirtikanak o‘sib chiqyapti. Tushunib olaver o‘zing!... (Oybek. «Qutlug‘ qon»).[1]

Hold fast to dreams

For if dreams die

Life is a broken-winged bird

That cannot fly.

Hold fast to dreams

For when dreams go

Life is a barren field

Frozen with snow. (L.Hughes "Dreams")[9]

Ushbu she'rda Hughes a broken-winged bird va barren field metaforalarni qo'llab, hayotni qanoti singan qushga va hosil bermaydigan dalaga mengzaydi, sababi inson orzulari o'lsa hayotidan ma'no va mazmun ham yo'qolishi begumon. Birinchi bandda shoir agar orzular o'lsa, hayot "ucholmaydigan siniq qanotli qush" kabitdir deb da'vo qiladi. Metafora o'quvchida yaralangan, yerga tushgan va o'z maqsadiga yetolmaydigan qush tasvirini yaratadi. Sherning ikkinchi bandida orzulsiz hayotni "qor bilan qoplangan hosilsiz dala"ga qiyoslaydi. Bu esa o'z o'rnida intertekstuallikni ta'minlab badiiy matnning ekspressivligini oshiradi.

XULOSA

Badiiy matnda intertekstuallik hodisasi adabiy asarlarni yanada boyitib, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va mazmundorligini ta'minlaydi. Intertekstual elementlar, masalan, alluziya, reministensiya, epigraf, oksimoron, pretsedent birliklar, geminatsiya, tagma'no, iboralar, maqollar, matallar, alliteratsiya, assonans, ko'chimlar, parafraza, iqtibos va ellipsis badiiy matnning ekspressivligini oshirishda, qo'shimcha ma'lumot berishda va asarning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda muhim rol o'yaydi.

Pretcedent birliklar, masalan, tarixiy va adabiy qahramonlarning nomlari, asarga chuqurroq ma'no berib, uning ta'sirchanligini oshiradi. A.Qahhor va G'.G'ulom asarlarida epigraflar xalq maqollarini epigraf sifatida qo'llash orqali hikoya mazmunini bir maqol vositasida ochib beradi. Oksimoronlar, qarama-qarshi tushunchalarni birlashtirib, dramatik va e'tiborni jalb qiluvchi ta'sir yaratadi. Metaforalar esa ikki o'xshash bo'lmagan narsalar o'rtasida bog'lanish o'rnatib, asarning boyligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, intertekstuallik badiiy asarlarning tushunilishini va qabul qilinishini osonlashtiradi, asarning boy va mazmunli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu vositalar o'quvchining adabiy tajribasini boyitib, asarning ekspressivligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Lapasov j. Badiiy matn va lisoniy tahlil. «O'qituvchi» Toshkent-1995.
2. 8-sinf uchun darslik-majmua. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2014.
3. Qahhor A. Qissa va hikoyalar, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa uyi; Toshkent-2012.
4. Shakespeare W. Romeo and Juliet. <https://shakespeare.folger.edu>
5. Qo'ng'urov R. Uzbek tilining tasviriy vositalari. «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1977, 13-bet.
6. Yuldasheva M. "Ingliz va o'zbek tillarida implikatsiya hodisasining o'rganilishi" magistrlik dissertatsiyasi. Farg'onasi: FDU., 2022.
7. To'xtasinova N. TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida) April, 2022.
8. Abdullayeva.N, Mirzayeva.D ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA MAQOL VA MATALLARNING QO'LLANISHI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2(11)
9. <https://poets.org/poem/dreams>

“BALD ON RECORD” STRATEGIYASINING XUSHMUOMALALIK TAMOYILINI

IFODALANISHDAGI AHAMIYATI

(Tohir Malik asarlari tahlili asosida)

Yuldasheva Mashhura Zokirjon qizi

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Braun va Levinson nazariyasiga asoslangan xushmuomalalik xattiharakatlarini umumlashtirish mumkin bo’lgan to’rtta asosiy xushmuomalalik strategiyasi mavjudligi, ushbu xushmuomalalik strategiyalaridan biri bo’lgan bald on record strategiyasining qachon va qaysi o’rinlarda qo’llanishi Tohir Malik asarlarida qo’llangan dialoglar asosida tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: xushmuomalalik nazariyasi, pragmatika face – yuz tushunchasi, ijobjiy yuz, salbiy yuz, bald on record, direktiv akt.

THE IMPORTANCE OF THE «BALD ON RECORD» STRATEGY IN EXPRESSING THE PRINCIPLE OF POLITENESS

(based on the analysis of the works of Tahir Malik)

Yuldasheva Mashhura Zakirjon kizi

Namangan State University’s doctoral student

Abstract. The article shows that there are four basic politeness strategies that can summarize polite behavior based on Brown and Levinson’s theory, when and where to use the bald on record strategy, one of these politeness strategies, dialogues used in the works of Tahir Malik analyzed based on

Key words: politeness theory, pragmatics face - face concept, positive face, negative face, bald on record, directive act.

ЗНАЧЕНИЕ СТРАТЕГИИ «ЛЫСОГО НА ЗАПИСЬ» В ВЫРАЖЕНИИ ПРИНЦИПА ВЕЖЛИВОСТИ

(на основе анализа произведений Тахира Малика)

Юлдошева Машхура Закирджон кизи,

докторант Наманганского государственного университета

Абстракт. В статье показано, что существуют четыре основные стратегии вежливости, которые позволяют обобщить вежливое поведение на основе теории Брауна и Левинсона, когда и где использовать стратегию «лысый на записи», которая является одной из таких стратегий вежливости, проанализированы диалоги, используемые в произведениях Тахира Малика на основе.

Ключевые слова: теория вежливости, прагматическая концепция «лицо-лицо», положительное лицо, отрицательное лицо, балд он рекорд, директивный акт.

Kirish. Politeness (xushmuomalalik) nazariyasida «bald on record» strategiyasi odatda bevosita va ochiq kommunikatsiya usuli sifatida tushuniladi va alohida turlari emas, balki kommunikatsiya strategiyalari ichida bevosita va to’g’ridan to’g’ri nutqni ifodalashni o’z ichiga oladi. Ushbu strategiya, kommunikatsiya jarayonida «yuz» tushunchasiga nisbatan tahdid soladigan harakatlarning (FTA - face-threatening acts) bir qismi sifatida qaraladi va tinglovchining ehtiyojkorligini hisobga olmaydi.

Brown va Levinsonning politeness nazariyasi quyidagi asosiy strategiyalardan iborat:

1. Bald on record: to’g’ridanto’g’ri talab yoki buyruq bilan biror narsani so’rash.
2. Positive politeness: tinglovchining ijobjiy «yuz»ini qo’llab-quvvatlash uchun ishlatiladi.
3. Negative politeness: tinglovchining salbiy «yuz»iga hurmat sifatida ishlatiladi.
4. Off-record: bilvosita ma’lum bir harakatni so’rab, umumiy vositalar yoki kinoyalar yordamida tinglovchiga biror narsani qilishni taklif qilish.
5. Don’t do the FTA: FTA (face-threatening act) ni umuman bajarmaslik. [3, 3]

«Bald on record» atamasi odatda faqat shu nom bilan tanilgan bo’lsa-da, bu kommunikatsiya uslubining konsepti turli madaniyat va tillarda turlicha tarzda ifodalangan bo’lishi mumkin. Misol uchun, ba’zi tillarda yoki adabiyotlarda u «to’g’ridan-to’g’ri strategiya», «bevosita nutq», «ravshan ifoda» yoki

«ochiq ifoda» kabi ko'chirmalar yordamida tasvirlangan bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, «bald on record» atamasi, aynan Brovn va Levinsonning politeness (xusmuomalalik) nazariyasida keltirilgan to'g'ridan to'g'ri gapirishning bevosita uslubi sifatida keng qabul qilingan va o'rganilgan. Ushbu uslubning aniq bir ekvivalentini boshqa nom bilan atalganini aniqlash uchun, turli tillarni solishtirish va xalqaro kommunikatsiya adabiyotlarini ko'rib chiqish lozim bo'lar edi. Bu struktura ijtimoiy muloqotdagi odob-axloq me'yorlarini va tinglovchi bilan gapiruvchi o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq harakatlarni ifodalashga yordam beradi. Har bir strategiya muayyan kontekst va madaniyatda turli tarzda qo'llaniladi va ular o'rtasidagi o'tishlar ham yumshoq bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida xushmuomalalik nazariyasi va strategiyalarni sotsiopragmatik jihatdan tadqiq etish tilshunoslar oldida turga muhim vazifalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O'zbek tilshunosligida S. Mo'minov, Sh. Iskandarova, M. Hakimov, Sh. Safarov va boshqalar tomonidan nutqning komunikativ, ijtimoiy va pragmatik jihatlari o'rganilgan, darslik hamda qo'llanmalar yaratilgan. Ayniqsa, Politeness (xushmuomalalik) nazariyasini tadqiq etgan M. B. Xolovaning "Ingliz va o'zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari" (2023) nomli monografiyasida "bald on record" strategiyasidan foydalanish haqida misollar keltirilgan bo'lib, o'zbek tilida hurmat kategoriyalari tahlil etilgan. H. Komilovaning "Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi" nomli dissertatsiyasida jahon tilshunoligida xushmuomalalik tamoyillari, uning nutqda namoyon bo'lish usullari haqida salmoqli ma'lumotlar berilgan va bald on record termini "direktiv strategiya" nomi bilan atagan [1,23] bo'lib, fors va o'zbek nutqida salomlashuv, xayrashuv, mulozamat va mehmondorchilikda qo'llanadigan nutqiy etiket birliklar tadqiq etilgan.

Metodologiya:

«Bald on record» strategiyasi Brovn va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan politeness teoriyasiga [2, 3] doirasida, «yuzga tahdid soluvchi harakat» (FTA – face-threatening act) sifatida ko'rib chiqiladi. «Yuz» shaxsiy ijtimoiy obro-e'tibor va shaxsiy idrok etilgan imidjni anglatadi. Har bir shaxs o'zining «ijobiy yuzi» (boshqalar tomonidan qabul qilinuvchi va hurmat qilinuvchi bo'lish istagi) va «salbiy yuzi» (mustaqillik va erkinlikka hurmat)ni himoya qilishni istaydi.

Direktiv kommunikatsiya uslublarida, xususan «bald on record» strategiyasida, gapiruvchi to'g'rida to'g'ri va bevosita xohish yoki talabini bildiradi va bu suhbatdoshning «yuziga» tahdid solishi mumkin, chunki u yoki «ijobiy yuz»ni rad etish yoki «salbiy yuz»ga zarar berish orqali uning erkinligiga yoki ijtimoiy qadrlangan mavqeiyiga tahdid solishi mumkin.

Tahlil va natijalar:

Bald on record (bevosita yoki direktiv) strategiya bu – xushmuomalalik strategiyasining birinchi strategiyasıdır, bunda suhbatdoshlar kerak bo'lgan narsani, harakatni talab etadi, komunikatorlar bir-biriga yaqin bo'lgan holatlarda (bir oila vakili, do'st, yaqin munosabatga ega bo'lganlar nutqida) namoyon bo'ladi va iltifotsiz, ochiq, to'g'ridan to'g'ri direktiv nutq aktidan foydalanadilar. [4, 94] To'g'ridan to'g'ri imprativlar ushbu strategiyaning yaxshi namunasidir. [5, 80]

Bu strategiyadan foydalilaniganda:

- so'zlovchining tinglovchiga direktiv hamda ochiqcha o'z niyatini yoki talabini bildirishi;
- tinglovchining «yuziga» hech qanday e'tiborsizlik bilan gapirish, bu orqali ularning ijtimoiy obro'siga tahdid solishi;
- hamkorlik yoki yuz saqlash usullarini ishlatmaslik orqali to'g'ridan to'g'ri buyruq yoki ko'rsatmalar berish;

- suhbatdoshlar o'rtasidagi aloqa shunday darajada bevosita va aniq bildiriladiki, bu ba'zan qo'pol yoki haddan tashqari to'g'ridan tog'ri qabul qilinishi mumkin.

O'zbek madaniyatida «bald on record» kommunikatsion strategiyasi boshqa ko'plab madaniyatlardagi kabi ehtiyojkorlik bilan qo'llaniladi. O'zbek jamiyatida odob-axloq va hurmat muhim qadriyatlar hisoblanadi, shu sababli to'g'ridan to'g'ri va diplomatik bo'limgan kommunikatsiya uslublari ba'zan noo'rin bo'lishi mumkin.

«Bald on record» strategiyasida gapiruvchi odatda tinglovchinining his-tuyg'ulari yoki ijtimoiy mavqeini hisobga olmaydi, bu esa ba'zan muhim munosabatlar zarar ko'rishi yoki suhbatdosh o'rtasidagi muammolarga sabab bo'lishi mumkin.

Badiiy asarlarda «bald on record» strategiyasining qo'llanilishi personajlar orasidagi to'g'ridan

to'g'ri va ochiqchasiga muloqot qilish hollari uchun ishlataladi. U quyidagi holatlarda ko'rindi:

I. Badiiy obrazlar orasidagi yaqinlik: Yaqin munosabatdagi personajlar, masalan oila a'zolari yoki do'stlar o'rtasida «bald on record» uslubi tabiiyroq bo'lishi mumkin, chunki ular bir-birlariga nisbatan ochiq va bevosita gapira olishlari kerak.

Ona va farzandi o'rtasidagi suhbat:

Asrorni onasi turtib uyg'otdi:

- Yomon tush ko'rdingmi, buncha baqirmsang?

Asror indamadi. Uyquli ko'zlarini chirt yumib oldi.

- Yonboshlab yot, bosinqirabsan...

Onasi shunday deb chiqib ketdi. [8, 4])

O'zbek tilida senlab yoki sizlab murojaat qilishning o'ziga xoslisoniy-uslubiy me'yorlari mavjud. Asosan, yoshi, mavqeyi, lavozimi, rasmiy maqomi kabi omillar asosidagi vertikal munosabatlarda sizlab murojaat qilinadi. Aksincha, o'ziga nisbatan kichik yoshdagilarga, tengqur, do'st-birodar, yaqin qarindosh yoki norasmiy maqomdagilarga nisbatan sensirab murojaat qilish mumkin. [6, 31]

II. Badiiy obrazlarning o'zaro munosabatlardagi dominantlik: Ustoz va shogird, rahbar va ishchi kabi o'zaro ierarxik munosabatlarda, odatda ustunlik qiluvchi tomon «bald on record» usulidan foydalanishi mumkin.

... Uningni o'chir! — dedi Asadbek dag'al ovozda. — Uyga bor, ovozingni chiqarma. Bitta-yarimta so'rasha... ammasinikida edi, de.

— Voy...— Manzura eriga ajablanib qaradi. — Ammasi yo'q-ku?

— He noshud, — Asadbek shunday deb g'ijindi. «Bu lalaygan xotin eplab bir bahona topolmasa...» — ammasi bo'lmasa... ko'chada mashina sal turtib ketibdi, de, kasalxonada ekan, de... Bor... To'xta, kim bilan kelding?

— Jamshid bilan.

— Seni tashlab, Jalilni olib kelsin. (Shaytanat 1-kitob Tohir Malik)

Uningni o'chir, uyga bor, ovozingni chiqarma, he noshud, bor, to'xta kabi buyruq fe'llari Asadbek tomonidan aytilgan bu so'zlar tinglovchi (turmush o'rtog'i Manzura) tomonidan oddiy buyruq sifatida qabul qilingan, buning sababi u bir oila vakili hamda har doim eshitishi mumkin, kun ora unga bo'lmasa ham, qo'l ostidagi yigitlarga qo'llanadigan so'zlardek qulog'iga chalinadi.

3. Favqulodda vaziyatlar: Xavfli yoki favqulodda vaziyatlar, qahramonlarning darhol harakat qilishini talab qilganda, personajlar bevosita va tez qaror qabul qilishlari kerak bo'lganda «bald on record»dan foydalanishadi.

... Tepadan ovoz keldi. Jahongir shoshib qaraydi: yo'g'on shox ustida Zokirxo'ja o'tiribdi. Qo'lida tasbeh.

— Ehtiyyot bo'ling, yiqilib tushasiz, — deydi Jahongir unga.

Shunday deyishi bilan shox qarsillab sinib, Zokirxo'ja to'g'ri Jahongirning ustiga qulaydi... [9, 21]

4. Badiiy obrazlar o'rtasidagi nizo: Ziddiyatli yoki keskin munozarali sahnalarda personajlar boshqalarga o'z fikrlarini qat'iy va ravshan ifodalay olishi uchun «bald on record»dan foydalanishlari mumkin. Misol:

Chuvrindi tog'asining tashvishini anglab tursa ham o'zini bilmaganga oldi-da:

— Ha, tinchlikmi? — deb qo'ydi.

— Dadam yubordilar, nimaga olib kirmading deb, meni ancha koyidilar. Borsangiz yaxshi bo'lardi.

— Shuni aytgani keldingmi?

Tog'asini sensirashi Chuvrindining o'ziga ham xunuk tuyulsa-da, sizlashga tili bormadi. Tog'asi esa bu sensirashni bo'lajak xunuk bir voqeanning darakchisi sifatida qabul qildi. Keksayib qolgan odamning dovdirashi g'alati bo'larkan. Aytadigan gapini ham yo'qotgan tog'asi shu topda ishtonini ho'l qilib endi onasidan shapaloq kutayotgan bola holida edi. Chuvrindi «o'l, bu kuningdan», deb o'ylab, uning bu holidan nafratlandi, ayni o'rinda kulgisi ham keldi.

— Ertalab boraman.

— Janozani bomdoddan keyin hovlida o'qiydigan bo'lishdi.

— Xo'p, yana nima demoqchisan? Gaping bo'lsa, ayt, ichingda qolib, sasib ketmasin. [10, 136]

V. Shaxsiy xarakter xususiyati: bunda personajning o'ziga xosligiga, asarning umumiy ohangiga,

obrazlar o'rtaqidagi munosabatlarga, muallifning maqsadiga ko'ra talqin etiladi. Bu uslubdan personajlarning shaxsiyati, ijtimoiy o'rni, muloqot uslubi va tili xarakteristikasini chuqr tasvirlash uchun foydalandiladi. Misol:

Hojasining o'rniga Chuvrindi manzirat qildi:

— Akaxon, doim shoshib turasiz-a, gurunglashib o'tiruvdik-da...

— Men ishlaydigan odamman. Ishlasam menga bir burda non berishadi, ishlamasam, yo'q.

Bolalarimning rizqini halol topaman. Senlarga o'xshagan bekorchi bo'lganimda biqsib yotaverardim.

Manziratiga javoban «shiringina» gap eshitgan Chuvrindi hojasiga qarab, bosh chayqab qo'ydi.

— Yigitlarga ayt, olib borib qo'yishsin.

— Onam meni moshinada tug'maganlar, avtobusda ketaveraman, — dedi Jalil.

— Akaxon, mashina tayyor-a, — dedi Chuvrindi.

— Qo'y, uka, men moshinaga o'rganmagan odamman. U senlar, hojatxonaga ham moshinada boradigan. [11, 76]

Yuqoridagi badiiy parchada "Shaytanat" asaridagi Jalil obrazining nutqi berilgan bo'lib, "tili" achchiqroq, ammo har doim haqiqatni gapiradigan shaxs sifatida gavdalantirilgan bu personaj go'yo yozuvchining nima demoqchi bo'lgan o'y-fikrlarini so'zladay tasvirlanadi. Shuning uchun uchun Jalil nutqida bevosita nutq strategiyasidan unumli oydalangan.

VI. Ma'lum bir harakatga urg'u berish: Muayyan bir fikr yoki xohishni ta'kidlash va unga urg'u berish, boshqa fikrlar yoki qarashlar orasidan ajratish.

Ammo rais tilga kirishi bilan bu o'yning puch ekani ma'lum bo'ldi.

- Ilojimiz qancha, - dedi rais yelka qisib, shunday ko'rsatma bor. Ikki minginchi yilgacha hammani uy-joy bilan ta'minlashimiz kerak.

Mayor bu gapdan hang-mang bo'ldi. Asablari qaqqash, barmog'i titray boshladи.

- Yaxshi, - dedi u g'azabini yutib, bizni ko'chirdingiz. Kelasi yili ikki o'g'lim oilasi bilan kaytsa, ularni qayerga joylashtirasiz?

- Bu o'shanda hal bo'ladigan masala.

- Siz menga bir narsani ochiq aytинг: bu kimning buyrug'i?

- Kechirasiz, o'rtoq mayor, men sizga hisob bermayman. Men bilan bu ohangda gaplashmang. [8, 78]

Bald on record strategiyasi tinglovchining yuziga tahdidni minimallashtirishga harakat qilmaydigan strategiyadir, [7,71] ya'ni so'zlovchi o'z fikrini ochiq, to'g'ridan to'g'ri ifodalaydi. Tinglovchiga yoqish uchun hech qanday usuldan foydalanmaydi. Bu parchada norozilik va tahdid akti ustunlik qilgan.

VII. Shiddat va his-tuyg'ularni ifodalash: Qahramonning ichki hissiyotlari yoki hayajonining shiddatli tarzda ifodalovchi element sifatida.

Bunday munosabatlari yaqin emas kishilar orasida, rasmiy muloqotlarda mazkur strategiyaning ifodalanishi kishilarda ajablanish (shok holati), tushunmovchilik, hijolatli holat va hayajonni keltirib chiqarishi mumkin. [1, 23] Aynan shunday holatga quyidagi misolni keltiramiz:

... Ularniga biro odam serqatnov edi... Bir kuni Qamariddin kelib u kishining ro'parasiga o'tirdi. Ko'chada bolalar bilan musallas ichgan, shirakayf edi. Piyolada onasiga quylgan aroq turgan ekan, sharitta olib ichib yubordi-da, yana quying, deb "otasining do'stiga" ga uzatdi.

- Yoshlik qilasan, - ded u odam piyolani chetga olib qo'yib.

Shu paytgacha Qamariddin u bilan deyarli gaplashmagan edi. Salom Berardi-yu, ko'chaga chiqib ketardi. Bugun kayf ta'sirida qitmirlik qilgisi keldi.

- Sening bolang bormi? – dedi u dabdurustdan sensirab.

- Bor, - dedi "dadasining do'sti" g'azabini ichiga yutib.

- Detdomdami?

- Nimaga detdomda, uyda.

- Tashlab ketmaysanmi?

- Jinni bo'lganmisan?

- Bolalaringni tashlab, onamga uylan. Meni o'g'il qilib ol.

Shu payt oshxonadagi onasi kirib, ularning suhbatidan lol bo'lib tosh qotdi. "Otasining do'sti" ham bu taklifdan tamom gangidi.

- Qamarjon, bunaqa masalada hazil qilma.

- Uylansang uylan, bo'lmasa o'ldiraman.

- Qamar! – dedi onasi, uni yelkasidan ushlab.

Qamariddin qitmirlik bilan ularni masxaralamoqchi edi. Ammo o’zi kutmagan holda nafrati uyg’onib, g’azabi qo’zg’iy boshladi. [8, 28]

Ushbu parchada hali yosh bo’lishiga qaramay Qamariddin “otasining do’sti” ga senlab murojaat qiladi, albatta, o’zidan yoshi katta insonga bunday so’zlash odobdan emas ammo u bor g’azabini ko’rsatish, tasvirlash uchun aynan bald on record - bevosita strategiyadan foydalangan. Bunday so’zlashish usuli tinglovchining yuziga tahdid soladi va salbiy xushmuomalalikni ifodalagan.

VIII. Samaradorlikka erishish: Tezkor harakat yoki qarorga ma’lum bir personaj tomonidan erishish maqsadida ishlataladi.

... Nima qilib turibsan?

Asror cho’chib tushib orqasiga qaradi: Qamariddin o’qrayib turibdi.

- Nima bor bu yerda? – dedi g’azab bilan, keyin Asrorning yelkasiga turtdi.

- Qani yur, bu atrofga kelma devdim - ku! Yana darsdan qochdingmi? Bashkang ishlamay qolyaptimi? O’zingni tut! [8, 59]

Demak, Badiiy asarda «bald on record»ning qo’llanishi personajlarning xarakteridagi ochiqlik va samimiyatni ifodalashda yordam beradi, shuningdek ularga bo’lgan reaktsiyani kuchaytiradi yoki ularning o’zaro munosabatlari tuzilishiga ta’sir qiladi. Badiiy adabiyotda bu kabi kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish, asarning umumiyoq ohangini va personajlarning o’zaro muloqotini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularda ro’y berayotgan ichki va tashqi konfliktlarni yoritadi.

«Bald on record» strategiyasi gapiruvchi tinglovchiga hech qanday yumshatishsiz, to’g’ridan to’g’ri o’z talab yoki fikrini bildirganda, ijtimoiy adab-axloq yoki xushmuomalalik qoidalariga itoat qilmaganda, tinglovchining «yuz»iga tahdid solganda namoyon bo’ladi. Bu harakatlar tinglovchining ijtimoiy obro’siga yoki mustaqilligiga zarar yetkazishi mumkin, shuning uchun xushmuomalalik nazariyasida ularni yuzga tahdid soluvchi nutqiy harakatlar deb tasniflashadi. Bu strategiya kontekstdan va suhbatdoshlar o’rtasidagi aloqlardan kelib chiqqan holda ishlataladi va har doim ham salbiy ta’sir qilmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Turdiyeva, “Nutqiy etiket birliklarining lingvopraktik tadqiqi”, dissertatsiya – Toshkenr – 2020,23-bet
2. Geoffrey Leech, The Pragmatics of Politeness.Oxford University Press -2014. USA. 3-pp
3. Regina Seiwald, The Importance of Face in “Politeness Theory”. Germany – Grin Verlag, - 2011. 3-pp
4. Penelope Brown&Stephan C. Levinson, Politeness – Some universals in language usage. Cambridge Universiteti Press, New York - 1987. 94-98
5. F. Yuldasheva, Politeness strategies., International Scientific Conference, <http://www.conferenceseries.info>, 2021. 80-82-bet.
6. Madaminova M. Matn pragmatik tafsifida sintaktik birliklarning o’rni “Bookmany print” Toshkent – 2023 31-bet
7. Thameemul Ansari, Dimensions in Discourse: Elementary to Essentials- 2013. 71-bet. www.google.co.uz
8. Tohir Malik, Alvido bolalik, qissa. wwwziyouz.com 4-, 28-, 59-, 78-betlar
9. Tohir Malik, So’nggi o’q, qissa. wwwziyouz.com 21-bet
10. Tohir Malik, Shaytanat -2, roman. wwwziyouz.com 136-bet
11. Tohir Malik, Shaytanat – 3, roman. wwwziyouz.com 76-bet

ТВОРЧЕСТВО ХУДАЙБЕРДЫ ТУХТАБАЕВА В АСПЕКТЕ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК

Шаропова Нафиса Бахшилло кизи,
Базовый докторант Навоийского государственного педагогического института

Аннотация. Худайберды Тухтабаев – выдающийся узбекский детский писатель, чьи произведения получили признание как в Узбекистане, так и за её пределами. Произведения писателя отличаются яркими образами и живым языком, что делает их популярными среди читателей разных возрастов. В данной статье исследуется творчество Х.Тухтабаева в контексте его перевода на русский язык Эрвином Умеровым, рассматривается история русскоязычных переводов произведений писателя, особенности его стиля и анализируются трудности перевода.

Ключевые слова: художественный перевод, детская литература, Худайберды Тухтабаев, язык, творчество.

XUDOYBERDI TO‘XTABOEV IJODI RUS TILIGA TARJIMA JIHATIDAN

Sharopova Nafisa Baxshillo qizi,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Xudoyberdi To‘xtaboev asarlari O‘zbekistonda ham, xorijda ham e’tirof etilgan atoqli o‘zbek bolalar yozuvchisi. Yozuvchi asarlari yorqin tasvirlar va jonli til bilan ajralib turadi, bu ularni turli yoshdagagi kitobxonlar orasida mashhur qilmoqda. Ushbu maqolada X. To‘xtaboev ijodi uning Ervin Umerov tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasi kontekstida ko‘rib chiqilgan, yozuvchi asarlarining rus tilidagi tarjimalari tarixi, uning uslubining xususiyatlari ko‘rib chiqilgan va tarjima qiyinchiliklari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: badiy tarjima, bolalar adabiyoti, Xudoyberdi To‘xtaboev, til, ijod.

CREATIVITY OF KHUDAIBERDY TUKHTABAEV IN THE ASPECT OF TRANSLATION INTO RUSSIAN LANGUAGE

Sharopova Nafisa Bakhshillo kizi,
PhD-student of Navoi State Pedagogical Institute

Abstract. Khudaiberdy Tukhtabaev is an outstanding Uzbek children's writer, whose works have received recognition both in Uzbekistan and abroad. The writer's works are distinguished by vivid images and lively language, which makes them popular among readers of different ages. This article examines the work of Kh. Tukhtabaev in the context of its translation into Russian by Ervin Umerov, examines the history of Russian translations of the writer's works, the features of his style, and analyzes the difficulties of translation.

Key words: literary translation, children's literature, Khudaiberdy Tukhtabaev, language, creativity.

Введение: Написание книг для детей – это возвращение в мир детства. От начала и до завершения произведения писатель должен оставаться в душе ребёнком. Таким человеком и был Худайберды Тухтабаев – народный писатель Узбекистана, яркий представитель узбекской детской прозы. В узбекской детской литературе после «Озорника» Гафура Гуляма не было произведений такого юморного и приключенческого жанра. Хотя «Озорник» вышел в 30-х годах XX века, прошло около тридцати лет, чтобы в детской литературе появилась не менее интересная приключенческо-фантастическая повесть «Волшебная шапка» («Сехрли қалпоқча»). Это произведение в своё время вошло в узбекскую детскую литературу как глоток свежего воздуха, так как произведений в этом жанре практически не было. Х.Тухтабаев внёс огромный вклад в развитие современной узбекской детской прозы и прочно обосновался в нём.

Х.Тухтабаев родился 17 декабря 1932 году в Фергане, в кишлаке Катта Тараб. Он с детства вырос в определённых трудностях: рано лишился отца, познал сиротство, воспитывался у дедушки и бабушки. Позже окончил Кокандский педагогический институт и начал преподавать. Любовь к творчеству в 1958 году привела его в Ташкент, где он начал работать в газете «Ташкент хакикати». В дальнейшем он работал фельетонистом в газете «Голос Узбекистана», здесь он

написал более трёхсот фельетонов. По совету Саида Ахмада, писатель перестал писать фельетоны и решил погрузиться в детскую литературу. Он написал такие рассказы, как «Моё первое дерево», «Беглецы», «Папочка, не пишите», «Вали и Салим» и другие.

Исходя из своей прошлой работы, в качестве фельетониста, он выслушивал проблемы людей и мог передавать их с помощью юмора. По признанию Х.Тухтабаева, во времена, когда он работал в газете, в качестве фельетониста, то пытался расследовать многие преступления, но так и не мог раскрыть их. Тогда он мечтал о волшебном предмете и думал про себя: «Ах, если бы существовала волшебная шапка, надел бы его, стал невидимым, пролез бы в логово преступников и раз за разом раскрывал бы их происки» [3, 33]. Именно эта мысль породила идею написать весёлое приключенческо-фантастическое произведение для детей с использованием волшебного предмета, как шапочка. И, конечно, успех произведения не заставил себя ждать. Повесть «Волшебная шапка» была очень тепло принята юными читателями, что послужило причиной написания продолжения, и превратился в цикл про «Жёлтого дива».

Многие произведения Х.Тухтабаева переведены на таджикский, киргизский, туркменский, азербайджанский, армянский, белорусский, молдавский, эстонский, латышский, литовский, финский, болгарский, венгерский, немецкий, чешский, итальянский, турецкий, французский, греческий – всего на 28 языков мира [3, 110]. Разумеется, причиной такой популярности отчасти является и перевод его произведений на русский язык, так как впервые всемирную славу писателю принёс русский перевод повести «Волшебная шапка». Перевод произведений автора на русский язык – это был не только способ популяризации его творчества за пределами Узбекистана, но и являлось важным звеном в культурном диалоге между народами.

Методология исследования: Используются методы анализа, синтеза, сопоставления подлинника и перевода.

Результаты и обсуждения: В 1970 году повесть-сказка «Волшебная шапка» была удостоена премии на Всесоюзном конкурсе на лучшую детскую книгу. Данное произведение было первой книгой Х.Тухтабаева, переведённой на русский язык Эрвином Умеровым. В 1971 году, в числе других книг для детей, издательством «Детская литература», повесть «Волшебная шапка» в русском переводе была отправлена на выставку Всемирного форума детских писателей, состоявшийся в Италии, в городе Риме, в котором известный детский писатель Джанни Родари тепло отозвался о произведении. И на первой странице газеты «Унита» вышла его статья, в которой он отметил юмор и богатство фантазии Х.Тухтабаева и перевёл первую главу повести на итальянский язык. Здесь следует отметить, что прочитал он русскоязычный перевод «Волшебной шапки» и дал оценку именно этой версии повести. На большинство других языков произведения писателя так же были переведены с русского, то есть за основу был взят не оригинал книги, а его перевод на русском языке.

«Волшебная шапка» в русском переводе была переиздана несколько раз. Первое издание было выпущено в 1970 году в издательстве «Детская литература» (Москва). Второе издание вышло в свет в 1976 году в том же издательстве. И только в 1982 году она была опубликована в Ташкенте издательством литературы и искусства имени Гафура Гуляма. В 1990 году вышла книга под названием «Повести», где эта повесть снова была переиздана издательством «Детская литература». Следует отметить, что и после независимости книга выпускалась издательством «Янги аср авлоди» несколько раз.

Следующим произведением, переведённым на русский язык, является роман «Конец жёлтого дива» («Сарик девнинг ўлими»), являющийся продолжением «Волшебной шапки». Данный роман был опубликован в Ташкенте издательством «Ёш гвардия» в 1976 году. Книга была так же переиздана в 1984 году издательством литературы и искусства имени Гафура Гуляма.

В 1980 году в Москве были опубликованы сразу два произведения Х.Тухтабаева на русском языке: документальная повесть «Звёзды Конизара» («Конизар юлдузлари») издательством «Детская литература» и «Свет в заброшенном доме» («Беш болали йигитча») издательством «Молодая гвардия».

Последним переведённым произведением на русский язык является роман «Золотой выкуп» («Қасоскорнинг олтин боши»), изданный в 1986 году в Москве издательством «Молодая гвардия», а в 1989 году данный роман был опубликован издательством «Ёш гвардия» в Ташкенте, но уже под

изменённым названием «Золотая голова мстителя».

Нужно отметить, что в переизданиях, и в новых публикациях периода независимости все вышеперечисленные произведения на русском языке публиковались и публикуются в переводе Эрвина Умерова. В настоящее время других вариантов перевода произведений Х.Тухтабаева на русский язык не существует.

Если говорить об искусстве перевода, то это целая наука, которую не так уж легко постигнуть. Переводчик оперирует языковыми единицами, но объектом передачи в переводе является именно смысл, а не слова. Иначе говоря, переводчик передает смысл всего текста, а не переводит отдельные слова. Этот основополагающий принцип перевода был высказан христианским писателем и богословом Иеронимом Стридонским еще в 4 веке н.э.: «...я передаю не слово словом, а мысль мыслью» [1, 19].

Ведь художественный перевод – это не только перевод значений определённых слов построчно или «слово в слово», перевод — это всегда совместное творчество переводчика с автором произведения. Переводя с одного языка на другой, переводчик скрупулёзно отбирает слова для воссоздания произведения, а также в ходе перевода что-то убирает, что-то ослабляет, или, наоборот усиливает, но при этом всегда придерживается логики характера героя или смысла всего произведения.

Уже в 19 веке известный русский переводчик Иринарх Введенский провозглашал право переводчика на любые «отсебятины», если он проникся духом оригинала, перевоплотился в его автора и может восполнить любые упущения, почему-либо присутствующие в оригинале. Так, переводя роман Ч.Диккенса «Девид Копперфильд», он сочинил от себя конец второй главы, внёс многочисленные изменения в текст романа [2, 86].

Переводчик произведений Х.Тухтабаева сталкивается с рядом сложностей, связанных как с языковыми, так и с культурными особенностями. Важно сохранить не только смысл и сюжет оригинала, но и его атмосферу, стиль и эмоциональную напряжённость. Для этого Э.Умеров использует различные методы и приёмы, такие как:

1. Адаптация языковых оборотов: переводчик старается найти эквивалентные выражения на русском языке, которые передадут ту же эмоциональную нагрузку, что и оригинал.

2. Учёт культурных отличий: переводчик учитывает культурные особенности и традиции обеих стран, чтобы передать смысл и атмосферу произведения максимально точно.

3. Сохранение стиля: важно сохранить стиль и манеру изложения Х.Тухтабаева, его характерные образы и выразительные средства, так как без этого перевод станет безликим.

Если обратить внимание на перевод произведений Х.Тухтабаева, то можно увидеть не просто перевод, а творчество Умерова в полном смысле этого слова. В произведении «Волшебная шапка» Хашимджан просто надевает шапочку и становится невидимым или просто озвучивает ей своё желание, например, как прибавление себе роста, и шапочка выполняет его желания. В переводе, прежде чем просить что-то, Хашимджан произносит присказку, которой учит его шапочка: «Наверху небо, внизу земля, исполни моё желание, шапочка моя!» [4, 24] Это похоже на определённые волшебные слова, которые используются в сказках: «сим-сим открайся» (Сказка про Али-Бабу и 40 разбойников), или «по щучьему велению, по моему хотению» (русская народная сказка), или «сивка-бурка, вещая каурка, встань передо мной как лист перед травой» (сказка «Сивка-Бурка»), без которых желание не сбудется, так как это является условием исполнения желания. Переводчик хочет этим показать сказочность и фантастичность происходящего.

Переводчик, придерживаясь мысли Х.Тухтабаева, все основательнее проникает во внутренний мир Хашимджана, чтобы на другом, в данном случае на русском языке показать изменения, совершающиеся в сознании героя. Но и в то же время существуют определённые моменты, с которыми мы не согласны. Например, изменение фамилии героя Хашимджана Рузиева на Хашимджана Кузыева или то, как главный герой становится отличником и пишет конспекты по предметам, а в переводе волшебная шапочка подсказывает ему, а Хашимджан за ним повторяет и, таким образом, отвечает по предметам устно [5, 27]. Здесь возникает вопрос, при подсказывании в классе, кто-то из учеников мог услышать голос шапочки и раскрыть тайну Хашимджана. Но в то же время, можно увидеть некую логичность, так как в школе учителя, в основном, спрашивают устно и не читают конспектов учеников, и возникает вопрос о том, не удивились ли учителя тому, что он пишет всё на отлично, а устно не отвечает. Хотя в оригинале Хашимджан объясняет

учителям причину тем, что его устная речь не развита.

Любой перевод, его особенности по большей части зависят от оригинала, его содержания, художественной формы и т. д. Но немаловажное значение имеет также индивидуальность переводчика. Сам Э.Умеров написал такие произведения для детей, как «Его звали Сабырли», «Тайна высоты», «Чёрные поезда» и др. И это является важным фактором, так как, при переводе художественных произведений, недостаточно просто знание языка, а нужен творческий подход в качестве писателя.

Заключение: Перевод может получиться посредственным, если переводчик не обладает навыками писательства. Из этого следует, что переводчик глубоко понимает идею и мысль, которую хочет выразить Х.Тухтабаев. И, конечно же, Э.Умеров принимает во внимание интересы русскоязычных читателей, ведь именно при переводе учитываются менталитет, традиции и мышление принимающей стороны. Если не учесть эти факторы, то перевод произведения может быть неинтересен для читателей переводного произведения. Переводчик сталкивается с рядом трудностей, но благодаря своему творческому подходу и професионализму удается сохранить и передать всю глубину и красоту творчества Х.Тухтабаева. Исходя из количества переизданий произведений Х.Тухтабаева на русском языке, можно сделать вывод, что перевод заинтересовал и был тепло принят русскоязычными читателями.

Список литературы:

1. Гарбовский Н.К. История перевода и переводческих учений // Вестник Московского университета, №3. – М., 2009. – С. 3-35.
2. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. - М.: ЭТС, 2002 – 421с.
3. Норматов У. Саргузашт сардори. - Тошкент: Адиб, 2012. – 112 б.
4. Тухтабаев Х. Повести. - М.: Детская литература, 1990. – 508 с.
5. Тўҳтабоев Х. Сариқ девни миниб: Саргузашт роман. - Тошкент: Ёш гвардия, 1982 – 464 б.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QO'L HARAKATI FE'LLARINING SEMANTIKASI

Boboyarova Dilrabo Faxritdinovna,
Navoiy Davlat Pedagogika instituti

Annotatsiya: maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi harakat fe'llarining semantik masalalari, qo'l harakati fe'llarining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillari harakati fe'lining qiyosiy taqlili bu semantik jihatdan aniq ko'rsatadigan, ayniqsa tegisqli mikropolning makonida amalga oshiriladi harakat fe'llarining parametrlari, shuningdek, ma'nno qirralari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: qo'l harakati fe'llarining semantikasi, harakat fe'llari, ingliz tilidagi fe'llar, o'zbek tilidagi harakat fe'llari, semantika.

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ ДВИЖЕНИЯ РУК В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Бобоярова Дилрабо Фахритдиновна,
Навоийский государственный педагогический институт

Аннотация: В статье рассматриваются семантические вопросы глаголов действия в английском и узбекском языках, особенности глаголов действия руки. В то же время сравнительный анализ глагола действия английского и узбекского языков проводится в пространстве соответствующего микрополя, особенно в тех, которые семантически ясно показывают параметры глаголов действия, а также размышают о гранях значения.

Ключевые слова: семантика глаголов движения руки, глаголы действия, глаголы английского языка, глаголы действия узбекского языка, семантика.

SEMANTICS OF HAND MOVEMENT VERBS IN UZBEK AND ENGLISH

Boboyarova Dilrabo Fakhritdinovna,
Navoi State Pedagogical Institute

Abstract: The article discusses the semantic issues of action verbs in English and Uzbek, the features of hand action verbs. At the same time, a comparative analysis of the action verb of the English and Uzbek languages is carried out in the space of the corresponding micropole, especially in those that semantically clearly show the parameters of the action verbs, as well as reflect on the facets of meaning.

Keywords: semantics of verbs of hand movement, verbs of action, verbs of the English language, verbs of action of the Uzbek language, semantics.

Kirish. Tilshunoslikda fe'llar, xususan, harakat fe'llari atroficha o'rganilgan, shuningdek, uning semantikasi, oyoq va qo'l harakati bilan bog'liq ma'nolar taqlil qilingan. Jumladan, G'.Mirsanova ta'kidlashiga ko'ra yurish harakati lingvistik tushuncha bo'lib, u subyektning muayyan makonda oyoqlar yoki transport vositalari yordamida amalga oshiradigan harakatini ifodalash uchun qo'llaniladi (1, 39). Subyektning shunday harakatini aks ettiruvchi fe'llar tilshunoslikda yurish-harakat fe'llari deb ataladi. Har bir fe'l u qanday harakatni ifodalashidan qat'iy nazar, o'zining leksik ma'nosiga egadir.

O. E. Mavlonberdiyevan fikricha, so'zning leksik ma'nosini tilga bog'liq bo'lmasan borliq bilan o'zaro chambarchas bog'liqlikda bo'lib, u ikki ko'rinishda bo'ladi:

1) signifikativ ma'no,

2) denotativ ma'no. Har bir harakat fe'li leksemasi boshqa fe'llardan denotativ ma'nosini orqali farqlanadi, hamda ular signifikativ ma'no doirasida birlashadi. So'zlarning ma'no jihatidan bunday bog'langanligi bitta tematik guruhni, bitta semantik maydonni tashkil etadi. Olimaning ushbu qarasqlari yurish-harakat fe'llari doirasiga ham mos keladi. Xuddi shunday, yurish-harakat fe'llari ham fe'l leksemasi o'ziga xos semantik maydonni tashkil etib, barcha yurish-harakat fe'llari mazkur leksik-semantik maydon doirasida birlashadi. Tilimizda mavjud bo'lgan fe'llarni semantik jihatdan chuqur o'rganishda ularni har tomonlama tasniflash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, leksik-semantik, aksional tasnif shular jumlasidandir. Mazkur maqolamizda o'zbek tilidagi yurish-harakat fe'llarining aksional semantikasini aniqlash maqsadida, biz ularni aksional jihatdan guruqlarga ajratamiz. Fe'llarning aksional

semantikasini aniqlashda ularni chegaralanganlik, chegaralanmaganlik, limitativ neytrallik guruqlariga ajratish muhimdir, chunki bunday tasnif fe'l semantikasini yanada chuqurroq taqlil qilish uchun katta yordam beradi. Shu o'rinda, aksional tasnif tushunchasiga izoh berish o'rnlidir. E. V. Paduchevaning ta'kidlashicha, aksional tasnif – bu jonli va rivojlanuvchi sohadir.

Shu ma'noda o'zbek va ingliz tillarida qo'l harakati fe'llari ham tizimli o'rganishni taqozo qiladi. Jahon tilshunosligida fe'llarni aksional jihatdan tasniflash ilk bora L. Vendler tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik (Melig, Buligina, Maslov, Rizayev, Raxmankulova, Xolod, Mirsanov)lar tomonidan ham amalga oshirilgan. Mazkur masalani turkiy tillar, xususan, o'zbek tili doirasida o'rganadigan bo'lsak, dastavval ushbu muammoning o'rganilish tarixiga nazar solish maqsadga muvofiqdir. Turkiy tillarda morfologikgrammatik tus kategoriyasining mavjud emasligi haqidagi fikr o'z tasdig'ini topgunga qadar, turkiy tillardagi fe'llarning chegaralanganlik ma'nosi tugallangan tus hamda chegaralanmaganlik esa tugallanmagan tus sifatida qabul qilinar edi .

A. Muminovaning fikricha, yurish-harakat fe'llarini aksional guruqlarga ajratganda, bir necha leksiksemantik guruhni bir aksional guruhiga birlashtirish mumkin.

Xususan, yurish-harakat fe'llarining chegaralanganlik/chegaralanmaganlik guruqlarga ajratilishida yo'naliш ma'nosiga ega yoki ega emasligiga e'tibor qaratiladi. Shu bois, yurish-harakat fe'llarini quyidagi aksional guruqlarga ajratamiz: 1) chegaralangan; 2) chegaralanmagan; 3) ikki aksional xususiyatlari yurish-harakat fe'llari. Chegaralanganlik semantikasiga mansub yurish-harakat fe'llarini yana o'z navbatida bir necha kichik guruhchalarga ajratish mumkin: a) subyekt yoki obyekt tomon yo'naliш ma'nosini ifodalovchi fe'llar: kelmoq, kirmoq, yaqinlashmoq, yetmoq, va b.; b) subyekt yoki obyektdan uzoqlashish ma'nosini ifodalovchi yurish-harakat fe'llari: ketmoq, chiqmoq, chekinmoq, uzoqlashmoq, yiroqlashmoq, qaytmoq fe'llari va yo'lga tushmoq, yo'lga chiqmoq, yo'l olmoq, yo'l solmoq, kabi qo'shma fe'llar. Lekin shuni aytib o'tish lozimki, yo'lga tushmoq, yo'lga chiqmoq, yo'l olmoq, yo'l solmoq qo'shma fe'llarini ham ob'yektdan uzoqlashish, ham obyektga yaqinlashish ma'nosini ifodalovchi fe'llar guruhiga kiritish mumkin .

Qo'l harakati fe'llarining semantikasi darajalanishga ham bevosita bog'lanadi. O.Bozorovning dissertatsiyasidagi «Grammatik sistemada darajalanish» bobida esa fe'llarning ma'noviy mundarijasi ko'lamlarida, fe'l kategoriyalari o'rtasida va funksional formalarida darajalanish hodisasini yoritib bergen. Unda fe'llarning ma'noviy ko'lamlarida, fe'l kategoriyalari va funksional formalaridagi darajalanish hodisasiga to'xtalib o'tgan. Fe'llar ma'noviy mundarija ko'lamlari bo'yicha tor- keng bo'lishida (jo'natmoq(bir kishi)-qo'zg'almoq (xalq); (urushmoq-urishmoq); harakatning holatga o'tib borishida: 1) sof harakat (uchmoq, yugurmoq) ^ harakat- holat (sevinmoq, uyg'onmoq) holat (qarimoq, qizarmoq) kabi darajalanislarga ega ekanligini ko'rsatgan qo'l harakati fe'llarida shu kabi ma'noviy darajalanish mavjud, bu borada maxsus tadqiqot olib borish zarur.

Qo'l harakati fe'llari ham xuddi shunday semantik ma'nolarni ifodalaydi. O'zbek tilidagi qo'l harakati fe'llari xususiyatiga ega fe'llar quyidagicha ko'rinish oladi:

a) so'zlovchi yoki obyektga yo'nalganlik fe'llari: silkitmoq, urmoq, ko'tarmoq, tushirmoq, qo'ymoq va b.

b) obyektdan "uzoqlashish" ma'nosini ifodalovchi yurish-harakat fe'llari: chertmoq, turtmoq, silamoq, chiqmoq, chekinmoq, uzoqlashmoq, yiroqlashmoq va yo'lga tushmoq, yo'lga chiqmoq, yo'l olmoq qo'shma fe'llari;

v) obyektdan "o'tish" ma'noli fe'llar: o'tmoq, oshmoq va b.

g) bir aktlilik fe'llari: chiqmoq, kirmoq;

2. Ikki aksional xususiyatlari fe'llar guruhiga: a) subyektning makondagi harakatini bildiradigan fe'llar: yurmoq, suzmoq, uchmoq; b) intensiv harakatni bildiruvchi chopmoq, yugurmoq fe'llari;

3. Chegaralanmagan aksional semantikali yurish-harakat fe'llariga harakatning tarzini bildiradigan: a) yo'rg'alamoq, dikillamoq, emaklamоq va boshqalar; b) harakatning keng makondagi yo'nalihsiz harakati: daydimoq, kezmoq va boshqalar kiradi.

S.Maslov ta'kidlaganidek, fe'l vaqt davomida sodir bo'ladigan belgining, harakatning grammatis ahamiyatini ifodalaydigan so'z turkumi bo'lib hisoblanadi. Harakatning grammatis ahamiyatini keng ma'noda tushunish mumkin. U nafaqat harakat va tom ma'nodagi faoliyatni ifodalaydi, balki holatni va ma'lum bir predmet yoki shaxsning mavjudligini ko'rsatadi. Masalan:

A chair is a piece of furniture.

He wrote a letter.

He will soon recover.

Muhimi shundaki, fe'l o'zida ma'lum bir vaqt davomida sodir bo'ladigan harakatga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Bu xususiyatlar fe'lning shaxsli shakllarida (Finite) namoyon bo'ladi va shuning uchun ham fe'l shaxsli shakllarining sintaktik vazifasi gapda faqat kesim sifatida qo'llanilishdan iboratdir.

Fe'lning so'z o'zgartirish tizimi boshqa so'z turkumlariga qaraganda ancha boy va xilma-xildir. U nafaqat flektiv tillarga xos bo'lgan sintetik usulga ega, balki o'zakka formantlar qo'shilishi yoki analitik usulga ham egadir. Shuni ta'kidlash joizki, fe'l analitik shakllarga ega bo'lgan yagona so'z turumi hisoblanadi. Fe'llarning so'z o'zgartiruvchi tizimiga alohida e'tibor qilsak, affiksatsiya usuli bilan yasaladigan suffiksli fe'llar ancha kamchilikni tashkil etishining va konversiya yo'li bilan yasaladigan qo'shma fe'llarning anchagini ko'pligining guvohi bo'lamiz.

Qo'l harakati bilan bog'liq fe'llarning sematikasini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

T/r Qo'l harakati fe'llarining semantikasi Misollar

1. Yo'naliш, ishorani ifodalovchi ko'rsatmoq, ko'tarmoq, tushirmoq
2. Holatni ifodalovchi artmoq, silamoq, berkitmoq,
3. Ogoqlantirish ma'nosini ifodalovchi chimchilamoq, chertmoq turtmoq,
4. Munosabatni ifodalovchi siqmoq, urmoq, quchmoq, itarmoq
5. Harakatni ifodalovchi olmoq, bermoq, qo'yamoq, tasqlamoq
6. Kommunikativ munosabat ifodalovchi yozmoq, bitmoq, qo'l qo'yamoq

Qo'l harakati fe'llarining semantikasi iboralar, xalq maqollarida ham yaqqol ko'rindi.

Masalan:

T/r Iboralar tarkibida Maqollar tarkibida

1. qo'l bilan berib oyoq bilan yuqurmoq Qaroqchi qo'rqtib oladi, o'g'iri berkitib.
2. og'zing qami desa, qulog'ini ko'rsatmoq Olmoqning bermog'i bor.
3. Tutgan yerini kesmoq Ko'r tutganini qo'ymas, kar eshitganini

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qo'l harakati fe'llari kontekstda turli ma'no semalarini ifodalab keladi. Dastlabki kuzatishalardan ma'lum bo'lib turobdiki, asosan, maqol va iboarlarda qo'l harakat fe'llari rang-barang ma'no ifoda qilmoqda. Keltirilgan fikrlar, misollarga tayanib aytish mumkinki, insonda qo'l asosiy a'zo bo'lgani bois u bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'llar semantikasi ham keng qamrovlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирсанов Ф.К. Инглиз ва ўзбек тилларида юриш-харакат феълларининг акционал ва аспектуал хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. — Самарқанд, 2009. — 155 б.
2. Насилов Д.М. Качественная аспектуальность в тюркских языках // Востоковедение. Вп. 12: Филологические исследования. — Л.: 1986. — С. 53–59.
3. Muminova A. O. O'zbek tilida yurish-harakat fe'llarining aksional tasnifi//O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 1 (42). — B. 47–56.

ПАРЕМИЯЛАРДА “ҲАҚИҚАТ” ТУШУНЧАСИННИГ КОНЦЕПТУАЛ ТАДҚИҚИГА ДОИР

Муминова Насиба Солижон қизи,
Тошкент амалий фанлар университети ўқитувчиси

Аннотация: мақолада когнитив тилшунослик, концепт ҳақида фикр-мулоҳазалар баён қилинган, хусусан, ҳақиқат концептининг ўзига хос жиҳатлари, ўзбек ва инглиз паремияларида ҳақиқат концептининг ўхшаш ҳамда фарқли жиҳатлари асословчи мисоллар қиёсий таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: когнитив тилшунослик, концепт, фрейм, паремия, мақол, ибора, афоризмлар, ассоциация, лугавий маъно, этиология

О КОНЦЕПТУАЛЬНОМ ИССЛЕДОВАНИИ ПОНЯТИЯ «ИСТИНА» В ПАРЕМИЯХ

Аннотация: в статье описывается когнитивная лингвистика, отзывы о концепте, в частности, проводится сравнительный анализ конкретных аспектов концепта реальность, сходных и отличающихся аспектов концепта реальность в узбекских и английских паремиях, приводятся обосновывающие примеры.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт, фрейм, паремия, пословица, словосочетание, афоризмы, предположение, лексическое значение, этимология

ON THE CONCEPTUAL STUDY OF THE CONCEPT OF «TRUTH» IN THE PARODIES

Abstract: the article describes cognitive linguistics, reviews of the concert, in particular; a comparative analysis of specific aspects of the concept of reality, similar and different aspects of the concept of reality in Uzbek and English parodies is carried out, substantiating examples are given.

Keywords: cognitive linguistics, concept, frame, parody, proverb, phrase, aphorisms, assumption, lexical meaning, etymology

Паремияларда ҳар бир ҳалқнинг менталитетига хос тушунчалар яхши сақланиб қолади. Жумладан, ҳар бир миллатнинг ўз ҳақиқати мавжуд ва улар тил воситалари ёрдамида ифода килинади. Мақоллар бу борада муҳим манба бўлиб хизмат қиласиди. Мазкур муаммо когнитив тилшуносликда ўрганилади.

Когнитив тилшунослик, бу – тилшунослик йўналиши бўлиб, унинг дикқат марказида когнитив механизм, когнитив қурол (инструмент), ахборотни кодлаш ва қайта шакллантиришда муҳим роль ўйновчи билимлар тизими сифатида талқин қилинадиган тил туроди [1, 53]. Бинобарин, когнитив тилшуносликнинг асосий муаммоси – лисоний коммуникациянинг билимлар билан айрибошлиш асослари қолипини яратишдир.

В.Хумболт тил – инсон ҳаёти ва билимини чўлғаб олган руҳнинг энг муҳим асосий фаолияти эканлигини аллақочон таъкидлаган эди. Ва ниҳоят, олимлар эътибори айнан когнитив тилшуносликда тилнинг билиш шарти ва қуроли сифатидаги ролини аниқлашга йўналтирилади. Ҳар қандай тил оламдаги қандайдир нарсани ифодалаб яратувчилик билан шугулланади, чунки у шу тилда сўзловчи учун дунё манзарасини шакллантиради.

Тил ёрдамида қурилган концептуал структуралар шахснинг реал тажрибасига қараганда, эҳтимолий тажрибасига кўпроқ тааллуқлидир [2, 114]. Бир тизимнинг турли концептлари айнан бир лисоний шакл билан ифодаланиши мумкин. Бу, ўз навбатида, тил ифода воситаларининг бир нарса эмаслигини акс эттиради. Биз одам ва от чопаяпти, вақт чопаяпти, фикр чопаяпти, ҳаёт чопаяпти деймиз. Аммо лисоний ифодалар ҳар қандай ҳолатда ҳам муайян концептга (ёки унинг қурилишига) мос бўлади. Шунинг учун лисоний ифодани тушуниш Р.Павиленис томонидан унинг семантик объектларнинг муайян кўплиги терминларидаги эмас, балки маълум концептуал тизимдаги изоҳи сифатида қаралади.

Инсоннинг билиш фаолияти (когницияни) унинг оламда ўз ўрнини белгилай олиш қобилиятини ривожлантирувчи ходиса сифатида қарамоқ лозим. Бу фаолият эса объектларни умумлаштириш

ва ўзаро фарқлаш зарурияти билан чамбарчас боғланган: концептлар бундай ишларнинг бажарилишини таъминлаш учун юзага келади. Концептларни аниқлаш ва тавсифлаш учун айрим белгиларнинг ўзаро ажралиши мумкинлиги ҳам, ҳаракатларнинг обьектлар билан муносабати ҳам, уларнинг охирги мақсадлари ҳам шундай ҳаракатларни баҳолай олиш керак бўлади. Аммо когнитологлар бу омилларнинг ролини билсалар-да, концептлар қандай юзага келади, деган саволга жавоб беролмайдилар ва қўпинча, умумий мулоҳазалар билан чекланадилар[4,25].

Концепт тушунчаси кишининг фикрлаш жараёнларида ишлатиладиган, тажриба ва билим, инсон бутун фаолияти ҳамда оламни билишнинг қандайдир «квантлари» кўринишидаги жараёнлар натижалари мазмунини акс эттирадиган маънолар ҳақидаги тасаввурга жавоб бўлади (Петров 1979, 55; Хинтика 1980, 90-92).

Хозир тилшунослиқда концепт тушунчасига ёндошувнинг умумий ҳолатга асосланадиган уч асосий йўналишини кўрсатиш мумкин: концепт тушунчаси ифодаловчи бирлик, маънонинг синоними. Биринчи ёндошув (вакили Ю.С. Степанов) концептни ўрганишда асосий эътибор культурологик аспектга қаратади. Чунки бунда бутун маданият концептлари ва улар орасидаги муносабатларнинг мажмуи сифатида тушунилади. Бинобарин, концепт – инсон идрокий оламидаги маданиятнинг асосий бўгини. У концептларни европа маданиятининг таркибий қисми сифатида тақдим этади. Концептлар жамоавий лисоний онгда марказий ўрин тутади ва шунинг учун уларни ўрганиш беҳад муаммога айланади.

В.Н. Телия ҳам «концепт – бу биз ўзининг экстенсив ҳолатида олинган обьект ҳақида билган нарсаларимиз, деб ҳисоблади. «Концепт» терминини бундай тушуниш тилнинг ролини иккинчи қаторга суриб юборади. Аслида у ёрдамчи восита – концепт маданияти қаймоғининг тилланиш (тилга ўтиш) шаклидир.

Концептни тушунишга бўлган иккинчи ёндошув (Н.Д.Арутюнова ва унинг мактаби), Т.В.Булыгина, А.Д.Шмелев ва бошқалар) лисоний белги маъносини концепт мазмунини шакллантиришнинг ягона воситаси сифатида талқин қиласиди. Шунга яқин фикрни Н.Ф.Алефиренко ҳам билдирган. У ҳам концептга нисбатан семантик ёндошув маъқул эканлигини таъкидлайди ва уни когнитив семантиканинг бирлиги сифатида тушунади.

Учинчи ёндошув тарафдорлари Д.С.Лихачев, Е.С.Кубрякова ва бошқалар. Уларнинг фикрича, концепт бевосита сўз маъноси асосида пайдо бўлмайди, балки сўз маъносининг инсон шахсий ва хаётий тажрибаси билан тўқнашуви ҳосиласидир, яъни концепт сўзлар билан борлик орасидаги воситадир.

Концепт, Е.С.Кубряковага кўра, – бу ментал лексиконнинг хотиралиги тезкор мазмуний бирлиги сифатида миянинг концептуал тизими (Lingua mentalis), олам манзарасининг инсон рухиятида акс этишидир.

Е.С.Кубрякова концепт таҳлилида сенсор жараёнлар тавсифида психологиядаги қўлланиладиган фан ва фигура тушунчаларидан фойдаланишни асосли ҳисоблади. Фан ва фигуранинг қарама-қарши қўйилиши инсон ўзини бутуннинг бир бўлаги сифатида ва муайян фанда (муҳит, маконда) идрок этиш ҳамда оламдаги бошқа барча жисм-нарсаларни ҳам худди шундай тушуниш билан боғлиқ. Шундай қилиб, муаллиф тил ва унинг категориялари асосида инсоннинг кўзга аниқ ташланиб турган тажрибаси ва у факат шу тажрибага мурожаат қилиш орқали мавҳумроқ соҳаларга кириб бориши ва ўзининг бевосита кузатишда берилмаган нарса-ходиса ҳақидаги тасаввурларини ҳосил қила олиши мумкинлигини асослайди.

| Луғатдаги маъноси | Паремияларда ифодаланган маъноси |
|--|---|
| хақиқат <i>от</i> 1. Чиндан ҳам бўлган, воқеликка мос ҳолат, нарса. Ишга келганидан бери энди битта жиддий топшириқ олди, ҳақиқатни айтмаслик гунох. <i>Ф. Мусажонов, Ҳиммат</i> Инсон баҳти меҳнатда эканлиги айни ҳақиқат. <i>Газетадан</i> Дейдилар: ҳар замоннинг бордир ўз тарозиси, Оҳ, нақадар рост эрур ушбу буюк ҳақиқат. <i>A. Орипов, Юртим шамоли</i> | Ҳақиқат қилни қирқ ёрат. Ҳақиқат эгилади, букулади, лекин синмайди. Ҳақиқат осмонда – нарвони ҳамёнда Ҳақиқат ўтда ёнмайди, сувда чўкмайди. Ҳақиқат қуёшdir, яшириб бўлmas. |
| 2. Маълум тартиб-қоида, конунларга мос иш, хатти-ҳаракат, ҳолат; ростлик, тўғрилик. Халқ афсоналарда ўз орзу-умидларини, юрак нидосини яхшилик ва ҳақиқат учун курашни ифодалаган. <i>Ўзбекистон қўрикли</i> Қаҳрамонлар ҳақида очерк ёзиш учун уларни қидириб топиш, саргузаштларни ҳақиқат, адолат тарозисида тортиб кўрмоқ керак. <i>H. Сафаров, Оловли излар</i> | Адоват эмас, адолат енгар. Адолат қиличи кесган қўл оғримас. Адолат қиличи кескир бўлар. Ҳақ жойда қарор топар. Ҳақ ишни халқ қўллар. |
| 3. флс. Киши онгигда воқеликнинг, объектив борлиқнинг ҳаққоний, тўғри акс этиши. 4. Ростлиги фанний йўл билан исботланган, тажрибада синалган ҳолат, ҳукм, фикр. | Ҳақ ишни халқ қўллар. Ҳақ ноҳақ бўлmas. Ҳақ эгилар, ноҳақ синар. Ҳақ эгилса ҳам, синмайди. Ҳақ ўз дўпписининг тагида. |
| Мана шу соддагина ривоят замирига санъатнинг моҳияти ҳақидаги улуғ ҳақиқат сингдириб юборилган. <i>Ёшлик</i> Мен Мирзо сўзига амал қиласман, унинг гапида ҳақиқат борлигига дилим ишониб турибди. <i>Мирмуҳсин, Меъмор</i> | Ҳақ ўттар, ҳақлиқ ютар. Ҳақ — ҳамиша ғолиб. Ҳақ ҳаққа чикар, Ноҳақнинг бўйни синар. Ҳақиқат ўтда ҳам куймас, Сувда ҳам чўкмас. |
| 5. дин. Илоҳиятни (худонинг борлигини) ўз-ўзидан англашиладиган, исбот талаб қилмайдиган, шубҳадан ташқари, аниқ бир ходиса деб тушуниш. | Ҳақиқатнинг юзи — ёруг, қўли — узун. |
| https://izoh.uz/uz | http://interscience.uz |

Ҳақиқат тушунчасининг мазмун моҳиятини очиш учун унинг лугавий маъноси етарли бўлмайди. Тушунча концепт даражасида ўрганилиши зарур.

Таҳлил материалидан англашиб турибдики, ҳақиқат тушунчаси фақат ҳақиқат лексемасининг ўзи билан эмас, турли бошқа лексемалар билан ҳам ифодаланади:



“Ҳақиқат” концептиning лингвокогнитив ва лингвокултурологик таҳлили ушбу концептнинг маълум бир жамият тили ва маданиятида қандай идрок етилиши, талқин қилиниши ва ишлатилишини ўрганишни ўз ичига олади. Бундай ҳолда, “ҳақиқат” тушунчасини тилшунослик, когнитив ва маданий ёндашувлар нуқтайи назаридан таҳлил қилиб, бир неча асосий жиҳатларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

Лингвокогнитив таҳлил:

1. Когнитив моделлар: «ҳақиқат» концепти лингвистик онгнинг когнитив моделларида қандай ташкил етилганлиги ва унинг маданий контекстдаги бошқа концептлар билан қандай алоқаси борлигини ўрганиш.

2. Метафорик концептлар: «Ҳақиқат» концепти билан боғлиқ метафорик образларни *tilda* таҳлил қилиш, масалан, «нурли ҳақиқат», «аҷчиқ ҳақиқат» ва ҳоказо. ҳақиқат лисоний ифодаларда акс етади.

3. Кадрлар: «Ҳақиқат» тилга олинганда фаоллашадиган рамкалар ва турли маданий ва лингвистик контексларда ушбу концепт билан қандай ассоциациялар, стереотиплар ва инъикослар боғланганлигини ўрганиш.

Лингвомаданий таҳлил:

1. Маданий кодлар: «Ҳақиқат» концепти муайян жамоа маданиятининг қадриятлари, меъёрлари ва муносабатларини қандай акс еттириши, шунингдек, унинг тарихий, диний ва ижтимоий-маданий жиҳатлар билан боғлиқлигини ўрганиш.

2. Идиомалар ва мақоллар: Ушбу концептнинг ўзига хос идрокини тушуниш учун турли тиллар ва маданиятларда «ҳақиқат» тушунчаси билан боғлиқ идиомалар, мақоллар ва мақолларнинг кўлланилишини таҳлил қилиш.

3. Семантик майдон: «Ҳақиқат» концепти турли маданий ва лингвистик гуруҳларда ўйғотадиган ассоциациялар ва бу тушунчанинг лингвистик ва маданий кўринишларида қандай маънолар акс етишини ўрганиш.

Шундай қилиб, «ҳақиқат» концептиning лингвокогнитив ва лингвокултурологик таҳлил қилиш ушбу концептнинг тил контекстидаги маъносини тўлиқ чуқурлаштиришга, уни маданий хусусиятлар доирасида кўриб чиқишга ва лингвистик белгилар ва маданий тушунчалар ўртасидаги алоқаларни аниқлашга имкон беради.

Н.Махмудов ҳам терминология масаласида тўхталиб, «улар ҳақида тилшуносликда жуда

кўп ёзилган бўлишига қарамасдан, ҳали-ҳамон уларнинг айримлари, масалан: «лисоний шахс», «концепт» терминлари талқинида бир хилликка эришилган эмас», деб ёзади. Бундан ташқари, «концепт» билан «тушунча»ни бир-биридан ажратиш муаммоси ҳам ўз ечимини тўлиқ топган, деб бўлмайди[3;3-16].

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, паремиялар орасида ҳалқ мақолларнинг улуси ва ўрни ўзига хос. Айниқса, ҳақиқат тушунчасини ифодалаш нуқтаи назаридан мақоллар мухим аҳамият касб этади. Ўзбек ҳалқининг ҳақиқат ҳақидаги тушунчаси у йўқолмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкраи Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов / Под общей ред. В.С. Ку-бряковой. М., 1996.
2. Павленис Р.И. Проблема смысла. М.. 1983. С. 101-102.
3. Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 3-16.
4. Маслова В.А. Когнитив тилшунослик. –Самарқанд. 2014. СамДУ – С. 59.
5. <https://qomus.info/>
6. <https://www.biblestudy.org/bible-study-by-topic/proverbs/truth-versus-lies.html>
7. <https://ziyouz.uz/>
8. <https://brightonleadership.com/>
9. Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. (Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф).–Т., 1972.
- 10.Ртищева О.В. Онтологические и гносеологические аспекты функционирования языковой картины мира: автореф. дисканд. философ. наук: 09.00.01, Кемеровский гос. ун-т культ. и искусств. – Кемерово, 2006. – С. 11.

BADIY MATNLARDA METAFORALARNING IFODALANISH DARAJALARI*Gulshan Samadovana Nasrullaeva,**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya: maqolada badiy matnlarda qo‘llanilgan metaforalarning ifoda xususiyatlari, daoajalari va ma’no qirralari, leksik xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos ifoda imkoniyatlari va mahoratini ko‘rsatib turuvchi jihatlar ilmiy tekshirib ko‘rilgan. Badiy matnlarda, ayniqsa, katta epik janrdagi asarlarda metaforadan unumli foydalanishning pragmatik imkoniyatlari lisoniy tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: leksema, leksik ma’no, nasriy matn, o‘qitish usuli, badiy matn, diskurs, metaforik ma’no, roman, epik asarlar, ma’no qirralari, uslubiy imkoniyat, pragmatik taqlil, lingvistik tadqiq, konnatativ ma’no, dialog, lug‘aviy ma’no

УРОВНИ ЭКСПРЕССИИ МЕТАФОР В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ*Гульшан Самедовна Насруллаева,**доцент кафедры «Узбекский язык и литература» Ташкентского университета
информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми*

Аннотация: в статье исследуются выразительные возможности, грани смысла, лексические особенности метафор, используемых в художественных текстах. Также были научно исследованы аспекты, свидетельствующие об уникальных выразительных возможностях и мастерстве писателя. Прагматические возможности продуктивного использования метафоры в художественных текстах, особенно в произведениях великого эпического жанра, были изучены лирически.

Ключевые слова: лексема, лексическое значение, прозаический текст, методика обучения, художественный текст, дискурс, метафорическое значение, роман, эпические произведения, грани смысла, методологические возможности, прагматический анализ, лингвистическое исследование, коннатативное значение, диалог, лексическое значение

LEVELS OF METAPHOR EXPRESSION IN LITERARY TEXTS*Gulshan Samadovna Nasrullahayeva,**Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature at the Tashkent
University of Information Technology named after Muhammad al-Khorezmi*

Abstract: the article explores the expressive possibilities, facets of meaning, and lexical features of metaphors used in literary texts. The aspects that testify to the unique expressive capabilities and skill of the writer were also scientifically investigated. The pragmatic possibilities of productive use of metaphor in literary texts, especially in works of the great epic genre, have been studied lyrically.

Keywords: lexeme, lexical meaning, prose text, teaching methodology, literary text, discourse, metaphorical meaning, novel, epic works, facets of meaning, methodological possibilities, pragmatic analysis, linguistic research, connative meaning, dialogue, lexical meaning

O‘zbek tilshunosligida olamni teranroq anglash vositasi bo‘lgan metaforalarni o‘rganishga doir bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, U.S.Qobulova metaforani adabiy istiloh deb hisoblaydi hamda uni o‘xshatish (tashbeh)ning o‘xshatish vositalari tushib qolishi bilan farqlaydi. Boshqa tillarda bo‘lgani kabi, metaforalarni tekshirish o‘zbek tilshunosligida ham XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib o‘zining jiddiy ilmiy-tadqiqiy rivojini topdi.

O‘zbek leksikologiyasiga doir ko‘p qirrali tadqiqotlarni olib borgan olim M.M.Mirtojiev metaforalarni nutq va til hodisalariga ajratadi. Ayniqsa, D.S.Xudayberganova metaforalar tadqiqiga yangicha, zamonaviy yondashadi. Olim metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o‘xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan

matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini aytadi, metaforalarni ularni matnning pretsedent shakllari sifatida baholaydi.

Biroq tilshunoslikda antropotsentrik tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lsa-da metaforalarning antropomorfik turi maxsus tadqiq etilayotgani yo‘q. Antropomorfik metaforalarni turli diskuslar bilan bog‘lab o‘rganish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegisqli (xos) bo‘lgan (tana a’zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo‘lib, oyoq, qo‘l, og‘iz, til, tish, qulqoq, yeng, yoqa kabi leksemalar ma’nosining metaforik usulda ko‘chishi .

She’riy matnlarda antropomorfik metaforalarning qo‘llanilishi alohida o‘rganishni talab qiladigan tadqiqotlardandir. Buni bir shoir ijodi misolida ham tekshirib ko‘rish mumkin. Bu o‘rinda Sh.Rahmonning metafora yaratish yoki mavjudlarini qo‘llash mahorati e’tiborimizni tordi. Shoir qanday mavzuda yozmasin, albatta, antropomorfik metaforalardan faol foydalanadi.

Sh.Rahmon she’riyati orqalida biz buni tasdiqlaymiz: Tog‘larga termulib suradi xayol.../ Oloy qirlaridan Ketur saraton,/ Sovuq shabadalar uyg‘ondi tag‘in./ Qusqlar qiy-chuviga to‘ladir/ Osmon – Sentabr yaqin/ Ertadan-kechgacha Singlim ikkimiz,/ Soyda cho‘milamiz, cho‘zma otamiz./ Yarim kechgacha kelmay uyqumiz,/ Sirli yulduzlarni sanab yotamiz. Shoir she’riyatini taqlil qilganda shu ma’lum bo‘ladiki, u tog‘ obraziga juda ko‘p marta murojaat qiladi. Aslida uning she’rlarida tog‘ metaforik ma’noga ega, ya’ni ko‘pincha ko‘chma ma’nolar ifodalaydi.

Shoir she’riyatidagi tog‘ – shoirning yuksalib ketgan ruhi, iztirobu quvoncqlari. Shuning uchun bo‘lsa kerak, shoirning ilk she’rlaridan to so‘nggisigacha tog‘lar u bilan yashaydi: Tog‘ xo‘rsinib yubordi og‘ir-/vodiylarga yugurdi shamol,/ yuzlarini yashirdi hilol./ Tog‘ xo‘rsinib yubordi og‘ir, Teran xobdan uyg‘ondi yurak,/ Tog‘lar kabi xo‘rsinmoq kerak. Bu o‘rinda insonlarga xos bo‘lgan xo‘rsinmoq, uyg‘onmoq, yugurmoq fe‘llari tog‘ga, shamolga, yurakka nisbatan qo‘llanilmoqda.

Tog‘ mavzusi uning eng oxirgi she’rlarida ham mavjud: Nodirajon, Shoirajon,/tanam qimir yetmaydi,/ olis-olis vohalardan/ tog‘larimni chaqiring,/ osmon to‘la havolar/ faqat menga yetmaydi.../Nodirajon, Shoirajon/ Tanam qimir yetmaydi,/ boring qorli tog‘larga:/bir shoir yotibdi, deng,/ Xudoning hovlisida.../ Osmon to‘la havolar/ faqat menga yetmaydi.../

Bularning hammasi Vatanga, tug‘ilgan zaminga bog‘langanlik, undan uzilolmaslik – muhabbat edi. Hissiyotlarini shoir metaforadan mahorat bilan foydalangan holda bayon qilgan. “Olis-olis vohalardan tog‘larimni chaqiring”/ deganda, albatta, insonlarga nisbatan berilmoqda.

Tog‘lar shavkat Rahmon she’riyatida muhim o‘rin tutadi. Ayniqa, Oloy tizmalarini boshqa tog‘larga aslo o‘xshamaydi. Ulkan nortuyalarni eslatadi. Guyoki keskir pichoqlarda tig‘lanib tasqlangan qatlaml-qatlaml harsang tosqlarni ko‘rib, tabiatning qudratiga lol qolamiz. Nomlari ham ajabtovor: Ketmontog‘, Kettantog‘, Ettantog‘, Eshiktosh, Beshiktosh. Bolaligi asosan tog‘larda o‘tganligi uchun ham Shavkat Rahmon ko‘proq tog‘larga murojaat qilishi shundan: Tog‘lar – Nortuyalar abadiy cho‘kkani, qurigan yillarni chaynab, kavshanib./ qani, yasovullar, tuyakasqlari, tillali, javohirli sandiqlar qani?/ qarisi talangan, qaroqchilarining/izlarini yashirib yuborgan moziy./ yashirgan yillarning changalzorlari/ sarbonni o‘ldirgan qotil ovozi./ mazkur she’r matnidan ham shoir she’riyatida metaforaning o‘rnini yaqqol bilib olish mumkin.

Sh.Rahmonning she’riy asarlarida bahor manzaralari orqali yaratilgan sokin, noaniq tovusqlar g‘oyasini yaratadigan o‘xshash metaforalarning quyidagi misollarini topishingiz mumkin: Bahor senga ishonar, qara,/ suzib chiqdi ko‘ziga yurak —/ qarab turar senga intizor,/ sen bahorni sevishing kerak./ Ko‘ziga boq, haydama uni —/ minginchi bor qilmagin xato./ Ostonangdan ketmaydi bahor,/ sen aslingga qaytmaguncha to./ Sharqiratar asov soyalarin,/ nafasidan ranglar ufurar,/ o‘ynayverar yashil quqlarin,/ gullarini yondiraverar...

Bu xususiyatni bitta metafora evolyusiyasini taqlil qilish orqali ko‘rsatish mumkin. Ma’lumki, Shu’lalanib, sharqirab yotar/ ko‘k suvlarda oy siniqlari./ Yetib kelar muzday shabada —/ qari tog‘ning xo‘rsiniqlari./ Yalpizlarning bo‘yin ufurib/ sho‘x jilg‘alar vodiyya chopar./ Hovuzlarni yopinib olgan/ qurvaqalar jimlikni qopar./ Qizib ketar yer tomirlari.../ Tunga iliq bo‘ylar taralar./ Birdan kaynoq yoz oqib kelar jimib qolgan bog‘lar oralab./ she’rida maxsus holatda (qari tog‘ning xo‘rsiniqlari, oy siniqlari, sho‘x jilg‘alar, kaynoq yoz va boshqalar.) metaforaning, xususan, antropomorfik metaforalarning yorqin namunalardir.

Quyidagi metaforada ham shoirning bahor haqidagi taassurotlari aks etgan: Subhidamda yam-yashil daraxt/ derazamga yuzini bosdi,/ kerishganday oynak sathiga —/ gullarini ohista yozdi./ Qirchillagan shabada keldi,/ ko‘pirgancha shoshib, quvonib,/ Bahor, jismi ochilib, yashnab,/ bosib ketdi atir tumani./ Go‘yo quyosh parchalanganday.../ Garq qiladi olamni farah./ Har bahorda menga erinmay/ yashamoqni o‘rgatar daraxt./ (Sh.Rahmon,89.)

Sh.Rahmon she’riyatining maxsus tilini yaratishda antropomorfik metafora ham muhim rol o‘ynadi. Uning she’rlaridagi antropomorfik metaforalarni o‘rganib, leksikografik tadaqiq etish, lug‘at tuzish lozim.

Nasriy matnlarga qaraganda she’riy asarlarda metaforaning o‘ziga xos yangi turlarini ko‘p uchratish mumkin. Nutq uslublari nutqai nazaridan taqlil qiladigan bo‘lsak, ilmiy, rasmiy uslublarda ham oz bo‘lsa-da metafora qo‘llaniladi. Badiiy uslubda eng ko‘p qo‘llaniladi. :

Metaforalarning matnlarda qo‘llanilish darajasini taqriban quyidagicha taqsimlash mumkin:

T/rRasmiy uslubdagi matnlarda Ilmiy uslubdagi matnlarda Badiiy uslubdagi matnlarda
Publisistik uslubdagi matnlarda So‘zlashuv uslubidagi matnlarda

1. 10 foiz15 foiz60 foiz15 foiz10 foiz
2. Siyosiy metafolar Ilmiy metaforalar She’riy metaforalar Sport jurnal-ka doir metaforalar
Odiiy metafolarlar

Til vositalari nutqiy vaziyatlarda o‘zining imkoniyatini to‘la namoyon qila oladi. badiiy matnlar sotsiolingivistik aspektida o‘rganilganda mualliflar metaforalardan naqadar samarali foydalanilgани ma’lum bo‘ldi, taqlil uchun tanlab olingan she’rlar, nasriy matnlar taqlili asosida bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

She’riyatda metaforalarning, xususan, antropomorfik metaforalarning o‘ziga xos o‘rni bor, matn muallifi she’rda metafora hosil qilishda inson tana a’zolari emas, asosan, shaxsga xos harakat va holatlardan faol foydalangan, “bosh”, “ko‘z”, “jigar” kabi ayrim so‘zlarning metaforik ma’no ifodalashi biz tadqiqot obe’kti qilib olgan she’rlarda juda kam kuzatildi.

Til va uning birliklari avvalo, ijtisoiy hodisa sifatida sotsiolingivistik tadqiq etilishi lozim. Biroq keyingi yillarda olib borilgan aksariyat tadqiqotlar kognitiv-pragmatik yoki stilistik ahamiyat kasb etadi. Antropomorfik metaforalar o‘zbek tili va adabiyotini yangi badiiy tasviriy vositalar bilan boyitgani aniqlandi. She’riy va nasriy matnlar o‘rganilganda metafora hosil bo‘lishi uchun, so‘zlar o‘ziga xos sintaktik munosabat, semantik aloqaga kirishgani, bu jihatdan ko‘proq she’riy matnlarda harakatni, holat ifodalagan so‘zlar shoirning ruhiy holatini namoyon qiluvchi metaforalar ekanligi ma’lum bo‘ldi. Tilshunoslikda lisoniy birliklarning grammatick, stilistik, lingvopoetik, psixolingivistik, kognitiv-pragmatik tadqiq etilishi nihoyatda muhim ahamiyatga ega, biroq til birliklari, jumladan, antropomorfik metaforalar sotsiolingivistik taqlil qilinsa, lisoniy vositalarning ijtimoiy holati, ahamiyati, lisoniy qiymati yanada aniqlashgan bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobulova U.S. Metaforik matnda integral va differensial semalar munosabati (o‘zbek xalq topishmoqlari misolida). Fil.fan.nom. ilmiy dar. olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T., 2007.
2. Xudayberanova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2015. –B.18.
3. Xo‘jamqulov A. O‘zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20yilligiga bag‘isqlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to‘plami. Lingvist. 2kitob. – T.: Akademnashr, 2011. – B. 85–88.
4. Shavkat Rahmon Abadiyat oralab – Toshkent, 2012. 56-59-b.

LINGVOSEMATIK MODELLARNING PRAGMA KOGNITIV TADQIQI VA ULARNI NAZARIY ASOSLARI

Nurmatova Sadbarxon Erkinovna,

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'limi Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya : maqolada lingvosematik modellarning pragma kognitiv tadqiqi va ularning xususiyatlari, olimlarning bildirgan fikrlari, kognitiv tilshunoslik tushunchalari, kognitiv pragmalar, pragmatika nazariy tadqiqot va amaliy muammolarni hal qilish sohasi sifatida ko'plab bilim sohalari (falsafa, mantiq, tilshunoslik, matematika, semiotika, antropologiya, mifologiya, dinshunoslik) yutuqlariga tayanib, o'zining shakllanishi va rivojlanishida murakkab yo'lni bosib o'tganligi haqidagi malumoilar va olimlarning nazariy qarasqlari bayon etib o'tilgan.

Kalit so'zlar : lingvistik, pragma, ilmiy qarash, kognitiv, fan, tilshunoslik, leksik, tizim, birlik, qonun, belgi, tushuncha, ong, nazariya, muammo, soha.

ПРАГМА-КОГНИТИВНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИНГВО-СЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ И ИХ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВАНИЙ

Нурматова Садбархан Эркиновна,

Преподаватель кафедры социальных наук заочного отделения Ферганского государственного университета

Аннотация: в статье прагма-когнитивное исследование лингво-сематических моделей и их характеристики, мнения, высказанные учеными, концепции когнитивной лингвистики, когнитивные прагмы, pragmatika как область теоретического исследования и решения практических задач во многих областях лингвистики. описываются знания (философия, логика, языкознание, математика, семиотика, антропология, мифология, религиоведение), сведения о сложном пути его становления и развития и теоретические взгляды ученых.

Ключевые слова: лингвистика, pragma, научный взгляд, когнитивная, наука, лингвистика, лексика, система, единица, закон, знак, понятие, сознание, теория, проблема, поле.

PRAGMA-COGNITIVE STUDY OF LINGUO-SEAMATIC MODELS AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS

Nurmatova Sadbarkhan Erkinovna,

Teacher of the Department of Social Sciences, External Department, Fergana State University

Abstract: in the article, the pragma-cognitive study of linguo-seamatic models and their characteristics, the opinions expressed by scientists, the concepts of cognitive linguistics, cognitive pragmas, pragmatics as a field of theoretical research and solving practical problems in many fields of knowledge (philosophy, logic, linguistics, mathematics, semiotics, anthropology, mythology, religious studies), information about the complex path of its formation and development and the theoretical views of scientists are described.

Key words: linguistics, pragma, scientific view, cognitive, science, linguistics, lexicon, system, unit, law, sign, concept, consciousness, theory, problem, field.

KIRISH. Pragmatika nazariy tadqiqot va amaliy muammolarni hal qilish sohasi sifatida ko'plab bilim sohalari falsafa, mantiq, tilshunoslik, matematika, semiotika, antropologiya, mifologiya, dinshunoslik kabi fanlarni yutuqlariga tayanib, o'zining shakllanishi va rivojlanishida murakkab yo'lni bosib o'tdi. Etnografiya, san'at tarixi, poetika, ritorika, neyrobiologiya, psixologiya, sotsiologiya, informatika, kognitiv fan, sun'iy intellekt nazariyasi, aloqa nazariyasi, tibbiyot, genetika va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikga ega. Uning ildizlari amerikalik olim Charlz Sanders Peirce (Charles Sanders Peirce, 1839-1914) tomonidan yaratilgan va Charlz Uilyam Morris (1901-1979) tomonidan isqlab chiqilgan versiyasida semiotikaga borib taqaladi. 60-yillarda Charlz Pirs tomonidan qo'yilgan. 18-asr va 1930-yillarda nashr etilganidan keyin butun dunyo bo'ylab yurishini bosqladi. Uning ko'pgina asarlarida semiotika fan sifatida tushunilgan bo'lib, uning assosida bilimning barcha sohalari birlashtirilishi kerak edi. Umumjahon ahamiyatiga da'volari nuqtai nazaridan semiologiya unga yaqin, lekin eng rivojlangan

belgilar tizimi sifatida tabiiy inson tiliga asosiy e'tiborini qaratishi bilan undan farq qiladi. Uning asoslarini umumiyligi ma'noda shveytsariyalik olim Ferdinand de Sossyur (1857-1913) belgilab bergen. U 1916 yilda «Umumiy tilshunoslik kursi» vafotidan keyin nashr etilganidan keyin jamoat mulkiga aylandi. Karl Büqlerning (1879-1963) sematologiyasi ajralib turadi, uning asosiy tamoyillari «Til nazariyasi: tilning vakillik funktsiyasi» (1934) kitobida modelni tashkil etuvchi aksiomalar to'plami shaklida bayon etilgan.

ADABIYOTLAR TAQLILI VA METODOLOGIYA. O'tgan asr haqiqatda semiotika asri bo'ldi. Falsafada va ko'plab fanlarda biz belgilar olamida yashayotganimiz, inson faoliyatini dunyonidagi bilish va tushuntirishda, afsonalar va dirlarni yaratishda, madaniyatni rivojlantirishda, san'atda, marosimlarda va urchinotlarda yashashimizni tan olish bilan ajralib turardi. Urf-odatlardan, siyosiy amaliyotda, odamlarning jamiyat a'zolari va etnik kelib chiqishi o'rtaqidagi munosabatlarda o'z vositalari va natijalarida ko'p jihatdan ramziy ma'noga ega. Strukturizm tilshunoslikda ham, ko'plab turdosh sohalarda ham semiotik asosda shakllangan. Bugungi kunda semiotika klassiklarini Ch.S. Pirs, C.V. Morris, F. de Sossyur, Lui Xjelmslev (1899-1965), Roman Osipovich Yakobson (1896-1982), shuningdek, Yakob fon Yuxkull (1864-1944), Ernst Kassirer (1874-1945). K. Büqler, Roland Bartes (1915-1980), Tomas Sebeok (1920-2002), Umberto Eko (1932 y. t.), Yuriy Mixaylovich Lotman (1922-1993). 1960-yillarda Moskva semiotik maktabi shakllandi. Semiotikaga muhim hissa qo'shgan olimlardan B.A. Uspenskiy, E.V. Paducheva, A.K. Jolkovskiy, Yu.K. Shcheglov va boshqalar sanaladi. 1960-yillarning o'rtalariga kelib, Moskva maktabi bilan Tartu maktabi o'rtaqida mafkuraviy yaqinlashuv vujudga keldi (Yu.M. Lotman shu asosda Moskva-Tartu semiotika maktabi shakllandi). Ammo undan tashqarida ham bizda belgi muammolari bilan shug'ullanadigan juda ko'p faylasuflar, mantiqchilar, antropologlar, psixologlar, sotsiologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, san'atshunoslar, tabiatshunoslar, matematiklar, tibbiyot vakillari va boshqalar mavjud, shu jumladan, uning pragmatik funktsiyalari, garchi pragmatika mustaqil tadqiqot sohasi sifatida, ayniqsa lingvistik pragmatika, 20-asrning so'nggi o'n yilliklarigacha haqiqatda muhokama qilinmagan. Bugungi kunda semiotika fundamental fanlar orasida mustahkam o'rinni egallaydi. Adabiyot semiotikasi, san'at semiotikasi, me'morchilik semiotikasi va boshqalar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ijtimoiy amaliyotning eng yangi kognitiv vazifalari va turli talablarini bajarishga eng tayyor bo'lган pragmatika bo'lib chiqdi, u Ch.S.ning semiotikasidan aniq ajratilgan. Pirs, C.V. Morris va R. Carnap va 20-asrning ikkinchi yarmida ancha tugagan shaklni oldi. Pragmatika atamasini fan tilida paydo bo'lганida, C.V. Morris 70-yillardan beri Qo'shma Shtatlarda keng tarqalgan pragmatizmning falsafiy yo'nalishini aniq boshqargan. U hayotiy muammolarni mavhum spekulativ aks ettirish asosida emas, balki doimiy o'zgaruvchan dunyoda maqsadli amaliy faoliyat jarayonida faol pozitsiyadan turib hal qilish zarurligini ta'kidladi. Pragmatizm asoschilaridan biri aynan semiotikaning yaratuvchisi Ch.S. Pier. U falsafiy estafetani U.Jeyms, J.Dyui, J.G. Mead (G.H. Mead) va boshqalar Pirs o'z shaxsida faylasuf, mantiqchi, matematik, tabiatshunos va filologni birlashtirgan. Uning ilmiy xizmatlarini yuqori baholagan R.O. Jeykobson istehzo bilan Charlz Pirs shunday qaddi-qomatga ega buyuk olim bo'lganki, bir vaqtlar Amerikaning biron ta'lim universitetida unga joy yo'q edi. Uzoq vaqt davomida dialektik va tarixiy materializmga yot falsafa bilan genetik bog'liqlik mahalliy olimlarga pragmatika atamasini qabul qilishiga to'sqinlik qildi. Ba'zida qandaydir «kamuflaj» nomi ixtiro qilingan. Biroq, o'zi bixevoiristik falsafiy tizim tamoyillariga amal qilgan C. Morris bu atama falsafiy emas, balki o'ziga xos semiotik sifatida talqin qilinishi kerakligini to'g'ri ta'kidladi, chunki u belgilarning ularning belgilari bilan munosabatlarini o'rganadigan maxsus fanni nomlaydi. tarjimonlar. Bundan tashqari, pragmatika atamasini turli tillardagi adabiyotlarda mustahkam o'rinni egallagan, u xalqaro miqyosda bo'lib kelgan va tabiiyki, uni boshqasi bilan almashtirishga arzimaydi. S.Pirs birinchi bo'lib belgining umumiy nazariyasida amaliy va kommunikativ faoliyat subyekti omilini hisobga olish muhimligini qayd etdi (ikkinchisi belgi jarayoni, semioz vazifasini bajaradi).

Peirsoning fikriga ko'ra, belgi uch a'zoli munosabatlarni tashkil qiladi. A'zolar quyidagilardir:

a) belgi (uning terminologiyasida representamen), belgi qurilmasi sifatida tushuniladi, ya'ni. jismoniy xususiyatga ega bo'lgan va biror narsani almashtirishga qodir bo'lgan ma'lum miqdor;

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Lisonut tayr" va Omon Matjonning "Qush yo'li" dostonlari muqoyasa qilingan. Dostonlardagi o'xhash syujet va obrazlarni qiyosan o'r ganib, farqli jihatlarga ham e'tibor qaratganmiz. Qusqlar odatda qanoti, pati bilan, shuningdek, osmonda uchish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Qusqlarga qadimdan inson va tabiatni bog'lovchi ilohiy kuch sifatida qaralgan va bu qarash bugungi kunga qadar davom etib kelyapti. Qaldirg'och, qarg'a, hudhud, burgut, shunqor, zag'izg'on kabi qusqlarning badiiy timsol sifatida qo'llanishi xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyotda turli timsol vazifasini bajarib kelayotganligi, turg'un birikma, tag matnda boshq ramziy ma'no ifodalashi, badiiy san'atlarni hosil qilishi kabi masalalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'z: Xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot, doston, timsol, qush, bulbul, hudhud, semurg'.

"Qusqlar osmonda uchish, yerda yurish, ayrimlari suvda ham suzish xususiyatiga egaligi bilan qadimdan odamlar e'tiborini tortgan. Shu xususiyatlariga ko'ra odamlar ularni sirli olam vakili, bir olamni ikkinchi bir olam bilan bog'lovchi sifatida qaragan. Bunday qarash butun dunyo xalqlari orasida mavjud". Qusqlarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati xilma-xildir. Qusqlar haqida mif va afsonalar turlicha talqinlarda yetib kelgan. Bugungi kunda qusqlarni adabiyotshunoslikda alohida timsol sifatida qo'llash o'ziga xos an'ana sifatida davom etib kelyapti. Dastlabki qusqlar timsoli folklor asarlarida uchratamiz. Xalq ertaklari va e'tiqodlariga ko'ra, qusqlar yorug'lik, quvonch, baxt, omad timsoli hisoblangan. Qush obrazi qadimdan folklor va adabiyotga singib ketgan. Ertak, qo'shiq, hatto, xalq dostonlarida ham qush timsolini uchratamiz. "Qusqlar jahon xalqlari mifologiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, voqealar jarayonida birdaniga paydo bo'lувchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin o'zgartiruvchi unsur sifatida e'tirof etiladi. Ular, asosan, ilohiyot bilan odamlarning o'rtasidagi ko'prik sifatida, yuksaklik va osmon ramzi timsolida talqin qilingan". Jumladan, qomusiy olim Ibn Sinoning "Tayr" qissasida xalq folklori motivlaridan foydalangan holda inson ruhi, holatini qush timsoli orqali ochib berishga harakat qilgan. Shu tariqa, asta-sekinlik bilan qush timsoli mumtoz adabiyotga ko'cha bosqladi. O'z-o'zidan ko'rindiki, qush timsoli qadimdan bejizga insonlarning do'sti deya ta'riflanmagan.

Mumtoz adabiyotda ham qusqlarni timsol sifatida qo'llash an'anasi davom etdi. Mana shunday timsollar asosida yaratilgan durdona asarlarimizdan biri bu so'z mulkining sultonini Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidir. Ushbu asar Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari ta'sirida yaratilgan. Mutaxassislarning qayd etishicha: "Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asariga qadar ham qusqlar timsollari asosida yozilgan asarlar mavjud edi. "Abu Ali ibn Sinoning (980–1037) "Risolat ut-tayr", Abu Homid Muhammad G'azzoliyning (1040–1111) ham xuddi shu nomdag'i "Risolat ut-tayr", Shahobiddin Suhravardiyning (vafotи 1191) "Risolayi musammo ba safari Simurg" asarlari yozilgan edi. Farididdin Attor ana shu an'anani davom ettirib, ajoyib, o'ziga xos, go'zal doston yaratgan. Navoiy "Lison ut-tayr"da uni Attorning eng zo'r asari, deb hisoblaydi". Shuningdek, turk shoirlari Yunus Emro, Gulshahriylarning "tayr"ga oid qissalari ham Navoiygacha yozilgan. Ularda ham "tayr syujeti" majoziy mohiyat kasb etgan. Alisher Navoiy esa mazkur syujetni ulkan ezoterik sathda majozlashtirdi, mazmun-shakl jihatidan haddi a'losiga olib chiqdi. Keyinchalik, XVIII asrda Xorazimda yashab ijod etgan Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Riyoziy ham Sharq adabiyotida keng tarqalgan mavzu qusqlarning ramziy sarguzashtlariga bag'isqlab doston yaratgan. "Mavlono Riyoziy dostonidagi g'oyaviy yo'naliish va hikoyatlardagi mazmunga qaraganda u o'z davrining o'ta bilimdoni, diniy ilmlarni puxta egallagan hamda islam dini falsafasini chuqr bilguvchi olim bo'lgan. Uning ta'kidlashicha, Qush tili dostonning yaratilishidan maqsad, Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" nazira yozish orqali o'zining diniy-falsafiy g'oyalarini bayon etishdan iborat bo'ladi. Dostonda bayon etilgan jamiyki voqeа-hikoyatlar, insonni

dastlab nafsoniy illatlardan forig‘ bo‘lishiga, so‘ngra axloqan barkamollikka erishgach, ruhan “vahdati vujud” sari boqiylik olamiga ramziy shakllarda qusqlarning Simurg‘ yo‘lboshchiligidagi parvozi orqali chorlaydi. [Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Riyoziy “Qush tili”. Shafoat Hasanova Riyoziyning “Qush tili” dostoni “Tezkor Press Print” Toshkent. 2009 B. 4]

Navoiy dahosi bilan yaratilgan bu asarda o‘rta asr Sharq mutafakkirlarini asrlar davomida o‘ylantirib kelgan inson va tabiat o‘rtasidagi falsafiy qarasqlar mushohada etilgan. Shoir ushbu dostonida insonning ma’naviy kamolotga erishish yo‘lini qusqlar timsoli orqali ochib beradi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni to‘lig‘icha ramz asosida qurilgan. Chunki bu obrazlarning asosini qusqlar obrazi tashkil qiladi. Mumtoz adabiyotimizdagi qush timsoli muhim ahamiyat kasb etadi. Ular insoniyat va tabiat o‘rtasidagi yaqinlilikni o‘zida mujassam etadi. Bugungi kunda zamonaviy she’riyatda qush timsolida juda ko‘p foydalanim keliniyapti. Dastlab folklor, so‘ng mumtoz adabiyotga, keyinchalik zamonaviy adabiyotga ko‘chgan qush timsoli dunyoda o‘z o‘rniga ega, xalq qahramonlarining tipik xususiyatlarini aks ettirishda yordamlashadi. Xususan, o‘tgan asrning XX asrning 70-yillarida o‘zbek adabiyotida sermabsul ijod qilgan iste’ dodli shoir Omon Matjon ijodidagi qush bilan bog‘liq ramziy obrazlar ijtimoiy hayotdan tanlangan va bu timsol orqali hayotimizda ro‘y berayotgan voqealar bilan bog‘liqligini ko‘ramiz. Falsafiy mushohadalar, ruhiy ta’sir etuvchi hikoyatlar, ijtimoiy munosabatlar shoirning “Qush yo‘li” dostonida aks ettirilgan. Dostonini taqlil qilar ekanmiz, asarda qo‘llanilgan turli-tuman qusqlar timsoli orqali asarning mazmun-mohiyatini ochib berilgan. Omon Matjonning “Qush yo‘li” dostoni hazrat Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridan ruqlanib yozganligini, boshdan oxir ramz asosida qurilganligini ko‘rishimiz mumkin. “Besh yuz yil o‘tibdi, qolganmi samar? Hollaridan kimsa olganmi xabar”, – deb yozadi ijodkor. Ya’ni Navoiyning besh yuz yil ilgari yaratgan dostoniga qayta sayr ettirishni istaydi. Dostonning o‘ziga xos xususiyati shundaki, Omon Matjon asarida “Lison ut-tayr” dostonidan parcha keltirib, epigraf sifatida foydalandi va muddao she’riy shakli bilan asarni bosqlaydi.

“Yana bir soyil dedi: “K-ey ilmkesh,
Bu safarkim ko‘nglumizni qildi resh.

Qat’ o‘lub shah bazmig‘a bo‘lsak anis,
Tuhfae vojibdurur behad nafis.

Shahni ko‘rmak tuhfai maqbul ila,
Bizni ondin ogoh et maqbul ila”.

Javob:

“...Sen o‘zung birla niyozu dard elt,
Jismi zoru joni g‘amparvard elt,

Onda yetur so‘z ila dardu fano
Istar o‘lsang o‘zni qilmoq oshno” .

Zamonaviy dostonlar ikkilik shaklida yozilishini yaxshi bilamiz. Muddao shaklini “Qush yo‘li” dostoni syujetiga e’tibor qaratsak, dostonda 30 ta qushning mart oyining oxirlarida, ya’ni Navro‘z kunlarida G‘allaorol cho‘llari yaqinida Baxmal tog‘lari pinjida to‘planishi haqida so‘z boradi va Semurg‘ni ko‘rishni, ya’ni uning timsoli orqali Haq diyordini ko‘rishni, uning diyordiga yetishishni Hudhudga ishonib topshirishadi. Omon Matjon asarida mumtoz an’analarni davom ettirib, Hudhud boshchilida barcha qusqlar boshidan kechirgan voqealari hikoya qilib, Semurg‘ni jamoliga yetishish uchun yo‘lga chiqishadi. Asarning ba’zi farqli jihat shu o‘rinda ko‘zga tasqlanadiki, bunda o‘ttiz qushning boshdanoq Semurg‘ni izlab yo‘lga chiqishi kuzatilsa, “Lisonut tayrda” asar so‘ngida ayonlashadi.

Dostonda Semurg‘ni quyidagicha tasvirlaydi:
Voqif bo‘lib tojdar Simurg‘ shonidan,
Jamiki qusqlarning mehribonidan!

Semurg‘ qushi haqidagi dastlabki ma’lumotlarni “Avesto” kitobida uchratamiz. Semurg‘ – xayoliy, mifologik qusqlardan biri bo‘lib, o‘zbek folklorida alohida o‘rin tutadi. “O‘zbek xalq ertaklaridagi Semurg‘ obrazi O‘rta Osiyo mifologiyasining mahsuli bo‘lib, “it-qush” haqidagi mifik tasavvurlar bilan aloqadordir. Semurg‘ qadimgi zardushtiylik mifologiyasida it bosqli, qush siyratli asotiriy jonzot sifatida tasvirlangan. Garchi o‘zbek ertakchiligi an’anasida Semurg‘ning ko‘rinishi va funksiyasida Senmurvg‘a

xos sifatlar ko‘zga tasqlanmasa-da, ammo bu afsonaviy qushning qahramonni o‘zga olamga olib borishi bilan bog‘liq bir detal unda “it-qush”ga doir ayrim belgilar saqlanganligini ko‘rsatadi. Bunga misol tariqasida, “Zorliq bilan Mungliq” ertagini olishimiz mumkin. Bizningcha, Senmurv yoki Semurg‘ qadimgi o‘rta osiyoliklar mifologiyasida it gavdali, qush qanotli afsonaviy jonivor sifatida tasvirlangan. Keyinchalik esa bu mifologik tasavvurlar unutilib, u ertak va dostonlarimizda qahramonni mushkul ahvoldan qutqaruvchi, poloponlarini ajdar xurujidan omon saqlab qolgan qahramonni olis manzillarga tez yetkazuvchi, epik qahramonga ko‘maklashuvchi xayoliy qush obrazi tarzida tasvirlana bosqlagan”. Semurg‘ afsonaviy qush bo‘lishiga qaramay, ertaklarda insonlarga ko‘maklashuvchi, qiyin vaziyatda xaloskor qush sifatida tasvirlanib kelingan. Bu qarasqlarni mumtoz adabiyotimizda ham ko‘rshimiz mumkin. Xalq og‘zaki ijodi badiiy an’alarining bevosita ta’sirida o‘zbek mumtoz adabiyotida ham Semurg‘ obrazi badiiy timsol sifatida qo‘llanilib kelgan. Jumladan, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida Semurg‘ timsolidan qusqlar podshosi va ramziy ma’noda Ollohnning tasavvufiy obrazini aks ettirish uchun foydalanilgan. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi bosh qoliplovchi hikoya 14-bobdan bosqlanadi: jahon qusqlarining yig‘ilishib martaba va fazilatlariga ko‘ra joy talashisqlari voqeasidan tortib, qusqlarning Hudhud yo‘lboshchiligidagi Simurg‘ni izlab yetti vodiydan o‘tisqlari va Simurg‘ni topolmay, Simurg‘ni izlashga chiqqan si murg‘ (o‘ttiz qush)ning o‘zi ekanligini bilisqlari asarda yorqin ifodalangan. Navoiy iborasi bilan aytganda, riyoza chekib, o‘zlarida eng go‘zal sifatlarni mujassam etib, komillik darajasiga erishdilar. Demak, shoir mana shu qusqlarni Semurg‘ni izlasqlari va unda o‘zlarini ko‘risqlari orqali insonning komillikka erishishini o‘zgacha talqinda ifodalab bergen. Omon Matjon ijodida ham Semurg‘ timsoli orqali Ollo vasfiga yetishish, komillikka erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni ochib berishga harakat qilgan. “Lison ut-tayr” va “Qush yo‘li” dostonlarining o‘xhash jihat shundaki, ikkala asarda ham Semurg‘ning ta’rifini Hudhud so‘zlaydi. Navoiy asarida ham, Omon Matjon ijodida ham bu timsol barcha qusqlar uchun ideal obraz sifatida gavdalantiriladi. Omon Matjon mumtoz klassik adabiyotda yaratilgan qusqlar haqida yozilgan asarlarni an’anaga muvofiq “Qush yo‘li” dostonida munosib izdosh sifatida davom ettiradi.

Hudhud boshchiligidagi Navro‘z saylida yig‘ilgan qusqlar bir-birlarining dardlari, tashvish-u hasratlari, bosqlariga tushgan turli mushkulotlarini tinglashadi. Hudhud har bir qushning fig‘on bilan aytgan shikoyatlarini tinglaydi, har bir qushning xususiyatlari haqida to‘xtaladi. Bundan tashqari, dostonidagi asosiy obrazlardan yana biri bu Hudhuddir.

Hudhud qadimdan Qur’oni Karimda zikr qilingan qusqlardan sanaladi. Uning Sulaymon alayhissalom bilan bo‘lgan qissasi bugunga qadar mashhurdir. Qissada Hudhud xat tashuvchi timsoli orqali gavdalantirilgan. Uning zakovati, omonatdorligi, aql-u farosati asarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Shuningdek, Hudhud bir mamlakat aholisining musulmon bo‘lishiga sababchi bo‘lgan.

Navoiy talqiniga ko‘ra, Hudhud aql nuridan bahramand va rahbarlik jilg‘asi bilan sarbaland bo‘lgan bir qushdirki, uning zotida sharaf va izzat niroyatda yuksak bo‘lib, boshini to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi toj bezaydi. U Arsh oldida parvoz qiladi va Jabroil kabi unga ham yuz xil sirlar ayon bo‘lib turadi. Asarda esa Navoiy quyidagicha tasvirlaydi:

Hudhud ul nuri xiraddin bahramand,
Rohbarlig’ afsaridin sarbaland.
Zotiga izzat sharaf me‘rojidin,
Boshida zevar hidoyat tojidin.
Jabrailosho ayon yuz roz ango,
Qurb arshi avjida parvoz ango.

Navoiy asarida bu qushga alohida e’tibor qaratadi va boshqa qusqlarda ko‘rinmaydigan jihatlarni aynan Hudhudda namoyon qiladi. Shuningdek, asarda Hudhud dono, idrokli va hattoki, Jabroilga tenglashtirib tasvirlanadi. Uning donishmandligi, ko‘zlangan manzilga borish yo‘lidagi qiyinchiliklarni va o‘ziga ergashgan qusqlarni ortga qaytmoqchi bo‘lganida ham ularni ruqlantirib yo‘lida davom ettirishi asarda o‘zgacha talqinda namoyon etilgan. Omon Matjon asarida ham Hudhudga alohida urg‘u berib o‘tadi, barcha qusqlarga bosh bo‘lib, ularni to‘g‘ri yo‘lga bosqlaydi. Davra qurib yig‘ilgan qusqlar orasida birinchi bo‘lib, Shunqorga yuzlanadi va so‘z beradi:

Davramizda o‘zing sarvarsan aniq,
Bilaman, gaping bor, ko‘zlarining yoniq...
Shunqor qadimdan mifologik qush hisoblangan, lochinsimonlar oilasiga mansubligi bois, uni “ov

qushi” deb atashgan. “Afsonaga ko‘ra, quzg‘un o‘z uyasida ikki dona tuxum qo‘yar, tuxumlarning biridan Tuyg‘un degan serjun it, ikkinchisidan esa Shunqor deb ataluvchi ov qushi chiqarmish”.

Mumtoz adabiyotimizda bu timsol o‘zgacha talqin qilingan. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida Shunqor o‘zini “qusqlarning podshohi” deya ta’kidlaydi. Bundan tashqari, baland osmonni va shoh qo‘lini o‘ziga makon qilgan Shunqor, sen qusqlar orasida xuddi shoqlar kabi tojga egadirsan, shoh boshingga oltin tojni loyiq ko‘rgan. Sen tojli qusqlarga bosqliqsan, senda o‘zgalarning o‘ntasidagi jur’at bor, shu sababli shoh senga yaxshi qismatni ravo ko‘rdi, - deydi. Navoiy bu timsol orqali boylig-u amalgalruju qo‘ygan shaxslarni nazarda tutadi. Shuningdek, qalbida Ollohga bo‘lgan muhabbat orqali komil insonlar qatorida bo‘lishni uqtiradi. Omon Matjon ham o‘z asarida Shunqorni “Ey tojdor” deya ta’kidlaydi. Asarda Shunqor davr siyosati, paxtazorlar ko‘payib, yaylovlar kamayib ketayotgani, 1939-1940-yillarda yovvoyi qusqlarning qirilishi haqida hikoya qiladi. Qusqlar timsoli orqali shoir o‘z davridagi jamiyatning turli illatlarini fosh qilishga erishadi.

Ayniqsa, ellik yil chamasi avval,

Odamlar qo‘liga tegdi bir amal:

“Otilsin, dedilar, yovvoyi qusqlar!”

Bosqlandi beomon qirg‘in-tutisqlar.

So‘ng bulbul, chag‘alay, to‘ti, laylak, qirg‘ovul, chumchuq kabi qusqlar o‘z hasratlarini bo‘lishishadi. Suhbat so‘nggida qusqlar “Mehrjon” bayrami uchun tuhfa olib kelish maqsadida turli o‘lkalarga ravona bo‘lishadi.

Ne deysiz? Jonga jips aylab imkonni,

Kutsak to’kin kuzni va Mehrjoni?!?

Andak quvvat yig‘ib tanu bolu par,

Saxiy bayram o‘zi bo‘lib chin xabar,

Yana yig‘ilishsak ushbu makonda,

Bor gapni hal etsak o‘sha zamonda!

Turfa sovg‘ani-da bir-bir ko‘rardik,

Agar kami bo‘lsa, tadbir ko‘rardik!

Qusqlarga bu taklif ma’qul keladi va yozda sovg‘a tayinlash, kuch yig‘ish uchun o‘z makonlariga qaytib ketadilar. Kuzda “Mehrjon” bayramida yana Baxmal tog‘lari orasida G‘allaorol adirlarining bir yonida uchrashishga kelishib olishadi. Asar so‘nggida qusqlar turfa xil sovg‘alar bilan yana o‘sha makonda uchrashishadi. Jumladan, Oqqush Surxon vodiyalariga yo‘l oladi va timqora toyning yo‘lini, Shunqor sehrli tanga, Lochin bepichoq qin, Mirzoqush esa ohanrabo olib keladi. Aynan “Mehrjon” bayramining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, shoirona bashorat bilan kuzda mustaqillik, istiqlol bayramining bo‘lishini va unga tuhfalar olib kelinganlini bashorat qiladi.

Dostonning “Lison ut-tayr”dan farqli jihat shundaki, unda “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr”da uchramaydigan yangi qush timsollari kiritilgan.

Lison ut-tayr Qush yo‘li

Semurg‘ Semurg‘

Qaqnus Qaqnus

Hudhud Hudhud

Shunqor Shunqor

Samandar To‘ti

Bulbul Laylak

To‘ti Chag‘alay

Tovus Kabutar

Qumri Bulbul

Kabutar Qirg‘ovul

Kabki dari (kaklik) Oq qush

Tazarv(tustovuq) Ola qarg‘a

Burgut(uqob) Chumchuq

Kuf Qarg‘a

Tovuq(xo‘roz) Musicha

Qarchig‘ay Tustovuq

Xumoy Ko‘k kaptar

| | |
|-------------------|-------------|
| Qalog'(olaqarg'a) | Mirzoqush |
| Xod(kalxat) | Kapachi |
| O'rdak | Qaldirk'och |
| Durroj(qirg'ovul) | Lochin |
| Shoxboz(lochin) | G'oz |
| O'rdak | |
| Zag'izg'on | |
| To'rg'ay | |
| Bedana | |
| Boyqush | |
| Burgut | |
| Turna | |
| Kakku | |

Shoir Omon Matjon ba'zan mumtoz an'analarni aslicha davom ettiradi. Jumladan, Semurg', Hudhud, Shunqor, To'ti, Tovus, Bulbul, Kabutar, Qirg'ovul kabi obrazlarni o'z asarida qo'llaydi. Ba'zan esa novatorlik yo'lidan borib, Kapachi, Mirzoqush, Itolg'i, Tasqara, Turmtoy, Jag'altoy, Oqqush kabi qush timsollaridan foydalanadi. "Qush yo'li" dostonini taqlil qilar ekanmiz, asarda qo'llanilgan turlituman qusqlar timsoli orqali komillikka erishish, shuningdek, davr siyosatini, insonlarning qilmisqlarini, xalqning ahvolini fosh qilishga harakat qilgan. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, qusqlar timsoli orqali Omon Matjon ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy muammolarni qalamga oladi. Qalami o'tkir ijodkor va buni obrazlarni o'z o'mnida qo'llay olganligidan bilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Z.Mamadaliyeva "Ikki maqola", "Sharq yulduzi" jurnali, 2013/6
2. Mamatqul Jo'rayev, Darmonoy O'rayeva "O'zbek mifologiyasi", 24-25-405-bet, T, Excellent Polygraphy, 2020
3. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr", T., "G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi", 1991, 34-37-bet
4. Omon Matjon. "Qush yo'li" T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990, 25-76-bet.
5. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – C. 913-915.
6. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSQLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
7. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 100.
8. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
9. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикатсий (buxdu. uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
10. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
11. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАТСИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
12. www.ziyouz.com

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING LIDERLIK XUSUSIDAGI QARASHLARI

Aktamov Shohzod Ravshan o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktaranti.

Annotatsiya: maqolada sharq mutafakkirlarining liderlik xususiyatlari borasida fikrlari, ilmiy nazariy qarashlari Amir Temurning liderlik xususiyatlari, liderlikning bosqichlari va usullari haqida, bosqichlarning psixologik tuzilishi borasida artoficha ma'lumotlar berilgan bo'lib, bundan tashqari liderlar o'z kuchiga ishongan, jasur va xarizmatik inson bo'lishi lozim. U, hatto, yosh avlodning himoyachisi bo'la oladi. Odatda, yosh yetakchilar tengdoshlari orasida ajralib turadigan yorqin xislatlarga ega shaxslar bo'lishi, ular nafaqat tengdoshlarini o'ziga jalb qila olishi, balki o'zidan katta yoshdagilar bilan ham tez til topisha olishi, yetakchilikning psixologik mehanizmlari fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yetakchi, tengdosh, jasur, himoyachi, mehanizm, xislat, xarizmatik, tarbiya, ta'lim, mehnat, inson, organizm.

ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА ЛИДЕРСТВО

Aktamov Shohzod Ravshanovich

Doktorant Chirchikskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universitemata.

Аннотация: в статье приведены мнения восточных мыслителей о характеристиках лидерства, научно-теоретические взгляды Амира Темура о характеристиках лидерства, стадиях и методах лидерства, психологической структуре стадий. Он даже может быть защитником молодого поколения. Обычно молодые лидеры – это личности с яркими качествами, выделяющиеся среди сверстников, способные не только привлечь к себе сверстников, но и быстро ладить со старшими, обсуждаются психологические механизмы лидерства.

Ключевые слова: лидер, сверстник, храбрый, защитник, механизм, характер, харизматичный, подготовка, образование, труд, человек, организм.

EASTERN THINKERS' VIEWS ON LEADERSHIP

Aktamov Shohzod Ravshanovich

Chirchik State Pedagogical University's doctoral candidate.

Annotation: the article contains the opinions of eastern thinkers about the leadership characteristics, scientific theoretical views of Amir Temur about the leadership characteristics, the stages and methods of leadership, the psychological structure of the stages. He can even be the protector of the young generation. Usually, young leaders are individuals with bright qualities that stand out among their peers, they can not only attract their peers, but also quickly get along with seniors, the psychological mechanisms of leadership are discussed.

Key words: leader, peer, brave, defender, mechanism, character, charismatic, training, education, work, human, organism.

KIRISH. Yosh yetakchi degani o'ziga tengdosh shaxslar manfaatlari uchun qonun doirasida faol ish yuritishni anglatadi. Yetakchi o'z kuchiga ishongan, jasur va xarizmatik inson bo'lishi lozim. U, hatto, yosh avlodning himoyachisi bo'la oladi. Odatda, yosh yetakchilar tengdoshlari orasida ajralib turadigan yorqin xislatlarga ega shaxslardir. Ular nafaqat tengdoshlarini o'ziga jalb qila oladi, balki o'zidan katta yoshdagilar bilan ham tez til topisha oladi. Bunday yetakchi tengdoshlaridan ko'ra ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi, bu esa unga muhim masalalarni hal etish imkonini beradi. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloqga oid» asarida: «Har qanday nisbatan katta miqyosdagi bevosita ijtimoiy yoki bиргалидаги qилинадиган mehnat idora qiluvchiga ma'lum darajada muhtojdir, bu idora qiluvchi shaxsiy ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish organizmini mustaqil organlari harakatidan kelib

chiqadigan vazifalarni bajaradi», degan fikrlari keltirilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida rahbarlik, liderlik va yetakchilar uchun bildirilgan fikrlar ekanligidan dalolat beradi. Busiz boshqaruv to‘g‘ri va to‘liq bo‘lmaydi deb o‘z mulohazalarini bildirib o‘tgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur ham katta bir saltanatning asoschisi, rahbari sifatida boshqarish va rahbarlik masalalariga oid kuchli tamoyillarni yaratgan. Uning tuzuklari o‘z davrining ijtimoiy jihatdan eng kuchli siyosiy qo‘llanmasi ham edi. U o‘z tuzuklarida 12 ta ijtimoiy tabaqani farqlab beradi:

- 1 sayidlar, ulamo, mashoyix, fozil odamlar;
- 2 ishbilarmon, donishmand odamlar;
- 3 xudojo‘y, tarki dunyo qilgan kishilar;
- 4 no‘yonlar, amirlar, mingboshilar;
- 5 sipoh va raiyat;
- 6 maxsus ishonchli kishilar;
- 7 vazirlar, sarkotiblar;
- 8 hokimlar, tabiblar;
- 9 tavsir va hadis olimlari;
- 10 ahlihunar va san‘atchilar;
- 11 so‘fiylar;
- 12 savdogar va sayyohlar.

Amir Temur fikricha, bu toifa kishilarning taqdirini podshoh, xazina va askarlar hal qiladi. Ko‘rinib turibdiki, bu turlanish asosini tabaqaning ijtimoiy voqelikka nisbatan bo‘lgan munosabatlari va xulq-atvorlari tashkil etadi. Bu esa, o‘z navbatida ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda odamlarni qanday mehnat turlari bilan shug‘ullanishlari emas, balki ularning kayfiyat va ustanovkalari, xulqlarining motivatsiyalari va ma’rifatlilik darajalari muhim omillar sifatida talqin qilinganligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy hayotni boshqarishda bunday ijtimoiy-psixologik yondashuv Amir Temur uchun o‘z davrida katta bir saltanatga asos solish imkonini bergen. Amir Temur davlatni boshqarish vositalari haqida to‘xtalib shunday yozadi: «Saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilish lozim: (1) kengash; (2) mashvaratu maslahat; (3) qat’iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik; (4) ehtiyyotkorlik». Uning fikricha: «Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir».

Rasmiy rahbar va guruh lider alohida-alohida shaxs bo‘lsa, ular o‘rtasidagi kelishmovchilik xodimlar tomonidan ijtimoiy adolatning buzilishi sifatida idrok etiladi. Lider bilan kelishuv esa guruhdagi kuchlarni tan olish, oqillik yo‘lini tanlash, deb baholanadi. Guruhda norasmiy liderning mavjudligi rahbar uchun guruh a‘zolari bilan iliq munosabat o‘rnatishda qo‘srimcha ko‘prikdir. Lekin rasmiy rahbar bilan norasmiy yetakchi manfaati bir-biriga zid bo‘lishi, mos kelmasligi ham mumkin. Bu esa jamoadagi turli nizolarga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda zamонавиy liderlar kamayib boroyotganligi hammamizga ma’lum shuning uchun yosh zamонавиy liderlarni yetkazib chiqarish dolzarblik kasb etmoqda. Har bir sohada liderlarni izlab topish va ularni qo‘llab qo‘vvatlab turish lozim. Chunki bugungi kun jamiyatiga ham mukammal shaxslar albatta kerak. Bunda rahbar yoki liderni yanada kuchaytirib ularni superliderga aylantirish kerak bo‘ldi.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi:

I — o‘zi uchun lider bo‘lish, ya’ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o‘zini o‘zi kuzatish, o‘zini o‘zi rag‘batlantirish, hayoliy repitisiyalar va kognitiv tahlillar orqali o‘zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o‘zida boshqalarga o‘mak bo‘luvchi sifatlar borligini anglash;

II — yuqorida qayd etilgan sifatlaming afzalliklarini o‘zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishontira olish;

III — xodimlariga o‘zlarida tashabbus va o‘ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV — mustaqil qobiliyat egalari bo‘lgan xodimlami rag‘batlantirish, kerak bo‘lganda, faqat konstruktiv tanbehlar berish;

V — o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga hadeb aralashaverishdan o‘zini tiyish.

Liderning bu xususiyati, uning hissiy jozibadorligida, o‘zgalarni o‘ziga jalb etish fazilatida namoyon bo‘ladi». Shu mazmunda, psixologiya fani oldida ham shunday vazifalar turadiki, ularni hal etish faqatgina soha doirasida o‘z yechimini topishi mumkin. Natijada, murakkab va keng qamrovli liderlarni aniqlash

nazariyasi va amaliyotining psixologik jihatlari hamda xususiyatlariga oid maxsus izlanishlar, yangi yondashuvlar ham yuzaga kela boshlaydi. Psixologiya fani tarixiga nazar solsak, boshqaruvni ilmiy va tizimli ravishda tadqiq etish birinchi bor ishlab chiqarish sohasida, mehnat psixologiyasi doirasida olib borilgan. Avvaliga xodimlarni boshqarish, samarali mehnat jarayonini ta'minlash masalasi keyinchalik umumlashgan tavsifga ega bo'lgan boshqaruv jarayoniga o'tdi. Natijada, boshqaruv psixologiyasi fanining, xususan, rahbar faoliyatni va boshqaruvni tadqiq etishning alohida predmetli sohasi paydo bo'lganligi shohidi bo'lamic. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning jadallashuvi bir tomonidan, zamonaviy fanlar integratsiyalashuvi natijasi bo'lsa, ikkinchi tomonidan, asosiy boshqaruv ob'ekti, ya'ni mehnat qiluvchi sub'ekt xulqida yangidan yangi shakllarning paydo bo'lishi natijasidir.

Oxirgi yillarda ko'plab olimlar, jumladan, rossiyalik ijtimoiy psixologlar A.Leontevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar hamda ijtimoiy kutilmalarga kim ko'proq darajada javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin, deb hisoblashmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy kutilmalar nazariyasi hozirda ko'pchilik tomonidan ma'qul yondashishlardan biri deb qabul qilimoqda.

Mutaxassis I.Mahmudovning «Boshqaruv psixologiyasi» (2006) kitobida «lider» so'zining izohiga oid quyidagi mulohazalarni keltirib o'tadi: «Uuman olganda adabiètda «lider» so'zini «yetakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ko'p uchraydi. O'yashimizcha, «yetakchi» atamasi «lider»ga xos bo'lgan psixologik tavsifni to'la ifodalay olmaydi. «Yetakchi» so'zi guruhga munosabat sifatida, uning a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsiga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo'lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil etolmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo'lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug'iladi. Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Fikrimizcha, o'zbek tilida aynan shu ikki ibora – «peshqadam» va «yetakchi» so'zleri majmuasi lider mohiyatini to'la ifodalashi mumkin.

Nazarimizda, «Yetakchi» so'zi shaxsning guruhni yetaklashga, boshchilik qilishga bo'lgan ishtièqi mavjudligidan kelib chiqadi. «Peshqadam» iborasi esa ma'lum fazilatlarga ega bo'lgan shaxs ketidan guruhning ergashishini, jamoaning o'z ixtièriga ko'ra o'zi ishongan odam boraètgan yo'lni tanlashini anglatadi. Aynan shu holat «lider» iborasiga nisbatan ham ishlatilishi zarur.

Har bir lider yoki boshliq o'zicha individual va qaytarilmasdir. Buning boisi har bir boshliq o'z ish faoliyatini, boshqaruv faoliyatini o'ziga xos tarzda tashkil etishidadir. Ijtimoiy psixologiyada boshqaruv sohasida bataysil o'r ganilgan muammolardan biri — turli boshqaruv uslublaridir. Bu sohada nemis olimlari G.Gibsh va M.Forverg, rus olimlari V.D. Parigin, L.N. Umanskiy, M.Yu. Jukov va boshqalarning ishlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Barcha ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda ijtimoiy psixologiyada qabul qilingan uch asosiy boshqarish uslublariga xarakteristika berib chiqamiz. Bu uch uslub:

- Avtoritar;
- Demokratik;
- Liberal ish uslublaridir.

Avtoritar uslub.

Avtoritar rahbar barcha ko'rsatmlarni ishchanlik ruhida, aniq ravshan, keskin ohangda xodimlarga etkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga nisbatan do'q-po'pisa, keskin ta'qilash kabi qat'iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadlaridan biri — nima yo'l bilan bo'lsa-da, o'z hukmini o'tkazish. U ning nutqi ham aniq va ravon, doimo jiddiy tusda bo'ladi.

Demokratik uslub.

Demokratik rahbar, aksincha, bo'ysunuvchilarga mustaqillik erk berish tarafdir. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarining shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi. Bunda u xodimlaming shaxsiy moyilliklarini ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar, odatda, taklif ma'nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o'rtoqlarcha, do'stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, uning lavozimini oshirish yoki ishdagi kamchilikka ko'ra ishiga baho berish doimo jamoa a'zolarining fikri bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Liberal uslub.

Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mammun yoki mammun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'rniga ko'pincha ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo'q boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go'yoki boshqa „koinotda“ yurganga o'xshaydi. Aniq ko'rsatmalar bermaydi, uning o'rniga norasmiy liderlar yoki o'ziga yaqin kishilar orqali qilinishi lozim bo'lgan topshiriqlar bajaruvchilarga yetkaziladi. Uning asosiy vazifasi, uning nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xomashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.

Inson shaxsi, uning kamoloti, unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi psixologik omillar ta'siri, tajriba va intilishning roli masalasi XXI asrda ham tadqiq etishga muhtojdir. Raxbar shaxsini o'rganish masalasi bilan nafaqat psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, siyosatshunoslik, tarix kabi ijtimoiy gumanitar fanlar shug'ullanadi. Hozirgi davrda rahbar muammosi aniq, gumanitar ijtimoiy fanlarning umumiyligi tadqiqod ob'ektiga aylanib bopmoqda va bu jarayon keyingi asrda jadallahadi.

Ta'kidlash joizki, «Raxbar ma'naviy yetukligining o'zigina ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini belgilay olmaydi. Bu ishlar rahbarning shaxsiy namunasi, o'zi rahbarlik qilayotgan turli ta'lim tizimini talab darajasida yo'lga qo'ya bilishi, pedagogik xodimlar mehnatini qadrlashi va chuqur anglashi, ularni o'z vaqtida ma'naviy va moddiy rag'batlantirib borishi, bir so'z bilan aytganda, insonning ruhiy psixologik olamiga muttasil ravishda e'tibor berishi bilan mustahkamlanadi». Mazkur omillar nafaqat ta'limiy samara beradi, balki ta'lim muassasalarida soglom ma'naviy, psixologik muhit ham yaratadi. Shu o'rinda rahbarning tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy madaniyatining mohiyati va psixologik xususiyatlari haqida ham kengroq fikr yuritish o'rinni bo'ladi. Rahbarning ma'naviy madaniyat nima? Ushbu savolga bir so'z bilan shunday javob berish mumkin: «ma'naviy madaniyat - rahbarda shakllangan (ichki) ruhiy quvvatdir»

NATIJALAR

Raxbar xodimlardagi psixika uch xil ruhiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi:

1. Rahbarning ruhiy xususiyatlari bu - uning temperament, xarakteri, qobiliyati va psixik jarayonlarining barqaror xususiyatlari, shuningdek mayli, e'tiqodi, bilim-ko'nikmalari, malakasi hamda odatlaridan iborat.

2. Psixik holatlar uncha uzoq davom etmasada, lekin ancha murakkab jarayondir. Bunga tetiklik yoki ma'yuslik, ishchanlik yoki horginlik, serzardalik, parishonxotirlik, yaxshi-yomon kayfiyat va hokazolar kiradi.

3. Psixik jarayonlarga ruhiy faoliyatning murakkab turiga kiruvchi oddiy psixik jarayonlar kiradi. Ular juda qisqa vaqt davom etadi. Psixik xususiyatlar, holatlar, jarayonlar uzaro mustahkam bog'langan bo'lib, biri ikkinchisiga ta'sir etishi, uning o'rnini tuldirishi mumkin. Psixologiyaning vazifasi ana shu bog'lanish va munosabatlarning qonuniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Shaxsning yetakchilik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlaridan biri insonda shakllangan qobiliyatga suyanish va qobiliyatni imkoniyatga qarab namoyon etishdir. Bunday yondashuv «vaziyatlari yetakchilik» deb ataladi, unda yetakchi deb tan olingan shaxsning umumiyligi maqsadga erishish yo'lida muammoli vaziyatda o'z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi. Bu nazariyaga binoan, guruh bir necha yetakchiga ega bo'lishi mumkin, kezi kelganda, har bir jamoa a'zosi muammoli vaziyatni hal etish borasida o'z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Samarali faoliyat olib boruvchi rahbar o'z jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda o'z imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni hal etishda faol qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini anglasin. Buning uchun jamoa har qanday vaziyatni hal etishda mas'uliyatni his qiluvchi va professional xodimlarga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga, guruhda shunday xodimlar ham borki, ular yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega. Yoshlar yetakchisining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni yetakchilik iste'dodining boshqalardan farqli ko'rsatkichlari qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- tashkilotchilik ziyrakligi
- o'zgalarni tushunish, ularning ichki olamiga kira olish, individual fazilati, kayfiyatini inobatga olgan holda masalaga yondashish;
- faol psixologik ta'sir kuchiga egalik
- yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda, ularning xususiyatidan kelib chiqib, insonlarga turli

usullar bilan ta'sir o'tkaza olish;

- yetakchilik mas'uliyatini o'ziga olish.

MUHOKAMA

Yetakchining asosiy xususiyatlardan biri - yoshlar orasida "bir qadam oldin"da bo'lish. U yangiliklardan doimo xabardor, boshqalar uchun ochiq bo'lmagan axborotga ega bo'lishi kerak. Barcha jahbada yoki sohada axborotga egalik qilish boshqalardan ustun bo'lish imkonini beradi. Yetakchi bunday manbani qayerdan, qanday topishni yaxshi biladi. Bunday axborotga ega bo'lmagan talabalar uning o'rnini xayol, gumon va shubha bilan to'ldiradi. Ular hayotidagi unutilmas kun yoki umuman bo'lmagan voqealar bilan o'rtoqlashadilar, bunday narsalarni yaxshi qabul qiladilar. Shu tariqa talabalarning yetakchilik xususiyatlari o'z fikrini erkin bildirishida namoyon bo'ladi. Yoshlar yetakchisi aniq dalil va isbotlar bilan o'z bilimini boyita oladi. Bunday holatda yetakchiga nisbatan ishonch ortadi.

XULOSA

Yoshlarda yetakchilik qobiliyati va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma'naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo'naltirish talab etiladi. Bunda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- lider va liderlik xususiyatlarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqr o'rganish;
- davlatimiz tomonidan yoshlarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish va boshqaruv mahoratini rivojlantirish sohasida olib borilayotgan ishlarni tizimli tahlil qilish;
- yoshlarda liderlik xususiyatlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi turli ehtiyoj va omillarni o'rganish;
- yoshlar faolligini yanada oshirish orqali liderlik qobiliyati va boshqaruv mahoratini rivojlantirishda ularning yangi qirralarini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. – Toshkent "Yangi asr avlod" 2007-y.
2. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. -T., 2003. –S. 48
3. Farobi Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi shariyoti, 1993. – B. 170
4. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008 yil.
5. Karimov I.A Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. —T.: "O'zbekiston", 1999.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T., 1999. –B. 80.
7. Karimova V.M., Xayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun//Prof. V.M.Karimovaning umumiy tahriri ostida. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008. – B. 11, 58, 59.
8. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi. o'quv qo'llanma T.: TDIU, 2007. - B. 30-31.
9. Nizomulmulk. Siyosatnoma.(Siyar ul-muluk). Ikkinchisi to'ldirilgan, qayta ishlangan nashr – T.: "Yangi asr avlod" 2008 –B. 165, 173, 166, 168.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИYАЧИЛАРИДА IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK OMILLARINI TADQIQ QILISHNING EMPIRIK ASOSLARI

Aminova Gulnoza Nasritdinovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy-psixologik kompetentligining ilmiy-nazariy asoslari va imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, kommunikativ kompetentlikning mazmun-mohiyati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ruhiy-emotsional, ijtimoiy-psixologik, kommunikativ kompetentlik, optimallashtirish, muloqotchanlik, emotsiyal bilimdonlik, empatiya, o'zini-o'zi boshqarish.

ЭМПИРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФАКТОРОВ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аминова Гульноза Насритдиновна
научный сотрудник Бухарского института психологии и иностранных языков

Аннотация: Раскрыты научно-теоретические основы и возможности социально-психологической компетентности воспитателей дошкольной образовательной организации. Также научно обосновано содержание коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: психоэмоциональная, социально-психологическая, коммуникативная компетентность, оптимизация, общение, эмоциональный интеллект, эмпатия, самоконтроль.

EMPIRICAL BASIS OF RESEARCH OF FACTORS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL COMPETENCE IN EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

Aminova Gulnoza Nasritdinovna
Researcher of the Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages

Abstract: The scientific-theoretical basis and possibilities of socio-psychological competence of educators of preschool educational organization are revealed. Also, the content of communicative competence is scientifically justified.

Key words: mental-emotional, social-psychological, communicative competence, optimization, communication, emotional intelligence, empathy, self-management.

KIRISH. Dunyoda globallashuv jarayonining kechishi, o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga mos shaxsni tarbiyalash va unga ijtimoiy-psixologik ta'sir etishni ta'minlovchi tarbiyachilariga bo'lgan ehtiyojning yanada ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Binobarin, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini o'rghanish, ularning kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi ustuvor masalalar bo'yicha muhim tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, amalga oshirilayotgan keng ko'lamlili isloxoqtalar talabiga to'la javob beruvchi, intellektual salohiyati yuqori, keskin o'zgarishlarga tez moslasha oladigan, raqobat bardosh, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayni paytda ushbu tizimda, mas'uliyatli, irodali, o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi kadrlarni yetishtirish vazifasini qo'yemoqda. Ushbu vazifaning amaliy jihatdan bajarilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom psixologik muhitning yaratilishi bilan bevosita bog'liqidir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, uning o'ziga xos rivojlantiruvchi omillariga jiddiy e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining shakllanishini namoyon etuvchi o'rtacha-umumiyl va qiyosiy-tipik ko'rsatkichlar ko'lamiga baho berish

bilan birga bu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan ijtimoiy-psixologik kompetentlikni kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’sirini aniqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tanlangan tajriba va nazorat ob’ektlari misolida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilaridagi ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko‘rsatkichlarini aniqlash va unga ilmiy izohlar berish masalasi muhumdir. Chunki, bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganmay turib, uni faoliyat samaradorligiga ta’sirini yetarli darajada bashorat qilib bo‘lmaydi.

METODLAR. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda faoliyat yurituvchi har qanday tarbiyachining faoliyat samaradorligi eng avvalo undagi sotsial-kommunikativlikning shakllanganligi bilan bevosita bog‘liqdir. Binobarin, mazkur tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan samarali muloqotga kirisha olmas ekan uning kasbiy faoliyatida shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq muayyan darajadagi yetishmovchiliklar namoyon etilaveradi. Ya’ni shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘naltira olish tarbiyadagi kasbiy kompetentlikni ko‘rsata oluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, muayyan darajadagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikka bevosita ta’sir etuvchi omillar haqida ilmiy empirik jihatdan mulohaza yuritishni lozim topgan edik. Ushbu mulohazaga muvofiq aynan taniqli olimlar N.P. Fetiskin va V.V. Kozlov tomonidan ishlab chiqilgan 6 shkalali omillar tizimining maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini faoliyatida qay darajada namoyon etilganligi aniqlandi va tadqiq qilindi. Mazkur jadvalda belgilangan omillarning jami 576 nafar respondentga nisbatan foizlar hisobida qay darajada shakllanganligini bilish, va tahlilida muayyan qulayliklarni yaratish uchun ikkita daraja belgilandi. Ya’ni har bir yo‘nalishga moyillik mavjudligini tasdiqlovchi test kalitlari bo‘yicha olingan javoblar yig‘indisini ikki guruhga (1-guruh o‘rtachadan yuqori, 2-guruh o‘rtachadan past) ajratilgan holda olingan miqdoriga asoslanib tadqiq qilindi. Jumladan, 1-omil bo‘lgan kommunikativ passivlikni yengishga yo‘nalganlik motsivatsiyasining shakllanganligi bilan bog‘liq savollarga berilgan javoblar (test kaliti bo‘yicha) miqdorning 15 va undan yuqori ballga ega ekanligi mazkur omil bo‘yicha respondentda o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichning mavjudligini yoxud 1 dan 14 ballgacha olingan javoblar miqdori esa mazkur omil bo‘yicha mazkur respondentda o‘rtachadan past darajadagi ko‘rsatkichning xarakterli ekanligidan dalolat beradi. Demak, shu tariqa barcha respondentlardan olingan ma’lumotlar umumlashtirilib 576 nafar respondentga nisbatan darajalar bo‘yicha o‘rtacha-umumiy ko‘rsatkichlar miqdori belgilanadi va tadqiq qilinadi.

Ikkinchi omil (kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo‘nalganlik) bo‘yicha maksimal ballar miqdori 21 ball bo‘lib, shundan 11 va undan yuqori ball o‘rtachadan yuqori, 1 balldan 10 ballgacha esa o‘rtachadan past darajani ko‘rsatadi.

Uchinchi omil (kommunikativ konformizmga yo‘nalganlik) ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng yuqori ball 15 ballni tashkil etgan holda o‘rtachadan yuqori 9-15 ballni, o‘rtachadan quyi esa 1-8 ballni tashkil etishi bilan xarakterlanadi.

To‘rtinchi omil (o‘z mavqeini oshirishga yo‘nalganlik) ko‘rsatkichlarini baholashda 1-10 ball o‘rtachadan past va shu bilan birga 11-20 ball o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkich sifatida tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodikaning beshinchi shkalasidagi (kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo‘nalganlik) omili bo‘yicha o‘rtachadan yuqori 15-28 ball bilan o‘rtachadan quyi ko‘rsatkich miqdori esa 1-14 ball bilan belgilanadi va baxolanadi.

Metodikaning so‘ngi oltinchi omili (kommunikativ frustratsiyani yengishga yo‘nalganlik) ko‘rsatkichlari miqdori belgilanganda o‘rtachadan quyi ko‘rsatkichni 1-14 ball bilan, o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichni esa 15-29 ball bilan baxolash orqali tadqiqot maqsadiga mos tahlillar olib boriladi. Yana shuni alohida ta’kidlash joizki, yuqoridagi mezonlar asosida har bir respondentdan olingan ma’lumot 576 nafar respondentining umumiy soniga nisbatan ham taqsimlanib har bir omil uchun o‘rtacha-umumiy miqdordagi o‘rinlar va xarakterli jixatlarga aloxida e’tibor qaratilgan holda muayyan darajadagi ijtimoiy-psixologik taxllilar olib boriladi.

NATIJALAR. Dastlabki empirik ma’lumotlar tahlili tadqiqot ob’ekti sifatida belgilangan 576 nafar respondentlarda metodika shkalalari bo‘yicha olingan ma’lumotlarning turli darajalarda shakllanganligini yaqqol ko‘rsatmoqda (1-jadval).

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarida sotsial-kommunikativ kompetentlik (SKK) omillari namoyon etilishining o‘rtacha-umumiy ko‘rsatkichlari (n=576)

1-jadval

| № | Omillar | O‘rtacha dan yuqori | | O‘rn i | O‘rtacha dan past | | O‘rn i | Jami | |
|------|---|---------------------|------|--------|-------------------|------|--------|---------|---------|
| | | N | % | | N | % | | N | % |
| 1 | Kommunikativ-passivlikni yengishga yo‘nalganlik | 260 | 45.1 | 5 | 316 | 54.9 | 2 | 57 6 | 10 0 |
| 2 | Kommunikativ mavxumlikni muvofiqlashtirishga yo‘nalganlik | 300 | 52.1 | 3 | 276 | 47.9 | 4 | 57 6 | 10 0 |
| 3 | Kommunikativ konformizmga yo‘nalganlik | 410 | 71.2 | 1 | 166 | 28.8 | 6 | 57 6 | 10 0 |
| 4 | O‘z mavqeini oshirishga yo‘nalganlik | 350 | 60.8 | 2 | 226 | 39.2 | 5 | 57 6 | 10 0 |
| 5 | Kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo‘nalganlik | 296 | 51.4 | 4 | 280 | 48.6 | 3 | 57 6 | 10 0 |
| 6 | Kommunikativ frustratsiyani yengishga yo‘nalganlik | 240 | 41.7 | 6 | 336 | 58.3 | 1 | 57 6 | 10 0 |
| Jami | Jami o‘rta % hisobida | 53.7 | | | 46.3 | | | | |

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, metodika talabiga oid shakllantirilgan har bir omil shkalasi tarbiyachining ijtimoiy-psixologik kompetentligi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir tarbiyachi o‘z tarbiyalanuvchilar bilan shaxslararo muloqot imkoniyatlaridan unumli yetarlicha foydalana olish malakasiga ega bo‘lsagina muayyan darajadagi yutuqlarga erishishi mumkin. Bugungi maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilaridan esa aynan shu narsa talab qilinadi. Aks holda tarbiyachi-tarbiyalanuvchini yoxud tarbiyalanuvchi tarbiyachini tushunmaydi. Bu esa bevosita tarbiyaning pedagogik-psixologik samaradorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Masalaning aynan shu tomonini hisobga olib, har bir faoliyat yuritayotgan tarbiyachida yuqorida qayd etilgan omillarning shakllanganlik darajalari o‘rganildi, tahlil qilindi va tegishli xulosalar shakllantirildi.

Umuman quyidagi jadvalda keltirilgan har bir raqam respondentlardagi sotsial-kommunikativ kompetentlik omillarining nechog‘lik shakllanganlik darajalari haqida empirik ma’lumotlar berish bilan

birga o'rganilgan 576 nafar tarbiyachiga nisbatan umumiyo ko'rsatkichlar ko'lamining namoyon etilishi dinamikasi haqida ham ma'lumotlar berish mumkin (1-jadvalga qarang).

Umuman mazkur metodika talablaridan kelib chiqib barcha shkala ko'rsatkichlariga qo'shimcha ravishda savol-javoblar, suhbatlar, anketa va kontent tahlillardan olingan ma'lumotlar orqali ham muayyan darajadagi aniqliklar kiritildi.

Binobarin o'rtachadan yuqori ko'rsatkichlar miqdorini belgilangan 6 ta shkala bo'yicha tahlil qilganimizda 1-o'rin "kommunikativ konformizmga yo'nalganlik", 2-o'rin "o'z mavqeini oshirishga yo'nalganlik", 3-o'rin "kommunikativ mavhumlikni muvofiqlashtirishga yo'nalganlik", 4-o'rin "kommunikativ nomutanosiblikni yengishga yo'nalganlik", 5-o'rin "kommunikativ passivlikni yengishga yo'nalganlik", 6-o'rin esa "kommunikativ frustratsiyani yengishga yo'nalganlik", motivatsiyalari uchun xarakterli ekanligi yaqqol namoyon etildi.

XULOSA. Olingan ushbu ma'lumotlar maktabgacha tarbiya tashkilotlaridagi tarbiyachilar kompetentligiga baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida holatlardan kelib chiqqan xulosa nuqtai nazaridan:

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik samaradorligiga baho berish uchun tadqiqot maqsadiga mos ravishda tatbiq etilgan metodikalar bugungi kun ijtimoiy psixologiya fanining ayrim amaliy-tatbiqiy yo'nalishlari va istiqbollari haqida yanada chuqurroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Maktabgachata'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarining o'ziga xos uslubda rivojlanishi ijtimoiy-psixologik kompetentlik indeksi xususiyatlariga ham bevosita bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlanishida ijtimoiy-psixologik kompetentlik indeksining o'rni alohida va ahamiyatlidir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyati davomida ijtimoiy-psixologik kompetentlik indeksi bilan kommunikativ va sotsial kompetentlik o'rtasidagi bog'liqlik individual rivojlanish xarakteriga ega bo'lib, uni sotsial tajriba, ko'nikma va malakalarni to'plab borish orqali rivojlantirishga erishish mumkin bo'lar ekan.

Umuman, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining shaxsiy va kasbiy faoliyat uyg'unligining namoyon etilishida shaxs tiplari va kommunikativ va sotsial kompetentlik xususiyatlarini chuqur o'rganish, tahlil qilish va tegishli empirik xulosalar chiqarish orqali tarbiyachilarda o'ziga xos kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishiga baho berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Абдуллаева Ш.Х. Педагог профессионал компетентлилигини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик механизмлари. (DSc) Автореферат. – Тошкент, 2019. – 61 б.
- Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта // Вопросы Психологии № 1. – М., 1995.– С. 111-131.
- Андреев В.И. Педагогическая эвристика для творческого саморазвития многомерного мышления и мудрости: монография. – Казань: Центр инновационных технологий, 2015. – 288 с.
- Ганжиев Ф.Ф. Мактабгача таълим муассасаси тарбиячилари социалпсихологик компетентлигининг психологик хусусиятлари // Психология. Илмий журнал. – Бухоро. 2020. № 2 (махсус сон). – Б. 78–82.
- Собирова Д.А. Социал компетентлик: назария ва амалиёт. Монография. – Бухоро.: Камолот нашриёти. 2022. – 116 б.
- Қодиров Б.Р., Қодиров К.Б. Касбий ташхис методикалари тўплами/ Амалиётчи психологлар учун методик кўлланма. – Тошкент: ЎзМУ, 2003. – 94 б.

OMILI

*Atadjanov Mamirjon Yusupovich,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent, Farg'ona davlat universiteti*

Annotatsiya: Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o'rnatish masalasi o'z aksini topgan. Din madaniyatning barcha turlarini (ilm-fan, falsafa, huquq, axloq kabi) o'zida mujassamlashtirgan va ularga o'z ta'sirini o'tkazgan, qadim-qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida birlashtirib kelgan.

Kalit so'zlar: din, diniy dunyoqarash, falsafa, axloq, diniy qadriyatlari, halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik, bag'rikenglik, inson hayotining mohiyati, mazmuni, axloqiy munosabatlar.

ИСЛАМСКИЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА УЗБЕКОВ

*Атаджанов Мамирджон Юсупович -
кандидат психологических наук, доцент Ферганский государственный университет*

Аннотация: Все религии мира основаны на идеалах добра и опираются на такие качества, как добро, миролюбие, дружба. Призывают людей к честности и чистоте, доброте, братству и терпимости. Во всех религиях находит отражение сущность, смысл жизни человека, вопрос установления политico-правовых, нравственных отношений между людьми на основе критериев равенства и справедливости. Религия вбирает в себя все виды культуры (такие, как наука, философия, право, этика) и оказывает на них свое влияние, с древних времен объединяя большинство духовных ценностей.

Ключевые слова: религия, религиозное мировоззрение, философия, этика, религиозные ценности, честность, чистота, сострадание, братство, терпимость, сущность, смысл жизни человека, нравственные отношения.

ISLAMIC FACTOR IN THE FORMATION OF THE NATIONAL PSYCHOLOGICAL IMAGE OF UZBEKS

*Atadjanov Mamirjon Yusupovich,
candidate of psychology, associate professor Fergana State University*

Abstract: All religions of the world are based on the ideals of goodness and rely on such qualities as kindness, peacefulness, friendship. He calls people to honesty and purity, kindness, brotherhood and tolerance. All religions reflect the essence, meaning of human life, the issue of establishing political, legal, moral relations between people based on the criteria of equality and justice. Religion absorbs all kinds of culture (such as science, philosophy, law, ethics) and exerts its influence on them, uniting most spiritual values since ancient times.

Keywords: religion, religious worldview, philosophy, ethics, religious values, honesty, purity, compassion, brotherhood, tolerance, essence, meaning of human life, moral relations, equality, justice.

KIRISH. Din ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning hodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri. U dastlab hayotning ibtidoiy davrida yashagan insonlarning dunyoqarashini aks ettirgan. Din dunyo, inson va boshqa mavjudotlarning yaralishi va kelib chiqishi, hayotning ma'nomazmuni, insonning yashashdan ko'zlagan maqsadi kabi masalalarga ilohiy nuqtai nazardan javob beruvchi dunyoqarash shakli sifatida muhim ijtimoiy vazifani ado etib kelmoqda. Din diniy dunyoqarashni, diniy marosimlarni, shuningdek, diniy tuyg'uni o'z ichiga oladi. Din madaniyatning barcha turlarini (ilm-fan, falsafa, huquq, axloq kabi) o'zida mujassamlashtirgan va ularga o'z ta'sirini o'tkazgan, qadim-qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida birlashtirib kelgan.

Dinning milliy psixologik qiyofani shakllantiruvchilik omili sifatidagi ahamiyati shundaki, dunyodagi

dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o'rnatish masalasi o'z aksini topgan. Musulmon Renessansi davrida Islom ilm-fanning rivojlanishiga, buyuk kashfiyotlarga turtki berdi, shu davrda Xalifalik hukmdorlari din va fanning uyg'unligini Qur'on ta'lilotiga asoslanib teran tushundilar. Keyinchalik Al'bert Eynshteyn bu jarayonni shunday ifodaladi: "Dinga asoslanmagan fan oqsoq bo'lsa, fanga asoslanmagan din so'qirdir".

Vatanimiz hududida islom dini qaror topganiga qadar zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, xristianlik, mazdakiylik, shomoniylit kabi dinlar ham mavjud bo'lgan. Ular negizida o'sha davrda barchasining sintezi natijasida betakror madaniyat vujudga kelgan. Zardo'shtiylik ta'liloti bo'yicha ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi doimiy kurashda oraliq yo'l yo'q, shuning uchun har bir odam bu kurashning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur. Bu dinning uch tayanchi bo'lib, ular fikrlar sofligi, so'z sobitligi, amallarning insoniyligidan iborat. Bu jihatlar zardo'shtiylikda «ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish» tarzida ifodalangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy tafakkur, axloq va qadriyatlar millatning o'ziga xos qiyofasining muhim belgilari. Bularning barchasi faqat o'tmish tajribasiga, asrlar davomida yig'ilgan ma'nnaviy boylikka asoslanadi. Islom dinini o'zbek xalqi ma'nnaviyati, deb e'tirof qilinishi, diniy axloq masalalariga keng e'tibor berilayotganligi o'zbeklar ma'nnaviy qudratini oshirishning bosh omili bo'lib qoldi. Ma'nnaviy qudratli millatgina kelajakka ishonch bilan qaraydi, turli silsilalardan tubanlikka yuz tutmay o'ta oladi. Hozirgi kunda at-Termiziyy, Imom-Buxoriy, Naqshband kabi ma'nnaviyatimiz ustunlari, Ibn-Sino, Forobiy, Navoiy kabi buyuk tafakkur egalari, Amir Temur, Bobur kabi donishmand hukmdorlar ruhiga ko'rsatilayotgan izzat-ehtirom, o'zbek millatinning ma'nnaviy ehtiyojini ular qoldirgan boy meros, turli diniy falsafiy ta'lilotlar tushunchalari vositasida qondirish o'zbeklarning millat sifatida qaddini rostlashi, o'z-o'zini anglashi, o'tmishdagi olamshumul ma'nnaviy-madaniy obro'si vositasida, jahon hamjamiyatida eng yuqori pog'onalarga olib chiqish vazifasini amalgalashishga shak-shubha yo'q.

Milliy mustaqillik psixologiyasi doirasida madaniyatning shaxs psixologiyasiga ta'siri masalasini ko'rib chiqishda uning diniy tasavvurlar bilan bog'liqligini sezmaslik mumkin emas, qolaversa ko'plab dinshunoslar inson hayotini boshqaruvchi qadimiylar normalarga ilohiy tus berishadi. Qadim-qadimdan insoniyat madaniyati diniy asosga quriladi, deb hisoblangan.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, din qadrsizlanishi bilan jamiyatda madaniyat degradatsiyasi kuzatiladi. Ayrim ta'lilotlarda diniy omilga shunday izoh beriladi: inson ojiz va yashab qolish uchun u ko'p narsadan voz kechishi kerak. Odam taraqqiyot natijasida uning istaklarini ma'n qiladigan hamjamiyatga kirishi kerak. Eslatib o'tganimizdek, odam yashab qolishi uchun o'zining ko'pgina mayllaridan voz kechishi kerak. Odamni o'z mayllaridan voz kechganligi uchun taqdirlaydigan, uni tabiat hodisalari va boshqa individlarning tajovuzlaridan himoya qiluvchi omil kerak bo'ladi. Xuddi shu funktsiyani din bajaradi. Odamlar o'z mayllaridan voz kechishgani uchun xudodan mukofot olishga umid qilishadi va nihoyat xudoning obro'si ularga o'zlarining ichki ziddiyatlardan qutilishlariga yordam beradi. Ko'rib turibmizki, din madaniyatning asosiy bo'laklaridan biridir. Freyd dinni ommaviy nevroz, deb atagan. Gap shundaki din o'zining ko'p qoidalari bilan yopishqoq nevrotik holatni eslatadi. Masalan, nevrotik qandaydir harakatlarni amalga oshirmslikdan qo'rqa, haqiqiy dindor ham xuddi shunday, qandaydir diniy marosimni amalga oshirmslikdan qo'rqa. Farq shundaki nevrotik o'zining doimiy qaytariluvchi mashg'ulotlari mazmunini tushuntirib bera olmaydi, dindor esa o'zining teologik bilimlaridan kelib chiqib u yoki bu marosimlarni izohlay oladi. Shunday qilib, ayrim e'tirozlar bilan dinni ijtimoiy nevroz, deb atash mumkin. Xususiy nevroz ijtimoiy nevrozdan ko'ra xavfliroq, u bemorning jismoniy holatiga ta'sir qiladi, ijtimoiy nevroz esa butunlay xavfsizdir. Xuddi shunday dinni anti nevroz, deb ham atash mumkin, chunki u xususiy nevrozlarni eritishga va ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatishga yordam beradi. Dinning buzilishi madaniyatning keskin tanazzuliga sabab bo'ladi.

NATIJALAR

Milliy psixologik qiyofaning shakllanishida diniy omilning ahamiyati so'fizm g'oyalarining ta'siri misolida yaqqol ko'rindi. So'fizm diniy-falsafiy va adabiy oqim sifatida YIII-asr oxirlarida Arab mamlakatlarda vujudga keldi va X-asrlarga kelib O'rta Osiyoda keng yoyildi. Bu yerda uning qator

tariqatlariga asos solgan jahonga mashhur namoyondalari: Xoja Abduholiq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Xoja Ali Romitoniy, Said Mir Kulol, Xoja Hazrat Bahouddin Naqshbandlar yetishdilar.

So'fizm ta'lomitining asosiy mavzui inson va uning Allohga bo'lgan munosabatidir. So'fiylikda ma'naviy kamolotga erishishning asosiy bosqichlari: shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat xisoblanadi.

So'fizmdagi kamolotga erishishning uch bosqichi bilishning uch bosqichiga: birinchisi ishonchli bilim, ikkinchisi to'la ishonch, uchinchisi haqiqiy ishonchga mos keladi. Har bir bosqich juda katta mashaqqatlardan iborat, bularidan o'tish uchun oshiq kuchli ruhiy zo'riqishlarga bardosh bera olishi kerak, faqat axloqiy va ma'naviy pok odamgina bu mashaqqatlarga bardosh bera olishi mumkin. Shuning uchun so'fiylar ilm bilan etika, aql bilan hissiyor, haqiqiy haqiqat bilan adolatli haqiqat o'rtasidagi bog'liqlikni shart kilib qo'yganlar.

Bahouddin Naqshband so'fiylar, darveshlarning tarkidunyochilik qilishlari, bu dunyo ishlaridan etak silkib, qo'lni yuvib qo'ltilqqa urishlariga qarshi chiqdi. Ularni o'zlarining osoyishta, bexavotir yashashlari, birovlarining qo'liga qarab qolmasliklari uchun halol mehnat va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga chaqirdi. U darvesh, so'fiylarning ham mehnat, kasb, hunar bilan shug'ullanib, ham ilm ma'rifat olishini yoqladi.

Ayni paytda O'zbekistonda Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan vijdon erkinligi asosida diniy omil milliy psixologik qiyofaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida birlashtiruvchi kuchga aylanishi uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayondagi eng muhim qadam diniy bag'rikenglik g'oyasini amalga oshirishdir. Diniy bag'rikenglik g'oyasi – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi.

Hozirgi zamonda dinlararo bag'rikenglik g'oyasi nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Azal-azaldan ona yurtimizda islom, nasroniylik, iudaviylik kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar mobaynida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular orasida diniy asosda mojarolar bo'limgani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida ulkan tajriba to'plaganidan dalolat beradi.

MUHOKAMA

O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyat, dunyoviy davlat barpo etilmoqda. Qurilayotgan jamiyatning tamoyillari, huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va xalqimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Davlat qonuniy asosda barcha dinlarga, barcha e'tiqod egalariga teng imkoniyatlar yaratib bergen. Diniy tashkilotlar bilan munosabatlarning qonun asosida, ularning haq – huquqlarini hurmat va himoya qilish asosida olib borilayotgani e'tiqod erkinligini amalda ta'minlamoqda. Bu – xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olingen to'g'ri yo'ldir.

Yuqorida qator dalillar asosida dinning madaniyatning o'zagi, ma'naviyat ustuni, odamlarda axloqiy fazilatlar manbai sifatidagi ahamiyatini tasdiqladik. Aynan shu jihatlari bilan bugungi kunda muqaddas Islom dinimiz o'zbeklar psixologik qiyofasining shakllantiruvchi omillaridan biri vazifasini bajarmoqda. Asrlar davomida milliy mentalitetimizda, madaniyatimizda, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashimizda shakllangan buyuk qadriyatlarimiz diniy tasavvurlarimiz bilan uyg'unlashgan holda avloddan-avlodga uzatib kelinmoqda. Bu qadriyatlarni avaylab-asrash, boyitish va kelajagimiz poydevori bo'lgan, o'sib kelayotgan yosh avlod shaxsi qurilmasiga mustahkam joylashtirish ta'lim va tarbiya tizimining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 5-jild. – Toshkent. O'zbekiston, 2020. – 456 B.
2. Karimov I.A. Oolloh qalbimizza, yuragimizza. T., «O'zbekiston», 1999.
3. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq-T. O'qituvchi, 1992 - 160 bet.
4. Atadjanov M. Milliy psixologik qiyofa xususiyatlarining shakllantiruvchi omillari va namoyon bo'lish sohalari, Interpretation and researches 1 (5), 2023.
5. Bromley Yu.V. Ocherki teorii etnosa. M. Izd. «Nauka». 1983.
6. Islam v stranax blijnego i Srednego Vostoka: Sbornik statey// Glavnaya redaktsiya Vostochnoy literaturi.M., 1982. 238s.
7. Materiali po istorii progressivnoy obshchestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane / Pod red. I.M. Muminova,M.M.'ayrullaeva T.1-2.1976 g. 588.
8. Otajonov M. Psixanaliz asoslari (oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma), Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2004.
9. Fish Radiy. Djalaliddin Rumi. M., 1987. 267 s.

МАКТАВ ДИРЕКТОРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИ БАХОЛАШДА КОНСЕПТУАЛЬ ЙОНДАШУВЛАР

Baybayeva Muxayyo Xudaybergenova

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasи professori, pedagogika fanlari doktori

Sultonova Lobar Abdunosir qizi

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash bo'yicha turli yondashuvlar yoritilgan bo'lib, muammo yuzasidan xorij va yurtimiz olimlari fikr-mulohazalari, ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, umumiyo o'rta ta'lif maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash mezonlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, baholash, baholash mezonlari, direktor faoliyati samaradorligi, samarali maktab, yetakchilik, o'quvchilarning ta'lif sifati.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДИРЕКТОРОВ ШКОЛЬНИКОВ

Байбаева Мухайё Худайбергенновна

Доктор педагогических наук, профессор кафедры "Педагогика" Ташкентского
государственного педагогического университета имени Низами

Султанова Лобар Абдуносировна

Докторант Национального исследовательского института им. А. Авлони

Аннотация: В данной статье освещены различные подходы к оценке управленческой деятельности директоров школ, а также проанализированы мнения и научные взгляды зарубежных и отечественных ученых по данной проблеме. Также указаны критерии оценки управленческой деятельности директоров общеобразовательных школ.

Ключевые слова: менеджмент, оценка, критерии оценки, эффективность директора, эффективная школа, лидерство, качество образования учащихся.

CONCEPTUAL APPROACHES TO ASSESSING THE ADMINISTRATIVE ACTIVITY OF SCHOOL DIRECTORS

Baybaeva Mukhayo Khudaibergenovna

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor of the Department of Pedagogy, Tashkent State
Pedagogical University named after Nizami

Sultanova Lobar Abdunosirovna

Doctoral student at the National Research Institute. A. Avloni

Annotation: In this article, various approaches to evaluating the management activity of school principals are highlighted, and the opinions and scientific views of foreign and domestic scientists on the problem are analyzed. Also, the criteria for evaluating the management activity of general secondary school principals are indicated.

Key words: management, assessment, assessment criteria, principal's effectiveness, effective school, leadership, quality of student education.

Kirish. Bugun maktab ta'limi rivojlantirish yo'liga samarali direktorlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan ularning faoliyatini baholash mexanizmlarini takomillashtirib borish ham ustuvor

masalalardan biri sanaladi. Baholash shaxsni o‘rganish, ijobiy motivatsiya va shaxsga ta’sirini rag‘batlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Aynan obyektiv baholash ta’siri ostida maktab direktorlarida o‘z-o‘zini baholash, o‘z yutuqlariga tanqidiy munosabat shakllanadi. Shuning uchun baholashning ahamiyati, uning funksiyalarining xilma-xilligi maktab direktorlari faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan mezonlarni izlashni talab qiladi.

Virjiniya shtati Uilyama va Mariya kolleji professori James H.Strong o‘z tadqiqotlarida umumta’lim maktab direktorlarini baholashda quyidagi standartlarni keltirib o‘tgani:

- Yetakchilik
- Maktabdagagi shart-sharoitlar
- Inson resurslarini boshqarish
- Tashkilashtirishni boshqarish
- Aloqa va ijtimoiy munosabatlar
- Kasbiy mahorat. [1]

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, rivojlangan mamlakatlarda umumta’lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholashda asosan o‘zini-o‘zi baholash tushunchasi ko‘proq qo‘llaniladi. Boshqaruv faoliyati rahbarning o‘zi tomonidan baholanishi va natijalar asosida o‘z ustida ishslash, rivojlantirish rejalarini tuzish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Pokistonning Lahor boshqaruv va texnologiya universiteti olimi Khaliq Ur Rehman Cheema davlat va xususiy sektor maktablarida direktorlar faoliyatini baholash bo‘yicha olib borgan tadqiqotida maktab direktorlarining faoliyatini o‘quvchilarning o‘qishida sezilarli yaxshilanishlarga erishish uchun zarur bo‘lgan yetakchilik uslublari nuqtai nazaridan baholash muhimligini ta’kidlaydi. [2]

Nigeriyaning Nnamdi Azikiwe universitetidan Mercy Obianuju Nvogbo Anambra shtatining o‘rta maktablarida o‘quv dasturlari va yo‘riqnomalarini rivojlantirishda maktab direktorlari faoliyatining samaradorligini aniqlash uchun tadqiqot olib boradi. [3] U o‘rta maktablarda ta’lim maqsadlariga erishish uchun o‘quv dasturlarini takomillashtirishda va o‘quv jarayonini boshqarishda o‘z vazifalarini bajarishlari kerakligini, shuningdek, direktorlarning nazoratchilik va menejerlik sifatidagi roli maktabni samarali boshqarishda markaziy o‘rinni egallaydi degan fikrni ilgari suradi.

Shuningdek, Nigeriyaning Ahmadu Bello universitetidan SANI Jamila Gummi olib borgan tadqiqot Nigeriyaning Zamfara shtatidagi o‘rta maktablarni boshqarishda direktorlarning rollini baholashga qaratilgan bo‘lib, unda shaxslararo munosabatlar, qarorlar qabul qilish jarayoni, muloqot, nazorat, xodimlarni rivojlantirish dasturlari, intizomni saqlash, maktab-jamoa munosabatlari va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha direktorlarning roli ularning faoliyatini baholashda muhimligi ta’kidlangan. [4]

Adabiyotlar tahlili va metodologiuasi

Masalaga V.P.Toporovskiy ham o‘z tadqiqotida fikr bildiradi. Unga ko‘ra maktab direktorining boshqaruv faoliyati-bu ta’lim muassasasini harakatlantirish va rivojlantirishga zaruriy sharoitlar yaratish orqali maktabni qayta tashkil etishda zaruriy natijalarga erishish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina tashkiliy, pedagogik, metodologik masalalarni hal etishga yo‘naltirilgan boshqaruv konsepsiyasiga ega bo‘lgan rahbarning harakatlari tizimidir. Shuningdek, uning fikricha rahbarning kompetentligi uning boshqaruv yo‘nalishidagi tushunchalar darajasi, individual qobiliyatları va malakasi o‘zini-o‘zi rivojlantirishga va uzuksiz mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan moyilliği, intilishlari shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta’lim muassasasini boshqarish imkoniyatlari orqali aniqlanadi. [5]

G.S.Abdrahmanov o‘z tadqiqotida boshqaruv faoliyati samaradorligi belgilangan me’yorlar asosidayuqorisifatlarga erishishhamdata’lim tizimi faoliyatining sifatvamiqdoriy xususiyatlarining zaruriy ko‘rsatkichlarini ifodalovchi maqsadga erishish darajasi bo‘yicha aniqlashni maqsadga muvofiq deb hisoblasa, [6] V.I.Zvereva rahbarning boshqaruv faoliyati samaradorligi - bu

boshqaruv faoliyati maqsadiga erishganlik ko'rsatkichi, ya'ni ta'lif muassasasida har bir ta'lif oluvchining shaxsini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarning yaratilganligi deb ta'kidlaydi. [7]

Mamlakatimiz olimlaridan Turg'unov Sobitxon Toshpo'latovich umumta'lif məktəb direktorları boshqaruv faoliyatını baholash ko'rsatkichlari sifatida məktəbni rivojlantirishga jamoa a'zolarini motivlashtirish, o'quvchilar tomonidan egallanayotgan bilim va ko'nikmalar darajasini davlat ta'lif standartlari va mehnat bozori talablariga mos kelishi, moddiy texnik ta'minot va ulardan foydalanish samaradorligi, kadrlar salohiyati, innovatsion faoliyat, məktəb obro'si, məktəbdagi ijtimoiy psixologik iqlim, boshqaruv algoritmining məktəb oldiga qo'yilgan maqsadlarga mosligi darajasini keltiradi. [8]

N.Q.Axmedova umumiy o'rta ta'lif məktəbləri rahbarları boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda məktəb rahbarları boshqaruv faoliyatining o'ziga xos jihatları (rahbar boshqaruv faoliyatining asosiy yo'nalishlari, lavozim vazifalari, boshqaruv faoliyati jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari) hamda rahbar kasbiy kompetentligi va uni rivojlantirish jarayonlariga e'tibor qaratadi. [9]

Shuningdek, E.V. Litvinenko ta'lif muassasaları rahbarlarining boshqaruv faoliyatini baholashning kvalimetrik modellari va texnologiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotida "Ta'lif muassasaları rahbarlarining boshqaruv faoliyati sifatini baholash taqqoslashning kvalimetrik nazariyasiga va baholash mantiqiga asoslanadi" deb hisoblaydi. Taqqoslash uchun asos "sifat chegaralari", "standartlar": ta'lif muassasasi rahbarining xususiyatlari va boshqaruv faoliyatiga qo'yiladigan norma va talablarni o'z ichiga oladi. Litvinenko ta'lif muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatini murakkab, ko'p qirrali xususiyati hamda bir hil ko'rsatkichlar to'plamidan foydalangan holda tavsiflash mumkin emasligi sababli ta'lif muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyati sifatini baholashda masshtablash va operatsion qisqartirish yordamida sifat o'lchovlarini ko'rsatish kabi tavsiyalarga amal qilishni ta'kidlaydi. [10]

Muhokama va natijalar

Bizning fikrimizcha, direktorlar faoliyatini baholash mezonlari o'quvchilarning muvaffaqiyatini, o'qituvchilar salohiyati va tashkiliy samaradorlikni oshirishga direktorlarning ta'sirini belgilashi kerak. Shuningdek, ular direktorlar boshqaruv sohasidagi bilimi, boshqaruv kompetentligi bilan birgalikda asosiy boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi xatti-harakatlarni qanchalik yaxshi ko'rsatishini baholashlari maqsadga muvofiqdir.

Shu asosda umumiy o'rta ta'lif məktəb direktorlarining boshqaruv faoliyatini ular bajaradigan boshqaruv vazifalari hamda boshqaruv kompetentligi ko'rsakichlaridan kelib chiqib quyidagi 8 ta mezon asosida baholash mexanizmini amaliyotga joriy etish məktəb ta'lifini takomillashtirishda hamda direktor faoliyatini baholashda muhim deb hisoblaymiz:

Ular:

1.Umumiy o'rta ta'lif muassasasi bitiruvchilarining umumta'lif fanlari bo'yicha tayyorgarligi va ta'lif sifati darajasi

2. Məktəb o'quvchilarining bilim darajasi

3. O'quvchilarning chet tilni bilish darajasi

4. O'qituvchilarning sifat (salohiyat) ko'rsatkichi

5. O'qituvchilarning chet tilni bilish darajasi

6. Direktoring boshqaruv faoliyati bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

7. Məktəbda ma'naviy-ma'rifiy, o'quv -tarbiyaviy muhit yaratilganligi

8. Məktəb direktorining boshqaruv kompetentligi darajasi

Ushbu baholash mezonlariga muvofiq baholash vositalari va texnologiyasi, baholash talablari hamda shkalasi ishlab chiqilgan bo'lib, ularning har biri məktəb direktorining boshqaruv faoliyatini baholashda aniq xulosalarga ega bo'lishga imkon yaratadi.

1.Umumiy o'rta ta'lif muassasasi bitiruvchilarining umumta'lif fanlari bo'yicha tayyorgarligi va ta'lif sifati darajasi: Ushbu mezon uchun 10 ball ajratilgan bo'lib, u 2 ta shaklda baholanadi:

1) Bitiruvchilar tomonidan OTMlarga kirishda to'plagan o'rtacha ballari umumiy 5 ballik

shkalada 150 balldan maksimal ballgacha-5, 100 balldan 150 ballgacha-3, 56,7 balldan 100 ballgacha-2, 56,7 dan past bo‘lsa 0 ball beriladi.

2) Bitiruvchilarining OTMga o‘qishga kirganlar salmog‘i umumiy 5 ball ajratilgan. Bunda maktab bitiruvchilarining 80% dan 100 % gacha oliv ta’lim muassasalariga qabul qilinsa maksimal 5 ball, 60% - 79%gacha 4 ball, 40% - 59%gacha-3 ball, 20% - 39% uchun 2 ball, 1% - 19%gacha bo‘lsa 1 ball bilan baholanadi.

2. Maktab o‘quvchilarining bilim darajasi: bu mezon uchun 14 ball ajratilgan bo‘lib, bunda:

1) Maktab o‘quvchilarining fanlarni o‘zlashtirishi kundalik.com natijalariga ko‘ra baholanadi, ya’ni 2,6 - 3,5 gacha-umumiy 5 balldan 1 ball; 3,6 - 4,5 gacha-3 ball; 4,6 – 5 gacha-maksimal 5 ball.

2) Milliy reyting natijalariga ko‘ra umumiy 2 ball bilan, agar maktab viloyat bo‘yicha 10 talikka kirgan bo‘lsa maksimal 2 ball, viloyat bo‘yicha 100 talikka kirgan bo‘lsa 1 ball, viloyat bo‘yicha maktablar ro‘yhatida 100 talikdan pastda bo‘lsa 0 ball bilan baholanadi.

3) Fan olimpiadalarida g‘oliblik uchun umumiy 7 ball ajratilgan bo‘lib, Bunda maktab o‘quvchilarining turli fanlardan olimpiadalarda ishtirok etishi va turli xil darajadagi g‘oliblikni qo‘lga kiritishi mumkinligini inobatga olib, umumiy 7 ballni 4 ta punkt natijalari bilan to‘plash talab etiladi: tuman g‘olibligi uchun 1 ball, viloyat g‘olibligi 1,5 ball, respublika- 2 ball, xalqaro fan olimpiadasi g‘olibligi uchun 2,5 ball belgilanadi.

3. O‘quvchilarining chet tilni bilish darajasi uchun 10 ball ajratilgan bo‘lib, undan 5 ball maktab o‘quvchilari umumiy foizining (1) chet tilni bilish bo‘yicha sertifikatga egaligi uchun, hamda 5 ball (2) xorijiy tilni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab tanlovida tuman, viloyat va respublika bosqichlarida g‘olibligi uchun beriladi.

4. O‘qituvchilarining sifat (salohiyat) ko‘rsatkichi. Maktab direktorining muhim boshqaruv vazifalaridan biri maktab o‘quvchilarini salohiyatlari o‘qituvchilar bilan ta’minalash, sifatli kadrlarni ishga yollash, o‘qituvchilar jamoasini kasbiy rivojlantirish ekanini hisobga olgan holda, ushbu mezon uchun 20 ball ajratilgan, bunda:

1) Maktabning toifaga ega o‘qituvchilari salmog‘i uchun umumiy 8 ball to‘plash mumkin.

2) O‘qituvchilarining respublika miqyosidagi belgilangan tanlovlarida g‘olibligi uchun 12 ball bilan baholanishi mumkin.

5. O‘qituvchilarining chet tilni bilish darajasi. Bunda maktab o‘qituvchilarining chet tilni bilish bo‘yicha sertifikatga egalik salmog‘i jihatidan umumiy 3 ball to‘plash imkonи mavjud.

6. Direktorning boshqaruv faoliyati bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnama natijalari. Ushbu mezon 2ta so‘rovnama orqali umumiy 4ball bilan baholanadi.

1) Maktab pedagogik jamoasining direktor faoliyatiga qo‘ygan bahosi maksimal 2 ball;

2) Direktorning maktabda boshqaruvni tashkil etish bo‘yicha o‘ziga qo‘ygan bahosi maksimal 2 ball.

Bunda, maktab direktorining boshqaruv faoliyatini amalga oshirish jarayonida bevosita bajaradigan xatti-harakatlari direktorning o‘zi va maktab o‘qituvchilari tomonidan baholanishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

7. Maktabda ma’naviy-ma’rifiy, o‘quv –tarbiyaviy muhit yaratilganligi. Bu mezon direktorning maktabda xavfsiz, sog‘lom, ijobiy ta’lim muhitini hamda o‘quvchilarini o‘z iste’dod va qobiliyatlarini turli xil musobaqa va tanlovlarida namoyon etishlari uchun imkoniyat yarata olganlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, umumiy 14 ball ajratiladi. Unda maktab direktorlari o‘quvchilarining musobaqa, festival va tanlovlarida tuman, viloyat, respublika kesimida olgan yutuqlari bo‘yicha baholanadi. Har bir belgilangan tanlov uchun umumiy ballar ajratilgan bo‘lib, agarda maktabda har uchalla hudud kesimida ham g‘olib bo‘lgan o‘quvchilari bor bo‘lsa, eng yuqori umumiy ball beriladi.

8. Maktab direktorining boshqaruv kompetentligi darajasi. 25 ball bilan belgilangan bo‘lib, ushbu mezon orqali maktab direktori o‘z kasbiy faoliyatini bajarishda qay darajada boshqaruv

kompetentligiga ega ekanligi, boshqaruv sohasidagi bilimlarini, boshqaruvning samarali usullari va vositalarini amaliyotda qo'llay olishi, boshqaruv kompetensiyasi aniqlanadi.

Baholash natijalariga ko'ra har bir maktab direktori o'zida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish tadbirlarini belgilaydi va amalga oshiradi.

Xulosa

Xulosa o'rniда aytish joizki, mакtab direktorlarining boshqaruv faoliyatini baholash - direktorlar faoliyatini yaxshilash, ularning salohiyatini yuksaltirish, o'qituvchilar samaradorligi va o'quvchilar taraqqiyoti uchun javobgarlikni oshirish hamda ularning maktablarga umumiyligini ta'sir ko'rsatishini ta'minlashda muhim sanaladi. Zero, samarali mакtab direktorlari va o'quvchilararning yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga oлgan holda, mакtab direktorlarini baholash va rivojlantirish - maktablarni takomillashtirish, o'quvchilar muvaffaqiyatini oshirish va doimiy yutuqlardagi tafovutlarni qisqartirishning asosiy strategiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. James H. Stronge Principal Evaluation: Standards, Rubrics, and Tools for Effective Performance. 2013., <http://www.ascd.org/publications/books/113025/chapters/A-framework-for-Principal-Evaluation.aspx>

2. Khaliq Ur Rehman Cheema, Iram Ali "Evaluation of Principal Performance in Public and Private Sector Schools" Article in Journal of Leadership & Organizational Studies September 2013.

3. Mercy Obianuju Nwogbo (Mrs.) EFFECTIVENESS OF PRINCIPALS' ROLE PERFORMANCE IN CURRICULUM AND INSTRUCTIONAL DEVELOPMENT IN PUBLIC SECONDARY SCHOOLS IN ANAMBRA STATE. Unizik Journal of Educational Research and Policy Studies Vol.3; <https://unijerps.org> 2021 Impact Factor: 5.641; 2020 Impact Factor: 5.355. January-June, 2021.

4. SANI, Jamila Gummi "Assessment of the role performance of principals in management of secondary schools in Zamfara State, Nigeria". A dissertation. Educational Administration and Planning Section, Department of Educational Foundations and Curriculum, Faculty of Education, Ahmadu Bello University, Zaria-Nigeria. March -2019.

5. Топоровский В.П. Аналитическая деятельность руководителя образовательного учреждения. – Санк-Петербург, 2000.

6. Абдрахманов Г.С. Диагностический подход и оценка эффективности управления современной школой. Автореф. дис. канд. пед. наук. Казань, 1988.- 19 с.

7. Зверева В.И. Как оценить эффективность и действенность управления школой // Менеджмент в управлении школой. М., 1992. С. 145.

8. Турғунов С.Т. Умумий ўрта таълим муассасалари директорлари бошқарув фаолиятининг назарий асослари: Педю ф.д. ...дисс. Тошкент 2007 363 б.

9. Axmedova N.Q. Umumiy o'rta ta'lif maktablari rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish. Nomzodlik dissertatsiyasi. 2017-yil.

10. Литвиненко, Э.В. Квадиметрические модели и технология оценки управленческой деятельности руководителей образовательных учреждений тема диссертации и автореферата док. пед. н. 2005.

Botirova Nigina Baxodir qizi.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Din psixologiyasi" yo'nalishi I-bosqich stajyortadqiqotchisi

Annotatsiya: Dinlar nuqtai nazaridan qaralganda, "sabr" tushunchasi ko'proq axloqiy o'lchovda bo'lsa-da, diniy hodisa sifatida ham qabul qilinadi. Deyarli barcha dinlar sabr-toqatni ijobjiy xarakterni rivojlantirishni rag'batlantiradigan asosiy qadriyatlardan biri sifatida qabul qiladi. Ushbu maqolada sabrning lug'aviy ma'nosi, xristianlik dinida sabrning ahamiyati, uning diniy-psixologik jihatlari, turlari, sabrning diniy va psixologik jihatdan o'r ganilishi va olib borilgan tadqiqotlar kabi ma'lumotlar o'r ganildi va tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: Sabr, fenomen, din, xristianlik, psixologiya, konsepsiya, "Muqaddas kitob" (Bibliya), Iso Masih.

РЕЛИГИОЗНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФЕНОМЕНА ТЕРПЕНИЯ В ХРИСТИАНСТВЕ

Ботырова Нигина Баходировна,

Стажёр-исследователь Международной исламской академии Узбекистана, кафедра
«Психология религии», 1 курс

Аннотация: Если рассматривать с точки зрения религий, понятие «терпение» рассматривается как религиозное явление, хотя и имеет более нравственное измерение. Почти все религии признают терпение как одну из основных ценностей, способствующих позитивному развитию характера. В данной статье были изучены и исследованы такие сведения, как словарное значение терпения, значение терпения в христианской религии, его религиозно-психологические аспекты, виды, религиозно-психологическое изучение терпения и проведенные исследования.

Ключевые слова: Терпение, феномен, религия, христианство, психология, концепция, «Священная книга» (Библия), Иисус Христос.

RELIGIOUS AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE PHENOMENON OF PATIENCE IN CHRISTIANITY

Botyrova Nigina,

Intern-researcher of the International Islamic Academy of Uzbekistan, "Psychology of Religion" department, 1st stage

Abstract: When viewed from the point of view of religions, the concept of «patience» is considered as a religious phenomenon, although it has a more moral dimension. Almost all religions accept patience as one of the core values that encourage positive character development. In this article, information such as the dictionary meaning of patience, the importance of patience in the Christian religion, its religious and psychological aspects, types, religious and psychological study of patience and conducted research were studied and researched.

Key words: Patience, phenomenon, religion, Christianity, psychology, concept, «Holy book» (Bible), Jesus Christ.

KIRISH. Sabr chidam, bardosh, iroda, qat'iyat ma'nolarini bildirib, biror holat yoki hodisani bardosh bilan kutish, qanoat qilish; o'zini tiyishdir. G'am-kulfat, azob-musibatlarga chidash, toqat qilish, bardosh berish kabi bir qator ma'nolarda iste'foda etiladi [1].

Sabr lug'atda "to'smoq", "bog'lamoq" degan ma'noni anglatadi. Istilohda esa nafsga xush keluvchi narsalarni tark etish, qazo va qadardagi ishlarga isyon qilmay bo'yin egish, balo va mashaqqatlar kelganida shikoyat qilmaslik ma'nolarini ifodalaydi.

Sabr – o'z hayotidagi dard, baxtsizlik, qayg'u va baxtsizliklarga xotirjamlik bilan bardosh beradigan fazilatdir [1]. Biror narsadan ijobjiy natijalarini kutish ham sabr sirasiga kiritiladi. Xristianlik dinida bu "yetti fazilat" dan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mamlakatimizdagi adabiyotlarni o'r ganib chiqsak, Shayx Muhammad

Sodiq Muhammad Yusufning "Ruhiy tarbiya", "Hadis va hayot" kitobarida sabr-toqat masalasida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Turk olimlaridan Nevzat Tarxonning "Stress va sabr", Reyazit Yashar Seyhanning "Diniylik va shaxsiyat jihatidan sabr", Abdulla al-Munjebiniyning "Sabr" va "Rizo" deb tarjima qilingan kitobini bu ishlar qatorida qayd etish mumkin. Mebrure Dog'anning "Sabr psixologiyasi" mavzuni to'g'ridan-to'g'ri psixologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladigan eng keng qamrovli tadqiqot sifatida namoyon bo'ladi. sabr-toqat bilan bog'liq holda psixologik farovonlikka qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda farovonlikka asosiy yondashuvlar, sub'ektiv farovonlik, psixologik farovonlik o'lchovlari, psixologik farovonlik va dindorlik o'rtasidagi munosabatlar, so'ngra dindorlik, sabr-toqat va psixologik farovonlik o'rtasidagi munosabatlar muhokama qilinadi. G'arb adabiyotida sabr psixologiyasiga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarga ham murojaat qilish mumkin. Shu o'rinda asarlari bilan alohida ajralib turadigan Sara Shnitker nomini ham alohida ta'kidlab o'tish zarur. "Sabr va farovonlik bo'yicha tadqiqot" nomli doktorlik dissertatsiyasi bilan mashhur bo'lgan Shnitker Robert Emmons bilan birgalikda "Sabr - fazilat: diniy va psixologik nuqtai nazar" ni nashr etdi, uning "Rahmat" kitobi turk tiliga ham tarjima qilingan. "Diniy va psixologik nuqtai nazarlar" nomli maqolada sabr o'lchovini ilgari surdi.

Bu manbalarda sabr tushunchasi va ta'rifi, sabr-toqat, matonat, matonat, bag'rikenglik, shukronalik va shoshqaloqlik kabi sabr bilan bog'liq ba'zi tushunchalar, sabrning turlari, sabrning ta'siri va vazifalari, natijalari va nihoyat, sabr-toqatning o'zaro munosabati, taqvo va sabr har tomonlama muhokama qilinadi. Sabr - qoniqishni kechiktirish, ushlab turish, umidsiz kutish yoki faqat salbiy holatlar uchun haqiqiy tushuncha emas, aksincha, bu shaxs uchun haqiqiy tushunchadir. Uni ma'naviy kamolot uchun zaruriy jarayon sifatida ko'rish zarurligi ta'kidlanadi. Shimmel shunday degan edi: «Sabr mevani shirin qiladi, bu sabr uzoq qish mavsumi davomida urug'ni tirik ushlab, bug'doyga aylantiradi va bu sabr-toqatdir. bug'doyning avval unga, so'ngra nonga aylanishini sabr bilan kuting. Solik ro'parasida yotgan bepoyon cho'llardan o'tish, o'zi bilan ilohiy mahbubi o'rtasidagi toshlardan o'tish sabrdir.»

Kempisning "Masihga taqlid" asarida sabr-toqatning o'sishi haqida eng chuqur muhokamaga ega ma'lumotlar mavjud [2]. U sabr-toqatni kengaytirilgan misol sifatida qabul qiladi. Biz asrlar davomida konseptsiyalarni kuzatib, nasroniy axloqiy donoligi an'anasisidagi nufuzli oldingi mutafakkirlarga murojaat qilish mumkin. Foma Akvinskiyning (1224-1274) asarlarida ham bu borada muhim ma'umotlar berilganagini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xristian axloqiy hikmatining konsepsiysi qayg'uga qaratilgan bo'lsa, psixologik jihatdan bu tushuncha qayg'uga emas, balki umidsizlik, azob-uqubatlar yoki baxtsizliklarga qaratilgan. Bir qarashda, bu nomuvofiqlik muammoli, chunki Akvinskiy sabrni aqlni qayg'udan saqlaydigan fazilat deb ta'riflagan. Qayg'u va umidsizlik bir xil tuyg'u emas, shuning uchun ulardan himoya qiladigan fazilatlar ham bir-biridan farq qilishi kerak.

Zamonaviy psixologiyaga kelsak, biz sabr-toqatni rivojlantirish uchun dalillarga asoslangan, aniq qadamlarni taklif qiladigan psixologiya bilan bog'liq tadqiqotlar mavjud. Psixologik farovonlikni oshirish haqida Bolier (2013) va depressiv simptomlarni kamaytirish Sin va Lyubomirsky (2009) tadqiqotlarida ham diniy va psixologik yondashuvlar o'z aksini topgan.

NATIJA VA MUHOKAMA. Xristianlikda sabr-toqat fazilat sifatida tasvirlangan. Yangi Ahdda, yahudiylarning oyatlarida bo'lgani kabi, sabr-toqat Xudoning xarakterining muhim tarkibiy qismi sifatida tasvirlangan. Havoriy Pavlus o'zining "Men Timo'tiy" kitobida nasroniy sabrini tasvirlaydi. Iso Masihning cheksiz sabri Unga ishongan va Uning abadiy hayotini qabul qilganlarga o'mak sifatida ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Xudoning sabri insoniyatning najot topishiga yordam beradi [9]. "Muqaddas Kitob"(Injil)da: "U sizlarga sabr-toqat qiladi, birovning halok bo'lishini emas, balki hamma tavba qilishini istaydi. Yodingizda tutingki, Rabbimizning sabri najotdir [4]. va "Kamtar va mehribon bo'ling, ularni seving, bir-biringizga sabr qiling". Masihiylargacha nisbatan ularning "Muqaddas kitobi"da barcha odamlarga sabrli bo'lish tavsiya etiladi. Shuningdek, "Sabr qilinglar va kutinglar, chunki Robbingiz yaqinda keladi" degan oyatda ifodalanganidek, Masihning ikkinchi kelishini sabr bilan kutayotgan masihiylar kabi sabr ko'rsatish kerakligi aytilgan. Xristianlik nuqtai nazaridan sabr-toqat passiv bo'ysunish emas, balki kutish, umidvorlik va quvonch sifatida tushuniladi[9].

Tertullian Xudoni sabr-toqat namunasi deb hisoblaydi va Kiprian xristianlarning sabr-toqati Xudo bilan umumiyligini ta'kidlaydi va Xudoga taqlid qilishga chaqirdi. Foma Akvinskiy sabrni yovuzlikka chidash qobiliyati va qayg'uga davo deb atagan. Ba'zi odamlar g'azab va sinovlar oldida xafa bo'lishga haqli deb o'ylashadi. Sabrsizlik g'azabga o'xshaydi. Biroq "Muqaddas Kitob" sabr-

toqatni Ruhning mevasi sifatida maqtaydi (Galatiyaliklarga 5:22) [11]. Sabr Xudoning vaqt, qudrati va sevgisiga bo‘lgan ishonchimizni oshib beradi.

Garchi ko‘philik sabr-toqatni passivlik, kutish yoki bag‘rikenglik deb bilishsa-da, Yangi Ahdda “sabr” yunonchadan tarjima qilinganda faol ma’nosini ifodalaydi. Havoriy Pavlusning so‘zlarida: “Kelinglar, oldimizga qo‘yilgan poygada sabr-toqat bilan yuguraylik», - deydi. Bu oyatdagi “sabr” deb tarjima qilingan so‘z “chidamlilik” degan ma’noni anglatadi. Masihiy poygada sabr-toqat bilan yuguradi. “Muqaddas Kitob”da sabr-toqat bu maqsadga erishish, sinovlarga chidash yoki va’daning amalga oshishini kutishdir. Sabr-toqat bir kechada rivojlanmaydi. Xudoning qudrati va yaxshiligi sabr-toqatni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Xristianlikda “Xudo sabr va tasalli beruvchi Xudodir” (Rim. 15:5) va Iso Masih barcha imonlilar uchun sabr-toqat namunasi hisoblanadi (Ish. 53:7) [7]. Eski Ahdda Ayyub sabr-toqatning namunasi sifatida xizmat qiladi. Havoriy Yoqub shunday deydi: “Sizlar Ayubning sabri haqida eshitdingiz va uning oxirini Rabbimizdan ko‘rdingiz” (Yoqub 5:11) [8].

“Bizning sabr-toqatimiz oxir-oqibat mukofotlanadi, chunki Rabbiyning kelishi yaqin” (Yoqub 5:7-8). “Rabbiy Unga umid bog‘laganlarga, Uni izlaganlarga yaxshilik qiladi” (Mitsiylar 3:25).

Yoqub payg‘ambar “azob-uqubatlarga nisbatan sabr-toqat namunasi sifatida” ishora qiladi (Yoqub 5:10). Ibrohim ham sabr bilan kutdi va “va‘da qilingan mukofotni oldi” (Ibroniylarga 6:15). Iso Masih hamma narsada biz uchun namunadir va U sabr-toqatni ko‘rsatdi. (Ibroniylarga 12:2).

Stress, g‘azab va umidsizlikka olib keladigan sabrsizlikdir. Xristian an‘analaridagi buyuk ilohiyotchilar sabr-toqatga ishonishadi. Ular uning ahamiyatini tushuntiradilar. Tertullian sabrsizlikni barcha gunohlarning ildizi va sabr-toqatni eng oliv fazilatlari deb bilgan. Avgustin sabrni ne’mat deb baholagan, sabrning kamtarlik va shukronalik bilan o‘zaro bog‘liqligini, sabr fazilatida matonatni ta’kidlagan. Akvinskiy sabr-toqatni sabrsizlik va dangasalikning o‘rtasidagi asosiy nuqta sifatida tasavvur qilgan. Avvalo, u sabr-toqatni Xudoning hukmronligi va inoyatiga ishonish ifodasi sifatida tasvirlagan. Xristian dinining institutlarida Jon Kalvin, birinchi navbatda, sabr-toqatni Xudoning hukmronligi va qaroriga ishonish ifodasi sifatida tasvirlagan. Soren Kierkegard sabr-toqatni shaxsiy erkinlik hissi bilan birlashtirilgan muqarrar azob-uqubatlarga munosabat sifatida ta’kidladi. Kierkegardning sabr-toqat haqidagi tushunchasi uchun quyidagi izoh berilgan: “Sabr bu chekinish, taslim bo‘lish, passivlik yoki harakatsizlik emas, aksincha, bu qoidalar talab qiladigan sohada erkinlikning paydo bo‘lishidir [3]”.

Xristianlikning muqaddas kitobi Injilda “sabri” so‘zini o‘z ichiga olgan ko‘plab iboralar mavjud. “Keksalarga mo‘tadil bo‘lishga, hurmatli bo‘lishga, ehtiyyotkor bo‘lishga, imonda, sevgida va sabrda mustahkam bo‘lishga buyuring[4].» «Egamiz oldida jum bo‘ling, sabr bilan kuting va g‘azablanmang va xafa bo‘lmang. to‘g’ri yo‘lda bo‘lganlar, yomon niyatlarida najot topganlar ustidadir[5]. «Bas, Ibrohim sabr qildi va va‘daga erishdi” [6].

Xristian ta’limotiga ko‘ra, masihiy faqat sinov va qiyinchiliklar paytida sabr-toqatli bo‘lishni o‘rganadi. Sabr ularning hayotida yaxlitlik va to‘liqlik kelishidan oldin keladi. Hatto sodiq masihiy ham qiyinchiliklar va sinovlarga duch keladi: “Ey birodarlarim, turli sinovlarga duch kelsangiz, ularni shodlik ila qarshi oling” Chunki, “Bilasizki, imoningizning sinovi chidashga kuch beradi” oyatida aytilganidek, masihiy sinovlardan o‘tganda uning sabr-toqati ortadi va bu uning sabrini namoyon qiladi. Bundan tashqari, nasroniy ta’limotiga ko‘ra, Xudo odamlarda sabr-toqatni rivojlantirish uchun qulay muhitni tayyorlaydi.

Sabr - bu fazilatdir. Xristianik manbalarida Pavlus Galatiyaliklarga 5:22-23 oyatlarida sabr-toqatni Ruhning mevasi sifatida sanab o‘tganligini ko‘rish mumkin. Demak, masihiy shunday qilishi kerakligi haqida hech qanday bahs yo‘q. Sabr-toqatning “shikoyatsiz kutish” degan ta’rifi mavjud[11].

“Shikoyatsiz kutish» deb ta’riflanganda, sabr-toqat axloqiy jihatdan ahamiyatsiz bo‘lib tuyulishi mumkin.

Iso Masihning g‘azablantirgan shogirdlari ustidan shikoyat qilishdan bosh tortishini o‘zini tuta bilishini sabr fazilati yuksakligidan bir belgidir. Iso shogirdlari ustidan shikoyat qilishni rad etgani saxiylikdir.

Sabrning 3 turi tafovut qilinadi:

Birinchi tur - bu qandaydir noqulayliklarga duch kelganda kerak bo‘ladigan sabr. Biror kishi yoki bir qator holatlar insonni chindan ham g‘azablantiradi va bu haqda shikoyat qilishga olib keladi, lekin bunday shikoyat mayda yoki oddiygina muammoni murakkablashtirishini bilib, tilni tiyishga harakat

qilinadi.

Zerikish bilan duch kelganda sabr-toqatning ikkinchi turi ifoda etiladi. Ishda yoki uyda tartibsizlikka tushib qolganlar ko'pincha noto'g'ri reja yoki dangasalik tufayli noqulaylikni boshdan kechirishadi. Zerikish bilan kurashmaydiganlar uchun bu jiddiy sinov bo'lishi mumkinligini aytish bema'ni tuyulishi mumkin. Ammo tartibsizlikka shikoyat qilmasdan chidaganlarda sabr-toqat fazilati namoyon bo'ladi.

Uchinchi turdag'i sabr eng jiddiy va ahamiyatli hisoblanadi. Bu jismoniy yoki ruhiy jihatdan qandaydir azob chekayotganda sabr-toqat talab etiladi. Agar biror kasallik yoki ruhiy kasallik bilan kurashayotgan bo'linsa, sabr-toqat talab etiladi. Yoki boshqa birovga, oila a'zosiga yoki do'stlarga yordam berish kerak bo'lsa, unda sabrli bo'lishga chaqiriladi. Qayg'u yukini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ko'tariladimi yo'qmi, vazifa bu noqulaylikka dosh berishdir. Muqaddas yozuv, aslida, bizga shunday qilishni maslahat beradi, shuning uchun bu o'rinni, chunki ba'zi vaziyatlarda noqulaylik darajasi shikoyat qilishni talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, barcha sabr-toqat yoki sabrsizlik oxir-oqibatda kimgadir sabr qilish yoki sabrsizlikdir[14].

Shuning uchun, sabr-toqatli bo'lishimiz kerak bo'lgan odamga qarab, sabrning ikki toifasini ajratish mumkin. Ba'zida sabr inson tomonidan boshqariladi.

Ammo ba'zida Xudo tomonidan boshqariladigan sabr-toqat yanada qiyinroqdir. Har bir masihiyning hayotida Xudoni kutish kerak bo'lgan vaqt keladi. Boshqa paytlarda biz Xudoning va'dasini bajarishini, sinov paytida tasalli berishini yoki ba'zi gunohlarimizni kechirishimizga amin bo'lishini kutamiz[14]. Bunday hollarda biz Xudoga sabr qilishimiz kerak. "Muqaddas Kitob"dagi sabr - bu qiyin odamlarga va vaziyatlarga g'azablanmasdan yoki umidni uzmasdan chidash qobiliyatidir. Biz umidsizlikka uchragan ishlarimizda Xudo bizga sabr-toqat ko'rsatishda davom etgani uchun, boshqalar bizni hafsalasini pir qilganlarida, biz sabr ko'rsatishimiz mumkin. Bir qarashda sabr harakatsizlikdek ko'rindi. Axir, sabr degani, kimdir tasodifan sizni bezovta qilganda, siz bezovtalanmaysiz. Kimdir sizni xafa qilsa, siz qasos olmaysiz. Hayot sizni kutishda davom etsa, siz har bir suhbatni chiqish imkoniyati sifatida qabul qilmaysiz. Bu shunday ko'rinishi mumkin, chunki sabr-toqatni anglatadi. Ammo sabr-toqatni faqat siz qilmaydigan narsa sifatida ko'rish, sabr-toqat qila oladigan kuchli narsalarni o'tkazib yuborishdir. Hikmatlar 25:15 da sabr nima qilishi mumkinligini ko'rib chiqing: "Sabr orqali hukmdorni ishontirish mumkin, muloyim til esa suyakni sindiradi". Ko'rinishidan, sabr-toqatli odamlar juda ko'p kuchga ega - birinchi qarashda o'ylaganingizdan ko'ra ko'proq kuch.

Muqaddas Kitobda sabr: «Aftidan, sabrli odamlar katta kuchga ega. «Biz bir daqiqada Xudoning sabr-toqatini ko'proq o'rganamiz, lekin Xudoning bizga nisbatan sabr-toqati hayratlanarli ish qilgani bilan bog'liq: Uning sabri ulkan mo"jizada katta rol o'ynaydi: Uning sabri Uning mehribonligi bilan sizlarni "tavba qilishga" yetaklaydi (Rim. 2:4) [13].

Muqaddas Kitobga binoan, sabr-toqat biron vaziyatda shunchaki chidamli bo'lishdan ko'ra ko'proq ma'noni o'z ichiga oladi. Xudoning nazarida sabr-toqatli bo'lgan odam umid bog'lab bardoshli bo'ladi. Bunday inson nuqul o'zini o'ylayvermay, hatto uning jahlini chiqarayotgan yoki tushunmovchilik yuz bergan kishining tuyg'ularini inobatga oladi. Masalan, sabr-toqatli kishiga nisbatan noto'g'ri yo'l tutishganda yoki g'ashiga tegishganda, u munosabatlari yaxshilanib ketishiga umid bog'laydi. Qolaversa, bu fazilat "muqaddas ruh samarasidir".

faoliyat yurituvchi yoshkadrlarning xorijiy tillarni bilish ko‘nikmalarini oshirish, mehnatbozorida IT-xizmatlar eksporti sohasida talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi [1].

Hozirgi kunda ta’lim muhiti innovatsion xarakter kasb etmoqda va bu o‘z navbatida ta’lim muhitining innovatsion xarakterga ega bo‘lishi tabiiy ravishda uni mazmunan yangilanishiga olib keldi. Shu sababli zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalarga asoslanishi ta’lim muhitini mazmunan yangilanishini ta’mindadi. Bu borada tadqiqotchi S.V.Tarasovning raqamli ta’lim muhitida hamda unda mavjud komponentlarga ega ekanligi borasida fikrlar bildirib o‘tgan. Xususan, raqamli ta’lim muhiti mazmunli, metodik va kommunikativ komponentlar bilan birgalikda texnologik komponent bilan ham to‘ldiriladi. Binobarin, raqamli texnologiyalar,xususan, ta’limda qo‘llanilayotgan texnologiyalar barchasi kompyuter qurilmasi,multimediya vositalaridan tarkib topgan [2].

Metodlar. Tadqiqotchi olimlardan, P.V.Vedeneev, A.S.Zavarixin, J.N.Zayseva, T.N.Kazarina, B.A.Krasilnikova, V.I.Soldatkin, V.S.Tarasov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda “raqamli ta’lim muhiti” tushunchasining mohiyati antroposofik nuqtai nazardan ko‘rsatib o‘tilgan. Aksariyat tadqiqotlar ishlarida ta’lim tizimini axborotlashtirish va raqamlashtirishning dolzarbliji, ahamiyati, uni amalga oshirishga imkon beradigan omillar va to‘siqlar to‘g‘risida o‘rganilgan. Ilmiy izlanishlar natijalarida ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bir qator afzalliklarni namoyon qiladi. Xususan, o‘qitishda tezkorlikka erishish (o‘qitishning vaqt va joyini o‘zgartirish); butun hayot davomida uzlusiz ta’lim olish imkoniyatining yuzaga kelishi; o‘quvchi, talaba, tinglovchi (mutaxassis)larni avvaldan loyihalangan individual o‘qitish assosida kasbiy qayta tayyorlash kurslari va dasturlari bo‘yicha tayyorlash imkoniyatining yaratilishi haqida ko‘rsatib o‘tilgan. Uzlusiz ta’limning barcha bosqichlarida bo‘lgani kabi oliy ta’lim muassasalarida ham raqamli ta’lim muhitini shakllantirish turli shakllarda kechadi. Bu o‘rinda olimlar E.V.Ustyujanina, S.G.Evsyukov quyidagi shakllarni keltirib o‘tadi: mavjud o‘quv materiallari, shu jumladan, ma’ruza, taqdimot, darslik, mustaqil ish topshiriqlari hamda bilimlarni nazorat qilish vositalarini elektron variantga o‘tkazish; pedagog va talabalarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan interfaol elektron muhitni, xususan, pedagoglarning elektron kabinetlarini, vebinari, bahs-munozara, forumlar o‘tkaziladigan auditoriyalarni shakllantirish; o‘quv vositalari: elektron darsliklar, elektron masalalar to‘plami, video ma’ruza, kvestlar, kompyuter o‘yinlari kabi yangi tiplarini yaratish; elektron ta’lim muhitining imkoniyatlaridan foydalananish hisobiga o‘qitishning mutlaqo yangi shakllarini yaratish – obrazli axborotlarni uzatish spektrini kengaytirish, rolli o‘yinlarni tashkil etish orqali turli vaziyatlari modellashtirish, bellashuv o‘yinlarini imitatasiyalash va hokazolar; sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘qitish jarayoniga kiritish [3].

NATIJALAR. Mulohaza. Ta’lim sohasi uchun ta’lim transformatsiyasi sharoitida talabalarni tahlil olishi bilan bir qatorda ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga e’tibor qaratish kerak. Birinchi navbatda talabalarda nazariy va amaliy ijodiy faoliyatga tayyorgarlik holatini o‘rganish, o‘quvchilarining faol ijodiy faoliyatiga samarali tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradigan didaktik vositalarni aniqlash, talabalarning ijodiy faoliyatiga tayyorgarlik modelini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan ijodiy faoliyatga tayyorgarlik vositalarining samaradorligini tajriba sinovini amalga oshirish hisoblanadi. Patti Drepneau ta’limiga ko‘ra darslarda o‘qituvchi “kreativlik yo‘l xaritasi” ga muvofiq quyidagi 4 yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagи xarakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilarni sanaladi: Ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish; Talabalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish; Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish; Kutiladigan natija;

Kreativ fikrlash xar bir sohada yaqqol aks etishi mumkin. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashuvida aks etadi.

Har qanday jarayonda bo‘lgani kabi ta’lim tizimini raqamlashtirish ham nazariy-metodologik jihatdan puxta asoslanishni taqozo qiladi. Raqamli ta’lim muhitini yaratishning metodologik asoslari sirasida tamoyillar ham ustuvorlik kasb etadi. Binobarin, tamoyillar faoliyatni tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish, yo‘nalishlarni oqilona belgilash, maqsad va natija o‘rtasidagi aloqadorlikni belgilab beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarini tizimli tarzda o‘rganish, bunda ularning kreativ faoliyatlarini tashkil etish hamda samarali yo‘llarini belgilash lozim. Shuningdek,

talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalar, konsepsiylar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya’ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Mutaxassislar ta’kidlashicha, oliy ta’lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko‘nikma va malkalarini rivojlanishining o‘zgarishini baholab borish lozim. Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek talabalarning kreativlik qibiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta’minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevral kuni “Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-51-son qarori
2. Тарасов С.В. Образовательная среда: понятие, структура, типология // Ж.Вестник Санкт-Петербургского ГУ им. А.С.Пушкина. – СПб.: 2011. - № 11.–С. 133-138.
3. Устюжанина Е.В., Евсюков С.Г. Цифровизация образовательной среды: возможности и угрозы // Ж. Вестник РЭУ им. Г.В.Плеханова. – М.: 2018. - № 1(97). – С. 3-12].
4. Долгоруков А. Метод кейс-стади как современная технология профессионально-ориентированного обучения:
5. D.Mustafoyeva, M.Mamataliyeva Ta’lim jarayonida innovation klaster // Uslubiy ko’rsatma –T., -2023. 30 b.
6. Mustafoeva D.A., Mamatalieva M.I. Maxsus fanlarni o‘qitishda talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish // «qishloq va suv xo’jaligining zamonaviy muammolar» XXII yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy amaliy anjumani. Toshkent. - 2023.
7. Mustafoeva D.A.. Mamataliyeva M.I. Innovason ta’lim jarayonini tashkillashtirishning kasbiy-ijtimoiy zarurati// Муғалим ҳем узликсиз билимленидири” ilmiy-metodik jurnal. -№1 ISSN 2181-7138 - Nukus. -2023. B. 178-183.

**HAYOTIY BARDOSHLILIKNI SHAKLLANTIRISHNING O’TMISHDAGI
MANBALARDA TALQIN ETILISHI**
Mannabova E’zoza Baxromjon qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Hayotiy bardoshlilikni shakllantirish borasida o'tmishdan turli qarashlar va yo'llar mavjud. Ushbu maqolada hayotiy bardoshlilikni shakllantirishda Qur'oni Karim, hadislar, mutasavvuf va qomusiy allomalaridan asarlaridan parchalar orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, islom psixologiyasi hayotiy bardoshlilikning kategoriyalari (sabr, taqvo qanoat) haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: hayotiy bardoshlilik, islom psixologiyasi, aqiyda, sabr, taqvo, qanoat, qazo, qadar.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОСТРОЕНИЯ ЖИЗНЕСТОЙКОСТИ В ИСТОЧНИКАХ ПРОШЛОГО

Маннабова Эзоза Бахромжоновна

Докторант Международной Исламской Академии Узбекистана

Аннотация: В прошлом существуют разные взгляды и способы повышения жизнестойкости. В данной статье анализируется Священный Коран, хадисы и отрывки из трудов мистиков и учёных-энциклопедистов в формировании жизнестойкости. Исламская психология также обсуждает категории жизнестойкости.

Ключевые слова: жизнестойкость, исламская психология, вероубеждение, терпение, набожность, довольство, судьба, предопределение.

THE INTERPRETATION OF THE BUILDING HARDINESS IN PAST SOURCES

Mannabova Eziza

Doctoral student of the International Islamic Academy of Uzbekistan

Annotation: There have been different views and ways of building hardness in the past. This article analyzes the Holy Quran, hadiths and excerpts from the works of suffists and encyclopedic scholars in the formation of hardness. Islamic psychology also discusses the categories of hardness.

Key word: Hardiness, Islamic psychology, Aqeedah, Patience, Piety (Taqwa), Satisfaction, Predestination (Qado and Qadar)

Asr boshidan buyon qiyin hayotiy vaziyatga bardoshlilik masalasi psixologiya sohasida tadqiqot obyekti sifatida faol o'r ganilmoqda. Shunday bo'lsa-da muammo boshqa shaklda qadim zamonlardan buyon o'r ganilib, qiyin vaziyatlardan chiqish uchun turli yo'llar o'r ganib kelinadi. Ajdodlar tajribasidan oqilona foydalanish hamma avlod uchun keying faoliyatda kamroq kuch sarflashga olib keladi. Biz islom psixologiyasi nuqtayi nazaridan ushbu masalaga to'xtalamiz.

Islom psixologiyasi - bu psixologiya fanining bir sohasi bo'lib, islom ta'limotlari, tamoyillari va qadriyatlarini psixologiyani o'r ganish va amaliyotiga kiritadi. U inson xatti-harakatlarining ma'naviy, ijtimoiy va psixologik jihatlarini integratsiyalash orqali ruhiy salomatlik va farovonlikka yaxlit yondashuvni taminlashga qaratilgan. [1]

Psixologik adabiyotlar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, hayotiy bardoshlilik tushunchasi qiyin hayotiy vaziyatlarda sabrlilik, chidamlilik, shukronalik bilan munosabatda bo'lishni ifodalaydi. Qadimgi manbalar tahlili esa mazkur masalaning tarixdanoq dolzarb bo'lganligini asoslashga doir ma'lumotlar bilan tanishish imkonini beradi.

Ma'lumki, ajdodlarimizning turmush tarzida chidamlilik, sabr-toqat, ayniqsa shukronalik tarbiyasi uzoq tarixiy ildizga ega. Ular farzandlariga yoshligidan boshlab qiyin hayotiy vaziyatlarda, muammolarga duch kelganda, qiyinchiliklarga sabr bilan munosabatda bo'lish, shukr qilish, ularni yengib o'tish, bardoshli bo'lish kabi sifatlarni tarbiyalashga alohida urg'u bergenlar.

O'tmishdagi manbalar, xususan, islom dinining asosi bo'lgan Qur'oni Karimda va Hadisi shariflarda, shuningdek tasavvuf va qomusiy allomalarimiz (Umar Ibn Xatob, Ali Ibn Abu Tolib, Yusuf Xos Hojib, Junayd Bag'dodiy, Zunnun Misriy, Abu Ali Ibn Sino, Munoviyl, Buxoriy Jaloliddin Rumiy, Najmuddin Kubro, Alisher Navoiy) asarlarida shaxs hayotida sodir bo'ladigan turli xil qiyinchiliklar va bunday paytda inson o'zini qanday tutishi lozimligi haqida gapirib, aytganlar.

Islom ruh bilan jasad orasida o'rtacha yo'l tutib, ikkovlari teng darajada, deb qo'ygan emas. Balki

Allohnning hikmati taqozosi bilan, Islom ilm va tabiat qonunlariga asosan bino qilingan. Ilm aytadiki, "Sog'tanda - sog'aql". Ruhiy taraqqiyot tananing ko'p hojatlaridan mahrum qilish orqali hosil bo'lmaydi, balki o'sha hojatlarni o'rtacha holda qondirish lozim, shu bilan birga Qur'on ta'kidlab o'tadiki, oxirat hayoti - bu dunyo hayotidan yaxshidir. Har bir musulmon uchun ko'zlagan maqsadi, ruhiy kamolotga erishishdir. Shuning uchun Alloh oxiratga yaxshi ishlar bilan tayyorgarlik ko'rmay, bu dunyo hayotiga berilib ketishdan qaytaradi. O'tmishdagi tarixiy manbalardan biri "Qur'oni Karim"da shaxs xayotida sodir bo'ladigan hissiy holatlarga duch kelinganda undan talab etiladigan stressga barqarorlik yoki frustratsion tolerantlikka nisbat berilgan fikrlarni ko'plab uchratish mumkin. Bu manbada insonning ruhiy va ma'naviy kamolga yetishishiga to'sqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan biri sifatida insondagi g'azabga e'tibor qaratiladi va u inson uchun ruhiy razolat sifatida talqin etiladi.

Alloh taolo mo'min-musulmonlarni har qanday holatda kuchli, dadil va sobitqadam bo'lishga chaqiradi. Bu haqda Qur'oni Karimda shunday marhamat qilgan:

"Bo'shashmanglar! Mahzun bo'l manglar! Agar mo'min bo'lsalaringiz, sizlar ustunsizlar". (Oli Imron surasi, 139-oyat).

Ey musulmonlar! Hech bo'shashmanglar, zaiflashmanglar, sizga yetgan musibatlarga, boshingizga tushgan og'irliliklarga xafa bo'l manglar:

"Agar mo'min bo'lsalaringiz, sizlar ustunsizlar".

Chunki aqiydalaringiz ustun, pok, oliv. Yagona Allohma ishonasizlar va Unga bandalik qilasizlar. Ular esa turli-tuman but-sanamlarga, urf-odatlarga, o'zlariga o'xshagan odamlarga e'tiqod etadilar va o'shalarning roziligini topish ilinjida ibodat qiladilar. Sizlarning hayot yo'llanmangiz Alloh taoloning huzuridandir. Ular esa o'zları tuzib olgan yoki o'zlariga o'xshagan odamlardan olingan «yo'llanma»ga amal qiladilar. Sizlar Allohnning yer yuzidagi xalifalarisiz. Ular hayotining mazmuni yeb-ichishdan iborat bo'lган hayvon misolidirlar. Sizlar dunyoda hammani hidoyatga da'vat qiluvchilarsiz. Ular zulmatga, zalolatga chaqiruvchilardir. Sizlar ikki dunyo saodatiga egasiz. Ular ikki dunyo badbaxtligiga egadirlar.

Agar sizlar haqiqiy iymonli bo'lsangiz, doimo ustunsiz. Agar siz haqiqiy mo'min bo'lsangiz, bo'shashmang va xafa bo'l mang.

Tarix davomida musulmonlar haqiqiy iymonli bo'lган chog'larida va bu haqiqatni o'zları tushunib yetgan davrlarida doimo ustun bo'lганlar. Agarchi harbiy jihatdan, kuch-quvvat bobida mag'lubiyatga uchrab turgan bo'lsalar ham.

Hozirgi kun musulmonlari aynan ushbu his-tuyg'uga, haqiqiy mo'minlikni va shu tufayli boshqalardan ustun ekanliklarini tushunib yetishga muhtojdirlar.

Ey musulmonlar! Agar haqiqiy mo'min bo'lsangiz, bo'shashmang, xafa bo'l mang, dunyoning ishi o'zi shunday. [2]

Shu oyatning o'zi ham amali bor musulmon kishiga hayotning har qanday qiyinchiligidig a bardoshli bo'lishga kifoya qiladi.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi:

Bir kuni Nabiy sollallohu alayhi vasallamning orqalaridan ulovlariga mingashib ketardim. "Ey bola!" – dedilar Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam. "Men senga bir necha kalimalarni o'rgataman: Allohnning haqlarini saqlagin - U Zot seni saqlaydi. Allohnning haqlarini saqla - Uni qarshingda topasan. Agar so'rasang, Allohdan so'ra. Agar ko'mak tilasang, Allohdan tila. Bilginki, butun ummat senga bir manfaat yetkazmoq uchun jamlansalar ham, faqat Alloh taolo sen uchun yozib qo'ygan manfaatni yetkaza oladilar. Agar ular senga bir zarar bermoq qasdida to'plansalar ham, faqat Alloh senga yozib qo'ygan zararnigina bera oladilar. Qalamlar ko'tarilgan, sahifalar qurib bo'lgan".

Imom Termiziy rivoyati. Hasan-sahih hadis.

Yana Termiziyydan boshqa bir rivoyatda shunday deyilgan: "Allohnning haqlarini saqla - Uni qarshingda topasan. Yorug' kunlaringda Allohnini tanigin - og'ir kunlaringda U Zot seni taniydi. Bilginki, nima seni chetlab o'tgan bo'lsa, uning senga tegishi (taqdirda) yo'q edi. Senga yetgan narsaning (taqdiri azalda) seni chetlab o'tishi yo'q edi. Bilginki, albatta g'alaba sabr bilan, yorug'lik-yechim mashaqqat bilan qo'lga kiritiladi, shubhasiz, og'irlilik bilan birga yengillik ham kelur". [3]

Ushbu hadisda qazoi qadar masalasi ham ko'tarilgan. Ulamolarimiz "qazo" va "qadar"ni quyidagicha ta'riflaydilar:

"Qazo – Alloh taoloning hamma narsalarning kelajakda qandoq bo'lishini azaddan bilishidir".

"Qadar – o'sha narsalarning Allohnning azалий ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishidir".

Ahli sunna va jamoa mazhabiga binoan, balog’atga yetgan musulmonga Alloh taolo bandalarning hamma ishini va maxluqotlarga bog’liq narsalarni avvaddan bilishiga iymon keltirishi vojib bo’ladi. Qazo va qadar aqiydasi Allohga iymon keltirish asosidagi Islom aqiydalaridan biri hisoblanadi. Bu aqiyda Alloh taoloni to’g’ri ma’rifat asosida kamol sifatlari bilan sifatlashga asoslangandir.

Ana shu sifatlardan biri Allohning ilmi, uning chegarasizligi, Alloh irodasining shomilligi va quadrating komilligidir. Qazo va qadar aqiydasi Allohning ana shu sifatlariga asoslangan aqiydadir. Shuning uchun ham qazoi qadarga iymon bo’lmasa, Allohga bo’lgan iymon tugal bo’lmaydi. [4]

Qazo va qadar masalari islom psixologiyada qimmatli tushuncha. Agar insonni u tushgan qiyin vaziyat qadarida borligini tushunsa, vaziyat uning uchun qiyinligini yo’qotadi yoki yengillashadi. Bu manbalar orqali yoshlarni hayotiy bardoshlilik sifatini yuqori darajada shakllantirish mumkin. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun esa ota-onalarning ham din borasidagi bilimlarini oshirish talab qilinadi.

Sabr hayotiy bardoshlilikni o’rganishda asosiy kategoriyalardan biridir. Quyida sabr haqida bir qancha hikmatli gaplarni ko’rib chiqamiz.

Junayd Bag’dodiy: “Sabr – inson bilintirmay g’amni ichiga yutishidir”.

Zunnun Misriy: “Sabr – haromdan saqlanish, sinovlarga xotirjam bo’lish va kambag’allikda shukr qilishdir”.

Umar ibn Xattob: “Bu dunyodagi eng yaxshi ne’matlarga go’zal sabrimiz orqali erishdik”.

Jaloliddin Rumiy: “Sabr – insonni maqsadiga eng tez olib boradigan yo’l ko’rsatuvchidir”.

“Hamma yaxshiliklar sabrdan keyin keladi.”

Abu Ali Ibn Sino: “Sabr deb, inson boshiga tushgan alam va chidab bo’lmaydigan og’riqni to yengunga qadar ushlab turishga aytildi”.

“Vahima qilish yarim kasallikdir. Xotirjamlik yarim sog’likdir. Sabr esa shifoning boshlanishidir”.

Ali Ibn Abu Tolib: “G’azab vaqtidagi ozgina sabr, keladigan minglab afsuslarni oldini oladi”.

Najmiddin Kubro: “Shariat va dinning poydevori sabr va ishonch ekan”.

Munoviy: “Sabr hissiy va aqliy og’irlik va amallarga chidashdir”. [5]

Yusuf Xos Hojib:

“Qachon qahring kelsa, o’zingni tut, bardoshli bo’l,

Sabrli kishining sevinchi oldida.

Kishi sabr qilsa, buzilgan ishini to’g’rilaydi.

Kishi sabr qilsa, o’z tilagyni topadi,

Sabr qilib turguvchi oq qushni tutadi” [6]

Yuqorida fikrlari keltirilgan mutavvuf va qomusiy ulamolarning asarlari va hayot yo’li insonlarning komillikka yetishtirish, sog’lom ruhiyatga ega qilish bo’lgan. Bu yo’lda ular o’z maktablarini yaratgan, asarlar yozgan, davra suhbatlari tashkil qilish yo’li bilan harakat qilganlar.

Sabrdan tashqari taqvo ham hayotiy bardoshlilik shakllanishi uchun asosiy kategoriyadir. Taqvoning mohiyatini qisqacha tushuntiradigan bo’lsak, u Alloh taolodan qo’rqishdir. Bundan tashqari Allohning buyruqlarini qilish, U qaytargan ishlardan qaytish ham taqvodir. Abdulloh ibn Mas’ud (r.a) aytadilarki: “Taqvo bu Alloh taologa itoat qilish, unga isyon qilmaslik. Uni doim eslab yurishlik, uni yoddan chiqarmaslik hamda bergen ne’matlari shukr qilishlik va noshukrchilik qilmaslikdir”.

Bu dunyodagi eng kuchli azob –Ibnul Qoyyim o’zining “Ig’osatul lahfon” nomli kitobida aytganidek ko’nglining notinch bo’lishi, qalbining xotirjamlikni yo’qotishi, qashshoqlikning uni hech tark etmasdan yonida yurishidir. Agar dunyo oshiqlari uning muhabbati bilan mast bo’lмаганларда edi albatta ushbu azoblardan panoh izlagan bo’lar edilar. Har holda ularning ko’plari dunyodan nolib oh-voh qilib yuradilar. Azobning turlaridan yana biri: dunyo mashaqqatlariga va dunyo ahlining unga qarshi kurashlariga bardosh berishlik, ularning adovatlariga duchor bo’lishlik bilan qalb va jismning azob chekishidir.

Salaflardan birlari: “Kimda kim dunyoga muhabbat qo’ysa, bas, musibatlarga sabr bardosh qilishga o’zini tayyorlasin”, degan ekan. Dunyoning oshig’i uch narsadan xoli bo’lmaydi: doimiy g’am, doimiy mehnat va tunganmas hasrat. Bunga sabab dunyoga muhabbat qo’yan uning ozginasiga erishar ekan albatta uning nafsi undan ham ko’prog’iga talpinib qoladi. Talpinib yeta olmaslik esa yana “noto’liqlikni” keltirib chiqaradi. Bundan ko’rinadiki, hayotiy bardoshlilikning keyingi kategoriyasi qanoatdir. O’zida bor narsalarga qanoat qilgan shax o’zini baxtli his qiladi. Natijada unga yetadigan qiyinchiliklar yengil qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hayotiy baroshlilikni shakllantish uchun bizda tarixiy manbalar yetarlicha. Bu xususiyatni shakllantirish uchun talablar Qur'oni Karim, hadislar, qomusiy va tasavvuf ulamolari asarlarida komil inson g'oyasi tarkibida berilgan. Ularni anglab yetish uchun shaxsda bilish jarayonlari, xususan, idrok va tafakkur talab darajasida rivojlantirish bosh maqsadimiz bo'lishi kerak. Shundagina turli hayot qiyinchiliklariga bardoshli bo'lgan, qiyin vaziyatlardan chiqish yo'llarini izlab topuvchi, topolmagan taqdirda tushkunlikka tushmaydigan, bir so'z bilan aytganda sog'lom psixikaga ega avlodlar tarkib topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G. Hussein Rassool. Islamic Psychology. 1st Edition. Routledge. Dealta Global Publishing Services, Chennai, India. 2021.
2. Tafsiri Hilol. 1-juz./Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tuzatilgan va to'ldirigan qayta nashr. – T.: "Hilol-nashr", 2013.
3. Abu Zakariyyo Yahyo ibn Sharaf Navaviy. Riyoz us-solihiyn (Solihlar gulshani). (Arab tilidan Anvar Ahmad tarjimasi) – T.: "Sharq", 2015.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqidalar. – T.: "Hilol-nashr", 2019.
5. Hikmatlar.uz
6. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyatি/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/yusuf-xos-hojib-1020-21>.

XORIJIY TILNI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV METODNING O'RNI

Muminova Mavjudha Muxtorovna

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy tilni o'qitishda kommunikativ metodning o'rni va til o'qitishdagi yozish, o'qish, gapirish va eshitish ko'nikmalarini o'stirishda asos bo'lib xizmat qilishi, samaradorligini aniqlashga va aynan yozma nutqqa o'rgatish metodikasini ishlab chiqishga oid ko'rsatmalar berish tahlil qilingan. Shuningdek, kommunikativ metodning asl mohiyati til yordamida muloqot qilishga o'rgatish hamda muloqot orqali xorijiy tilni o'rgatishdan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kommunikativ tushunchasi, kompetentlik, kommunikativ metod tamoyillari, nutqiy faoliyat, kommunikativ va onglilik tamoyilining bir-biriga chambarchas bog'liqligi, yozma nutqiy kompetensiyani shakllantirish.

РОЛЬ КОММУНИКАТИВНОГО МЕТОДА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Муминова Мавжуда Мухторовна

Докторант Национального исследовательского института им. А. Авлони

Аннотация: В данной статье рассматривается роль коммуникативного метода в обучении иностранному языку и то, что он служит основой для развития навыков письма, чтения, говорения и аудирования при обучении языку, для определения эффективности и конкретности обучения. Проанализирована письменная речь с указанием указаний по разработке методики. Также было показано, что основной сутью коммуникативного метода является обучение общению с помощью языка и обучение иностранному языку посредством общения.

Ключевые слова: Коммуникативная концепция, компетентность, принципы коммуникативного метода, речевая деятельность, взаимозависимость принципов коммуникативного и сознательного, формирование письменной речевой компетенции.

THE ROLE OF THE COMMUNICATIVE METHOD IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE

Muminova Mavjuda Mukhtorovna

Doctoral student at the National Research Institute. A. Avloni

Annotation: In this article, the role of the communicative method in teaching a foreign language and the fact that it serves as a basis for the development of writing, reading, speaking and listening skills in language teaching, to determine the effectiveness and specifically to teach written speech giving instructions for the development of the methodology was analyzed. In addition, it was shown that the main essence of the communicative method is teaching to communicate with the help of language and teaching a foreign language through communication.

Key words: Communicative concept, competence, principles of communicative method, speech activity, interdependence of communicative and consciousness principles, formation of written speech competence.

Mamlakatimizda qabul qilingan Davlat ta'lif standartida har bir fanni o'qitishni turli ta'lif bosqichlariga muvofiq olib borish, shu fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar aniq belgilab qo'yilgan. Hozirgi paytda chet tillarni o'qitishni zamон talabiga ko'ra tashkil etish metodik izlanishlarni taqozo etmoqda. Bu chet tillarni o'qitishning zamонaviy hamda nutqiy muloqotga yo'naltirilgan metodlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ularning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bu metodlarni chet tilni o'qitishda va jamiyatning ijtimoiy faoliyatida tutgan o'rni, roli, zamон talabiga javob bera olish darajasi va chet til o'qitilayotgan o'quv maskani oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirishiga qay darajada yordam bera olishi nuqtai nazaridan tahlil qilish talab etiladi.

Kommunikativ metod hozirgi kunda zamонaviy metod sifatida talqin qilinmoqda. Kommunikativ metod Angliya, Fransiya va Germaniyada keng qo'llanilmoqda. Chet tilni o'qitishga nisbatan bunday, ya'ni kommunikativ yondashuv birinchi bor o'tgan asrning 70-yillarda ilk bor qo'llanila boshlagan edi va shundan buyon o'tgan davr ichida jahondagi etakchi metodlardan biri sifatida chet til o'qitish

fakultetlarida va umumiyo'rta ta'lif maktablarida keng qo'llanilmoqda.

Kommunikativ metod ijtimoiy faoliyatda nafaqat axborot almashuviga, balki muloqot jarayonida ta'lif va tarbiyani amalga oshirishga, shaxsnинг intellektual rivojlanishiga, unda bilim olishga, o'qib o'rganishga nisbatan motivasiyani o'stirishga ham yaqindan yordam beradi.

O'quvchilarda ingliz tilidagi yozma nutq ko'nikma va malakalarini shakllantirish va o'stirishni muloqotga yo'naltirishasosida tashkil qilishdan avval kommunikativ metodning chet tilni o'qitish metodikasiga oid ishlarda qanday talqin qilinishini va bu haqda olimlarning turli fikrlarini o'rganish, tahlil qilish zarur. Bu kommunikativ metodning mohiyatini, uning chet tildagi yozma nutq ko'nikmalarini o'stirishda asos bo'lib xizmat qilishini, samaradorligini aniqlashga va yozma nutqqa o'rgatish metodikasini ishlab chiqishga oid ko'rsatma, maslahatlar berish hamda nutqiy muloqotga yo'naltirilgan mashqlar guruhini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ma'lumki, kommunikativ metod chet tildagi og'zaki nutqiy faoliyat bilan bog'liq barcha jihatlarni qamrab olgan. Og'zaki nutqni o'stirishdan ko'zlangan maqsad, nutqiy materialni tanlash bilan bog'liq masalalar, nutqni o'stirish usullarini tanlash, talabalarning chet tildagi bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasi, ularning bir-birlariga munosabati shular jumlasidadir.

Ilmiy metodik adabiyotlarda kommunikativ metodga oid tilshunos, psixolog va metodist olimlarning (J.J.Jalolov, G.Maxkamova, A.A.Leontiev, E.I.Passov, G.M.Rogova, I.L.Bim, I.A.Zimnyaya, N.M.Jinkin, M.Dakovskaya) ishlari tahlil qilinganda turli fikr va qarashlarni kuzatish mumkin.

M. Dakovskayaning ta'kidlashicha, kommunikativ metodning asl mohiyati til yordamida muloqot qilishga o'rgatish hamda muloqot orqali chet tilni o'rgatishdan iborat. Mutaxassis kommunikativ metodning "kuchli" va "kuchsiz" tomonlarini farqlaydi. "Kuchsiz" qo'llanish chet tilni talabalarga nutqda qo'llash uchun o'rgatiladi, "kuchli" qo'llanishda esa muloqot qilish orqali chet til o'rgatiladi.

Chet tillarni o'qitish metodikasi sohasidagi tanikdi olimlardan biri E.I.Passov kommunikativ metodning beshta tamoyilini farqlaydi:

1. Kommunikativlik.
2. Nutq sistemasiga suyanish
3. Situativlik
4. Yangi axborot berish
5. Yaxlitlik, bir butunlik tamoyillaridir

E.I.Passov fikricha, kommunikativlik tamoyili nutqiy material, ya'ni nutqiy muloqotga mos bo'lган so'з va iboralarni tanlash, talabalarda nutq materiali, uning mazmuni nutqiy jarayonni amalga oshirishga nisbatan yuksak motivasiyanishakllantirishni, shuningdek, tanlab olingan mashqlarning nutqiy xarakterga ega bo'lishini taqozo etadi.

Nutq sistemasiga asoslanganlik yoki nutqqa yo'naltirilganlik tamoyili xorijiy til tizimidagi barcha nutqiy namunalarni muloqot mavzuiga mos holda qo'llashni, ona tilini hisobga olishni va bilimlarni til sistemasini o'rganishdan ko'ra ko'proq nutq sistemasini o'rganishga yo'naltirishni nazarda tutadi.

Xorijiy tilni o'qitishdagi situativlik tamoyili esa nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan har qanday nutqiy harakat muloqot mavzusi bilan bog'liq nutqiy vaziyatlarda mashq qilinishi lozimligini ko'rsatadi.

Yangi axborot olishni nazarda tutuvchi to'rtinchchi tamoyil esa o'quv jarayoni bilan bog'liq bo'lган nutqiy vaziyatga yaqinlashtirish, ya'ni talaba uchun noma'lum bo'lган axborotni bilib olishga nisbatan motivasiya (istik-xohish)ni shakllantirishni taqozo etadi.

A.A.Leontiev kommunikativlik va onglilik tamoyili bir-birini inkor etmasligi aksincha bir-biriga bog'liq hodisa ekanligini ta'kidlaydi.

Keyt Morrou ham kommunikativ metodning beshta asosiy tamoyilini farkdaydi:

1. Talaba kanday nutqiy faoliyatni bajarayotganligini tushunish va uni amalga oshira olishi;
2. Nutqiy jarayoning yaxlit butunligi;
3. Nutqiy jarayonni o'rganish til hodisalarini o'rganish kabi muhim ekanligi;
4. O'qib-o'rganish nutqiy faoliyat orkali amalga oshishi;
5. Xatolarni hardoim ham inobatga olmaslik.

Ushbu tamoyillarni tahlil kilish talabalarni chet tilda yozma fikr bildirishiga va o'qitishni kommunikativlik asosda tashkil qilishga yordam beradi. Darhaqiqat, talaba o'zi o'rganayotgan chet til hodisalarini nima uchun o'rganayotganligining sababini, ularni yozma fikr bildirish jarayonida kanday ko'llashni tushunishi, bilishi, zarur. Ushbu nutqiy faoliyatni yozma ravishda amalga oshirish zarurligini

va u bundan manfaatdor ekanligini his qilishi zarur. Shuni ta'kidlash lozimki, til mashklariga ko'yilgan topshiriqni kisman o'zgartirish orkali mashklar strukturasini saklagan holda ularni nutkiy mashklarga aylantirish mumkin. Shuningdek, o'kuv jarayonini rolli o'yinlar yordamida sof nutkiy vaziyatlarga yakinlashtirish mumkin. Bu esa mazkur jarayonni kommunikativ asosga qurish demakdir.

Hozirda mutaxassislardan chet tilni shunchaki o'rganib kolmasdan uni nutqiy faoliyatning barcha turlarida erkin ko'llay olishni ta'minlovchi kommunikativ kompetensiyaga ham ega bo'lishi talab etilmoqda. Ta'limda kompetentiv yondashuvning keng ko'llanilayotgani ushbu yondashuv bilan bog'lik "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini izohlash kerakligini ko'rsatmoqda.

"Kompetensiya" tushunchasi keng kamrovli bo'lib, u lotin tilidagi "competentia" so'zidan olingan va shaxsning bilim doirasi, tajribasi, biror masala yuzasidan hukm chikara olish darajasidagi bilim va vakolatga egaligi, ma'lum bir sohaning bilimdoni kabi ma'nolarni o'z ichiga olgan. Yuridik nuqtai nazardan olib qaralganda kompetensiya-qonun yo'li bilan bir shaxsga berilgan vakolatlar. Bu vakolatlar shu shaxsning ma'lum bir sohaga oid bilimi va tajribasidan kelib chiqib berilishi yurisprudensiyaga oid ensiklopedik lug'atda ham keltirilgan.

Taniqli psixolingvist olima I.A.Zimnyayaning ta'kidlashicha, "kompetensiya" tushunchasi ilk bor tilshunos olim N.Xomskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u so'zlovchi va tinglovchining bilimi bilan bog'liq kompetensiyanı hamda tilni ma'lum bir nutqiy vaziyatlarda qo'llash o'rtaşıdagı farqning zarurligi haqida fikr yuritadi.

Sosiolingvist D.Xayumes N.Xomskiyning "ideal so'zlovchi va tinglovchi" xususidagi fikrini tanqid qilib, muloqotning lingistik shaklini anikdashda nutqiy vaziyatning roli muhim ekanligi, chunki nutqiy muloqot jarayonida so'zlovchining kimga, nima maqsadda, qachon, qaerda, qanday qilib so'zlashi ko'p jihatdan muloqot kechayotgan nutqiy vaziyatga bog'liqligini alohida ta'kidladi. "Kompetensiya" ma'lum soha bo'yicha yaxshi tayyorgarlikni, shu sohaga oid bilimlarga ega bo'lish, omilkorlik va layoqatlilikni o'z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda bu haqida turli fikrlar mavjud. N.V.Samarina "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari garchand bir o'zakdan hosil bo'lsa-da ular o'xshash ma'no anglatmasligini ta'kidlaydi.

Metodik adabiyotlarda "kompetensiya" bilan bog'liq ko'plab atamalarni uchratish mumkin: lingistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya, pragmatik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, strategik kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya va hakozo kabilar. T.V. Xilichenko, bular qatoriga "professional" kompetensiyanı ham qo'shishni taklif qiladi.

Ma'lumki, lingistik kompetensiya leksik birliklar va grammatic qoidalardan foydalanish layoqatini hisobga olsa, diskursiv kompetensiya yozma matn xosil qilish va uni interpretasiya qilish layoqatini o'z ichiga oladi.

Pragmatik kompetensiya nutqiy muloqotni qo'yilgan yoki ko'zlangan maqsadga mos tashkil qilish va kerakli axborotni olish yoki berishda til vositalaridan to'g'ri foydalanish layoqatini bildirsa, strategik kompetensiya muloqot jarayonida kelib chiqadigan qiyinchiliklarda nutqiy vaziyatga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali mushkul vaziyatdan chiqish layoqatini ifodalaydi. Bunday holatda nutqiy faoliyat ishtirokchisidan so'z ma'nosini kontekstdan anglab olish va noto'g'ri ishlatalilgan til vositalarini fahmlab, to'g'ri variantni aniqlay olish ko'nikmalariga, shuningdek, zarur bo'lganda yozma (yoki og'zaki) konteksti istak-xohish va ma'no-mazmuniga ko'ra o'zgartira olish malakalariga ham ega bo'lishi talab etiladi.

Yuqoridagilarning barchasi kommunikativ kompetensianing tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shuning uchun ham talabalarda ingliz tilidagi yozma kompetensiyanı shakllantirishda kommunikativ kompetensianing qayd etilgan komponentlarini ham hisobga olgan holda yozma nutqiy kompetensiyasini shakllantirish maqsadga muvofiq, chunki ular o'rtaşıdagı bog'likdik nofilologik fakulitet talabalarining o'rganilayotgan chet tildagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga ham ijobji ta'sir etadi.

Kommunikativ kompetensiyanı shakllantirishda tilshunos olimlardan N.Uiddovson, K.Jonson, K.Morrou, M.Keynal, D.Xayumes, Mak Xallidey, T.Linch, V.Litlvud va boshqalarning xizmatlari katta.

M. Dakovskaya kommunikativ kompetensiya kommunikativ yondashuvning tamoyillaridan biri ekanligini ta'kidlab u o'z navbatida grammatic, sosiolingistik va strategik kompetensiyalardan tashkil topganligini aytadi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" bilan bog'liq turli qarashlarni uchratishimiz mumkin. "Kompetensiyami shaxsning ma'lum bir sohaga oid bilimi, ko'nikma va

malakalari, hayotiy tajribasi asosida shakllangan va shu sohaga oid masalalarda hukm chiqara olish layoqati deyish mumkin. Bu layoqat tug'ma emas, balki shaxsning bilim olish jarayonida va hayotiy tajribasi asosida shakllanadi. Kompetentlik deganda “nazariy va empirik bilimlarning umumlashgan holda tushunchalar, tamoyillar shaklida berilishi”, “shaxsning bilimi, malakasi va tajribasidan ijodiy faoliyatda foydalana olish qobiliyati”, “shaxsning integral xususiyatlari”ni tushunadilar. “Kompetentlik”shaxsning ma'lum bir sohadagi kompetensiyasini amaliyotda qo'llay olish layoqati va tajribasidan kelib chiqib, unga berilishi mumkin bo'lgan vakolatdir. Bunday vakolatga ega bo'lish biror masalani echish jarayonida kelib chiqadigan muammoni hal qilishda namoyon bo'ladi. Demak, kompetensiyani amaliyotda qo'llanishi bilan bog'liq tushuncha deyish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish joizki, kommunikativ metod hozirgi kunda zamonaviy metod sifatida talqin qilinmoqda va tilning asosiy funksiyasi nutqiy muloqot vositasi bo'lib, shuning uchun ham chet tilni o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad nutqiy muloqot kompetensiyasini ya'ni “kommunikativ kompetensiya”ni shakllantirishdir. O'quvchilarda ingliz tilidagi yozma nutq ko'nikma va malakalarini shakllantirish va o'stirishni muloqotga yo'naltirishasida tashkil qilishdan avval kommunikativ metodning chet tilni o'qitish metodikasiga oid ishlarda qanday talqin qilinishini va bu haqda olimlarning turli fikrlarini o'rganish, tahlil qilish zarur..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бурова З.И. Учебник английского языка для гуманитарных вузов. - М., 1980. - С. 3.
2. Дубова М.В. Компетентность и компетенция как педагогические категории: определение, структура, классификация // Гуманитарные науки и образование, -М., 2011. - № 2 (6) - С.17-22.
3. Елухина Н.В. Дискурсивная компетенция и ее роль в овладении иноязычным профессиональным общением. Профессиональная коммуникация как цель обучения иностранному языку в неязыковом вузе: Сб.науч. тр. - Вып. 454. - М.: Изд. Московского Лингвистического университета, 2000.-С. 60-65.
4. Жалолова И.М., Юлдашева Д.Я. Письменная фиксация и ее роль в процессе обучения аудированию. Олий ўқув юртларида тил ва адабиёт фанларини ўқитишнинг назарий ва амалий жиҳатлари (XVII сон) -Т.: ТДЮИ. 2009. -Б. 111.
5. Жалолов Ж.Ж., Махкамова Г.Т., Алимов Ш.С. English language teaching methodology. -Т.: Фан ва технология, 2009. - 334 б.
6. Ирискулов М.Т., Чет тилларнинг ўқитишида CEFR ўрни Узлуксиз таълим журнали. - Т. 2016. -№ 1. -Б. 77-83.
7. Кларин М.В. Педагогические технологии в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта. Повое в жизни, наука, техника. Сер. «Педагогика и психология» № 6. - М.: Знания, 1989. - Б. 16-21.
8. Кудряшова, О.В. Компоненты коммуникативной компетенции при обучении письменной речи // Вестник ЮУрГУ, 2007. - № 15. - С. 66-70.
9. Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности // Бўлажак чет тил ўқитувчисини ўйналтириш технологияси: Илмий-амалий конференция материаллари. - Т. 2009. - С.145-150.
10. Мирзаева И.Р. Когда же развивать навыки письменной речи? Олий ўқув юртларида тил ва адабиёт фанларини ўқитишнинг назарий ва амалий жиҳатлари (XVII сон) -Т.: ТДЮИ. 2009. - Б. 3.
11. Мирхабибова М.С., Кукуречко А. Использование технологии РКМЧП для обучающего письма. Олий ўқув юртларида тил ва адабиёт фанларини ўқитишнинг назарий ва амалий жиҳатлари (XVII сон) -Т.: ТДЮИ. 2009. - 224 б.
12. Назарова Б.М., Аҳмедова М.М. Некоторые аспекты интерактивного обучения письменному выражению мыслей, основанного на использовании Интернет-ресурсов. Олий ўқув юртларида тил ва адабиёт фанларини ўқитишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. - Т.:ТДЮИ 2009.- 33 б.
13. Нургалиева З.Ш. Обучение студентов неязыкового ВУЗа письменной речи на иностранном языке. Чет тилларни ўқитиш ва ўргатиш муаммолари Республика илмий-амалий анжумани. - Т. 2006. - 251 б.
14. Раджабова Р.В. Методические основы обучения английскому языку в неязыковых вузах. Олий ўқув юртларида тил ва адабиёт фанларини ўқитишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. -Т.: ТДЮИ 2009. -161б.
15. Хамракулова Ш.А.Развитие навыков письменной речи студентов иноязычных групп // Чет тилларни ўқитиш ва ўргатиш муаммолари Республика илмий-амалий анжумани - Т. 2006. - 368 б.

LINGVOSEMATIK MODELLARNING PRAGMA KOGNITIV TADQIQI VA ULARNI NAZARIY ASOSLARI

Nurmatova Sadbarxon Erkinovna
Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'limi Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya : maqolada lingvosematik modellarning pragma kognitiv tadqiqi va ularning xususiyatlari, olimlarning bildirgan fikrlari, kognitiv tilshunoslik tushunchalari, kognitiv pragmalar, pragmatika nazariy tadqiqot va amaliy muammolarni hal qilish sohasi sifatida ko'plab bilim sohalari (falsafa, mantiq, tilshunoslik, matematika, semiotika, antropologiya, mifologiya, dinshunoslik) yutuqlariga tayanib, o'zining shakllanishi va rivojlanishida murakkab yo'lni bosib o'tganligi haqidagi malumotlar va olimlarning nazariy qarashlari bayon etib o'tilgan.

Kalit so'zlar : lingvistikka, pragma, ilmiy qarash, kognitiv, fan, tilshunoslik, leksik, tizim, birlik, qonun, belgi, tushuncha, ong, nazariya, muammo, soha.

ПРАГМА-КОГНИТИВНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИНГВО-СЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ И ИХ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВАНИЙ

Нурматова Садбархан Эркиновна.

Преподаватель кафедры социальных наук заочного отделения Ферганского государственного университета

Аннотация: в статье прагма-когнитивное исследование лингво-сематических моделей и их характеристики, мнения, высказанные учеными, концепции когнитивной лингвистики, когнитивные прагмы, pragmatika как область теоретического исследования и решения практических задач во многих областях лингвистики. описываются знания (философия, логика, языкознание, математика, семиотика, антропология, мифология, религиоведение), сведения о сложном пути его становления и развития и теоретические взгляды ученых.

Ключевые слова: лингвистика, прагма, научный взгляд, когнитивная, наука, лингвистика, лексика, система, единица, закон, знак, понятие, сознание, теория, проблема, поле.

PRAGMA-COGNITIVE STUDY OF LINGUO-SEMITIC MODELS AND THEIR THEORETICAL FOUNDATIONS

Nurmatova Sadbarkhan Erkinovna

Teacher of the Department of Social Sciences, External Department, Fergana State University

Abstract: in the article, the pragma-cognitive study of linguo-semitic models and their characteristics, the opinions expressed by scientists, the concepts of cognitive linguistics, cognitive pragmas, pragmatics as a field of theoretical research and solving practical problems in many fields of knowledge (philosophy, logic, linguistics, mathematics, semiotics, anthropology, mythology, religious studies), information about the complex path of its formation and development and the theoretical views of scientists are described.

Key words: linguistics, pragma, scientific view, cognitive, science, linguistics, lexicon, system, unit, law, sign, concept, consciousness, theory, problem, field.

KIRISH. Pragmatika nazariy tadqiqot va amaliy muammolarni hal qilish sohasi sifatida ko'plab bilim sohalari falsafa, mantiq, tilshunoslik, matematika, semiotika, antropologiya, mifologiya, dinshunoslik kabi fanlarni yutuqlariga tayanib, o'zining shakllanishi va rivojlanishida murakkab yo'lni bosib o'tdi. Etnografiya, san'at tarixi, poetika, ritorika, neyrobiologiya, psixologiya, sotsiologiya, informatika, kognitiv fan, sun'iy intellekt nazariyasi, aloqa nazariyasi, tibbiyot, genetika va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikga ega. Uning ildizlari amerikalik olim Charlz Sanders Peirce (Charles Sanders Peirce, 1839-1914) tomonidan yaratilgan va Charlz Uilyam Morris (1901-1979) tomonidan ishlab chiqilgan versiyasida semiotikaga borib taqaladi. 60-yillarda Charlz Pirs tomonidan qo'yilgan. 18-asr va 1930-yillarda nashr etilganidan keyin butun dunyo bo'ylab yurishini boshladi. Uning ko'pgina asarlarida semiotika fan sifatida tushunilgan bo'lib, uning asosida bilimning barcha sohalari birlashtirilishi kerak edi. Umumjahon ahamiyatiga da'volari nuqtai nazaridan semiologiya unga yaqin, lekin eng rivojlangan belgilar tizimi sifatida tabiiy inson tiliga asosiy e'tiborini qaratishi bilan undan farq qiladi. Uning asoslarini umumiyl ma'noda shveytsariyalik olim Ferdinand de Sossyur (1857-1913) belgilab bergen. U 1916 yilda

«Umumiy tilshunoslik kursi» vafotidan keyin nashr etilganidan keyin jamoat mulkiga aylandi. Karl Bühlerning (1879-1963) sematologiyasi ajralib turadi, uning asosiy tamoyillari «Til nazariyasi: tilning vakillik funksiyasi» (1934) kitobida modelni tashkil etuvchi aksiomalar to'plami shaklida bayon etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O'tgan asr haqiqatda semiotika asri bo'ldi. Falsafada va ko'plab fanlarda biz belgilar olamida yashayotganimiz, inson faoliyati dunyonи bilish va tushuntirishda, afsonalar va dirlarni yaratishda, madaniyatni rivojlantirishda, san'atda, marosimlarda va urf-odatlarda yashashimizni tan olish bilan ajralib turardi. Urf-odatlar, siyosiy amaliyotda, odamlarning jamiyat a'zolari va etnik kelib chiqishi o'rtaсидagi munosabatlarda o'z vositalari va natijalarida ko'p jihatdan ramziy ma'noga ega. Strukturizm tilshunoslikda ham, ko'plab turdosh sohalarda ham semiotik asosda shakllangan. Bugungi kunda semiotika klassiklarini Ch.S. Pirs, C.V. Morris, F. de Sossyur, Lui Xjelmslev (1899-1965), Roman Osipovich Yakobson (1896-1982), shuningdek, Yakob fon Yuxkull (1864-1944), Ernst Cassirer (1874-1945). K. Bühler, Roland Bartes (1915-1980), Tomas Sebeok (1920-2002), Umberto Eco (1932 y. t.), Yuriy Mixaylovich Lotman (1922-1993). 1960-yillarda Moskva semiotik maktabi shakllandi. Semiotikaga muhim hissa qo'shgan olimlardan B.A. Uspenskiy, E.V. Paducheva, A.K. Jolkovskiy, Yu.K. Shcheglov va boshqalar sanaladi. 1960-yillarning o'rtalariga kelib, Moskva maktabi bilan Tartu maktabi o'rtaсиda mafkuraviy yaqinlashuv vujudga keldi (Yu.M. Lotman shu asosda Moskva-Tartu semiotika maktabi shakllandi). Ammo undan tashqarida ham bizda belgi muammolari bilan shug'ullanadigan juda ko'p faylasuflar, mantiqchilar, antropologlar, psixologlar, sotsiologlar, tilshunoslар, adabiyotshunoslар, san'atshunoslар, tabiatshunoslар, matematiklar, tibbiyot vakillari va boshqalar mavjud, shu jumladan, uning pragmatik funksiyalari, garchi pragmatika mustaqil tadqiqot sohasi sifatida, ayniqsa lingvistik pragmatika, 20-asrning so'nggi o'n yilliklarigacha haqiqatda muhokama qilinmagan. Bugungi kunda semiotika fundamental fanlar orasida mustahkam o'rin egallaydi. Adabiyot semiotikasi, san'at semiotikasi, me'morchilik semiotikasi va boshqalar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ijtimoiy amaliyotning eng yangi kognitiv vazifalari va turli talablarini bajarishga eng tayyor bo'lган pragmatika bo'lib chiqdi, u Ch.S.ning semiotikasidan aniq ajratilgan. Pirs, C.V. Morris va R. Karnap va 20-asrning ikkinchi yarmida ancha tugagan shaklni oldi. Pragmatika atamasasi fan tilida paydo bo'lганida, C.V. Morris 70-yillardan beri Qo'shma Shtatlarda keng tarqalgan pragmatizmning falsafiy yo'nalishini aniq boshqargan. U hayotiy muammolarni mavhum spekulyativ aks ettirish asosida emas, balki doimiy o'zgaruvchan dunyoda maqsadli amaliy faoliyat jarayonida faol pozitsiyadan turib hal qilish zarurligini ta'kidladi. Pragmatizm asoschilaridan biri aynan semiotikaning yaratuvchisi Ch.S. Pier. U falsafiy estafetani U.Jeyms, J.Dyui, J.G. Mead (G.H. Mead) va boshqalar Pirs o'z shaxsida faylasuf, mantiqchi, matematik, tabiatshunoslар va filologni birlashtirgan. Uning ilmiy xizmatlarini yuqori baholagan R.O. Jeykobson istehzo bilan Charlz Pirs shunday qaddi-qomatga ega buyuk olim bo'lganki, bir vaqtlar Amerikaning bironta universitetida unga joy yo'q edi. Uzoq vaqt davomida dialektik va tarixiy materializmga yot falsafa bilan genetik bog'liqlik mahalliy olimlarga pragmatika atamasini qabul qilishiga to'sqinlik qildi. Ba'zida qandaydir «kamuflyaj» nomi ixtiro qilingan. Biroq, o'zi bixevoiristik falsafiy tizim tamoyillariga amal qilgan C. Morris bu atama falsafiy emas, balki o'ziga xos semiotik sifatida talqin qilinishi kerakligini to'g'ri ta'kidladi, chunki u belgilarning ularning belgilari bilan munosabatlarini o'rganadigan maxsus fanni nomlaydi. tarjimonlar. Bundan tashqari, pragmatika atamasasi turli tillardagi adabiyotlarda mustahkam o'rin egallagan, u xalqaro miqyosda bo'lib kelgan va tabiiyki, uni boshqasi bilan almashtirishga arzimaydi. S.Pirs birinchi bo'lib belgining umumiyyatnazariyasida amaliy va kommunikativ faoliyat subyekti omilini hisobga olish muhimligini qayd etdi (ikkinchisi belgi jarayoni, semioz vazifasini bajaradi).

Peirsning fikriga ko'ra, belgi uch a'zoli munosabatlarni tashkil qiladi. A'zolar quydagilardir:

- belgi (uning terminologiyasida representamen), belgi qurilmasi sifatida tushuniladi, ya'ni. jismoniy xususiyatga ega bo'lган va biror narsani almashtirishga qodir bo'lган ma'lum miqdor;
- tarjimon ongida lokalizatsiya qilingan va birinchi belgining tarjimon sifatida belgilangan ushbu belgi tomonidan ishlab chiqarilgan boshqa belgi;
- belgi bilan ifodalangan predmet.

Belgi tushunchasiga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, belgilar o'z-o'zidan berilmasligi va sub'ekt faoliyatidan tashqari ob'ektlarning alohida sinflarini tashkil etmasligi e'tirof etildi. Ular semioz jarayonida paydo bo'ladi. Semiotik jarayondan tashqari, triadik belgi munosabatini o'rnatuvchi tarjimon faoliyatidan tashqarida hech qanday belgi yo'q. K.Pirs ba'zan izohlovchi ma'no (ahamiyat, ma'no) deb ham atagan. Uning belgi munosabatlari modelida u mantiqiy-falsafiy va lingvistik an'analarda ma'no E. Gusserl, G.

Mardlik va jasorat insonning kurashish va muayyan qiyinchiliklarni engishga tayyorligini belgilaydi. Jasur odam impuls ko‘rsatishi va ehtiyojsizlikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Jasorat - yuzaga kelgan xavfni hisobga olish bilan birlashtirilgan jasoratdir. Qat’iyat va jasorat harbiy shaxs irodasining o‘zagi bo‘lgan fazilatlarni ifodalaydi. Chidamlilik - bu jasorat, jismoniy va ma’naviy chidamlilik. Jasoratli odam o‘z ehtiyojlari, his-tuyg‘ulari va motivatsiyasining egasidir. Harbiy xizmatchining irodasini shakllantirish uchun samarali, samarali va doimiy mehnat talab etiladi, bu esa harbiy-axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlashishi kerak.

Ma’lumki, harbiy xizmatchining psixologik tayyorgarligining markaziy vazifalaridan biri hissiy-irodaviy barqarorlik va kuchli irodali tayyorgarlikni shakllantirishdir. Kuchli iroda harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat va g‘alabalarning kalitidir. Shunday qilib, harbiy xizmatchilarning hissiy-irodaviy sohasining xususiyatlarini o‘rganishda uning asosiy elementlarini, xususan, harbiy xizmatchilarning his-tuyg‘ulari va hissiyotlari sohasini, shuningdek, harbiy xizmatchilarning belgilangan vazifalarni bajarishga psixologik tayyorgarligida muhim rol o‘ynaydigan ularning irodasi va irodaviy barqarorligi sohasini tushunish kerak.

Metodika va natijalar tahlili: Tadqiqot ishimizda asosiy e’tibor qaratiladigan jihat kursantlarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o‘rnini ochib berish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda tadqiqot uchun tanlab olingan sinaluvchilar guruhi “Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish” metodikasining modifikasiyon varianti (V.M.Chumakov tomonidan ishlab chiqilgan), “Reaktivlik o‘zgarishini baholash shkalasi” (Ya.Strelyau tomonidan ishlab chiqilgan) hamda “Ekstraversiya, rigidlik va xavotirlanishni baholash metodika” (O.P.Yeliseyev tomonidan ishlab chiqilgan) laridan foydalaniildi. Metodika bo‘yicha olingan natijalarini yaqqol ifodalash maqsadida natijalar jadvallarda aks ettirildi.

1-jadval

Kursantlarda irodaviy sifatlar va shaxs individual-psixologik xususiyatlari o‘rtasidagi aloqadorlik

| Shaxsning irodaviy sifatlari | Shaxs individual psixologik xususiyatlari | | |
|------------------------------|---|----------|---------------|
| | Reaktivlik | Rigidlik | Xavotirlanish |
| Mas’uliyatlilik | 0,77** | 0,22 | 0,48** |
| Tashabbuskorlik | 0,12 | 0,14 | 0,66** |
| Jur’atlilik | 0,47** | 0,38* | 0,61** |
| Mustaqillik | 0,61** | 0,53** | 0,32* |
| Matonatlilik | 0,08 | 0,41** | 0,43** |
| Qat’iyatlilik | 0,01 | 0,69** | 0,82** |
| G‘ayratlilik | 0,63** | 0,11 | 0,55** |
| E’tiborlilik | 0,65** | 0,10 | 0,44** |
| Maqsadga intiluvchanlik | 0,20 | 0,42** | 0,78** |

** $r \leq 0,01$ * $r \leq 0,05$

Jadval natijalariga ko‘ra, mas’uliyatlilik reaktivlik bilan ($r=0,77$; $r \leq 0,01$), xavotirlanish bilan ($r=0,48$; $r \leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ma’lumki, ryeaktivlik –

bu bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emosional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildirishdir. Reaktivlikning ro'yobga chiqishi emosionallik, ta'sirlanuvchanlikda ifodalanadi. Reaktivlik, o'z navbatida, faollik bilan o'zaro munosabatda bo'ladi.

Unga ko'ra, kursant shaxsida mas'uliyatlilikni rivojlanishida reaktivlik va xavotirlanish holatlari ijobjiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bo'lajak ofiser shaxsida tanlagan kasbi nuqtai nazaridan mas'uliyatlilik sifati yuqori darajada rivojlanishni taqazo etadi. Natijalarga ko'ra, mas'uliyatlilik bilan rigidlik o'rtasida umumiyoq aloqadorlik kuzatilmasdan mustaqil komponent ekanligi qayd etildi. Rigidlik – shaxsning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligiga nisbatan baho berishdan iboratdir. Rigidlik holati o'smirning tashqi ta'sirlarga nisbatan qanday darajada reaksiya bilan javob bera olishi hamda unda o'zini o'zi nazorat qilishning namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Shu o'rinda rigidlik – o'zgaruvchan vaziyatlarga qarab motivatsiya jarayonini korreksiya qilish xususiyati bo'lib, shaxsning yangi sharoitlarga ko'nika olishi, ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligi, ya'ni, shaxs psixikasining egiluvchanlik sifatini bildiradi. Rigidlik yuqori bo'lgan insonning o'z xulq-atvori strategiyasini o'zgartirish og'ir kechadi. Oqibatda qabul qilingan qarorlari hamda shakllanayotgan motivlari har doim ham vaziyatga adekvat bo'lavermaydi (mos kelavermaydi).

Sinaluvchilarining natijalariga ko'ra, tashabbuskorlik xavotirlanish bilan ($r=0,66; r\leq 0,01$) yuqori daraja ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Natijalardan ko'rish mumkinki, kursantlar o'rtasida tashabbuskorlik sifatining yuqori daraja rivojlanishi ularning xavotirlanish holatlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi mumkin. Xavotirlanish – bu odamning doimo o'zini tashvishli his etishi, turli vaziyatlarni xatarli holat sifatida idrok etishga moyilligidir. Xavotirlanishning boshdan kechirilishi ham individual xususiyat bo'lib, bunday his noaniq biror xavf oldidan paydo bo'ladi. Xavotirlanish ro'y berishi mumkin bo'lgan yoki ehtimol tutilgan noxushliklar, odat va vaziyatdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. U tashvishli harakatlarda, holatning keskinligida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Xavotirlanishning yuqori darajada bo'lishi, odatda, faoliyatning samaradorligini pasaytiradi, shaxsning har xil ziddiyatli xulq-atvori bilan birga kechadi. Odatda xavotirlanishning shaxs xususiyati sifatidagi va vaziyat bilan bog'liq ikki turi farqlanadi. Shaxs xususiyati sifatidagi xavotirlanish asab tizimining xususiyatlari va uzoq davom etadigan noxush muloqot bilan belgilanadi. Vaziyat bilan bog'liq xavotirlanish yoki reaktiv xavotirlanishlar aniq vaziyat bilan bog'liq bo'lgan va undan tashqarida namoyon bo'lmaydigan tashvishli holatdir. Shuning bilan birga kursantlar kasbiy faoliyatga tayyorlanishlari negizida o'zlarida ma'lum tashabbus, ixtiro va yangiliklarni topib, ularni amaliyatga qo'llashga harakat qiladilar. Bu esa har doim ham samarali va natijalari chiqmasligi mumkin. Empirik ma'lumotlarga ko'ra, xavotirlanish holati rigidlik va reaktivlik o'rtasida o'zaro aloqadorlik kuzatilmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi.

Metodika natijalariga ko'ra, jur'atlilik reaktivlik bilan ($r=0,47; r\leq 0,01$), xavotirlanish bilan ($r=0,61; r\leq 0,01$) yuqori darajada rigidlik bilan ($r=0,38; r\leq 0,01$) ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, kursantlarda jur'atlilikni rivojlanishida ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan qatiy pozisiyada turish imkoniyati muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, bo'lajak ofiserlarda o'quv va kasbiy faoliyati bilan bog'liq xavotirlanish holatlarini ortib ketishi ularda o'zlariga nisbatan jur'atlilikni rivojlanishiga olib keladi. Shu o'rinda kursant shaxsida jur'atlilikni rivojlanishida reaktivlikning ham ahamiyat mavjud ekanligi tajriba natijalaridan ma'lum bo'ldi.

Metodika natijalariga ko'ra, mustaqillik rigidlik bilan ($r=0,53; r\leq 0,01$), reaktivlik bilan ($r=0,61; r\leq 0,01$) yuqori darajada, xavotirlanish bilan ($r=0,32; r\leq 0,01$) ahamiyatli daraja aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Natijalardan ko'rindaniki, kursantlardagi mustaqillik sifatini rivojlanishida ulardagi individual-psixologik xususiyatlarining o'rni muhim hisoblanadi.

Sinaluvchilarining natijalariga ko'ra, matonatlilik rigidlik bilan ($r=0,41; r\leq 0,01$), xavotirlanish bilan ($r=0,43; r\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu esa kursantlarda matonatlilikni rivojlanishi ulardagi rigidlik va xavotirlanish holatlari bilan uzviy bog'liq holda kechishi kuzatiladi. Shuning bilan birga bo'lajak ofiserlarda matonatlilikni shakllanishi reaktivlik bilan o'zaro bog'liq bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi qayd etildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qat'iyatlilik rigidlik bilan ($r=0,69; r\leq 0,01$), xavotirlanish bilan ($r=0,82; r\leq 0,01$) yuqori ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa o'z navbatida kursant shaxsida qat'iyatlilikni ortib ketishi ulardagi har qanday ta'sirlarga nisbatan shaxsning o'zgarmasligi hamda xavotirlanish holatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, bo'lajak ofiser shaxsida qat'iyatlilikning tarkib topishi ulardagi reaktivlik bilan o'zaro aloqador bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi aniqlandi.

Sinaluvchilariga ko‘ra, g‘ayratlilik reaktivlik bilan ($r=0,63$; $r\leq 0,01$), xavotirlanish bilan ($r=0,55$; $r\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Shuning bilan kursantlarda g‘ayratlilikni rivojlanishi ulardagi rigidlik xususiyati bilan bog‘liq bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bo‘lajak ofiserlarda g‘ayratlilikni rivojlanishi ulardagi o‘quv va kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan xavotirlanish holatlarini ortib ketishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, e’tiborlilik shaxs individual xususiyatlaridan reaktivlik bilan ($r=0,65$; $r\leq 0,01$), xavotirlanish bilan ($r=0,44$; $r\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli aloqadorlik mavjudligi qayd qilindi. Shuning bilan e’tiborlik rigidlik bilan o‘zaro aloqador bo‘lmasdan mustaqil komponent ekanligi aniqlandi. Natijalardan ko‘rinadiki, kursant shaxsida e’tiborlikni shakllanishida reaktivlik va xavotirlanishning ortishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Empirik ma’lumotlarga ko‘ra, maqsadga intiluvchanlik rigidlik bilan ($r=0,42$; $r\leq 0,01$), xavotirlanish bilan ($r=0,78$; $r\leq 0,01$) yuqori darajada ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shuning bilan birga bo‘lajak ofiser shaxsida maqsadga intiluvchanlik reaktivlik bilan o‘zaro aloqador bo‘lmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi. Ta’kidlash joizki, maqsadga intiluvchanlik kursant shaxsidagi rigidlik va xavotirlanish holatlari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanishi qayd etiladi.

Xulosa: Metodika natijalariga ko‘ra, bo‘lajak ofiserlarda irodaviy sifatlari va shaxsnинг individual-psixologik xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqlik kuzatiladi. Unga ko‘ra, bo‘lajak ofiserlarda irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishi ko‘p hollarda emosional holatlardan xavotirlanish bilan aloqador bo‘lib, shaxs emosional jabhasini faol ravishda nazorat qila olishi bilan tavsiflanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

- 1.Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. - М.:Академия, 2007. - 528 с.
- 2.Лебедев В.И. Личность в экстремальных условиях. - М.: Издательство политической литературы, 1989. - 304 с.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭВАЛЮАЦИИ КАК ИННОВАЦИОННОГО ОЦЕНИВАНИЯ И ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Рузметова Хилола Абдушариповна
Д.п.н., доц. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.

Аннотаци: В данной статье рассматриваются теоретические аспекты модернизации образования и управление инновационного оценивания качественного образования, а так же предлагают современную трактовку термина «эвалюация» рассматривается весь спектр процессов и результатов оценочно-аналитической и прогностической деятельности по системному исследованию ценности и позитивности образовательных воздействий, обеспечивающих основу принятия обоснованных управленческих решений для совершенствования качества образования.

Ключевые слова: модернизация, эвалюация, квазиэкспериментальные дизайны, стандарты эвалюации, управление, компетентностное обучение, оценка.

THEORETICAL ASPECTS OF EVALUATION AS INNOVATIVE EVALUATION AND IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Professor Ruzmetova Hilola Abdusharipovna

Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Abstract: This article examines the theoretical aspects of educational modernization and management of innovative assessment of quality education, as well as offers a modern interpretation of the term «evaluation». The whole range of processes and results of evaluative, analytical and predictive activities for the systematic study of the value and positivity of educational influences that provide the basis for making informed management decisions to improve the quality of education is considered.

Key words: modernization, evaluation, quasi-experimental designs, evaluation standards, management, competence-based training, estimation.

INNOVATSION BAHOLASH VA TA'LIM SIFATINI ORTALASH ASKIDA BAHOLASHNING NAZARIY ASKOKTLARI

Ruzmetova Hilola Abdusharipovna

Pedagogika fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'limi modernizatsiya qilishning nazariy jihatlari va sifatli ta'limi innovatsion baholash ko'rib chiqiladi, shuningdek, «evalyutsiya» atamasining zamonaviy taliqini taklif qilinadi, ta'lim sifatini yaxshilash uchun asosli boshqaruvi qarorlarini qabul qilish uchun asos yaratadigan ta'lim ta'sirining qiymati va ijobiliyini tizimli o'rGANISH bo'yicha baholash-tahliliy va bashoratlari faoliyatning barcha jarayonlari va natijalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, baholash, kvazi-eksperimental loyihalar, baholash standartlari, boshqaruvi, kompetentsiyaviy o'qitish, baholash.

В современном обществе XXI века политические, экономические и социальные тенденции, привели к резкому возрастанию значения повышения качества образования.

Проблема качества образования и совершенствование процессов управления регулируется в Узбекистане важнейшими нормативными фундаментальными документами по реализации государственной политики и реформированию образования.

Модернизация образования требует совершенствования управленческих воздействий на качество образовательного процесса и их результаты.

Особенно сегодня важна оценка, также результаты инноваций и стратегических решений по совершенствованию качества образования.

Управление качеством образования сегодня является основополагающей деятельностью по реализации целей образования на основе принятия оперативных и стратегических управленческих решений. В этой деятельности предполагается координация функционирования образовательной системы, отслеживание и прогнозирование всех процессов, планирование условий и направлений деятельности для повышения качества образования.

На рост управленческих решений и учет стратегических приоритетов в развитии любой системы

образования влияет эвалюация, которая предполагает распознавание, анализ, прогнозирование и совершенствование процессов управления качеством образования при правильном реализации программ и проектов по его модернизации.

Говоря об исторической справке эвалюации, важно отметить, что она появились достаточно давно в начале XIX века, когда правительство США обратилось к сообществу независимых экспертов с просьбой оценить реализацию общественных программ в учебных заведениях, больницах, приютах.[1]

Но существует мнение, что появление в исследованиях данные по эвалюации на профессиональном уровне связано именно с 60-ми годами XX века. Именно в это время в США была принята законодательная программа Great Society, которая содержала эвалюацию как неотъемлемую часть всех работ. В других исследованиях исторические этапы развития эвалюации связано с становлением и сменой философских парадигм. Периоды философских постулатов сменялись, а в эвалюации побеждали то количественные, то качественные методы. На протяжении всей истории развития в эвалюации никогда не отказывались от использования тестирования как наиболее эффективного и достоверного источника информации о качестве результатов образования.

К концу XX века изменились стратегии эвалюации, где были добавлены новые целевые парадигмы и квазиэкспериментальные дизайны. И несмотря на научность подходов и высокую объективность, результаты эвалюации в недостаточном уровне используются в управлении качеством образования и не оказывают должного эффекта воздействия на образовательную политику и выполнение программ. И в начале 2000-х годов центр внимания эвалюаторов сместился на развитие моделей, включающих компоненты теории управления и принятия решений.[4]

Изучая современную трактовку термина «эвалюация» рассматривается весь спектр процессов и результатов оценочно-аналитической и прогностической деятельности по системному исследованию ценности и позитивности образовательных воздействий, обеспечивающих основу принятия обоснованных управленческих решений для совершенствования качества образования.

Трактовка термина «эвалюация» подразумевает многообразие сфер приложения ее научного аппарата:

- эвалюация для оценки и анализа учебно-воспитательного процесса и его коррекции;
- эвалюация как разновидность внутренней экспертизы и коллективной самооценки;
- эвалюация для совершенствования политики и финансовой деятельности образовательных структур на различных уровнях управления, эвалюация в целях совершенствования управления качеством образования при реализации программ и проектов по модернизации образования.[7]

Эвалюация интенсивно развивается во многих странах, обладающих высокоразвитыми системами образования. Однако в трудах зарубежных авторов преобладает pragматическая ориентация, поэтому многие теоретико-методологические проблемы эвалюации остаются вне сферы внимания.

Рассматривая особенности эвалюации, которыми являются объективность, высокая информативность и прогностичность, что достигается путем перехода к использованию педагогических измерений и мониторинга.[2].

Важно отметить, что такие обследования обеспечивают надежную обратную связь между обучающимися и педагогами, образовательными системами и органами управления образованием, а также создают условия для самоконтроля, самоаттестации и самоидентификации. В процессе эвалюации осуществляется перенос центра внимания контроля с результата на анализ и коррекцию процесса обучения и обученности, рефлексию достижений и проблем обучения и обученности.

Объектами эвалюации в последнее время становятся:

- результаты образовательного процесса;
- органы управления образованием и образовательные учреждения; инновационность образовательного процесса;
- соотношение затрат и достижений; удовлетворенность потребителей качеством образовательных услуг;
- эффективность социального партнерства.[6]

Соответствуя достижениям требуемого уровня эвалюация должна выстраиваться

структурированной целостностью методических, организационных, технологических, функциональных и материально-технических составляющих на основе использования валидного оценочного инструментария и обеспечения конфиденциальности контрольно-оценочных материалов и процедур.[6]

Учитывая педагогические условия эффективного управления качеством обучения и обученности с использованием средств и методов эвалюации представлены:

- систематический характер независимых педагогических измерений и оперативность использования их результатов;
- использование интервальных и уровневых шкал представления результатов педагогических измерений;
- формирование системы уровней сбора и обобщения количественной образовательной информации о качестве обучения и обученности;
- выделение совокупности статистически формируемых показателей и критериев качества обучения и обученности;
- организация мониторинговых исследований качества обучения и обученности на репрезентативных выборках по результатам независимых контрольно-оценочных процедур;
- коррекция процесса обучения и обученности по анализу результатов независимых контрольно-оценочных процедур и оценок традиционного школьного контроля;
- открытость и доступность образовательной информации всем категориям пользователей;
- обеспечение надежной обратной связи в системе обучения и обученности и управления его качеством.[5].

Чтобы результаты эвалюации были достоверными и вызывали доверие пользователей, а совокупность процессов была эффективной, необходима стандартизация эвалюационной деятельности.

Стандарты эвалюации опираются на четыре фундаментальных качества:

- полезность,
- исполнимость,
- корректность,
- точность.

При переходе на компетентностное обучение, создании и функционировании фондов оценочных средств развитие управлеченческой деятельности должно идти с широким использованием возможностей эвалюации как современного инструмента, обеспечивающего информационную базу для принятия обоснованных управлеченческих решений по результатам анализа динамических надежных и валидных оценок о состоянии оцениваемых объектов.

Список литературы:

1. American Evaluation Association (2004, July). Guiding principles for evaluators. Retrieved January 11, 2005, from <http://www.eval.org/Publications/GuidingPrinciples.asp>.
2. Ефремова Н.Ф., Звонников В.И., Челышкова М.Б. Педагогические измерения в образовании // Педагогика. – 2006. – № 2. – С. 14–22.
3. Ефремова Н.Ф., Харченко К.В. Стандарты эвалюации в деятельности вуза // Проблемы качества образования: материалы XXI Всерос. науч.-метод. конф., (Уфа, 23–29 мая 2011) / УГАТУ, Уфа. – С. 16–19.
4. Гуськова М. В., Звонников В. И. Этапы развития эвалюации в образовании. Экономика образования. № 4, 2011
5. Ефремова Н.Ф., Склярова Н.Ю. Логистические процессы в образовании. Теория и практика управления в образовании. – М.: Национальное образование, 2014. – 148 с.
6. Ефремова Н.Ф. Эвалюация как информационная основа управления качеством обучения. Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2 (часть 7) – С. 1489-1493. URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=37179>.

O'SMIRLARDA O'Z-O'ZIGA MUNOSABAT MOTIVATSİYASINING İJTIMOİY- PSIXOLOGİK XUSUSİYATLARI

Sayfulloeva Aziza G'ulomjonovna

***"Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti" magistranti, Turon Zarmad universitetining
"Boshlang'ich ta'lif, pedagogika va psixologiya" kafedrasи o'qituvchisi.***

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarning o'z-o'zini baholash, o'z-o'ziga munosabat va o'zini psixologik muhofaza qilish jarayonlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek o'smirlilik yoshidagi ruhiy psixologik holatlar ilmiy asoslab berilgan. Maqolada o'smirlilik davrining xulq-atvor motivatsiyasini o'rganishning nazariy va amaliy masalalari yoritilgan. Shaxsning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sisatidagi faolligi va o'zini o'zi rivojlantira borishi ko'p jihatdan ushbu jarayonga bog'liqdir Buning uchun o'smirliking xulq-atvor motivatsiyasilarini masalasini psixologlar tomonidan o'rganilganligiga e'tibor qaratilgan. Shaxsning o'zi o'zini baholash, shaxs individual xususiyatlari, ayniqsa dinamik xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish va shu asosda shaxs ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan psixologik yondashuv usullarini belgilash har qanday davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'smirlarning o'zi o'ziga munosabat haqidagi bilimlari, uning ijtimoiy tajribasi, xulq-atvor motivatsiyasi va o'zini o'zi tarbiyalashga, rivojlantirishga jiddiy yondashuvi asosida shakllanadi. Ayniqsa o'smirlilik davrida bu jarayonga jiddiy qarash kerak bo'ladi. O'smir shaxsining motivatsion sohasini o'rganish muammosi eng ko'p talab qilinadi, chunki ko'pgina qadriyat yo'naliшlarining ahamiyatini qayta baholash, jamiyatdagi o'z o'rnini qayta ko'rib chiqish, hayot natijalarini uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish shaxs motivlarida yashiringan bo'lib, nafaqat bilimni, balki ularni shakllantirishni boshqarishni ham talab qiladi. Shaxsning o'zini o'zi hissiy baholash jarayoni o'zini o'zi turli xil ko'ngilsizliklardan, muvaffaqiyatsizliklardan va ziddiyatli vaziyatlardan ma'lum darajada muhofaza qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: o'smir, o'z-o'zini baholash, o'z-o'ziga munosabat, psixologik muhofaza, o'ziga munosabat motivatsiyasi, adekvat bilish.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МОТИВАЦИИ ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Сайфуллоева Азиза Гуломжоновна

«Бухарская психология и иностранные языки магистрант Института, Туров
Зармед университета «Начальное образование, педагогика и психология» преподаватель
кафедры

Аннотация: В этой статье рассматриваются процессы самооценки, самооценки и психологической защиты подростков. Также научно обоснованы психопсихологические состояния в подростковом возрасте. В статье освещаются теоретические и практические вопросы изучения поведенческой мотивации подросткового возраста. От этого процесса во многом зависит социальный прогресс личности во всех отношениях, ее активность как личности и продвижение к саморазвитию для этого обращается внимание на то, что вопрос о поведенческих мотивациях подросткового возраста изучается психологами. Самооценка личности, изучение индивидуальных особенностей личности, особенно ее динамических характеристик, анализ и определение на этой основе методов психологического подхода, важных для социального развития личности, являются одними из важнейших задач, стоящих перед любым государством и обществом. Сам подростковый возраст формируется на основе знаний об отношении к себе, его социальном опыте, мотивации поведения и серьезного подхода к самообразованию, развитию. К этому процессу нужно будет отнести серьезно, особенно в подростковом возрасте. Проблема изучения мотивационной сферы личности подростка является наиболее востребованной, т. к.. переоценка значимости многих ценностных ориентаций, переосмысление своего места в обществе, принятие на себя ответственности за результаты жизнедеятельности скрыты в мотивах личности и требуют не только знаний, но и управления их формированием. Процесс эмоциональной самооценки личности приобретает важное значение для некоторой степени защиты себя от различных разочарований, неудач и конфликтных ситуаций.

Ключевые слова: подросток, самооценка, самоотношение, психологическая защита, мотивация самоотношения, адекватные знания.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF BEHAVIOR MOTIVATION IN ADOLESCENTS

Sayfulloeva Aziza Gulomzhonovna

«Bukhara psychology and foreign languages graduate student of the Institute,
Turon The head of the University «Primary education, pedagogy and psychology»
is a teacher of the department

Abstract: This article focuses on adolescent self-assessment, self-attitude, and self-psychological conservation processes. Also, mental-psychological states in adolescence are scientifically substantiated. The article covers theoretical and practical issues of studying the behavioral motivation of adolescence. The social progress of an individual in all respects, his activity as an individual and his progress in self-development largely depend on this process for which attention is paid to the fact that the issue of behavioral motivations of adolescence is studied by psychologists. One of the important tasks facing any state and society is the assessment of the personality itself, the study of individual characteristics of the individual, especially dynamic ones, analysis and, on this basis, the definition of methods of psychological approach that are important for the social development of the individual. Adolescents themselves are formed on the basis of their knowledge of self-attitude, his social experience, behavioral motivation and a serious approach to self-education, development. Especially in adolescence, this process will have to be taken seriously. The problem of studying the motivational sphere of a teenage personality is most demanded, because. reassessment of the importance of many value orientations, rethinking one's place in society, taking responsibility for life outcomes are hidden in individual motives, requiring not only knowledge, but also the management of their formation. The process of an individual's self-emotional assessment is important for self-protection to a certain extent from various frustrations, failures, and conflict situations.

Key words: teen, self-evaluation, self-attitude, psychological protection, self-attitude motivation, adequate knowledge.

Kirish. Jahonda zamonaviy psixologiya rivojlanishi bilan, insonlar o‘z aqliy, ma’naviy, jismoniy va psixologik imkoniyatlarini anglab yetishi bilan o‘z o‘zini baholash eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o‘zini o‘zi rivojlantira borishi ko‘p jihatdan ushbu jarayonga bog‘liqdir.

Respublikamizda shaxsning o‘zi o‘zini baholash, shaxs individual xususiyatlari, ayniqsa dinamik xususiyatlarini o‘rganish, tahlil qilish va shu asosda shaxs ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan psixologik yondashuv usullarini belgilash har qanday davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Alovida ta’kidlash joizki, shaxslar o‘zlarining ma’lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan bartaraf etishga, o‘z imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalana olishga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zlari haqida yanada teran, ijobjiy va o‘ziga xos ijtimoiy qiyomatga ega bo‘lgan tasavvurlarning shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. O‘smyrlilik davri esa xuddi shunday imkoniyatlar ko‘lamini yanada kengaytirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda yoshlar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari alovida qadriyat sifatida tobora yuksaklarga ko‘tarilmoqda.

O‘smyrlarning o‘zi o‘ziga munosabat haqidagi bilimlari, uning ijtimoiy tajribasi, xulq-atvor motivatsiyasi va o‘zini o‘zi tarbiyalashga, rivojlantirishga jiddiy yondashuvi asosida shakllanadi. Tabiiyki, bunday yondashuv zaif, sust bo‘lgan joyda psixologik munosabat tizimi ham yetarli darajada shakllanmaydi. Bu shakllanmaslik zamirida esa shaxs ijtimoiy taraqqiyotiga, uning faolligiga va o‘z imkoniyatlaridan unumli foydalana olishga bir muncha to‘sqinlik qiluvchi omillar yotadi. Qolaversa, shu boisdan psixologik munosabat mezonlarini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tanlash, tushunish va tadqiq qilish o‘smir shaxsidagi psixologik muhofaza imkoniyatlarini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi, o‘z-o‘ziga psixologik munosabat haqidagi tasavvurlarning shakllanishi o‘smir shaxsidagi psixologik imkoniyatlar ko‘lamiga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etadi. O‘z-o‘ziga psixologik munosabat ma’lum ziddiyatli holatlarga tushmaslik uchun o‘zini o‘zi bilish va idora qila olish jarayonidir. Ilmiy adabiyotlarda o‘z-o‘ziga psixologik munosabat mexanizmlarining, o‘zini o‘zi adekvat boshqaruv, ongli «menlik» kabi ko‘rinishlari haqida ko‘pgina nazariy-ilmiy mulohazalar mavjud.

Shaxsning o‘zini o‘zi hissiy baholash jarayoni o‘zini o‘zi turli xil ko‘ngilsizliklardan, muvaffaqiyatsizliklardan va ziddiyatlardan ma’lum darajada muhofaza qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa o‘smirlilik davrida bu jarayonga jiddiy qarash kerak bo‘ladi. Shuni hisobga olib o‘smirlarda o‘zini o‘zi hissiy baholash va psixologik muhofaza imkoniyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik bilan bog‘liq ijtimoiy psixologik omillarni empirik jihatdan o‘rganish va shartli ravishda qabul qilingan mezonlar asosida uning natijalarini tahlil qilish muhim.

Shuni ta’kidlash joizki, ba’zan har bir o‘smir, o‘z hissiy tabiatini va uning faoliyat samaradorligiga xizmat qiluvchi psixologik muhofaza imkoniyatlariga adekvat baho bera olishga ma’lum ma’noda “ojizlik” qilishi mumkin. Bizningcha, bunday “ojizlik” zamirida hissiy qoniqmaslik, hissiy bezovtalik, o‘z-o‘ziga nisbatan noadekvat hissiy tasavvurlar shakllanadi.

Material va metodlar. Tabiiyki, bu shakllanish shaxs ijtimoiy faolligiga, o‘quv faoliyati unumidorligiga asta-sekin salbiy ta’sir eta borishi mumkin. Buni o‘z vaqtida anglash uchun Riks-Uessman va Tomas testlarini hamda shunga mos bo‘lgan qo‘srimcha savolnomalarni qo’llab, tegishli empirik natijalarni qo‘lga kiritishni rejalashtirdik. Endi bevosita mazkur metodikalar yordamida olingan empirik ma’lumotlar tahliliga o‘tamiz. Statistika qanday amalga oshirilgan?

Natijalar va ularning muhokamasi

1 –jadval

O‘smirlarda o‘zini o‘zi hissiy baholash doirasidagi psixologik muhofaza mezonlari namoyon etilishining o‘rtacha umumiyligi ko‘rsatkichlari (Riks- Uessman).
5- sinf

| Ob’ekt | Mezon | | | | | | | |
|--------------|-------|------|------|------|------|------|------|------|
| | I | | II | | III | | IV | |
| | A | B | A | B | A | B | A | B |
| № 1 n=220 | 97 | 123 | 100 | 120 | 100 | 120 | 140 | 80 |
| % | 44.1 | 55.9 | 45.5 | 54.5 | 44.5 | 54.5 | 63.6 | 36.4 |
| № 2 n=310 | 150 | 160 | 200 | 110 | 189 | 121 | 200 | 110 |
| % | 48.4 | 51.6 | 64.5 | 35.5 | 60.1 | 39.9 | 64.5 | 35.5 |
| № 3 n=320 | 180 | 140 | 190 | 130 | 200 | 120 | 180 | 140 |
| % | 56.3 | 43.7 | 59.4 | 40.6 | 62.5 | 37.5 | 56.3 | 43.7 |
| № 4 n=400 | 250 | 150 | 300 | 100 | 260 | 140 | 150 | 250 |
| % | 62.5 | 37.5 | 75 | 25 | 65 | 35 | 37.5 | 62.5 |
| № 5 n=200 | 120 | 80 | 90 | 110 | 90 | 110 | 80 | 120 |
| % | 60 | 40 | 45 | 55 | 45 | 55 | 40 | 60 |
| № 6 n=300 | 140 | 160 | 100 | 200 | 160 | 140 | 150 | 150 |
| % | 46.7 | 53.3 | 33.3 | 66.7 | 53.3 | 46.7 | 50 | 50 |
| № 7 n=250 | 120 | 130 | 70 | 180 | 50 | 100 | 120 | 30 |
| % | 48 | 52 | 28 | 72 | 60 | 40 | 48 | 52 |
| n= 2000 | 1057 | 943 | 1050 | 950 | 1149 | 851 | 1020 | 980 |
| % | 52.8 | 47.2 | 52.5 | 47.5 | 57.4 | 42.6 | 51.0 | 49.0 |

Jadvalga izoh:

1. Xotirjamlik – asabiylik “a” – “b”

2. G‘ayrat – shijoatlilik – tortinchoqlik “a”- “b”
3. Hissiy ko‘tarinkilik -hissiy tushkunlik“a” - “b”
4. O‘z – o‘ziga ishonch – o‘z – o‘ziga ishonchsizlik “a” - “b”

Dastavval shuni ta’kidlash joizki, natijalar taniqli amerikalik psixologlar A.Ye.Uessman va D.F.Riks tomonidan ishlab chiqilgan maxsus to‘rt shkalali (I-xotirjamlik-asabiylik, II-ishchanlik-toliqqanlik, III-hissiy ko‘tarinkilik-hissiy tushkunlik, IV-o‘z-o‘ziga ishonchlilik-o‘z-o‘ziga ishonchsizlik) usullar majmuasini qo‘llash asosida va barcha empirik dalillarning haqqoniyligini tasdiqlovchi qo‘sishma statistik mezonlar yordamida aniqlandi. Buning uchun ma’lum ilmiy adabiyotlardagi nazariy va amaliy fikrlar asos qilib olindi.

2 –jadval

O‘smirlarda o‘zini o‘zi hissiy baxolash doirasidagi psixologik muhofaza mezonlari namoyon etilishining o‘rtacha umumiyligi ko‘rsatkichlari (Riks- Uessman)9- sinf

| Ob’ekt | Mezon | | | | | | | |
|--------------|-------|------|------|------|------|------|------|------|
| | I | | II | | III | | IV | |
| | A | B | A | B | A | B | A | B |
| № 1 n=210 | 85 | 125 | 101 | 109 | 80 | 140 | 109 | 111 |
| % | 40.5 | 59.5 | 48.1 | 51.9 | 38.1 | 61.9 | 51.9 | 48.1 |
| № 2 n=315 | 100 | 215 | 160 | 155 | 150 | 165 | 200 | 115 |
| % | 31.8 | 68.2 | 50.8 | 49.2 | 47.6 | 52.4 | 63.5 | 36.5 |
| № 3 n=300 | 110 | 190 | 150 | 150 | 140 | 160 | 160 | 140 |
| % | 36.7 | 63.3 | 50 | 50 | 46.7 | 53.3 | 53.3 | 46.7 |
| № 4 n=375 | 260 | 115 | 160 | 215 | 210 | 165 | 200 | 175 |
| % | 69.4 | 30.6 | 42.7 | 57.3 | 56.0 | 44.0 | 53.4 | 46.6 |
| № 5 n=250 | 100 | 150 | 120 | 130 | 100 | 150 | 115 | 135 |
| % | 40 | 60 | 48 | 52 | 40 | 60 | 46 | 54 |
| № 6 n=300 | 120 | 180 | 140 | 160 | 180 | 120 | 170 | 130 |
| % | 40 | 60 | 46.7 | 53.3 | 60 | 40 | 56.7 | 43.3 |
| № 7 n=250 | 80 | 170 | 100 | 150 | 110 | 140 | 150 | 100 |
| % | 32 | 68 | 40 | 60 | 44 | 56 | 60 | 40 |
| n=2000 | 855 | 1145 | 931 | 1069 | 970 | 1030 | 1124 | 876 |
| % | 42.7 | 57.3 | 46.5 | 53.5 | 48.5 | 51.5 | 56.2 | 43.8 |

Jadvalga izoh:

Jadvalga izoh:

1. Xotirjamlik – asabiylik “a” – “b”
2. G‘ayrat – shijoatlilik – tortinchoqlik “a”- “b”
3. Hissiy ko‘tarinkilik -hissiy tushkunlik“a” - “b”
4. O‘z – o‘ziga ishonch – o‘z – o‘ziga ishonchsizlik “a”- “b”

Umumiyligi qilib olganda xulosa shuki, har qanday shaxsning u yoki bu faoliyatga nisbatan faolligi yoki sustligi uning ijobiy yoki salbiy ichki hissiy holatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Bu ichki holat esa shaxs faoliyati umumdarligini ham belgilovchi muhim omillardan bo‘lishi mumkin. Jumladan, taniqli psixolog K. Izardning fikricha, inson faoliyatining yoki faolligining samaradorligi asosan “qiziqish”, “quvonch”,

“hayratlanish”, “iztirob chekish” kabi hissiy kechinmalarga bog‘liqdir.

Riks-Uessman shkalasi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarda psixologik munosabat ko‘rsatkichlarining namoyon etilishi, aksariyat hollarda asabiylik-xotirjamlik, toliqqanlik-ishchanlik, ishonchszilik-o‘z-o‘ziga ishonchlilik, ruhiy tushkunlik va ko‘tarinkilik sifatlarining o‘smir shaxsida qay tariqa tarkib topganligining belgilanish va baxolanishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Ayni paytda bu “bog‘liqlik” psixologik muhofaza imkoniyatlari va shaxsning o‘zini o‘zi adekvat individual hissiy baholash asosida kechishi mumkinligini tasdiqladi.

Xulosa qilib olganda o‘smirlarda o‘zi o‘ziga psixologik munosabat qilish jarayoniga ta’sir qiluvchi mezonlarning har biri o‘ziga xos muhofaza omili, belgisi, dinamikasi va ierarxik tizimiga ega ekanligi va bu umumiyligi psixologik muhofazaning bir-biriga bog‘liq ierarxik zanjirni mustahkamlashga hamda mukammallashtirishga xizmat qilishi bilan alohida xarakterlanadi. Har bir o‘smir o‘z o‘ziga ijobjiy yoki salbiy, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz munosabatining asosida oiladagi muhit, ta’lim dargohlaridagi jarayonlar va tengdoshlari bilan munosabatlat muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib, o‘smirlilik yoshida bolada kattalik hissini tarkib topishida o‘z-o‘zini anglashning ahamiyati va roli kuchaya boradi. Demak, mana shu davrda bola muhit o‘rtasidagi munosabatning yangi tipini belgilovchi taraqqiyotning ichki faktorlari borgan sari ko‘proq ahamiyat qozona boshlaydi. O‘smir o‘z-o‘zinitarbiyalash va o‘z-o‘zini o‘stirish orqali mustaqil o‘sish qobiliyatiga ega bo‘lib qoladi

Foydalanimagan adabiyotlar.

1. Adizova T.M. Boshqaruvali muloqoti psixologiyasi – T.:TDPU, 2000.– 196 b.
2. Asomova R.S. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: psixol. fan nom. dis. avtoref. - Toshkent, 2002. – 128 b..
3. Barotov Sh.R. Ta’limda psixologik xizmat asoslari.-Toshkent. Ma’naviyat, 1999.- 87 b.
4. Qodirov B.R. Iste’dodli bolalar va ularni tanlash metodikasi. - T., 1992.-326 b.
5. Qodirov K.B. Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis. (9-sinf o‘quvchilari ma’lumotlari asosida). Psixol. fan. nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent.- 2001.- 134 b.
6. Barotov Sh.R. Bolangizni ruxiy zo‘riqishdan asrang // Sihat- salomatlik. - Toshkent, 1997. - № 2. – B. 27 - 28.

TALABALARNI OLIY O‘QUV YURTIDAGI O‘QUV FAOLIYATIGA MOSLASHISH MUAMMOLARI

Tillayeva Nodira Iskandar qizi
Toshkent Amaly fanlar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni universitetda o'qishga moslashish muammolari yoritilgan bo'lib, moslashuv insonning atrof-muhit bilan aloqasini belgilaydigan eng keng tarqalgan hodisalaridan biridir. Talabalarni universitetda o'qish sharoitlariga moslashtirish muammosini hal qilish psixologiya va pedagogika uchun nazariy va amaliy qiziqish uyg'otadi. Ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari universitetda o'qish sharoitlariga samarali moslashishdan manfaatdor ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: moslashuv, moslashish, adaptatsiya, talaba, o'quv faoliyati, o'quv motivi

ПРОБЛЕМЫ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ К УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ

Тиллаева Нодира Исакандаровна
Ташкентский университет прикладных наук

Аннотация: в данной статье рассматриваются проблемы адаптации студентов к обучению в вузе, при этом адаптация является одним из наиболее распространенных явлений, определяющих взаимоотношения человека с окружающей средой. Решение проблемы адаптации студентов к условиям обучения в вузе представляет теоретический и практический интерес для психологии и педагогики. Показано, что все участники образовательного процесса заинтересованы в эффективной адаптации к условиям обучения в вузе.

Ключевые слова: адаптация, адаптация, адаптация, ученик, учебная деятельность, учебный мотив

PROBLEMS OF ADAPTATION OF STUDENTS TO EDUCATIONAL ACTIVITIES AT A HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION

Tillaeva daughter of Nodira Alexander
Tashkent University of Applied Sciences

Annotation: this article covers the problems of adapting students to study at the University, with adaptation being one of the most common phenomena that determines a person's connection with the environment. Solving the problem of adapting students to the conditions of study at the university is of theoretical and practical interest to psychology and pedagogy. It has been shown that all participants in the educational process are interested in effectively adapting to the conditions of study at the University.

Keywords: adaptation, adaptation, adaptation, student, educational activity, educational motive,

Kirish. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitishning samaradorligi va sifati har tomonlama va yaxlit holda baholanadi. Bugungi kunda bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda, shaxsnинг kasbiy fazilatlari, shaxsnинг o'ziga xos xususiyatlari, bilimlarni mustaqil ravishda va ijodiy ravishda egallash va qo'llash qobiliyati kasbiy va pedagogik tayyorgarlikning sifat mezonidir. Bu shuni ko'rsatadiki, pedagogik universitetdagи o'quv jarayoni nafaqat talabalarning bilim sohasini rivojlantirishga, balki ularning bilim faoliyati, mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini tarbiyalash usullarini mohirona egallashga, kasbiy pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lган shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Talabalarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish muammosining dolzarbligi universitetda o'qish davrida professionallik asoslari qo'yilganligi, o'zgaruvchan sharoitlarda uzlucksiz o'z-o'zini o'qitish zarurati va tayyorgarligi shakllanganligi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etayotgan o'quvchilarni o'qitishning boshlang'ich bosqichlaridan boshlab ta'lim va kasbiy faoliyat natijalari shaxsnинг haqiqiy mulkiga aylanishini bilish juda muhimdir. Talabalarni oliy ta'lim sharoitlariga moslashtirish muammosi hozirgi kunda oliy ta'lim pedagogikasi va didaktikasida o'rganilayotgan muhim vazifalardan biridir. Bundan tashqari, talabalarni universitetlarga moslashtirish jarayonining o'ziga xosligi o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qitish usullarining farqiga og'liq. Masalan, birinchi kurs talabalari universitetda dasturni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lган qobiliyat va qobiliyatlarga ega

emaslar. Buni tirishqoqlik bilan qoplashga urinishlar har doim ham muvaffaqiyatga olib kelmaydi. Talaba yangi o'quv talablariga moslashishi uchun ko'p vaqt talab etiladi. Bu ko'pincha mакtabda va universitetda bir odamga dars berishda, ayniqsa, uning natijalarida sezilarli farqlarga olib keladi. Bundan tashqari, o'rta va oliv ma'lumot o'rtasidagi zaif uzlusizlik, universitetda o'quv jarayonini metodikasi va tashkil etishning o'ziga xosligi, ma'lumotlarning katta miqdori, mustaqil ish qobiliyatining etishmasligi katta hissiy stressni keltirib chiqaradi, bu ko'pincha kelajakdagi kasbni tanlashda umidsizlikka olib keladi [2]. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mualliflar Lysenko RB, Rzhavskiy EA, Nikiforova MP Universitetning turli texnik mutaxassisliklari talabalari o'rtasida tadqiqotlar o'tkazildi. Quyida fizika va ekologiya bo'yicha ikkinchi mutaxassisliklar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari keltirilgan. 2-kurs talabalari tanlab olindi, chunki mакtabdan universitetga o'tish davrida moslashuv jarayoni ularda bo'lган va shu bilan birga u bilan bog'liq bo'lган qiyinchiliklar ham unutilmagan. Olingan natijalar tahlili shundan kelib chiqadiki, talabalar gumanitar fanlarning universitetda moslashish uchun ahamiyatini bir xil baholadilar (bu guruh ikkala mutaxassislik bo'yicha o'rtacha hisoblangan). Shu bilan birga, iqtisodiy fanlar va psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar guruhiylarini baholashda bir oz og'ishlar mavjud. Shu bilan birga, «Fizika» mutaxassisligi talabalarining fikriga ko'ra, 4-guruh psixologiyasi, sotsiologiyasi talabalarga universitetda tez moslashishga yordam beradi, iqtisodiy fanlar ular tomonidan eng kam ta'sirchan omil sifatida baholandi. Ekologiya» mutaxassisligi talabalarini psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar guruhiyining muhimligini ta'kidladilar, ammo bu omil ular tomonidan eng muhim deb tan olinmadidi, iqtisodiy fanlar ham ular tomonidan ahamiyatsiz omillardan biri sifatida baholandi. Eng katta farq umumiyligi fanlar va maxsus fanlar guruhiylarini baholashda kuzatildi. Diagrammalardan ko'rinish turibdiki, talabalar fiziklari tomonidan umumiyligi fanlar eng muhim omillardan biri sifatida tan olingan (ushbu fanlar guruhi ikkinchi o'rinda edi), atrof-muhit talabalar esa bu talabaning universitetga erta moslashishi uchun eng kam ahamiyatga ega bo'lган omil deb hisoblashadi. Maxsus fanlarga kelsak, ekologlar ularni tezroq moslashish uchun eng muhim guruh deb bilishadi, fiziklar esa bu fanlarni, aksincha, eng muhim omillardan biri deb bilishadi. Ushbu tadqiqot nafaqat universitet o'qituvchilari, balki mакtab o'qituvchilari uchun ham qiziqarli bo'lishi mumkin va ta'lim sifatini boshqarish jarayonida amaliy foydalanish maqsadida davom ettirilishi mumkin. Talabalarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish muammosi hali maxsus o'rganish mavzusiga aylanmagan, garchi amaliyat shuni ko'rsatadiki, talabalarining katta qismi universitetni tugatgandan so'ng sezilarli tanaffusdan keyin (2 yildan ortiq - OZO talabalarining 50,4%). o'quv va kasbiy faoliyatning yangi usullarini tashkil etish va o'zlashtirishda qiyinchiliklar. Bu o'quv va kasbiy faoliyat natijalaridan qoniqmaslik, kasb tanlashning to'g'rilinga shubha tug'diradi. Shu munosabat bilan talabalarni o'qitish jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qilish zarurati mavjud: Ijtimoiy-pedagogik tabiat: bir tomonidan, ta'lim va kasbiy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lган yuqori malakali mutaxassislar Rossiya jamiyatining ortib borayotgan ehtiyojlari o'rtasida, ikkinchi tomonidan, uni tashkil etishda ta'lim muassasalarining potentsial imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmagan; Ilmiy va pedagogik tabiat: bir tomonidan, o'quv va kasbiy faoliyat muammolariga bag'ishlangan juda ko'p tadqiqotlar mavjudligi o'rtasida, ikkinchi tomonidan, o'quvchilarning o'quv va kasbiy faoliyatga moslashishi muammosining nazariy jihatdan etarli darajada ishlab chiqilmaganligi; Ilmiy va uslubiy tabiat: bir tomonidan, bo'lg'usi mutaxassislarini tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablar o'rtasida, ikkinchi tomonidan, talabalarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish jarayonini etarli darajada asosli va uslubiy qo'llab-quvvatlamasligi. Ijtimoiy-pedagogik va psixologik talablar va o'quvchilarning o'quv va kasbiy faoliyatga moslashuv xususiyatlarini o'rganish va izlash natijasida quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin edi:

O'quvchilarning o'quv va kasbiy faoliyatga moslashuvi tarkibi uchta bog'liq omillarni o'z ichiga oladi: moslashuvchan ehtiyoj, moslashuvchan vaziyat va moslashuvchanlik. Talabalarining o'quv va kasbiy faoliyatga moslashish dinamikasi mos keladi, chunki rivojlanish intuitiv darajadan ijodiy darajaga ko'tariladi; O'quvchilarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish ob'ektning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini ta'minlaydi; Shaxsiyatning yangi xususiyatlarini shakllantirish; kasbiy identifikatsiya va hk.; Yangi ijtimoiy maqomni shakllantirish, yangi ijtimoiy rollarni ishlab chiqish, yangi qadriyatlarni egallash, kasbiy faoliyat an'analarining ahamiyatini tushunishni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish - bu kelajakda faoliyat ko'rsatadigan mutaxassisning ijtimoiy, kasbiy, psixofiziologik o'shining boshlang'ich bosqichi bo'lib, u erda o'zini o'zi amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Universitet talabalarini o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish jarayoni, shu tariqa,

qarama-qarshi tomonlarning dialektik birligi vazifasini bajaradi: shaxsni atrof-muhitga moslashishi va ushbu muhitni faol ravishda o'zgartirish. Bundan tashqari, har ikkala tomon ham bir-birisiz mavjud emas va inson o'zining moslashishi mumkin bo'lgan muhit tomonidan rivojlanishning yagona jarayonining ifodasi sifatida yig'ilgan holda xizmat qiladi. Shuning uchun moslashuv jarayoni shaxsnинг o'ziga xos ijtimoiy-psixologik holati sifatida shaxsning faoliyatida ro'y beradi [3, 9-bet]. Boshqa tomonдан, ajralib turadigan xususiyatlar kasb-hunar ta'limi muammolarini aktuallashtiradi, turli vaziyatlardagi ishlarga misollar keltiradi, vaziyatga oid o'zarotajribani umumlashtirishga imkon beradi va shaxslararo munosabatlar tizimiga bilvosita ta'sir qiladi

Xulosa qilib aytganda, talabalarni oliv ta'limga o'qish sharoitlariga moslashtirish muammosi hozirgi kunda oliv ta'limga pedagogikasi va didaktikasida o'rganilayotgan muhim vazifalardan biridir [1]. Kasbiy ta'limga zamonaliv tizimi nafaqat ixtisoslashgan bilimlarni uzatishga, balki kelajakdagagi mutaxassisni ma'lum bir madaniyatning vakili va tashuvchisi sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi, bu bilim, ko'nikma, shuningdek, ma'lum bir dunyoqarash, nuqtai nazar va qadriyatlar va kasbiy xulq atvorning kombinatsiyasi bilan ajralib turadi. Moslashish muammosining ilmiy va amaliy dolzarbligi zamonaliv jamiyat insonning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash va yaxshilash, ularning intellektual salohiyatini oshirishdan manfaatdor ekanligidir. Shu sababli, turli darajadagi turli xil sanoat va ijtimoiy sharoitlarda insonning moslashish mexanizmlari va shakllarini o'rganish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Andreeva D.A. O ponyatii adaptatsiya. Issledovanie adaptatsii studentov k usloviyam ucheby v vuze // Chelovek i obychestvo: Uch. zapiski XIII. - L.: LGU, 1993, s. 62-69
2. Fyodorova Ye.Ye. Adaptatsiya studentov VUZov k uchebno-professionalnoy deyatelnosti. – Magnitogorsk, 2007 - 13.00.0
3. Bojovich L. I. Shaxsni shakllantirish muammosi /L. I. Bojovich; ed. D. Feldshteyn. - M.: Mezdunar. ped. akademija, 1995.- 212 b. - (Tanlangan psixologik ishlar).
4. G'oziyev E.G'. Umumiyl psixologiya. 1-2-kitob. T.: 2002 y.
5. G'oziyev E. G'. O'quvchilarining o'quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 104 b.
6. Андреева Г.М. Социальная психология. М. 2004. 290 с
7. Рean A.A. К проблеме социальной адаптации личности // Вестник СПб. ун-та. – Сер. 6.
8. А.А. Налчаджян. Психологическая адаптация: механизмы и стратегии - 2- е издание. Москва : ООО «Эксмо», 2009.

SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINING TARIXI VA BUGUNGI JARAYON

Tojieva Nilufar Tohirjon qizi.

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Elov Ziyodullo Sattorovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti, Psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunga qadar chuqur izlanishga va qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga, shuningdek juda ko'plab munozara va baxslarga sabab bo'layotgan, aniqlik va diqqat, juda katta bilim talab etilayotgan, sudga oid psixologik ekspertiza soxasining asl xususiyati va ushbu jarayonning qanday tarixga ega ekanligini tahlil qilingan bo'lib, ushbu soxadagi ulkan o'zgarishlar qilish, aniqliklarni zamonaviy texnologiyalar bilan yanada mukammlashtirish, bugungu zamonning muhim talabi ekanligi keng yoritib berilgan.

Kalit so'zları: Sud ekspertizasi, psixolog, ekspert, barmoq izi, ekspertiza turlari, sudlov jarayoni, sudyia, affekt, depressiya.

ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ПРОЦЕСС СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Аннотация: В данной статье раскрывается своеобразие области судебно-психологической экспертизы, которая стала предметом глубоких исследований и ряда научных исследований, а также большого обсуждения, что требует точности и внимания, большого количества знаний и того, как этот процесс осуществляется. Проанализировано, что он имеет историю, и широко объяснено, что внесение огромных изменений в этой области, повышение точности с помощью современных технологий является важным требованием сегодняшнего времени.

Ключевые слова: Судебная экспертиза, психолог, эксперт, отпечаток пальца, виды экспертиз, судебный процесс, судья, аффект, депрессия.

HISTORY AND CURRENT PROCESS OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXAMINATION

Abstract: In this article, the original nature of the field of forensic psychological expertise, which has been the subject of deep research and a number of scientific studies, as well as a lot of discussion, which requires precision and attention, a great deal of knowledge, and how this process is carried out. It has been analyzed that it has a history, and it is widely explained that making huge changes in this field, improving accuracy with modern technologies, is an important requirement of today's time.

Key words: Forensic expertise, psychologist, expert, fingerprint, types of expertise, judicial process, judge, affect, depression.

Kirish. XXI asrda inson va uning baxtli hayot kechirishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “....., biz har bir fuqaro o'zining kuch va imkoniyati, qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun keng sharoit va imkoniyat yaratib berishimiz kerak ”. Bu esa jamiyat a'zolaridagi ijtimoiy psixologik muammolarni o'z vaqtida yuqori darajada yechimini topishni talab qiladi.

Biz bilamizki har narsani ibtidosi va intihosi bor, ammo ilm-fan ma'rifatda aslo yakun bo'lmaydi. Qancha bilib o'rganganiz qadar shuncha ko'p yangiliklar yaratishimizni va albatta jamiyatga foydamiz tegishini anglab yetamiz. Ushbu bilimlar orqali kelajak avlodlarga, juda katta ma'naviy ozuqa yetkazib beramiz. Hozirgi kunda o'rganilayotgan ba'zi bir soxalar uzoq bir davrlarni bosib o'tganini ko'rishimiz mumkin. Ammo, qaysidir davrlarda ma'lum sohalardagi tanazzul tufayli, rivojlanish va o'sishda susayish keying davrlarda o'zining kamchiliklari bilan taraqqiyotga ta'sir etayotganini ko'rishimiz mumkin. Bugun bu kabi sohalarda orasida o'zgarishga va rivojlanishga yanada muhtoj bo'lgan sudga oid psixologik ekspertiza jarayoni haqidagi ilmiy ma'lumotlarni tadqiq qildik.

Asosiy tahlillar: Bugungi kunda, yuridik sohaning kun sayin rivojlanib borayotganligi natijasida, uning qator tarmoqlari shu jumladan yuridik psixologoya ham rivojlanmoqda. Natijada sohaning muammolari

yuzasidan turli amaliy tadbirlarda sifat bosqichiga erishish uchun mavjud tajribalarga tayanib, mahalliy mutaxassislar tomonidan bir qator masalalar qayta ko'rib chiqilishi lozim :

1. Bugun Jahon psixologiyasida qo'llanilib kelayotgan "Standartlar"ga tayanib, yuridik psixologiyada psixologik metodikalardan foydalanish borasida mahalliy muhit uchun aniq ko'rsatmalar ishlab chiqish;

2. Mahalliy sharoit uchun qo'llanishi lozim bo'lgan yuridik psixologiya sohasidagi qo'llanmalarni nashr ettirib borishni yo'lga qo'yish;

3. Yuridik psixologiya imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanmalar ishlab chiqish;

4. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida Yuridik psixologiyaning boshqa tarmoqlari bo'yicha ularning standartlari masalasi uchun alohida mashg'ulot mavzularini ajratish lozim.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, fanlar tizimida psixologiya fani muhim ahamiyatga ega. Akademik B.M. Kedrovning fikricha – psixologiya o'zlashtirilayotgan gumanitar, aniq va maxsus fanlarning markazini tashkil etadi.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatida psixologik bilimlar quyidagi jarayonlarda qo'llaniladi:

shaxsni to'g'ri diagnostika qilish;

insonga nisbatan individual yondashish;

taktik usul va qarorlarni tanlash va ishlatish;

Yuridik sohada shaxsni mana shu kabi jarayonlar bilan tadqiq qilish va o'rghanish sudga oid psixologik ekspertizada amalga oshiriladi.

Asli sudga oid psixologik ekspertiza biz uchun nimaga kerak degan savol paydo bo'ladi. Javob shundaki, aniq tashxis, tahlil, bir insonni hayot mamoti uchun ham vijdowan kurash olib borish uchun, bir insonni hayotini asrab qolish uchun ham bizga sudga oid psixologik ekspertiza kerak.

Sud psixologik ekspertizasi bu – sudda huquqiy masala uchun ishlatiladigan baxs yoki munozara. Shu sababli sudga oid psixologik ekspertizasi bu – sud sharoitida ilmiy psixologik nazariyalar haqidagi suhbat yoki munozara olib borish jarayoni hisoblanadi.

Sudga oid psixologik ekspertiza nomi ya'ni argumentativ mashq degan ma'noni anglatuvchi sud tibbiyoti sifatdoshidan kelib chiqqan bo'lib, uning ingliz tilidagi eng qadimgi ma'nosini sudlarga tegishli, qo'llanilgan yoki sudlarga yoki ommaga muhokama va muzokaralarga mos keladi. Ingliz tilidagi ushbu so'z, lotincha sud tibbiy so'zidan olingan bo'lib bozor yoki shakli, ommaviy degan manoni anglatadi, bu esa o'z navbatida lotincha forum so'zidan kelib chiqqan bo'lib bozor joyi, degan ma'noni anglatadi.

Sudga oid psixologik ekspertiza tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu yo'nalishdagi dastlabli ishlar milodiy I-asrning boshlarida Rimlik notiq va huquqshunosh Kvintilian tomonidan, aybsiz kishini oqlash uchun asosiy sud ekspertizasidan foydalanganligi ma'lum. Rim modeli zamonaviy sud va huquq tizimining asosini tashkil qiladi. Shunday qilib, qadimgi Rimda dalillarni tekshirishda ilmiy tamoyillar qo'llash ajablanarli emas. Ammo, G'arbda Rim imperiyasining qulashi bilan sud ekspertizasini qo'llanilaishini keying ming yillikdagi jarayoni to'xtab qolgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Milodning V-asrlarga borib, German va slyavyanlar jamiyatida birinchi bo'lib o'lim sabablarini aniqlashda tibbiy mutaxassislarni jalb qilish to'g'risida qonun chiqarilgan edi. Bu qonunga asosan tibbiyot hodimlarini alohida sud ishlariga jalb qilishini talab etilgan.

Tarixiy ekspertlarni izlanishlari natijasida VI-asrlarda Xitoy mutaxassislari ham ushbu sohada yaxsigina bilimlarga ega ekanligini aytib o'tish lozim. Ushbu faktlar bo'yicha o'sha davrdagi muhim qimmatga ega bo'lgan asar Ming Yuen Shin Lu nomli mualifning kitobida eslab o'tilganligini manbalar ko'rsatib o'tadi.

VII-asrda barmoq izlaridan indentifikasiya qilish vositasi sifatida foydalanish tushunchasi birinchi marta qo'llanildi. Tarixiy malumotlarga ko'ra savdogarlar o'zlaridan qarzdor bo'lgan mijozlarini kimligini uning barmoq izlarini hisob qog'oziga olish orqali tekshirishga musharraf bo'lgan. Keyinchalik esa bu metodikani sudyalar inkor etib bolmaydigan dalil sifatida qabul qilishgan.

Mana biz hozirgi zamonda qo'llab kelayotgan barmoq izlari aslida qanchalik tarixiy jarayonlarni bosib o'tganligini guvohi bo'lyapmiz aslida oddiygina savdogarlarni mijozlar bilan o'rasidagi o'rnatilgan bu kabi muloqot, bugungi davrda ham foydalanib kelinayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Eramizdan avvalgi 1000-yilga kelib, o'sha davrlarda Xitoy, Bobil, Fors va yangi Shotlandiya kabu joylarda rasmiy hujjatlarni imzolashda ham barmoq izlarini ishlata boshlashgan.

Bu birgina barmoq izi ekspertizasini qisqacha tarixiy jarayoni hisoblanadi. Biz izlanish olib borayotgan ushbu soxada juda ko'plab ming yillik tarixga ega bo'lgan metodikalar borligini ko'rishimiz mumkin. Balki ba'zi bir metodikalarini hozirgina zamonaviy texnologiya asrida ham tatbiq etib uni zamon

bilan hamfikr bo‘lgan holda o‘rganib chiqishimiz yoki yanada chuqurroq o‘rgangan holda bu sohada yanada ulkan yutuqlarga erishishimiz mumkin.

Bu tarixiy ma’lumotlardan tashqari, bugun zamonaviy ekspertiza jarayonida barmoq izlari bo‘yicha yirik olim, sohaning otasi sifatida, AQShning Takoma shtatidagi indefikasiya byurosi (HM Smit barmoq izi) rahbari Frencis Galton hisoblanadi. Ko‘pgina malumotlarda bu insonni barmoq izlari bo‘yicha bugun dunyodagi eng asosiy shaxs sifatida qaraladi.

Xulosa va tahlillar: Yillar davomida o‘rganilib asta-sekin taraqqiy eta boshlangan bu soxa hali ham rivojlanib bormoqda. Shu o‘rinda o‘quvchida Sudga oid psixologik ekspertiza bo‘yicha tadqiqotchi kim degan savol paydo bo‘lishi tabiiy jarayondir.

Arximed ehtimol birinchi sudga oid psixologik ekspertizani asoschisi bo‘lgandir. Bir tarixiy ma’lumotda aytilishicha, qirol mahaliy zargardan maxsus oltin toj buyurtma qiladi, ammo, bu sof oltin emas deb gumon qilgan. U Arximeddan aldanganmi yoki yo‘qligini aniqlashini so‘raydi, lekin u tayyorlangan tojda biror bir sinov o‘tkazmasdan, unga zarar etkazmasdan tekshirilishini xoxlaydi.

Yuqorida aytib o‘tilgan afsonaga qo‘srimcha ravishda sudga oid psixologik ekspertiza Xitoyda vujudga kelgan degan taxmin ham borligini unitmaslik lozim.

Yani bir dehqon o‘z dalasida o‘roq bilan o‘ldirilgan. Tergovchilar tomonidan barcha dehqonlarning o‘roqlarini yig‘ib olishadi. Bir necha soniyalardan keyin bir o‘roq chivinlarni o‘ziga tortayotganligini ko‘rishi va aynan shu o‘roq qotillikda ishlatilganligini va uning sohibi qotil ekanligini aniqlashadi.

Davrlar o‘tgani sayin, bu soxada ham asta-sekin rivojlanishlar bo‘ldi, 1247-yillarda Xitoyda sudga oid psixologik ekspertiza bo‘yicha birinchi darslik nashr etilgan bo‘lib, u shubhali o‘limini tekshirishda amal qilish kerak bo‘lgan tartiblarini hujjatlashtiriladi.

Yana bir ma’lumotga qaraganda miloddan avvalgi 44-yilda Yuliy Sezar o‘ldirilganidan keyin davolovchi doktor jasaddan topilgan 23 ta jaroxatdan faqat bittasi hallokatli ekanligini aytib o‘tganligini ham ko‘rishimiz.

Yuqoridagilarga asoslanib va boshqa qator juda ko‘plab manbalar o‘rganilib chiqqan holda, sudga oid psixologik ekspertiza naqadar uzoq yillik tarixiga ega ekanligini ham korishimiz mumkin.

Sud – psixologik ekspertizasi predmeti shundan iboratki, bu yerda ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va jabrlanuvchi ko‘rsatmalarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash emas. Bu tergov va sudning vakolatlariga kiradi.

Sud – psixologik ekspertizasining asosiy vazifasi psixik jarayonlarning kechishi natijasida, so‘roq qilinuvchi shaxsning individual xususiyatlari ko‘ra, isbot uchun tegishli bo‘lgan faktlarni u tomonidan adekvat qabul qilinishi, eslab qolishi va so‘zlab berish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar royhati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016. 23-bet.
2. Elov Z.S. Juridik psixologiya. Darslik. Buxoro-2023 Kamolot nashriyoti 486b
3. Elov Z.S. SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZASI TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI (ilmiy manbalar tahlili asosida). Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 3-8. 2024
4. Tojiyeva N.T., Elov Z.S., Voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o‘tkazilishining psixologik xususiyatlari. 2024 ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 9-14
5. Elov Z.S. Sud-psixologik ekspertizalar o‘tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari. 2024 TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN 2 (2), 58-69

YOSH OILALARDA YETAKCHILIKNI AYOL TOMONIDAN BOSHQARISHDA MUAMMOLI VAZIYATLARNING KELIB CHIQISHI

Umarova Iroda Bakirovna
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Barcha xalqlar uchun yosh oila muammolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish hozirgi psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolada ayol kishining oilada boshqaruvchanlik va yetakchilikni qo'lga olganda kelib chiqadigan muammolarning muhokamasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila kodeksi, ayol, oila, farzand tarbiyasi, oilada yetakchilik, erving vazifalari, qo'shxotinlik

ORIGIN OF PROBLEM SITUATIONS IN WOMEN'S MANAGEMENT OF LEADERSHIP IN YOUNG FAMILIES

*Umarova Iroda Bakirovna
Doctoral student of Gulistan State University*

Abstract. Research of socio-psychological features of young family problems for all peoples remains one of the current issues of psychology. This article discusses the problems that arise when a woman takes control and leadership in the family.

Key words: family code, woman, family, child upbringing, family leadership, husband's duties, bigamy

ВОЗНИКОВЕНИЕ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ В ЖЕНСКОМ УПРАВЛЕНИИ ЛИДЕРСТВОМ В МОЛОДЫХ СЕМЬЯХ

*Умарова Ирода Бакировна
Докторант Гулистанского государственного университета*

Абстракт. Исследование социально-психологических особенностей проблем молодой семьи у всех народов остается одним из актуальных вопросов психологии. В данной статье рассматриваются проблемы, которые возникают, когда женщина берет на себя контроль и лидерство в семье.

Ключевые слова: семейный кодекс, женщина, семья, воспитание детей, руководство семьей, обязанности мужа, двоеженство.

Kirish. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4.2. "Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish" bandida belgilab berilgan ustuvor vazifalar, xususan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, gender tengligini ta'minlash, davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, og'ir ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga moddiy, psixologik, tibbiy yordam ko'rsatish, ularni uy-joy va ish bilan ta'minlash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oilada ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash1 borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida xotin-qizlarni ijtimoiy-himoya qilish masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. Yangi O'zbekistonni yaratish yo'lida keng ko'lamli innovatsion faoliyat va bunyodkorlik, yaratuvchanlik harakatining asoschisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Biz bu yil xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'taramiz"[1].

Adabiyotlar tahlili

Zero, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rnlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat organlari, fuqarolik jamiyati vakillari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik Kengashi o'z ishini boshladi. Kengash tarkibiga hayotiy tajribaga ega yurtdoshlarimiz, deputat va senator ayollar, olim va professorlar hamda jamoatchilik vakillari kiritildi. Kengash xotin-qizlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni kerakli bilim va ko'nikmalarga o'qtish, shuningdek, o'z biznesini boshlashlari uchun zarur mablag' bilan ta'minlash orqali aholi, ayniqsa ayollar va qizlarning turmush darajasi yaxshilanishiga erishish maqsadida tashkil qilindi [2].

Mamlakatimizda olib borilayotgan ana shunday ulkan islohotlarning pirovard maqsadlaridan biri

oila, uning tinchligi, farovonligi va baxtli bo‘lishi bilan bog‘liq.

Agar, jamiyat ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi bo‘lsa, undagi har bir oila tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik natijasida vujudga keladi. Oilaviy munosabatlar esa jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ma’naviy munosabatlari bilan belgilanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar oilaning mustahkamligi va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xuddi shuningdek, jamiyatdagi tinchlik va xotirjamlik, undagi ma’naviy muhit barqarorligi ko‘p jihatdan har bir oiladagi munosabatlarda o‘zaro muhabbat va hurmat, hamjihatlikka bevosita bog‘liqdir.

Oilaviy munosabatlar bus eng muhim ijtimoiy jarayonlardan bo‘lib uning tartibga solinishi mamlakatimiz qonunchiligidagi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston respublikasining oila kodeksining ikkinchi va uchinchi moddalarida oiladagi er va xotining munosabatlariga oid ko‘rsatmalar aniq belgilab berilgan.

Unda belgilangankangi:

2-modda. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

3-modda. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligi

Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog‘ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeysi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi [3].

Natijalar

Ushbu tartiblarning kodeks darajasigacha belgilanishi oila munosabatlarining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganidan dalolat beradi.

Agar oilada shaxslararo munosabatlar madaniyati shakllangan bo‘lsa, oila a’zolarining jamiyatda o‘z o‘rnini, qadrini topishga o‘z istak va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Agar unda oilaviy munosabatlar yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa yoki shakllanmasa unda turli muammolar va nizolar shakllanadi. Oilada totuvlik yo‘qoladi va unda noxush psixologik muhit hosil bo‘ladi. Oila a’zolari jamiyatda ham o‘z o‘rinlarini topa olmaydilar. Eng muhimi, bunday holat farzandlar kamolotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muqaddas dinimizda ham, oila mustahkamligiga katta e’tibor qaratilgan. Chunki oila jamiyat asosi va hayot davomchisi bo‘lgan farzandlar kamol topadigan tarbiya maskanidir. Shu ma’noda qachon oilalar salohiyatlri bo‘lsa, bunday oilalardan tashkil topgan jamiyat ham salohiyatlri bo‘ladi. Shuning uchun ham oilaga iymon, muhabbat, ta’lim-tarbiya va baxtli hayot sari yo‘llovchi maskan sifatida qarash muhimdir.

Bugungi kunda barkamol insonni shakllanishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi o‘ziga xos xususiyat va imkoniyat, qonuniyatlarga egadir. Yoshlarning shakllanishi oiladan boshlanadi, bunday oila esa, ta’lim-tarbiyaning boshlang‘ich mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya, shaxslar aro munosabatlar, milliy an’ana va qadriyatlar, urf-odatlar hamda ijtimoiy muammolarning kelib chiqishi hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari oilada o‘rganiladi. Shuning uchun ham oila va nikoh munosabatlarini o‘rganishda oilaviy munosabatlarga alohida e’tibor berish o‘ta muhimdir [6].

Bizning mintalitetimizga muvofiq oilada erkak kishi rahnamo va boshqaruvchidir. Bunday oila shakli dunyo qonuniyatlarida ijobjiy isbotini topgan tartibdir. Erkakman degan, belida belbog‘i bor yigit albatta oilani boshlig‘i bo‘lmog‘i darkor.

Ammo zamonning zayli bilan gender tengligi deya bong urilayotgan talqin niqobi ostida ayrim qo‘shtirnoqdagi ayollar oilaning boshqaruvini qo‘lga olganlar.

Bizning fikrimizcha oilada ayolning boshli va boshqaruvchi bo‘lishdek noto‘g‘ri tushunchaga bir nechta omillar sababchi bo‘ladi:

erkak kishining oila boshqaruviga tayyor emasligi va uning oiladagi funksiyalarini ijro etolmasligi yoki etmasligi;

erkak kishining oila oldidagi vazifalarini mas’uliyatsizlarcha bajarmasligi. Bunda ayol kishi

majburlikdan, o‘zi xohlamagan holatda oila boshlig‘i va boquvchisiga aylanadi;

yana bir katta muammo ikki-xotinlikdir. Garchi bu holat diniy va dunyoviy nuqtai nazarda salbiy deb baholanmasa-da, oilada doimiy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu tabiiy tanlanish qonuniyati asosida erkakning oiladagi nufuzini tushiradi hamda boshqaruvni qo‘ldan yo‘qotadi. Tinchlikni evaziga boshqaruvni topshiradi.

Muhokama

Yuqorida keltirilgan sabablar erkak kishining oiladagi vazifasi va o‘rnini adekvat darajada belgilamaganidan kelib chiqqanligini keltirdik. Bu degani oilada ayol kishi oila boshqaruvida egalik qilishiga faqatgina erkak kishi aybdor yoki sababchi degani emas, ammo erkak kishi o‘zining yaralganlik xossalardan kelib chiqib o‘z o‘rnini belgilay olmagani uning aybi degan mulohazada yuqoridagi fikrlarni avvalroq bayon qildik.

Tanganing ikkinchi tomoni borligidek masala bir tomonlama ayblov bilan yechim topmaydi va bir tomonni isloh qilgan bilan hammasi isloh bo‘lmaydi. Jamiyatda eriga itoat qilmaydigan, qonuniy va shar’iy talablarini bajarmaydigan ayollar talaygina va ko‘payib bormoqda.

Biz mavzuga yondashuvda muammoni kelib chiqish sabablarini qisqacha o‘rgandik va endilikda boshqaruvdagi faollilikni ayol qo‘liga olganda kelib chiqadigan muammolarga to‘xtalamiz.

Kishilik jamiyatining har qanday tuzumida, quldarlikda to demokratik jamiyatgacha rahbarlar mavjud bo‘lgan va boshqaruv bir kishining zimmasida bo‘lgan. Hattoki jonzotlar orasida ham to‘da sardori poda boshlig‘i borligi ilmda isbotlangan. Boshliq xoh ayol bo‘lsin xoh erkak bo‘lsin u doim bitta bo‘lib kelgan.

Bizning millatimiz va dinimiz, tarbiyamizdan kelib chiqqan holda aytadigan bo‘lsak oilada erkak kishi rahnamo, boshqaruvchi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lmog‘i darkor. Shunday bo‘lмаган taqdirda esa oila a’zolarining tarqoqligi, fikrlarning har tomonidan shakllanishi, qarma-qarshi tomonlarning paydo bo‘lishi rivojlanadi. Bu esa o‘sha oilaning parokanda bo‘lishi va uning muhitida katta bo‘lgan farzandlarning xarakterida turg‘unsizlikning shakllanishiga olib keladi.

Nima qilish kerak?

Sir emaski, uyda ayol erkakka g‘oya va maslahat beradi, qo‘llab-quvvatlaydi, ilhomlantiradi, maqsad sari yo‘naltiradi, rag‘batlantiradi va hokazo. Erkak esa bulardan kuch-quvvat olib, ta’bir joiz bo‘lsa, tog‘ni talqon qiladi, qahramonliklar ko‘rsatadi. Yoki, bir donishmand so‘zi bilan aystsak, “Erning jamiyatga ko‘rsatgan ta’siri – xotinning erga o‘tkazgan ta’sirining aksidir”.

Xulosa

Fikrimizni umumlashtirib shuni ayta olamizki ayol ovozining nafisligi bilan eridan ustun turmog‘i lozim [4]. Ayol ovozining mayin bo‘lmoqligi esa uning botiniga ko‘p jihatdan bog‘liq. Botinida bo‘ronlar guvullab turgan ayolning ovoziyam shiddatli, tashvishli bo‘ladi. Ayolning birinchi vazifasi oilani boshqarish emas, kelajak uchun sog‘lom nasllar berish, issiq mehri, tengsiz jozibasiga qorilgan go‘zal tarbiyasi bilan millatni oyoqqa turg‘azishdan iborat. Buning uchun ayolning o‘zi sog‘lom bo‘lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.-Toshkent, “Adolat”,2018. B.22-23

2. Borisenkov V.P. Gukalenko O.V. Institut semi i semeynaya politika v sovremennoy Rossii: problemy, tendensii i perspektivyi. Internet jurnal «Naukovedenie» vyipusk 5 (24) sentabr-oktabr 2014//<http://naukovedenie.ru>

3. O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2019 yil 2 sentabr.

4. Fazilatli avlod. Uzluksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. 3-qism. [Matn]: 7-18 yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha qo‘llanma. /Tuzuvchi mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov, O.Musurmanova va boshqalar.-Toshkent: Muhammarr nashriyoti. 20019.-256 b. (2020 yil,yanvar)

5. Violence against women. Key facts. World Health Organization, <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/violenceagainst-women>

6. Alimardonova R.K. Yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik

munosabatlarni ta’minalashning ijtimoiy-etnik asoslari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O’SMIRLIK DAVRIDA O’ZINI-O’ZI ANGLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Usmanova Sevara Akmalovna,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti, Psixologiya kafedrasи o’qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlilik davrida o'zini-o'zi anglashning psixologik xususiyatlari va ularning Sharq mutafakkirlari asarlarida yoritilganligi, o'zini-o'zi anglash shaxsning o'z jismoniy hamda ruhiy xolatini o'zi ongli ravishda nazorat qilib turishidan iborat ijobiy sifatligi tahlil qilingan. Shuningdek tadqiqot ishida o'zini-o'zi anglash va irodaviy sifatlarning o'zaro munosabat xususiyatlari, o'smirlilik davrida o'zini-o'zi anglash va temperament xususiyatlari o'rtasidagi aloqadorlikning psixologik mexanizmlari hamda temperament xususiyatlari shaxsda o'zini-o'zi anglashning sharti sifatida ekanligi emperik natijalar asosida dalillangan.

Kalit so'zlar: o'smirlilik davri, o'z-o'zini anglash, psixologik xususiyatlari, temperament, ong, iroda, tafakkur.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ САМООЦЕНКИ В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ

Усманова Севара Акмаловна,

Tashkent University of Applied Sciences Teacher of the Department of Psychology

Аннотация: В данной статье анализируются психологические особенности самосознания в подростковом возрасте и их освещение в трудах восточных мыслителей, положительное качество самосознания, заключающееся в сознательном контроле человека над своим физическим и психическим состоянием. Также в исследовательской работе доказываются особенности связи самосознания и волевых качеств, психологические механизмы связи самосознания и особенностей темперамента в подростковом возрасте, особенности темперамента в самооценке человека. на основе эмпирических результатов, что это условие понимания.

Ключевые слова: подростковый возраст, самосознание, психологические особенности, темперамент, сознание, воля, мышление.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF SELF-AWARENESS IN ADOLESCENCE

Usmanova Sevara Akmalovna,

Tashkent University of Applied Sciences Teacher of the Department of Psychology

Annotation: This article analyzes the psychological features of low self-awareness during adolescence and their coverage in the works of Eastern thinkers, the positive quality of low self-awareness, which consists in less conscious control of a person's physical and mental state. The study also proved empirically that the relationship between low self-awareness and volitional qualities, the psychological mechanisms of the relationship between low self-awareness and temperament during adolescence, and temperament as a condition for low self-awareness in a person.

Keywords: adolescence, self-awareness, psychological characteristics, temperament, consciousness, will, thinking.

KIRISH: Inson kamolotida shaxs sifatlari bilan birgalikda irodaviy xususiyatlar ham asosiy, muhim o'rinn egallaydi. Jumladan, shaxs o'zini-o'zi anglashi bilan birga o'zini-o'zi boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi va shu orqali o'zining hulq-atvor, xatti-harakatlarini anglash tarkib topadi. O'zini-o'zi anglash bu-o'zining hayotiy kuchini ancha yuqori darajada anglagan va ijodiy ishlatishdan iborat shaxs xususiyatidir.

O'zini-o'zi anglash shaxsning o'z jismoniy hamda ruhiy faoliyatini o'zi ongli ravishda nazorat qilib turishdan iborat ijobiy sifati bo'lib, uning bir qancha turlari mavjud. Sensor o'zini-o'zi anglash, idrok faoliyatini anglash bilan belgilanadi. Sensomotor o'zini-o'zi anglash idrok bilan harakatlarning birgalidagi faoliyatini anglash, o'zini-o'zi anglash malakalarining tarkib topishida, harakatdagi xatolarni kuzatishda yaqqol namoyon bo'ladi. Negativ fikr va xaotik his-tuyg'ular tartibsiz xarakterga ega bo'lib, u hayotiy energiya kuchini kamaytiradi va bo'shashtirib toliqtiradi. O'zini-o'zi anglash shaxs fikrlarida negativ aspektlarni pozitiv, ijodiy va konstruktiv, hayotiy energiyani (kuchni) kuchaytiradi, natijada shaxs kuchining o'sishi amalga oshadi.

O'ziga bo'lgan ishonchszlik va haddan tashqari ishonch shaxsdagи harakatsizlik va bo'shashganlikka tenglashtiriladi. Shaxs kuchining rivojlanishi bu avvalombor, o'ziga ishonch, yetarli darajada qat'iylik va intilishni ko'rsatib, birinchi qadamni tashlash orqali hamma narsaga erishish mumkin.

Ma'lumki, shaxs shakllanishi murakkab bo'lib, unga atrof-muhit tashqi ta'sirlar tizimli ravishda ta'sir qilib turadi. Shunga muvofiq ularda shaxs sifatlari, xarakter xususiyatlari, irodaviy sifatlari tarkib topadi. Shaxs kamolotini asosiy bo'g'inini iroda tashkil qilib, uning muhim komponentlaridan biri o'zini-o'zi anglash bilan belgilanadi. Shu bois shaxsda o'zini-o'zi anglashning namoyon bo'lishi hamda uning shakllanish mexanizmlarini tadqiq qilish masalaga nisbatan yangicha yondashishni talab qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJA: Xorij psixologlari o'zini-o'zi anglash – bu o'zlashtirilgan strategiya ekanini uqtira boshladilar. (A.Bandura, B.Mishel, G.Devirson, F.Logan, D.Premark, B.Englin, Ye.Torenson, M.Maxoni va boshqalar) natijada, o'zini-o'zi anglash bilan o'zini-o'zi boshqarish amalga turlicha tushuncha ekanligi kuzatildi.

1970 yildan boshlab g'arb psixologlarining izlanishlarida "iroda" tushunchasin o'rnnini "o'zini-o'zi anglash" tushunchasi egallay boshladi. (Yu.Kul, 1983, 1987)

Yu.Kul olib borgan tadqiqotlari natijasida ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan bir qancha mexanizmlarni ishlab chiqqan. Bu mexanizmlar ko'pincha anglanmagan darajada amalga oshishi, strategiya shaklida qo'llanilish mumkin. Unga ko'ra o'zini-o'zi anglashning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi.

Motivatsion nazorat. Bunda ko'zlangan maqsad negizida yotuvchi motivatsion tendensiyani kuchaytiruvchi stretegiya asosiy o'rin egallaydi. Bu faoliyatni amalga oshirish uchun qulay, tashqi stimullar va sub'ektning diqqat markazini ijobiy ko'rinishlariga qaratuvchi motivatsion jarayonni yangilash hisobiga amalga oshadi. Shunday qilib, harakatlarni anglash tizimi ko'zlangan maqsad sari intilishni kuchaytiruvchi motivatsion tizimni "qo'llab-quvvatlaydi."

Diqqat nazorati. Bu mexanizm diqqatni maqsadni amalga oshirishga taalluqli bo'lgan axborotlarga yo'naltirishni ta'minlaydi. Bu maqsad yo'naltirilgan ob'ektni yo'qotib qo'yish xavfi tug'ulgan vaziyatda maqsadga muvofiqdir.

Perseptiv nazorat. Dastlabki tasavvur bosqichlaridan boshlab o'ziga xos "intension" filtr hisoblanadi: perseptiv tizim ko'zlangan maqsad bilan bog'liq qabul qilingan axborotlar tavsifnomasiga nisbatan ta'sirchandir va aksincha. Perseptiv kategoriya ko'zlangan maqsad bilan bog'liq bo'lib, katta "tayyorgarlik"ni ularni qayta ishlashga kam vaqtini talab qiladi va harakatlarni boshqaruvchi tizimga boshqalardan avvalroq kirishadi.

Emotsional nazorat. Sub'ekt ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun to'sqinlik qiluvchi yoki imkoniyat yaratib beruvchi emotsiyal holatlar haqida "bilim"larga ega bo'ladi. Agar emotsiyal nazorat maqsadga erishishni qiyinlashtirsa, harakatlarni nazorat qiluvchi tizim ularni o'zgartirishga harakat qiladi.

Kuchlarni faolashtiruvchi nazorat. Ko'zlangan maqsadni amalga oshirishdagi omadsizlik va uning emotsiyal oqibatlari qo'shimcha kuchlarning mobilizatsiyasi yoki aksincha noqulay sharoitlar kuchning kamayishiga olib keladi.

Kodlashtirilgan va operativ xotira nazorati. Maqsad bilan bog'liq axborotlar iqtisodiy strategiya bo'yicha qayta ishlanishi kuzatilgan. (kuch va vaqtning sarflanishi nuqtai nazaridan) Maqsad bilan bog'liq bo'lgan harakatlarga nisbatan qisqa yo'l ochiladi. Agar harakatlar qandaydir sabablarga ko'ra ortga surilsa, ko'zlangan maqsad haqidagi ma'lumotlar operativ xotirada "faolashtirilgan" ko'rinishida saqlanib qoladi. Xattoki, anglanmagan bu axborot sub'ekni yuzaga kelgan vaziyatda oson yo'l topishga imkon beradi. (Zeygarnik effekti)

Yu.Kulning tasavvuriga ko'ra "o'zini-o'zi boshqarish" negizida harakatlarni nazorat qiluvchi subsistema o'rtasidagi mutlaqo boshqa aloqalar yotadi. "O'zini-o'zi boshqarish"da tizim demokratik tamoyilda amalga oshadi: boshqaruvning samarasi tizimning barcha komponentlari o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq va doimo "men" ning nazorat qiluvchi ta'siriga ehtiyoj sezadi.

Djems ishlarida ongda bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq harakat g'oyasi mavjud bo'lganida harakat borasida qaror qabul qilish irodaning asosiy funksiyasi, deb tan olingan. Tanlov ehtiyoji irodaviy harakatlarga undash mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Djems harakat haqida mavjud tasavvurlar harakatlar darajasigacha ta'sir etadi, deb ta'kidlaydi. Qarama-qarshi g'oyalarning mavjud bo'lishi tasavvurlarni harakatga aylanishini tormozlaydi, shuning uchun harakatni amalga oshirish uchun g'oyalarni tanlay bilish va harakat haqida qaror qabul qilish (iroda qarori "ha" bo'ladi - fiat) kerak. Tanlov motivlar asosida amalga oshiriladi va diqqatni tanlangan ob'ektga qaratish bilan yakun topadi. Shundan so'ng harakat impulsiga, ya'ni diqqatimiz qaratilgan g'oya va xabarlar berilgach,

harakat boshlanadi. Shuning uchun “ixtiyoriy” iroda holatida irodaning asosiy yutug‘i ongni diqqatni safarbar etishdan iborat bo‘ladi. Djems irodaviy kuchni diqqat kuchi sifatida tushunadi. Uning ko‘pligi to‘siqlardan raqobatlashuvchi g‘oyalar ko‘rinishidagi ichki va tashqi yoki ideal motivning kuchsizligini keltirib chiquvchi qarama-qarshiliklar kuchi orqali aniqlanadi.

Psixologiyada emotsiyalarning namoyon bo‘lishi sub’ektning anglashiga bog‘liqligi o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalardandir. Bu nazoratning buzilishi yoki susayishi shaxsda emotsiyalarning muammolarni kelib chiqishga sabab bo‘ladi. Emotsional reaksiyalarning intensivligi taraqqiy etishi o‘zini-o‘zi anglashning to‘liq sarflanishidagi yetishmovchilikni oshirib yuboradi. Tajribalarimizdan ma’lumki, turli shaxslar o‘zining emotsiyalarini namoyon qilishi va ularni nazorat qila olish ko‘nikmalariga ko‘ra bir-biridan farqlanadilar.

Hayotiy tajribalarimizdan ma’lumki, odamlar o‘zaro bir-birlaridan o‘z emotsiyalarini namoyon etish uslublari, kuchi, ular ustidan nazorat o‘rnata olishlari bilan farqlanadilar. Emotsional o‘zini-o‘zi anglashning namoyon bo‘lishini individual o‘ziga xosligi, odamning psixologik portretida o‘z aksini topadi. V.G. Afanasevning ta’kidlashicha, “odam o‘zini-o‘zi anglash qobiliyatiga ega, agar uning o‘zini-o‘zi anglashda ratsionallik o‘z-o‘ziga, o‘zining yutuq va kamchiliklariga xotirjam, hushyor qarash bo‘lsa yoki aksincha, agar shaxsda emotsiyalar affektlar, hissiyotlar, ayniqsa, haddan ziyod izzattalablik ustunlik qilsa, odam o‘zini-o‘zi boshqara olmaydi”.

O‘zini tuta bilish xarakterining muhim chizgisi hisoblanib, u odamga o‘zini-o‘zi o‘z xulq-atvorini boshqarishga eng qiyin sharoitlarda faoliyatni bajarish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi. O‘zini tuta bilish xususiyati rivojlangan odam har qanday hattoki favqulotdagi holatlarda o‘z emotsiyalarini o‘z aqliga bo‘ysundira olishni biladi, ularga o‘zining psixik hayotining tuzilishini buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ushbu xususiyatning asosiy tarkibini ikkita psixologik mexanizmlarining faoliyati tashkil etadi: o‘zini-o‘zi anglash yordamida sub’ekt o‘zining emotsiyalarning holatini kuzatadi, bunda uning kechishi xususiyatidagi mumkin bo‘lgan orqada qolishlarni aniqlaydi. Agar o‘zini-o‘zi anglash muvofiqlik faktini qayd etsa, bunda ushbu natija emotsiyalarning portlashni bosishga, ushlab qolishga emotsiyalarning qaytarishni normal yo‘lga o‘tishga qaratilgan mexanizmlarni ishga tushuruvchi turtki bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘zini-o‘zi tuta bilish shaxs xususiyati sifatida tadbiq etilishi gomestatik tamoyilga ko‘ra amalga oshiriladi. P.Levinning ko‘rsatishicha: biz o‘z hissiyotlarimiz, ehtiyojlarimiz qanchalik qonuniy bo‘lmash, ularni doimo diqqat bilan kuzatishimiz kerak va ular juda ham jadallahganda to‘xtatib qolishga harakat qilishimiz zarur. Shunday daqiqalar keladiki, biz juda berilib ketamiz va o‘zimizni boshqara olmasligimizni his qilamiz.

Bundan ko‘rinadiki, emotsiyalarning holatlarda o‘zini-o‘zi anglash faoliyatdagi o‘zini-o‘zi anglash bilan uzviy bog‘liqidir. Chunki faoliyat jarayonida (biz o‘zimizda) yutuqlarimizdan xursand bo‘lamiz, muvaffaqiyatsizlik, omadsizlikdan qayg‘uga, tushkunlikka tushamiz. Shu jarayonda emotsiyalarimiz turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Albatta ijobjiy yoki salbiy emotsiya bo‘lishdan qat’iy nazar inson o‘zini-o‘zi anglash imkoniyati talab etiladi.

O‘zini-o‘zi anglashning shakllanishi ma’lum savollarni yechishni taxmin qiladi va birinchi navbatda o‘quvchilarda o‘zini-o‘zi anglash haqida samarali faoliyatning muhim sharti sifatida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishni nazarda tutadi. Faqat unga erishib bo‘lingach, aniq faoliyat sharoitlarida qo‘llaniladigan o‘zini-o‘zi anglashning turli usullari tarkibini ochishga, ya’ni o‘quvchilarni faoliyat jarayonida o‘z – xatti-harakatlarini anglash odatlarini tarbiyalashga o‘tish mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, nafaqat faoliyat jarayonida, balki kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘zini-o‘zi anglashning namoyon bo‘lishi muhim sanaladi. Bunda kasbiy tayyorgarlikning muvaffaqiyati faoliyatda o‘zini-o‘zi anglashning yaqqol namoyon bo‘lishi bilan uzviy bog‘liqidir. Buning natijasida yaxshi o‘zlashtiruvchilar emotsiyalarning sohani anglashda past o‘zlashtiruvchilarga nisbatan ustunlik bilan ajralib turganlar. O‘zini-o‘zi anglashning namoyon bo‘lishiga kasb tanlashdagi, ishonch, ishonchszlik omili to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etadi. O‘quvchilar tanlagan kasblari to‘g‘riligiga qanchalik yuqori darajada ishongan bo‘lsalar, bu ular uchun faoliyat jarayonida o‘zini-o‘zi anglash natijasida yuzaga keladi.

O‘zini-o‘zi anglashning ob’ekti nima bo‘lishidan qat’iy nazar harakatning natijalariga va harakatning o‘ziga qaratilgan o‘zini-o‘zi anglashni farqlash taklif qilinadi. O‘zini-o‘zi anglashning bu turlarining barchasida zarur ma’lumotlarni to‘plash bevosita sezgi organlari yoki vositali turli nazorat o‘lchov asboblari yordamida bajarilishi mumkin. O‘zini-o‘zi anglashning intellektual tarkibi darajasi qo‘llanilayotgan, etalonning xususiyatiga ko‘ra aniqlanadi. Shu munosabat bilan o‘zini-o‘zi anglash

o‘lchovlar va signallar, namunalar, tasavvur namunalar, shartli tasavvur (sxemalar, chizmalar), umumiy tushunchalar va tamoyillarga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin.

O‘zini-o‘zi anglash muamosini o‘rganish jarayonida insonlarning shaxs xususiyatlari xususida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Inson xarakterini bilgan xolda uning ma’lum xulq-atvor shakllarini aniqlash mumkin. Shunday xarakterlardan biri o‘zini-o‘zi anglashdir. Shaxs muloqotda biror bir faoliyatni bajarishga, ijtimoiy normalarni qabul qilishda o‘zini tutishiga qarab, unda qanchalik o‘zini-o‘zi anglash shakllanganligini ta’kidlab o‘tish mumkin. O‘zini-o‘zi anglash shaxs xususiyati sifatida xarakter xususiyatlaridan ma’lum darajada kuchsiz yoki yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday xususiyatlarga tartibsizlik, boshpanasizlik, vaximachilik, beboslik, ma’suliyatsizlik va boshqalarda o‘zini-o‘zi anglashning yetishmasligi namoyon bo‘ladi. Agar inson mulohazalilik, o‘zini tuta bilishlik, ishonchlilik, sobitqadamlilikni namoyon qilsa, ularda o‘zini-o‘zi anglash taraqqiy etganini ko‘rishi mumkin. Hattoki inson xarakterini mazmuniga ko‘ra majmualarga ajratish mumkin. Ularni asosiy birlashtiruvchisi hisoblanadi.

Xarakteri barqaror insonlarda o‘zini-o‘zi anglash tez sodir bo‘ladi, ikkilanuvchi, qat’iyatsiz odamlarda o‘zini-o‘zi anglash davomiydir. Ya.Reykovskiyning fikriga ko‘ra, emotsiyal to‘g‘rilikni ta’minalashga kiritilgan maxsus nazorat qiluvchi mexanizmlarni topishga bo‘lgan urinishlarni qiyinchiliklari va muvaffaqiyatliliklari ko‘pincha tadqiqotchilarda uning mavjudligi taxminiga skeptik munosabatni keltirib chiqaradi. O‘smirlilik davrida o‘zini-o‘zi anglashning shakllanishida individual psixologik xususiyatlarning o‘ziga xosliklarini hisobga olish muhimdir. Bu bevosita individual yondashuv shartlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning asosida rivojlanishi va oldingi tajribasi, uning qobiliyatları psixologik o‘ziga xosliklarini va tayyorgarlikni hisobga olish yotadi. Bunda ta’lim oluvchilarning faqatgina individual o‘ziga xosliklarini hisobga oigan holda o‘quv-tarbiya ishini to‘g‘ri tashkil qilish mumkin.

O‘zini-o‘zi anglash jarayonida individual yondoshishni amalga oshirish quyidagi masalalar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Uldan birinchisi mashqlantirish hisoblanib, aynan bu jarayonning muvaffaqiyati qaysi individual qirralarga ta’sir etadi, degan savolga javobni bo‘lishini nazarda tutadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatlari kechishiga ham uni murakkablashtiradigan, ko‘mak beradigan individual psixologik o‘ziga xosliklar mavjud. Shu munosabat bilan asosiy vazifa u yoki bu o‘ziga xosliklarning mohiyati psixologik tarkibini aniqlash imkonini beradi. Birinchi vazifaning uzviy davomi bo‘lgan ikkinchi vazifa o‘quvchilarning tarkibi tayyorgarlik muvaffaqiyatiga ta’sir etadigan psixologik o‘ziga xosliklarni amaliyotda hisobga olish va korreksiyalashni amalga oshirishga imkon beradigan psixologik dasturni ishlab chiqishdan iborat.

O‘smirlilik davrida o‘zini-o‘zi anglashning shakllanishining metodologik asosi, o‘rganish metodikalarining tanlanishi va ularni tadqiqot maqsadiga muvofiq ravishda tashkil qilish imkonini beradi. Shunga muvofiq mazkur bob bo‘yicha quyidagi xulosalarni berish maqsadga muvofiqdir:

1. O‘zini-o‘zi anglash iroda jarayoni tarkibiga kirganligi bois uning doirasida tadqiq qilish imkonini beradi.

2. O‘zini-o‘zi anglash xususiyatlarini shakllanishini maxsus o‘rganishga bag‘ishlangan metodikalar, kuzatish, psixologik testlar va qo‘srimcha usullar majmuasining qo’llanilishi tadqiqotning amaliy tadbiqiylarini kengroq ko‘lamda asoslab berish imkonini beradi.

3. O‘smirlilik davrida o‘zini-o‘zi anglash tizimini shakllanishini o‘rganish uchun maxsus usullar majmuasini qo’llash orqali jumladan shaxsnинг irodaviy sifatlarini o‘rganish metodikasi bo‘yicha o‘zini-o‘zi anglashning irodaviy sifatlar bilan bog‘liqligi, emotsiyal holatlarda o‘zini-o‘zi anglashning xususiyatlari, individual psixologik xususiyatlar va o‘zini-o‘zi anglash o‘rtasidagi aloqadorlik empirik dalillar asosida izohlangan.

XULOSA: O‘smirlilik davrida o‘zini-o‘zi anglashning shakllanishi muammosiga taalluqli nazariy ma’lumotlarning tahlili va tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun maxsus tanlangan va ishlab chiqilgan usullar majmuasini qo’llash orqali o‘smirlilik davrida o‘zini-o‘zi anglashning shakllanish mexanizmlarini tadqiq qilish imkoniyati yaratildi.

2. Irodaviy sifatlarni o‘rganish metodikasi asosida o‘smirlarda o‘zini-o‘zi anglash irodaviy sifatlar bilan aloqadorligi tahlil qilinib, bunda mustaqillik, matonatlilik, e’tiborlilik sifatlari yuqori darajada bog‘liqligi, shuningdek, tashabbuskorlik va g‘ayratlilik mustaqil ya’ni aloqadorlikka ega bo‘lmagan sifatlar ekanligi o‘z isbotini topdi.

3. Emotsional holatlarda o‘zini-o‘zi anglash metodikasi orqali faoliyat jarayonidagi o‘zini-o‘zi anglash, ijtimoiy jarayondagi o‘zini-o‘zi anglash hamda emotsional jarayondagi o‘zini-o‘zi anglash o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilinib, ijtimoiy va faoliyat jarayonidagi o‘zini-o‘zi anglash o‘zaro aloqadorlikka ega bo‘lib, emotsional holatlardagi o‘zini-o‘zi anglash teskari aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi.

4. O‘zini-o‘zi anglashning shakllanishida individual psixologik xususiyatlarga bog‘liqligi masalasi reaktivlikni o‘zgarishini baholash va ekstravversiya, rigidlik va xavotirlanish darajalarini baholash metodikalariga asoslanib reaktivlik yuqori bo‘lsa, emotsional sohadagi o‘zini-o‘zi anglash past darajani, ijtimoiy sohadagi o‘zini-o‘zi anglashning yuqori bo‘lishi rigidlik xususiyatlarini ustuvorligi bilan belgilanishi, shuningdek xavotirlanish kuchli bo‘lganda faoliyat sohasi bilan bog‘liq o‘zini-o‘zi anglash yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi asoslanildi.

5. O‘smirlilik davrida irodaviy sifatlarning shakllanishida irodaviy sifatlar muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, mustaqillik, matonatlilik, e’tiborlilik sifatlari o‘zini-o‘zi anglashda ierarxiyani yuqori darajasini tashkil qiladi.

6. O‘smirlilik davrida o‘zini-o‘zi anglashni tarkib topishiga asosiy e’tiborni qaratish unda mazkur yoshda yuzaga keladigan psixologik fiziologik o‘zgarishlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

7. O‘zini-o‘zi anglashning shakllanishida tashabbuskorlik va g‘ayratilik mustaqil komponent sifatida namoyon bo‘ladi.

8. O‘zini-o‘zi anglash emotsional holatlardagi o‘zini-o‘zi anglash bilan aloqadorlikka ega bo‘lib, hissiy emotsional sohalarni boshqarishda kuchli darajada o‘zini-o‘zi anglashni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Волков Б.С. Возрастная психология. В 2-х ч. Учеб.пособие для ВУЗов, спес. ОПД.Ф.01-Психология/ Под ред. Б.С. Волкова. – М.: Владос, 2005. Ч.2. – 343 с.

2. Ганиева Э.И. Формирование индивидуального стиля общения у подростков в учебно воспитательном процессе. Автореферат канд.психол.наук. в национальном университете Узбекистана им. Мирзо Улугбека. Ташкент- 2002, 24-с.

3. Jo‘raev T.S. O‘smir o‘quvchilar aqliy rivojlanishining psixologik xususiyatlari. Avtoreferat. Psixol.f.n. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti. Toshkent, 2005 24-b.

4. Обухова А.Ф. Возрастная психология: Учебник М.: Высшее образование , 2006, 460с.

5. Усманова Севара Акмаловна. (2022). Психологические особенности самосознания в раннем подростковом возрасте. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 6, 114-116. Извлечено из <https://www.zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/1104>

6. Усманова Севара Акмаловна. (2024). РАЗВИТИЕ Я-КОНЦЕПЦИИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ. Международные научные и текущие исследовательские конференции, 1(01), 87-90. Извлечено из <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1519>

7. Усманова Севара Акмаловна. (2022). ЎЗИНИ-ЎЗИ АНГЛАШНИНГ ЎСМИРЛИК ДАВРИДА РИВОЖЛАНИШИ. Е конференц-зона, 168-169. Извлечено из <https://econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/930>

ZAMONAVIY O‘QITUVCHI QIYOFASIDA DEONTOLOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Vakhobov Anvar Abdusattorovich

Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika" kafedrasи pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Annotatsiya. Maqolada o'qituvchining deontologik madaniyatini rivojlantirishda axloqiy talablar, me'yorlar, prinsiplar va xatti-harakatlar qoidalari, o'qituvchining kasbiy faoliyati, uning maqsadi keng doirada tahlil qilingan. Zamonaviy o'qituvchining deontologik asosining muhim tarkibiy qismi sifatida unga kasbiy kompetensiyasi yuqori bo'lgan mutaxassis sifatida yuklangan axloqiy burch talablari keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: deontologiya, pedagogik mahorat, iroda, yuksak tafakkur, siyosiy iroda, axloqiy ideallar, gumanistik qadriyatlar, pedagogik etika.

РАЗВИТИЕ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБРАЗЕ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА

Вахабов Анвар Абдулсаттарович

И.о. доцента кафедры "Педагогика" Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация. В статье в широком контексте в развитии деонтологической культуры учителя анализируются этические требования, нормы, принципы и правила поведения, профессиональная деятельность учителя, ее цель. В качестве важной составляющей деонтологической основы современного педагога широко освещены требования морального долга, возлагаемого на него как на специалиста, обладающего высокой профессиональной компетентностью.

Ключевые слова: деонтология, педагогическое мастерство, воля, высокое мышление, политическая воля, нравственные идеалы, гуманистические ценности, педагогическая этика.

DEVELOPMENT OF DEONTOLOGICAL COMPETENCE IN THE IMAGE OF A MODERN TEACHER

Vakhobov Anvar Abdusattarovich

Acting Associate Professor of the Department of Pedagogy, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annotation. The article describes the ethical requirements, standards, principles and rules of behavior, the teacher's professional activity, and its purpose are analyzed in a broad framework in the development of the teacher's deontological culture. As an important component of the deontological basis of a modern teacher, the requirements of the moral duty imposed on him as a specialist with high professional competence have been widely covered.

Key words: deontology, pedagogical skill, will, high thinking, political will, moral ideals, humanistic values, pedagogical ethics.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyatlar yuklangan. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etadi: "O'zbekistonda eng obro'li inson muallim bo'lishi kerak"[1]. Ushbu fikrlardan bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati anglaniladi.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Mustaqillikdan keyin ushbu muammo ko'plab olimlarning, ziyoli ahlining, hatto ota-onalarning diqqat e'tiborida bo'ldi. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, darsliklar yaratila boshlandi, bu sohada izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmokda. Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-tehnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chukur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

O'qituvchining ishiga nafaqat boshqa odamlarning ruhiy holati, balki ularning kelajagi ham bog'liqidir. Odamlar bilan ishslash, ayniqsa bolalar bilan ishslash spontanlik yoki harakatsizlikka toqat qilmaydi.


O‘z-o‘zini anglash nazoratidan chiqib ketishi bilanoq, o‘qituvchi xatolarga yo‘l qo‘yadi va ko‘pincha tuzatib bo‘lmaydigan xatolarga yo‘l qo‘yadi. Ularning topshirig‘iga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘qituvchilar tomonidan muayyan axloqiy talablarga rioya etilishi, ularning mustaqil va ongli tanlovi ustidan ijtimoiy nazarat zarur. Aynan shu tanlov orqali “yaxshi yoki yomon” tushunchasiga tayanish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, kasbiy pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyati o‘qituvchining boshqa odamga (bu holda o‘quvchiga) ta’sirining darajasi va yo‘nalishini aniqlash uchun javobgardir: yaxshi yoki yomon, foydali yoki zararli. Ushbu javobgarlikning chegaralarini, aniqrog‘i, pedagogik aralashuvning chegaralarini aniqlash pedagogik deontologiyaning vazifasidir. Masalan, tibbiy axloqshunoslikda tibbiy aralashuvni amalga oshirish uchun bemorning rasmiy (hujjatli) roziliginini olish normalari mavjud. Agar bemorning aqliy faoliyati cheklangan bo‘lsa, unda bunday kelishuv qarindoshlar yoki yaqin odamlar tomonidan beriladi. Maktab o‘quvchilarida va ayniqsa, maktabgacha yoshdagagi bolalarda tushunish va mas’uliyatlari qarorlar qabul qilish qobiliyati doimo cheklangan. Biroq, bu yerda pedagogik va tibbiy ta’sir o‘rtasidagi o‘xhashlik cheklangan. O‘qituvchi ovozni ko‘tarish, taqiqlash yoki maqtash uchun har bir aniq holat uchun ota-onadan rozilik so‘rash imkoniyatiga ega emas. Ammo bunday harakatlar ta’sirining natijalari ular bilan hisoblanmaslik uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin emas. Bundan kelib chiqadiki, agar o‘qituvchining qaror qabul qilishdagi erkinligi cheksiz bo‘lsa, u holda uning qabul qilingan qarorlar uchun javobgarligi darajasi yanada yuqori bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi normativ va qonunchilik hujjatlari asosida ma’lum qarorlarni qabul qiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni [2], 2024-yil 1-fevral kuni 21 moddadan iborat “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunida [3] pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to‘lash, rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi.

Pedagogik deontologiya bu o‘qituvchining kasbiy burchini halol, vijdonan bajarishiga mos keladigan axloqiy, huquqiy tamoyillar va qoidalar majmuidir.

O‘qituvchining deontologik kompetensiyasini rivojlantirishda uning pedagogik mahorati juda muhim sanaladi. Pedagogik mahoratning tashkil etuvchi komponentlar ya’ni o‘qituvchilik kasbiga sadoqat, o‘z fanining o‘qitish metodikasini mukammal bilishi, pedagogik qobiliyatlarni namoyon eta olishi, pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi deontologik kompetensiyani rivojlanishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri hisoblanadi [4].

Zamonaviy o‘qituvchining deontologik asosining muhim (asosiy) tarkibiy qismi unga kasbiy tayyorgarlik ko‘rgan mutaxassis sifatida yuklangan axloqiy burch talablari yotadi. Ushbu talablar uning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi: u qayerda (qaysi muassasada) va kim bilan (qaysi toifadagi odamlar) ishlaydi, shuningdek u o‘z ishida qanday ustun maqsadlarni belgilaydi va kasbiy etika, axloqiy ideallar, tamoyillar mazmuni, ushbu ko‘p millatli jamiyatdagi ijtimoiy va pedagogik faoliyatning gumanistik qadriyatlari pedagogik etika ushbu axloqiy me’yorlarni, qadriyatlarni, shuningdek, pedagogik faoliyatga xos talablarni shakllantirish bilan shug‘ullanadi va pedagogik deontologiya ularni anglash va amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Yuqoridagilar diagramma sifatida ifodalanishi mumkin (1-rasm).

(1-rasm).



Har bir professor-o‘qituvchilar jamoasi eng yaxshi an’analarni qadrlashi, mustahkamlashi, ularni o‘z saflariga qo‘shilgan har bir yangi xodimga doimiy ravishda singdirishi kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchi bunday an’analarni o‘rganishi va hatto universitetda o‘qish jarayonida ham ularni hurmat qilishni o‘rganishi kerak. Har bir talaba o‘z guruhida ijodkorlik va ijod ruhiga ega bo‘lishini ta’minlash uchun harakat qilishi kerak.

Deontologik ongning shakllanishi o‘qituvchining butun hayoti davomida sodir bo‘ladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, kelajakdagi o‘qituvchi o‘zining shaxsiy qarorlarini to‘g‘ri qabul qilishga, o‘z-o‘ziga ishonch kabi tuyg‘ularni tarbiyalashi kerak, ya’ni u o‘zining qadriyatlar yo‘nalishlariga muvofiq ongli ravishda harakat qilishiga imkon beradigan o‘z e’tiqodlarini rivojlantirishi kerak.

Kasbiy faoliyat jarayonida o‘qituvchining qat’iy e’tiqodi deontologik kredoga aylanadi (“kredo” lotincha kredodan - ishonaman) – e’tiqod, qarashlar, dunyoqarash asoslari) – o‘qituvchining ichki dunyoqarashini shakllantiradi, bu regulyator bo‘lgan kasbiy burch ongiga asoslanadi.

O‘qituvchining deontologik tayyorgarligi quyidagilar asosida shakllanadi:

- pedagogik deontologiya asoslarini o‘zlashtirish darajasi;
- kasbiy burchni anglash darajasi;
- kasbiy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari;
- har bir o‘qituvchi shaxsiyati ijodining individual o‘ziga xosligi.

Ushbu tizim elementlaridan birini egallamaslik (“deontologik ong, deontologik o‘z-o‘zini anglash, deontologik ishonch, deontologik kredo”) o‘qituvchining deontologik tayyorgarligi to‘liq shakllanmasligiga sabab bo‘ladi.

O‘qituvchining deontologik tayyor emasligi uning professional bo‘lmagan harakatlarida namoyon bo‘ladi, ya’ni:

- tarbiyachi, o‘qituvchi tomonidan o‘zlarining kasbiy burchlarini tushunmasliklari va natijada o‘quvchilar bilan munosabatlarni to‘g‘ri tahlil eta olmasligiga olib keladi;

- kasbiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirishning yetishmasligi, ya’ni o‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi anglash tushunchasining yo‘qligi, bu esa kasbiy-deontologik o‘z-o‘zini anglashni deontologik e’tiqod va kredoga aylanishiga to‘sinqilik qiladi. O‘qituvchining xulq-atvorini pedagogik deontologiya tamoyillariga muvofiq ravishda tartibga soluvchi asosiy tushuncha bu- deontologik e’tiqod va ishonch.

Demak, birinchi navbatda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida, o‘rta maktab, litsey, kasb hunar makkablari, kollej o‘qituvchilari, oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilaridan boshlab ta’lim tizimidagi barcha ishchilarning deontologik tayyorgarligini shakllantirish zarurati paydo bo‘ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakat o‘qituvchi va murabbiylariga yo‘llagan tabrik matni. <https://president.uz/uz/2881>

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020). // Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” gi Qonuni. (01.02.2024). // Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024 y., 03/24/901/0082-son.

4. A. Xoliquov “Pedagogik mahorat” darslik, Toshkent-2011, “Iqtisod-moliya”nashriyoti.

5. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktlogiya. O‘quv qo‘llanma. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 320 b.
6. Ziyomuhamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. O‘quv qo‘ll.-T.: TIB-KITOB, 2009. -183 b.
7. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kopetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
8. Muslimov N.A. va boshqalar. Профессиональная компетентность будущего учителя: теория и технология обучения Учебное пособие . -T.: TDPU, 2014
9. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik-T.: Iqtisod-moliya, 2011. - 420 b.
10. Кертаева Г.М. Основы педагогической деонтологии. 2019. 6-40 б.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HISSIY-EMOTSIONAL SALOMATLIGI
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyorovna,

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
psixologiya kafedrasи katta o'qituvchisi*

*Karimjonova Madinabonu Rahmatilla qizi
Psixologiya yo'nalishi talabasi
Farg'onan davlat universiteti*

Annotatsiya. Shaxs psixologiyasida hissiy-emotsional salomatlik inson hayotining asosiy fazilatlaridan biridir. Uning asosi bolalik davridan boshlab shakllanadi hamda bolaning atrofidagi kattalarga, ularning shaxslararo munosabatlariga va bolaning shaxsiga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Maqolada empirik tadqiqotlar asosida mактабгача yoshdagi bolalarning hissiy-emotsional salomatligi muammosi yoritilgan.

Kalit so'zlar: hissiy-emotsional salomatlik, ishonch hissi, noqulaylik, qoniqish, oila

ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ *Юлдашева Махлиё Бахтиёроповна*

*доктор философии по психологическим наукам, старший преподаватель кафедры
психологии*

*Karimzhonova Madinabonu Rakhmatilla kizi
Студент направления прикладная психология Ферганский государственный
университет*

Аннотация. В психологии личности эмоциональное благополучие является одним из основных качеств жизни человека. Его основа закладывается в детском возрасте и зависит от окружающих ребенка взрослых, их взаимоотношений и реакций на поведение личности ребенка. В статье раскрывается проблема эмоционального благополучия детей на основе проведенного эмпирического исследования.

Ключевые слова: эмоциональное благополучие; чувство доверия; дискомфорт; удовлетворенность; семья.

EMOTIONAL WELL-BEING OF CHILDREN IN PRESCHOOL AGE

Yuldasheva Makhliyo Bakhtiyorovna

*Doctor of Philosophy in Psychological Sciences, Senior lecturer at the Department of
Psychology*

*Karimzhonova Madinabona Rakhmatillo kisi
Student of Applied Psychology Ferghana State University*

Abstract. In personality psychology, emotional well-being is one of the main qualities of a person's life. Its foundation is laid in childhood and depends on the adults around the child, their relationships and reactions to the behavior of the child's personality. The article reveals the problem of emotional well-being of children on the basis of an empirical study.

Keywords: emotional well-being; sense of trust; discomfort; satisfaction; family.

Kirish. Maktebgacha yosh davri - bolaning shaxsiy qirralari shakllana boshlagan davrdir. Ushbu davrda aqliy jarayonlarning jadal rivojlanishi kuzatiladi, bola turli faoliyat turlarini faol ravishda o'zlashtiradi. Maktebgacha yosh davrida bolaning hissiy xulq-atvori va oilaga munosabatining ilk kurtaklari shakllanadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "...oila avlodlar davomiyligini ta'minlaydi", degan fikrlari bejiz emas [8]. Maktebgacha yoshdagi

bolalarning hissiy-emotsional salomatligi xususiyatlarini o‘rganish juda muhim ahamiyatga ega. Chunonchi oilada hissiy xulq-atvori bolaning voqelikka munosabatini shakllantirishning eng muhim mezoni sifatida axloqiy, estetik va aqliy tarbiya vositasi hisoblanadi.

Agar bola hissiy-emotsional jihatdan sog‘lom oilada ulg‘aysa, u boshqalarga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘ladi, egosentrik pozitsiyani yengishga qodir, ota-onaga qo‘pol munosabatni namoyon qilmaslikka urinadi, o‘g‘irlamaydi, jirkanch xulq-atvorni namoyon qilmaydi, o‘zgalarni xafa qilmaydi [7].

Bolaning hissiy-emotsional salomatligi xulq-atvorning quyidagi xususiyatlarida ifodalanadi: atrof-olamga nisbatan ishonch hissining mavjudligi; insoniy his-tuyg‘ularni namoyon qilish qobiliyati; boshqalarning holatini tushunish va his qilish qobiliyati; ijobiy his-tuyg‘ular va hazil-mutoyiba tuyg‘usining mavjudligi; shaxslararo munosabatlarga kirisha olish qobiliyati va ehtiyoji; ajablanish hissining mavjudligi; xulq-atvorning o‘zgaruvchanligi; raqobatbardosh vaziyatlarda to‘sqliarni yengib o‘tish yoki noqulaylikni bartaraf etish uchun harakat qilish qobiliyati; o‘zini va o‘z xatti-harakatlarini ijobiy ravishda mustahkamlash qobiliyati; yoshiga muvofiq tarzda o‘z xatti-harakatlarining xususiyatlarini tushunish qobiliyati [3].

Adabiyotlar tahlili.

Oilada bolalarning hissiy-emotsional salomatligi muammosi har doim barcha soha olimlarini qiziqtirib kelgan. Har qanday oilada oilaviy tarbiyaning mustahkamligi ko‘p jihatdan oilada shakllantiriladigan munosabatlarga, ularning ma’naviy-axloqiy xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tomonidan ota-onalar farzandlariga qoldiradigan eng katta meros bu oila o‘chog‘idagi hissiy mammunlikni yarata olishdir, deb e’tirof etilgan [6, p.14].

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida oilada bolaning hissiy-emotsional salomatligini shakllantirish mavzusiga to‘xtalib o‘tishgan. Xususan, buyuk olim va mutafakkir Abu Ali ibn Sino o‘zining “Hikmat” asarida ota-onaning farzand tarbiyalash oldidagi mas’uliyatini ta’kidlaydi. Abu Ali ibn Sino yosh bolani yaxshi axloqli va aqlan sog‘lom qilib tarbiyalash jarayonini quyidagicha ta’riflagan: “ta’limda birinchi navbatda bolani to‘g‘ri yo‘naltirish muhimdir. Hamma narsa, hatto eng oddiy oilaviy munosabatlar ham bolaga ta’sir qiladi” [6, p.18].

Shuningdek, buyuk faylasuf Kaykovus “Qobusnama” kitobida ota-onalarga bolalarni tarbiyalashda juda ehtiyyot bo‘lishni maslahat bergen [6, 21-bet]. Sharq ilmida bola tarbiyasida eng muhim narsa ota-onalarning sabr-toqati va xotirjamligi, ota-ona va bola munosabatlarining uyg‘unlidigidir.

Rossiyada bolalar psixologiyasi muammosi juda keng o‘rganilgan. Rus psixologlari Yu.I.Alyoshina, V. N. Drujinin, S. V. Kovalyov, A. S. Spivakovskaya, E. G. Eydemillerlar [1] oila bevosita yoki bilvosita jamiyatda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni aks ettiradi, garchi u nisbiy mustaqillikka, barqarorlikka ega bo‘lsa ham degan fikrni ilgari surganlar.

A.D.Koshelyova, V.I.Pereguda, I.Y.Ilina, G.A.Sverdlova, E.P.Arnautova kabi psixologlar bolani dunyoga munosabatining asosi bo‘lgan va oilaviy vaziyatni, kognitiv sohani, hissiy-irodaviy holatni boshdan kechirishning o‘ziga xos xususiyatlariga ta’sir qiladigan bolaning barqaror ijobiy, qulay hissiy holatiga e’tibor qaratgan holda tadqiqotlarida stressli vaziyatlarni boshdan kechirish uslubi, tengdoshlari bilan munosabatni o‘rganganlar [2, 5].

Metod va metodologiya.

Biz oilada bolalarning hissiy-emotsional salomatligini aniqlash uchun empirik tadqiqot o‘tkazdik. Tadqiqotimizning maqsadi mактабгача yoshdagи shaxsning hissiy-emotsional salomatligi xususiyatlarini empirik o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot obyekti sifatida Farg‘ona shahar 7-MTMning 46 nafar 5-6 yoshdagи tarbiyalanuvchilari qatnashdi.

Tadqiqot predmetini maktabgacha yoshdagи bolaning oilaga hissiy munosabati tashkil qildi. Tadqiqotning asosiy gipotezasi maktabgacha yoshdagи bola shaxsining hissiy-emotsional salomatligi xususiyatlari oilaviy munosabatlarga bog‘liq ekanligida, deb ilgari surildi. Tadqiqotda “Oila rasmini chizish” (V. Huels, L. Korman, A. I. Zaxarov) hamda “Metamorfoz” (J. Royer, N.

Semago tomonidan moslashtirilgan) metodikalari o'tkazildi.

"Oila rasmini chizish" metodikasi natijalariga ko'ra, bolalarning oilaga hissiy munosabati baholandi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning 52,5 foizida ota-onalarga nisbatan hissiy munosabat ustunlik qildi. Bu ularning ota-onalari kabi bo'lish, ota-onalari bilan umumiyligi faoliyatni birlashtirishda amalga oshirish istagida namoyon bo'ladi. Bola o'zini oilaning teng huquqli a'zosi sifatida qabul qiladi va undan ajralmaydi, bola tasavvurida ota-onalar o'rtoq sifatida qabul qilinadi.

Natijalar tahlili.

Bolalarning 28,4 foizi ota-onalariga nisbatan hissiy jihatdan beqaror munosabatda ekan. Ushbu an'ana bolalarning ota-onalariga nisbatan noaniq munosabatida aks etadi, bola o'zini oilaning to'liq a'zosi sifatida qabul qiladi, ammo ota-onalarning xatti-harakatlari qarab, u tajovuzkorlikni namoyon qilishi, asabiylashishi, affektiv xulq-atvorni ko'rsatishi mumkin. Ba'zida bolada muayyan vaziyatlarga muvofiq tarzda oilaviy qoidalar va me'yordarga qarshi harakat qilish istagi paydo bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning 19,1 foizi o'z oilalariga nisbatan hissiy tanglikni namoyon etdi. Bu bolaning oilasidan ajralish istagida ifodalanganadi, bola begona odam bilan yaqin munosabatda bo'lish zarurligini qondirishni izlaydi. Bola ota-onasi tomonidan himoyalanganligini his qilmaydi. Natijada, bolada tajovuzkor va mudofaa reaksiyalari namoyon bo'lib, ota-onalarning talablariga zid harakat qilish istagi paydo bo'ladi.

"Metamorfoz" metodikasi proyekti usul sifatida hissiy xatti-harakatlarning turlarini tashxislashga imkon beradi. Unga ko'ra hissiy harakatlar shartli me'yoriy, namoyish etuvchi yoki himoya turlaridan iborat. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, bolalarda ko'pincha hissiy xatti-harakatlarning shartli me'yoriy turi namoyon bo'ladi [4].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning 49,3 foizi ota-onalar va atrof-muhit talablariga muvofiq adekvat xulq-atvorda ifodalangan eng aniq shartli me'yoriy xatti-harakatlar turiga ega. Bola ota-onasining xohish-istiklarini tahlil qiladi, u itoatkor, uni ishontirish oson, lekin ayni paytda u o'z xohish va istaklariga muvofiq o'zini tutishi mumkin. Bunday bolalar ota-onalari bilan do'stona munosabatlarga ega.

Bolalarning 39,5 foizida namoyishkorona xulq-atvor turi ustunlik qiladi. Bunday bolalar o'zlarini hurmat qilishadi, ular ota-onalaridan ko'proq e'tibor olishga harakat qilishadi. Ular ota-onalarining fikrini kamdan-kam holda tinglaydilar, hamma narsada ota-onalaridan ustun bo'lishga intiladilar.

Bolalarning 11,2 foizi himoya turiga ega: bu xatti-harakatlar ota-onalariga ishonchhsizlik, yolg'izlik hissi bilan namoyon bo'ladi. Ota-onsa va bola o'rtasida ishonchli munosabatlar mavjud emas. Bola oilaning qo'llab-quvvatlashini his qilmaydi.

Xulosa.

O'tkazilgan empirik tadqiqotlardan biz quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, oila har bir bola uchun muhim hissiy maskan hisoblanadi. Bolaga nisbatan oilaning vazifalari xilma-xil: tarbiyaviy, hissiy, ijtimoiy nazorat, ma'naviy, bo'sh vaqtini tashkillash, maishiy va iqtisodiy. Bola va ota-onsa munosabatlari oilaning eng muhim tizimi bo'lib, ular o'rtasidagi uzuksiz davom etadigan uzoq muddatli va yoshga bog'liq munosabatlar sifatida shakllanadi.

Ikkinchidan, ota-onalarning bolaga bo'lgan hissiy munosabati bu ota-onalarning tarbiyalash vakolatida ega bo'lgan holda bolani hissiy qabul qilish, uning shaxsiga qiziqish va unga g'amxo'rlik qilish kabilarda namoyon bo'ladigan qadriyat yo'nalishi, munosabatlarning integral tavsifidir. Ota-onalarning bolaga hissiy munosabati optimallik sifatida qabul qilinadi.

Uchinchidan, maktabgacha yosh kognitiv va amaliy faoliyat subyekti sifatida shakllanishning dastlabki bosqichidir. Hayotning bu davri bolada psixika va axloqiy xatti-harakatlarning ijtimoiy qirralarini shakllantirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy sohasi, uning oila va yaqinlariga hissiy munosabati shakllanadi.

To'rtinchidan, hissiy salomatlik bolaning voqelikka bo'lgan munosabatining asosi hisoblanadi va hayotiy tajriba xususiyatlariga, kognitiv sohaga, hissiy-irodaviy sohani hamda stressli

vaziyatlarni boshdan kechirish uslubiga, tengdoshlar bilan munosabatlariga ta'sir qiladigan bolaning barqaror-ijobiy, qulay-hissiy holati sifatida tavsiflanadi. Hissiy salomatlik bolaning hissiy xulq-atvori, oilaga hissiy munosabati va ota-onasining uni hissiy jihatdan qabul qilinishi asosida shakllanadi.

Beshinchidan, bolaning oilasiga nisbatan hissiy munosabati bu uning birligidagi faoliyat va muloqot jarayonida o‘z munosabatlari, yo‘nalishlari, umidlari tizimiga tayanib, ota-onalarini qanday idrok qilishi va baholashi tizimidir. Bola ota-onasining munosabatlarini idrok etishi barobarida muayyan his-tuyg‘ularni ifodalashiga olib keladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Эйдемиллер Э.Г., Добряков И.В., Никольская И.М. Семейная диагностика и семейная психотерапия. - Санкт-Петербург: Речь, 2003.
2. Эмоциональное развитие дошкольников: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений / А.Д. Кошелева, В.И. Перегуда, О.А. Шаграева; под ред. О.А. Шаграевой, С.А. Козловой. - М.: Академия, 2003. - 176 с.
3. Родители и дети: психология взаимоотношений / Под ред. Е.А.Савиной и Е.О.Смирновой. - М.: Когито-Центр, 2003. - 230с
4. Семаго Н.Я. Метаморфозы. Диагностика эмоциональной сферы ребенка //Вестник практической психологии образования. – 2004. - №1
5. Шаграева О.А., Кошелева А.Д., Лобза О.В. и др. Ребенок в семье: учебное пособие. - М.: МГПУ, 2007. - 386 с.
6. Shoumarov G. B., Xaydarov I. O. va boshqalar. Oila psixologiyasi. T: Sharq. 2008. 296 b.
7. Zakirova M. S. The role of Uzbek and Russian fairy tales in the formation of a child’s personal qualities //Problems of psychological well-being– 2021. P. 325
8. Yuldasheva M.B. Socio-psychological aspects of the manifestation of child loneliness. International online scientific-practical conference “Topical issues of preschool and primary education: problems, solutions and prospects for development”. June 11, 2020. Ferghana. P. 333-336.

IJTIMOIY INFRATUZILMA OB’EKTLARINING OILADA SOG’LOM MA’NAVIY MUHITNI BARQARORLASHTIRISHDAGI ROLI

**Davronova Dildora Saidovna,
O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)**

Mazkur taqolada ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishdagi roli, oilada ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan turli hil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rni va ahamiyatini oshirish, albatta, yosqlarimizning қalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurashmoqlik bugungi ijtimoiy ҳayotimizning asosiga aylanayotganligi atroflicha ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy infratuzilma, ma'naviyat, oila, xotin-qizlar, ta'lim, tarbiya, қadriyat, urf-odat, madaniyat, sog'lom tafakkur, ijtimoiy burch, psixologik iqlim, milliy mentalitet, g'oya, masfkura, jismongan sog'lom, ma'naviy etuk.

РОЛЬ ОБЪЕКТОВ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ПОДДЕРЖАНИИ ЗДОРОВОЙ ДУХОВНОЙ СРЕДЫ В СЕМЬЕ

Давронова Дилдора Сайдовна,

Доцент кафедры «Педагогики и психологии» Узбекского государственного университета
мировых языков, Доктор философии по педагогическим наукам (доктор философии)

В данной статье рассматривается роль объектов социальной инфраструктуры в стабилизации здоровой духовной среды в семье, повсеместное определение духовной среды в семье, повышение роли и значения семьи в противодействии различным вредным воздействиям, которые совершенно чужды нашему национальному менталитету. Конечно, борьба за сердце и разум нашей молодежи, здоровое мышление становится сегодня основой нашей общественной жизни.

Ключевые слова: социальная инфраструктура, духовность, семья, женщины, образование, воспитание, ценности, традиции, культура, здоровое мышление, социальный долг, психологический климат, национальный менталитет, идея, идеология, физически здоровый, духовно зрелый.

THE ROLE OF SOCIAL INFRASTRUCTURE OBJECTS IN MAINTAINING A HEALTHY SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY

Davronova Dildora Saidovna,

Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World
Languages. Doctor of Philosophy in Educational Sciences (Doctor of Philosophy)

This article examines the role of social infrastructure in stabilizing a healthy spiritual environment in the family, the widespread definition of the spiritual environment in the family, increasing the role and importance of the family in counteracting various harmful influences that are completely alien to our national mentality. Of course, the fight for the hearts and minds of our youth, healthy thinking is becoming the basis of our social life today.

Key words: social infrastructure, spirituality, family, women, education, upbringing, values, traditions, culture, healthy thinking, social duty, psychological climate, national mentality, idea, ideology, physically healthy, spiritually mature.

Kirish. Bugungi kunda oilada milliy tarbiyani takomillashtirish, yosqlarni oilaviy xayotga tayyorlash, yosh oilalarni mustaxkam bo'lib shakllanishida moddiy va ma'naviy ko'maklashish, oilaviy ajrimlarni oldini olishga oid talaygina fikrlar, ilmiy yondashuvlar o'rtaga tasqlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi 608-I-son "Oila kodeksi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi,, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 fevraldag'i PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan isqlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil

31 dekabrdagi 1059-sonli qarori “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish shora-tadbirlar to’g’risida”gi, Qarori va tegisqli қонуниy huquqiy xujjalarda oilaning ma’naviy negizlarini yanada rivojlantirish, uning azaliy қadriyatlarini asrab – avaylash va mustaxkamlash zamirida jamiyatning ma’naviy takomligiga erishish masalalariga alohida urg’u berib o’tilgan.

Xaqiqatdan ham oilada ma’naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaқo yot bo’lgan turli hil zararli ta’sirlarga qarshi turishda oilaning o’rni va ahamiyatini oshirish, albatta, yosqlarimizning қalbi va ongi, sog’lom tafakkuri uchun kurashmoqlig bugungi ijtimoiy xayotimizning asosiga aylanmoqda.

Adabiyotlar taqlili va metodologiya. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 mart 2022 yildagi PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo’llab-quvvatlashga doir isqlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonida oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, borasida amalga oshirilayotgan ustuvor yo’nalislardan sifatida quyidagilar e’tirof etib o’tilgan: [9]

- mamlakatimizda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan қonunchilik normativ
- huquqiy bazani yaratish va uni takomillashtirish, oilada қonun ustuvorligini ta’minalash;

- oilalarni shu jumladan yosh oilalarni ma’naviy barqarorligini ta’minalash;

- mahalla instituti, fuqarolar o’zini-o’zi boshqarish organlarining oilalarni qo’llab-quvvatlash hamda shakillantirishdagi ta’sirini kuchaytirish:

- jamiyatdagi barcha institutlarning (ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarining) diqқat e’tiborini oilalar mustaxkamligini ta’minalashga yo’naltirish;

- “Sog’lom ona - sog’lom farzand” tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, oilada sog’lom turmush tarzini shakllantirish;

- jismonan sog’lom, ma’naviy etuk va ҳар tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila instituti, fuқoralik jamiyatni institutlarining ta’lim va tarbiya muassasalari bilan o’zaro hamjihatligi mexanizmini mustaxkamlash, ularning yaqin va samarali, uзвиy va uzluksiz amaliy hamkorligini ta’minalash.

Muhokama. Yuқorida қayd etib o’tilgan vazifalar ijrosini ta’minalash mazmuni quyidagilarni o’z ichiga қamrab oladi:

- milliy mentalitet, an’analar, urf – odatlar, xalqaro tajribani inobatga olgan holda oila қonunchiligini takomillashtirish;

- yosqlarni oilaviy ҳayotga tayyorlash, yosh oilalarni mustaxkam bo’lib shakllanishida moddiy va ma’naviy ko’maklashish;

- umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ’ib etish orqali oilada ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, oilalardagi sog’lom va ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash;

- oilada ma’naviy va jismonan sog’lom avlodni tug’ilishi hamda tarbiyalanishida ko’maklashish;

- oilada imkoniyati cheklangan, ijtimoiy huquqiy xatar guruh bolalarning bo’lmasligini oldini olish;

- turli noaxloqiy hatti-xarakatlar, illatlarning oilada bo’lmasligini ta’minalash;

- mahalla va “Oqila ayollar” ta’lim muassasalari hamda keng jamoatchilikning oilalarni mustaxkamligini ta’minalashdagi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- oilada farzand tarbiyasida ota-onas mas’uliyatini oshirish;

Shu o’rinda alohida e’tirof etib o’tish joizki, ijtimoiy infratuzilma axolining faravonligini oshirish, kishilar mehnat sharoiti va turmush tarzini yaxshilash bilan bog’liq muhim ijtimoiy vazifalarni hal etar ekan, jamiyat a’zolarining ehtiyojlarini қondirilishini ta’minalaydi, mamlakat yuksak iqtisodiy rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. [10]

Oilada ma’naviy barqarorlikni ta’minalashga ta’sir o’tkazuvchi ijtimoiy infratuzilma ob’ektlariga: maktabgacha ta’lim tashkilotlari umumta’lim, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, sog’liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar, Oliy ta’lim muassasalari, sportni rivojlantirish ob’ektlari kiradi. Mazkur ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari integrativ hamkorligida oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ’ib etish orqali oilalardagi sog’lom va ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Ba’zan shunday savol tug’iladi: yosqlar muammolari bilan butun bir tizim shug’ullanmoqda, lekin ba’zan ularning yovuz niyatilar tuzog’iga tushib қolayotganligiga sabab nima? Sabab bitta: ayrim yosqlarimiz ongida ma’naviy bo’sqliqning mavjudligi, yosh oilalarning ma’naviy barqarorligini ta’minalashda keksa avlod, namunali oilalar tajribasidan unumli foydalanish, vorisiylikni ta’minalash

masalalari e'tibordan chetda қолayotgani, yosqlarning qiziquvchanligi va beqarorligi.

“Yovuz niyatli”lar esa yosqlarning ushbu xislati hamda ojizligidan o’z manfaatlari yo’lida foydalanishga urinishmoqda. Biroq biz bu o’rinda yosqlar va barchaga bitta «qurol» bermog’imiz zarur, bu g’oyaviy etuklikdir. G’oyaviy etuklik ma’naviy boylikning debochasi desak mubolag’a bo’lmaydi. Bunga etishmoq uchun avvalo:

-oila tarbiyasida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlarini keng safarbar etish (seminar, videokonferenziya, badiiy – publiqistik dasturlar namoyish etish, ko’chma teatrlar tashkil etish, ko’rgazmali targ’ibotlar, veb-resurslar, media – oromgoqlar, tok-shouular, ma’naviy –ma’rifiy, ilmiy ommabop, badiiy va hujjatli fil’mlardan foydalanish va b.q.);

-notinch, noto’liq, ijtimoiy-huquqiy hatar guruh oilalarda ta’lim va tarbiyaviy isqlar samaradorligini oshirish;

-oila a’zolarini ommaviy jismoniy tarbiya isqlariga keng jalb etish orqali ularni jismonan kamolga etkazish;

-oilada bolalarning bo’sh vaqtlarini unumli tashkil etish maqsadida qiziqisqlari bo’yicha maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, markazlar, klublar, to’garaklar, oromgoqlar va boshqalar orqali ko’rik tanlovlар, media festevallar, media – lagerlar, ijtimoiy teleradio roliklar, plakatlar va boshqalardan keng foydalanish;

-oila, onalik va bolalik masalalari bo’yicha ilmiy tadqiqot isqlarini olib borish, ushbu masalaning ilmiy - metodik bazasini yaratish va takomillashtirish;

-yosh oilalarning mustaxkamligini ta’minalashda keksa avlod, namunali oilalar tajribasidan unumli foydalanish, vorisiylikni ta’minalash;

-oilada tolerantlik tafakkurini shakllantirish va b.q.

Alohida e’tirof etib o’tish joizki, ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarining oilada sog’lom ma’naviy muhitni barqarorlashtirishdagi rolini kuchaytirishda oila a’zolari o’rtasida sog’lom tafakkur, o’z-o’ziga ishonch hissini uyg’otish kerak. O’ziga ishongan kishida yaxshilikka intilish va yomonlikni rad etish, unga qarshi kurashish tuyg’usi paydo bo’ladi. Ayna shu tuyg’u oilada sog’lom tafakkurni shakllantirishga asqotadi. Insonlarga, davlatga, jamiyatga va kelajagiga bo’lgan ulkan mehrni uyg’otadi. Shu ma’noda mafkuraviy g’animlar bilan g’oyaviy kurashga kirishmoq ishtiyoqi shakllanadi. Ikkinci sabab: globallashuv davrida axborot xurujlarining yashin tezligidek kirib kelishidir. Tan olish kerak, bugun jaxon yagona axborot maydoniga aylanib ulgurdi. Istaymizmi-yo’qmi biz bu jarayonning faol ishtirokchilari sifatida xar bir voqeа-hodisani kuzatib borish imkoniga egamiz. Afsuski, axborot xar doim ham ezgulikka, bunyodkor g’oyalarga xizmat qilayotgani yo’q. Ba’zan ana shu vosita muayyan vayronkor siyosiy kucqlar, jinoyatchilar, terrorchilar qo’lidagi qurolga aylanib, ayniqsa, yosqlar ongi va қalbini nishonga olmoqdaki, undan butunlay himoyalanish imkoniyatlari tobora kamayib bormokda.

Shuning uchun ham ko’plab mamlakatlar o’z manfaatlari zid tarzdagi shu kabi axborotlarga nisbatan axolida immunitet hosil qilish maqsadida OAVning ta’sir kuchini to’g’ri o’zanga solish yo’lini tanlamoqdalar.

Shu nuqtai nazardan yondashganda yosqlar tarbiyasida jamiyatning xar bir a’zosi (barcha ijtimoiy ob’ektlar) o’z mas’uliyatini oshirishga zaruriyat ham bor. Chunki, yosqlarning kalbi, ongi, tafakkuri sog’lom g’oyalar asosida shakllanishi uchun xar bir shaxs mas’uldir. Yosqlarning bo’sh vaqtlarini қanday o’tkazayotganligi xar bir ota-onा, mahalla ahli, o’qituvchi-pedagogning e’tiborida bo’lishi zarurligini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Buning uchun, ayniqsa mahalla (qisqloq) fuqarolarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya bo’yicha maslahatchilari imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Aksariyat yosqlarning tarbiyasi oiladan, қolaversa, u tug’ilib o’sgan mahalladan bosqlanadi. Shunday ekan, mazkur masalalarga nihoyatda jiddiy va e’tibor bilan yondashishni bugungi adolatli siyosat barchadan talab qilayotganligi tabiiy.

Alohida қayd etib lozimki, mahalla tizimida kreativ yondashuv asosida oilada sog’lom ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, xotin-qizlarni innovatsion potentsiali, liderlik xususiyatlarini shakllantirish kabi muhim masalalarga nazariy va amaliy jihatdan echim topish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalla va oila ma’naviy қадriyatlarni shakllantirishda, oilada sog’lom ma’naviy muhitni barqarorlashtirishda, milliy urf-odat va an’analarni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma’nan etuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda muhim o’rin egallab keladi. Shu

sababli ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash mahalla, oila, davlat va jamiyatning muhim muchtaraq vazifalaridandir. [6]

Xaqiqatdan ham o'zbek xalqi xayotida mahalla tarbiya maskani hisoblanadi. Oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda, jamiyatda yangi ma'naviy makon yaratishda xotin-qizlarning faolligini qo'llab-quvvatlash, farzand tarbiyasi, oila, xotin-qizlar ma'naviyatini yuksaltirishda jamoatchilikka, eng avvalo, yosqlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan obro'-e'tiborli va katta xayotiy tajribaga ega bo'lgan, faol va tashabbuskor ayollarning sa'y-xarakatlarini birlashtirish uchun o'zaro aloқador hamkor tashkilotlar bilan maqsadli tadbirlar tashkil etish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishdagi rolini kuchaytirishda mahalla va guzarlar kesimida oilalar o'rtaida kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish, mushoiralikka ijodkorlikka qiziqkan namunali oilalar bilan "Baxru baytlar" o'tkazish, oilalar orasidagi o'zaro ilmiy, ijodiy, demokratik munosabatdan tarkib topgan psixologik muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar yon atrofimizda sodir bo'layotgan voqealar, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari targ'ibot-tashviqot isqlarini yangi bosqichga ko'tarishni talab etayotgani hech kimga sir emas. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqib oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda davlat va nodavlat tashkilotlar "Ma'rifatshilar", "Faylasuflar", "Tarixchilar" jamiyatlari, "Sog'lom avlod uchun", "Mahalla", "Oltin meros" jamg'armalari, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari va ta'lim tarbiya muassasalari ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot yo'nalishidagi imkon va salohiyatlarini birlashtirish, faoliyatlarini muvofiqlashtirish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati.

- 1.O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi 608-I-son «Oila kodeksi». www// lex. Uz;
2. Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat xayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-5020-son Qarori. www// lex. Uz;
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 mart 2022 yildagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir isqlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. www// lex. Uz;
- 4.Musurmonova O.Farzandlarimga nasihatlar. Toshkent. Yosqlar nashriyot uyi, 2020, -186 bet
- 5.Ismoilova Z.K. Milliy g'oya va ma'naviy – axloqiy tarbiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Moliya, 2007. - 71 b
- 6.Jamoldinova O., Narbaeva T. Yosqlar ma'naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy loyihalarning ahamiyati. Yosqlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: Ziyo, 2012. - B.107-109.
- 7."Mahalla ziёsi" respublika o'quv uslubiy markazi. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya. Ommabop risola. – T.: 2015 y. – 72 b.
- 8.Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni: Fal. fan. nom. ... dis. avtoref. –T.: 2006. –23 b.
- 9.<https://lex.uz/uz/docs/-5899498>
- 10.<https://arxiv.uz/uz/documents>